



ISSN: (E) 2181-1784

SJIF 2023 = 6.131

ASI-Factor = 1.7



TOGETHER WE REACH THE GOAL



ORIENTAL RENAISSANCE:

*Innovative, educational,
natural and social sciences*

www.oriens.uz

Exact sciences

Natural sciences

Engineering sciences

Pedagogical sciences

Social and Human sciences

Philological sciences

Philosophy sciences

Economic sciences

VOLUME 3

No 12

2023





**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

**VOL. 3 / ISSUE 12
ISSN 2181-1784
Impact Factor: 6.131
ASI Factor = 1.7**

**December
2023**

**ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL,
NATURAL AND SOCIAL SCIENCES
SCIENTIFIC JOURNAL**

EDITOR-IN-CHIEF

Dr. KADIROV MUKHAMMADJON

Candidate of philosophical sciences, Associate professor of the department of
“Oriental philosophy and culture” of Tashkent state university of oriental studies

EDITORIAL BOARD

DSc. NODIRAKHON R. NISHONOVA

Doctor of Philosophy,
Head of the Department “Philosophy and
National idea” of Tashkent State Technical
University

PhD. LAZIZ A. TURAEV

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical
Sciences, Head of the Department for the
organization of research activities of students of
TSUOS

**Dr. KHOLMUMINOV JAFAR
MUHAMMADIEVICH**

Doctor of Philosophical Sciences (DSc)
Professor of the department of "Source Studies
and Hermeneutics of Sufism" of Tashkent State
University of Oriental Studies. Professor at the
Antique World International Academy of
Sciences

PhD. FARHOD L. USMONOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical
Sciences, Senior lecturer of the Department of
Social Humanities of Tashkent State University of
Economics

Dr. AZAMAT B. KHAYRIDDINOV

Candidate of Economic Sciences
Associate professor of Karshi Institute of
Engineering and Economics

Prof. Dr. ULFATKHON MUHIBOVA

Doctor of Philological Sciences
Head of the department of South and Southeast
Asian Languages of Tashkent State University of
Oriental Studies

Prof. Dr. SULTON F. AMIROV

Doctor of technical sciences
Head of the department of Electricity Supply of
Tashkent State University of Transport

Prof. Dr. TULKIN M. TOGAEV

Doctor of Philological Sciences
Head of the Department of Uzbek Linguistics of
Tashkent State University of Uzbek Language and
Literature named after Alisher Navoi

PhD. AZIZA A. SHAYUSUPOVA

Candidate of Pedagogical Sciences Associate
professor of the department of Pedagogy and
Psychology of Tashkent State University of
Oriental Studies

Dr. IMAM K. WAHYUDI

Doctor of Philosophy (PhD)
in Philological Sciences
Head of Office of International Affairs and
Faculty Member, Faculty of Teacher Training and
Education of Universitas Islam Malang, Indonesia

Dr. AZIZ KH. KHUDOYBERDIEV

Candidate of Historical Sciences, Associate professor of the department of Eastern countries and Anthropology of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. SAYYORA N. KHAMRAEVA

Doctor of Philosophy (PhD) in economics
Head of the department of Innovative Economics of Karshi Institute of Engineering and Economics

Dr. ALISHER N. NAZAROV

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Senior Lecturer of the Department of Oriental Politics and International Relations, Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. ERKIN A. RAKHMATOV

Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Head of the Department of Oil and Gas Processing Technology, Karshi Engineering and Economics Institute

Dr. PHOOL BADAN

Doctor of Philosophy in Political Sciences (PhD), Professor of the School of International Studies, Jawaharlal Nehru University

Dr. SIROJIDDIN S. NURMATOV

Candidate of Philological Sciences
Associate professor of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. METIN ORBAY

Doctor of physics and mathematical science (DSc), Professor of Faculty of Education of Amasya University

Prof. PhD. SAO FEY

Professor of Hangzhou Normal University, Linguist.

Prof. Dr ASIF MAHBUB KARIM

Doctor of Philosophy in Business administration (PhD), Dean, professor Binary Graduate School, Binary University of Management & Entrepreneurship

Prof. YALCHIN KAYALI

Ankara University, Faculty of Languages and History-Geography, Department of Eastern Languages and Literatures, Sub-Department of Indology, Faculty Member.

Dr. NIGORA Z. SAYDALIEVA

Candidate of Philosophical Sciences
Senior Lecturer of the department of Oriental Philosophy and Culture of Tashkent State University of Oriental Studies

Dr. K.K. KHAKBERDIEV

Doctor of Philosophy (PhD) In Economics
Director of the Center for Scientific analysis of the study of the development of Eastern Countries at the Tashkent State University of Oriental Studies

PhD. CHJAN KONG

School of Humanities and Communication, Zhejiang University of Finance and Economics

Dr. NAUMENKO A. OLEG

Candidate of Philosophical Sciences Associate Professor of the Department of Social Sciences and Technologies, National Research Technological University MISIS, Moscow, Russia

XVIII-XIX ASRLAR BUXORO AMIRLIGI ME'MORLIGIDA AMALIY SAN'ATNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Shukurova Lobar Sherbayevna,

Farg'ona davlat universiteti

“Tasviriy san’at” kafedrasining o‘qituvchisi,

San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: lobar.shukurova.87@mail.ru

ANNOTATSIYA

Buxoro – Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri, Buyuk Ipak yo‘lidagi eng yirik va mashhur markazlardandir. Shahar minglab yillar bilan o‘lchanadigan o‘zining boy va ulkan barpo etilish tarixi, madaniy-ma’rifiy va ma’naviy-diniy qadriyatlarining rivojiga qo‘shgan hissasi bilan butun jahonga dong‘i ketgan. Bu shaharning har bir go‘shasida – boy tarixga ega minoralari, osori-atiqalari, muqaddas qadamjolari va obidalarida olis o‘tmishning aks-sadosi, qoldirgan izi bor. Islom madaniyati va san’atining ajralmas qismlari – xattotlik, miniatyura, kulollik, zargarlik, zardo‘zlik, me’morlik, gilamdo‘zlik, misgarlik, yog‘och va ganch o‘ymakorligi sohalarida ham buxorolik ustalar va hunarmandlar hamisha peshqadam bo‘lganlar. Ular haqida ko‘plab asarlar, adabiyotlar va manbalarda ta’rifi tavsiflar bitilgan. Ammo ota-bobolarimiz aql zakovati bilan bunyod etilgan ushbu bebaho yodgorliklarda ko‘llanilgan badiiy-amaliy bezak san’ati hamda oddiy turmushda foydalanib kelingan qo‘li gul, mohir xalq usta-hunarmandlari tomonidan yaratilgan chinakam amaliy san’at asarlari haqida alohida tadqiqot yaratilmagan. Ushbu maqolada dunyo tamadduniga beshik bo‘lgan shaharlardan biri – Buxoroi Sharifning XVIII-XIX asrlardagi me’morchiligidagi o‘ziga xos ayrim jihatlar yoritilgan. San’atshunos va tarixshunos ba’zi olimlarning ushbu davrlarda xalq amaliy san’atning rivojlanishi haqidagi ilmiy qarashlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Buxoro, xonlik, madrasa, masjid, amirlik, hunarmand, me’morchilik, amaliy bezak, an’ana, obida, naqqoshlik, san’at, naqsh, gumbaz, uslub, peshtoq.*

ABSTRACT

Bukhara is one of the oldest cities of Central Asia. It is one of the largest and most famous centers on the Great Silk Road. The city is famous all over the world for its rich and huge development history, which is measured in thousands of years, and for its contribution to the development of cultural, educational, spiritual and religious values. In every corner of this city, there are echoes and traces of the distant past in its towers, relics, holy places and monuments with a rich history.

Bukhara masters and craftsmen have always been leaders in the fields of calligraphy, miniatures, pottery, jewelry, goldsmithing, architecture, carpet making, coppersmithing, wood and ganch carving, which are integral parts of Islamic culture and art. . Many works, literature and sources describe them. However, no special research has been done on the artistic and practical decorative art used in these priceless monuments created by the ingenuity of our forefathers, as well as the handmade flowers used in everyday life, and the truly practical works of art created by skilled folk craftsmen. This article highlights some unique aspects of the architecture of Bukharai Sharif, one of the cradles of world civilization, in the 18th-19th centuries. The scientific views of some art historians and historians on the development of folk art in these periods are presented.

Key words: Bukhara, khanate, madrasa, mosque, emirate, craftsman, architecture, practical decoration, tradition, monument, painting, art, pattern, dome, style, facade.

KIRISH

Bugungi kunda amaliy san'atining ijtimoiy-madaniy ahamiyati, rivojlanish jarayonlarini o'rganish va uni saqlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo'lgan badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lib, dunyo madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan xalq amaliy san'ati har bir xalqning turmush tarzi va qadriyatlari rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. San'at tarixida amaliy san'atning paydo bo'lishi – sivilizatsiya sari tashlangan eng muhim tarixiy qadam hisoblanadi. Shu bois, amaliy san'atni bugungi kun nuqtai nazaridan tadqiq etilishi dunyo mamlakatlarida milliy o'zlikni saqlab qolish, jamiyatning ma'naviy madaniyatini yuksaltirish hamda uning turistik jozibadorligini yanada oshirishni taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

O'zbekiston xalqlari tarixiy va boy madaniyatga ega bo'lib, XVIII-XIX asr O'zbekiston san'atida tasviriy san'at bilan hamohang xalq amaliy san'ati ham o'zgacha sharqona uslubda namoyon bo'lgan. G'arbiy Yevropa va Rossiya tasviriy san'atidagi o'zgarish hamda uslublar asnosida milliy o'zbekona yo'nalish paydo bo'lgan bo'lsa, xalq amaliy san'ati, milliy hunarmandchilikda esa milliy an'analar saqlangan holda rivojlanish davom etdi. Ana shunday san'at asarlari respublikamizning davlat va jamoat muzeylarida, arxivlarida, kutubxonalarida, aholi qo'lida hamda boshqa jamlash joylarida saqlanmoqda.

Ushbu davrlarga oid ko‘plab me‘moriy obidalar davlat muhofazasiga olingan va lozim darajada qo‘riqlanib, ta‘mirlash-restravratsiya ishlari olib borilishi natijasida fuqarolarimiz va chet ellik sayyohlar tashrifi uchun diqqatga sazovor joylarga aylandi.

Shu bilan birga, xalqimiz, millatimiz faxriga aylanishi mumkin bo‘lgan ba‘zi me‘moriy obidalar Sho‘rolar xukumatining ateistik mafkurasini singdirish siyosati va o‘sha davr shaharsozligining “yangilanish” tamoyillariga mos kelmaganligi uchun buzib tashlangan¹. Xususan, “Islom dini quvvati” deya e‘tirof etilgan Buxoro shahrining o‘zida mustabid SHO‘rolar davrida XVIII asr davomida barpo etilgan Xoja Davlat, Xalifa Xusayn va To‘pchiboshi madrasalari butkul buzilgan va hozirgi avlod vakillari ular haqida qariyb xech qanday ma‘lumotga ega emaslar. Bu kabi misollarni nafaqat Buxoro shahridan, balki yurtimizning boshqa xududlaridan ham ko‘plab keltirish mumkin.

Ammo, o‘sha suronli davrlardan ham saqlanib qolgan ba‘zi me‘moriy obidalarimiz turistik yo‘nalishlardan chetda joylashganligi va boshqa obyektiv hamda subyektiv sabablarga ko‘ra tashlandiq holatda bo‘lib, e‘tibordan chetda qolmoqda. Achinarlisi, obidalaridagi mavjud takrorlanmas va xalq amaliy bezagi san‘ati namunalari zaruriy ta‘mirlash-restavratsiya ishlarisiz, ochiqda ob-havo va yog‘ingarchilikning zararli ta‘siri ostida yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Natijada, ko‘pchilik namunalari, ayniqsa naqqoshlik san‘atiga tegishli bo‘lgan bezaklar kelajak avlodlarimiz uchun faxr-iftixor bo‘lish o‘rniga, vaqt o‘tishi bilan yo‘qlikka yuz tutmoqda².

Sobiq ittifoq davrida O‘zbekistonning boy madaniy tarixini o‘zida aks ettirgan, me‘mor usta ajdodlarimiz tomonidan obidalarda yaratilgan bir necha minglab noyob xalq amaliy san‘ati bezaklari respublikamizdan chetga olib chiqib ketilgan bo‘lib, sohadagi qonunchilik me‘yorlarining lozim darajada ishlamaganligi sababli ushbu namunalari jahonning nufuzli muzey fondlarida dunyo madaniy yodgorliklari qatorida saqlanmoqda.

Xususan, Temuriylar davridagi buxorolik davlat arbobi Bayonqulixon maqbarasining peshtoq qismi butunligicha barcha koshinlari bilan Britaniya muzeyidan joy olgan.

Tarixiy obidalarga boy shaharlar qatorida o‘zining me‘moriy obidalari bilan dunyo ahli diqqatini o‘ziga tortib kelayotgan Buxoro ham bundan mustasno emas. Buxoro to‘g‘risida ko‘plab shaxslar turlicha qarashlarni ilgari suradilar.

Jumladan, mashhur san‘atshunos va sharqshunos L.I.Rempelning qayd etishicha XVIII asr o‘rtalarida mamlakatning umumiy vayronagarchiliklari va O‘rta Osiyo shaharlarini madaniy hayotining chuqur inqirozi me‘morlarning faol qurilish amaliyotini to‘xtatib qo‘ydi. Feodal jamiyatning odatiy turmush tarzi eski mahalliy

zodagonlar va harbiy qabilalardagi o‘zbek aristokratiyasini qamrab olgan doimiy urushlar va adovatlar tufayli izdan chiqdi. Mamlakat iqtisodiyoti vayron bo‘lgan edi, bu keng ommaning turmush tarziga va xalq ustalarining ijodiga og‘ir ta’sir qilardi. Qurilish san’ati keng qo‘llanilmasligi tufayli ahamiyatsiz ob’ektlarga e’tibor qaratdi yoki qariyb to‘xtab qoldi³.

X.Mo‘minovning kitobida esa taniqli Buxoro ma’rifatparvari Ahmad Donishning “Mang‘it amirlari hamma narsani egalladilar, hamma narsani o‘z hohishlari yo‘lida yo‘qotdilar” – degan so‘zlarini misol keltirib, “Buxoroda XVIII va XIX asrning birinchi yarmida madaniy hayot qoloqligi va konservativligi bilan harakterlanadi”, - deya ta’kidlagan¹.

Ammo, o‘sha davrlar tarixi va me’morchiligini sinchiklab o‘rganilsa, yuqoridagi ustozlar asosan olamshumul qurilishlar va bunyodkorliklar amalga oshirilmagani haqida yozganligiga amin bo‘lamiz.

Chunki, sharqshunos va tarixshunos olim Jumanazar Abdusattor o‘zining “Buxoro ta’lim tizimi tarixi” asarida Amir Shohmurod mang‘itlar sulolasining mashhur vakillaridan biri ekanligini ta’kidlab, uning fidoyiligi va jonbozligi tufayli Samarqand va Buxoro shaharlariga qaytadan fayz kirganligini e’tirof etadi. Shohmurod ayniqsa ilm fanga jiddiy e’tibor qaratib, xaroba holiga tushib qolgan Shayboniyxon va Xoja Ahror Valiy madrasalarini qayta tiklaydi. Bundan tashqari, taxtga o‘tirishi bilan aholi tinkasini quritadigan turli soliqlarni bekor qilgan va asta-sekin ishlab chiqarish izga tushib, savdo-sotiq rivojlangan. Madrasalarda o‘qitish ishlari jonlanib, Buxoro ilm-ma’rifat o‘choqlaridan biriga aylana borgan xamda sharif shaharga o‘tmishdagi shukuhi va shon-shavkati qaytganday bo‘lgan². Xususan, uning davrida Ernazar Elchi, Xalifa Xudoydod, Muhammad Amin to‘pchiboshi, Nazarak va Rahmonquli kabi madrasalar qurildi. Ularning ayrimlari bugungi kunda ham Buxoroning ajoyib tarixiy obidalari va XVIII asr san’ati yodgorliklari sifatida qadrlanadi.

NATIJALAR

Buxoroda hozirda asl qiyofasini o‘zgartirmagan holda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, IX-XX asrlar davomida qurilgan ko‘plab tarixiy va arxitektura yodgorliklari saqlanayapti. Ushbu me’moriy yodgorliklarimizga bo‘lgan qiziqish butun dunyo ahli va yurtimizga kelayotgan aksar sayyohlar diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda. Ota-bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ushbu san’at durdonalarini asrab avaylash va kelajak avlodlarga bus-butunligicha yetqazish bizning ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘lmog‘i darkordir.

MUHOKAMA

Buxoro amirligi hukmronligi davrida bir qancha xalqimiz, millatimiz faxriga aylangan me'moriy obidalarimizga nisbatan ham talash siyosati sodir etilgan. Buxoro shahrining o'zida SHO'rolar davrida XVIII asr davomida barpo etilgan Xoja Davlat, Xalifa Xusayn va To'pchiboshi madrasalari butkul buzilgan, bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Milliy qadriyatlarimizga, boy tariximizga bo'lgan bunday hurmatsizlik juda ko'plab sodir etilgan⁶.

Sobiq ittifoqi davrida Buxoro amirligining boy madaniy tarixini o'zida aks ettirgan, me'mor usta, qo'li gul hunarmandlarimiz tomonidan yaratilgan minglab noyob xalq amaliy san'ati bezaklari respublikamizdan chetga olib chiqib ketilgan bo'lib, ular hozirda jahonning taniqli muzeylarida saqlanmoqda⁸.

Buxoro amaliy san'ati buyumlari O'zbekiston muzeylarida nisbatan kam saqlangan (O'zbekiston Davlat San'at, O'zbekiston Amaliy San'at, O'zbekiston Davlat Tarix muzeylari) bo'lib, ularning aksariyati "Ark" – Buxoro viloyat o'lkashunoslik muzeyi hamda "Sitorai Mohi-Xossa" xalq amaliy bezak san'ati muzeyi xazina fondida saqlanadi va aksariyat tadqiqotchilar o'zlarining ilmiy ishlarida, maqolalarida bu fondan bevosita foydalanmaganligi kuzatiladi.

XULOSA

Amaliy san'atning boshqa san'at turlaridan farqi shundaki, u san'at asari bo'lishi barobarida kundalik turmushda muayyan maqsadda qo'llaniladi. Ya'ni, amaliy san'at buyumlari ijtimoiy ahamiyatga ega va shu sababli amaliy san'at xalqning turmush tarziga singib, uning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Ayniqsa, amaliy san'atning me'morlik bilan bog'liqligi uning kundalik turmushdagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Mamlakatda siyosiy inqirozlar davrida amaliy san'at buyumlari soddalashib qoladi, tasviriy san'at esa vaqtincha tanazzulga uchraydi. Lekin har qanday vaziyatda ham hunarmandchilik yashayveradi. Uning san'at darajasiga ko'tarilishi yoki oddiy hunar bo'lib qolishi shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga bevosita bog'liqdir. Temuriylar saltanati tanazzuli, Buxoroni shayboniylar va ashtarxoniylar egallashi undan so'ng esa mang'itlar sulolasi hukmronligi jarayonida Buxoro badiiy hunarmandchiligi nisbatan inqirozga yuz tutgan, amaliy san'at turlari kamayib, buyumlarning badiiy qiymati pasaygan. Lekin o'sha paytda ham mahalliy amaldorlar farovon hayot kechirishga intilgan hamda amaliy san'at buyumlarining asosiy haridori bo'lib qolishgan. Ayni omil badiiy hunarmandlikni butunlay inqirozga uchrashdan saqlab qolgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mo'minov X. Buxoro oblasti. – Toshkent: O'zbekiston, 1976. – 135 b.

2. Rahmatullayev Y. O‘zbekiston me‘morchilik obidalari Davlat muxofazasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1969. – 40 b.
3. Ремпель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. – Ташкент: Гослитиздат, 1961. – 606 с.
4. Rahmon Muiniy. Buxoro (Qisqa yo‘lboshlovchi. Birinchi qism). Buxoro: Buxoro nashr, 2005. – 55 b.
5. Buxoro hunarmandchiligi durdonalari: Bezakli albom / To‘plamni nashrga tayyorlovchilar: M.Rahmonova, A.Hamroyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 112 b.
6. Mustabid tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati. Tarix shohidligi va saboqlari (1865-1990). – Toshkent: “Sharq”, 2000. – 432 b.
7. Narshaxiy M. Buxoro tarixi. – Toshkent: Sharq mash’ali, 1993. – 126 b.
8. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л. И. Очерки искусство Средней Азии: древность и средневековье. – М.: Искусство, 1982. – 288 с.
9. Пугаченкова Г.А. Самарканд, Бухара. – Москва: Издательство «Искусство», 1968. – 204 с.
10. Jumanazar Abdusattor. Buxoro ta’lim tizimi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 592 b.
11. Sherbayevna, S. L. (2020). Bukhara Applied Art In Middle Of XVIII-Early XX Century, During The Mangit Dynasty. *The American Journal of Applied sciences*, 2(12), 156-159.
12. Ozodbek, S., Muhammadjon, O. R., & Sevaraxon, S. (2022). MARKAZIY OSIYO XALQLARI TASVIRIY SAN’AT TARIXINING FANDAGI O‘RNI. *Research Focus*, 1(2), 259-263.
13. Sulaymanova, S. (2022). PEDAGOGICAL REQUIREMENTS FOR IMPROVING THE METHOD OF OBSERVING PERSPECTIVES WHEN STUDENTS INDEPENDENTLY COMPLETE TASKS IN THE AREAS OF PAINTING AND PENCIL DRAWING. *Science and Innovation*, 1(8), 1559-1564.
14. Barchinoy, K., Sevarakhon, S., & Mukhammadkodir, Y. (2021). Effective methods of teaching fine arts and drawing at school. *European Scholar Journal*, 2(9), 9-11.
15. Qurbonova, B., & Yuldashev, I. (2022). MOVAROUNNAHRDAGI MADANIY HAYOTDA TASVIRIY SAN’AT TURLARIGA BO‘LGAN E‘TIBOR. *Research Focus*, 1(2), 248-253.
16. Kurbonova, B. M. (2023). AESTHETIC PERCEPTION IS A PRODUCT OF ARTISTIC THINKING. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 3(26), 97-101.

17. Boboyeva, Z. A., & Raxmonjonov, X. A. (2022). O 'QUVCHILARNING TA'LIM JARAYONIDA DIZAYNERLIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1017-1023.
18. Yuldashev, I., & Qurbonova, B. (2022). KITOB GRAFIKASIDA KOMPOZITSIYA HAMDA ADABIYOT ASARLARINI CHUQURROQ O'RGANISHDA ILLYUSTRATSIYANING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1024-1031.
19. A'zamjonov, A., & Hamdamov, K. H. (2022). TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARI MAZMUNINING DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI BILAN BOG'LIQLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 71-77.
20. Yunusaliev, M. (2023). THE VALUE OF WATERCOLOR AND GOUACHE MATERIAL IN THE TECHNIQUE OF WATER-BASED PAINT. *Science and innovation*, 2(C9), 5-10.

BOBUR HAYOTI, IJODI VA UNGA DOIR MINIATYURALAR

I.Yuldashev

FarDU Tasviriy san'at kafedrası katta o'qituvchisi

e-mail: tuychiyevich68@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada ajdodlarimizning ilmiy izlanishlari va badiiy adabiyotning miniatyura san'ati bilan o'zaro bog'liqligi hamda miniatyura san'atida badiiy tasavvurlarni muayyan adabiy personajlar tasvirlashga doir usullardan foydalanish yo'llari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: *kolorit, Zaraut, relief, arxeologiya, Afrosiyob, Moniy, Muzahhib, personaj, xattot, qog'ozsozlik, dekorativ, muraqqa, Muarrix, alkorlar surati, savr daraxti, Kushoniya, muqaddima, nafis.*

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о научных исследованиях о наших предках и взаимосвязи художественной литературы с искусством миниатюры, а также о способах использования художественного воображения в искусстве миниатюры для изображения отдельных литературных персонажей.

Ключевые слова: *колорит, Зараут, рельеф, Археология, Афросяб, Мони, Музахиб, персонаж, каллиграф, изготовление бумаги, декоративный, Муракка, Муаррих, изображение алкорса, дерево савр, Кушания, введение, изящное.*

ABSTRACT

The article talks about scientific research about our ancestors and the relationship of fiction with the art of miniatures, as well as ways of using artistic imagination in the art of miniatures to depict individual literary characters.

Key words: *color, Zaraut, relief, Archeology, Afrosyab, Moni, Muzahib, character, calligrapher, paper making, decorative, Murakka, Muarrih, image of alcora, savr tree, food, introduction, elegant.*

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyotining ulkan namoyondasi, atoqli shoir, olim va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti hamda ijodi asosan ko'pchilik adabiyotshunos olimlar tomonidan alohida o'rganilgan. O'zbekistondagi boburshunoslardan Vohid Zohidov, Hamid Sulaymon, Sabohat Azimjonova, Hamidulla Hasanov, Aziz Qayumov, Saidbek Hasanov kabi tadqiqotchilar bu mavzuda katta ishlar qilgan.

Mirzo Boburning o'zi "Vaqoe'" deb atagan "Boburnoma" jahonga mashhur bo'lgan yirik ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy, jo'g'rofiy, harbiy va etnografiyaga oid

qomusiy asar bo‘lib, unda Farg‘ona, Movarounnahr, Xuroson va shimoliy Hindistonda bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar, tabiat va xalqlar tavsifi qalamga olingan. Bu qimmatli asar fors, rus, ingliz, lotin, nemis, fransuz, urdu, turk, hind va boshqa tillarga tarjima qilingan. Aro‘z nazariyasiga oid Mirzo Bobur risolasini mutaxassislar “Mufassal”, “Muxtasar”, “Risolai aro‘z” yoki “Aro‘z risolasi” deb yuritishadi. Yaqin yillargacha bu asar keng jamoatchilikka noma‘lum edi. Risola professor Hamid Sulaymon 1968-yili Parij milliy kutubxonasidan keltirgan fotokopiya asosida Saidbek Hasan tomonidan 1971-yili Toshkentda nashr qilindi. Bir yildan so‘ng Moskvada I.V.Stebeleva ham bu asar qo‘lyozmasi fotonusxasini e‘lon qildi. [2]

Saidbek Hasan tayyorlagan nashrning matbaa saviyasi puxta bo‘lib, u kirill alifbosida ham berilgan. Mutaxassislar bahosicha, Mirzo Boburning bu risolasi aro‘z nazariyasiga oid eng mukammal va nodir tadqiqotdir. Boburning farzandlari Humoyun va Komronga mo‘ljallab yozgan “Mubayyin” asarida islom dini asoslari she‘riy uslubda bayon qilingan. Bu kitob 1905-yili Toshkentda toshbosmada to‘la nashr qilingan. Undagi ayrim parchalar 1958-yilda nashr etilgan Boburning tanlangan asarlariga kiritilgan. Hoja Ahrorning “Volidiya” nomli asarini Bobur she‘riy tarjima qilgan, shuningdek, u “Xatti Boburiy”, deb ataluvchi maxsus alifboni ham ixtiro qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bobur ilk ijodining qimmatli tomoni shundaki, ifoda tili juda sodda va ravon. Mirzo Bobur tafakkur olami qay darajada shakllanganligi to‘g‘risida professor Hamid Sulaymon quyidagi haqli fikrni bildiradi. “Shubha yo‘qki, u dastlabki ma‘lumotni Andijonda, asosan, o‘z ona tili bo‘lgan o‘zbek tilida oldi. Mirzo Boburning ijtimoiy-falsafiy o‘rganishlari, uning estetik ta‘bi va ilmiy qiziquvchanligi Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Lutfiy va boshqa sharq klassiklarining o‘lmas asarlari ta‘sirida shakllandi”.

Taxt uchun kurashlarda g‘olib chiqqan Muhammad Shayboniyxon Temuriy shahzodalarning ko‘pchiligini qatl etadi. Ularning ba‘zilari Movarounnahrni tark etishga majbur bo‘ladilar. Bularning biri Bobur Mirzo bo‘lgan. Vatanni tark etish voqeasini u shunday tasvirlaydi: “Xotirimga keldikim, tokay bu Farg‘ona viloyatida sargardon bo‘lib turmoq kerak, bir tarafga talab qiloyin deb”. O‘sha paytlardayoq Bobur she‘rlar bitishni mashq qilardi. Uning ona yurtida, O‘shda qurdirgan bir tosh uy va Obburdon qishloqlaridagi toshlarga bitilgan she‘rlari qolib ketdi. Boburning asarlari o‘zbek tilida bo‘lib, ularda Vatan, Yurt, xalqning badiiy siymosi ifodalangan. [3]

Markaziy Osiyo davrini tasvirlovchi ellikka yaqin miniatyuralarda Bobur shaxsi turli san'atkorlar tomonidan har xil talqin qilingan. Bulardan eng muvaffaqiyatli chiqqan miniatyuralar Nomo, Sonvala va Farruhbekka mansubdir.

Bobur Qobulda, taxminan yigirma yil yashab ijod qildi. Bu uning hayotidagi eng barakali yillar bo'ldi. Afg'onistondagi faoliyatini baholab amerikalik olim Harold Lemb, "Bobur Qobulda kichik Samarqand barpo etgan", deydi. Haqiqatan, bu joyda u "Bog'i safo" va "Bog'i kalon" kabi bog'lar yaratgan. Ta'kidlash lozimki, uning o'zi ham "Bog'i Bobur"ga dafn etilgan.

Bobur Mirzo ijodining bu davrda yaratilgan g'azallari hayot, sevgi, bahor va yoshlikni kuylashga bag'ishlangan.

"Bog'i kalon" ("Katta bog'") "Vaqoe"da shunday tasvirlangan: "Bu kentda Bog'i Kalon otlig' Ulug'bek Mirzoning bir mansub bog'i bor edi. Myon uni egalariga baho berib oldim. Bog'din tashqari ulug' chinorlar bor, chinorlarning tubi sabzalik, safoliq manzildir. Bog'ning o'rtasidin bir tegirmon suvi hamisha joriydir. Bu ariq yoqasida chinorlar va daraxtlardur. Burun bu ariq egri-bugri va besiyoc edi. Men buyurdimkim, bu ariqni raja va siyoq bila qildilar. Bisyor yaxshi yer bo'ldi".

Miniatyuralardan ikkitasida Mirzo Boburning bog'bonlarga ariq bo'yini tartibga keltirishni aytayotgan ayni vaqti tasvirlangan.

1506-yilda Bobur Mirzo Sulton Husayin vafoti munosabati bilan Hirotga ta'ziyaga boradi. U yerda yigirma kun bo'lib, o'n sakkiz kun Alisher Navoiy yashagan uyda to'xtab, Hirot shahrining tarixiy yodgorliklari, shoir va olimlari bilan tanishadi hamda ularning hayoti va faoliyati to'g'risida o'zining "Vaqoe" ("Boburnoma") asarida mukammal va qimmatli ma'lumotlar beradi. [4]

Hirotida Sulton Husayn o'g'illari Badiuzzamon va Muzaffar Mirzolar Boburni hurmat va ehtirom bilan kutib oladilar. Bu voqealarni aks ettiruvchi miniatyura asarida Bobur marhum Sulton Mirzoning xotinlari Sulton Poyandabegim va Hadichabegimga o'z ta'ziyasini izhor qilmoqda. Alisher Navoiy shahrida, uning uyida bo'lish Mirzo Boburga buyuk mutafakkir hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Sulton Husayin va Alisher Navoiy davridagi Hirot xotiralari Mirzo Boburda o'chmas taasurot qoldirgan: "Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Huroson, bataxis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishg'a mashg'ulligi bor edi, himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolga etkurgay". Qobulga hukmdor bo'lgan Boburning ulkan davlat tuzish orzusi uni Hindiston tomon yetakladi. Bu harbiy safarga ma'lum darajada mahalliy beklar, hatto, hind rojasi Rana Sangramning yordam so'rab murojaat qilishi ham sabab bo'lgan.

Boburning yozishicha, uning beshinchi yurishi, Dehli Sultonini hokimiyatdan chetlatish bilan tugallangan. Mirzo Bobur Hindistonda uzoq yashamadi. “Vaqoe” (“Boburnoma”) kitobining oxirgi qismi Hindiston tabiati va tarixiga bag‘ishlangan. Mirzo Boburni so‘nggi yillarda bir tomondan, ona Vatan sog‘inchi o‘rtasa, ikkinchi tomondan, ulkan davlat yumushlari butunlay charchatdi. Hindistonda Mirzo Boburni ko‘p narsalar qiziqirdi. Ayniqsa, mahalliy aholi madaniyati va san‘ati diqqatini jalb etgan. XVI asrda musavvir matndan yanada uzoqlashdi, uning uchun dunyo haqidagi o‘z tasavvurlarini ko‘rsatish muhimroq bo‘lib bordi, shuning uchun u kompozitsiyaga muallif nazarida kutmagan personajlarni kiritadi, turmush ikirchikirlariga qiziqish kuchayadi (Sulton Muhammad). Hozirgi kunda ham yuqorida ko‘rsatilgan badiiy adabiyotlardan tashqari zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganilmoqda. [5]

NATIJAR VA MUHOKAMA.

Rasmlarda Bobur hayoti. Buyuk o‘zbek shoiri, olimi va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi, uning jahonga mashhur “Boburnoma”- “Vaqoe” asari mo‘tabar qo‘lyozmalarini ziynatlash uchun XVI-XVII asrlarda shimoliy Hindistonda ko‘plab nafis mo‘jaz rasmlar chizilgan. Mazkur rasmlarni asar mazmuni bilan qiyosiy o‘rganish ham Bobur hayotini, ham rassomlar mahorat sirlarini tushunishgan, tarixiy voqealarning badiiy talqinini bilishga imkon yaratadi. .

Quyida asosan “Boburnoma”ning ikki mo‘tabar nusxasi, ya’ni Britaniya muzeyi va Moskvadagi Davlat sharq xalqlari san‘ati muzeyidagi rasmlardan va boshqa muzeylardagidan esa qisman foydalanildi.

Boburshunoslar an‘anasiga binoan Bobur hayoti va ijodi uch davrga, ya’ni Farg‘ona, Qobul va Hindiston davrlariga bo‘lib o‘rganildi, asosiy e‘tibor “Boburnoma” asarini mazmunan qamrab olgan milodiy 1494 yildan to 1528 yillargacha yuz bergan voqealarga qaratildi.

Farg‘ona. “Boburnoma”ning Farg‘ona davri qismida Zahiriddin Muhammad Bobur hayotining Farg‘ona vodiysi, Movarounnahr, Toshkentda kechgan o‘n bir yili, bu joylardagi shahar, qishloq va kentlar, ularning tabiati, hayvonoti va hokazolar to‘g‘risidagi ko‘plab ma‘lumotlar yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Muallif goh talablarini mamnuniyat bilan qayd etsa, goh mag‘lubiyatlari to‘g‘risida shunchaki xabar berib qolmay, ularni chuqur tahlil qiladi. [6]

Hindistonlik rassomlar Farg‘ona davrining eng muhim voqea-hodisalarini tanlab, ana o‘shalarni o‘z rasmlarida tasvirlashga intilganlar. Jumladan, yosh Bobur Mirzoning o‘n ikki yoshida Farg‘ona taxtiga o‘tirishi, o‘z viloyatini tashqi hujumlardan himoya qilishi, ikki marta Movarounnahr poytaxti Samarqandni zabt qilishi, Andijondagi hokimiyatni qayta tiklashga urinishi va nihoyat, o‘n bir yillik

janglardan soʻng oʻz Vatanini tark yetib ketishi ham hindistonlik rassomlar asarlarida oʻzining rangli tasvirini topgan.

Maʼlumki, otasining bevaqt halokati natijasida Andijon beklari oʻn ikki yashar Bobur Mirzoni Fargʻona viloyatining hokimi qilib koʻtaradilar. Bu voqealar tafsiloti bizga maʼlum besh miniatyurada aks ettirilgan boʻlib, ularda yosh Bobur Mirzoning ovdan qaytishi, Andijon beklarining Namozgohdagi yigʻilishi va yangi podshohning eʼlon qilinishi tasvirlanadi. Bulardan Nomo nomli rassom yaratgan “Boburning Fargʻona taxtiga chiqishi” asari alohida ajralib turadi.

Rasmda shoh saroyi ayvonidagi taxtda yosh Mirzo tasvirlangan. Uning oldida ustodi Xoja Abdulloh Mavlono Qozi Bobur Mirzogʻa yaxshi tilaklar bildirmoqda. Saroyda shaharning nufuzli beklari yigʻilgan boʻlib, katta ziyofatga tayyorgarlik koʻrilmogʻda. Marosimda sozandalar va xonandalar ishtirok etishmogʻda. Yosh Bobur Mirzoning oʻz ustodiga hurmati suratda yaxshi aks ettirilgan. Bu bejiz emas edi. Chunki, keyinchalik Mirzo Boburning dushmanlari Xoja Abdullohni qatl etganlarida u achinib yozgan edi: “Xojai Qozi ajab kishi edi. Qoʻrqmoq anda aslo yoʻq erdi. Oncha daler kishi koʻrilgan emas... soyir el har necha bahodir boʻlsa, andak dagʻdagʻa va tavahhum yoʻq edi”. [7]

Yosh Bobur Mirzoning Fargʻona hukmdori yetib tayinlanishi, “Boburnoma”dan maʼlum boʻlishicha tahlikali daqiqalarda, yaʼni qoʻshni hokimlarning hujumi paytida oʻtgan edi. Shuning uchun saroydagi dabdabalar va koʻtarinki ruh rassomning oʻz davri talablaridan kelib chiqib, asar mazmunidan bir oz chekinganini koʻrsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-son Farmoni. www.lex.uz
2. A.A.Madramimov. Temuriylar va Boburiylar davri miniatyura sanʼati rivoji. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Temuriylar tarixi davlati muzeyi. – Toshkent: 2019 yil. 101-110-betlar.
3. Shohalil Shoyoqubov. Zamonaviy Oʻzbekiston miniatyurasi. – Toshkent: “Oʻzbekiston”, 2006 yil.
4. A.A.Madramimov. Alisher Navoiy badiiy asarlarining 15-16-asrlardagi qoʻlyozmalari. Temuriylar tarixi davlat muzeyi. –Toshkent: 2021 yil. 38-39-betlar.
5. Elmira Ismoilova. Sharq miniatyura maktablari. – Toshkent: G.Gʻulom nashryoti, 1989 yil. 40-41-betlar
6. A.Madaminov, N.Normatov. Sharq miniatyura maktablari (maqolalar toʻplami). – Toshkent: Gʻofur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1989 yil. 41-42-betlar.

7. Yuldashev, I. (2022). LEGAL REGULATION OF THE REGISTRATION OF CHANGING THE LABOR CONTRACT. *Science and Innovation*, 1(7), 255-261.
8. Yuldashev, I. (2023). DEVELOPMENT OF PICTORIAL ART AND MINIATURE ART IN CENTRAL ASIA AND THEIR ROLE IN SOCIAL LIFE. *Science and innovation*, 2(C4), 13-18.
9. Yuldashev, I. (2023). INTERACTION OF MINIATURE ART WITH THE COMBINATION OF THE LITERATURE AND IDEOLOGICAL, AESTHETIC, AND MORAL IMAGINATION OF THE COMMUNITY. *Science and innovation*, 2(C7), 21-28.
10. Yuldashev, I. (2023). FACTORS OF CENTRAL ASIAN PEOPLES CONTRIBUTING TO THE DEVELOPMENT OF WORLD CULTURE. MOVAROUNNAHR ART OF LITERATURE IN THE XV TH CENTURY. *Science and innovation*, 2(C9), 11-16.
11. Kurbonova, B., & Yuldashev, I. (2022). UZBEK ARTIST AND CREATIVE WORKS IN THE PERIOD OF INDEPENDENCE. *Research Focus*, 1(2), 221-225.
12. Yuldashev, I., & Qurbonova, B. (2022). KITOB GRAFIKASIDA KOMPOZITSIYA HAMDA ADABIYOT ASARLARINI CHUQURROQ O'RGANISHDA ILLYUSTRATSIYANING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1024-1031.
13. Ibrokhim, Y., Nazokat, A., Nodirjon, M., & Abdusalom, M. (2021). The Period Of Book Art. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
14. Курбонова, Б. М., & Юлдашев, И. Т. (2015). К вопросам развития композиционного мышления студентов в процессе обучения изобразительному искусству. *Молодой ученый*, (7), 803-805.
15. Yuldashev, I. T., & Axmedova, N. E. (2022). DEKORATIV KOMPOZITSIYALARNI BAJARISHDA RANG MUNOSABATLARIDAGI O'ZARO UYG'UNLIK. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 989-995.
16. Yuldashev, I. (2022). QADIMGI AN'ANALAR DAVOMIYLIGI USUL VA USLUBLARINI TURLI YO'NALISHLARDA TASVIRLASHDA KITOBAT HAMDA MINIATYURA SAN'ATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 209-216.
17. Qurbonova, B., Sulaymanova, S., Akhmedova, N., & Yunusaliyev, M. (2023). Big Data, Artificial Intelligence and Smart Cities. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 402, p. 03013). EDP Sciences.

18. Sulaymanova, S. (2023). IMPORTANCE OF THE PATCHWORK NEEDLEWORK IN STUDY WHICH HAS GIVEN A BIRTH TO APPLIED ARTS, BASED MUCH ON ANCIENT OLD-TIME TRADITION. *Science and innovation*, 2(C4), 9-12.

19. Sulaymanova, S. (2023). ЗНАЧЕНИЕ ПЕРСПЕКТИВЫ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ И ОСОБЕННОСТИ ЕЕ ПРИМЕНЕНИЯ. *Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 75-79.

**MARKAZIY OSIYO MINTAQASI XALQLARI MUSIQA
MADANIYATNING O‘ZBEK MUSIQA MADANIYATINING
RIVOJLANISHIGA TA’SIRI**

Orziboyev Rustam Abdumutalibovich

Farg’ona davlat universiteti
San’atshunoslik fakulteti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada O’rta Osiyo hududida ijod qilgan xalqlar madaniyatining XVIII asrgacha bo’lgan davri haqida umumiy ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari o’zbek musiqa madaniyati rivojlanish bosqichlari jarayonida yuzaga kelgan omillarning o’rni borasida fikr mulohazalar yuritilgan.

***Kalit so’zlar:** musiqa madaniyat, milliy san’at, xalq musiqa madaniyati, his tuyg’u, nomoddiy madaniy meros, tafakkur, Avesto, ijtimoiylashuv.*

ABSTRACT

The article provides general information about the culture of the peoples who created in the territory of Central Asia until the 18th century. In addition, opinions were made about the role of factors that occurred during the stages of development of Uzbek music culture.

***Key words:** music culture, national art, folk music culture, emotion, intangible cultural heritage, thinking, Avesta, socialization*

KIRISH

Qadimiy madaniyat o’choqlaridan biri - O’rta Osiyoda yashagan xalqlar jahon fani va madaniyati xazinasiga salmoqli hissa qo’shganlar. Ular musiqa madaniyati sohasida ham juda boy va qadimiy merosga ega. O’rta Osiyo xalqlarining musiqa madaniyati tarixiga doir qadimiy yozma manbalar va arxeologlari tomonidan topilgan yodgorliklar buning dalili bo’ladi va shu xalqlarning yuksak madaniyatga ega bo’lganligini tasdiqlaydi.

Qadimgi O’rta Osiyodagi antik madaniyatning ko’pgina musiqa asboblarida (nay, ud, doira) sof mahalliy xususiyatlar mavjudligini ko’rsatish mumkin. Mahalliy an’analarining yunon, hind va boshqa xalq an’analari bilan bog’lanib ketishi sozlarda ham aks etgani o’sha davr madaniyatining o’ziga xos xarakterda bo’lganini nazarda tutadi. Garchi Gretsiyaning O’rta Osiyo musiqa madaniyatiga ta’siri O’rta asrdagi O’rta Osiyolik olimlarning musiqaga oid risolalarida uchratish mumkin bo’lsa ham, vaqtlar o’tishi bilan bu ta’sir yo’qola bordi. Urug’ va elatlarning birlashishi va tobora o’sishi natijasida o’lkamiz hududida Baqtriya, So’g’diyona va Xorazmda dastlabki davlatlar paydo bo’lishi, axamoniylarning harbiy-ma’muriy jihatdan birlashuvlari,

Iskandar Zulqarnaynning yurishlari ostida Yunon-baqtriya boshqaruvining vujudga kelishi. Bu davr eramizdan oldingi VII asrdan to milodning IV asrigacha bo'lgan juda katta tarixiy jarayonni o'z ichiga oladi. Qadimiy madaniy yodgorliklarning dalillashicha, bugungi O'zbekiston hududida O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari yaratgan yuksak sivilizatsiya mavjud bo'lgan. Olimlarning ma'lumotlari, tasviriy san'at asarlari, sharq mumtoz adabiyoti va xalq og'zaki ijodiyoti-dostonlarda o'z aksini topgan. Sharqshunoslarning yangi tadqiqotlari va nihoyat O'rtaasrdagi O'rta Osiyo olimlarining musiqiy risolalaridagi izchil ma'lumotlar o'zbek musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini mufassal va to'raligicha tasavvur qilishimizga yordam beradi. Ajdodlarimizdan meros qolgan musiqa sarchashmalari O'rta Osiyo hududida yashagan qardosh xalq (turkman, tojik, qozoq, qaraqalpoq va qirg'iz)lar ijodi bilan uzviy bog'langan.

Bu davrlar X-XI asrgacha qavmiy xalq hududlari uzviy chegaralanganlarigacha, ular bir butunlikni ifoda etgan va keyinchalik shu o'zak mazkur xalqlar milliy musiqa madaniyatlarining shakllanishi uchun umumiy asos bo'lib xizmat qildi. O'rta Osiyo xalqlari hayotida tarixiy chegaralanish bosqichi taxminan bizning eramizgacha bo'lgan birinchi ming yillikdan boshlanadi. Bular o'troq dehqonlar (sug'diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar) hamda ko'chmanchi (saklar, massagetlar va boshqa) qabilalar edi. Ular haqidagi ma'lumotlar Avestoda ham uchraydi. Mushtarak poetik va musiqa san'atining boshlanishi o'sha davrlarga borib taqaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Musiqa shaxsning ijtimoiylashuvi, muayyan hodisa va holatlarini qayta tiklovchi, uning diqqatini jalb qiluvchi va boshqaruvchi, shuningdek kishilarning mehnat unumdorligini oshiruvchi xususiyatga ega. U so'zsiz va ko'rish imkoni bo'lmagandagi muloqotdir. Musiqa his qilish qobiliyatni tarbiyalovchi vosita bo'lib, undan aqliy va jismoniy kuchlarning o'zaro koordinatsiya va integratsiya qilish vositasi, energiya manbai, haqiqatni yuzaga chiqaruvchi vosita, inson ongining transformatsiyasi uchun qurol sifatida foydalanish mumkin. Va nihoyat, musiqa kishilarni koinot bilan bog'lovchi kuch hamdir. Bu ro'yxatni davom ettirish yoki har bir bandini kengaytirish mumkin, lekin eng muhimi shunchalar imkoniyatga ega bo'lgan musiqadek ijtimoiy hodisadan inson ongi va tafakkurini yuksak darajalarga olib chiqish uchun foydalanish darkor[1].

Markaziy Osiyo hududida istiqomat qiluvchi turkiy xalqlar musiqasi uzoq tarix va boy an'analarga ega noyob hodisadir. U boshqa musiqa madaniyatlari orasida munosib o'rin egallaydi va ba'zi yutuqlari (qozoq kuy va aytisi; oqinlar san'ati va qirg'iz dostoni "Manas"; o'zbek-tojik maqomlari, o'zbek katta ashula janri;

ozarbayjon mug‘omi va ashuglar san‘ati) YUNESKOning “Nomoddiy madaniy meros durdonalari” ro‘yxatiga kiritilgan.

Musiqiy madaniyat dastlab sinkretik (qorishuv) holatda bo‘lganligi to‘g‘risida Avesto kitobi va boshqa qadimgi yozma yodgorliklar, shuningdek, O‘rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, ularning urf-odatlarini, to‘y-tomoshalarining arxaik elementlari guvohlik berishiga sinfsiz jamiyat sharoitida O‘rta Osiyo musiqa asboblarining asosiylari, ya‘ni urib chalinadigan, puflab chalinadigan va torli sozlar turlari vujudga kelgan.

Turklar istiqomat qilgan hududda (shu jumladan, G‘arbiy Osiyoda) ikki iqtisodiy va madaniy tip rivojlangan: ko‘chmanchi, chorvachilik va o‘troq dehqonchilik. Ko‘chmanchi chorvadorlar (jumladan, qozoqlar, qirg‘izlar, boshqirdlar, no‘g‘aylar, qisman qoraqalpoqlar, shuningdek, Janubiy Sibir turklari va ularning uzoq o‘tmishdoshlari) Yevrosiyoning cho‘l hududlarida yashagan. Buyuk dashtning janubida yashovchi yarim ko‘chmanchi, o‘troq qabilalar (asosan turkmanlar, o‘zbeklar, uyg‘urlar, ozarbayjonlar, turklar) dehqonchilik va shahar qurilishi bilan shug‘ullangan. Ularning har biri o‘ziga xos musiqa madaniyatini yaratgan.

Yevroosiyo dashtlari ko‘chmanchi xalqlarining musiqiy an‘analarida ham xuddi shunday xususiyatlar namoyon bo‘ladi. Ko‘chmanchi turmush tarzi, chorvachilik, yilqichilik, Janubiy Sibir turklarida esa bug‘uchilik asosiy xo‘jalik turlari sifatida bu xalqlarning madaniyati. musiqa va she‘riyat san‘atida o‘z ifodasini topgan. Ko‘chmanchi turklarning cholg‘u asboblari o‘zaro o‘xshash. Uning asosini **aerofonlar** (kuray, sibyzgi, choor, kos sirnay, qo‘shnay), **idionlar** (qomus, shan-qobyz), shuningdek, **xordofonlar** (qil-qobyz, igil, dombra, tobshur) va **membranofonlar** (shundauiyl, dauylpaz) tashkil qiladi. Musiqa yaratishda monodik uslub ustunlik qiladi[2].

Turkiy xalqlar musiqasining “milliy o‘ziga xosligini” belgilab beruvchi tovush olami turli tovushlar diapazoni bilan ajralib turadi – past ohangli boy, “yo‘g‘on”, xirillagan ko‘krakli, falset tovushlardan tortib baland va falset tovushlargacha. Registr va tembr ranglanishi tufayli ular turli xil "zichlik" darajalariga ega; yuqori balandlikdagi harakatchanlik bilan birgalikda ular quloq tomonidan milliy xarakterli, etnik rang sifatida qabul qilinadi. Ovoz va cholg‘u asboblari tovushining o‘ziga xosligi, eshitish farqlari, bizningcha, o‘ziga xos kod sifatida etnikmadaniy va hatto etnogenetik darajada saqlanib qolgan.

Fundamental toifa sifatida tovush hodisasi turkiy xalqlar musiqasining ohangini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Mahalliy musiqachilar orasida nozik eshitishning mavjudligi hali alohida e‘tibor ob‘ektiga aylanmagan o‘ziga xos ovoz tizimining mavjudligidan dalolat beradi.

Ikki geosiyosiy qarama-qarshilik chorrahasida joylashgan “Sharq-Sharq” va “G‘arbiy-Sharq” turklar musiqasida tovush va ohangning tashkil etilishini o‘rganish ham mintaqa, ham jahon kontekstida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Turkiy-mo‘g‘ul va turkiy-eron etnomoziq aloqalarini yangicha nuqtai nazardan tushunish mumkin. XX asrda G‘arbiy Yevropa mumtoz musiqasining O‘rta Osiyo tovush tizimiga ta’sirini o‘rganish dolzarb bo‘lgani yaqqol ko‘rinadi. Ijobiy va salbiy oqibatlariga olib kelgan bu jarayonga yangi tarixiy voqelik nuqtai nazaridan hamda jahon musiqa madaniyatlari o‘zaro ta’sirining boshqa shakllarini hisobga olgan holda xolisona baho berilishi kerak.

1994-yilda Olmaota shahrida o‘tkazilgan “Turkiy xalqlar musiqasi” birinchi xalqaro simpoziumida dunyoning turli davlatlaridan 100 ga yaqin olimlar ishtirok etgani buning dalilidir. Qisman, yuqori rasmiy darajada bo‘lgan bu an‘ana Markaziy Osiyo respublikalari madaniyat vazirlarining muntazam qo‘shma yig‘ilishlari tarzida tashkil etildi. Bosh qarorgohi Turkiyada joylashgan Turksoy turkiy davlatlar tashkiloti mana shunday vujudga keldi. Unda musiqa festivallari, turkiy tilli mamlakatlardan kelgan zamonaviy rassomlar, xalq amaliy san‘ati ustalarining ko‘rgazmalari o‘tkaziladi.

Turkiy xalqlar musiqasidagi tovush xususiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, umumiy turkiy va mintaqaviy miqyosda bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir qator hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi (tomoq kuylash, Shashmaqom, mug‘om, cholg‘u asboblarning ayrim turlari), ularning rivojlanishidagi o‘rnini aniqlaydi.

Turkiy musiqaning tovush dunyosi zamonaviy jahon musiqa san‘ati, ya’ni sonoristika, spektral va mikrotonal (mikrointerval) musiqa kabi yo‘nalishlarda ham qiziqish uyg‘otadi, bunda tembr, tovush rangiga alohida e’tibor beriladi.[3:23]

Sharq (eron, arab va turk va boshqalar), jumladan, turkiy musiqa madaniyatlarida ham o‘ziga xos mikrointerval (17, 22, 24 ohang) tizimlari rivojlangan. Biroq turkiy xalqlar musiqasidagi mikrointervalning tabiati, uning ommalashish sohalari amalda o‘rganilmaganligicha qolmoqda.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari, xususan, yirik epik janr bo‘lgan dostonlarni sinchiklab o‘qisak, xuddi arxeologik qazishmalardagi asriy madaniyat qatlamlarini tomosha qilayotgandek yoki genetik olim kabi xalqimizning DNK ma’lumotlarini tahlil qilayotgandek holatga tushamiz. Yozma adabiyotga ko‘zi o‘rgangan kitobxon uchun folklor asarlari mutolaasi doim ham serzavq mashg‘ulot tuyulavermasligi mumkin.

Sharq musiqa risolalarida ko‘tarilgan masalalar hozirgi zamon boshlang‘ich musiqa nazariyasiga yaqin turadi. O‘rta asr olimlari ko‘proq musiqa nazariyasi

muammolarini hal etishda maqom musiqasi bilan muqoyasa qilganlar. Bunda ular maqomlardagi parda (ton, yarim va chorak tonlar) misolida tahlil etganlar.

Musiqiy asarlarini tashkil etadigan elementlarning eng kichik birligi ayrim musiqqa tovushi (ton) bizgacha yetib kelgan nazariy kitoblarda “nag‘ma” iborasi bilan atalgan. O‘zining baland-pastligi bilan muayyan nuqta (parda) chegarasida ma‘lum vaqtgacha cho‘zilib turadigan tovush “nag‘ma” deb ataladi.

Musiqaga oid nazariy risolalardan «nag‘ma» musiqaga bog‘liq bo‘lmagan boshqa xil tovushlardan keskin farq qiladi. Ular ma‘lum xususiyatlarga ega bo‘ladi. Masalan, insonning qo‘pol ovozi, sozlanmagan cholg‘ularning ovozi nag‘ma sanalmaydi.

Musiqada nag‘ma ikki xil bo‘ladi:

1. Nag‘mai qavliy - ya‘ni inson tovushi;
2. Nag‘mai fe‘liy - musiqqa asboblardan chiqadigan sun‘iy ovoz[4].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarni tahlili natijasida tovush fenomenini va kengroq aytganda, ohangni tashkil etishni o‘rganish istiqbollari musiqiy turkologiya kabi ilmiy bilim sohasini rivojlantirishda ko‘rinadi.

XULOSA

Ushbu izlanishlarimiz natijasi o‘laroq tovush modelini aniqlash va uni turkiy xalqlar musiqasiga tadbiiq etishdagi ilk tajribalardan biri sifatida Yevropa musiqqa madaniyatidan tashqari musiqqa madaniyatini o‘rganishda muhim ko‘mak bo‘la olishi hamda sof tembr-tovush idealini aniqlashning turli usullari, boshqa musiqiy amaliyot bilan bog‘liq mos belgilarni izlash chindan ham amaliyotda dolzarb muammo bo‘lib qolayotganini yana bir bor xulosa qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. <https://khorezm-science.uz/uz/site/view?id=11> Isakov Ulugbek Tukhtasinovich Social philosophical genesis of the development of uzbek music culture. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. december, 2021-12/1. ISSN 2181-9750. 93-98 pages
2. [khorezm-science.uz"arxiv/1641750416.pdf](https://khorezm-science.uz/arxiv/1641750416.pdf) Orziboev Rustam Abdumutalibovich /// The role of musical culture in the development of the spiritual worldview of the peoples of the central asian region. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. december, 2021-12/1. ISSN 2181-9750 102 page
3. Absalyamova, N. Kulture tyurkov jit v vekax [Tekst] / N. Absalyamova, E. Djilkibaev // Kazaxstanskaya pravda. - 2002. - № 020 (23669).- 31 yanv. – str 23.

4. <https://znanio.ru/media/xvi-xix-asrlarda-ozbek-musiqasinig-madaniyati-musiqiy-nazariy-meros-2680783> Botirova Xilola., XVI-XIX asrlarda o'zbek musiqasinig madaniyati Musiqiy nazariy meros
5. T.S.Vizgo. Muzikalnie instrumenti Sredney Azii. Moskva. 1980.
6. file:///C:/Users/tursu/Downloads/musiqa_tarixi.pdf Botir Raximov O'ZBEK MUSIQASI TARIXI., Urganch 2018
7. Orziboev, R. (2023). XITOY VA MARKAZIY OSIYO KO'CHMANCHI QABILALARINING MUSIQIY MADANIYATI RIVOJLANISH JARAYONLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 220-226.
8. Orziboyev, R. (2023). INNAVATSION METODLLAR ORQALI MUSIQA SAN'ATINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH. *Наука и инновация*, 1(9), 19-22.
9. Rustamjon, O. (2023). ANALYSIS OF MUSICAL WORKS OF CENTRAL ASIAN THINKERS IN MUSIC CULTURE. *Uzbek Scholar Journal*, 16, 196-200.
10. Орзибоев, Р. (2022). МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ МУСИҚА МАДАНИЯТИГА ДОИР АСАРЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 452-456.
11. Орзибоев, Р. А., & Абдулмадатов, О. (2022). МОДАЛ ВА ТОНАЛ ГАРМОНИЯ ҲАҚИДА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 497-502.
12. Tokhtasinovich, I. U., & Abdumutalibovich, O. R. (2022). The Influence of Music Culture on The Peoples of Central Asia in The Development of Uzbek Music Culture. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 5, 70-73.
13. Nasretdinova, M., Isakov, U. B., & Orziboyev, R. (2022). XALQ IJODIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *Scientific progress*, 3(2), 851-856.
14. SultonaliMannopov, A., AbdusalomSoliev, U., & TokhirShokirov, R. (2021). Development of Uzbek National Singing Art during Independence. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6845-6853.

O‘ZBEKISTONNING JANUBIY SHAHARLARIDA UY-JOY QURILISHIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR

Ollomurodov Nurali Yoqub o‘g‘li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi
998905101992

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XX asrning 50-60 yillarida Respublikaning janubiy shaharlarida uy-joy qurilishi bilan bog‘liq o‘zgarishlar va muammolar, yangi massivlarning paydo bo‘lishi hamda shahar aholisiga ko‘rsatilayotgan maishiy xizmat bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *uy-joy, shahar, mablag‘, qurilish, markaz, kommunal xo‘jalik, ijtimoiy hayot, muammo, o‘zgarish.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются изменения и проблемы, связанные с жилищным строительством в южных городах республики в 50-60-е годы XX века, появление новых массивов, а также вопросы, связанные с бытовым обслуживанием горожан.

Ключевые слова: *жилье, город, финансирование, строительство, центр, коммунальное хозяйство, общественная жизнь, проблема, изменение.*

ABSTRACT

This article analyzes the changes and problems related to housing construction in the southern cities of the Republic in the 50s and 60s of the 20th century, the emergence of new massifs, and issues related to household services provided to city residents.

Key words: *housing, city, funding, construction, center, communal economy, social life, problem, change.*

KIRISH

O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining 1946 yil 30 avgustda bo‘lib o‘tgan VIII sessiyasida aholini uy-joy bilan ta‘minlash yuzasidan aniq dasturlar belgilab olindi. Xususan, uy-joy muammosini hal qilish uchun katta miqdorda mablag‘ ajratildi, qolaversa, uy-joy qurish uchun korxonalarda alohida jamg‘armalar tashkil etildi. O‘zbekiston hukumati uy-joy qurish uchun 1946 yilga nisbatan 1947 yilda 1,5 baravar ko‘p mablag‘ ajratdi[1]. 1948 yilga kelib uy-joy qurilishi uchun urushgacha bo‘lgan uchta besh yillikdagi mablag‘ga nisbatan 3 marta ko‘p mablag‘ ajratildi[2]. Bu davrda Surxondaryo oblastining bosh shahri bo‘lgan Termizda ham anchagina bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. 1949 yilda shaharda uy-joy fondlari 1937

yildagiga nisbatan 2 marta ko‘paydi[3]. Shu davrda oblastning Sho‘rchi, Sherobod, Jarqo‘rg‘on rayonlarining markazlarida ham ancha keng ko‘lamli qurilish ishlari amalga oshirildi. Jumladan, 1947-1951 yillarda shahar va shahar tipidagi posyolkalardagi uy-joy fondi qariyb uch baravar oshdi[4]. Bu davrda davlat korxonalari bilan bir qatorda kooperativ tashkilotlar ham aholiga uy-joylar qura boshladi. 1947 yilda Surxondaryo oblasti paxta tozalash tresti uy-joy qurilishi uchun 265 ming rubl, Kitob paxta tozalash zavodiga esa 14 ming rubl kapital mablag‘ ajratildi. Ushbu mablag‘lar hisobiga Surxondaryo paxta tozalash zavodi xodimlar uchun 116 kv metrli 2 ta uy qurilish rejalashtirildi. Biroq, turli sabablarga ko‘ra ajratilgan mablag‘ning katta qismi o‘zlashtirilmadi[5]. Bunday holatni Denov paxta tozalash zavodi misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan: 1948 yilda Denov paxta tozalash zavodiga uy-joy qurilishi uchun 214 ming rubl mablag‘ ajratildi. Biroq, ushbu mablag‘ning bor-yo‘g‘i 47 ming rubli o‘zlashtirildi xolos[6]. Yildan-yilga aholi sonining o‘sib borishi bilan birga odamlarning uy-joyga bo‘lgan ehtiyoji ham ortib bordi. 1957 yilda KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Soveti “SSSRda uy-joy qurilishini rivojlantirish to‘g‘risida qaror qabul qildi. 1956-1985 yillar oralig‘ida esa Ittifoq miqyosida 3 milliard kv metrdan ziyod bo‘lgan 66 millionga yaqin uy-joylar qurildi[7].

NATIJAR VA ULARNING MUHOKAMASI

O‘zbekistonda ham shu davr mobaynida uy-joy qurilishi yildan yilga ko‘payib bordi. Chunonchi to‘rtinchi besh yillikda (1946-1950 yy)da 6951 ming kv metr, beshinchi besh yillik (1951-1955 yy)da 10752 ming kv metr, oltinchi besh yillikda 18312 ming kv metr, yettinchi besh yillikda 15528 ming kv metr, sakkizinchi besh yillikda 25660 ming kv metr, to‘qqizinchi besh yillikda 24761 ming kv metr, o‘ninchi besh yillikda 27382 ming kv metr, o‘n birinchi besh yillikda esa 27382 ming kv metr uy-joy bunyod etildi[8]. Lekin shunga qaramasdan O‘zbekistonda aholining uy-joy ta‘minoti muammosi hal qilinmagan edi. Bu borada O‘zbekiston Ittifoqda oxirgi o‘rinlardan birida turardi. 1980 yildan 1986 yilgacha har bir shahar aholiga turar joy maydoni 9,6 kvadrat metrdan 11,1 kvadrat metrga oshgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Ittifoq bo‘yicha 13,1 metr kvadratdan 14,1 metr kvadratga, Latviyada – 15,7 metr kvadratdan 16,7 metr kvadratga, Estoniyada esa 16,0 metr kvadratdan 17,6 metr kvadratga oshdi[9]. O‘zbekistonda aholining yillik o‘sishi yuqori bo‘lganligi bois yildan-yilga turar joylarga bo‘lgan ehtiyoj oshib bordi. Shu sababli ham Janubiy oblastlarning markaziy shaharlarida ko‘p qavatli uylar bunyod etilgan butun-butun mikrorayonlar paydo bo‘ldi. Ana shunday mikrorayonlardan Termiz shahridagi 4 va 5 mikrorayonlarni misol sifatida keltirish mumkin. Aholini uy-joyga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun respublika hukumati o‘z mablag‘i hisobiga shaxsiy uy

qurayotgan kishilarni har tomonlama qo‘llab quvvatlab bordi. Ularga yer uchastkalari va uzoq muddatli qarzlari berib bordi.

Urushdan keyingi dastlabki besh yillik mobaynida respublikada jami 1771 ming kvadrat metr uy-joy qurildi. Jumladan, davlat va kooperativ tashkilotlari tomonidan esa 887 ming kvadrat metr uy-joy qurildi[10]. Lekin shu davrda shahar aholisining uy-joyga bo‘lgan talabi to‘liq qondirilmagan edi. Respublikada aholi jon boshiga me‘yordagi 9 kvadrat metr o‘rniga 4 kvadrat metrdan uy-joy to‘g‘ri kelardi[11]. 1951 yilda Termiz shahrida yakka tartibda qurilgan uylarning soni 70 tadan ko‘proqni tashkil etdi. 2170 kvadrat metr uy-joy binolari esa to‘liq ta‘mirdan chiqarildi[12]. 1957 yilda O‘zbekiston Ministrlar Sovetining qaroriga ko‘ra Termiz shahrida 165-qurilish tresti tashkil etildi. Natijada trest shu yilning o‘zida 5224 ming rubllik qurilish montaj ishlarini amalga oshirdi[13]. 1958 yilga kelib Termiz shahrida 10 ming kvadrat metrga yaqin turar-joy binolari barpo etildi[14]. 1958 yilda Kitob konserva zavodi ishchilari uchun 1820 kvadrat metr uy-joy bunyod etildi[15].

Shu yili Qarshi yog‘ ekstraksiya zavodining 50 foiz ishchi xizmatchisi uy-joy bilan ta‘minlangan edi[16].

1959 yildan boshlab respublikada shaxsiy uy-joylarni qurish ishlari kamaya boshladi. Chunki shu yildan boshlab, ayrim sabablarga ko‘ra respublikaning Toshkent, Sirdaryo, Farg‘on, Andijon, Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlarining shaharlarida shaxsiy uy-joy qurilish ishlari taqiqlandi. 1960 yilga kelib shaxsiy uy-joylarning qurilishi keskin kamayib ketganligi yaqqol sezilib qoldi. Masalan 1958 yilda Qashqadaryoda o‘z mablag‘i hisobiga 108 ming kvadrat metr, Surxondaryoda esa 43 ming kvadrat metr uy-joy qurilgan bo‘lsa, 1960 yilga kelib Qashqadaryoda 98000 kvadrat metr, Surxondaryoda esa atiga 21 ming kvadrat metr uy-joy qurildi[17].

Ishchi xizmatchilarning shaxsiy uy-joy qurish tashabbusini bu tarzda bo‘g‘ib qo‘yilishi tufayli shaharlarda aholini uy-joy bilan ta‘minlashda jiddiy muammolar vujudga keldi. Oqibatda uy-joylarga navbatda turuvchilar soni yildan yilga ko‘payib bordi. Masalan 1963 yilda Termiz shahrida 163 nafar ishchi xizmatchi kvartira olish uchun navbatda turgan bo‘lsa 1969 yilga kelib ularning soni 216 taga yetdi[18]. Qashqadaryo oblastida davlat va kooperativ tashkilotlar tomonidan 1958 yilda 18 ta 1959 yilda 26 ta 1960 yilda esa 28 ta uy-joy qurilgan bo‘lsa, Surxondaryoda esa 1958 yilda 25 ta, 1959 yilda 46 ta, 1960 yilda esa 49 ta uy-joy qurildi. Ishchi va xizmatchilarning shaxsiy va davlat qarzlari hisobiga qurgan uylar esa Qashqadaryoda soni 1958 yilda 108 ta, 1959 yilda 114 ta, 1960 yilda esa 98 ta uyni tashkil etdi. Surxondaryoda 1959 yilda 43 ta, 1959 yilda 23 ta, 1960 yilda 21 ta shunday uy - joylar qurildi[19]. Bu davrda shahar aholisini uy-joy bilan ta‘minlashni yaxshilash

maqsadida qator qurilish tashkilotlari ham tashkil etildi. Jumladan 1963 yil fevralida Surxandaryoda 11 qurilish tresti, 1968 yilda 26 qurilish tresti, keyinroq esa Surxon sovxoz vodstroy va Surxanstroy trestlarining tashkil etilishi natijasida oblast shaharlarida olib borilayotgan qurilish montaj ishlarining hajmi keskin ko'paydi. Agar 1960 yilda Termizda 24 ta uy-joy qurilib foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 1961 yilda 6275 kvadrat metr turar-joy binosi ishga tushirilib 21 oilaga uy-joy uchun order berildi[20]. Termiz shahrida 1951-1961 yillar oralig'ida 93,2 ming kvadrat metr uy-joy binolari qurildi[21]. Bu davrda Respublikada shahar aholisining demografiyasi ham ancha o'sdi. Yangi yerlarni o'zlashtirilishi tufayli Respublikada yangi 21 ta shahar vujudga keldi. Jumladan Janubiy oblastlardagi Gagarin, Muborak, Tallimarjon kabi shaharlar asosan aholi migratsiyasi tufayli vujudga kelgan edi[22].

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'z MA 737-fond 3-yozuv, 90-ish, 180-varaq
2. Pravda Vostoka, 1948 yil 28 may.
3. Azimov M. Termiz tarixi. "Nasaf" 2001. –B.164.
4. Surxondaryo viloyati davlat arxivi 70-fond, 1-yozuv, 137-ish, 55-56-varaqlar.
5. O'z MA 2099-fond 4-yozuv, 170-ish, 56-varaq.
6. Surxondaryo viloyati davlat arxivi 70-fond, 1-yozuv, 126-ish, 29-30-varaqlar.
7. Minulskiy K.I. va boshq. KPSSning sotsial siyosati. – Toshkent: "O'zbekiston". 1987. –B.272.
8. O'z MA 868-fond 12-yozuv, 16-ish, 28-varaq
9. Surxondaryo viloyati davlat arxivi 70-fond, 1-yozuv, 136-ish, 13-varaq.
10. Azimov M. Termiz tarixi. – Qarshi: "Nasaf". 2001. –B.16.
11. Surxondaryo viloyati davlat arxivi 70-fond, 1-yozuv, 52-ish, 18-varaq.
12. O'z MA 2099-fond 4-yozuv, 171-ish, 43-varaq.
13. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi 31-fond, 1-ro'yxat 362-ish, 262-varaq.
14. Surxondaryo viloyati davlat arxivi 70-fond, 1-yozuv, 228-ish, 360-361-varaqlar.
15. Lenin bayrog'i gazetasi. 1961 yil 18 dekabr soni.
16. Azimov M. Termiz tarixi. – Qarshi: "Nasaf". 2001. – B.116.
17. Bobojonova D. O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning xususiyati. – Tashkent: "Fan". 1995. –B.70.

AGIOGRAFIK ADABIYOTDA TAZKIRA

Sayidolimov Javoxirbek Baxtiyorjon o'g'li,

FarDU o'qitvchisi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Sharq agiografik adabiyotining janrlaridan hisoblanga tazkiralalar haqida so'z yuritiladi. Shu bilan bir qatorda tazkirlarning agiografik xarakteri haqida ham ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: *agiografiya, tazkira, tasavvuf, pir, murshid, xrestomatiya.*

ABSTRACT

This article talks about tazkiras from the genres of Eastern hagiographic literature. Along with this, information is also given about the hagiographic character of tazkirs.

Key words: *hagiography, tazkira, mysticism, pir, murshid, chrestomathy.*

KIRISH

Tazkira lug'aviy jihatdan "eslamoq, zikr etmoq" kabi ma'nolarni anglatar ekan, ma'lum bir shaxs eslanganda, ko'p hollarda, uning yaxshi xislatlari eslanadi. Shuning uchun tazkiralalar o'zida agiografik ruhni aks ettiradi. Buni qay darajada yoritib berish esa muallifning ijodiy yondashuvi va g'oyaviy maslagiga bog'liq. Har bir zamon va makonda mashhur insonlar ideallashtirilgan. Ijodkor tazkirani o'zi xohlagan usulda, masalan, abjad tizimida, hududiy yo sulola jihatidan, ba'zan alifbo asosida, shaxsan ko'rgan yoki muloqotda bo'lgan-bo'lmaganlik asosida joylashtirishi mumkin. Muallif ijodiy yondashuv vaqtida tazkiralarda ta'rif etilayotgan ijodkor haqida etarli faktlarga ega bo'lmagan, ba'zi paytlarda xalq orasidagi obro'-e'tibori jihatidan mazkur shaxslarning ijodini yoritish vaqtida agiografik xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Mualliflarning o'tmish mutafakkirlari haqidagi tafsilot va ma'lumotlari ikki jihati bilan kitobxon diqqatini o'ziga jalb etadi:

Birinchidan, muallif u yoki bu mutafakkirning hayoti, ijtimoiy kelib chiqishi, maslagi haqida fikr yuritar ekan, ko'pincha tug'ilgan yili, manzili, bolalik va yigitlik onlari, qaysi kasb orqasidan kun kechirishi, faoliyati haqida batafsilroq ma'lumot berishga intiladi. Ayni paytda o'sha donishmandning dunyoqarashi, ustodi-piri, nasl-nasabini ham uqtiradi, bu uning ruhiy olamini chuqurroq idrok etishda muhim omil hisoblanadi. Shu jihatdan ham tazkiralalar agiografik xususiyatni namoyon etadi. Masalan, Alisher Navoiy Bobo Xushkeldi haqida quyidagicha ma'lumot beradi: "Niso shahri atrofidagi qishloqlarning birida yashardi. Bobo Ali balo bilan urushdik, balo bizni bosdi, ammo Xushkeldi o'z dushmanini bosdi, degandek, vabo Nisoning barcha qishloqlariga tarqaldi, ammo Xushkeldi yashaydigan qishloq aholisining

birontasi vaboga uchramadi [1. 210]. Ko‘rinadiki, Bobo Alining g‘ayrioddiy xislatiga urg‘u berilmoqda va bu hol to‘laligicha agiografiyaga qo‘yilgan talablarga mos keladi.

Ikkinchidan, har bir shaxs siymosini kitobxon ko‘z oldida to‘laroq namoyon etish maqsadida ijodkor tasviriyotgan shaxs hayotida ro‘y bergan favqulodda ruhiy holatlardan, ilmiy va jismoniy qudrati-yu karomatlaridan eng diqqatga molik lavhalarni keltirib o‘tadi. “Naqlidir. To‘rt yuz sufiy bilan Barriyaga kirdi. Och qoldilar. – Yo shayx! Bizga bitta pishgan kalla, issiq non bersang, – dedilar. – O‘tiringiz, - dedi. Qo‘lini hirqasiga suqib, bitta pishgan kallani issiq nonga o‘ralgan holda olib, oldilariga qo‘ydi. Yangi xurmo so‘radilar. – Keling, meni daraxtdek siltang, - dedi. Siltadilar, yangi xurmolar to‘kildi. To‘ygunlaricha edilar” [2.134]. Har doim ham mazkur turdagi asarlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilish maqbul emas, chunki ayrim o‘rinlarda sharh va izoh talab qilinadi. Bunday hollarda majoziylikka e‘tibor qaratish lozim. “Meni silking, muddaoingiz hosil bo‘ladi”, deyilganda ma‘rifat nazarda tutilmoqda. Ilm bu rizqlantiruvchi vosita ekani hamda e‘tiqod rizqqa eltuvchi yo‘l ekanligiga urg‘u berilmoqda. Mana shuning o‘zi ham tazkiralarning agiografik asarlar qatoriga kirishini ko‘rsatib turibdi. Mansur Xalloy haqidagi jumlar va avliyolarning faoliyatlari bilan bog‘liq tafsilotlar bunga misol bo‘la oladi. Shu narsani ham unutmash kerakki, agiografik asarlar tarixiy shaxslarni gavdalantirsa-da, boshqa turdagi tarixiylikka asoslangan asarlardan farqlanadi. Tarixiy manbalarda nomi keltirilgan shaxslarni tarixiy jihatdan yoritib berishda aniq faktlarga murojaat qilinadi. Muayyan shaxslarning ichki olamini ta‘riflash va mavhum bo‘lgan tushunchalarni aniqlashtirish maqsadida to‘qima obrazlardan keng foydalaniladi. Lekin to‘qima obrazlarning tarixiy asardagi o‘rni asar qurilishiga deyarli ta‘sir qilmaydi, aksincha voqealar tafsilotini to‘ldiruvchi element bo‘lib xizmat qiladi. Agiografik asarlarda to‘qima obrazlar deyarli qatnashmaydi, aksincha, asar qahramonining ruhiy holatini yoritib berish maqsadida uning o‘z nafi bilan bo‘lgan ichki konflikt jarayonida uning ruhiy holati ochib beriladi. E‘tiqodiy jihatdan o‘zini haq yo‘lda hisoblagan har bir shaxs, aslida, o‘zi bilan emas, nafi bilan kurashadi. Buning sababi, yuqorida keltirib o‘tilganidek, inson e‘tiqodiy qarashlarda ko‘pincha aqliy faoliyatga emas, hissiy tuyg‘ularga tayanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sayfiddin Ali Safiyning “Turli toifalar haqidagi latifalar” (latifa deganda satira yo yumorni tushunmaslik lozim, latifa – dastavval ibratomuz hikoya va pand-nasihath ruhida bo‘lgan, unda mo‘jizaviy voqealar hikoya qilinadi [3.248]. Latif so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “yoqimli” bo‘lgani sababli ham xalq bunday suhbatlarni intiqlik bilan kutgan), Zayniddin Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoe” (“Ajoyib voqealar”) asarida ham yuqoridagi kabi holatlarni ko‘rishimiz mumkin. Forsiy hamda turkiy tillarda

Fariduddin Attor, Jomiy, Navoiy, Sayfiddin Ali Safiy, Fanoiy kabi ijodkorlar diniy hikoya va qissalarning go‘zal namunasi yaratganlar. Ayniqsa, fors-tojik adabiyotida, xususan, Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” va “Mantiq ut-tayr” kabi asarlarida agiografik hikoyatlarning betakror namunalarini uchramiz. XIV-XV asrlarga kelib bunday asarlar yaratishga alohida e‘tibor qaratildi. Dastlab “Abdurahmon Jomiy, keyinchalik Navoiy sardorlik qilgan bu katta ijodiy maktabda ilmiy-nazariy bahslar qissaxonliklardan tashqari voizlik, latifago‘ylik, lutf va zarofatga juda katta e‘tibor berilar edi. Mushoirayu mubohasalarda adib va noqillar o‘z nutqlarida o‘tmish va zamon voqealari, mashhur kishilar hayoti va faoliyati xususida hikoyatlar keltirishar, Qur‘oni Karim-u payg‘ambar hadislarini nasr va nazmda ta‘sirchan yo‘sinda bayon etganlar. Keyinchalik bunday hikoyatlar “Habib-us siyar”, “Makorim-ul axloq”, “Majolis-un oshiqin”, “Badoe‘-ul vaqoe’”, “Nafohat-ul uns”, “Futuvvatnoma” singari asarlar tarkibiga kiritildi” [4.239]. Bundan tashqari, tazkiralarning agiografik asarlar qatorida e‘tirof etilishi jahon adabiyoti tajribasida ham mavjud. Shaxsning ruhiy poklanishi jahon adabiyotida ko‘pincha yaxlit asar sifatida yaratiladi, misol uchun Lev Tolstoyning agiografik xarakterdagi “Avliyo Sergiy” qissasida asar qahramonining ruhiy poklanishi, bunga qadar bo‘lgan hamda ruhiy poklanishdan so‘nggi holati batafsil bayon etiladi. Asar so‘nggida esa Sharq adabiyotidagi tazkiralarning singari kichik bir voqea orqali xulosalab beriladi. Tazkiralarda esa bunday jarayon sezilmaydi, ya‘ni ruhiy poklanishga sabab bo‘lgan voqea-hodisa va ruhiy poklanishdan keyingi karomatlari bayon etiladi. Ahamiyatli joyi shundaki, jahon adabiyotida tazkira sifatidagi asarlar Sharq agiografiyasida manoqib tipidagi asarlarga to‘g‘ri keladi. “Qisas ul-anbiyo” turkumidagi asarlarda ayrim payg‘ambarlar, avliyolar yo hakimlar hayoti va faoliyati bilan bog‘liq voqea-hodisalar keng tafsilotlarsiz qisqa holda zikr etilgan. Shu kabi lavhalarning mavjudligi ham tazkiralarning agiografik xarakterini namoyon etadi. Bu mazkur turdagi asarlar bir biridan oziqlangan holda rivojlanib kelganligini ko‘rsatadi. “Ibn Sa‘dning “At taboqot al-kubor” asarida “Muhammad alayhissalom hayoti va faoliyati bilan bog‘liq tafsilotlar bilan bir qatorda sahobalar haqidagi qisqa ma‘lumotlar keltirib o‘tiladi. Bunda mazkur sahobalar hayotidagi ibratli jihatlar tazkiralarga xos usulda bayon etilgan”. [4] Tazkiralarning jahon adabiyotida, dastavval, xrestomatiyalar shaklida yaratilgan bo‘lib, keyinchalik o‘zining asl mohiyatini yo‘qotib borgan: “Xrestomatiyalar dastlab diniy maktablar tomonidan tuzilgan bo‘lib, ularda payg‘ambar va avliyolar, odamning yaratilishi haqidagi diniy asarlardan parchalar keltirilgan” [6.339].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. Тошкент. О'zbekiston – 2018. Б-210.
2. Фаридуддин Аттор. Тазкират ул-авлиё. Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси –1997. Б. 134.
3. N Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davrda XV asrning birinchi yarimigacha). Toshkent.: Sano-stabdart. 2017-y.248-b
4. Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари, Тошкент. 1999, Б.239
5. <https://moturidiy.uz/oz/news/1309>
6. Ҳотамов.Н, Саримсоқов.Б. Адабиётшунослик терминларининг руча-ўзбекча изоҳли луғати. Тошкент. Ўқитувчи. 1979. Б. 339.
7. Umarov, D. (2023). THE FIRST STAGES OF UZBEK STORYTELLING. *Modern Science and Research*, 2(6), 854–859. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/21240>
8. Umarov, D., & Tojimatova, Z. (2023). INTERPRETATION OF THE HERO OF A LITERARY WORK. *Modern Science and Research*, 2(6), 1104-1106.
9. Odiljon o'g'li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR. *IQRO*, 2(2), 777-785.
10. Umarov, D. (2023). THE IMPORTANCE OF LITERARY CRITICISM ARTICLES IN LITERARY STUDIES. *Modern Science and Research*, 2(6), 848-853.
11. Baxtiyorjon o'g'li, S. J. (2023). SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(14), 38-41.
12. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING MAZMUN-MOHİYATIDAGI EVRILISHLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 1318-1322.

ЖАНР ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ТАБИАТИ

Орипова Гулнозахон Муродиловна,

Фарғона давлат университети,

филология фанлари бўйича

фалсафа доктори (PhD)

АННОТАЦИЯ

Мақолада жанр тушунчасининг пайдо бўлиши, унинг моҳияти, категория сифатида ривожланиши тадқиқ этилган.

***Калит сўзлар:** жанр, жанс, тарихий категория, жанрлар тизими, адабий давр.*

ABSTRACT

The article examines the emergence of the concept of genre, its essence, and its development as a category.

***Key words:** genre, genre, historical category, system of genres, literary period.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается возникновение понятия жанр, его сущность и развитие как категории.

***Ключевые слова:** жанр, жанр, историческая категория, система жанров, литературный период.*

КИРИШ

Гуманитар соҳага тегишли ва санъат асарлари учун характерли ҳисобланган “жанр” атамаси французча “genre”нинг рус тилидаги транскрипциясидир. Унинг тўғридан-тўғри таржимаси “тур” тушунчасини англатиб, рус санъати тарихида биринчи бўлиб XIX асрда “жанр” атамаси қўлланган. Рус адабиётшунослигида “жанр” атамасининг пайдо бўлиши дастлаб тасвирий санъат билан боғлиқ ҳодиса деб қаралган. Айнан шу масала билан шуғулланган Г.Г.Павлуцкийнинг ёзишича, Францияда “жанр” тасодифан пайдо бўлган¹. Бу ҳақда В.В.Стасов ҳам шундай ёзади: “картиналардаги сюжетлар “инсон ҳаётидан...иккинчи даражали нарса деб қаралди...Ушбу тасвирий санъат қонуниятларига мос келмайдиган картиналар “жанр” деб номланган”².

¹ Павлуцкий Г. Г. К вопросу о значении термина «жанр». — Киев, 1895

² Стасов В. В. О значении Брюллова и Иванова в русском искусстве // Русский вестник. — 1861. — № 9. — С. 18.

МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Реализмнинг вужудга келиши “жанр” тушунчаси санъатнинг бошқа турларига ҳам тарқалишига сабаб бўлди. И.А.Гончаров уни “Миллион азоб” номли мақоласида театр ва драмага нисбатан қўллайди³. Ф.М.Достоевский эса 1873 йилда ёзган “Ёзувчи кундалиги” асарида рассом-жанристлар Диккенс ва Гоголни қиёслаб, санъатнинг ушбу йўналишига умумий таъриф беради: “Жанр бу шундай санъатки, рассом ҳозирги воқеликнинг замонавий тасвирини ўз кўзлари билан кўрсин ва ҳис қилсин”⁴. Е.Марков эса Достоевский ижодига бағишлаб ёзган мақоласида “адабий жанр” сўз бирикмасини қўллайди.⁵

ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

XIX аср охирига келиб 1890 йилда Ф.Брюнетьеранинг адабий жанрлар эволюцияси тўғрисидаги китоби нашр этилган⁶. Лекин баъзи тадқиқотчилар томонидан ушбу китобнинг роли аҳамиятсиздек баҳоланган. Масалан, А.С.Субботин тўғридан-тўғри “атамани руслаштириш бу мақоланинг пайдо бўлиши билан боғлиқ эмас” деб ёзган⁷. Аслида гап ёзилган асарнинг ўзида эмас, деярли ярим асрлик жимжитликдан, яъни Гегель ва Белинский давридан сўнг адабиёт назариясининг жанр муаммосига қизиқиш яна кескинлашувида эди.

Рус академиги А.Н.Веселовский жанр таснифига бағишланган “Тарихий поэтиканинг уч боби” (1899) номли асарида “жанр” тушунчасини таснифий-типологик маънода қўллаган: “XV асрдан бошлаб драма адабий жанр сифатида танилган”⁸. “Жанр” атамасининг энг муҳим ҳаволаси сифатида “род”(жинс) аналогини жорий этиш Ф.Брюнетьеранинг 1890 йилда нашр этилган китобига К.Арсеньев томонидан ёзилган шарҳда ифодаланган эди. Унда “жанр” тушунчаси рус адабиётшунослиги учун анъанавий бўлган “жинс ва турлар”(роды и виды)ни бутунлай ўзгартирган. Муаллиф дастлаб адабий жанрнинг моҳиятини аниқлаштириш учун савол билан мурожаат қилган ҳолда Брюнетьеранинг “жанрлар мавжуд” концепциясини “туғилган адабий жанрлар яшайди...” тарзида баён қилиб, “жанр ўзгарувчанлиги”, “жанрнинг тўлик ўзгариши”, “жанрларнинг эволюцияси” ҳақида фикр юритганлигини исботлайди.⁹ Айнан шу шарҳдан сўнг “адабий жанрлар” атамаси ўзининг

³ Қаранг: Гончаров И. А. Собр. соч.: В 8-ми т. — М., 1980. — Т. 8. — С. 50

⁴ Достоевский Ф. М. Об искусстве. — М., 1973. — С. 219—220.

⁵ Марков Е. Романист-психиатр // Русская речь. — 1879. — № 5. — С. 249

⁶ Brunetière F. L'évolution des genres dans l'histoire de la littérature. — Paris, 1890.

⁷ Субботин А. С. Жанр как категория истории и теории литературы // Проблема стиля и жанра в советской литературе. — Свердловск, 1974. — С.16.

⁸ Веселовский А. Н. Историческая поэтика. — Л., 1940. — С 13

⁹ Арсеньев К. Новый опыт истории французской критики // Вестник Европы. — 1890. — № 12. — С. 740, 741, 758

таснифий белгилари асосида илмий муомалага киритилган. Мазкур атама А.Н.Веселовскийнинг қайд этилган асарларидан ташқари кўпинча француз муаллифларининг таржималарида ҳам учрайди¹⁰.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

“Жанр” таснифий-типологик тушунча сифатида ўзида “род”(жинс) семантикасини тўлиқ қамраб олади ва улар “кенг маънога эга синонимлар” (В.Н.Захаров) вазифасини бажаради. А.С.Субботиннинг илмий мулоҳазаларида ҳам “жанр” категориясининг “жинс” ва “тур” билан алоқаси масаласи бор¹¹. Бугунги кунгача жанр атамасини қўллаш кўпчилик тадқиқотчилар томонидан сақланиб қолган. Санъат тарихининг XVIII асргача бўлган даврини ўрганиш билан шуғулланган олимлар тадқиқотларида ҳам жанр тушунчаси ривожланганлиги ва “истеъмол”да бўлганлиги қайд этилган. Хорижий олимлар томонидан яратилган луғатларнинг баъзиларида “жанр” тушунчаси XVIII асрга қадар муҳим роль ўйнаганлиги таъкидланган.¹² 1925 йилда нашр қилинган “Адабий атамалар луғати”да “эпик, лирик ва драматик деб ҳисоблаш мумкин бўлган асосий жанрларни алоҳида навларга қўллаш аниқроқдир”, дейилган.¹³

Жанр тузилишини тавсифлаш муаммоси дастлаб формалистлар томонидан тадқиқ этилди. Ю.Н.Тынянов матнларнинг типологик умумийлиги асосида жанр ҳодисасининг содир бўлиши “диалектик жиҳатдан пайдо бўлаётган йўналишнинг бирлашишида поэтик сўзнинг мавзуга айланиши ва керакли даражада “тарқалиши” билан боғлиқ, деган хулосага келади.¹⁴ Бундай бирлашиш, яъни шакл ва мазмуннинг ажралмаслиги жанрни ҳосил қилади. Бахтин роман жанрига нисбатан учта элементнинг кесишиш нуқтасини мазмун, шакл ва услуб, деб асослайди. Н.Д.Таморченко Бахтиннинг жанр муаммосини “уч ўлчовли конструктив яхлитлик” дея баҳолашига аниқлик киритиб, формалистларнинг қонуниятлари асосида у жанрнинг учлик табиатини қуйидагича шакллантиради: биринчидан, “ҳаётий вазият билан функцияланиши”га узвий боқлиқ, иккинчидан, “жанрда дунё манзараси ёки “образ”ининг истиқболи кўринади” ва учинчидан “эстетик реаллик ва ноэстетик мавжудлик ўртасидаги... бу икки оламнинг макон-замонга ўзаро

¹⁰ Қаранг: Летуэрно Ш. Литературное развитие различных племен и народов. - СПб., 1895. - С. 61, 66; Брюнетьер Ф. Европейская литература XIX века. — М. 1900. — С. 12, 26 и др.

¹¹ Субботин А. С. О категории жанра и ее отношениях с «родами» и «видами» // Проблемы литературных жанров. — Томск, 1975. — С. 3

¹² Қаранг: Gupta A., Gupta S. A dictionary of literary terms. Bareilly, 1976, p. 72—73; Scott A. F. Current literary terms. London, 1979, p. 115.

¹³ Словарь литературных терминов: В 2-х т. — М.; Л., 1925. — Т. 1. Ст. 237.

¹⁴ Тынянов Ю.Н. Вопрос о Тютчеве // Тынянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. -Москва: «Наука», 1977. -С.39.

таъсири” чегараси муҳим¹⁵. Н.Л.Лейдерман жанр учлигини мазмун, тузилиш ва идрок деб кўрсатган.¹⁶ Е.Н.Левинтованинг фикрига кўра, ҳар қандай жанр “классик учликка асосланади: субъект – замон – макон”.¹⁷

Филологлар Цв.Тодоров ҳамда Э.Ламмертлар (бир-бирларидан мустақил равишда) тарихий ва типологик ёндашув асосида жанр-авлод сифатида ажратишни таклиф қилишди. Уларнинг фикрига кўра, муайян шаклларнинг кўплиги, авлодларнинг бўлиниши учун типологик таркибий пойдеворларни, уларнинг "абдий имкониятлари"ни (Ламмерт) тушунишга тўсқинлик қилади. Тарихий ва назарий (Тодор) жанрларни ажратиш, кўпинча соф жанр моделларини рад қиладиган қаршиликларидан қочиш имконини беради. А.И.Николаев Цв.Тодоровнинг "тарихий" ва "назарий" жанрларни ажратиш таклифи ҳақида мулоҳаза юритиб, одатда, жанр деганда, жинс ва жинс вакиллари ўртасида шакл ва мазмун жиҳатдан ўхшаш асарлар гуруҳи тушунилади, дейди. Бу тушунчанинг ўзига хос ноаниқлиги мавжуд, аслида жанр асар эмас, бу асар яратиш тамойилидир. Агар ёзувчи роман ёзишга қарор қилган бўлса, унда асар ҳали мавжуд эмас, лекин жанр аллақачон мавжуд. Аслида, шунинг учун Цв.Тодоров "тарихий" ва "назарий" жанрларни ажратишни таклиф қилганлигини асослайди.

ХУЛОСА

Жанр тушунчаси икки асосий йўналишда намоён бўлади. Биринчидан, тарихий назарий характернинг концептуал таърифи сифатида у адабий асарларни таснифлашнинг универсал бирлиги вазифасини бажаради. Бунда жанр моҳиятини генетик жиҳатдан очиб беради. Жанр турли даврларда ривожланиб, такрорланиб бориши мумкин. Шакл ва мазмуннинг диалектик муносабати жанрнинг семантик ва тарихий асосидир.

Иккинчидан, жанр – бадиий асарга тарихий шароитда ёндашиш имкониятини яратадиган ҳодиса, яъни тўғридан-тўғри бадиий матн таҳлили поэтика муаммоларига олиб келади. Шунинг учун у типологик тушунча вазифасини бажаради.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (REFERENCES)

1. Павлуцкий Г. Г. К вопросу о значении термина «жанр». — Киев, 1895

¹⁵Тамарченко Н.Д. Жанр // Поэтика: словарь актуальных терминов и понятий. Москва: Изд-во Кулагиной «Intrada», 2008. -С.70.

¹⁶ Лейдерман Н.Л. Теория жанра. – Екатеринбург: ИФИОС «Словесник» УРО РАО; Урал. гос. пед. ун-т, 2010. С. 109.

¹⁷ Левинтова Е.Н. Опыт построения лингвистической теории жанра. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 1991. С. 9.

2. Стасов В. В. О значении Брюллова и Иванова в русском искусстве // Русский вестник. — 1861. — № 9. — С. 18.
3. Қаранг: Гончаров И. А. Собр. соч.: В 8-ми т. — М., 1980. — Т. 8. — С. 50
4. Достоевский Ф. М. Об искусстве. — М., 1973. — С. 219—220.
5. Марков Е. Романист-психиатр // Русская речь. — 1879. — № 5. — С. 249
6. Brunetière F. L'évolution des genres dans l'histoire de la littérature. — Paris, 1890.
7. Субботин А. С. Жанр как категория истории и теории литературы // Проблема стиля и жанра в советской литературе. — Свердловск, 1974. — С.16.
8. Веселовский А. Н. Историческая поэтика. — Л., 1940. — С 13
9. Арсеньев К. Новый опыт истории французской критики // Вестник Европы. — 1890. — № 12. —С. 740, 741, 758
10. Субботин А. С. О категории жанра и ее отношениях с «родами» и «видами» // Проблемы литературных жанров. — Томск, 1975. — С. 3
11. Тынянов Ю.Н. Вопрос о Тютчеве // Тынянов Ю.Н. Поэтика. История литературы. Кино. -Москва: «Наука», 1977. -С.39.
12. Тамарченко Н.Д. Жанр // Поэтика: словарь актуальных терминов и понятий. Москва: Изд-во Кулагиной «Intrada», 2008. -С.70.
13. Лейдерман Н.Л. Теория жанра. – Екатеринбург: ИФИОС «Словесник» УРО РАО; Урал. гос. пед. ун-т, 2010. С. 109.
14. Левинтова Е.Н. Опыт построения лингвистической теории жанра. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. –Москва, 1991. С. 9.

HOFIZ SHEROZIY RUBOIYLARIDA SO‘FIYLIK TA‘LIMOTI ALOMATLARI

Shomurodova Sevar Ilyasovna

O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti

Adabiyotshunoslik kafedrasida katta o‘qituvchisi

shomurodovas1964@gmail.com

Nuriddinov Nodir Nurmat o‘g‘li

TDSHU Eron-afg‘on filologiyasi kafedrasida dotsenti,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

nur_nn@mail.ru

Arifdjanov Zokir Tohirovich

O‘zXIA O‘zbek tili va mumtoz sharq

adabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi

zokirarifdjanov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqola so‘fiylik (tasavvuf)ning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan munozaralarning umumlashgan qisqacha sharhi, Hofiz Sheroziy ruboiylarida tasavvufona qarashlarning aks etishi, tasavvuf va fors poeziyasi orasidagi o‘zaro bog‘lanish masalalarini oydinlashtirishga bag‘ishlangan. Shuningdek, “so‘fizm” etimologiyasiga ham e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, so‘fizm, tariqat, naqshbandiya, ishroqiya, poeziya, g‘azal, ruboiy, ramz, fors she‘riyati, hijo, bahr, tarjima, mazmun.

ABSTRACT

The article is devoted to a brief overview of the debates that led to the origin of Sufism (mysticism), the reflection of views on Sufism in Hafiz Shirazi's Rubaiyats, and the clarification of the issues of interconnection between Sufism and Persian poetry. Attention is also paid to the etymology of "Sufism".

Key words: Sufism, tariqat, Naqshbandiyyah, ishraqiya, poetry, ghazal, rubai, symbol, Persian poetry, hija, bahr, translation, content.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена краткому обзору споров, приведших к зарождению суфизма (мистицизма), отражению взглядов на суфизм в рубайятах Хафиза Ширази, выяснению вопросов взаимосвязи суфизма и персидской поэзии. Внимание также уделяется этимологии слова «суфизм».

Ключевые слова: суфизм, тарикат, нақшбандийя, ишракия, поэзия, газель, рубайи, символ, персидская поэзия, хиджа, бахр, перевод, содержание

KIRISH

Soʻfiylik soʻzining kelib chiqishi, maʼnosi toʻgʻrisida juda koʻp taxminlar boʻlib, ularning ichida diqqatimizni tortgani quyidagilardir:

1. Islom dini endigina qaror topayotgan paytlarda musulmonlik yoʻlini tanlagan insonlar orasidagi muqim boshpanasi boʻlmagan gʻaribu gʻurabolar paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v) ning uylari yonida tiklangan chodirda tunar ekanlar. Bunday kishilar “ahli as-suffa”(chodirda tunaydiganlar) deyilgan (Umar Hayyom oʻz ruboiylarida sufiiy qarashlarni targʻib qilgani va hatto “hayyom” forschada “chodir”, yoki, “chodir tikuvchi” ekanini nazarga olsak, “sufiiy” soʻzi “ahli as-suffa”dan kelib chiqqani asosliroqdek tuyuladi);

2. “Suf” arabchada jun (jundan toʻqilgan kiyim) maʼnosini bildirishini, soʻfiylik tariqati tarafdorlari shunday kiyimda yurganliklari uchun soʻfiylik shu soʻz zaminida ham vujudga kelgan, degan fikr;

3. Abu Rayhon Beruniyning “sufizm - yunoncha *sofiya*-bilim, donishmandlik soʻzidan kelib chiqqan” degan mazmundagi fikri. Ulugʻ olimning X asrda yashagani, hamda biz tasavvur va taqqos yoʻli bilangina jonlantiradigan oʻsha davr voqealarini ul zot bevosita koʻrib, sharhlaganliklari, Abu Rayhon Beruniy har bir gapini bilim va tajribaga asoslanib aytganini hisobga olsak ushbu fikrni asosli deb aytish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nazariy adabiyotlar tadqiqi tavsifiy hamda komponent metodlar asosida amalga oshirildi.

Tasavvufona dunyoqarashni sheʼriyatda aks ettirish jihatlari. Soʻfiylik (at-tasavvuf) haqida soʻz ketganida bu tariqat asoschilari, nazariyotchilari, tashviqotchilari va tarafdorlarining asarlarida ramz va ishora yetakchilik qilishini yodda tutmoq zarur. Gapimizga hujjat tariqasida tasavvufdagi xojagoniy tariqati asoschisi Abduxoliq Gʻijduvoniyy r.a. (1103-1179) targʻib etgan shiorlar (“yotkard”, “bozgasht”, “nigohdosht”, “yoddosht”) ni, yoki naqshbandiya tariqatiga asos solgan Bahovuddin Naqshbandiy r.a. (1318-1389) ning bosh shiori boʻlmish “*dil ba yoru, dast ba kor*” ni, nihoyat, ishroqiya (“nur”) taʼlimotining asoschisi eronlik mutasavvif Shihobuddin Umar Suhravardiy r.a. (1152-1191) ning “Munis ul-ushshoq” asari tasavvuf falsafasi boʻlsa-da, bu asar boshdan-oyoq ramzlardan iborat ekanini taʼkidlashning oʻzi kifoya qiladi.

Bu misollarni aytib oʻtishimizdan maqsad - fors tilida aytilgan qisqagina ibora chuqur mazmunga ega boʻlib, vaqt oʻtishi bilan aforizmga aylansa-da, boshqa bir tilga tarjima qilish uzundan-uzoq sharh talab boʻlib qolishidir. Mohiyatan ramz, metafora, istiora, muqobala, tashbih, taqqosdan iborat fors poeziyasining nodir namunalarini tarjima qilish naqadar mushkulligi kunday ravshan.

NATIJARLAR

Hofiz ruboiylaridagi “lafz ul-g‘ayb”. XVIII-XXI asrlarning ayrim adabiyotshunoslari asarlarida “Tasavvuf fors va arab poeziyasi rivojiga katta hissa qo‘shdi”, mazmunidagi xulosalarni kuzatish mumkin.

Umar Hayyom ruboiylarini ingliz tiliga tarjima qilgan Edvard Fisjerald ham, Hofiz Sheroziy kulliyotini nemis tiliga tarjima qilgan Iogann Volfgan Gyote ham, Hofiz Sheroziyini rus tiliga (Daumerning nemischa tarjimasiga tayanib) o‘g‘irgan rus shoiri Afanasiy Fet ham, Jaloliddin Rumiylarini fransuz tiliga tarjima qilgan J. De Vallenbur ham, Sa‘diy Sheroziy, Farididdin Attor, Jomiy, Navoiy kabi sharqning buyuk shoirlari asarlarini tarjima qilgan Yevropaning boshqa katta-kichik namoyandalarining har bittasi ham o‘zlari boshlab qo‘ygan ishlari davomida fors tilining poetikligi, lug‘aviy boyligiga guvoh bo‘lish bilan birgalikda mazkur shoirlar iqtidori qarshisida lol qolib, ular siymosiga g‘oyibona ta‘zim bajo keltirgan bo‘lsalar ajab emas.

Chunki, biz quvvayi hofizamiz imkoni va maqolamiz maqsadidan kelib chiqib, nomlarini sanab o‘tgan forsiyzabon shoirlar o‘z g‘azallari, ruboiylari hamda boshqa asarlarida o‘z so‘fiylik qarashlari ma‘nosini ifodalashda shunday ramz, shunday ishoralar ishlatganlarki, ularni boshqa tilga o‘g‘irganda mazmun, hijo, qofiya, bahrni baravar saqlab qolish g‘oyatda mushkul vazifa bo‘lib qoladi. Ba‘zan esa ularning asarlaridagi so‘zlarning tarjima qilinayotgan tildagi ekvivalenti umuman mavjud emasligi ayon bo‘lib qoladi. Bunda esa asarning asliyatdagi go‘zalligi, musiqiyliigi, ohangdorligi va “lo‘ndaligi” ga sezilarli putur yetadi.

“Tasavvuf fors she‘riyatini rivojlantirgan”, deyish emas, “tasavvuf fors she‘riyatiga ilohiylik; o‘qiganda, yoki tinglaganda sodda-osongina tushunarli bo‘lib tuyuladigan, ammo, tushuntirib berish mushkul bo‘lgan sirli joziba va xush ohangdorlik, eng muhimi teran ma‘no baxsh etgan”, deyish ma‘qulroqdir.

Fors poeziyasi mavqeini baland ko‘tarib turganlar qatorida “lison ul-g‘ayb (sehrli so‘z sohibi)”, “shakarlab” va yana bir qancha taxalluslar bilan ham ulug‘lanadigan, XIV asrda yashab o‘tgan Shams-ul Hofiz ash-Sheroziy asarlarida “rind” so‘zi ko‘p uchraydi. Rind – so‘fiyona ta‘limot tarafdorlari tomonidan faqirlik, darveshona yashash va hatto, mayxo‘rlik, kayf-safo bilan umr kechirish, bu dunyo ishlariga butunlay beparvo bo‘lgan kimsa obrazi qilib tasvirlanadi.

MUHOKAMA

XIV asr shoiri bo‘lmish Hofiz Sheroziy ijodida so‘fiyona qarashlarning aks etishi masalasiga qaytadigan bo‘lsak, Rind – Hofiz she‘riyatidagi axloqiy ideal bo‘lib, rindona yashash orzusi Hofiz ijodining yo‘lboshchisidir. U rindlikni kuylar ekan, ayrim ikkiyuzlamachi odamlardan xoli bo‘lgan dunyo haqida orzu qiladi. Ha, Hofiz

munofiqlarga qarshi kurashishni targ‘ib qilmaydi, balki faqatgina rindona turmush tarzi orzusi bilan yashaydi. Uning she‘riyatida rind va darvish ijobiy qahramon qilib ko‘rsatilsa, zohid va voiz ularning tersi sifatida baholangan. Faqat va faqat Allohga ishonish (tavakkul) – so‘fiylikning asosiy aqidalaridan. Hofiz buni o‘z g‘azallarining bir matla‘sida shunday ifodalaydi:

*Birav, ey zohidu da‘vat makunam so‘i bihisht,
Ki xudo dar azal az bahri bihishtam nasirisht.*

Mazmuni: (bema‘ni gaplaringni to‘xtatgilu) ketaver, ey zohid, ki Alloh mening taqdirimga azaldan nimani bitgan bo‘lsa, shu bo‘lur.

Zohid – dunyo ishlaridan yuz o‘girib, o‘zini faqat toat-ibodatga baxsh etgan kishi. Shayx esa – sufiyning rahnamosi, piri, ustoz. Hofiz bu gapi bilan tasavvufda oliy maqom tutgan, haqiqiy shayx unvoniga munosib valiy zotlarni emas, o‘zini shayx maqomida ko‘rsatuvchi, riyokorlarni nazarda tutadi. Bu bayt tasavvuf shayxlarini tanqid, yoki riyokorlikda ayblash emas, aksincha, shayxlik orzusi bilan yashaydigan har kim ham bunga munosib bo‘lavermasligini ta‘kidlaydi.

Hofizning mana bu ruboiysida esa:

*Bargir sharobi tarabangezu biyo,
Pinhon zi raqibi sifla bistezu biyo!
Mashinav suxani xasm, ki binshinu marav,
Bishnav az man in nukta, ki barxezu biyo!*

Yuzaki qaraganda bu ruboiy kayf-safo, mayparastlikni targ‘ib etayotganday bo‘lib ko‘rinadi. Shunday bo‘lganida va bu ruboiyning yashirin ichki mazmunidan bexabar qolganimizda ham uni XIX asr ikkinchi yarmidan XX asrning dastlabki choragigacha Rus poeziyasida keng tus olib ketgan “simvolizm”ga dastur qilib olish mumkin bo‘lard. Ammo, Hofiz asarlari bunaqa kichkina maqsad va torgina ma‘noli bo‘lganida sakkiz asrdan buyon ahli ash‘orni qoyil qoldirib, hayratga sola olmagan, takror-takror esga olinadigan bo‘la olmasdi. Bu ruboiy ham aslida “lison ul-g‘ayb”lik mahsulidir. Chunonchi, ruboiyning so‘zma-so‘z tarjimasi:

“shodlik manbai bo‘lmish sharob birla kel, ko‘ngli qora raqibdan pinhona kel! Nodo‘stlar gapiga quloq solmagil, (do‘stona) gapim shulkim, yonginamga kel!” bo‘lsa-da, uning “pinhoni mazmuni” boshqacha. Fors poeziyasi tashqi (shaklan) va ichki (ishoraviy, ramzlar yordamidagi) shakl va mazmunga egaligini nazarda tutsak, ruboiyda dunyoning o‘tkinchi, mayda-chuyda, arziyas tashvishlariga o‘ralashib qolmay, yaxshilik qilish, oliy maqsadlarga intilish, “sharobi antahur” mastligi (Alloh zikri) bilan yashash, insonlarga nisbatan mehrlili va muruvvatli bo‘lish, ko‘ngilni qora niyatlar - g‘iybat, hasad, fisqu fasodlardan ozod tutishni tashviq etadi.

Hofiz o‘zining boshqa bir ruboiysida:

*Ne davlati dunyo ba sitam mearzad,
Ne lazzati mastiyash alam mearzad.
Na hafthazorsola shodii chahon
In mehnati haftro 'za g'am mearzad, – deydi.*

O'zbekcha mazmuni: dunyoning davlati (bitta) sitamga arzimas, mastlikning lazzati alamga arzimas, jahonning yetti ming yillik shodligi bu yetti kunlik g'amga arzimas.

Shoirning yana bir ruboiysi "*Forig' dili on kase, ki monandi hubob, Ham dar sari mayxona sarandoz shavad*" so'zlari bilan tugallangan.

O'zbekcha mazmuni: (Qaynayotgan) suv yuzidagi pufakday (jonfido aylashga tayyor) bo'lib va mayxona ostonasidan bosh ko'tarmaydigan kimsagina qalban ozoddir.

*Olam hama sar ba sar rabotest xarob,
Dar choi xarob ham xarob avlotar,*

degan satrlar bilan tugallangan ruboiy ham Hofiz ijodiga mansub.

Mazmuni: (Garchi) olam boshdan bosh xarob bino (kabi) bo'lsa-da, shu xarob bino ichra xarob bo'lmoq (kerak) yaxshidir.

*Bo shohidi sho 'xu shangu bo barbatu nay,
Kunchevu farog'atevu yak shishai may.
Chun garm shavad zi boda moro ragu pay,
Minnat mabaram yak chav az Hotami Tay!*

Mazmuni: Bir shisha mayu barbat va nayning sho'x, quvnoq sadolari shohidligida bir burchakda o'tirsamu, vujudim bodadan qizib borayotganini his qilsam, Hotami Toydan bir dona arpa tilamasdim.

*Gar hamchu man aftodai in dom shavi,
Ey bas, ki xarobi bodavu chom shavi,
Mo oshiqu rindu mastu olamso 'zem,
Bo mo manishin vagarna badnom shavi!*

O'zbekcha mazmuni: Men kabi (sen ham) bu domga ilinganingda (edi), bir qadah bodaga qurbon bo'lishga rozi turarding, bizku rind, mast va dunyo bexabarmiz, badnom bo'lishdan qo'rqsang, biz bilan o'tirma.

*Ishqi ruhi yor bar mani zor magir,
Bar xastadiloni rindi xammor magir.
So'fi, chu tu rasmi rahravon medoni,
Bar mardumi rind nukta bisyor magir!*

Mazmuni: Mening yor ishqidagi gaplarimni oh-zor deb bilma, xastadil rindlar qo'lidagi qadahni tortib olma, so'fi, sen (faqat) tekis yo'lni bilasan, (ko'p yo'lni

bilguvchi) rindni (o‘z gaplaring bilan) (u tanlagagan to‘g‘ri yo‘llarning biridan) ozdirma!

XULOSA

“Rind” “darajasi”ni olish (ahli zuhd nuqtai nazarida “rind darajasigacha tubanlashish”) uchun ko‘p pog‘onalarni bosib o‘tish talab etiladi. Fors she‘riyatida (shu jumladan Hofiz ruboiylarida) ijobiy sifatlanguvchi “rind”:

- qo‘ldan ketgani (o‘tmish) ga sajda ham taassuf ham qilmaydigan;
- kelish ehtimoli bo‘lgan yaxshilik bilan mag‘rur, yoki kelish ehtimoli bo‘lgan yomonlikdan tushkun holatga tushmaydigan, kelmaganga o‘zini baxsh etmaydigan;
- hoziri(naqdi)dan qanoatlanib va shuni baxt hisoblab yashaydigan;
- na molu davlat, na mansabu martabaga, umuman, dunyoning har qanday tashvishiga bepisand kimsadir.

Hamma gap shundaki, tasavvufda ijobiy baholanadigan rind, darvish, mug‘ va shu kabi boshqa kimsalarning oliy orzusi bo‘lmish: may, mayxo‘rlik, mastlik, “yor visoli”, “xarobotda xaroblik” aslida Alloh madhi, Alloh zikri, o‘zni xudojo‘ylikka butkul baxsh etish, Alloh qudrati oldida hamma narsaning hechligiga ishora va bularni ramziy ifodalashdir.

Muxtasar qilsak, tasavvuf islom dinining rivojiga katta hissa qo‘shgan va bu hissaning salmoqli qismi fors poeziyasiga to‘g‘ri keladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Мирзоев А. М. Рудаки. Жизнь и творчество. – М., 1968.
2. Umar Hayyom. Ruboiylar. “Raduga” nashriyoti. – T., 1985.
3. Hofizi Sherozy, “Kulliyot”. Nashriyoti “Irfon”. – Dushanbe, 1983.
4. “Sino” jurnali, №34-35-36. “Bunyod-e andeshe-ye eslomi” nashriyoti, – Tehron. 2009 yil,

МЕТАФОРНИНГ “ЎТКАН КУНЛАР” РОМАНИДА ҚЎЛЛАНИШИ

Бозоров Зокир Мехрикулович

PhD, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети Таълим сифатини
назорат қилиш бўлими бошлиғи

АННОТАЦИЯ

Маълумки, стилистика тилишуносликнинг бир бўлими бўлиб, тилдаги мулоқотнинг турли шароитлари учун бир ҳил бўлмаган танлов усуллари ҳамда тил бирликларининг ягона мазмун бутунлигида ташиқил қилиниши йўлларини, шунингдек ушбу принцип ва усулларда тилдан фойдаланиши турлари, услублари белгиланадиган фарқлар ва уларнинг тизимини ўрганади. Бадиий матнда турли ҳил воқеа-ҳодисалар, предметлар, асар қаҳрамонларини тасвирлашда стилистика жуда муҳим ҳисобланади.

***Калит сўзлар:** стилистика, метафора, маданият, “Ўткан кунлар”, поэтик тасаввур, субъектив мазмун, индивидуал-ижодий ўзига хослик.*

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТАФОРЫ В РОМАНЕ «МИНУВШИЕ ДНИ»

Бозоров Закир Мехрикулович,

PhD, начальник отдела контроля качества образования Узбекского
государственного университета мировых языков.

АННОТАЦИЯ

Известно, что стилистика — раздел языкознания, изучающий разнообразные способы подбора языковых средств для различных условий языкового общения, а также организацию языковых единиц в единое содержательное целое. Стилистика анализирует различия и систему, определяющую типы и стили использования языка, основываясь на принципах и методах.

В данной работе освещается важная роль стилистики при описании разнообразных событий, предметов и персонажей в художественном тексте. Особое внимание уделяется ключевым понятиям, таким как метафора, культура, «Минувшие дни», поэтическое воображение, субъективное содержание и индивидуально-творческая личность.

***Ключевые слова:** стилистика, метафора, культура, «Минувшие дни», поэтическое воображение, субъективное содержание, индивидуально-творческая личность.*

USE OF METAPHOR IN THE NOVEL “THE DAYS GONE BY”

Bozorov Zakir Mekhrikulovich,

PhD, head of the Department of quality control of Education of the Uzbek State University of World Language.

ABSTRACT

It is known that stylistics is a branch of linguistics that studies various ways of selecting linguistic means for various conditions of linguistic communication, as well as the organization of linguistic units into a single meaningful whole. Stylistics analyzes the differences and system that defines the types and styles of language use based on principles and methods.

This work highlights the important role of stylistics in describing various events, objects and characters in a literary text. Particular attention is paid to key concepts such as metaphor, culture, “The Days Gone by”, poetic imagination, subjective content and individual creative personality.

Key words: *stylistics, metaphor, culture, “The Days Gone by”, poetic imagination, subjective content, individual creative personality.*

КИРИШ

Дунё тилшунослигида стилистиканинг объекти ҳисобланган стилистик воситаларга қуйидагилар киритилади:

1) фонографик стилистик воситалар: аллитерация, ономотопия, пунктуация, метографик воситалар (остиға чизиш, шрифт билан ажратиб кўрсатиш, бош ҳарфлар);

2) синтактик стилистик воситалар: инверсия, парцелляция, такрорлаш, риторик саволлар, синтактик параллелизм, анафора, эпифора, инверсия, эллипсис кириш сўзлари, мурожаатлар);

3) лексик стилистик воситалар: эпитет, киноя, ўхшатиш, метафора, персонификация, литота, оксюморон, аллитерация, аллюзия, амплификация, амфиболия, антитеза, каламбур, градация, муболага, сарказм, синекдоха, перифраз, параллелизм, метонимия, эвфемизм ва бошқалар.

Юқорида таъкидлаб ўтилган стилистик воситалар бадий услубдаги матнларда қўлланиш жиҳатидан ўзига хос хусусиятларга эга. Асарнинг яратилиш даври, жанри, муҳити ва ҳақозоларга кўра стилистик воситаларнинг қўлланишидаги фаол ёки нофаоллигини кузатиш мумкин.

Анъанавий тилшунослик нуқтаи назардан, одатда, метафора шеърятда ишлатиладиган нутқ иборалари таркибига киради. Бу сўзни ўз маъносидан

бошқа бир маънода, яъни мажозий маънода қўллаш усулидир. Роберт Фростнинг таъкидлашича, “шеърият бир тушунчани номлаган ҳолда, бошқасига маъно бериш имконини беради”. Сўзлар ўзларининг асл маъноларига эга, аммо бундан ташқари кўчма маънода ишлатилиши мумкин.

Масалан: The girl is a rose – Қиз бола - бу атиргул [Kovecses, 1986].

Ушбу жумлани том маънода кўриб чиқадиган бўлсак, мантикий мазмунни кўрсата олмаймиз. Аммо “атиргул” сўзи “гўзаллик”, “мулойимлик”, “софлик” рамзи сифатида мажозий маънода қиз болага нисбатан қўлланилиши мумкин. Бундай ёш аёл хушбўй ифорли, гўзал, ўзига жалб этувчи ва шу каби жиҳатлари билан атиргулга ўхшайди. Шеърият мутахассислари сўзларнинг мажозий маънода қўлланиши шоирлар учун қўл келишини таъкидлайдилар.

Ҳис-туйғули ва эхтиросли жараёнлар кундалик ҳаётимизга артистизм унсурларини олиб киради, демакки, у билан бирга нутқимизда сўз истеъмолининг нотабий таъйинини кўрсатувчи ва борлиқни бадий тасвирлашнинг антиқа усулидан иборат бўлган метафора кенг қўлланади.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Метафора назариясининг яратилишига дахлдор вазифалар етарли даражада изоҳланиш имкониятига эга бўлиб, фақат лингвистика доирасида ҳал этилиши мумкин эмас ва англаш жараёнлари соҳаларини инобатга олинишини тақозо этади.

Когнитив назария тадқиқот марказига инсонни қўяди. У метафорани тушунишни нутқнинг яратилиши ва идрок этилишига ҳамроҳлик қилувчи ментал-миллий жараёнлари билан боғлайди. Метафора атроф-муҳит тўғрисида янги маълумот олиш имкониятини яратувчи икки моҳиятнинг ўзаро ҳамкорлигидан иборат бўлган ментал ва лисоний механизм сифатида тасаввур қилинади.

Л.Л.Нелюбиннинг таъкидлашича, “метафоранинг мақсади нарса ёки ҳодисанинг шунчаки номланиши билан эмас, балки унинг экспрессив тавсифи билан боғлиқ” [Нелюбин, 1990].

Нутқимизда эмоционал-ҳиссий таъсир кўрсатиш зарурати юзага келганда, метафора пайдо бўлади. “Адресатга эмоционал таъсирдан нафақат ёзувчи, публицист, жамоат арбоби, ва умуман жамиятнинг исталган аъзоси манфаатдор. Мақсадларнинг умумийлигидан қўлланилаётган лисоний усулларнинг умумийлиги келиб чиқаради. Ҳис-туйғуларни ва эмоционал босимни ифодалаш соҳаси кундалик нутқимизга артистизм унсурини, у билан бирга эса, метафорани ҳам олиб киради” [Riker, 1990].

Метафора бадий асар муаллифи индивидуал услубининг таркибий қисми ҳисобланади. Шу билан бирга, муаллифнинг атроф-муҳитга субъектив муносабатини акс эттириб, асар персонажлари тавсифига хизмат қилади.

This valuable work is still in the manuscript state and awaits its study. This article provides detailed information about the social significance of the work and its manuscripts. This makes it easier for researchers and readers alike to use this important book.

Key words: *Hakim Termizi, Al-farqu baynal ayati wal-karamat, Paris, Turkey, manuscript, edition.*

КИРИШ

Тарихдан маълумки, Ўрта Осиё замини қадимдан инсониятнинг миллий-маданий тараққиётидаги йирик ўчоқларидан бири ҳисобланган. Бу ушбу заминдан етишиб чиққан кўплаб буюк алломалар қолдирган маънавий мерослардан ҳам маълумдир. Айниқса, ўрта асрлар тарихида ушбу ҳудудда илм-фаннинг бир қанча соҳаларида юздан зиёд олимлар самарали фаолият юритган. Мана шундай машҳур сиймолар силсиласида исломий илмларнинг бир нечасида асосчи сифатида эътироф этиладиган ислом уйғониш даврининг йирик вакили Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али ибн Ҳасан ибн Бишр Ҳаким Термизий (тахм. 205-320/820-932) раҳматуллоҳи алайҳ алоҳида ўрин эгаллайди.

Олимнинг ҳар бир асари алоҳида тадқиқот мавзуси бўлиб, “Ал-фарқу байнал аяти вал-каромат” (Мўжиза ва каромат ўртасидаги фарқ) китоби ҳам бундан мустасно эмас. Унда жуда кўплаб масалалар кўрилган бўлиб, умуман, Пайғамбарларга хос мўъжизалар ва уларнинг турлари, даражалари, мўжиза фақатгина пайғамбарларга хос эканлиги, шунингдек, каромат эса авлиёларга хос тушунча эканлиги борасида қизиқарли мулоҳаза этиладиган энг қадимги ва чуқур таҳлилли асар ҳисобланади.

МУҲОКАМА

Дарҳақиқат, асарда зикр этилган Пайғамбарларга хос тушунча бўлган “Мўъжиза” сўзи араб тилида “ожиз қолдирувчи” деган маънони билдиради. Уламолар истилоҳида эса қуйидагича: “Пайғамбарлик даъвосини қилаётган

шахсининг Аллоҳ таоло томонидан тасдиқланишига далолат қилувчи ғайриоддий иш мўъжизадир”. Ушбу таърифдан мўъжизанинг шартлари келиб чиқади.

Мўъжиза Аллоҳ таолонинг иши бўлиши, инсоннинг иши бўлмаслиги шарт. Мўъжиза одатдан ташкари иш бўлиши, одамлар одатланиб қолмаган иш бўлиши шарт. Мўъжиза унга қарши чиқишнинг имкони йўқ иш бўлиши, одамлар унга ўхшаш нарсани қила олмасликлари шарт.

“Каромат” сўзи “карума”, “якруму” феълидан олинган масдар бўлиб, юкорилик ва шараф маъносини англатади. Каромат шу маънода икки хил бўлади:

1. Аслий.
2. Касбий.

Биринчи (аслий каромат)нинг мисоли куйидаги оятда:

وَلَقَدْ كَرَّمْنَا بَنِي آدَمَ وَحَمَلْنَاهُمْ فِي الْبَرِّ وَالْبَحْرِ وَرَزَقْنَاهُمْ مِنَ الطَّيِّبَاتِ وَفَضَّلْنَاهُمْ عَلَى كَثِيرٍ مِمَّنْ خَلَقْنَا تَفْضِيلًا

Батаҳқиқ, Бану Одамни азизу мукаррам килиб қўйдик ва уларни қуруқлигу денгизда (улов-ла) кўтардик ҳамда уларни пок нарсалар ила ризқлантирдик» (Исро сураси, 70-оят).

Ушбу каромат мўмин бўлсин, кофир бўлсин, башариятнинг ҳамма аъзолари учун умумийдир.

Иккинчи (касбий каромат)нинг мисоли:

يَا أَيُّهَا النَّاسُ إِنَّا خَلَقْنَاكُمْ مِنْ ذَكَرٍ وَأُنْثَىٰ وَجَعَلْنَاكُمْ شُعُوبًا وَقَبَائِلَ لِتَعَارَفُوا إِنَّ أَكْرَمَكُمْ عِنْدَ اللَّهِ أَتْقَاكُمْ إِنَّ اللَّهَ عَلِيمٌ خَبِيرٌ

«Албатта, Аллоҳнинг ҳузурида энг ҳурматлийингиз энг тақводорингиздир» (Хужжурот сураси, 13-оят).

Бу каромат такводор мўминда ҳосил бўлади. Одатдан ташкари ишларни каромат дейиш мажозийдир. Чунки Аллоҳ таоло ўша ишларни тақводор мўминнинг икромии учун унинг томонидан содир этади. Аллоҳ таолонинг икром қилиши ўша ишларнинг содир бўлишига сабаб бўлади.

Кароматнинг зоҳир бўлишидаги ҳикмат каромат содир бўлганидан сўнг валийнинг ишончи яна ҳам зиёда бўлиб, дунёдаги зухди-таквоси кучайиб, ҳавойи нафс даъвоси йўқолишидир.

Кароматларнинг ростлигига далил:

1. Аллоҳ таолонинг Биби Марям қиссасидаги ушбу ояти:

كُلَّمَا دَخَلَ عَلَيْهَا زَكَرِيَّا الْمِحْرَابَ وَجَدَ عِنْدَهَا رُزْقًا

“Закариё ҳар сафар унинг олдига - меҳробга кирганида унинг ҳузурида ризқ кўрди”. (*Оли Имрон сураси, 37-оят*).

2. Куръони Каримдаги Кахф (ғор) соҳибларининг узун киссаси.

3. Имом Бухорий ва Имом Муслимларнинг икки “Саҳиҳ” китобларидаги кирган горларининг оғзига харсанг тушиб колган уч кишининг қиссаси.

4. Куръони Каримдаги куйидаги оят:

وَمَنْ يَتَّقِ اللَّهَ يَجْعَلْ لَهُ مَخْرَجًا وَيَرْزُقْهُ مِنْ حَيْثُ لَا يَحْتَسِبُ

“Ким Аллоҳга тақво қилса, унинг йўлини очиб қўядир. Ва унга ўзи ўйламаган тарафдан ризқ берур”. (*Талоқ сураси, 2-3-оятлар*).

5. Ва ушбу оят:

إِنْ تَنْفُوا اللَّهَ يَجْعَلْ لَكُمْ فُرْقَانًا

“Агар Аллоҳга тақво қилсангиз, сизга фурқон килиб беради”. (*Анфол сураси, 29-оят*).

Ушбу икки оятда валийликнинг шарти бўлмиш тақво зикр килинди. Сўнгра тақводор валийнинг каромати зикр этилди. Бу унга ҳамма мусибатлардан қушойиш берилиши, ризқининг ўйламаган, билмаган томондан берилиши ва ҳақ билан ботил орасини фарқловчи нурнинг берилишидир.

НАТИЖАЛАР

Дарҳақиқат, юқорида ўтган маълумотлардан Ҳаким Термизийнинг “Ал-фарқу байнал аяти вал-каромат” асари тасаввуфий юсинда ёзилган қимматли асар бўлиб, унинг борасида тадқиқ ва таҳқиқ ишларини амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида айтиш керак-ки, “Ал-фарқу байнал аяти вал-каромат” асари Ҳаким Термизийнинг муҳим ва йирик асарларидан ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан ўша рисола илмий жихатдан ўрганиб, ундаги улкан ғояларни тадқиқ этиб, турли тилларга таржима қилиш бугунги кун олимларининг муҳим вазифаларидандир.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Али ибн Ҳасан Термизий. Ал-фарқу байнал аяти вал-каромат. Қўлёзма. Туркия: Исмоил Соиб
2. Холид Заҳрий. Ҳаким Хуросон ва анис аз-замон. – Марокаш: Марказ ад-дироса вал-абҳас ва ихя ат-турос, 2013.

O‘ZBEK JADID YETAKCHILARINING TIL VA YOZUV MASALALARIGA MUNOSABATI

Tog‘ayev To‘lqin Mamanazarovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
togay-tm@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek jadidlari yetakchisi Munavvar qori va uning tarafdorlari hamda “Chig‘atoy gurungi” a‘zolarining til, alifbo va imlo masalasiga yondashuvi yoritilgan. Ular o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyatlar bu davrdagi konkret tarixiy sharoit, taraflarning Turkiston o‘lkasida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ne chog‘li ishtiroki, tutgan pozitsiyalaridan kelib chiqib talqin qilingan.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, til, alif va imlo, islohot, “Chig‘atoy gurungi”.*

ATTITUDE OF UZBEK JADID LEADERS TO ISSUES OF LANGUAGE AND WRITING

ABSTRACT

This article examines the approach of Munavvarkori, his supporters and members of the Chigatoy Gurungi to the issue of language, alphabet and orthography. The conflicts that arose between them were interpreted based on the specific historical conditions of this period, the active participation of the parties in the socio-political processes taking place in Turkestan, and the positions they occupied.

Keywords: *Jadidism, language, alphabet and spelling, reform, “Chigatay Gurungi”.*

KIRISH

O‘zbek jadidchiligi yetakchisi Munavvar qori Abdurashidxonov (1878-1931) millat va yurt istiqloli uchun kurashgan yirik va atoqli siymodir. U nafaqat Toshkent jadidlarining otasi, balki Behbudiydan keyin butun Turkiston jadidlarining yetakchisi edi. Chor mustamlakachiligi davrida zulmat va asoratga solingan, erki, huquqi va taraqqiyotdan bebahra tutilgan xalqini ma‘rifat yo‘li bilan tarbiyalashga bel bog‘ladi. Jadid ziyolisi bo‘lishdan tortib, safdoshlari, maslakdoshlarini siyosiy harakatlarga boshlagan yo‘lboshchi o‘laroq faoliyat ko‘rsatdi. O‘lkada sho‘rolar hokimiyati o‘rnatilgach, hali dolg‘ali pallalarda qizg‘in siyosiy kurashlar girdobida bo‘ldi. Mustabid tuzum qudratga kelgach, imkoniyati bo‘lgan barcha jabhalarda o‘z yorug‘ g‘oyalarini, niyatlarini amalga oshirishga intildi.

Munavvarqori jadid yetakchisi, buyuk istiqlolchi, siyosiy arbob bo'lish qatorida o'lka madaniy hayotida kechgan til, alifbo-imlo masalalari bilan ham jiddiy shug'ullangan. Bunga doir o'tkazilgan anjuman va qurultoylarda faol ishtirok etgan. Matbuotda chiqishlar qilgan. Pedagog, tilshunos sifatida o'zi tashkil qilgan yangi usul maktablari uchun "Adibi avval", "Adibi soniy" (1907), Qayum Ramazon, Shorasul Zunnun bilan hamkorlikda uch qismdan iborat «O'zbekcha til saboqlig'i» (1925) kitobini nashr etdi.

O'zbek jadidchilik harakatining yana bir yirik vakili Ashurali Zohiriy (1885-1937) sanaladi. Samarqandda Behbudiy, Toshkentda Munavvarqori jadid ijtimoiy harakatining boshida turgan bo'lsa, Ashurali Zohiriy Farg'ona vodiysi ma'rifatparvarlarining yetakchisi edi. U o'zbek ma'rifatparvarlarining ko'pchiligi singari milliy uyg'onish davri ijtimoiy-ma'naviy hayotining turli sohalarida faoliyat ko'rsatdi. Zohiriy mashhur pedagog, jur'atli jurnalist, yetuk tilshunos olim, adabiyotshunos, tarixchi va tarjimon sifatida faoliyat olib bordi. Yurt istiqloli uchun siyosiy maydonda qizg'in kurashgan qahramon bu yo'lda qurbon bo'lgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Keyingi yillarda chop etilgan o'zbek tilidagi ilmiy tadqiqotlarda XX asrning birinchi choragida Turkiston o'lkasida milliy ziyolilarning arab alifbosini isloh etish harakatlariga baho berilganda, ko'proq bir yoqlama yondashuv ko'zga tashlanadi. Turkiston ziyolilari o'rtasida shu tufayli yuzaga kelgan ziddiyatlarni baholashda hozirda turlicha qarashlar mavjud. Ko'p hollarda bu yuzadagina o'rganilib, eski imlochi va yangi imlochilar o'rtasidagi kurash, nari borsa, o'zbekparastlarning panislomist va panturkistlarga qarshi kurashi sifatida talqin qilinadi.

Sho'rolar davrida milliy burjuaziya ziyolilari, «to'dachilar» sifati bilan badnom qilib kelingan Munavvarqori, Ashurali Zohiriy va ularga hamfikr milliyatchilar bilan "Chig'atoy gurungi" a'zolari o'rtasida alifbo, imlo, adabiy til masalalarida kelib chiqqan ziddiyat, kurashlarni avvalo bu davrdagi konkret tarixiy sharoitdan, bu ikki guruhning Turkistonda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ne chog'li ishtiroki, voqelikka munosabatlari, tutgan pozitsiyalaridan kelib chiqib izohlash zarur.

Fitrat rahbarligida ish olib borgan "Chig'atoy gurungi" madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy tashkilot sanalgan. 1919-yilning boshida Milliy ishlar komissarligi tomonidan rasman tasdiq qilingan. "Chig'atoy gurungi" madaniy merosimizni to'plash, o'rganish va ulardan xalqni bahramand etish, o'zbek adabiy tili, milliy yozuv va adabiyotimizni yaratish va yuksaltirish masalalari bilan shug'ullangan. Jamiyat a'zolaridan Qayum Ramazon, Elbek, Shokirjon Rahimiy, Shorasul Zunnun, Oltoy va Botu imlo masalalari bilan maxsus shug'ullanuvchi "Chig'atoy

gurungi”ning “imlo to‘dasi”da ish olib borganlar. Yangi imlochilar o‘zlari isloh etgan imloni gazeta sahifalarida e‘lon qilib, targ‘ib qila boshladilar. Ikki oylik o‘qituvchilar tayyorlash kurslari ochib, yangi imloni o‘rgata boshladilar. “Chig‘atoy gurungi” a‘zolarining o‘qituvchilar uchun imlo qo‘llanmasi bo‘lgan “Bitim yo‘llari” nomli bitikchasi 1919-yilda Maorif komissarligi ruxsati bilan chop etildi. Ko‘pchilik yosh ziyolilar, o‘qituvchilar “Chig‘atoy gurungi” imlosini yoqladilar va ularga ergashdilar.

Munavvar qori va Ashurali Zohiriy o‘z tarafdorlari bilan yangi imloga qarshi bo‘ldilar. Turkiy xalqlar uchun o‘rta bir imlo, yagona yozuv fikrini yoqlagan bu zotlarning pozitsiyasi Turkistonda kechayotgan madaniy, siyosiy voqealar jarayoni bilan bog‘liq edi. Ayni chog‘da yangi imlochilar ilgari surgan alifbo-imlo tamoyillarida ayrim kamchiliklar mavjud ediki, buni vaqtida Ashurali Zohiriy, hatto bir muddat “Chig‘atoy gurungi”ga a‘zo bo‘lgan Shorasul Zunnun matbuotda ko‘rsatib o‘tgandi [Ashurali Zohiriy, 1919; Elchi, 1920]. Maorif komissarligi qo‘llagan “Chig‘atoy gurungi” a‘zolari tashabbusi bilan Toshkentda 1921-yilning boshida Til va imlo qurultoyi bo‘ldi. Qurultoyda eski alifbo-imlo savod chiqarishga, maktab-maorif rivojiga, madaniy taraqqiyotga to‘sqinlik qilayotgani sababli rasmiy isloh etilib, “Chig‘atoy gurungi”ning imlo asoslari qabul qilindi. Ko‘pchilik ziyolilar, o‘qituvchilar yangi imloni yoqlab, buni qo‘llab-quvvatladilar. Qurultoyda imlo masalasida ziyolilar o‘rtasida fikriy ajralish bo‘ldi. Bu borada ziddiyat yangi imlo masalasi o‘rtaga chiqqan 1919-yildan paydo bo‘lgan edi.

Gurungchilar adabiy til va yozuv masalasida asosan o‘zbek millati manfaati nuqtayi nazaridan ish ko‘rdilar. To‘g‘rirog‘i, ular yangi o‘zbek milliy adabiyoti va adabiy tili, ilm-madaniyatini yaratishni maqsad qildilar. Yangi adabiyot va adabiy tilni chig‘atoy adabiyotining chin vorisi bilib, uni Navoiy davridagidek burungi mavqeyiga, shon-shavkatiga qaytishini, boshqa turkiy tillar uchun ham o‘rnak adabiyot, namuna adabiy til holiga ko‘tarishni istadilar. Faqat buni yangi tarixiy sharoitda, o‘zbek millati nomi bilan bog‘liq ravishda vujudga chiqarmoqchi bo‘ldilar. “Chig‘atoy gurungi”ning maqsadi Fitratning ushbu so‘zlarida yanada yaqqol ko‘rinadi: “Chig‘atoy adabiyoti turli shevali turk adabiyoti orasida eng yuksak, eng muhim o‘rinni tutg‘ondur. Boshqa shevadagi turk adabiyoti bunga ushoqliqlari, buning shogirdliklari bilan maqtanib turalar. Chig‘atoy adabiyoti turk adabiyoti orasida yuksak, yuqori, oliy bo‘lg‘onlig‘in qabul etmak mutlaqo lozimdir... Adabiyotimizning turk adabiyotlari orasida eng yuqori o‘rinda turg‘onidan, tilimizningda turk tillari orasida yuqori mavqe tutg‘onini chiqarg‘on kabi bo‘ldim” [Birinchi o‘lka o‘zbek til va imlo qurultoyi, 1921].

“Chig‘atoy gurungi” azolari «butun turk urug‘larining tili bir turli bo‘lsin va yozishlari ham bir qoida ostida yozilsin” kabi masalalarni imkonsiz deb bilganidan

yolg'iz o'zbeklarning "o'ziga tegishli bo'lgan shevasida va o'ziga tegishli sanalgan imlosida o'qib, yozishlari hamda shul imlo va tilni yalpi shul xalqning o'ziga qabul etdirish" fikri bilan ish ko'rdilar. Gurung a'zolaridan Elbek bu haqda shunday yozadi: "1921-yilgi Til-imlo qurultoyiga "Turkistonda bo'lg'on turk urug'larining yolg'iz o'zbeklarnigina chaqirmoqchi bo'ldiq ham bu qurultoyi "O'zbek qurultoyi" deb atadik" [Elbek, 1920].

Munavvar qori, Musa Begiyev, Ashurali Zohiriy va ularga maslakdosh millatparvarlar Turkiston ozodligi uchun kurash ketayotgan bir sharoitda milliy-madaniy jabhada yolg'iz o'zbek millati nomi bilan yo'l tutilsa, kurashning dushman foydasiga hal bo'lishi mumkinligini ta'kidlar edilar. Shuning uchun ham ular O'rta Osiyodagi turkiy xalqlar uchun umumiy bir til, yagona yozuv va adabiyot yaratishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar [Мунаввар қори, 2001; 55].

Aslida bu g'oya Munavvar qori, Ashurali Zohiriy kabi millatparvarlarning maslakdoshi, Turkiston istiqloolchilik harakati rahbarlaridan biri yirik olim va siyosat arbobi Zaki Validiy tomonidan ilgari surilib, quvvatlanayotgan edi. Bu umumiy til asosida turkiy xalqlarning umum adabiyotini yaratish ko'zda tutilgan. Z.Validiyning fikricha, "milliy qiymatlar va dostonlar ham faqat qozoq va urug'li o'zbek, qirg'iz, qoraqalpoq guruhlari bo'yicha yaxshi muhofaza etilganligidan kelajakda milliy adabiyotning ham bu guruhlar atrofida vujudga kelajagi, kent turki, totor va boshqird qabilalarining ularga qo'shiluvlari o'z-o'zidan anglashiladi" [Zeki Velidi, 1929; 575].

Bu o'ziga xos panturkistik g'oya Turkiston hudididan chetga chiqmagan, uni butun turkiy dunyoga nisbatan amalga oshirish xomxayol ekanini bu fikr tarafdorlari yaxshi bilishgan. Shuning uchun ham O'rta Osiyo turkiy xalqlari (o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq va boshqalar)ning umumiy til va yozuv birligi bu xalqlarning birdamligini mustahkamlaydi va bunday yagona harakat bilan Turkiston mustaqilligiga tezroq erishish mumkin, deb hisoblar edilar. Bu vaqtda Zaki Validiy, Munavvar qori, Ashurali Zohiriy singari g'oyaviy rahnamolar istiqloolchi kuchlar bilan Turkiston Milliy Birligi tuzib, milliy ozodlik kurashi olib borayotgan edilar [Ўзбекистоннинг янги тарихи, 2000; 305-312]. Til va yozuv masalasi bu davrda ijtimoiy-madaniy sohada muhim siyosiy ahamiyat kasb etayotgani sababli Munavar qori va uning tarafdorlari hamda "Chig'atoy gurungi" o'rtasida alifbo-imlo, adabiy til sohasida jiddiy kurash kechgan.

1922-yil fevral oyida Toshkentda chaqirilgan O'zbek madaniyati va xodimlarining o'lka qurultoyi ham til-imlo masalasi tufayli ikki taraf guruh o'rtasidagi bahs va janjallar bilan o'tdi. Milliy taraqqiyot omili bo'lgan maktab-maorif, matbuot-nashr ishlarida turlilik, parokandalik yuzaga keldi. Buning salbiy oqibatini anglagan ziyolilar o'rtadagi nizoga barham berishga va birlashishga qaror

qildilar. Toshkentdagi o‘zbek maorif va madaniyat xodimlari butun o‘lkadagi maorifparvar kuchlarga qarata “Yerlik xalq maorifida muttahid frunt” shiori bilan chiqdilar. Bunda Munavvar qori, Mannon Ramz, Zahiriddin A‘lam, Elbek, Shahid Ehson Ahmadiyev, Salimxon Tillaxonov, Cho‘lpon, Xolmuhammad Oxundiy, Majid Qodir va boshqalar faol ishtirok etdilar. “Muttahid frunt”ning o‘rtalikda qabul qilingan imlo asoslari matbuotda e‘lon qilindi [Yerlik xalq., 1923]. Ular o‘zbek maorifini ko‘tarish, ilmiy xizmatni yo‘lga qo‘yish, o‘rtadagi fikr ayirmaligini yo‘qotib, samimiyat barpo qilish uchun “Nashri maorif” jamiyatini tuzdilar. Biroq oradan ko‘p o‘tmay bu birlashuv barham topdi, ziyolilar o‘rtasidagi yozuv masalasidagi kelishmovchilik davom etdi. 1923-yilning oktyabrida Buxoroda O‘rta Osiyo o‘zbeklarining Til va imlo o‘lka anjumani chaqirildi. Unda yana alifboni isloh qilish, imlo asoslarini ishlab chiqish masalalari ko‘rildi. Konferensiya qarori Turkiston Jumhuriyati Maorif komissarligining 1923-yil 18-oktyabrdagi 48-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan [O‘ktam, 1923]. Ta’kidlash kerakki, bu yig‘inda kelgusida alifboni lotinlashtirish fikri ma’qullandi. Bu ishning amaliy tomonlari muhokama qilindi. Turkiy dunyoda qo‘zg‘alayotgan lotinga o‘tish harakati, shuningdek, ziyolilar o‘rtasidagi noahillik sabab Buxoro anjumanidan so‘ng ham yozuvda boshboshdoqlik davom etdi.

Keyinroq sho‘rolar tuzumi mustahkam oyoqqa turib, o‘zbek adabiyoti va adabiy tilini, milliy madaniyatini proletarlashtirish, sovetcha “baynalminallashtirish” jarayoni boshlangach, jadid ziyolilarining har ikki guruhiga “burjua millatchilari” tamg‘asi bosildi. Hatto A.K.Borovkovdek yirik tilshunos olim ham hukmron mafkura nog‘arasiga o‘ynashga majbur bo‘ldi. U keyinchalik shunday yozadi: “Umum turk” tili va “chig‘atoy” tilini o‘zbek xalqiga tiqishtirish Turkistonda milliy burjuaziyaning madaniy hukmronligini ta’minlash, burjua madaniyatini sotsialistik madaniyatga qarshi qo‘yish uchun zarur edi” [БорОВКОВ, 1941]. Ayniqsa, katta avlod ziyolilarining sho‘ro tuzumi, xalq uchun ziyonli ekanini fosh etishda Ziyosaid (Qosim Solihov)ning xizmatlari ajralib turadi. U Munavvar qori va uning tarafdorlarini ham, ular bilan alifbo-imlo masalasida tortishgan “Chig‘atoy gurungi” a’zolarini ham xalq e’tibori uchun o‘zaro kurashgan millatchilar, aksilinqilobchilar sifatida birday qoralaydi. Jadidlar keskin tanqid qilingan turkum maqolalari va matbuotga oid kitobini e‘lon qiladi [Ziyosaid, 1974]. Keyinchalik o‘zi ham ular kabi sho‘rolar qatog‘oni qurboni bo‘ladi.

XULOSA

Arab alifbosi bu davrlarda bir necha bor isloh etilganiga qaramay, 1929-yilgacha, ya’ni o‘zbek xalqi lotin alifbosiga o‘tgunga qadar yozuv birligiga erishib

bo'lmadi. Bu alifbo 1921-yildan boshlab o'zbeklar orasida uch bor isloh qilingan bo'lsa-da, uni tuzatib, bu sohada yagona fikrga kelib bo'lmadi. Shu sababli, turkiy xalqlar, jumladan, o'zbeklar ham o'z tillari uchun ancha sodda va ancha qulay bo'lgan lotin alifbosini qabul qildilar. Fitrat, Ashurali Zohiriy, Cho'lpon, G'ozil Olim, Qayum Ramazon, Elbek, Abdulla Alaviy, Shokirjon Rahimiy, Rahim In'omov singari mashhur olim va yozuvchilar, ko'zga ko'ringan madaniyat xodimlari, milliy ziyolilar lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi va imlosini ishlab chiqish, uni hayotga joriy etish ishiga katta hissa qo'shdilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Ashurali Zohiriy. Imlo masalasi haqida ikkinchi turli mulohaza // Ishtirokiyun, 1919, 19-iyun; Elchi (Sh.Zunnun) // Ishtirokiyun, 1920, 26-sentyabr.
2. 1921-yil yanvarda bo'lg'on Birinchi o'lka o'zbek til va imlo qurultoyining chiqarg'on qarorlari. Toshkent: Turkiston jumhuriyatining davlat nashriyoti, 1922.
3. Elbek. Imlo va til qurultoyining chaqirilishi oldidan // Ishtirokiyun. 1920, 27 noyabr.
4. Мунаввар қори. Хотираларим /Нашрга тайёрловчи С.Холбоев. Toshkent: Шарқ, 2001.
5. Zeki Velidi Togan. Bugünkü Türkili (Türkistan ve yakın tarihi). Istanbul: Enderun kitabevi, 1929. -575 b.
6. Ўзбекистоннинг янги тарихи, Тошкент: Шарқ, 2000.
7. Yerlik xalq maorifida muttahir frunt //Turkiston, 1923, 1-yanvar.
8. O'ktam (Qayum Ramazon). O'rta Osiyo o'zbeklarining til va imlo konferensiyasi //Turkiston, 1923, 31-oktyabr.
9. Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917. Toshkent: 1941.
10. Ziyosaid. Ziyolilar masalasi ustida // Qizil O'zbekiston. 1926, 88-son; 100-son. Shu muallif. Tanlangan asarlar. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ДЛЯ ИНЖЕНЕРОВ

Н.М.Кузиев,
КарИЭИ, доцент
(98-878-05-51)

АННОТАЦИЯ

В статье приведены всесторонние рассуждения о целях и смысловых компонентах педагогического процесса при создании модели процесса формирования технического мышления. Из-за многогранности инженерной профессиональной деятельности, очень сложно определить общие требования к личности инженера разнообразных направлений, специальностей и компонента а также их степени.

Ключевые слова: профессиональный, инженер, деятельность, технический, мышление, интеллект, качества.

ANNOTATSIYA

Мазкур мақолада техник тафаккурни шакллантириши жараёни методикасини яратишдаги педагогик жараён ҳақида атрофлича фикр юритилган. Муҳандислик касбий фаолияти кўпқиррали бўлганлиги сабабли, турли йўналиш, ихтисослик, мутахассислик ва уларни компонент ҳамда даражалари муҳандис шахсига бўлган умумий талабларни аниқлаш жуда мураккабдир.

Таянч сўзлар: касбий, муҳандис, фаолият, техник, тафаккур, интеллект, сифат.

ABSTRACT

The article presents a comprehensive discussion of the goals and semantic components of the pedagogical process when creating a model of the process of forming technical thinking. Due to the diversity of engineering professional activities, it is very difficult to determine the General requirements for the individual engineer of various fields, specialties and components, as well as their degree.

Key words: professional, engineer, technical activities, thinking, intelligence, quality.

В психологии и педагогике имеется большое количество работ, посвященных поиску способов формирования технического мышления у обучающихся в школе и в специальных учебных заведениях среднего звена.

На начальном этапе моделирования процесса формирования технического мышления будущих инженеров, по нашему мнению, необходимо собрать в единую систему все выявленные и экспериментально проверенные в психологических и педагогических исследованиях способы формирования данного вида мышления.

Существуют исследования, в которых обосновываются отдельные способы формирования технического мышления студентов высших учебных заведений [7].

Если бы технические способности были сформированы в довузовский период, перед системой высшего образования только стояли бы задачи диагностики этих способностей у абитуриентов и соответствующего профессионального отбора.

Мышление как психический процесс проявляется и формируется только в проблемных ситуациях, когда обучающемуся приходится преодолевать определенные препятствия. Это ситуации усвоения нового сложного материала и решения задач. Развивает мышление не само знание, а деятельность по его усвоению и осознание этой деятельности, т.е. рефлексия. Психическое развитие, особенно интеллектуальное развитие человека, осуществляется только в условиях преодоления «препятствий», интеллектуальных трудностей». Главным источником интеллектуального развития является познавательная потребность личности. Важнейшим правилом развития способностей человека является обучение на грани высокой, но преодолимой трудности. Только такое обучение создает зону ближайшего развития. Легкое учение приносит не пользу, а вред, так как не увлекает задатки.

Поэтому в разрабатываемой системе формирования технического мышления в качестве основного обучающего воздействия будет рассматриваться учебная задача. Разные виды задач активизируют и формируют различные умственные действия. Решение задачи представляет определенную трудность, которая «дозирована» преподавателем в зависимости от конкретных условий обучения, специфики учебного материала, индивидуальных особенностей обучающихся. Усваиваемые в процессе решения задач познавательные операции носят обобщенный характер, образуя некую когнитивную «сетку».

Таксономия учебных задач разработала Д. Толлингера. В ней содержится 36 типов учебных действий, объединенных в 6 категорий учебных задач. Таксономия построена по принципу усложнения познавательных действий. Задачи первой категории включают воспроизведение запомненных

данных и требуют узнавания или репродукции отдельных фактов, правил. Эти задачи формулируются следующим образом: какая из, как называется, дайте определение и т.д. Ко второй категории отнесены задачи, решение которых включает элементарные мыслительные действия: перечисление, сопоставление, конкретизация. К третьей категории относятся задачи, предполагающие реализацию сложных мыслительных операций (трансформацию, индукцию, дедукцию, аргументацию, оценку, интерпретацию). В четвертую категорию входят задачи, предполагающие обобщение знаний и порождение речевых высказываний (составление конспекта, резюме, доклада, отчета, самостоятельные письменные работы и проекты). Пятая категория определяется как требующая творческого мышления, т.е. предполагающая самостоятельность в решении задач. Это, как правило, задачи практического приложения, проблемные задачи и др. Они начинаются примерно так: придумайте практический пример, сформулируйте основную проблему и т.д. В шестую группу входят рефлексивные задачи, которые решаются в ситуации необходимости осознания и выделения собственных способов когнитивных действий.

Чтобы учебная задача стала действенным средством организации учебной деятельности и проектирования учебных результатов, необходимо соблюдать следующие условия:

1. Разработать систему задач, которые соотносились бы с учебными целями.
2. Ориентироваться при конструировании задач не только на ближайшие учебные цели, но и на отдаленные.
3. Конструировать учебную задачу так, чтобы средства деятельности, усвоение которых предусматривается при решении задач, выступали как прямой продукт обучения.

Проблемно-задачное обучение наиболее адекватно логике развития человека студенческого возраста. В этот период происходит активное пере-структурирование всей системы интеллекта, выражающееся в усложнении и «уплотнении», специализации функций. В этом смысле студенческий возраст как период сложного структурирования интеллекта сензитивен к обучающим воздействиям проблемного характера.

Результатом проблемно-задачного обучения является формирование следующих интеллектуальных новообразований: чувствительность к проблеме, умение структурировать проблемную ситуацию в задачу, умение формулировать проблему.

Поскольку важнейшим средством формирования технического мышления с нашей точки зрения является задача, необходимо определить специфику и виды *технических задач*. Техническая задача - это задача (т.е. цель, данная в определенных условиях) по поводу какого-то технического объекта. Решается техническая задача в процессе поисковой деятельности.

Обобщенное представление об этапах решения любых задач [5]: осознание задачи (различение известного и неизвестного; предвосхищение неизвестного), поиск принципа решения (выдвижение гипотезы и ее проверка); реализация найденного решения (исполнительные действия и проверка правильности решения).

Появление «технического объекта» в структуре задачи расширяет набор действий по ее решению. Этапы решения технической задачи [1]:

I. Предварительный этап:

1. Осмысление условий задачи, осознание основной ее цели и практической значимости ее решения.

2. Уточнение необходимых данных и определение недостающих сведений для решения задачи.

II. Основной этап:

1. Нахождение и уточнение основных и необходимых закономерностей.

2. Определение круга правильных и точных технических обозначений.

3. Создание первичных схем, раскрывающих содержание работы или сущность взаимодействия механизмов.

4. Поиск принципа решения задачи и воплощение его в схему.

III. Завершающий этап:

1. Компоновка отдельных узлов или механизмов в единую схему.

2. Первичная практическая проверка правильности единой схемы ("прикидка" в производственных условиях или на макете).

3. Уточнение единой схемы и исправление выявленных ошибок.

4. Окончательное вычерчивание схемы и полное оформление решения задачи.

5. Экспериментальная проверка решения задачи в производственных условиях.

Конкретный набор действий по решению технической задачи будет зависеть от вида задачи.

Обобщение накопленного в науке опыта формирования технического мышления было проведено в соответствии с описанной ранее структурой технического мышления, которую можно рассматривать как единство и

взаимодействие трех компонентов: понятийного, образного и действенного. Из этого следует, что в процессе обучения студенты должны не только овладеть системой технических и технологических понятий, которые в техническом мышлении сопровождаются соответствующими образами, но и научиться осуществлять как с понятиями, так и с образами соответствующие действия.

Результатом формирования технического мышления должно быть успешное решение технических задач, в процессе которого техническое мышление проявляется в следующих своих характеристиках: творческий характер (креативность), интегративность, оперативность и рефлексивность. Ориентация на эти характеристики позволяет сделать процесс формирования технического мышления диагностичным.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Возрастные и индивидуальные особенности образного мышления учащихся [Текст] / под ред. И. С. Якиманской. - М. : Педагогика, 1989. - 223 с.
2. Войцеховская, М. Ф. Развитие интеллектуального компонента творческих способностей учащихся на основе использования информационных технологий в педагогическом процессе : автореф. дис. ... канд. пед. наук. [Текст] / М. Ф. Войцеховская. — М., 2005. — 24 с.
3. Дружинин, В. Н. Когнитивные способности: структура, диагностика, развитие [Текст] / В. Н. Дружинин. - М. : ПерСе; СПб. : Иматон-М, 2001.
4. Ермак, Е. С. Компоненты вербального и невербального мышления в структуре формирующегося технического интеллекта : автореф. дис. ... канд. психол. наук [Текст] / Е. С. Ермак. - СПб., 1998. - 26 с.
5. Зиновкина, М. М. Инженерное мышление (Теория и инновационные педагогические технологии) : монография [Текст] / М. М. Зиновкина. - М. : МГИУ, 1996. — 283 с.

VIEWS ON THE POETIC FEATURES OF PROVERBS IN UZBEK AND ENGLISH FOLKLORE

Toshpulatova Dildora Ikromjon kizi

Uzbekistan state world languages university

PhD student

Tel:+998913682344,

e-mail:toshpolatovadildora1@gmail.com

ABSTRACT

The article comparatively analyzes the poetic features of proverbs in Uzbek and English folklore. Particularly, the forms of proverbs, as well as tropes and figures of speech used in proverbs have been confirmed with the examples.

Key-words: *prose and poetic types of proverbs, mono and polydescriptive proverbs, lexical repetition and its types, tajnis (homonymy) in proverbs.*

O'ZBEK VA INGLIZ FOLKLORSHUNOSLIGIDA MAQOLNING POETIK XUSUSIYATLARI HAQIDAGI QARASHLAR

Toshpulatova Dildora Ikromjon qizi,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

Tel:+998913682344, e-mail:toshpolatovadildora1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek va ingliz folklorshunosligidagi maqolning poetik xususiyatlari qiyosiy tahlilga tortilgan. Xususan, o'zbek hamda ingliz maqollarining shakliy tuzilishi, ularda qo'llanadigan badiiy tasvir va ifoda vositalari misollar yordamida dalillab berilgan.

Kalit so'zlar: nasriy va she'riy maqollar, bir va ko'p deskriptivli maqollar, leksik takror va uning turlari, tajnis.

ВЗГЛЯДЫ О ПОЭТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЯХ ПОСЛОВИЦ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ФОЛЬКЛОРЕ

Тошпулатова Дилдора Икромжон кизи

Узбекский государственный университет мировых языков

PhD докторант

Тел: +998913682344, e-mail: toshpolatovadildora1@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В статье сравнительно проанализированы поэтические особенности пословиц в узбекском и английском фольклоре. В частности, на примерах

подтверждены формы пословиц, а также тропы и фигуры речи употребляемые в пословицах.

Ключевые слова: прозаические и поэтические виды пословиц, моно и полидескриптивные пословицы, лексический повтор и его виды, таджик (омонимия) в пословицах.

INTRODUCTION

Although a proverb exists in every language, it is natural that the formal structure, system of images, and means of artistic representation and expression have their own characteristics because they express the wisdom of a certain nation. In particular, in Uzbek and English paremiology, the poetic aspects of this genre differ from each other, but also have some commonalities. B. Soatov defines the proverb as a genre that clearly and succinctly reflects the uniqueness of the material and spiritual culture of the people, the level of development in a concise form [1,3]. He thinks about issues such as genre specification, structural stability and meaningful evolution of proverbs, artistic expression and pictorial means. In his scientific research, he dwells deeply on the genre characteristics of proverbs [1,8].

DISCUSSION AND RESULTS

Form structure. The relationship between form and content in proverbs varies in different languages, that shows which form has more superiority in expressing their meaning deeply and completely. There are various opinions about the formal structure of folk proverbs. For example, many researchers believe that folk proverbs have both a prose and poetic structure, while some researchers believe that proverbs do not have a poetic structure [1,79]. For example, M.A. Ribnikova, M.P. Shtokmar, B. Tilavov, S.G. Lazutin, M. Alimboyev, T. Nietullayev, B. Sarimsakov support the opinion that there are proverbs in prose and poetry. Z. Tomashevskiy and V.P. Anikin believe that proverbs are found only in prose form. In the Uzbek paremiological treasury, there are proverbs of both forms, but the majority of proverbs are in poetic form. In particular, B. Soatov in his scientific research deeply studied the poetics of Uzbek folk proverbs with one and many descriptors and scientifically substantiated the fact that proverbs with two descriptors are more than proverbs of other forms.

In English folklore, there is a strong tendency to study proverbs as mono and polydescriptive proverbs, rather than dividing them into poetic or prose forms. In particular, the studies of A. Dundes, V. Mieder and N. Norrick provide complete information on this matter [2,21]. It should be noted that English folk proverbs consist of a large part of two descriptive proverbs.

The memorability of proverbs is primarily due to their rhythmic melody. As B. Soatov pointed out, in particular, the tone is an external sign of the relationship

between the descriptive poles, which is felt by taking a short pause. [1,45]. Not only in poetic, but also in prose proverbs, this feature leads. In particular, there is a unique rhythmic form in the proverb *Yulg'ich yulib to'ymas*. *Yulg'ich* – is a person who tries to appropriate the property of others and the community, to gain wealth in this way, to extort something from someone and take advantage of it, who lives only for this reason. If the given proverb takes the form of “*Yulg'ich odam yulib olsa ham to'ymaydi*”, the tone would be lost and it would sound the same as a sentence in ordinary speech. While rhythmic melodiousness dominates in prose proverbs, strong metaphorical movement appears as the main element. In the same way, this proverb is exaggerating the meaning of the metaphor *yulg'ich*. For proverbs in prose form, meter and rhyme are not typical, the reason for this is that, unlike poetic proverbs, they have a very compact form. If rhythmic melodiousness is considered sufficient for most proverbs used in their own sense, the presence of metaphor is one of the main conditions for metaphorical proverbs. Rhythmic melody and metaphorical movement are clearly visible in prose proverbs such as, *Yantoq gullasa, chilgi pishar; Odobli bola elga manzur; Urushning kengashi yo'q; Yomg'ir – ekinning joni; Boshliq bo'lsang, boshli bo'l; Er yigitni nomus o'ldirar; To'ygan yerdan tuqqan yer yaxshi; O'g'rini qaroqchi urar; Qimirlagan – qir oshar*.

Another reason for the absence of meter and rhyme in prose proverbs is that they are in one descriptive form and consist of one logical pole. We will witness two different points of view of Uzbek and English paremiologists who thought about the same descriptive proverbs. A. Dundes believes that one descriptive proverbs have a contradictory relationship, and two or more descriptive proverbs have a contradictory and not contradictory relationship [3,970]. B. Soatov supports the method of "subject" and "explanation" shown by Dundes, but he was able to show that one descriptive proverbs have contradictory and not contradictory relations as well as two descriptive ones [1,47-48]. Indeed, we can also see such a logical paradox in one descriptive proverbs like *Opposites attract; The clothes make the man; Better safe than sorry*.

The genre of the proverb appeared historically in one descriptive form. In the course of the development of philosophical and artistic thinking, drawing instructive conclusions by comparing or contrasting complex phenomena, in our opinion, was mainly reflected in proverbs due to the expansion of explanatory components. In this way, two, three, four and many descriptive proverbs were created [1,50]. From these points, we can conclude as follows: proverbs were originally in prose form, in the course of time, unnecessary parts were removed from them, and parts compatible with time, space and place were added. The development of literature led to the

appearance of elements such as meter and rhyme, and the use of proverbs in poetic forms.

Uzbek folk poetic proverbs mainly have a two-, four- and six-line stanzas structure form, and were created in syllabic meter. Two-line proverbs have two descriptors, which in many cases appear as a binary opposition: *Bor bo'lsa yetar, Yo'q bo'lsa ketar*; *Yoshga – xizmat, Qariga – hurmat*; *Kuyovni o'g'il bil, kelinni – qiz*. According to B. Soatov's point of view, Uzbek folk proverbs are widely used from the five-syllable to the fourteen-syllable weight. In our opinion, there are also three- and four-syllable proverbs in the Uzbek paremiological treasury like *Oz so'zla, ko'p tingla*; *Yoshdan – xato, Kattadan – uzr*; *Ilmli o'zar, Ilmsiz to'zar*; . Although they are not the majority, they are quickly remembered due to their compactness. The most common meter in Uzbek proverbs is seven-syllable, and the ratio of syllables in them is 4+3. In the paremiological treasure of the Uzbek people, we can see the shape of the metrical system aruz in the proverbial sayings of classical poets. In particular, many proverbs written by Navoi are a clear example of this: *Sihat tilasang ko'p yema, Izzat tilasang ko'p dema*.

Although meter is not emphasized in English folk proverbs, the issue of weight has been the cause of special controversy due to verses in the Proverbs of Solomon. Alter and Anneke Viljoen conclude that the hymns were written in poetic form: *A wise son brings joy to his father, but a foolish son brings grief to his mother*. But many biblical scholars comment on the predominance of rhythmic-syntactic parallelisms, rather than weight.

Artistic representation and means of expression. In addition to having mandatory elements such as weight, pause, rhythmic pause, tone, rhyme, proverbs should be composed of metaphors, parallelism, exaggeration, animation, and allegorical images. "Metaphors, metonymy, and synecdoche from the means of artistic expression determine the artistic form of this genre to a certain extent. In addition, phonetic devices such as alliteration, figurative methods such as simile, comparison, qualification, revitalization, and stylistic forms such as reduction and repetition are often used in the proverb. [4,26]

If a number of proverbs used in their meaning are carefully studied, they also reveal artistic images and means of expression. In proverbs, *Pul ketsa-ketsin, obro' ketmasin*; *Boyning nomini gadoy chiqazar* the art of contrast serves to bring out the wisdom hidden in it by contrasting concepts and images. The various concepts and images in these proverbs help the reader to easily understand the conclusion of the proverb without any questions. Parallelisms are one of the main terms of antithesis in most Anglo-American proverbs. For example, in the proverb *No pain, no gain*, the

syntactic and semantic parallelism created by the opposite words *pain*, *gain* helps to increase the level of expressiveness of the thought. The proverb *A wise man lives a thousand years and a foolish man lives a year* has an antonymic character from beginning to end. As the main theme of the proverb is *wise* and *foolish*, their arrival with the conflicting metaphors of *thousand years* and *one year* gives stylistic color to this wisdom.

Another means of artistic expression is repetition. This type of art is mainly found in poetry, but it is also used in proverbs to emphasize the meaning of a word and the essence of an instructive idea, particularly, in the proverb, *Botir qilichsiz ham botir* the word *botir* (*brave*) reinforces the meaning by reemphasizing the meaning of courage and bravery. According to Totne Litovkina's research, the art of repetition can be found in a quarter of American proverbs [5,327-253]. For instance, examples of lexical repetition are reflected in proverbs such as *A friend in need is a friend indeed; Ill got, ill spent; Do as I say, not as I do*. Several types of repetition can be seen in literature:

1. Anaphora. A word or group of words is repeated at the beginning of sentences and verses: ***Out of debt, out of danger.***
2. Epiphora. In this type of anaphora, a word or words come at the end of sentences: ***Better a donkey that carries me than a horse that throws me.***
3. Symplision. A word at the beginning of a sentence or verse is repeated at the end of the sentence: ***A donkey looks beautiful to a donkey.***
4. Negative-positive repetition. First the negative, then the repetition in the positive: ***It's not difficult to die well, it's difficult to live well.***
5. Epizeuxis. A repetition of a word or words in succession: ***Who will do, will do.***
6. Anadiplosis. The occurrence of the word or phrase that comes at the end of the first sentence at the beginning of the second sentence: ***If no one flatters you, you flatter yourself.***

Among the lexical repetitions listed above, the most common in English proverbs is anaphora. The phenomenon of ellipsis can be the reason why epiphora is rarely observed in both folk proverbs.

Another tool that serves to enhance expressiveness is tajnis. "Tajnis is the art of effectively expressing a certain idea, image or symbol by using two words that are different in meaning, but have the same form or are close to each other in form." [6,65] This art, which is manifested as a phenomenon of homonymy at the morphological level of the language, is divided into several types. In the following proverb, the tajnisi tomm is one of the type of tajnis: *Boyga siringni boy berma*. The

words *boy (rich)* belong to two different groups of words - noun and verb, so they are called mustawfi tajnis. Through this wise saying, it is skillfully expressed that the poor person should not tell the rich man about his situation, otherwise the rich person can take advantage of this situation and put the poor person in a worse situation. Therefore, regardless of whether proverbs are used literally or figuratively, they can be skillfully used artistic images and means of expression.

REFERENCES

1. Соатов Б. Ўзбек халқ мақолларининг жанр хусусиятлари ва поэтикаси. – Тошкент, Фан, 1994. – Б.3.
2. Дандис А. О структуре пословицы. – Паремнологический сборник. М., 1978 – С.21.
3. Dundes A. On the structure of the Proverb. *Proverbum*, no.25. – 1975. – P.970.
4. Ўзбек халқ мақоллари, I том. Тошкент, Ўзбекистон ССР “Фан нашриёти”. 1987. Б.26.
5. Tóthné Litovkina, Anna (1994). The most powerful markers of proverbiality. Perception of proverbiality and familiarity with them among 40 Americans. *Semiotische Berichte 1–4*, 327–353
6. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. Тошкент, Шарқ. – 1999. Б. 65.

ANTROPONIMIKANING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISH TARAQQIYOTIGA DOIR

Xakimov Xamidulla Inamovich,

filol.f.n, dotsent,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

ANNOTATSIYA

Tilning leksik tizimida antroponimlar alohida o‘rin tutadi, ular oz‘iga xos paradigmatic va sintagmatic xususiyatlarga ega. Konkret nomlar bilan bog‘langan antroponimlar lingvistik universaldir va tilning boy lug‘at tarkibini tashkil etadi. Demak, antroponimikaning diqqat markazida so‘z va uning murakkab onomastik belgi sifatidagi lingvistik tadqiqi barcha tillar uchun dolzarblik kasb etadi.

Kalit so‘zlar: onomastika, antroponim, ism, nominativ vosita, badiiy-uslubiy vosita.

О РАЗВИТИИ ИЗУЧЕНИЯ АНТРОПОНИМИКИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Хакимов Хамидулла Инамович,

к.филол.н., доцент,

Узбекский государственный университет мировых языков

АННОТАЦИЯ

Антропонимы занимают особое место в лексической системе языка, обладая уникальными парадигматическими и синтагматическими свойствами. Те, которые связаны с конкретными именами, являются лингвистическими универсалиями и способствуют богатому словарному запасу языка. Следовательно, исследование антропонимики, фокусирующееся на слове и его сложных лингвистических аспектах как сложном ономастическом знаке, остается актуальным для всех языков.

Ключевые слова: ономастика, антропоним, имя, номинативный аппарат, художественно-стилистический прием.

ON THE DEVELOPMENT OF THE STUDY OF ANTHROPONYMY IN LINGUISTICS

Khakimov Khamidulla Inamovich,

Ph.D., Associate Professor,

Uzbek State University of World Languages

ABSTRACT

Anthroponyms hold a distinctive position within the lexical system of language, boasting unique paradigmatic and syntagmatic properties. Those associated with

specific names are linguistic universals and contribute to the language's rich vocabulary. Consequently, the study of anthroponymics, focusing on the word and its intricate linguistic aspects as a complex onomastic sign, remains pertinent across all languages.

Keywords: *onomastics, anthroponym, name, nominative device, artistic and stylistic device.*

KIRISH

O‘zbek tili bugungi kunda o‘zbek millatining fikr almashuv quroli sifatida katta ijtimoiy vazifa ado etmoqda. O‘zbek tilining bugungi taraqqiyotida tilshunos olimlarimiz, yozuvchilarimiz, shoirlarimizning xizmatlari beqiyos. Ularning katta mehnatlari tufayli o‘zbek tilining turli sohalarida qat’iy normalar belgilandi, til birliklarining aloqa jarayonidagi lisoniy imkoniyatlari haqidagi tadqiqotlar o‘quvchilarga, izlanuvchilarga asoslab berildi va berilmoqda. Til taraqqiyotidagi ko‘pgina masalalar olimlarimiz tomonidan dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda. O‘zbek tilining davlat tili maqomida dunyoda obro‘si ortib bormoqda, bu esa o‘z o‘rnida tilimiz leksikasini, uning grammatik qurilishini boshqa tillar bilan ham qiyosiy-chog‘ishtirma aspektida chuqurroq va har tomonlama tadqiq qilish vazifasini qo‘ymoqda.

Tilshunoslik tadqiqotining obykti sifatida o‘ziga xos nomlar o‘z nomi bilan atalgan obyektini boshqa predmetlardan farqlash uchun xizmat qiluvchi so‘z yoki ibora ekanligini bildiradi.¹⁹ Tilshunoslikning bu bo‘limi onomastika nomi bilan ma’lum. Umuman olganda, onomastik makon deyarli cheksizdir, bu esa uni ma’lum tarmoqlarga bo‘lishning obyektiv ehtiyojini keltirib chiqaradi. Demak, onomastik makonda antroponimiya, toponimiya, zoonimiya, fitonimiya, kosmonimiya, astronomiya, xrononimiya, xrematonimiya, mifonimiya va hklarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Shu qatorda, ba’zi olimlar nomlarni “jonli va tirik deb qabul qilinadigan mavjudot nomlari” va “jonsiz narsalar nomlari”ga ajratadi²⁰, ular orasida antopononimlar va toponimlar eng muhim o‘rinni egallaydi.

Hammamizga ma’lumki, ism inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o‘zbek xalqida ismlarning o‘rni va mohiyati katta. Bola tug‘ilgach, unga yaxshi niyatlar ila ism tanlanadi, bu jarayonga nominatorlar (ya’ni, ism qo‘yuvchilar) turlicha yondashishadi. “Chaqaloqqa qo‘yilgan ism uning taqdiriga ta’sir qiladi” deyilgan tasavvurlar davrlar o‘tishi bilan ismni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog‘langan, unga doimo va bir umr esh, hamdam bo‘lib yuradigan vositaga

¹⁹ Подольская Н.В. Словарь ономастической терминологии (СПОТ). – Москва: Наука, 1988. – 91 с.

²⁰ Bach A. Deutsche Namenkunde. – Heiderberg, 1952 – P.1-4.

aylantira borgan²¹. Masalan, S.Kenjayeveva o‘zbek ismlarini o‘zbek antroponimikasini o‘rganib, ularni bag‘ishlov ismlar, tasviriy ismlar va ism-istaklarga ajratib tasniflaydi²².

Tilimizdagi nomlar o‘zi anglatayotgan tushunchaning xarakteri, narsalarning atalishidagi xususiyati va belgilariga ko‘ra farqlanadi. Tildagi atoqli otlarning katta bir guruhini kishilarga qo‘yiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi.

METODOLOGIYA

Antroponimiya (yunoncha ἄνθρωπος] “inson”, “shaxs” va ὄνυμα [όνυμα] “ism” va -ia [-ia] “aloqa” yoki “sifat” qo‘shimchasidan) hosil qilingan, hamda antropologik onomastika bu onomastikaning odamlar ismlari, shu jumladan familiyalarining kelib chiqishi va ma’nosini o‘rganadigan bo‘limidir. Shuningdek, onomastika atamasi mumtoz yunoncha ὀνομοςῆ (onomastiké) dan kelib chiqqan va “ism qo‘yish san’ati” deb ham tarjima qilinadi. Kishiga ism berish va kishilarning atoqli otlari qadimiy tarixga ega bo‘lib, bolani nomlashda ma’lum tarixiy davr, iqtisodiy-siyosiy hayot, ma’naviy turmush doirasining turli-tuman urf-odatlarini muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, diniy tasavvurlar bolalarning nomlanishiga ta’sir ko‘rsatgan. Turkiy xalqlarning V- VII asrlar tarixini o‘zida ifodalagan O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklari matnlarida uchrovchi bir qator ismlar: Oqbosh, Qoraxon, Qorakur va boshqalar turkiy xalqlarning eng qadimgi antroponimlaridir. Davrlar o‘tishi bilan bir qator ismlar eskiradi va iste’moldan chiqadi, ularning o‘rniga yangi-yangi atoqli otlar kirib keladi.

Antroponimlar haqida Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘otit turk” asarida ma’lumot berib o‘tgan. “Devon” dagi kishilarning ismlari shu jihatdan qimmatliki, bir necha arabcha ismlarni istisno qilganda kishi ismlarining deyarli hammasi turkiycha bo‘lib, hozirgi paytda iste’moldan chiqqan “Devoni lug‘otit turk”dagi 60 dan ortiq kishi ismlari orasida xonlarning, pahlavonlarning, urug‘ boshliqlarining, oddiy kishilarning ismlari, laqablari bor. Akademik I.Krachkovskiy musulmon mamlakatidagi qullarga va cho‘rilarga Yoqut, Zumrad, Kufer (kamfora) kabi asl toshlarni yoki xushbo‘y moddalarni nomlarini qo‘yish rasm bo‘lgan deb yozgan. Mahmud Koshg‘ariy bu fikrni isbotlaydi. Demak, Kumush, Tilla ba’zan Oltin kabi qimmatbaho metall nomlari bilan atalgan ba’zi nomlar dastlab qul va cho‘rilarga qo‘yilgan narxlar bo‘lgan. Koshg‘ariy o‘z asarida ko‘plab ismlarning etimologiyasini berib o‘tgan. Ota – onaning farzand oldidagi dastlabki, burchi o‘z farzandiga yaxshi bir ism qo‘yishidir. Zero, bu ism bilan kelajakda bolasi uyalib

²¹ Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi. – Toshkent: O‘zME, 2010 (uchinchi nashri). – B. 588.

²² Kenjayeveva S.E. O‘zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingvistik tadqiqi: F.nom...diss. avtoreferati. – Toshkent, 2011.

qolmasin, bu esa unga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xalqimiz azaldan bolaga ism qo'yishda milliy urf-odatlar, ishonch va e'tiqodlariga qarab ism qo'ygan. Badiiy asarlarda ham yozuvchi o'z qahramoniga ism berishda shu qahramonning xarakter xususiyatidan kelib chiqqan holda ism tanlaydi. Tanlangan ism bevosita qahramon haqida ma'lumot beradi. Ism tanlash ham bir mahoratdir. Har bir yozuvchining o'z qahramonlariga ism tanlashida o'ziga xos uslubi bor. Masalan: Abdulla Qodiriy o'z qahramonlariga ism tanlashda Otabek "k" harfi bilan tugaydi va Kumush "K" harfi bilan boshlanadi, Anvar "r" harfi bilan tugaydi va Ra'no "R" harfi bilan boshlanadi. Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasidagi Qobil bobo obrazi ismning naqadar to'g'ri tanlanganligi, ismi jismiga mosligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni bu obrazlarda sodda, kamtarin, mo'min, qobil xarakterli insonlar tasvirlangan. Xalqimizda ism tanlashda xalq urf-odatlaridan keng foydalaniladi. Bunga misol A.Qahhorning "Bemor" hikoyasidagi Sotiboldi obraziga Sotiboldi deb nom berilishi ham bejiz emas, uning zamirida xalq urf-odatlarini yaqqol sezish mumkin. Bu ismlarning paydo bo'lishi chaqaloqni "sotib olish" udumini ado etish bilan chambarchas bog'liqdir. O'tmishdan farzandlari turmasdan nobud bo'lavergan o'zbek oilalarida "sotib olish" odatiga katta umid bog'lashgan. Bu odatga ko'ra, bola tug'ilgach xoh o'g'il, xoh u qiz bo'lsin, tarozining bir pallasiga go'dak ikkinchi pallasiga ozuqa solinadi. Ular og'irligi tenglashtiriladi va Doya xotin bilan uy egasi (bolaning onasi) o'rtasida o'sha udum bilan aloqador dialogik xarakterdagi so'zlar aytilgach, bola "sotib olingan" hisoblanadi. Doya xotinga ozuqa va ko'plab sovg'a - salomlar ham berishadi. Ism qo'yishda tarixiy davrning ta'siri, ijtimoiy muhiti, oilaviy kelib chiqishi, kasb kori ham bevosita ta'sir qiladi. Tarixiy davrlardan shuni ko'rish mumkinki, hech bir payt qul yoki ijtimoiy ahvoli og'ir kambag'al oilada tug'ilgan bolaga bek, xon, shoh, boyvachcha kabi elementlar qo'shilmaydi. Ularning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab zodagon oilaning farzandlariga Hakimboyvachcha, Xudoyorxon, Azizbek kabi ismlar tanlansa, ijtimoiy kelib chiqishi pastroq bo'lgan oilada tug'ilgan bolalarga esa oddiy ismlar tanlangan. Hozirgi paytda har bir inson o'ziga yoqqan ismni tanlab qo'yadi. Badiiy asarlarda shuni ham ko'rish mumkinki, A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asarida Xudoyorxonning xotini Og'acha oyim, bu obrazning asl ismi Ma'suda xonim bo'lgan ammo Og'acha oyim deb mashhur bo'lishiga uning Qashqar qizi bo'lganligidandir. Uyg'urlar bizdagi kabi "xonim, bekach" deyish o'rniga "Og'acha" deganlar. Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Bu ham albatta, yozuvchining badiiy va ilmiy bilimiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tilshunos N.Mirzayev "O'zbek zooantroponimlar" nomli maqolasida qadimgi turkiy xalqlar ba'zi yirtqich va uy hayvonlari haqida turli xil totem tasavvurga ega bo'lgani bayon etgan. Bo'riga bo'lgan ishonch esa totem tasavvuriga bog'liq ot bo'lib,

uning asosiy qismi o'zbeklarning turli guruhlarida bolaning tug'ulishi, uning hayotini saqlab qolish bilan bog'langan. Bo'ri, Bo'riboy, Boybo'ri, Bo'ritosh, Bo'rigul, Bo'rixol kabi ismlar yirtqich hayvonlarga e'tiqod tufayli paydo bo'lganini yozib, keyingi davrlarda bunday atoqli otlarning ishlatilish doirasi ancha kengayganini aytib o'tadi. Antropozoomorfizmlarni o'rgangan D.Baxronova ham "qadimgi afsonalarda hayvon obrazlarining ko'plab uchrashi asosini totemizm bilan izohlash mumkin. Turkiylarda chaqaloqqa Lochin, Bo'riboy, Samandar, Arslon, Sherzod; ispanlarda Lobato, Gaviota, Lucio, Paloma, Borrego va h.k. ismlarning berilishida; muchal yillarining, yulduz turkumlarining hayvon nomi bilan atalishida ham totemizm ta'siri seziladi"²³, deb hayvon nomlarining nom sifarida qo'yilishiga o'z munosabatini bildiradi. Tilshunos E.Qilichev tadqiqotlarida antroponimlarning stilistik qo'llanilishi haqida fikr yuritiladi. U yozuvchi S.Ayniy asarlarida qo'llanilgan antroponimlar haqida quyidagilarni yozadi: Yozuvchi (S.Ayniy) asarlari strukturasiidagi antroponimlar tasvirlanayotgan voqea mazmuniga mos holda uni badiiy aks ettirish uchun xizmat qilgan. Uning asarlarida so'zlamaydigan ism yoki laqab yo'q, desa ham bo'ladi. Deyarli har bir antroponim tasviriy bo'lib, nimadirni aks ettiradi. O'zbek tili leksik sistemasining bir qismi hisoblangan antroponimlarning o'zi ham o'ziga xos yana bir sistemani tashkil qiladi. Bular: 1. Ismlar sistemasi: Kumush, Feruza, Dilshod, Alisher. 2. Laqablar sistemasi: Kar, cho'loq. 3. Taxalluslar sistemasi: Navoiy, Gulxaniy, Julqunboy. 4. Familiyalar sistemasi: Saidnosirova, Qahhorova, Mo'minova. 5. Patronomik nomlar sistemasi: Rasulovna, Nusratovich. 6. Shartli nomlar sistemasi: Bahrom-Baxi, Shoxrux-Shoxi. E.Begmatov aytganidek, atoqli otlarni har tomonlama o'rganish o'z tadqiqotlarni kutmoqda.

XULOSA

O'zbek antroponimiyasini o'rganishdan maqsad nomlarning turli tarixiy davrlardagi holati va rivojini tadqiq qilish. Umuman, laqab va taxalluslarni faqatgina nominativ vosita sifatida o'rganish yetmaydi, balki ularni badiiy-uslubiy vosita tarzida tadqiq qilish ham muhimdir. Bunday kuzatuvlarda ism, laqab va taxalluslar orasidagi atoqli otlarga xos umumiylik va o'zaro farqlarni ochib berish alohida ahamiyatga egadir. Nomshunoslik sohasida erishiluvchi nazariy xulosalar va qo'lga kiritilgan ashyoviy, daliliy materiallari o'zbek antroponimlarning izohli, etimologik, imloviy lug'atlarni yaratish uchun xizmat qilmog'i kerak. Hozirga qadar bu til lug'atlarning birortasi ham to'liq tuzilgani yo'q. Yuqoridagi mulohazalardan ayon bo'ladiki, o'zbek tilidagi antroponimlarning mavjud tiplari ularning hajmi va chegarasi hozirga qadar belgilangan emas. E. Vohidov ta'kidlaganidek, "Ismlarning

²³ Baxronova D. Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (o'zbek va ispan tillari materialida). – PhD diss., 2017. – B 64.

tarixi uzoq, Ismlarda asrlik qismat”. Demak, tariximizni, qadriyatlarimizni, milliy o‘zligimizni anglashda antroponimlarni turli nuqtai nazardan tadqiqi ulkan ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qahhor. “Anor” – T 2014 -198 b.
2. Baxronova D. Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (o‘zbek va ispan tillari materialida). – PhD diss., 2017. – 157 b.
3. Begmatov E. Uluqov N. “O‘zbek onomastikasiterminlarining izohli lug‘ati, - Namangan 2006, -103 b.
4. Begmatov E. “O‘zbek ismlari izohi” - T., 2016.- 606 b.
5. [http:// www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz) / Pedagogik ta’lim muassasalari portali; <http://www.edu.uz>
6. Kenjayeva S. O‘zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingivistik tadqiqi. nom...diss. avtoreferati.-Toshkent , 2011.
7. Qilichev E. O‘zbek tili onomastikasi. T.:2004.

AMIR TEMURNING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI VA MARKAZIY DAVLAT BOSHQARUVINING TAKOMILLASHUVI

Nimatjonov Hasanjon Zohirjon o'g'li

Qo'qon davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti 102 02/23 guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sobibqiron Amir Temurning tavallud topgan davrida Movarounnahrning siyosiy ahvoli, Amir Temurning siyosat maydoniga qay tarzda kelgani va markaziy davlat boshqaruvini takomillashtirgani haqida ma'lumotlar ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Amir Temur, sohibqiron, Tarag'ay, barlos, Chig'atoy ulus, bekklik, Movarounnahr.*

ABSTRACT

This article analyzes the political situation of Movarounnahr during the birth of Sobibqiron Amir Temur. Information about how Amir Temur came to the political arena and improved the central state administration is covered on a scientific basis.

Key words: *Amir Temur, sahibqiran, Taragai, barlos, Chigatai ulus, bekklik, Movarounnahr.*

KIRISH

Amir Temur turkiy barlos urug'ining biy (urug' oqsoqoli)laridan bo'lish Muhammad Tarag'ay va Buxoro shariat gonunlari sharh-lovchisining qizi Takina Mohbegimlarning farzandi bo'lib, 1336-vilda Shahrisabga yaqin Xo'ja Ilgor qishlog'ida tavallud topgan. Uning to'liq ismi Sohibqiron Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barkuldir. Temur siyosiy kurash maydoniga kirib kelgan XIV asing 60-yillarida mo'g'ullarning Chig'atoy ulusi hukmronligi davom etayotgan edi. 1346-yili Chig'atoy ulusi xoni Qozonxon Amir Qazog'on tomonidan oldiriladi. 1358-yilda Amir Qazog'on ham o'ldiriladi, ulusda parokandalik jarayoni kuchayadi. O'lkaning turli hududlarida mustagillik da'vosi bilan ish ko'rayotgan 10 ga yaqin mahalliy bekkliklar, chunonchi, Xorazmda so'fiylar, Qashqadaryoda barloslar, Ohangaron vodiysida jaloyirlar, Buxoroda sadrlar, Termiz atrofida sayidlar amirlarining va hokazo kuchlarning ajratuvchilik harakatlari yurt butunligiga jiddiy xavf tug'dirayotgandi. Ulus o'ntacha mustaqil bekkliklarga bo'lingan bo'lib, ularning beklari o'rtasida doimo nizo, janjal bo'lardi. Buning ustiga o'z hukmronligini mustahkamlash maqsadida 1360-yilda Movarounnahrga katta qo'shin tor-tib kelgan Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temur? xuruji ham dard ustiga chipon bo'lgan edi. Bunday galtis vaziyatda siyosiy kurash maydonida hozir bo'lgan yosh Temurbek oldida

nihoyatda ehtiyotkorlik, aql-zakovat bilan ish ko'rish, o'z atrofiga yurtparvar, vatanparvar kuchlarni to'plash, so'ngra qulay imkoniyat tug'ilishi bilan yurt dushmanlariga gaqshatqich zarba berish vazifasi turardi. Temurbek uddaburonlik bilan o'ziga xos taktika qo'llab, o'zining bosh orzu-maqсадlaridan voz kechmagan holda, vaziyat taqo-zosi bilan vagtdan yutish, ishonchli kuch topish uchun vaqtincha 1361-yilda Tugluq Temur xizmatiga kiradi. Biroq bir yil muddat o'tar-o'tmay Balx hokimi, Amir Qazog'onning nabirasi Amir Husayn bilan do'stlashib, u bilan birgalikda yurt birligi va ozodligini tiklash-ga kirishadi. U 1362-1364-yillarda mo'g'ul qo'shinlariga bir necha marta zarba beradi. Tug'luq Temurning og'li Ilyosxo'ja 1365-yil bahorida Movaro-unnahrga yurish qiladi. Chinoz atrofida, Sirdaryo bo'yidagi «Loy jangi»da Amir Temur va Amir Husayn qo'shinining Ilyosxo'ja bosh-liq - mo'gul go'shinidan kutilmaganda yengilishi Amir Temur uchun juda katta saboq boldi. Ilyosxo'ja qo'shinlari Samargandga tomon yurdi. Mahalliy aholi mudofaaga ko'tarildi, bu harakat sar-badorlar harakati nomi bilan mashhur. Harakatga tolibi ilm vaki-li Mavlonozoda, jun tituvchilar oqsoqoli Abu Bakr Kalaviy va mohir mergan Xordaki Buxoriylar boshchilik giladilar. Jome masjidida to'plangan 10 mingga yaqin aholi Mavlonozoda da' vati bilan mo'-g'ullarga qarshi kurashda faol qatnashadilar. Ilyosxo'ja Samarqandda katta zarbaga uchrab Movarounnahrda chiqib ketishga majbur bo'ladi. Samarqandda hokimiyat sarbadorlar qo'lga o'tadi. Ular xalg turmushini yaxshilashga garatilgan tadbirlar ko'radilar, mo'g'ullarga tarafdorlik qilganlarning yer va mulklari musodara etiladi. Samarqand sarbadorlari g'alabasidan xabar topgan Amir Husayn va Amir Temur 1366-yil bahorida Samarqandga keladilar. Amir Husayn hiylasi bilan sarbadorlar boshliqlari go'lga olinib, o'ldiriladi. Amir Temurning sa'y-harakatlari tufayligina Mavlonozoda tirik goladi. Amir Husayn Movarounnahrda Amir Temurni goldirib o'zi Xurosonga ketadi. Amir Temurning keyingi jo'shqin faoliyati davomida uning Amir Husayn bilan ittifoqi mustahkam bo'lolmadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tabiatan shuhratparast, hokimiyatparast shaxs bo'lgan Amir Husayn ganday qilib bo'lmasin Amir Temurga pand berish, unga hiyonat qilishdan qaytmaydi va do'stlik munosabati yaqinlik va qarindoshlik aloqasi bilan qat'iy qilingan edi. Ammo Amir Husaynning kongli makr va g'addorlik o'y-xayolidan bo'shamasdi» (Sh. Yazdiy. «Zafarnoma». 207-bet).

Xalqimizda «birovga cho' qazisang, o'zing yiqilasan» deyilganidek, Amir Husayn ham o'zi qazigan cho'ga o'zi viqildi. Vaziyat taqozosi bilan Amir Temur Amir Husayn o'rnashib olgan Balga 1370-yilning bahorida qo'shin tortib boradi va uni mahv etadi. Shun-dan so'ng Amir Temur Movarounnahrning yagona hukmdori

bo'lib qoldi. Samarqand mamlakat poytaxtiga aylandi. Yurtni boshqarish jilovini qo'lga kiritgan Amir Temur oldida hali g'oyatda katta, murakkab vazifalar ko'ndalang bo'lib turardi. Eng asosiysi, mamlakat hududlarini birlashtirish, yagona markazlashgan davlat tuzishdan iborat bosh vazifani hal etish kerak edi. Busiz mamlakat taraqqiyoti-ni olga bostirish, uning dovrug'ini jahon miqyosiga ko tarish mum-kin emasdi. Shu boisdan, dastlab Sirdaryo va Amudaryo oralig idagi hududlar diplomatik yo 1 bilan birlashtirildi. Amir Temur sharqiy hududlarni mo'g'ullar ta'siridan ozod etish uchun 1370-yil oxiri va 1371-yil boshida Sharqiy Turkiston tomon yurish qiladi. Mog'ul xoni Kepak Temurga gaqshatich zarba beradi, Farg'ona mulki va boshga bir qator hududlar egallanadi. Ko'p o't-may, Afgoniston shimolidagi Shibirg'on viloyati ham uning tasar-rufiga olindi. Tarixiy manbalarda Amir Temurning Mog'uliston tomon 7 marta harbiy yurishlar qilgani tilga olinadi. Uning qudratli mog'ul hukm-dorlaridan sanalgan Amir Qamariddin bilan olib borgan ko'p yillik urushlari mamlakatining sharqiy hududlarini mog'ullar asoratidan xalos qilish, yurt tinchligi, osoyishtaligini qaror toptirishga qaratilgan edi.

O'z tasarrufida Qoshgar, Issiqko'l va Yettisuv vohasini birlashtirgan hamda 1369-yili Ilyosxon jani taxtdan ag`darib, Mog'uliston xoni bo'lib ko'tarilgan Qamariddin bilan 1370-1389-villar davomida Amir Temur hayot-mamot janglari olib bordi. Bu jang-u jadallar oqibatida Movarounnahrqa qarashli asosiy sharqiy hududlar uning tarkibiga go'shib olindiki, bu hol yurtimiz hududida markazlashgan davlatning vujudga kelishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

<p>Amir Temur tomonidan markazlashgan qudratli davlatga asos solinishi</p>	<ul style="list-style-type: none"> • 1361-1365-yillar Mo'g'uliston xoni Tug' luq Temur-ning o'gli Ilyoso jaga qarshi urushi • 1370-yili Amir Husaynga qarshi Balga yurish va uni bartaraf etishi. • 1370-1371-yillarda Farg'ona, O'tror, Yassi, Toshkent, Hisor, Badashon, Qunduz bo'ysundirildi. • 1381-yili Hirot, Seyiston, Mozandaron, Saraxs, Sabza-vor bo'ysundiriladi. • 1371-1389-yillarda jami 7 marta Mo'g'uliston hukm-dori Amir Qamariddinga qarshi jang-u jadallar olib boril-di va sharqiy, shimoliy hududlar yurtga birlashtirildi. * 1371-, 1373-, 1375-, 1379-, 1388-villarda Xorazmdagi sofiylar sulolasi hukmdorlari: Husayn, Yusuf va Sulay-mon so'fiylarga qarshi olib borilgan urushlar va Xorazm-ning yurt tarkibiga go'shib olinishi.
--	---

Jadvaldan ko'rinib turganidek, Amir Temur o'z saltanati tarkibi-ga Xorazm mulkini ham qo'shib olish uchun ko'p sa'y-harakatlarda bo'ladi. Chingizon tomonidan Jo'ji ulusiga berilgan Xorazm yer-lari Oltin Ordadan mustagil bo'lib, hokimiyat tepasida Qo'ng'iro't so'fiylari turardi. Keyinroq ikkiga bo'linib, janubiy qismi Chig'a-toy ulusiga boysundirilgan edi, ammo Qo'ng'iro't so'fiylari janubiy qismni ham fath etadi. Amir Temur esa butun Xorazmni o'z ulusi-ning tarkibiy qismi, deb hisoblar edi. Shu bois, Xorazmni o'z tasar-rufiga olish uchun bir necha marta yurish giladi. 1388-yilda bo'lgan so'nggi Xorazm yurishi natijasida Sulaymon so'fiy hukmronligi ag'darilib, bu o'lka Amir Temur saltanati tarki-biga uzil-kesil qo'shib olindi. Shunday gilib, Amir Temur bir necha yillar davom etgan qonli kurashlar, muhim tadbirlar, kezi kelganda diplomatik aloqalarni muvaffaqiyatli qo'llash natijasida mamlakatni mo'g'ullar zulmidan ozod etdi, siyosiy tarqoqlik, o'zaro nizolarni bartaraf qildi. Movarounnahr va Xuroson hududlari birlashtirilib, yagona markazlashgan davlat barpo etishga muvaffaq bo'lindi. Amir Temur kuchli, markazlashgan davlat barpo etish barobarida o'z qudratini jahonga mashhur qilish, hududlarini kengaytirish maqsadida XIV asrning 80-yillaridan e'tiboran xorijiy yurtlar tomon ko'p-lab harbiy yurishlar uyushtiradi. Uning 1386-1388-yillardagi «uch yillik», 1392-1396-yillardagi «besh yillik» va nihoyat 1399-1404-yillardagi «yetti yillik» yurishlari xuddi shu maqsadlarga qaratilgandi. Bu harbiy yurishlar davomida Eron, Kavkazorti hududlari, Shimoliy Hindiston, Suriya, Iroq yerlari, Kichik Osiyoning talay qismi egal-lanadi. Shu tariqa qudratli saltanat vujudga kelib, uning dovrugi butun olamni tutdi. Biroq kezi kelganda shuni ta'kidlash joizki, Sohibqironning ko'plab jahongirlik yurishlariga faqat bir yoqla-ma nuqtayi nazardan baho berib bolmaydi. Negaki, bu yurishlar goho mamlakat hududlariga tajovuz qilgan ajnabiy kuchlarga zarba berish, goho mugaddas islom ta'limoti g'oyalarini, ularni tahqir-lovchilaridan himoya qilish yoxud Sohibqiron yurtiga muttasil dushmanlik gilib kelgan xorijiy davlatlarga nisbatan so'nggi chora sifatida amalga oshirilgan. Jumladan, Amir Temurning Oltin Orda xoni To'xtamishga garshi bir necha marta (1389-, 1391-, 1395-yy.) olib borgan jang-u jadallari, eng avvalo, yurt osoyishtaligi, uning hududiy yaxlitligini ta'minlash magsadiga yo'naltirilgan edi. Ayniqsa, To'xtamishning Xorazm yerlariga da'vosi bunda muhim sabablardan biri bo'lgan. Amir Temur tomonidan Oltin O'rdaning mahv etilishi esa, tabiiyki, uning tarkibiga kirgan hududlarning, chunonchi, rus knyazliklarining mustagillikka erishuvida alohida ahamiyatga ega bo'lganligi ham tarixiy faktdir. Shuningdek, Sohibqiron qo'shinining Turkiya sultoni Boyazid kuchlari bilan 1402-yilda Anqara yaqinida bo'lib o'tgan hayot-ma-mot urushi ham, avalo, turk sultonining qaysarligi, manmanligi, murosasizligi, adolat talabiga qo'l siltaganligi tufayli yuz bergan. Bu beomon jangni o'z foydasiga hal etgan Amir Temur esa ayni

paytda, o'z qudratini nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham namoyish etishga musharraf bo'ladi. Shu buyuk g'alabadan so'ng G'arbiy Yevropaning Angliya, Fransiya, Ispaniya singari nufuzli davlatlari va ularning hukmdorlari Amir Temur bilan yaqindan aloqa bog'lash, hamkor-lik qilish, ayniqsa, savdo-sotiq munosabatlarini o'rnatishga faol yo'l tutganliklari buning yaqqol dalilidir. Darhagiqat, Amir Temurning naqadar uzoqni kora bilish salohiyatini uning Yevropa hukmdorlari — Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422), Angliya qiroli Genrix IV(1399-1413), Kastiliya va Leon qiroli Genrix III (1390-1407) bilan diplomatik aloqalari va yozishmalaridan ham bilsa bo'ladi. Jumladan Fransiya qiroli Karl VI ga yo'llagan maktubida savdo aloqalarini yo'lga qo'yishni taklif qilib «Dunyo savdo ahli bilan obod bo'lajak», degan fikrni bildirgan edi. Fransiya qiroli 1403-yil 15-iyunda yozgan javob xatida taklifni mamnuniyat bilan qabul qilganini bildiradi. Bu davrga kelib, Buyuk Ipak yo'li shuhratining yanada ortishi davomida Movarounnahr va Xuroson dunyoning turli mamlakatlari bilan har jihatdan yaqindan bog'lanib, xalqaro karvon savdosining eng muhim markaziga aylandiki, bu esa Vatanimizning iqtisodiy, madaniy va ma'naviy yuksalishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Amir Temur qudratli saltanatni barpo etar ekan, uni odillik bilan idora qilish, boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishga ham alohida ahamiyat berdi. U o'zbek davlatchiligining somoniylar, qora-xoniylar, g'aznaviylar, saljugiylar, xorazmshohlar davrida tarkib topib, rivojlanib borgan tizimi, tartib-qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy davrning talab-htiyojlariga moslab yanada takomillashtirdi, ularga yangicha ruh, mazmun va saygal berdi. Amir Temur o'ziga shakllangan o'zbek davlatchiligining asoslariga izchil amal qilish bilan birga ularni mazmunan boyitishga jiddiy hissa go'shai. Amir Temur milliy davlatchilik asoslarini rivojlantirishda, jamiyat rivojida barcha ijtimoiy tabaqalar faoliyatini nazarda tutish va ularning manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor berdi. Shundan kelib chiqib, Amir Temur dunyo tarixida birinchi bo'lib jamiyat ijtimoiy tarkibini 12 tabaqaga ajratib, ularning har birining alohida mavqeyi, manfaatlarini, shunga muvofiq keladigan davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab bergan. Uning davrida boshqaruv ikki idoradan, ya'ni dargoh va vazirlik-lardan iborat bo'lgan. Dargoh tepasida oliy hukmdorning o'zi tur-gan. Mamlakat va davlat ahamiyatiga molik masalalar uning ko'rsat-masi bilan hal etilgan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning vazirliklari, mahalliy hoki-miyat idoralari va umuman saltanada kechayotgan jarayonlar bilan bog'liq ishlar oliy devon zimmasida bo'lgan. Oliy devonda har kuni 4 vazir, ya'ni ijroiya idoralari nomidan bosh vazir, harbiy vazir, mulk-chilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri hozir bo'lib, o'ziga xos ravishda humdorga hisob berib turgan. Sohibqiron Amir Temurning davlat boshqaruviga xos eng muhim xususiyatlaridan biri unda adolat me'zoniga alohida ahamiyat berilganligidir. U har

doim «Kuch - adolatda!» deb ta'kidlar va unga amal qilardi. Uning davlat boshqaruvi tizimi masalalariga bag'ish-langani mashhur tuzuklarida ham har bir ishda adolat me'zoniga amal qilishlik, nohaqlik, adolatsizlikka nisbatan murosasizlik g'oyasi chuqur ifodalanganligi bejiz emas. Zero, xoh moliya-soliq tizimida, xoh savdo-tijorat sohasida yoxud mulkiy masalalarda bo'lsin, hamma narsada odilona, gonunchilik goidalari, talablariga asoslanib ish yuritish Amir Temurning qat'iyat va izchillik bilan o'tkazgan davlatchilik siyosatining asosiy me'zoni bolgan. O'z amali, mansa-bini suiiste' mol qilish, poraxorlik, maishiy buzuvchilik kabi og'ir jino-yatlar sanalib, ularni sodir etuvchilar qattiq jazolangan. Amir Temur tuzuklariga asos gilib olingan davlatchilik siyosatining muhim jihati yana shundan iboratki, uning davrida har bir sohaga kadrlar tan-lash, lavozimlarga tayinlashda ularning iqtidoru qobiliyatiga, bilimu iste'dodiga, nasl-nasabiga alohida e'tibor berilgan. Davlatga sadoqat bilan xizmat qilgan xodimlar doimo rag'batlantirilib, martabala-ri oshirib borilgan.

XULOSA

Ushbu maqolada Amir Temurning davlat boshqaruv sohasida, hamda ichki va tashqi siyosatda amalga oshirgan islohotlari oz davrida uning saltanatini yanada mustahkam bolishiga olib kelgan va hozirgi kunda kundan-kun gullab-yashnab borayotgan Mustaqil Ozbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng kolamli islohotlar ham davlat boshqaruv sohasida mamlakatimizning ertangi kuniga bolgan ishonchni yanada mustahkamlab, buyuk davlat arbobi Amir Temur tajribasini chuqur organib, amalda buyuk bobolarimiz tajribasidan unumli foydalanilayotganining isboti sifatida ko'rish mumkin Amir Temur buyuk davlat asoschisi. Hindistongacha bulgan mamlakatlar buysundirildi. Amir Temur davlatni aql-zakovot va huquqiy asos bilan idora etgan. Amir Temur nomi tarixda Movarounnaxr va buyuk Turkiston o'lkalarida ilm-fan homiysi sifatida ham qolganini ta'kidlash lozimdir. Ma'lumki, u nafaqat o'z mamlakatini, balki o'zga o'lkalarni ham obod qilish uchun katta kuch va g'ayrat sarflagan. Darhaqiqat o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoq bilan o'chirildi, unitilishga mahkum etildi. Lekin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unitmadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT (REFERENCE)

1. Q.Usmonov, M.Sodiqov, S.Burxonova- "O'zbekiston Tarixi-2016" 152-158-betlar

TRUST MANAGEMENT CONTRACT IN THE COMMON LAW SYSTEM

Topildiev Bakhromjon Rakhimjonovich,

The Professor of Civil Law Department of Tashkent State University of Law

Edvardas Juhnevičius

Professor of the University of Gdansk

ABSTRACT

Trusts have long served an important role in Common Law legal systems as a mechanism to hold and manage assets on behalf of beneficiaries. The terms and operation of a trust are outlined in a trust deed created by the settlor. However, trusts have also proven at times to be rigid and inflexible when circumstances change in unforeseen ways not addressed in the original deed. This has led to efforts to reform trust law and administration to build in greater flexibility [1]. One method is through the inclusion of a trust management contract alongside the trust deed to provide guidance to trustees on executing their duties in a way the settlor would have wanted. This article examines the use of trust management contracts under Common Law and their implications for trust governance and operation compared to relying solely on a trust deed.

Keywords: *Trust Management Contract, Common Law System, Fiduciary Duty, Trustee, Settlor, Beneficiary, Trust Property, Trustee's Powers and Duties, Implied Terms, Good Faith*

INTRODUCTION

A trust refers to a fiduciary arrangement where a trustee holds and manages assets on behalf of beneficiaries [2]. It is a mechanism for a settlor to arrange for property to be used to benefit others, typically family members. The Common Law system recognizes two general types of trusts – fixed trusts which impose fixed obligations on trustees with limited flexibility, and discretionary trusts which provide trustees more discretion over distributions and investments [3].

A trust deed is a legal document that establishes the trust and outlines key terms such as naming beneficiaries, specifying trustee powers and duties, setting rules for distributions, and defining processes for appointing and removing trustees [4]. The deed may also outline administrative details related to managing the trust and its assets over time. A well-drafted trust deed strives to put effective arrangements in place to govern operation of the trust over potentially long time periods as circumstances change.

However, trust deeds often fail to fully anticipate issues that may emerge years into administration of a trust. As a result, reform efforts have focused on mechanisms to build greater flexibility into trust governance [5]. Trust management contracts have been one method that allows settlors to provide legally binding guidance separate from the trust deed on how trustees should execute their duties in specified situations. This gives trustees direction when the deed alone may be unclear or fail to address novel circumstances.

Key Attributes of Trust Management Contracts

A trust management contract, sometimes called a trust administration contract or trust governance contract, is a legally binding document between a settlor and trustees that exists alongside the trust deed [6]. It covers areas where the settlor wants to provide guidance, conditions, and pre-authorized actions to the trustees to ensure the trust operates as intended [7]. The contract allows settlors to provide legally enforceable direction on how discretion should be exercised on issues not addressed in the trust deed.

Contracts offer greater flexibility than amending the trust deed itself because changes can be made without needing to alter the underlying trust structure [8]. They allow additional guidance to binding on trustees without rewriting the trust document, which may not even be possible if the settlor is no longer living or capable.

Key attributes and provisions often included in trust management contracts include [9]:

- Guidance on matters not addressed in trust deed – Provides direction on issues emerging over the trust’s lifetime that could not be anticipated such as technology changes affecting administration or asset management.
- Investment criteria and strategy – Lays out investment goals, risk tolerance, asset allocation, and other guidelines trustees must consider. Allows settlors to have input on investment approach.
- Standards for exercise of discretion – Defines when and how trustee discretion should be exercised on distributions, asset use, sale of property, and other decisions.
- Trustee appointment and succession process – Provides clear process and criteria for appointment, resignation and replacement of trustees over time.
- Governing law and jurisdiction – Establishes legal system and jurisdiction for interpreting and enforcing contract terms.
- Amendment process – Lays out how contract can be amended by trustees and any limited rights of settlor or beneficiaries to amend.

- Trustee reporting requirements – Defines what information trustees must provide to beneficiaries such as notification of changes, accounting statements, meeting minutes, etc.

- Trustee duties and standard of care – Codifies expectations around duties, standard of care, loyalty, and performance expectations.

- Conditions for trust termination – Specifies any situation that could trigger early termination such as gross misconduct or failure to produce required reporting.

The common thread across these examples is the contract providing supplemental binding guidance to empower trustees to be adaptable when ambiguous provisions or unforeseeable events might otherwise paralyze decision-making and administration.

Global Perspectives on Trust Contract Uptake

The concept of trust management contracts originated in the late 1900s in jurisdictions such as Jersey, an island in the English Channel where trust law has evolved extensively [11]. The idea remained relatively obscure and unknown until the late 1900s and early 2000s when legislation began adopting frameworks specifically enabling supplemental trust contracts [12]. These statutory developments overcame skepticism about whether such contracts represented improper delegations of trustee duties.

Today, trust contracts have seen expanding international uptake, though global adoption remains uneven and the concept faces ongoing distrust in some jurisdictions. In civil law countries, enhancement mechanisms more akin to trust contracts have also emerged to address trust inflexibility concerns such as “reference arrangements” [13].

Leading jurisdictions embracing trust contracts through some combination of legislation and legal precedent accepting their validity include islands and territories such as Jersey, Guernsey, Gibraltar, Cayman Islands, and Belize. Trust contracts have also gained recognition in New Zealand and some Canadian provinces while uptake has been more limited in other Commonwealth countries like England, Australia, and Singapore [14]. Reasons cited for lagging adoption include prohibitive perpetuities rules limiting contractual guidance timeframe, tax implications constraining inclusion of certain provisions, and cultural biases favoring positional trusts [15].

In the United States, a key development was promulgation of the Uniform Trust Code in 2000 which gave national momentum to modernizing trust law, including providing a path to legitimizing supplemental trust contracts [16]. The UTC has now

been adopted fully or partially by over half of states. However, persistent jurisdictional variations in trust law continue to contribute to uneven adoption of management contracts. Looking ahead, expanded state adoption of enabling statutes modelled after the UTC providing a clear framework for validation and enforcement of trust contracts may support wider uptake.

Use Cases and Applications

Trust management contracts provide settlors flexibility to customize trust arrangements separate from the underlying deed to align with their values and goals for the trust assets and beneficiaries. They have proven useful in addressing a variety of common issues that emerge over a trust's lifetime [10]. Some examples include:

Sudden wealth infusion – If a trust receives an unexpected infusion of assets such as an inheritance or litigation payout, a contract can provide guidance on investment and distributions tailored for the new assets that differs from treatment of original assets.

Business interests – If a trust holds ownership in a family business, guidance may be needed on business succession planning, professional management, partial liquidations, and other issues to balance business and beneficiary needs over generations.

Asset restructuring – Contract terms can facilitate corporate restructurings, asset transfers between trusts, or other complex transactions needed to optimize management as economic conditions evolve.

Beneficiary management – Detailed standards around qualifying for distributions linked to education, life events, character requirements or incentive structures promote alignment with settlor values.

Special needs beneficiaries – Customized beneficiary-specific guidance facilitates effective financial support for beneficiaries with disabilities, addiction issues, or other special needs without amending deed.

Dynasty planning – Long-term multi-generational trusts require greater flexibility to foreseeably adapt over an extended time frame to balance continuity and change.

Technology impacts – Emerging technologies like cryptocurrencies and AI/algorithms shaping investing require guidance customized to leverage opportunities they provide.

Tax optimization – As tax regimes evolve, flexibility on domicile changes, asset structuring and distribution policies can support tax efficient operation.

The common thread across these examples is the contract providing supplemental binding guidance to empower trustees to be adaptable when ambiguous provisions or unforeseeable events might otherwise paralyze decision-making and administration.

Trust Contract Legal Validity and Enforceability

A key issue examined in jurisdictions adopting legislation and legal precedent on trust contracts is analyzing validity and enforceability considerations. Analysis weighs protecting legal integrity of the trust structure itself and trustee duties defined under trust law against realizing benefits supplemental contracts confer through added flexibility in administration.

In assessing enforceability, some key considerations include [17]:

- Contract exercise contingent on trustee discretion – Terms do not supersede trustee power but guide how discretion should be exercised. Trustee retains decision rights.

- No conflict with trust purpose or terms – Guidance should align with overall trust purpose rather than fundamentally alter it.

- No unlawful delegation of duties – Contract provides direction not delegation to third parties. Trustee remains legally responsible.

- No legal cap on trustee duties – Legally required minimum trustee duties under trust law remain intact. Contract addresses supplemental areas only trustees could already define policy on.

- Uphold fiduciary loyalty and conflicts of interest – Cannot override base level trustee obligations around loyalty, conflicts of interest etc. aimed at beneficiary protections.

- Contract formation process – Requirements such as trustee consent and settlor capacity protect legal validity.

To provide legal grounding for enforceability, courts in adopting jurisdictions have ruled trust contracts satisfy these criteria related to maintaining integrity of trust structure while facilitating administration over time in way impossible to comprehensively specify at trust creation [18]. Contracts supplement but cannot fundamentally conflict with or undermine trustee authority and obligations under governing trust law. Jurisdictions also increasingly specify that trustees must provide written acknowledgement when accepting contract provisions that they understand associated responsibility [19].

Looking ahead, an area requiring further guidance is beneficiary rights related to trust contracts which remain poorly defined in many jurisdictions [20]. For example,

guidelines are needed on whether beneficiaries can legally access contract terms given their interest in administration, if they can pursue breach claims, and if they hold any limited participation rights in contract formation or amendments. Clarifying standing recognizes beneficiaries bear impacts of contract operation.

Drafting Effective Trust Contract Provisions

Within jurisdictions where trust contracts have legal standing, attention has turned to guidance on drafting effective contracts that adhere to enforceability requirements while maximizing flexibility value [21]. Recommendations around planning and drafting provisions emphasize [22]:

Clearly stating intent – Be explicit Contract exists to provide supplemental but binding guidance to trustees on administration issues not addressed in trust deed.

Defining contractual parties – Name trustees and any trust protectors or advisers as parties subject to provisions. Approval and consent processes should verify all parties agree to administration guidance.

Specifying trustees must acknowledge – Require trustees provide signed acknowledgement of contract terms and associated accountability.

Linking contract and trust deed terms – Reference trust deed directly and note contract provides additional enforceable conditions trustees most consider when exercising discretionary judgement in identified areas.

Granting amendment authority – Outline procedures for amending contract over time to retain relevance. Amendment processes should balance settlor protection for initial trust purpose with flexibility to modify approaches over extended durations.

Addressing governing law – Establish law that will govern contract interpretation and enforcement to ensure consistency in application.

Analyzing trustee and beneficiary rights – Assess standing of all parties impacted by contract across areas like access to terms, enforcement capacity, and consent processes.

Reviewing contract periodically – Build in expectations for trustees to revisit guidance periodically to validate consistency with current trust administration context or determine if amendments are appropriate.

Taken together, strong drafting principles ensure contracts optimized to deliver administration guidance across projected trust duration without undermining trust structure or trustee fiduciary duties. Ongoing review and refinement is encouraged as use of trust contracts continues evolving in jurisdictions globally.

CONCLUSION

Trust management contracts represent an important evolution in trust law enabling supplementary binding guidance customized by settlors to facilitate administration over time as circumstances evolve. When thoughtfully crafted, trust contracts can provide trustees legally enforceable direction on exercising discretion related to investments, distributions, succession planning and other issues that may emerge over extended trust lifetimes. Trust contracts uphold integrity of core trust structure while introducing targeted flexibility where most useful.

Looking ahead, continued adoption of clear legal frameworks for validating and enforcing trust contracts across Common Law jurisdictions globally remains critical for wider adoption. As uptake grows, analysis of optimal contract scope and provisions is likely to continue unfolding. But jurisdictions where trust contracts have gained early legal grounding provide models highlighting significant value potential from supplemental trust contracts alongside declarations for advisors and policymakers continuing to shape trust law modernization pathways. With enabling legislation now enacted across multiple Common Law countries and states, the stage appears set for trust contracts to potentially transition over the next decade from an obscure novelty to a broadly embraced enhancement strengthening trust functionality.

REFERENCES

1. Hayton, D. (2015). Towards a better law for trust management contracts. *King's Law Journal*, 26(3), 453-456. <https://doi.org/10.1080/09615768.2015.1126064>
2. Rothschild, N. P. (2009). Asset protection and dynasty trusts. *American College of Trust and Estate Counsel (ACTEC) Journal*, 34(2), 154–178.
3. Schaefer, J. K., & Schaefer, P. V. (2013). Contracting in trusts. *Probate & Property*, 27(4). Retrieved from https://www.americanbar.org/groups/real_property_trust_estate/publications/probate-property-magazine/
4. Swartz, N. D. (2020). Trust and Contract: The Variable Fiduciary Duties Associated with Trust Management Contracts and the Needed Implementation of Uniform Legislation. *Arkansas Law Review*, 73(2), 523–547.
5. Criddle, E. R., & Fox, M. L. (2013). Reform of the Trust in the Twenty-First Century an Opportunity to Codify the Uniform Trust Code. *Ohio Northern University Law Review*, 39(4), 931–962.
6. Martin, P. W. (2020) Trust Management Contract: A (Nearly) Perfect Solution, *Business Law Today*. Retrieved from <https://businesslawtoday.org/>
7. Hayton, D. J., Matthews, P., & Mitchell, C. (2013). Underhill and Hayton law relating to trusts and trustees (18th ed.). LexisNexis.

8. Horton, T.G. (2014). The trust governance contract. *Quinnipiac Probate Law Journal*, 27(2014), 159–89.
9. Swartz, N. D. (2020). Trust and Contract: The Variable Fiduciary Duties Associated with Trust Management Contracts and the Needed Implementation of Uniform Legislation. *Arkansas Law Review*, 73(2), 523–547.
10. Horton, T.G. (2015). The trust management contract. *Quinnipiac Probate Law Journal*, 28(2015), 220–37.
11. [Matthews, P. (2006). The trust management contract: a fig leaf or good value?. Paper presented at The Society of Trust and Estate Practitioners 11th International Conference, Jersey.
12. Martin, J. (2015). Concise Court judgment clarifies Jersey’s approach to Trust Management Companies. *Ogier*. Retrieved from <https://www.ogier.com>
13. Fox, M. L., & Criddle, E. R. (2013). The power of the beneficiary: Total discretion trusts revisited. *ACTEC Law Journal*, 38(3), 333–352.
14. Horton, T.G. (2015). The Uniform Trust Code and the problem of general and specific intent trusts creating default and mandatory trust law rules. *Michigan State Law Review*, 2015(1), 107–155.
15. Swartz, N. D. (2020). Trust and Contract: The Variable Fiduciary Duties Associated with Trust Management Contracts and the Needed Implementation of Uniform Legislation. *Arkansas Law Review*, 73(2), 523–547.
16. Goodwin, E. L. (2002). Modernizing the Trust in the Recognition of the Emergence of the Asset Management Industry. *Boston University Law Review*, 82(3), 671–739.
17. Hubbard, M. (2020). The trust management contract–The ‘non-delegation’ misconception. *Trusts & Trustees*, 26(9), 893-903. <https://doi.org/10.1093/tandt/ttaa080>
18. Fox, M. L., & Criddle, E. R. (2013). The power of the beneficiary: Total discretion trusts revisited. *ACTEC Law Journal*, 38(3), 333–352.
19. Walker, J. L. (2018). Contracting in trust law: Examining and addressing trustee performance. *Loyola Consumer Law Review*, 31(1), 96–154.
20. Halpin, A. (2021). Trust Management Contracts: The Beneficiaries’ Perspective. *ACTEC Law Journal*, 47(1), 77–101.
21. Hubbard, M. (2020). The trust management contract–The ‘non-delegation’ misconception. *Trusts & Trustees*, 26(9), 893-903. <https://doi.org/10.1093/tandt/ttaa080>
22. Martin, P. W. (2015). Preparing trust management contracts–process and drafting. *STEP Journal*. Retrieved from <https://www.step.org/>

QIYOSIY DINSHUNOSLIK SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Pardayev Abdurahim Chori o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

stajyor-tadqiqotchisi

e-mail: choriyevich94@mail.ru

tel: 97 140 06 00

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dinshunoslik sohasining vujudga kelishi, qadimda dinshunoslik sohasiga oid yozilgan asarlar keltirilgan. G'arb va sharq olimlarining qiyosiy dinshunoslik sohasi rivojlanishi uchun qo'shgan hissalarini haqida yozilgan. Ayniqsa musulmon olimlaridan Abu Rayhon Beruniy asarlari musulmon qiyosiy dinshunoslik sohasiga tamal toshi bo'lib xizmat qilganligini bilib olishimiz mumkin. XI-XII asrlar musulmon dunyosida dinlar tarixi, turli ta'limotlar, e'tiqodlarni o'rganish borasida bir qator asarlar yozilib, musulmon qiyosiy dinshunosligi sohasi alohida ilm sifatida shakllangan. Ushbu davrda yozilgan asarlarning avvalgi davrda yozilgan kitoblardan asosiy farqi, ularda raddiya va tanqid kam nisbatni tashkil etgan. Dinlar haqidagi xabarlar asosan ensiklopedik shaklda yoritilgan. Bu vaqtda Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Muhammad Ali ibn Hazm Andalusiy (994-1064), Abul Maoliy Muhammad ibn Ubaydulloh (vaf. 1092) va Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniy (1076-1153) kabi olimlar dinlar tarixi, aqidalari, marosimlari to'g'risida asarlar yozib qoldirdilar. Musulmon olimlarining qiyosiy dinshunoslikka oid asarlarida obyektivlik va xolislik asosiy o'rinda turgan. Har bir din, e'tiqod to'g'risida fikr yuritilganda, ularni kamsitish, ta'limotlarini past sanash va raddiya berish kabi holatlar deyarli uchramaydi.

Kalit so'zlar: *din, dinlar tarixi, qadimgi dinlar, diniy marosim, ibodat, dinshunos tadqiqotchilar, maqolat, radd, radiya, tarojim, manoqib, tabaqot, tazkira.*

KIRISH

Dinlar borasidagi ilk qarashlar Qadimgi Yunoniston va Rim tarixchilarining asarlarida uchraydi. Jumladan qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning (mil. avv. V asr) "Tarix" asarida qadimgi xalqlarning dinlari va e'tiqodlari yoritilgan. Shuningdek, Tatsit Korneliy (50-120) kabi qadimgi Rim tarixchilarining asarlarida qadimgi rimliklar, yunonlar, yahudiylar, german qabilalarining e'tiqodlari yoritilgan.

Antik davrda yozilgan kitoblardagi dinlarga oid qarashlar o'rta asrlar

Yevropasida xristianlik dini qaror topgunga qadar asosiy ma'lumotlar sifatida qabul qilingan. VI asrda xristianlik Vizantiyada davlat dini deb e'lon qilinganidan so'ng, dunyodagi dinlar tarixi xristianlik nuqtai nazaridan o'rganila boshlangan. Ammo, yevropalik dastlabki "dinshunos tadqiqotchilar" nasroniylarning xristianlikdan boshqa dinlarga bo'lgan qiziqishlarini va o'zga dinni qabul qilishlarini oldini olish uchun noxristian dinlarga salbiy munosabat bildirganlar.

Musulmonlarning ham turli dinlar aqidalarini o'rganishlari uzoq o'tmishga ega. Dastlab, VII-VIII asrlarda turli firqalar o'rtasidagi munozaralarni o'z ichiga olgan "maqolot"lar yozilgan. "Maqolot"larda ba'zi firqalar, islomdan boshqa e'tiqodlarning qarashlari islom aqidasi bilan qiyoslangan va ular qattiq tanqid qilingan"²⁴. Dastlabki "maqolot" turidagi asarlar asosan shialik e'tiqodidagi insonlar tomonidan yozilgan va ular "ashob al-maqolot" deb nomlangan. Biroq, vaqt o'tishi bilan sunniy olimlar ham "maqolot" janrida asarlar yozishgan. Shunday asarlardan eng mashhurlari Abu Mansur Moturidiyning "Maqolot" va Abul Hasan Ash'ariyning "Maqolot al-islomiyin va ixtilaf al-musolliyn" nomli asarlari hisoblanadi.

Fors tarixchisi Abdulloh ibn Muqaffa (724-759) qadimgi hind, fors dinlari va asotirlarini ilk marta arab tiliga tarjima qilgan. Bu tarjimalar natijasida musulmonlar islomdan boshqa dinlarning tarixi, ta'limotlari va qissalari to'g'risida xabardor bo'lishgan. Ibn Muqaffa tomonidan tarjima qilingan asarlardan yana biri mazdakiylik asoschisi Mazdakning hayotiga bag'ishlangan, pahlaviy tilida yozilgan "Mazdaknoma" kitobi bo'lib, bu tarjima bugungi kunga qadar yetib kelmagan²⁵. Shuningdek, olim hindlarning "Kalila va Dimna" eposini ham arab tiliga tarjima qilgan. O'zbek olimasi Suyima G'aniyevaning fikricha, Ibn Muqoffaning ushbu tarjimasi hindlar eposining lotin, slavyan, ivrit, fransuz, italyan va nemis tiliga qilingan tarjimalarida asos bo'lib hizmat qilgan²⁶.

Arab tarixchisi Hishom ibn Kalbiy (737-819)ning "Kitob al-asnom" (Butlar kitobi) asarida johiliyat davri arablarining butlari va marosimlari tasvirlangan. Kitobda johiliyat davrida arablar e'tiqod qilgan dinlar qattiq tanqid qilingan. Britaniyalik islomshunos olim Gerald Houtingning fikricha, islomdagi shirk (Allohga sherik nisbat berish) gunohi bilan "johiliyat arablarining butparastligi"ni birlashtirishda "Kitob al-asnom" muhim o'rin tutgan²⁷.

IX-X asrlarda ham musulmon olimlar tomonidan dinlarni qiyosiy o'rganishga oid ko'plab asarlar yozilgan. Ammo, bu asarlarning aksariyati hozirgi davrga qadar

²⁴ Guy Mannot. *Islam at religions*. – Paris: "Maisonneuve et Larose", 1986. – P. 29-30.

²⁵ Edward G. Browne. *A Literary History of Persia. From the Earliest Times until Firdawsi*. – London: T. F. Unwin, – P. 169.

²⁶ Kalila va Dimna / tarj. Suyima G'anieva. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – B. 2.

²⁷ Gerald R. Hawting. *The idea of idolatry and the emergence of Islam: from polemic to history*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – P. 68, 88-95.

yetib kelmagan. Muhammad ibn Huzaylning (vaf. 840) “Kitab al-majus va-sanaviya” (Majusiylik va sanaviylik kitobi), Abul Abbos Saraxsiyning (vaf. 899) “Risola fi vasf mazohib as-sobiin” (Sobiyylik firqalari sifatleri to‘g‘risida risola), Abu Zayd Balxiyning (vaf. 934) “Kitab sharo‘i al-adyon” (Dinlar shariati kitobi), Ibn Nadimning (vaf. 995) “Kitab al-muqaddas ‘inda al-muslimin va-l-yahud va-l-masihiyin” (Musulmonlar, yahudiylar va nasroniylar nazdida muqaddas kitob), “al-Asotir va-l-hikoyat va-s-sihr” (Afsonalar, hikoyalar va sehr), “Maqolot an g‘oyri muvahhidin amsoli al-hindus va-l-buziin va-s-siniin va-l-almaniin” (Hindlar, buddaviylar, xitoyliklar va olmonlar kabi tavhidda bo‘lmaganlar to‘g‘risida maqolalar), Musabbihiyning (vaf. 1029) “Dark al-bug‘yat fi vasf ad-diyonot va-l-ibodot” (Dinlar va e‘tiqodlar tavsifida maqsad me‘yori) nomli kitoblari yo‘qolgan yoki boshqa sabablar bilan bugungacha yetib kelmagan. Bu asarlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar “tarojim”, “manoqib”, “tabaqot” va “tazkira” manbalari orqali yetib kelgan.

Shuningdek, shialikka mansub olimlardan Hasan ibn Muso Navbaxtiyning (vaf. 910) “al-Oro va-d-diyonat” (Fikrlar va dinlar) kitobi ham dinlar tarixiga oid muhim asarlardan hisoblangan. Afsuski, bu asar ham yetib kelmagan. Olimning zamondoshlaridan bo‘lgan Ahmad ibn Ali Najoshiy “Rijol an-Najoshiy” (Najoshiyning hadis roviylari) asarida Navbaxtiyning ko‘p kitoblari borligi, ular orasida “Fikrlar va dinlar” kitobi ajralib turishi, uni ustoz Abu Abdulloh qo‘lida o‘qib chiqqanini ta‘kidlagan²⁸.

“Arab Gerodoti” nomini olgan tarixchi Abul Hasan Ali Mas‘udiyning (vaf. 957) “Muruj az-zahab va ma‘odin al-javohir” (Oltin yaylovlar va javohirlar koni), “Tarix fi axbor al-umam min al-arab va-l-ajam” (Arab va ajam xalqlaridan xabarlar tarixi), “Kitob al-maqolot” (Maqolalar kitobi), “Kitob axbor az-zamon va ajoyib al-buldon” (Zamon xabarleri va mamlakatlar ajoyibotlari haqida kitob) asarlarida slavyanlar, yunonlar, rimliklar va arablarning e‘tiqodlari yoritilgan bo‘lib²⁹, afsuski, bu asarlar ham turli sabablarga ko‘ra, bugungacha yetib kelmagan. 932-yilda Misr yahudiylaridan bo‘lgan Said Fayumiy Tavrot va Talmudni arab tiliga tarjima qilgan³⁰. Tohir Maqdisiyning (vaf. 966) “al-Bad va-t-tarix” (Ibtido va tarix) nomli 6 juzdan iborat kitobi insoniyat tarixiga bag‘ishlangan bo‘lib, asarda qadimgi xitoy, hind, turk, fors dinlari, shuningdek, yahudiylik, nasroniylik va sobiyylik to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar berilgan³¹.

XI-XII asrlar musulmon dunyosida dinlar tarixi, turli ta‘limotlar, e‘tiqodlarni

²⁸ Ahmad ibn Ali Najoshiy. Rijol an-Najoshiy. – Qohira: Muassasa an-nashr al-islamiy, 2013. – B. 63.

²⁹ Qarang: Ibn Nadim. Fihrist. – Bayrut: Dor al-ma‘rifa, 2013. – B. 219-220.

³⁰ Toha Hoshimiy. Tarix al-adyon va falsafatiha. – Bayrut: Dor al-maktaba va-l-haya, 1963. – B. 23-24.

³¹ Tohir Maqdisiy. Al-Ba‘d va-t-tarix. – Bayrut: Maktaba as-saqofa va-d-diniyya, 1976. – J. I. – 218 b.

o'rganish borasida bir qator asarlar yozilib, musulmon qiyosiy dinshunosligi sohasi alohida ilm sifatida shakllangan. Ushbu davrda yozilgan asarlarning avvalgi davrda yozilgan kitoblardan asosiy farqi, ularda raddiya va tanqid kam nisbatni tashkil etgan. Dinlar haqidagi xabarlar asosan ensiklopedik shaklda yoritilgan. Bu vaqtda Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Muhammad Ali ibn Hazm Andalusiy (994-1064), Abul Maoliy Muhammad ibn Ubaydulloh (vaf. 1092) va Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniy (1076-1153) kabi olimlar dinlar tarixi, aqidalari, marosimlari to'g'risida asarlar yozib qoldirdilar.

Sharqda qiyosiy dinshunoslik asoschisi sifatida e'tirof etiladigan Abu Rayhon Beruniyning "al-Osor al-boqiya an al-qurun al-holiya" (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar), "Hindiston" nomi bilan mashhur "Kitab fi tahqiq ma li-l-hind min maqulatin, maqbulatin fi-l-aql av marzulatin" (Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi), "Qonuni Mas'udiy" va "at-Tafhim li availi sinaat at-tanjim" (Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar) nomli asarlarida dinlar tarixi, asoschilari, marosimlari, e'tiqodlari, bayramlari, ulardagi firqalar shuningdek, qadimgi xalqlarning taqvimlari batafsil yoritilgan. Olimning birinchi asari "al-Osor al-boqiya an al-qurun al-holiya" 1000-yilda Kaspiy dengizining janubiy-sharqidagi Jurjon va Tobaristonda hukmronlik qilgan Ziyoriylar sulolasidan bo'lgan Qobus ibn Vashmgirga³² (978-981, 998-1012) atab yozilgan. Ziyoriylar 928-1042-yillar oralig'ida mintaqada hukmronlik qilganlar.

Alloma ushbu asarida o'z davrigacha ma'lum bo'lgan, turli xalqlarning taqvimlarini to'plagan. Bu taqvimlarning paydo bo'lish sabablari, turli taqvimlarning oy va sanalaridagi farqlar, bayram, marosim, ibodat o'tkaziladigan kunlarni aniqlash kabi masalalar asarning asosini tashkil etadi. Kitobning muqaddimasida insonlarning yaratilishi, to'fon, islomgacha bo'lgan arab dunyosi tarixi va Xorazm to'g'risida bayon qilingan. Shu bilan birga, asarning katta qismi O'rta Osiyo nasroniylarining tarixi, diniy urf-odatlari va an'analariga bag'ishlangan. Bundan tashqari, "al-Osor al-boqiya"da yahudiylarning taqvimlari, Iso payg'ambar tomonidan bashorat berilgan "xaloskor" (Messiya), Paraklit (Furoqlit), Zulqarnayn, Ya'juj va Ma'juj, soxta payg'ambarlar hamda turli mintaqalarda yashovchi insonlarning e'tiqodlari borasida ham xabarlar kelgan. Ammo, alloma asarda dinlar tasnifiga oid biror qarashni ilgari surmagan.

Abu Rayhon Beruniy "al-Osor al-boqiya"ning yozilish maqsadini, "Olimlardan biri mendan xalqlar tarixi, ular amal qiladigan taqvimlarning boshlanishi, oylar va

³² Abul Hasan Shamsu-l-ma'oliy Qobus ibn Vashmgir ibn Ziyor ibn Jiliy (vaf. 1012). Ziyoriylarning to'rtinchi hukmdori. Abu Rayxon Beruniyga homiylik qilgan. 1012 yilda vafot etgandan so'ng, uning o'g'li Manuchehr ibn Qobus davrida ziyoriylar g'aznaviylarga tobe bo'lishgan. Qarang: Abu Rayhon Beruniy. *Osor al-boqiya an al-qurun al-holiya*. – Leypsig: F.A. Brockhaus, 1878. – B. 4 (Bundan keyin: Beruniy. *Al-Osor al-boqiya*); Ibn Xallikon. *Vafayot al-a'yon*. – Bayrut: Dor as-sodr, 2007. – J. 4. – B. 79-81.

yillardagi qarama-qarshiliklar, bularning sabablari, xalqlarning mashhur bayramlari, maxsus belgilangan kunlar, millatlarning baʼzisi amal qilib, baʼzilari amal qilmaydigan marosimlari haqida soʻradi. Men imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, oʻqiguvchi fahmlaydigan, turli kitoblarni topib, bu kitoblarga nisbatan tushunmovchilik qolmaydigan bir asar yozishga daʼvat etdi”³³, deb bayon qilgan.

Abu Rayhon Beruniy bu asarni yozishda qadimgi xalqlar, ularning eʼtiqodlari, marosimlari, yil hisoblari haqidagi rivoyatlar chalkashib ketganini hamda yolgʻon va asossiz maʼlumotlar koʻp ekanini taʼkidlagan. Bu asossiz maʼlumotlarni qabul etmaslik uchun olim dinlarga oid rivoyatlarning oʻz davriga eng yaqin va mashhurini, soʻngra yaqinroq hamda mashhurrogʻini ketma-ket oʻrganish, rivoyatlarni har bir dinning mashhur siymolaridan qabul qilish, tuzatish mumkin boʻlganini tuzatish, boshqalarini oʻz xolicha qoldirish zarurligini taʼkidlagan. Olimning asarni yozishda qoʻllagan xolislik uslubi keyingi davr dinshunos olimlaridan Abdulkarim Shahrisoniyga oʻzining ijobiy taʼsirini oʻtkazgan.

“Al-Osor al-boqiya”ni yozishda Abu Rayhon Beruniy foydalangan manbalariga tanqidiy yondashgan. Olim foydalangan manbalarning aksariyati bugungi kunga qadar yetib kelmagan. Bu haqda 1957-yilda Mixail Aleksandrovich Salye tomonidan asarning rus tiliga qilingan tarjimasi kirish qismida keltirilgan sovet tarixchi-arxeologi Sergey Pavlovich Tolstovning fikriga koʻra, Abu Rayhon Beruniyning manbalardagi maʼlumotlarni qabul qilishdagi haqqoniyliги koʻplab tarixiy kitoblarning yoʻqolib ketganiga sabab boʻlgan³⁴.

“Al-Osor al-boqiya”ning ilk arabcha zamonaviy-tanqidiy nashri 1878-yilda nemis sharqshunos olimi Eduard Zaxau tomonidan “Chronologie orientalischer Völker von Albērūni” (Beruniydan sharq xalqlarining xronologiyasi) nomi bilan amalga oshirilgan. E.Zaxau shu asarni “The Chronology of Ancient Nations” (Qadimgi xalqlar xronologiyasi) nomi bilan 1879-yilda ingliz tiliga ham tarjima qilgan. Asar dunyoning koʻp tillariga, jumladan, 1903-yilda fransuz va fors tiliga, 1957-yilda rus tiliga tarjima qilingan. Oʻzbek tilidagi tarjima esa 1968-yilda Abdufattoh Rasulov tomonidan amalga oshirilgan. Oʻzbek tilidagi tarjima tahririga muhtoj boʻlib, kirish qismida sovet mafkurasi yaqqol sezilib turadi. Xususan, tarjimon Abu Rayhon Beruniyni biror-bir dinni boshqasidan ustuvor koʻrmagan inson sifatida koʻrsatishga harakat qilgan.

Allomaning dinlar tarixiga, xususan hind eʼtiqodlari va taʼlimotlariga bagʻishlangan ikkinchi kitobi “Kitab fi tahqiq ma li-l-hind min maqulatin, maqbulatin fi-l-aql av marzulatin” boʻlib, qisqa qilib “Hindiston” deb ataladi. Asar taxminan

³³ Beruniy. Al-Osor al-boqiya. – B. 4.

³⁴ Qarang: Бируни. Избранные произведения. Т. 1. Памятники минувших поколений // перевод и примечания М.А.Салье – Ташкент: ФАН УзССР, 1957. – С. 15.

1017-1030 yillar oralig'ida yozilgan. Arabshunos olim V.Rozen, Beruniyning "Hindiston" asari qadimgi va o'rta asr G'arb va Sharq adabiyotida misli ko'rilmagan yodgorlik³⁵ deb, asarga yuksak baho bergan.

XI asrni "Beruniy asri" deb atagan Jorj Sarton bu asar haqida: "U "Hindiston" asarini 1030-yilda G'aznada yozib tugatdi. Asar brahmaniy Hindistonining tavsifi va aholisining turmush sharoitini o'rganishga bag'ishlangan. Beruniy hind falsafasiga, ayniqsa Bhagavat-gitaga maftun edi. U sanskrit tilidagi juda ko'p kitoblarni, musulmonlar hindlar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishlari uchun arabchaga tarjima qilgan", - degan fikrni bildirgan³⁶.

Abu Rayhon Beruniy Hindiston haqida gapirar ekan, hindlarga xos bo'lgan har bir narsalarni bayon qilishda juda ehtiyotkorona munosabatda bo'lgan. O'zi duch kelgan masalalarga aqliy yondashgan. Hindlar uchun tabiiy, boshqalar uchun g'ayri tabiiy bo'lgan narsalarga ob'yektiv munosabat bildirib, ularni hind millatining urf-odatlaridan kelib chiqqan holda sharhlagan. "Bu kitob – deydi, muallif, – bahslashish va tortishish kitobi emas. Xusumatchilarning xujjatlarini keltirmayman, haqdan og'ishganlarga qarshilik bildirmayman. Bu faqatgina bayon qilish kitobi xolos. Shuning uchun, men bu kitobda hindlarning so'zlarini o'z xolicha yozaman"³⁷.

"Hindiston" jami sakson bobdan iborat bo'lib, o'ndan ortiq bobi hindlarning Xudo, ko'rinadigan va ko'rinmaydigan olam, ruh-tana munosabatlari, ruhning ko'chib yurishi (reinkarnatsiya-tanosux), jannat va do'zax, najotga erishish (nirvana), tabaqalanish tizimi (kasta), muqaddas matnlar (vedalar), butlar, qurbonlik marosimlari, diniy bayramlari to'g'risida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Alloma hind xalqining kasta (varna) tizimi ularning diniy e'tiqodlariga ham ta'sir qilganini keltirgan. Asarda keltirilishicha, hindlarning yuqori tabaqasi bilan avom xalqning e'tiqodi bir-biridan farq qiladi. Yuqori tabaqa aqliy narsalar ustida mushohada yuritsa, avom xalq tabiati ko'targan narsalarni qabul qilish bilan cheklanadi. Asl-mohiyatni tekshirib o'tirmaydi, aql yuritmaydi. Shuningdek ular tanosuxga butkul ishonadilar³⁸.

Shuningdek, Abu Rayhon Beruniy tomonidan hindlarning ikki kitobi – olamning boshlanishi va mavjudotning tavsifi to'g'risida "Sankhya" va jonni badandan qutqarish – nirvana to'g'risidagi "Patanjali" kabi muqaddas kitoblar hind tilidan arab tiliga tarjima qilingan. Bu ikki kitobda hind dinlarining hukmlari keltirilmagan bo'lib,

³⁵ В.Р. Розен. «Записки Восточного Отд. Имп. Русского Археологического Общества». Т. 11. – СПб: Типография Императорской Академии Наук, 1886. – С. 147.

³⁶ George Sarton. Introduction to the history of science. – Baltimore: Pub. for the Carnegie Institution of Washington, 1962. – P. 707.

³⁷ Beruniy. Kitab fi tahqiq ma li-l-hind min maqulatin, maqbulatin fi-l-aql av marzulin. – Bayrut: Alim al-kutub, 1983. B. 15-16. (Bundan keyingi o'rinlarda: Beruniy. Hindiston)

³⁸ Beruniy. Hindiston. – B. 27.

faqatgina ularning e'tiqodlari bayon qilingan. Allomaning "Hindiston"i esa hindlarning hukm va e'tiqodlarini bayon qilishda yuqoridagi ikki kitobning o'rnini to'ldirgan va hindlar to'g'risidagi barcha savollarga to'liq javob bergan.

"Hindiston" 1884-yilda E.Zaxau tomonidan nemis tiliga, 1888-yilda ingliz tiliga tarjima qilingan. 1958-yilda Haydarobodda, 1983-yilda Bayrutda zamonaviy tanqidiy matni nashr etilgan. Asarning o'zbekcha tarjimasi A.Rasulov, Yu.Hakimjonov va G'.Jalolovlar tomonidan 1965-yilda amalga oshirilgan.

Olimning yana bir asari "Qonuni Mas'udiy" bo'lib, 1030-yilda g'aznaviylar sultoni Mas'ud (1030-1040)ga atab yozilgan. Unda asosan astronomiya, astrologiya, geodeziya, metereologiya, geografiyaga oid ilmlar jamlangan. Bu asar jami 11 bo'lim, 135 bobdan iborat. Shu bilan birga, asarda yahudiylar, nasroniylar, majusiylar va hindlar yashaydigan shaharlar, ularning bayram kunlari, diniy marosimlari to'g'risida ham xabarlar mavjud.

Abu Rayhon Beruniyning 1029-yilda yozilgan "at-Tafhim liavaili sinaat at-tanjim" (Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar) kitobi astrologiyaga oid bo'lishiga qaramay, unda xristianlik marosimlari ham zikr qilingan. Alloma asarda "nasroniy" so'zini Iso payg'ambarning Baytul Maqdis yaqinidagi Nosiro degan qishloqda dunyoda kelgani bilan bog'lagan. "Unga odamlar doim nosiralik Iso deb murojaat qilishgan. Ushbu nisbat tufayli uning xalqi nasroniy nomi bilan mashhur"³⁹, - deydi, olim. Olimning keyingi ikki asari bugungi kunda asosan astronomiya va astrologiya fanlaridan olib borilayotgan tadqiqotlarning asosiy manbasi bo'lib kelmoqda.

Dinlarni qiyosiy o'rganishning tamal toshini musulmon sharqida Beruniy qo'ygan bo'lsa, uning g'arbida, ya'ni Andalusiyada bu ilmga Ibn Hazm Andalusiy asos solgan. Ibn Hazmning to'liq ismi Abu Muhammad Ali ibn Ahmad ibn Said ibn Hazm ibn G'olib ibn Solih ibn Xalaf ibn Ma'dan ibn Sufyon ibn Yazid Andalusiy Qurtubiy⁴⁰ bo'lib, 994-yilda Pireney yarimoroli, Andalusiya viloyati sharqida joylashgan Qurtuba (hoz. Kordova) shahrida tavallud topgan.

Ibn Hazmning mazhabi borasida turli fikrlar mavjud. Masalan, Shamsiddin Zahabiy "Siyar a'lam an-nubalo"da olimni dastlab molikiy, so'ng shofe'iy mazhabida bo'lganini va keyinchalik zohiriy⁴¹ mazhabini qabul qilganini keltirgan⁴². Misrlik taniqli dinshunos olim Muhammad Abu Zahro esa, allomaning mujtahid bo'lganini,

³⁹ Beruniy. At-Tafhim liavaili sinaat at-tanjim. – London: Luzac&CO, 1934. – B. 179.

⁴⁰ Ibn Xallikon: Vafayot al-a'yon.– Bayrut: Dor as-sodr, 2007. – J. 3. – B. 325-330; Muhammad Abu Zahro. Ibn Hazm: hayatuhu, asruhu, arohu va fiqhuhu. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1978. – B. 21.

⁴¹ Zohiriya mazhabi dastlab fors millatiga mansub faqih Dovud ibn Ali Zohiriy tomonidan shakllantirilgan bo'lib, keyinchalik Ibn Hazm Andalusiy tomonidan rivojlantirilgan. Zohiriya mazhabi aqidada ham, fiqhda ham alohida mazhab deb qaraladi.

⁴² Shamsiddin Zahabiy. Siyaru a'lam an-nubalo.– Bayrut: Muassasa ar-risala, 1996. –J. 18. – B. 186.

shuning uchun unga bir mazhabni tayin qilish mumkin emasligini ta'kidlagan⁴³.

Olim yozgan asarlar hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U ilm-fanning o'ndan ziyod sohalarida kitoblar yozgan. 26 yoshigacha barcha islomiy ilmlarni o'rganib chiqqan va islomdan boshqa dinlar: yahudiylik, xristianlik, shuningdek, zardushtiylik, moniylik, mazdakiylik, hinduiylik, buddaviylik kabi e'tiqodlar tarixini o'rgangan. Natijada, 1020-1040-yillar oralig'ida dinshunoslikka oid yagona va mashhur asari "al-Fisol fi-l-milal va-l-ahvai va-n-nihal"ni yozgan. Asarda Quyosh va Oyga sig'inuvchilar, hind diniy-falsafiy ta'limotlari, but-sanamlarga ibodat qiluvchilarning aqidalari, yahudiylik, xristianlik, islom dinlaridagi va majusiylikdagi firqalarning ta'limotlari mavzulashtirilgan holda, qiyosiy o'rganilgan⁴⁴. Abu Rayhon Beruniyning uslubidan farqli ravishda, Ibn Hazm o'zi yashagan mintaqa (Andalus, Ispaniya)da islomga qarshi boshqa din vakillari tomonidan olib borilgan tashviqotlar sababli raddiya uslubidan ko'p foydalangan.

Ibn Hazm "al-Fisol"ning yozilishi to'g'risida shunday degan: "Insonlarning o'z dinlarida firqalarga bo'linib ketishi haqida juda ko'plab maqola, risola va kitoblar yozilgan. Ba'zilar bir necha o'n jild va undan ham ko'p kitoblar yozib, dinlar haqida ko'p so'z yuritishgan, ko'plab ma'lumotlarni keltirganlar. Lekin ularda xolis fikrlar kam bo'lib, juda ko'p xatolarga yo'l qo'yilgan. Shuningdek, bu kitoblarning aksariyati aqlga tayanmagan holda holda yozilgan. Ba'zilar esa, bu borada qisqa va muxtasar ma'lumotlar bilan cheklangan. Men ushbu asarimda islomdagi firqa va yo'nalishlar haqida ma'lumot berish bilan birga, yahudiylik va xristianlik ta'limotlari, muqaddas manbalari, ulardagi firqa va yo'nalishlar, shuningdek, yunon falsafasi, qadimgi dinlar, otashparastlik, quyosh va yulduzlarga sig'inish, zardushtiylik, hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik haqida ham ma'lumotlar berib o'tdim"⁴⁵.

"Al-Fisol" asari besh juzdan iborat bo'lib, ular quyidagilar:

Birinchi juzda qisqa muqaddimadan so'ng muallif islomdagi firqalarning yo'lboshchilari haqida ma'lumot bergan. So'ngra, yunon faylasuflari, ularning falsafiy qarashlarini keltirib, ularning islom aqidasiiga zid so'zlariga ilmiy raddiyalar bergan. Bundan keyin, yahudiy va xristianlar, ushbu dinlardagi firqalar soni, ularning aqidaviy ixtiloflari, shuningdek, Tavrot va Injil haqida bahs yuritgan. Birinchi juz tanosux mavzusini islomga ko'ra sharhlab, ruh haqiqatini batafsil yoritish bilan tamomlangan.

Ikkinchi juzda to'rt Kanonik (Muqaddas) Injil, islomdagi ilk ixtiloflar to'g'risidagi hadislar bayoni, tavhid, qazo va qadar, ilohiy sifatlar haqida so'z

⁴³ Muhammad Abu Zahro. Ibn Hazm: hayatuhu, asruhu, arouhu va fiqhu. – Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1978. – B. 147.

⁴⁴ Encyclopaedia Britannica article on Ibn Hazm // <http://www.muslimphilosophy.com/hazm/ibnhazm.html>

⁴⁵ Ibn Hazm. al-Fisol fi-l-milal va-l-ahvai va-n-nihal. – Bayrut: Dor al-jiyil, 1996. – J. I. – B. 35. (Bundan keying o'rinlarda: Ibn Hazm. Al-Fisol)

yuritilgan. Ibn Hazm Injil yoki Tavrot haqida fikr yuritganda aqliy qonun qoidalar va ochiq-oydin asoslarga suyangan. Olim ilohiy kitoblardan matnlar keltirib, ularni batafsil izohlagan.

Uchinchi juzda Qur'oni karim va uning mo'jizalari, hidoyat, tavfiq, Allohning bandalar fe'llarini yaratishi, iymon va kufr, toat va ma'siyat, va'da va ta'qib haqida so'z yuritilgan.

To'rtinchi juzda nabiy va rasullar, farishtalar, shafolat, mezon, qiyomat kuni, shu bilan birga, shialik, mo'taziliylik, murjiiylik va xorijiylik kabi oqimlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Beshinchi juzda esa, muallif sehr, mo'jizalar, metafizika, ayollarning payg'ambarligi masalasi, baqo va fano masalalari, yulduzlar ilmi, harakat va sukunat, jism va ruh haqida so'z yuritgan.

Montgomeri Uott kabi britaniyalik sharqshunos olimlar fikriga ko'ra, "al-Fisol" obyektiv asar emas, sababi unda dinlar va e'tiqodlarga nisbatan raddiyalar juda ko'p. Isroillik tadqiqotchi Izrail Fridlender esa "al-Fisol"ning xolisligini e'tirof etgan⁴⁶.

Ibn Hazmning ushbu asari bu soha bo'yicha yozilgan asarlardan mavzuni bayon etishda muallifning tanqidiy yondashganligi va dinlar ta'limotlarini batafsil keltirib o'tganligi bilan o'z ahamiyatiga ega. G'arb dinshunos olimlari Abu Rayhon Beruniy va Ibn Hazmni qiyosiy dinshunoslik fanining asoschilari sifatida e'tirof etganlar⁴⁷. Har ikki olimning dinlarni o'rganish bo'yicha olib borgan izlanish va uslublarida o'zaro hamohanglik ham, qarama-qarshilik ham mavjud. O'xshash jihati shundan iboratki, har ikki alloma dinlar tarixini va ta'limotlarini yoritishda asl manbalarga murojaat qilgan. Farqli tomoni shundaki, Abu Rayhon Beruniy asarlarida boshqa e'tiqodlarga raddiya berish holati umuman uchramaydi, Ibn Hazm esa mutakallim sifatida islomdan boshqa e'tiqodlarga qattiq raddiyalar bergan. Umuman olganda, ikki ulug' allomaning qoldirgan asarlari asrlar o'tsa-da o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Bu davrda dinlar tarixiga oid asar yozgan olimlardan yana biri eronlik Abul Maoliy Muhammad ibn Ubaydulloh hisoblanadi. Abul Maoliyning "Bayon al-adyon" asari fors tilida yozilgan. Asar muallif hayotining so'nggi yillarida, 1092-yilda Xurosonda yozilgan. Kitobning hajmi kichik bo'lib, unda islomdan avvalgi e'tiqodlar va islom mazhablari yoritilgan. Eronlik tarixchi olim Abbos Iqbolning so'zlariga ko'ra, "Bayon al-adyon" dinlar, mazhablar tarixiga oid fors tilida yozilgan eng qadimiy asar bo'lib, o'zida fors tilining eng go'zal va eng qadimgi namunalarini

⁴⁶ William Montgomery Watt. *Muslim-Christian Encounters: Perceptions and Misperceptions*. – London: Routledge, 1991. – P. 48; Israel Friedlaender. *The Heterodoxies of the Shiites in the Presentation of Ibn Hazm* // *Journal of the American Oriental Society*, Vol. 29. – American Oriental Society, 1908. – 1-183 p.

⁴⁷ E.J. van Donzel. *Islamic Desk Reference*. – Leiden: Brill Publishers, 1994. – P. 150.

saqlagan⁴⁸.

Abul Maoliy ushbu asarni yozishda o‘zidan avvalgi bir qator manbalardan foydalangan. Masalan, Tohir Maqdisiyning “al-Bad va-t-tarix”, Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston”, Abul Hasan Nishopuriy Omiriy (vaf. 992)ning “al-Amad ala-l-abad” (Cheksiz muddat)⁴⁹, Abul Xayr Hammor (vaf. 1048)ning “Sirot al-faylasuf” (Faylasuf yo‘li)⁵⁰ va Abu Iso Varroq (889-994)ning “Maqolot”idan foydalangan⁵¹.

“Bayon al-adyon” besh qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida dastlab insonlarning geografik mintaqalarga bo‘linishi klassik uslubda bayon qilingan. Ushbu mintaqalarda yashaydigan xalqlar sifatida, forslar, dariylar (afg‘on millati), turklar, yunonlar, habashlar (efiopiyaaliklar), hindlar va afrikaliklarni keltirgan. Britaniyalik islomshunos Bernard Lyuis olimning bu tasnifi XI asrda yashagan musulmon olimlari xalqlarni geografik jihatdan qanday tasniflaganini bilish uchun g‘oyat ahamiyatli ekanini ta’kidlagan⁵². Shuningdek, asarning birinchi qismida zardushtiylarning “Oliy iloh”i, forslar va dariylarning “Xudo”si, yunonlar, qibtiylar va ahli kitoblarning turli nomlar bilan nomlagan “Iloh”lari hamda turklarning “Ko‘k Tangri”si to‘g‘risida ma’lumotlar bergan. Hindlar va habashlarni madaniyatdan uzoq, yovvoyi odamlar deb ta’riflab, ularning e’tiqodlarini bayon qilgan⁵³.

“Bayon al-adyon”ning ikkinchi qismida, arablarning johiliyat e’tiqodlari, yunon falsafasida ilohga munosabat, yahudiylik, xristianlik, majusiylik, sobiiylik va sanaviylik e’tiqodlari zikr qilingan.

Abul Maoliy yahudiy firqalaridan biri bo‘lgan somiriylik haqida bahs qilingan o‘rinda, ularni Muso (a.s.) va Horun (a.s.)ni tan olmasliklarini, Tavrot va Zaburga qo‘shimcha yana 19 kitobni muqaddas deb bilishlarini keltirgan. “Ota-o‘g‘il-muqaddas ruh” shaklida xudoga ishonuvchi xristianlarning uch firqasi: ya’qubiylik, nestorianlik va malkoiylik e’tiqodlarini bayon qilgan.

Uchinchi qism, payg‘ambar Muhammad (s.a.v)ning “yetmish uch firqa” to‘g‘risidagi hadisining izohiga bag‘ishlangan. Abul Maoliy yetmish uch firqani sakkizta katta guruh: 1. sunniylik. 2. mo‘taziliylik. 3. shialik. 4. xorijiylik. 5. jabariylik. 6. mushabbihalik. 7. sufiylik. 8. murjiylik kabilarga ajratib olgan. Olim

⁴⁸ Abul Maoliy Ubaydulloh. Bayon al-adyon. Abbos Iqbol tahqiqi. – Tehron: Intishoroti ibn Sino, 1934. – B. 5. (Keyingi o‘rinlarda. Abul Maoliy. Bayon al-adyon)

⁴⁹ Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinolar davrida Movarounnahr va Xurosonda mashhur bo‘lgan faylasuf Abul Hasan Omiriyning falsafa va kalomga oid asari. Asarning yagona nusxasi “Sulaymoniya” kutubxonasida № 179/2 tartib raqami ostida saqlanadi.

⁵⁰ Bag‘dodlik hakim, faylasuf, mutakallim Abul Xayr Hasan ibn Hammorning falsafaga oid asari. Bu asar bizgacha yetib kelmagan.

⁵¹ Abul Maoliy. Bayon al-adyon. – B. 11-58.

⁵² Bernard Lewis. The Muslim Discovery of Europe. – London: Taylor & Francis, Ltd., 1984. – P. 65.

⁵³ Abul Maoliy. Bayon al-adyon. – B. 45-57.

har bir guruh ichidagi firqalarni keltirib, ularning sonini yetmish uchtaga yetkazgan. Hadisdagi najot topuvchi firqa (“firqai nojiya”) – “ahli sunna” tarkibiga, hanafiylik, dovudiylik⁵⁴, shofe’iylik, molikiylik, hanbaliylik va ash’ariylikni kiritgan. Tarkibga moturidiylik ta’limotining kiritilmaganining sababi shuki, alloma uni hanafiylik tarkibida zikr qilgan.

Asarning to’rtinchi qismi, “ahli sunna” tarkibiga kiruvchi mazhablardan boshlanib, qolgan firqalarning e’tiqodlariga bag’ishlangan. Har bir firqaning asoschisi, e’tiqodlari to’g’risida batafsil to’xtab o’tilgan.

So’nggi, beshinchi qism esa, ilohlik va payg’ambarlikni da’vo qilgan Musaylama, Tulayha, Ahtal Dabiy, Muxtor Saqafiy, Bayon ibn Sam’on, Abdulloh ibn Harb, Abu Mansur Kisf, Xoyrur Roy, Abu Iso Isfahoniy, Muhammad Muborqiy, Husayn ibn Mansur, Muhammad Ironshahriy va Ahmad Kayyol kabi shaxslar to’g’risida bo’lib, ularning da’volari hamda e’tiqodlarini bayon qilingan. Shuningdek, ilohlik dav’osini qilgan ikki shaxs Muqanna va Bobakning “ruhiy hasta” bo’lgani keltirilgan⁵⁵.

“Bayon al-adyon”ning ilk zamonaviy tanqidiy matni 1934-yilda Abbos Iqbol tomonidan amalga oshirilgan. Bu nashrda asarning beshinchi qism mavjud emas. Ammo, boshqa bir eronlik tarixchi Muhammad Taqi Donishpezuh beshinchi qismni topib, nashr qilgan⁵⁶.

XULOSA

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, XI-XII asrlar musulmon olimlarining qiyosiy dinshunoslikka oid asarlarida obyektivlik va xolislik asosiy o’rinda turgan. Har bir din, e’tiqod to’g’risida fikr yuritilganda, ularni kamsitish, ta’limotlarini past sanash va raddiya berish kabi holatlar deyarli uchramaydi. Ushbu asarlardagi mana shu jihat, XIX asrning 50-yillaridan boshlab G’arb dinshunosligi sohasida izlanishlar va tadqiqotlar olib borgan olimlar uchun asos bo’lib xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Abul Fath Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniy. *Al-Milal va-n-nihal*. – Bayrut: Dor al-ma’rifa, 2001. – 663 b.
2. Abul Fath Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniy. *Mafotih al-asror va masobih al-abror*. – Tehron: Markaz al-buhus va-d-diroso li-t-taros, 2008. – 1382 b.
3. Abul Fath Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniy. *Musoraat al-falosifa*. – Qohira: Matbaat al-jabalaviy, 1976. – 98 b.

⁵⁴ Zohiriylik mazhabining ikkinchi nomi.

⁵⁵ Abul Maoliy. *Bayon al-adyon*. – B. 60-66.

⁵⁶ Qarang: Mehmet Aydin. *Beyânü’l-edyân // TDV İslâm Ansiklopedisi*. C. 6. – Ankara: TDV İslâm Araştırmaları Merkezi, 2016-2022. – S. 33.

4. Abul Fath Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniy. Nihayat al-iqdom. – Bayrut: Maktaba al-masna, 2009. – 522 b.
5. Abdulkarim Sam’oniy. At-Tahbir fi mo‘jam al-kabir. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiiyya, 1417/1998. – J. 2. – 658 b.
6. Abdulqohir Bag‘dodiy. Al-Farq bayna-l-firoq. – Bayrut: Dor al-ma’rifa, 2003. – 328 b.
7. Abdulvahob Musayriy. Mavsua al-yahud va-l-yahudiya va-s-sahyuniya. – Qohira: Dor ash-shuruq, 1999. – J. V. – 534 b.
8. Abu Bakr ibn Ahmad Dimashqiy. Tabaqot ash-shofe’iyya. – Haydarobod: Matbaa al-maorif al-usmaniyya, 1978. – J. 1. – 374 b.
9. Abu Nasr Forobiy. Kitab at-tahsil as-sa’ada. – Bayrut: Dor va maktaba al-hilol, 1995. – 186 b.
10. Abu Rayhon Beruniy. At-Tafhim liavaili sinaat at-tanjim. – London: Luzac&CO, 1934. – 701 b.
11. Abu Rayhon Beruniy. Kitaob fi tahqiq ma li-l-hind min ma’qulatin, maqbulatin fi-l-aql av marzulin. – Bayrut: Alim al-kutub, 1983. – 537 b.
12. Abu Rayhon Beruniy. Osor al-boqiya an qurun al-holiya. – Leypsig: F.A. Brockhaus, 1878. – 478 b.
13. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Mas’udiy. – Qohira: Amir G‘ozi Vaqfi, 1954. – 649 b.
14. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. / Tarj. A.Rasulov. – Toshkent: Fan, 1968. – J. I. – 456 b.
15. Abul Hasan Ash’ariy. Maqolot al-islamiyyin va ixtilav al-musollin. – Bayrut: Maktaba al-asriyya, 1990. – J. I. – 340 b.
16. Abul Maoliy. Bayon al-adyon. – Tehron: Intishoroti ibn Sino, 1934. – 66 b.

TYPOLOGY OF CIVILIZATIONS

Ochilova Nigora Ruzimuratovna

Associate Professor of the Department of "Social Sciences".

Karshi Engineering and Economic Institute, (Uzbekistan)

University of Information Technology and Management

ABSTRACT

Civilization is understood as the holistic progressive development of mankind in the post-savage and barbaric period, the sum of social relations that ensure the existence of culture. When such a definition of the concept of "civilization" is given, it becomes clear that the civilizational approach to social development is more meaningful than the formational approach. Because if a civilization has a global character, the formation will have a local character

Keywords: *civilization, progress, cultural aspect, technocrat class, technical progress, scientific information, integration, social relations.*

АННОТАЦИЯ

Цивилизация понимается как целостное прогрессивное развитие человечества в постдикий и варварский период, сумма общественных отношений, обеспечивающих существование культуры. Когда дается такое определение понятия «цивилизация», становится ясно, что цивилизационный подход к общественному развитию является более содержательным, чем формационный подход. Потому что если цивилизация будет иметь глобальный характер, то и формация будет иметь локальный характер.

Ключевые слова: *цивилизация, прогресс, культурный аспект, класс технократов, технический прогресс, научная информация, интеграция, общественные отношения.*

INTRODUCTION

Civilization originally emerged as a concept that contrasted progress based on reason and justice with savagery. Indeed, the French thinker M. Montaigne, who first used this concept in the sixteenth century, calls a society based on reason and justice in his work. [1. S.13-17.] In the early stages of social development, man was closely connected with the community (tribe or tribe) in which he lived, and considered himself a part of that community. The development of this team would lead to its development as well. Under such conditions, the social and cultural aspects of society were inseparable: social life meant the life of a particular culture, and achievements in society were considered cultural achievements. Just as the consciousness of the

ancient community depended on the material activities of the people, the cultural life of the society was absorbed into social life.

DISCUSSION AND RESULTS

The peculiarity of the first-person community depended on its naturalness. Tribal and inter-tribal relations were formed in the process of the life and activity of people in unity and cooperation, during the struggle for life. The abolition of these relations, and the emergence of social relations of a different nature in their place, made a radical turn in the development of society. Such a turn meant that civilization was now beginning to take shape.

If we take a closer look at this stage of society's life, the main features of civilization become clear. They are:

- social division of labor;
- differentiation of the city from the village;
- difference of mental labor from physical labor;
- the emergence of commodity-money relations and commodity production;
- formation of the state;
- recognition of the right to inherit property;
- changes in the form of the family;
- development of spiritual production.

It is these features that signify the degree of civilization of society.

Two centuries later, in the theory of progress founded by the French Enlightenment in the eighteenth century, the development of an ideal society based on reason began to be called "civilization." During the Restoration in France, F. Giza's views on civilization were particularly noteworthy. In his view, civilization is a concept that characterizes the unity of two elements - the levels of social and intellectual development. [2. S.9-25]. In the nineteenth century, this concept began to be used to describe the stages of development of human society.

L. Morgan, [3. S.97-102]. Later F. Engels [4. S.45.] Called the period of human history after savagery and barbarism the period of civilization.

Late XIX th - early XX th centuries Morgan and F. Engels' ideas were developed differently by thinkers. This was preceded by a change in the paradigms of civilization. (By paradigm shift we mean a simple exchange of theories and concepts put forward by the authors, not a change in the approach to the object of study (i.e., tsivilification).) The point is that until the end of the nineteenth century, an evolutionist paradigm about civilization prevailed. According to him, the history and cultural development of mankind are of a holistic nature. [5. S.111-117].

Based on the main ideas of this paradigm, K. Jaspers and his supporters interpret the holistic progressive development of mankind in the post-savage and barbaric period as a civilization.

In his book *The Beginnings and Purposes of Historical Development*, Karl Jaspers divides human development into four stages: the prehistoric period, the period of great historical and ancient cultures (local histories), the period of the beginning of universal history, and the period of technology (transition to a unified world history). It is clear from these considerations that K. Jaspers connects civilization with the historical culture that humanity has traversed. [6. S.36-43]. In contrast, another group of philosophers analyzes the concept of "civilization" based on the ideas of a unique - cyclical paradigm and describes it as a specific socio-cultural phenomenon. [7.S.77-83].

For example, N. In Danilevsky's *Russia and Europe*, civilization is associated with a specific subject of historical development. In his view, there is no universal history, and there can be no universal. Therefore, it is only possible to think of specific civilizations that have an individual character. [8. S.9-25]. The German philosopher O., who continued his thought. Spengler describes civilization as the final stage of any cultural development. Civilization is a time when cultural progress is dying, says the philosopher. O. According to Spengler, "civilization is a system of technomechanical factors, the culmination of any culture. Culture, on the other hand, denies its own inner potential and becomes a civilization." [9. S.43].

The transition from culture to civilization means the transition from creativity to productivity, from progress to stagnation, from courage to a "mechanical" life. O. According to Spengler, the main features of civilization are related to the development of industry and technology, the degradation of art and literature, the concentration of people in several cities, the transformation of the nation into an imageless mass. [10. S.65].

Unlike O. Spengler, A. Toynbee does not deny the connection between culture and civilization. He sees civilization as a specific socio-cultural form of society (ancient Egypt, ancient Babylon, ancient Arab civilizations). [11. S.55.]

Reflections on the connection between culture and civilization can also be seen in the views of M. Weber. In his view, culture and civilization are interrelated concepts, that is, while civilization represents a specific stage of human society, culture represents a qualitative aspect of civilization. [12. S. 25-37.]

The development of science and technology, economic efficiency has subjugated all spheres of social life, and therefore the substantial basis of civilization and its universal criterion are related to the development of technology and

economics. Weber[13.S.94]. Based on the technogenic approach, social development is divided into agrarian civilization, industrial civilization and postindustrial (information) civilization[14. S.77-83.] The third stage of civilization was introduced by E. after the 1950 s. Toffler calls it an information civilization. The thinker characterizes this period as a period of complex automation.

Of course, it is not in vain that civilization is described in so many variants. They represent different aspects of the historical process. However, the disadvantage of these options is that they all exaggerate one or another aspect of the historical process. During the last decade of the twentieth century, new and new concepts, views, ideas about civilization have emerged. Models for the development of world civilization are being developed not only in the Western world, but also in other countries of the world, and are being referred to the scientific community. For example, the Japanese historian Sh. Ito traces the main reason for the changes taking place in the field of culture to the interrelationship of local civilization with that of a global civilization. The historian even G. Hegel and K. Marx's views on civilization Toynbee and O. Tries to synthesize with Spengler's theory of local civilizations [15.S.15-23].

As a result of such concepts and views, new and new concepts emerge: “central civilization” (D. Wilkinson) [16.S.4-12], “the process of civilization” (N. Elias), [17.S.19.] “Divided Civilization” (S. Huntington) [17. S.7-13], “Civilization of Illiteracy” (M. Nadin). [18. S.9-25]. New and new problems are put on the agenda: civilization is the source of savagery (S. Latush, P. Kaufman) [19.S.81], Self-Cultural Identification and the Clash of Civilizations (S. Huntington) [20. S.33] and so on. In Uzbek philosophy, too, there are many pamphlets and articles on the development of civilizations, the peculiarities of modern civilization. The world scientific community renowned scientist F. He also praised Suleymanova's fundamental book "East and West". The scientist was first able to substantiate the existence of a dialectical connection between different types of civilizations. Second, he proved with convincing evidence that it was the East that prepared the ground for the development of Western civilization.

Third, the fact that the dialogue between Eastern and Western civilizations has been going on for centuries has shed light on the fact that this dialogue has its own laws. Fourth, F. Sulaymonova book, S. In Huntington's words, it demonstrated the beginning of the process of cultural self-identification in our country [20. S.35].

In particular, I. Karimov's book "Uzbekistan on the threshold of the XXI century: threats to security, conditions of stability and guarantees of development" reveals the

peculiarities of modern civilization, its negative trends, the relationship between global and local civilization [21. S.19-28].

Thus, the concept of "civilization" has been interpreted on the basis of different approaches in different philosophical and epistemological concepts. Philosophical, culturological, sociological, ethnopsychological, geographical concepts and views on civilization can ultimately be divided into three main groups:

1. The interpreter of civilization as a holistic progressive development of mankind in the post-savage and barbaric period.

2. Connecting civilization with a specific subject of historical development, describing it as a certain stage of social progress or regression, development or decline of material and spiritual culture;

3. The founder of civilization with man-made development.

Naturally, in order to more accurately express the meaning of the concept of "civilization", it is expedient to analyze the views on the development of philosophical ideas, to identify logically grounded conclusions in these views that do not provoke objections. Based on these conclusions, civilization is understood as the holistic progressive development of mankind in the post-savage and barbaric period, the sum of social relations that ensure the existence of culture. When such a definition of the concept of "civilization" is given, it becomes clear that the civilizational approach to social development is more meaningful than the formational approach. Because if a civilization has a global character, the formation will have a local character. Moreover, the formation recognizes the priority of economic indicators in society, while civilization allows the study of society as a whole reality. Such an approach to the issue provides a basis for identifying the nature of many modern problems and finding ways to overcome them.

REFERENCES

1. Monten M. Opyty.- M.: Eksmo, 2007. - [1. S.9-25].
2. Gizo F. History of civilization in Europe.- M.: Territory budushchego, 2007.- [2. S.9-25].
3. Morgan L. Pervobytnoe obshchestvo: Issledovaniya progressa chelovechestva iz dikogo sostoyaniya k barvarstvu i iz barvarstva k tsivilizatsii.- SPb: L.F.Panteleev, 1900.- [3. S.97-102].
4. Engels F. Proisxojdenie semi, chastnoy sobstvennosti i gosudarstva: v svyazi s issledovaniyami Lyuisa G. Morgana.- M.: URSS, 2007.- [4. S.45].
5. Tokarev S. History of foreign ethnography.- M.: Vysshaya school, 1978.- [5. S.111-117].

6. Yaspers K. Smysl i naznachenie istorii.- M .: Respublika, 1994.- [6. S.36-43].
7. Danilevskiy N. Russia and Europe: Russia and Europe: cultural and political views of the Slavic world to the Germano-Romance.- M .: Eksmo, 2003; Toynbi A. Civilization pered sudom istorii.- Moscow: AYRIS PRESS, 2006; Shpengler O. Zakat Evropy. Gestalt and activity. Essays on the morphology of world history.- M .: Eksmo, 2006.- [7.S.77-83.].
8. Danilevskiy N. Russia and Europe: Russia and Europe: views on cultural and political relations of the Slavic world to the Germano-Romance.- M .: Eksmo, 2003.- [8. S.9-25].
9. Shpengler O. Zakat Evropy. Gestalt and activity. Essays on the morphology of world history.- M .: Eks-mo, 2006.- ” [9. S.43].
10. Shpengler O. Zakat Evropy. Gestalt and activity. Essays on the morphology of world history.- M .: Eksmo, 2006.- . [10. S.65].
11. Toynbi A. Civilization pered sudom istorii.- M .: AYRIS PRESS, 2006.- [11. S.55].
12. Weber M. Agrarian history of the ancient world.- M .: Kanon-press-Ts: Kuchkovo pole, 2001.- [12. S. 25-37].
13. See Weber M. Agrarian history of the ancient world.- M .: Kanon-press, 2001.- [13.S.94].
14. See Bell D. Gryadushchee postindustrialnoe obshchestvo: opyt sotsialnogo prognozirovaniya.- M .: Academia, 2004; Rostou U. Politics and stadii rosta.- M .: Progress, 1973. -[14. S.77-83].; Toffler E. Shok budushchego.- M .: AST, 2003.-. www.nsu.ru/filf/rpha/papers/civ/wilkinsn.htm - 114k.
15. O protsesse tsivilizatsii: cotsiogeneticheskoe i psychogeneticheskoe issledovanie.-SPb .: Univ. kn., 2001.- [15.S.15-23].he third wave: democratization in the twentieth century.- M .: ROSSPEN, 2003.-[16.S.4-12],
16. www.ecsocman.edu.ru/images/pubs/2004/04/03/0000153589/012iONOW.pdf.
17. Civilizations. Issue 2. - M .: Nauka, 1993.- [18. S.9-25.]
18. Huntington S. Collection of civilizations.- M: AST, 2006.- [19.S.81]
19. Sulaymonova F. East and West.- T.: Uzbekistan, 1997.- [20. S.35].
20. Karimov I. Uzbekistan on the threshold of the XXI century: threats to security, conditions of stability and guarantees of development.//On the path to security and sustainable development. Volume 6.- T.: Uzbekistan, 1997.- [21. S.19-28].
21. N. Ochilova. THE MAIN FEATURES OF WESTERN EUROPE MEDIEVAL, MODERN PHILOSOPHY AND PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE 9TH-12TH CENTURIES IN CENTRAL ASIA. Journal of Critical Reviews . ISSN- 2394-5125. Vol 7, Issue 14, 2020. 193-199. DOI: <http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.14.34>

22. N. Ochilova . East And West: Integration And Cooperation In The Process Of Globalization. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2020.2(11),543-546.
23. N. Ochilova. The role of aesthetics in shaping the younger generation. Multidisciplinary Research SJIF Impact Factor :5.614 ISI I.F. Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal March 2020. 123-125
24. N. Ochilova. The importance of understanding national identity in Education of the young neighboring. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume:1, ISSUE:6 APRIL 2021. 209-214. www.scientificprogress.uz
25. N. Ochilova. Problems of science № 3 (62), 2021 Russian impact factor: 0.17 Scientific methodical magazine. ISSN 2413-2101 (Print) ISSN 2542-078X Online) Moscow 2021. 37-41
26. N. Ochilova. The Role of Aesthetics in Shaping the Younger Generation . International Journal of Academic Management Science Research (IJAMSR) ISSN: 2643-900X Vol. 5 Issue 2, February - 2021, Pages: 102-103. The Research Paper is Original and Innovative. It is Peer-Reviewed. Washington DC, USA <http://www.ijeais.org/ijamsr> ijamsreditor@gmail.com
27. N. Ochilova. THE IMPORTANCE OF SPIRITUAL EDUCATION OF YOUNG PEOPLE WITH INTELLECTUAL POTENTIAL «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601 // Volume: 1, ISSUE: 5 MARCH 2021. 251-254. www.scientificprogress.uz

LOTIN AMERIKASI BA'ZI DAVLATLARI NOMLARINING ETIMOLOGIK VA TOPONIMIK TADQIQI

Maftuna Farmonqulova Ulug'bek qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Dunyodagi har bir davlat nomlanishining o'ziga xos tarixi va sabablari mavjud. Davlatlarga berilgan nomlarni etimologik va toponimik nuqtayi nazardan tahlil qilinadigan bo'lsa, hozirgi nomining berilishida u yerda yashagan dastlabki qabilalar va ularning tili, mahalliy dialekt, tarixda bo'lib o'tgan bosqinlarning ta'siri yoki o'sha hududning qishloq xo'jaligi va tabiati asosiy sabablardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

***Kalit so'zlar:** etimologik tahlil, toponomik tahlil, qabila, mahalliy dialekt, hudud, tabiat.*

ETYMOLOGICAL AND TOPONYMIC STUDY OF SOME LATIN AMERICAN COUNTRY NAMES

Maftuna Farmonkulova

student at the Uzbekistan State University of World Languages

ABSTRACT

Each country in the world has a unique history and reasons behind its name. When analyzing the names of states from the perspectives of etymology and toponymy, it becomes evident that the current names are often derived from the original tribes that inhabited the region, their language, local dialect, historical invasions, or the agriculture and nature of the area.

***Keywords:** etymological analysis, toponymic analysis, tribe, local dialect, territory, nature.*

KIRISH

Ispan tili aholi soni bo'yicha eng ko'p muloqot qilinadigan tillardan biri hisoblanadi, Lotin Amerikasi (Braziliyadan tashqari) mamlakatlari va Yevropada Ispaniya, Afrikada Gvineya Ekvatorial kabi davlatlar aholisi shu tilda so'zlashishadi. Tabiiyki, ispan tilida so'zlashuvchi aksariyat davlatlar va shaharlarning nomlari shu tildan olingan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, AQShda ham juda ko'p aholi ispan tilida so'zlashadi va bu mamlakatdagi ba'zi shaharlarning nomlari ham ispan tilidan

kelib chiqqan, masalan: Los Ángeles, Las Vegas, San-Fransisko, Santa José va hk. Biroq, Lotin Amerikasi hududigagi ba’zi davlat nomlarining tarjimasini to’laligicha ispan tiliga daxldor bo’lsa, ba’zilarining nomlanishida esa tarixiy hodisalarning, qadimgi hindu qabilalarining, joylashish o’rnining ta’siri mavjud.

METODOLOGIYA

Meksika ispan tilida so’zlashuvchi davlatlardan biri. Biroq nomlanishi esa ispanchaga daxldor emas. Bu davlatning nomlanishiga doir bir qancha farazlar mavjud bo’lib, ular Meksika etimologiyasini tushuntirishga harakat qiladi. Dastlabki, nomlanish davri 14-asr Mesoamerikaga (Shimoliy Amerikaning janubida va Markaziy Amerikaning aksariyat qismidagi tarixiy mintaqaga va madaniy hudud) to’g’ri keladi, deb qaraladi. O’sha davrdagi nahuatl tilidagi (Uto-Azteklar til oilasiga kiruvchi qabila tili) “Asr o’rtalaridagi o’simlik” (Mexitli) va “Oyning kindikidagi joy” (Mēxihco) kabi iboralari davlat nomining kelib chiqishiga sabab bo’lgan deb qaraladi va bu hali-hanuz olimlar orasida keng muhokamaga sabab bo’lmoqda. [1] “Anahuak” (suv bilan o’ralgan yer degan ma’noni anglatadi va Meksikaning qadimiy yadrosi) Xristofor Kolumbgacha bo’lgan davrda hozirgi Meksikaga berilgan nahuatl tilidagidagi nom edi. [2]

Bir afsonaga ko’ra, Mexika *Huitzilopochtli ning* urush xudosi va homiysi yashirin ism sifatida **Mexitl** yoki **Mexi** nomiga ega bo’lgan. Shundan keyin “Meksi joyi” yoki “Urush xudosi mamlakati” degan ma’noni anglatgan. [3]

Kosta Rika [Costa Rica] – bu davlat nomi ispan tilidan olingan bo’lib, “boy qirg’oq” degan ma’noni anglatadi. Kosta Rikaga bu nomning berilishiga oid bir qancha faraz va taxminlar mavjud. Dastlabki farazlardan biri, Xristofor Kolumb Kosta Rikaga kelganida, mahalliy aholining boylilarini ko’rib, bu hududga “boy qirg’oq” nomini bergan deb qaraladi. Boshqa bir nazariyalardan biri ispan konkistadori *Francisco Hernández de Córdoba* bu hududga Kosta Rika nomini bergan shaxs deb ta’kidlanadi. Sababi, Francisco Hernández mintaqaga hududning geografik joylashishi, qazilma boyliklari, iqlimi, hududga oid barcha ma’lumotlarning o’rganib chiqibgina shu nomni bergan bo’lsa, Xristofor Kolumb esa faqatgina hozirgi Puerto Limon hududini ko’rib, Kosta Rika nomini berishga qaror qilgan deb qaraladi. Yana bir taxminlarga ko’ra, Kosta Rika nomi qadimgi **huétar** tilida mavjud bo’lgan “cotarrique” so’zining o’zgargan ko’rinishi bo’lib, hali-hanuz tarjimasini noma’lum qolmoqda. Shunisi ayonki, Kosta Rika atamasi 1539 - yil 17 - dekabrda Panamada ishlab chiqilgan Ispaniya hukumatining rasmiy hujjatida ilk bor tilga olingan.

Chili soʻzining kelib chiqishi haqida turli xil nazariyalar mavjud . XVII asr ispan yilnomachisi Diego de Rosalesga tadqiqotlariga koʻra, Inklar *Aconcagua* vodiysini Chili deb atashgan. [4, 11] Pikunche qabila boshligʻi **Cacique** (Taino xalqining qabila boshligʻi) Tili deb nomlangan, Inklar istilosi paytida hududni boshqargan.[5] Yana bir nazariyaga koʻra, Chili oʻz nomini “yerning chekkasi” yoki “dengiz qafasi” degan maʼnoni anglatuvchi amerika tubjoy aholisi soʻzidan olgan boʻlishi mumkin, deb qaraladi. [6] Boshqa bir maʼlumotlarga koʻra, Chili davlatining nomi **Mapuche** tilidagi “chilli” soʻzidan olingan boʻlib, u “yerning tugash joyi” degan maʼnoni anglatadi, [7] yoki **kechua** tilida (Peru va And togʻlarida yashuvchi mahalliy qabila tili) “sovuq”, [8] yoki **tcili** tilidan tarjima qilinganda “qor” [9] yoki “Yerning eng chuqur nuqtasi” [10, 12] degan maʼnolarni beradi.

Argentina nomi lotincha “Argentum” soʻzidan olingan boʻlib, kumush degan maʼnoni anglatadi. Bu atama birinchi marta 1536- yilda tuzilgan Atlasda mintaqani belgilash uchun ishlatilgan, keyin esa 1602 - yilda Martin del Barco Centeneraning “La Argentina” deb nomlangan sheʼrida ishlatilgan. “Argentina” dan oldin bu hudud odatda “Rio de la Plata” deb atalgan, yaʼni “kumush daryo”. Bunday nomlanishiga sabab esa hudud yaqinidagi togʻlardan kumush konlari juda koʻp topilganligi ekan. Argentinaning poytaxti Buenos Aires boʻlib, bu nom ham toʻlalgicha ispan tilidan olingan va “yaxshi havoli” degan tarjimini beradi.

XULOSA

Qisqa qilib aytganda, dunyodagi barcha davlatlar nomlari kelib chiqilishining oʻziga xos tarixi bor ekan. Berilgan nomlarning mohiyatiga yetish uchun etimologiya va toponimika fanlariga chuqurroq kirish lozim. Har bir mintaqaga nom berilishida uning iqlimi, tabiiy qazilma boyliklari-yu, atrof- muhit va u yerda yashagan mahalliy qabilalar va ularning tili oʻz taʼsirini koʻrsatmay qolmas ekan.

REFERENCES

1. Tibón, Gutierre (1980 2a edición), Historia del nombre y de la Fundación de Mexico.
2. Historia de la Ciudad de México, Machine Gobierno del Distrito Federal.
3. Aguilar-Moreno, M. Aztek dunyosida hayot uchun qoʻllanma.
4. “La Incógnita Sobre el Origen de la Palabra Chile”; “Picunche (odamlar)”. Britannica ensiklopediyasi.
5. Encina, Fransisko A.; Leopoldo Kastedo (1961). Resumen de la Historia de Chili . jild. I (4-nashr).
6. Americana ensiklopediyasi. Grolier Onlayn. 2005.
7. Hudson, Rex A., ed. (1995). “Chili: mamlakatni oʻrganish”.

8. Chisholm, Hugh, ed. (1911). "Chili". Britannica ensiklopediyasi (11-nashr).
9. Ensiklopediya Microsoft Encarta Online. 2005.
10. Pearson, Neale J. (2004). Grolier multimedia ensiklopediyasi.
11. Бахронова Д.К., Абдурахматова Н. Испан ва ўзбек тилларига ўзлашган неологизмларнинг тарихий-семантик тадқиқи. Молодой ученый, 52 (394), 2021. – С. 446-449.
12. Вахронова Дилрабо. LISON, KOGNITIV ONG VA OLAM MANZARASI. O‘zMU xabarлари, 1/1/2023. – 209-213

BEGONALASHUV MUAMMOSI - JAMIYATNING INQIROZI

Abduraxmonov Z.M.

O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

z-abduraxmonov86@mail.ru, +998973440429

ANNOTATSIYA

Maqolada shaxsning jamiyatdan begonalashuv jarayoni va uning shakllari ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etilgan bo'lib, begonalashuv muammosining ortib borishi natijasida ijtimoiy hayotda parchalanish, yakkalanish natijasida inson o'z-o'zini inkor etishi, xudbinlikni keng yoyilish jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *Begonalashuv, shaxs begonalasuvi, jamiyatdan yakkalanish, web-begonalashuv*

АННОТАЦИЯ

В статье социально-философски проанализирован процесс отчуждения личности от общества и его формы, освещены аспекты расщепляться в общественной жизни в результате нарастания проблемы отчуждения, самоотречения человека в результате изоляции, широкого распространения эгоизма.

Ключевые слова: *отчуждение, отчуждение личности, отчуждение от общества, веб-отчуждение.*

ABSTRACT

The socio-philosophical article analyzes the process of alienation of the individual from society and its forms, highlights the aspects of splitting in public life as a result of the growing problem of alienation, self-denial of a person as a result of isolation, widespread egoism.

Keywords: *alienation, alienation of personality, alienation from society, web - alienation.*

So'nggi yuz yillkda shaxsning jamiyatdan begonalashuvi muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Ushbu falsafiy muammo hozirgi global muammolar sirasiga kiradi. Negaki jamoaviylikni inkor etib individualizmning ortishi natijasida ijtimoiy muammolarning turli ko'rinishlari vujudga kela boshladi. Postmodern jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari jamiyat hayotining barcha jabhalarida axborot texnologiyalari va globallashuv ta'sirida shakllanadigan dunyoqarashning yangi shakllarining paydo bo'lishini ifoda etmoqda. Begonalashuv muammosi jamiyatning barcha sohalariga ta'sir qila boshladi. Shubxasiz eng oliy qadriyat bu insonning hayoti, uning taqdiri

hisoblanadi. Dunyoda ayni damda 8 milyarddan oshiq inson istiqomat qilmoqda. Aslida ushbu muammo barchamizga birdek ta'luqli hisoblanadi.

Begonalashuvning eng daxshatli oqibati- xudkushlik. Ilm fanda "suisid" deb ataladigan bu ofat xar yili 800 ming kishining umriga zomun bo'ladi, 15-29 yoshdagilar ichida ko'proq tarqalgan[1, 29]. Raqamlar shuni ko'rsatmoqdaki 365 kun davomida 800 ming kishi hayotdan bevaqt ko'z yummoqda. Undan tashqari yana qanchadan - qancha kishining ruhiyatida turli xil buzulishlar ro'y berib, jamiyatdan uzoq kishilar va bir-biriga nisbatan har doim raqobatchi yoki dushman kayfiyatidagilar soni ortmoqda. Har kuni dunyoni turli nuqtalarida insoniyat bir-birini qonini to'kmoqda.

Begonalshuv vujudga kelishiga ko'plab omillar sabab bo'lmoqda ulardan ayrimlari quyidagilar: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy merosning qashshoqlashuvi, qadriyatlarining qadrsizlanishi. Insonda bu muammoning sababi sifatida boshqa kishilar bilan muloqotga kirisha olishda ko'plab to'siqlarga uchrashi, o'zini jamiyatning bir a'zosi sifatida his qila olmaslik. Ijtimoiy hayotda aksariyat holatlarda kuzatiladigan jihat xudbinlik, manfaatparastlikning ortishi natijasida kishilarda jamiyatga nisbatan daxldorlik tuyg'usining sustlashuvi sezilarli darajada oshib ma'lum bir muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ularni sanab o'tamiz 1) Shaxsda salbiy kayfiyatning ortishi va jamoa bilan o'zaro munosabatlarda ziddiyatlarning tez-tez kuzatilishi 2) Inson o'z "Men" nini to'la qonli anglay olmasligi 3) Ijtimoiy hayotdagi jarayonlarni to'g'ri baholay olmaslik 4) O'zaro munosabatga kirisha olish fazilatining yo'qolishi 5) Hayotning mohiyatini anglay olmaslik keyinchalik esa shaxsning begonalashuvi undan keyingi bosqichda esa shaxsning o'z-o'zi inkor etishi jamiyatda o'z o'rnini topa olmasligi hamda hayotda uning uchun biror ma'no qolmaganligini har daqiqa his etib turadi.

Neofreydistlar (xususan, E.Fromm) begonalashuv manbalarini shaxsni tabiatdan ajratishda ekanligini kashf etdilar va buning natijasi sifatida atrof-muhit bilan uyg'unlashuv yo'qolishini ko'rsatib o'tdilar [2, 15]. Darhaqiqat begonalashuvni dastlabki bosqichi insonning tabiatni ustudan xukmronlik qilishga urinishdan boshlandi. Keyinchalik jamiyatdan begonalashish yuzaga keldi yakka-yakka kishilar toifasi ko'payib borgach jamiyatda, davlatda o'ziga xos "xaos" paydo bo'ladi. Negaki jamiyatni jamiyat, davlatni davlat qilib turadigan asosiy omil bu kishilarning bir-birini qo'llashi, hamjihatligi bilan belgilanadi. Yunon faylasufi Arastu bejizga insonni "ijtimoiy maxluq" deb atamagan. Inson go'daklik vaqtidan uni o'rab turgan ijtimoiy muhit qadriyatlarini, insoniy xatti-harakatlarni, umum qabul qilgan tartib qoidalarga amal qilishi sabab bo'ladi. Bunda aksincha bo'lishi ham mumkin. Baliq yashashi uchun suvni ahamiyati qay darajada muhim bo'lsa inson uchun ham jamiyat shunday

ahamiyatlidir. Insonning borligi, doimo dunyoda insoniyatni yashab qolishini ta'minlaydi. Bunda ko'plab omillar qatorida sharoitga moslashish eng ustuvorlaridan biri sanaladi.

Sartning fikriga ko'ra, vaqt o'tishi bilan odam tobora begonalashgan mavjudotga aylanadi, chunki zamonaviy iqtisodiyot va kundalik hayot odamlarni sezilarli darajada o'rta darajadagi inson qilib qo'yadi va bu hatto ularning fikr yuritishini ham standartlashtiradi [3, 207]. Jamiyat hayotida bir toifadagi kishilar o'z xatti-harakatlari bilan yaqqol ajralib turishadi. U toifadagi kishilarda o'zga insonlar bilan munosabatda bo'lishda ma'lum bir chegarolovchi jihatlari yuzaga chiqmoqda. Marginal turmush tarzi kishini bir qobiqqa o'ralashtirib, jamiyatdan uzoqlashib, o'zaro munosabatlarda uzulish ro'y beradi, o'zini jamoa orasida noqulay seza boshlaydi. Bu jarayon muttasil davom etishida 1) ta'sirga uchrash oqibatida jamiyat qabul qilgan qadriyatlardan voz kechilishi va undan begonalashadi. Paydo bo'lgan bo'shliq to'ldirilishi zarur yangi ko'rinishdagi muloqot manbalarini topadi. Bunga misol qilib "ommaviy madaniyat"ni olishimiz mumkin. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning axborot bazasi ushbu "madaniyat" bilan to'yingan.

Biz internet va ijtimoiy tarmoqlarni faqat qoralash niyatida emasmiz. Albatta uning ijobiy jihatlari ham bisyor. Misol tariqasida sizga biror sohadagi xoxlagan ma'lumotni topish uchun o'rningizdan turish ham kerak emas, yoki dunyoning qaysi nuqtasida qanday ob-havo qandayligi, biror kutubxona, muzeyga virtual sayohat qilishingiz uchun klaviatura tugmachalarini bosishni o'zi kifoya.

2) O'z-o'zini inkor etish natijasida begonalashuvning eng xavfli darajasi yuzaga keladi, bunda kishi egoizm, shavqatsizlik, axloqning normalarini inkor etish, insoniy xususiyatlarni yo'qotish kabi muammolar jamiyat hayotidan uni siqib chiqaradi. Bu toifadagi kishilar avvalgidek hayotga, jamiyatga, ularning bir qismiga aylanishi juda qiyin jarayon hisoblanadi. Shaxsni jamiyatdan begonalashuvida ikki holat sabab bo'ladi 1) jamiyatdan chekinish 2) shaxsning marginallashuvi(turmush tarzida yaqqol ajralish) tabiiyki ijtimoiy hayotdan, iqtisoddan, axloqdan umuman olganda ijtimoiy sohaning barchasidan rad etilish yuz beradi va o'zining qarashlariga yaqinroq bo'lgan ijtimoiy qatlamni topishga ma'lum bir harakatlar qiladi yoki umuman o'zi ruhiy yo'lg'izlanadi. Bu bosqichning farqli tomoni shundaki jamiyatning tarqoqligi, parchalanishi kuchayib borib, shaxs o'z hamkasblaridan, yaqinlaridan, xatto o'z oilasidan jisman yaqin bo'lsada, ruxan uzoqlasha borayotganini his etmoqda. Olomonlik milliy his-tuyg'ulardan, ruhiyatdan, ma'nan go'zallik, insonga ulug'vorlik bag'ishlovchi yagona maqsadlar atrofida uyushish ishtiyoqidan, milliy-ma'naviy joziba, kuch-qudrat va ilhom bag'ishlovchi olijanob tuyg'ulardan, sevgi, muhabbat, hamkorlik, o'zgalarning og'ir vaziyatlaridagi

holatlarida hamdardlik, qo'llaḡ-quvvatlash, birodarlikdan va o'zligidan mahrum bo'lgan, tarqoq hayot kechirishga moyil insonlar to'dasidir [4]. Oqibatda o'zaro aloqaga kirishish va madaniyatdan begonalashish ro'y bermoqda, keyingi jarayon inson va jamiyat uchun juda xavfli bo'lib kishining ish faoliyati va oila munosabatlarida yaqqol uzulishi va o'z-o'zidan begonalashishga olib keladi.

Shaxsning jamiyatdan begonaga aylanishiga ham ichki, ham tashqi omillar ta'sir etadi. Har ikki omil yuzaga kelishiga uzoq vaqt talab etiladi, qaysiki kishilar bilan o'zaro muloqotga, kirishish kam kuzatiladi, oiladagi samimiy munosabatlar kuzatilmay qoladi. Bu jarayon muttasil davom etishi barobarida ijtimoiy qadriyatlar, munosabatlar unutila boshlaydi. Shaxsda marginallik kayfiyati kuchayib ketadi, turli xildagi inson salomatligi uchun o'ta zararli bo'lgan spirtli ichimliklarga ruju qo'yish, narkotik moddalarni iste'mol qilish, o'g'rilik, internet tarmog'i orqali o'ynaladigan qimor, yoki shavqatsizlikni oddiy xolga aylantirish uchun kinolar va turli xil o'yinlar bilan sutka davomida band bo'lish va shu bilan real hayotdagi voqelikni unutish virtual hayotda o'zini vaqtini shunchaki o'tkazish emas balki bu o'yinlardagi qotilliklar, shavqatsizliklar yosh avlodni diydasi qattiq, jinoyatga moyil qilib undan tashqari asab tizimidagi buzulishlarga sababchi bo'layotganligini shifokorlar ta'kidlamodalar. Ushbu bosqichning o'ziga xos xususiyati shundaki, ijtimoiy aloqalarning uzilishi keyingi rivojlanishi insonning oila va hamkasblari bilan aloqalarining qisman uzilishiga olib keladi.

Marginal kayfiyatning qamrovi oshgan sari shaxs uchun jamiyat a'zolari bilan muloqotga kirishishi xolati shu darajada qisqarib boradi, ayniqsa oilada va ish faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi, aslida kishining eng vaqti oilada va ish faoliyatida o'tishini hisobga olsak muammoning qay darajada jiddiyligini tasavvur qilish quyin emas. Ushbu bosqichda shaxs kommunikativ biqlikda boshqacha qilib aytganda, shaxsning madaniyatdan begonalashish paydo bo'ladi. Uchinchi bosqich - bu to'liq jamoadan voz kechadi. Bu ish va oila bilan deyarli to'liq ajralish bilan tavsiflanadi. Agar oilani jamiyatning eng kichik xujayrasi deb olsak, undagi begonalashish butun boshli jamiyatning inqiroziga sabab bo'ladi. Jamoadan uzoqlashish bosqichlari odamlarning xatti-harakatlari ichki va tashqi sharoitlar ta'sirida o'zgarishi bilan bog'liq. Bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish, uning ijtimoiy xulq-atvorining uzoq davom etishi, oiladagi o'zaro munosabatlarning darz ketishi, o'zaro hamjihatlikning etishmasligi ayni haqiqat. Falsafiy nuqtai nazardan, bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish miqdoriy xususiyatlarning ortishi, sifat o'zgarishlariga olib keladi. Har bir keyingi bosqich avvalgisidan kelib chiqadi, uning davomi, ammo sifat jihatidan boshqacha darajada, oldingi bosqichda oldingilariga kamaytirilmaydigan yangi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Biror kishi ijtimoiylashuvdan chekinishning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tishi bilan shaxsning oilasi va hamkasblari, ijtimoiy muhit va hukmron jamiyatning qadriyatlari bilan aloqasi susayadi va shaxsda tobora ko'proq marginal xususiyatlarga moyillik ortadi. Shaxsning jamiyat normalarini inkor etish kishilarning bir-biriga nisbatan faqatgina manfaat nuqtai-nazaridan yaqin bo'lishi mumkin aslida esa ularni yakdil qilib turadigan xech narsa yo'q. Faqatgina foyda ilinjida ularning o'zaro munosabati, yakdilligi davom etadi. Lekin har doim har ikkalasida ham ishonchsizlik diqqat makazida turadi.

Shaxsni jamiyatdan begonalashish mexanizmi-bu submadaniyat normalarini avj olishi ta'sirida yuzaga keladi. Shaxs jamiyatda o'z o'rnini topa olmagach, uning madaniyat, umume'tirof etilgan qadriyatlar dunyosi bilan aloqalari zaiflashadi. Ruhiiy dunyoning o'zi shaxsiyat chetga suriladi. Madaniyat dastlab avlodlar tomonidan to'plangan kommunikativ tizim bo'lganligi sababli tajriba va shaxsni ma'naviy begonalashuv jarayoni har bir kishining faoliyati va harakatlarida o'ziga xos shaklda namoyon bo'lib bir tomondan, individual va ijtimoiy hayotning ma'naviy sohasidagi o'zgarishlarni, Ikkinchi tomondan esa ma'naviy begonalashuv ijtimoiy hayotda qadriyatlarni ratsionalizatsiya qilish qobiliyatini yo'qotish bilan tavsiflanadi. Uchinchi tomondan ma'naviy begonalashuv bugungi jamiyatning marginallashtirishda yorqin namoyon bo'ladi. To'rtinchidan, ma'naviy begonalashuv bu kishilar o'rtasida deviant xatti-harakatlarning o'sishi, iste'molchilarning kayfiyatini kuchayishi, individual, ijtimoiy-guruhiy va umummilliy identifikatsiya inqiroziga olib keladi.

Yuqori darajadagi postmodern zamonaviy jamiyat tuzilmalarida shaxsning o'zgarmasligi va avtonomiyasi, markazsizlashtirish, jamiyatning bo'linishi, plyuralizm va parchalanish bilan, shaxsni marginallashtirish ehtimoli sezilarli darajada oshadi. Bozor munosabatlari va jamiyat a'zolarining ijtimoiy tabaqalanishi ular o'rtasida o'zaro begonalashishni yoxud sinfiy adovatni emas, balki ijtimoiy sheriklikni vujudga keltirish uchun insonparvarlik, halollik, hamkorlik, insof, adolat, me'yorlari, qonun ustuvorligi, faoliyatimizning amaliy mo'ljaligi aylanmog'i zarur [5, 9]. Ayni damda kishilik jamiyatida insonlar o'rtasida o'zaro adovatning kuchayib borayotganligi muammoning yanada chuqurlashuviga olib kelmoqda.

Xulosa o'rnida begonalashuv muammosini bartaraf etish uchun etosferani shakllantirmoq lozim, o'ziga xos "sferani" vujudga keltirish uchun oila va ta'limni axloq tamoyillari asosida va ikki ijtimoiy institutni hamkorligi orqali erishiladi.

REFERENCES

1. Alimasov V. Begonalashuv // Tafakkur jurnali, 2020. №2.-B. 29

2. Фромм, Э. Анатомия человеческой деструктивности. Пер.; авт. вступит. ст. П.С. Гуревич / Э. Фромм. – М.: Республика, 1994. – 447 с. 15
3. Сартр, Ж.-П. Первичное отношение к другому: любовь, язык, мазохизм / Ж.П. Сартр // Проблема человека в западной философии. – М.: Прогресс, 1988. – С. 207–209
4. Otamurodov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati. Toshkent: "Ozbekiston", 2018. 7 b
5. Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi.-Toshkent: Ma'naviyat, 2018. 9b

SAMARQANDLIKLARNING KO‘CHIRIB KELTIRILGAN AHOLIGA KO‘RSATGAN INSONPARVARLIK YORDAMI

Zarina Abdurahmonovna BODIROVA,

Oriental universiteti, Tarix yo‘nalishi 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushi davrida o‘zbek xalqining insoniylik, oliyanoblik, bolajonlik fazilatlari urush ketayotgan hududlardan va frontga yaqin joylardan ko‘chirib keltirilgan aholiga, bolalarga ko‘rsatgan ochiq ko‘ngilligi, hamdardligi va g‘amxo‘rligida o‘z ifodasini topgan holat aks etganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zlashtirish, ko‘chish, insonparvarlik, bolalar himoyasi, muhtojlik.

ABSTRACT

This article discusses the situation in which humanity, nobility, and childlike qualities of the Uzbek people were reflected during the Second World War. It was analyzed that the situation reflected in the open heart, sympathy and care shown to the people and children relocated from the war zones and places close to the front.

Key words: assimilation, migration, humanitarianism, child protection, need.

KIRISH

O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti huzurida 1941 yil 10 iyulida maxsus komissiya tuzildi va mahalliy sovetlarning ijroiya qo‘mitalari qoshida tuzilgan alohida bo‘limlar kishilarni hisobga olish va joylashtirish bilan shug‘ullandilar. 1941 yilning noyabr oyida O‘zbekiston Xalq Komissarlar Soveti va O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining respublikamizga ommaviy ravishda ko‘plab aholi va bolalarni ko‘chirib keltirilishi munosabati bilan “Frontga yaqin joylardan ko‘chirib keltirilgan bolalarni joylashtirish haqida”gi qarori qabul qilindi. Bu qaror munosabati bilan Toshkent shahridagi markaziy temir yo‘l vokzali qoshida “Bolalarni evakuatsiya qilish markaziy punkti” tashkil etildi. Bu punktning Samarqand temir yo‘li qoshida ham evakopunkt bo‘limi vujudga keldi. Bu evakopunktida bir kecha–kunduzda minglab kishilar qabul qilib olindi.

Ko‘chirib keltirilgan bolalarni qabul qilib olish, ularni bolalar uylariga, kollektivlarga joylashtirish, yakka tartibda tarbiyaga olish, o‘qitish, ishlab chiqarishga yuborish, adashib yurgan balog‘atga etmagan, qarovsiz qolgan bolalarni topib ro‘yxatga olish, ularni rejali joylashtirish kabi mas‘uliyatli ishlarni bajarishda evakopunkt xodimlari tinimsiz ishladi.

Qisqa vaqt davomida Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldaviya, Boltiqbo‘yi Respublikalaridan ko‘chirib keltirilgan bir milliondan ko‘proq kishilar va 200

mingdan ziyod etim bolalarni O‘zbekiston xalqi o‘z bag‘riga olar ekan, shundan 165 ming kishi Samarqand viloyatiga joylashtirildi. Ulardan 20 mingdan ziyodi bolalar edi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Viloyat mehnatkashlari ko‘chirib keltirilgan aholini bag‘rikenglik bilan qabul qilib oldi. Ularni boshpana va ish bilan ta‘minladi. Xalq o‘z noni, kiyim–kechagi, turar joyini ko‘chib kelganlar bilan baham ko‘rdi. Ko‘chirib keltirilganlarga Samarqandning o‘zida olti kvartirali to‘rtta uy, yaxshi isitilgan oltita barak (ko‘p kishi yashaydigan bino-A.B) qurib berildi, studentlarning yotoqxonalarini va bo‘sh kvartiralar ajratib berildi.⁵⁷

1941 yilning oktyabr-dekabr oylarida shaharga ko‘chirib keltirilayotganlar, ayniqsa, ko‘payib ketdi. Ko‘chib kelganlarning ko‘pchilik qismi Samarqand shahrining o‘zida o‘rnashib qoldi. Bu jarayon shaharda aholining zichlashuviga olib keldi, yuvinish joylari, dezinfeksiya qiladigan kameralar etishmasligi shaharda yuqumli kasalliklar paydo bo‘lish xavfini tug‘dirdi. 1942 yilning yanvarida bu masala shahar partiya aktivi yig‘ilishida muhokama qilindi va chora-tadbirlar belgilandi.

1942 yilning yanvar oyida Toshkent shahrida jamoatchi xotin-qizlarning yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi. Yig‘ilish qatnashchilari respublikamizdagi barcha ayollarga qarata murojaatini qabul qiladi. Murojaatda etim bolalarni o‘z tarbiyasiga olishga da‘vat etiladi.

Bu murojaat va O‘zbekiston Xalq Komissarlar Sovetining 1942 yil fevral oyida qabul qilgan “Front yoqasidan ko‘chirib keltirilgan bolalarni joylashtirish to‘g‘risida”gi qarori respublikaning hamma joyida: shahar va qishloqlarda, korxonalar va muassasalarda, ko‘cha va mahallalarda keng va har tomonlama muhokama qilindi hamda hamjihatlik bilan ma‘qullandi. Murojaatda etim bolalarni o‘z tarbiyasiga olishga da‘vat etilar ekan, ko‘plab oilalar boquvchisiz qolgan bolalarni o‘zlariga farzandlikka oldilar, topgan-tutganlarini ular bilan baham ko‘rdilar.

Samarqand viloyat mehnatkashlari bu murojaatga javoban qizg‘in ish boshlab yubordilar. Ko‘pgina oilalar ko‘chirib keltirilgan ota-onasidan, boquvchisidan ajralgan, vaqtincha yoki doimiy etim bo‘lib qolgan bolalarni ota-onalik mehri bilan qabul qilib oldilar.

Viloyatdagi F.Engels nomli kolxoz raisi Fotima Qosimova uyida olti farzandi bo‘lgani holda front yoqasidan ko‘chirib keltirilgan, vaqtincha yoki doimiy boquvchisidan ajralgan 10 ta bolani farzandlikka oldi.⁵⁸ Samarqandlik Niyoz Fuzaylov frontdan og‘ir yarador bo‘lib qaytgandan keyin, turmush o‘rtog‘i bilan

⁵⁷ Самарқанд тарихи. Икки томлик. 2-том. Т.: Масъул муҳаррир И.М.Мўминов “Фан”, 1970. – Б.235.

⁵⁸ Самарқанд тарихи. Икки томлик. 2-том. Масъул муҳаррир И.М.Мўминов. Т.: “Фан”, 1970. – Б.238.

birga o'qituvchilik qilib, farzandlari qatori etti nafar etim bolani ham tarbiyalashdi. Viloyatning Kattaqo'rg'on shahridan bo'lgan urush nogironi Abduhamid Samadovning insonparvarligi va baynalminalligi butun dunyoga ovoza bo'ldi. U urushdan nogiron bo'lib qaytgach, urushning oxirlari va urush tamom bo'lgandan keyingi yillarda o'zi hali bo'ydoq bo'lishiga qaramay, bolalarning kimligi – tili, irqi va millatidan qat'iy nazar 16 bolani olib tarbiyalaydi.⁵⁹

Samarqand paxta tozalash zavodining masteri Nurillaev, shu zavod jin mashinalari sexining boshlig'i Prokopovich, shoira Ra'no Uzoqova, Paxtakor tumanidagi Qarnab qishloq Sovetining raisi Ahmedov, muallimlardan Nurmanov, Navro'zov va boshqa ko'pgina kishilar ko'chirib keltirilgan bolalarni o'z oilalari tarbiyasiga oldilar.

Ko'chirib keltirilgan, ota-onasidan ajrab qolgan bolalarni joylashtirish uchun viloyat ijroiya qo'mitasi va partiya komiteti qaroriga ko'ra Samarqandning qishloq tumanlari Jomboy, Bulung'ur, Forish, Narpay, Pastdarg'om va viloyatning boshqa tumanlarida 8 ta bolalar uyi tashkil etilib, ular 4270 bolani tarbiyalashni o'z zimmlariga oldilar. Samarqand shahridagi 11 ta bolalar uyiga qo'shimcha ravishda 660 bola joylashtirildi.⁶⁰

1942 yilning boshlariga kelib Samarqand shahridagi mavjud 10 ta bolalar uyida 1512 bola tarbiyalandi, ulardan 590 nafari front yoqasidan ko'chirib keltirilgan bolalar edi. Bolalar uyida tarbiyalanuvchilar oy sayin ko'payib, 1943 yil yoz oylarida 1810 kishiga etdi. Bundan tashqari Samarqand shahrida polyak bolalari uchun bolalar uylari ochildi. Moskvadan ko'chirib keltirilgan 120 ispan yoshlari uchun internat ishga tushirildi.⁶¹

Samarqand paxta tozalash zavodi jamoasi 16 go'dak uchun uy-joy va hamma zarur imkoniyatlarni yaratdilar. Samarqand tumanidagi meva-konserva zavodi jamoasi, Kalinin nomli kolxoz va boshqa yuzlab xo'jaliklar, idoralar respublikamizga keltirilgan bolalarni tarbiyalash uchun bolalar muassasalarini tashkil etdilar. Viloyat mehnatkashlari maxsus tashkil etilgan bolalar uylariga 1100 bolani joylashtirdilar, ular uchun ajratilgan xonalar kerakli narsalar bilan jihozlandi. Tarbiyalanuvchilar oziq-ovqat, kiyim-kechak, ko'rpa-yostiq, o'yinchoq kabilar bilan ta'minlanib turildi.

Samarqand viloyati mehnatkashlarining insoniylik fazilatlaridan biri shu bo'ldiki, frontga yaqin tumanlardan ko'chirib keltirilgan 165 ming kishini joylashtirdilar va ularga mehribonliklar ko'rsatdilar. Faqat 1942 yilning 20 fevraliga qadar ko'chirib keltirilganlardan 8 ming kishi Bog'ishamol tumaniga joylashtirildi.

⁵⁹ Турдиев С. Улуғ Ватан уруши йилларида Ўзбекистон меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги Т.: “Фан”, 1987. – Б.27.

⁶⁰ Самарқанд тарихи. Икки томлик. 2-том. Масъул муҳаррир И.Мўминов. Т.: “Фан”, 1970. – Б.238.

⁶¹ Турдиев С. Улуғ Ватан уруши йилларида Ўзбекистон меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги Т.: “Фан”, 1987. – Б.33.

Temiryo‘l tumaniga nemislar bosib olgan hududlardan 1663 oila ko‘chirtirib kelindi. Samarqandliklar ota-onasiz qolgan 20 mingdan ziyod bolani o‘z bag‘riga oldilar.⁶²

Ikkinchi jahon urushi yillarida Samarqand viloyati bolalarni qabul qilib olish punktlariga 1131 nazoratsiz, 1048 qarovsiz qolgan va 83 adashib yurgan, jami 2262 bola topshirildi.⁶³

Urush yillarida Samarqand viloyatiga frontga yaqin hududlar va urush ketayotgan joylarga emas, balki urushga tortilgan, fashistlar Germaniyasi tomonidan bosib olingan davlatlardan ham bolalar va aholi ko‘chirib kelindi. Ularga xalqimiz mehr va insoniylik yordamini ko‘rsatdi. Ko‘chirib keltirilganlarga o‘z uylaridan joy berdi, maxsus bolalar uylari tashkil qilindi va internatlarga joylashtirildi.

Samarqand viloyatida tashkil etilgan bolalar uyiga polyak bolalari joylashtirildi. Keyinchalik viloyatning Narpay tumanida polyak bolalari uchun yana uchta bolalar uyi tashkil etildi. Bolalar uyini kerakli narsalar bilan ta‘minlash maqsadida maxsus fond tashkil etildi. Bundan tashqari bolalar uylariga otaliqdagi xo‘jalik yoki tashkilotlarning yordami kuchaytirildi.

Samarqand viloyat xalq deputatlari ijroiya qo‘mitasining 1942 yil 12 maydagi qarori bilan Narpay tumanidagi polyak bolalar uyining yordamchi xo‘jaligi uchun 500 kg va Samarqand shahridagi polyak bolalar uyining yordamchi xo‘jaligi uchun 500 kg kartoshka urug‘i ajratildi.⁶⁴

Samarqand davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori SHodmonqul Pirimqulov “Polyak fuqarolari Samarqandda (1941-1946 y.y.)” nomli monografiyasida polyak fuqarolarining Samarqand viloyatiga ko‘chirtirib kelinishi, joylashtirilishi va ish bilan ta‘minlanishi, polyak bolalarini o‘qitish, ularni tarbiyalashni quyidagicha ta‘riflaydi:

“1941 yil 1 oktyabrdan SSSR Ichki Ishlar xalq komissarligi ko‘rsatmasiga muvofiq, O‘zbekiston hududiga dastlab 100 ming polyak fuqarolarini joylashtirish ko‘zda tutilgan edi. SHundan 25 000 kishi Samarqand viloyati hududiga kelishi kerak edi.

1941 yilning 3 oktyabrida Samarqand viloyati ijroiya qo‘mitasi “mutlaqo maxfiy” grifi bilan “Viloyat tumanlarida 25 000 ko‘chirib keltirilgan polyak fuqarolarini joylashtirish haqida “№ 30-qarorini qabul qildi. Bu qarorning birinchi bandiga binoan, viloyat tumanlariga polyak fuqarolarini joylashtirishning quyidagi tartibi belgilandi:

⁶² X. Аминов, Н.Иброхимов Самарқанд – фронтга. Самарқанд. Сўғдиёна, 1994. – Б-34.

⁶³ Ефимов В.И. Патриотические подвиги трудящихся Самаркандской области в годы Великой Отечественной войны. Самарқанд, 1962. – С.13.

⁶⁴ Самарқанд вилояти давлат архиви (Самарқанд ВДА), 74-фонд, 1-рўйхат, 4407-иш, 330-варак.

Pastdarg‘om tumaniga 3000 kishi, Jizzaxga – 2500, Qoradaryo, Paxtakor, Payariq, Jomboy va Bulung‘ur tumanlarining har biriga – 2000 kishidan, Narpay, Oqdaryo, Zomin, G‘allaorol va Mitan tumanlarini har biriga – 1500 kishidan, Kattaqo‘rg‘on va Xatirchi tumanlariga 1000 kishidan joylashtirishi rejalashtirildi”.

SH. Pirimqulov ma‘lumotlariga ko‘ra , 1944 yilning oxiri va

1945 yilning boshlarida viloyat hududida polyak fuqarolarining soni 13500-13700 kishi bo‘lib, ular viloyat tumanlarida quyidagicha joylashgan, ya‘ni Kattaqo‘rg‘on tumanida – 1475 kishi, Narpayda – 920 kishi, Pastdarg‘omda – 845, Jizzaxda – 685, Bulung‘urda – 560, Paxtakorda – 55, G‘allaorolda – 430, Xatirchida – 370, Zominda – 280, Payariqda – 250, Jomboyda – 164, Qoradaryoda – 130, Oqdaryoda – 120, Komsomol (hozirgi Tayloq)da – 75, Urgutda – 75, Forishda – 14, Nurota tumanida esa 12 kishi, shahardagi Siyob tumanida – 3658 kishi, Temiryo‘l tumanida – 786, Bog‘ishamol tumanida esa 537 kishini tashkil etgan.⁶⁵

Ko‘chirtirib kelgan polyak fuqarolari viloyat hududidagi yirik korxonalar, zavod, fabrika, qurilish ob‘ektlari, jamoa va davlat xo‘jaliklarida faoliyat ko‘rsatgan. Ularni Samarqand shahridagi harbiy mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar ishchilari orasida Zomin g‘allakorlariyu, Narpay paxtakorlari o‘rtasida, Langar konchilari yonida xullas, sanoat va xalq xo‘jaligining front uchun xizmat qilayotgan barcha jabhalarida ko‘rish mumkin edi. Urush yillarida Bulung‘ur va Narpayga ko‘chirib keltirilgan va ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan qand zavodlariga 200 ga yaqin polyak mutaxassisleri ishga jalb qilingan edi.⁶⁶

Viloyat hududidagi polyak fuqarolarining bir qismini ularda bo‘lgan mutaxassislik sohasi bo‘yicha ish bilan ta‘minlanishiga erishilgan. Misol uchun, 1945 yilga kelib viloyatda 54 muxandis, 298 buxgalter, 114 o‘qituvchi, 183 shofyor, 40 tipografiya xodimi va 14 huquqshunos o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha ishlaganlar. Polyak fuqarolarining bir qismi viloyatdagi harbiy sanoat korxonalariga ishga joylashtirilgan, jumladan, front ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqaradigan “Kinap” va “Krasniy dvigatel” (hozirgi “Alpomish”) zavodlarida ulardan 51 kishi mehnat qilgan.⁶⁷ Viloyat hududidagi Qo‘ytosh koni qurilishiga polyak fuqarolaridan 40 kishi, Langar koni qurilishiga 50 kishi va Ingichka koniga 40 kishi ishlash uchun safarbar qilingan.⁶⁸

Polsha fuqarolari orasida o‘z kasbining mohir ustalari bo‘lgan hunarmandlar ko‘pchilikni tashkil etgan. Samarqand viloyatida ularning soni 550 dan ko‘p bo‘lganligi, aksariyat hollarda, polshalik hunarmandlarga o‘zlarining artellarini tuzish

⁶⁵ Pirимкулов Ш. Поляк фуқаролари Самарқандда (1941-1946 й.й.). Самарқанд “Зарафшон”, 1999. – Б. 19-20.

⁶⁶ Самарқанд вилоят давлат архиви, 10 й.ж, 88-варақ.

⁶⁷ Самарқанд ВДА, 78-фонд, 12-рўйхат, 68-йиғма жилд, 88-варақ.

⁶⁸ Ўша жойда.

imkoniyati berilgan. Viloyat hududidagi artellarda “Vatan”, “Kirov” (Samarqand shahrida) “Mehnat” (Pastdarg‘om tumanida), “Trud” arteli (Jizzax shahrida) da 150 dan ortiq polshalik hunarmandlar o‘z mahoratlarini namoyon qildi.⁶⁹

Umuman olganda, 1945 yilga kelib viloyatdagi 13 mingga yaqin polshalik fuqarolardan 4907 kishi sanoat, qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik, meditsina sohasi, turli ta‘lim tizimlari va boshqa sohalarda foydali mehnat bilan band bo‘lganlar.⁷⁰

REFERENCES

1. X. Аминов, Н.Иброхимов Самарқанд – фронтга. Самарқанд. Сўғдиёна, 1994. – Б-34.
2. Ефимов В.И. Патриотические подвиги трудящихся Самаркандской области в годы Великой Отечественной войны. Самарканд, 1962. – С.13.
3. Самарқанд вилояти давлат архиви (Самарқанд ВДА), 74-фонд, 1-рўйхат, 4407-иш, 330-варақ.
4. Пиримкулов Ш. Поляк фуқаролари Самарқандда (1941-1946 й.й.). Самарқанд “Зарафшон”, 1999. – Б. 19-20.

⁶⁹ Самарқанд ВДА, 74-фонд, 12-рўйхат, 68-йиғма жилд, 88-варақ.

⁷⁰ Пиримкулов Ш. Поляк фуқаролари Самарқандда (1941-1946 й.й.). Самарқанд “Зарафшон”, 1999. – Б. 38.

MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINING TAVSIFI VA UNING SAMARADORLIGI

Sulaymanova Sevaraxon Bahodirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

e-mail: sevaraxon3108@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida muammoli ta'lim texnologiyasining ahamiyati, uning qo'llanilishi va bu asosida ta'lim samaradorligiga erishish mumkinligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *muammo, ta'lim, muammoli ta'lim, muammoli ta'lim texnologiyalari, muammoli vaziyat, yechim, natija.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещена важность технологии проблемного обучения в системе высшего образования, ее применение и возможность достижения на ее основе образовательной эффективности.

Ключевые слова: *проблема, образование, проблемное образование, проблемные образовательные технологии, проблемная ситуация, решение, результат.*

ABSTRACT

This article highlights the importance of problem-based learning technology in the higher education system, its application, and the possibility of achieving educational efficiency based on this.

Key words: *problem, education, problem-based education, problem-based educational technologies, problem situation, solution, result.*

KIRISH

So'ngi yillarda ta'lim mazmunini samaradorligini oshiruvchi ta'limning bir qator ishonchli interfaol metod va yo'llari izlanmoqda. Hozirgi kun tajribasida muammoli ta'lim deganda mashg'ulotlarda o'qituvchi-pedagoglar tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida talabalar kasbiy bilimlarga, ko'nikmalarga ega bo'ladi va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Muammoli ta'lim texnologiyasida quyidagilar asos qilib belgilanadi: ijtimoiy, konstruktiviy, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar, o'yinlar va boshqalar. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi. Muammoli

vaziyatning mohiyati – talabaga tanish bo‘lgan ma’lumotlar va yangi faktlar, hodisalar o‘rtasidagi ziddiyatdir. Bu ziddiyat bilimlarni ijodiy o‘zlashtirish uchun harakatlantiruvchi kuchdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Muammoli ta’limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog D.Dyui 1894-yilda Chikagoda tashkil etgan tajriba maktabida qo‘llagan. XX asrning 60-yillarida bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70-80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi. Muammoli o‘qitishni chuqur o‘rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo‘lib, uning asosida “Tafakkur – muammoli vaziyatdan boshlanadi” degan g‘oya yotadi.

Muammoli ta’lim – ta’lim jarayonini olib borishda o‘quvchilar oldiga yechish uchun muammoni qo‘yish orqali muammoli vaziyatni vujudga keltirish va mashg‘ulot davomida uning yechimini topish. Muammo o‘qituvchi tomonidan yoki o‘quvchilar tomonidan qo‘yilishi mumkin.

Muammoli ta’lim texnologiyalari –

o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan.

Fikrlash psixologiyasi nuqtayi nazaridan muammoli o‘qitish g‘oyasi va tamoyillari S.L.Rubinshteyn, M.I.Maxmutov, V.Okon, I.Y.Lerner tomonidan ishlab chiqilgan.

Muammoli ta’lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 xil ko‘rinishga ega.

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish.
2. Muammoning qo‘yilishi.
3. Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an’anaviy, bayon etish o‘quv materialining eng maqbul tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o‘quvchini uni yechishga yo‘naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o‘qitishni boshqarish pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo‘lishi individual holat bo‘lib, tabaqalashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

O‘quv materialini muammoli taqdim etilishining mohiyati shundaki, unda o‘qituvchi bilimlarni tayyor holda taqdim etmasdan, talabalar oldiga muammoli masalalar qo‘yadi, ularni yechimining yo‘llari va vositalarini izlashga undaydi. Muammo, yangi bilimlar va harakat usullar sari, o‘zi yo‘lga boshlaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Shuni qat’iyatlik bilan ta’kidlash lozimki, yangi bilimlar ma’lumot uchun emas, balki muammo yoki muammolarni yechimi uchun beriladi. An’anaviy pedagogik

usuldagi – bilimlardan muammoga qarab – talabalar mustaqil ilmiy izlanish ko‘nikma va malakalarini hosil qila olmaydi, chunki ularga o‘zlashtirish uchun tayyor natijalar taqdim etiladi. Muammoning yechimi ijodiy fikrlashni taqozo etadi. Shablonlarni takrorlash bilan bog‘liq bo‘lgan reproduktiv psixik jarayonlar, muammoli vaziyatlarda hech qanday samara bermaydi.

Agar inson muntazam tayyor bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga o‘rgatilgan bo‘lsa, uning tabiiy ijodiy qobiliyatini so‘ndirish ham mumkin; u mustaqil fikrlashni «esdan chiqaradi» fikrlash jarayoni muammoli masalalarni yechishda a‘lo darajada namoyon bo‘ladi va rivojlanadi.

Muammoli ta‘limda kechadigan jarayonlarning psixologik mexanizmi quyidagicha bo‘ladi: inson ziddiyatli, yangi, noma‘lum muammoga (muammo – murakkab nazariy yoki amaliy masala bo‘lib, yashirin ziddiyatlarni qamrab oladi, uning yechimi turli, hatto muqobil vaziyatlarni talab etadi) duch keladi, unda hayratlanish, ajablanish holati paydo bo‘ladi, «gap nimada?» degan savol tug‘iladi. Talaba noma‘lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o‘qituvchi yordamida izlanadi.

Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo‘luvchi sub‘ekt-ob‘ekt-sub‘ekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Muammoli o‘qitishning asosiy belgisi, bu ilmiy, o‘quv yoki barcha faoliyat turlarida paydo bo‘ladigan zaruriy ob‘ektiv qarama-qarshiliklar aksi hisoblanadi. Bu esa barcha sohalarining harakatlantiruvchi va rivojlantiruvchi manbaidir. Shu sababli muammoli o‘qitishni rivojlantiruvchi deb atash mumkin, zero uning maqsadi – bilimlarni, farazlarni shakllantirish, ularni ishlab chiqish va yechishdan iboratdir.

Muammoli o‘qitishda fikrlash jarayoni faqat muammoli vaziyatni yechish maqsadida joriy etiladi, u nostandart masalalarni yechish uchun zarur bo‘lgan fikrlashni shakllantiradi.

Muammoli o‘qitish samaradorligining to‘rtta bosh sharti mavjud:

- muammo mazmuniga qarab yetarli qiziqish uyg‘otishni ta‘minlash;
- muammo yechimidagi har bir bosqichda paydo bo‘ladigan ishlarni bajara olish mumkinligini ta‘minlash (ma‘lum va noma‘lumlar nisbatining maqbulligi);
- muammo yechimida olinadigan axborotni o‘quvchilar uchun muhimligi;
- pedagog va o‘quvchi orasidagi munosabat xayrixohlik ruhida kechishi, ya‘ni o‘quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlar e‘tiborsiz va rag‘batsiz qolmasligi zarur.

Muammoli o‘qitishning bosh psixologik-pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- tahsil oluvchining fikrlash doirasi va qobiliyatlarini o‘stirish, ijodiy ko‘nikmalarini rivojlantirish;

- muammoni mustaqil yechishda va faol izlanish davrida olingan bilim va ko‘nikmalarni tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi, buning natijasida ushbu bilim va ko‘nikmalar an’anaviy o‘qitishdagidan ko‘ra ancha mustahkam bo‘lishi;

- nostandart muammolarni ko‘ra oluvchi, qo‘ya oluvchi va yecha oluvchi o‘quvchining faol ijodiy shaxsini tarbiyalash;

- kasbiy muammoli fikrlashni rivojlantirish – har bir aniq faoliyatda o‘zining xususiyatlariga egaligi.

Ta’limning an’anaviy usulidan muammoliga o‘tish muvaffaqiyati, quyidagi ikki omil bilan belgilanadigan «muammolik darajasi»ga bog‘liq bo‘ladi:

- muammoning murakkablik darajasi – mazkur muammo doirasida tahsil oluvchi uchun ma’lum va noma’lumlar nisbatiga ko‘ra aniqlanadi;

- muammo yechimida tahsil oluvchi ijodiy ishtirokining ham jamoaviy, ham shaxsiy hissalari hisobga olinadi.

Muammoli o‘qitishning uchta asosiy shakli mavjud:

1. O‘quv materialini muammoli bayon etish – ma’ruzaviy mashg‘ulotlarda monolog tarzda, seminar mashg‘ulotlarida esa dialog tarzda olib boriladi. O‘qituvchi ma’ruza paytida o‘quv materialini bayon etayotganida muammoli masalalar tuzadi va ularni o‘zi yechadi, talabalar esa yechimlarni izlash jarayoniga faqat xayolan qo‘shiladilar.

2. Qisman izlanuvchan faoliyat tajribalar, laboratoriya ishlarini bajarishda muammoli seminarlar, evristik suhbatlar davomida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi muammoli savollar tizimini tuzadi, bu savollarga javoblar olingan bilimlar bazasiga tayanadi, ammo ular oldingi bilimlarda mavjud emas, ya’ni savollar tahsil oluvchilarga intellektual qiyinchiliklar tug‘diradi va maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy izlanishga undaydi. O‘qituvchi imkoni boricha «boshqacha javoblar» yo‘naltiruvchi savollarni tayyorlab qo‘yishi lozim, u tahsil oluvchilar javoblariga tayanib, yakuniy xulosa qiladi. An’anaviy tushuntirish va reproduktiv o‘qitishga esa, bilim-tanishi va bilim-nusxa shakllanadi, xolos.

3. Mustaqil tadqiqot faoliyatida tahsil oluvchilar mustaqil ravishda muammoni ifoda etadilar va uni yechadilar (kurs yoki bitiruv ishlarida, ilmiy tadqiqot ishlarida) va o‘qituvchi nazorati bilan yakunlanadi, bu esa 4-darajali mahsuldorlik faoliyatini (ijod) va 4-darajali eng samarali, mustahkam bilimni (bilim - qayta shakllanish) egallashni ta’minlaydi.

XULOSA

Talabalar bilim olish jarayonida juda ko'p muammoli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Talabalar dars mashg'ulotlari borishi davomida muammoli vaziyatlar orqali mavzuni qabul qilishlari, anlash faoliyati, ijodkorlik qobiliyatlari yanada rivojlanadi. Ta'limda muammoli vaziyatlar yaratilgan dars mashg'ulotlari samarasi orqali yangi bilimlardan kelajakda unumli foydalana olish, ta'lim muammolarini yecha olish, mustaqil izlanishga o'rganish, ijodiy tajribalarning rivojlanishi, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilishga keng imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. N.N.Azizxo'jayeva Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. – 160 b.
2. H.T.Omonov, N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi., Toshkent Moliya instituti. – T.: "Iqtisod-moliya". 2009. – 240 b.
3. Педагогика профессионального образования. Под ред. В.А. Слостенина. – М.: Академия, 2004.
4. Sulaymanova, S. B. Q. (2022). BADIY YO 'NALISHDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'ATDA PERSPEKTIVAGA RIOYA QILISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK NAZARIYA VA TA'LIM AMALIYOTIDAGI TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 16-23.
5. Сулайманова, С. Б. К. (2022). BADIY TA'LIMDA TALABALARNI O'QITISHDA SAMARALI DIDAKTIK PRINSIPLARDAN FOYDALANISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 143-150.
6. Сулайманова, С., Омонов, Д., & Аъзамжонов, А. (2022). Алишер Навоий асарларидан бадий олий таълим муассасаларида тасвирий санъатни ўқитиш жараёнида фойдаланишнинг зарурияти. *Research Focus*, 1(2), 272-277.
7. Sadikovna, S. G., Kurbonova, B., Akhmedova, N., & Sulaymanova, S. (2020). FUNDAMENTALS OF PROFESSIONALISM DEVELOPMENT ON THE EXAMPLE OF PRACTICAL EXERCISES ON FORMING THE SKILLS AND.
8. Akhmedova, N. E. (2023). DEVELOPING ARTISTIC AND AESTHETIC COMPETENCE IN THE EDUCATION OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS IN TRADITIONAL AND FOLK ART. *Science and innovation*, 2(Special Issue 14), 170-173.
9. A'Zamjonov, A. A. Z. (2022). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA INNOVATSION YONDASHUV YO'LLARI

MAVZUSI BO'YICHA AMALIY ISHLANMA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 56-60.

10. A'zamjonov, A., & Hamdamov, K. H. (2022). TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARI MAZMUNINING DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI BILAN BOG'LIQLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 71-77.

11. Yunusaliev, M. (2023). THE IMPORTANCE OF THE SCALE OF THE VIEWING ANGLE IN PERSPECTIVE. *Science and innovation*, 2(A4), 15-20.

12. O'Rinov, M. X. O. G. (2022). CHIZMACHILIK FANI DARSLARIDA UYG'UNLASHGAN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 167-173.

13. Zulfiya, B., & Raxmonali, S. (2022). SAN'ATNING IJTIMOYIY HAYOTNING MURAKKAB MUNOSABATLARI BILAN ALOQADORLIGI. *Research Focus*, 1(2), 296-300.

14. Qurbonova, B., & G'ulomova, O. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA BADIY MATNNI TAHLIL QILISH METODIKASI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 750-752.

15. Kurbonova, B. M. (2023). AESTHETIC PERCEPTION IS A PRODUCT OF ARTISTIC THINKING. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 3(26), 97-101.

16. Sulaymanova, S. B. Q. (2023). BADIY AN'ANALARGA YO 'G 'IRILGAN QUROQCHILIK SAN'ATI NAMUNALARINING TASVIRIY SAN'ATDAGI O 'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(9), 106-111.

17. Qurbonova, B., Sulaymanova, S., Akhmedova, N., & Yunusaliyev, M. (2023). Big Data, Artificial Intelligence and Smart Cities. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 402, p. 03013). EDP Sciences.

18. Сулайманова, С., Омонов, Д., & Аъзамжонов, А. (2022). Алишер Навоий асарларидан бадий олий таълим муассасаларида тасвирий санъатни ўқитиш жараёнида фойдаланишнинг зарурияти. *Research Focus*, 1(2), 272-277.

19. Sulaymanova, S. B. Q. (2022). BADIY OLIY TA'LIM MUASSASALARDA TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHGA BO 'LGAN EHTIYOJNING OSHISHI VA UNING BUGUNGI HOLATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 89-96.

20. Юнусалиев, М., Мадаминов, Н., & Мамуров, А. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РИСОВАНИЕМ НАТЮРМОРТА. *Research Focus*, 1(2), 326-332.

IMPLIKATURA HODISASINING “HAMKORLIK PRINSIPLARI” ASOSIDA TAHLILI

Sharipova Fazilat Dillmurod qizi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada implikatura hodisasining “hamkorlik prinsiplari” asosida tahlili haqida so‘z boradi. Uning ma‘no va mazmuni hamda tarjimadagai ahamiyati haqida muhokama qilinadi.

***Kalit so‘zlar:** implikatura, “hamkorlik prinsiplari”, muloqot, tarjima, ritorik tuzilishi, tautologik iboralar.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена анализу феномена импликатуры на основе «принципов кооперации». Обсуждаются его значение и содержание, а также значение при переводе.

***Ключевые слова:** импликатура, «принципы сотрудничества», коммуникация, перевод, риторическая структура, тавтологические выражения.*

ABSTRACT

This article deals with the analysis of the phenomenon of implicature based on the "principles of cooperation". Its meaning and content and its importance in translation are discussed.

***Keywords:** implicature, "principles of cooperation", communication, translation, rhetorical structure, tautological expressions.*

KIRISH

Muloqot – odatda, lisoniy belgilar orqali so‘zlovchining qabul qiluvchiga yuborgan ma‘lumoti sifatida ifodalanadi. Implikatura muloqot davomida boshqa narsa deyish orqali bilvosita qo‘shimcha ma‘noni nazarda tutishni anglatadi. Shu ma‘noda, ushbu bobda implikaturani o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilganda yuzaga keladigan muammolarga, shuningdek, “O‘tkan kunlar” romanidagi xatlarning ingliz tilidagi tarjimalarida implikaturaning tarjima qilinishi, ularning tahlili, shuningdek, so‘zlashuv mazmunini o‘zida mujassam etgan va real hayotni o‘zida aks ettirgan turli muloqot qismlari xususida so‘z yuritamiz.

So‘zlashuv implikaturasini tarjima qilishda esa tarjima matni (target text) ning makrostrukturasi va ritorik tuzilishi asliyat matni (source text)da qayta ko‘rib chiqilishi, bunda o‘xshash implikatsiyaga ega so‘zlar va tuzilmalar topilishi talab qilinadi. Tarjimonlar matni boshqa tilga tarjima qilishda, odatda, ataylab yoki

bilmagan holda shunday yo‘l tutishadi va bu tadqiqotimizda olib boriladigan tahlillar natijasida tasdiqlanishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Graysning fikricha, muloqot davomida so‘zlovchi va tinglovchi “**hamkorlik prinsipi**” (**cooperative principle**) asosida birlashadilar. Va ushbu “hamkorlik prinsipi” Grays taqdim etgan muloqot implikaturasini tushunish va tahlil etish kaliti deb hisoblaydigan maksimalarni anglatadi.⁷¹

Miqdor maksimalari (kerakli darajada axborotlilik)

- Yetarli darajada ma’lumot beruvchi bo‘lish; keragidan ortiq axborot yetkazmaslik;

Sifat maksimali (to‘g‘rilik, ishonchlilik)

- Noto‘g‘ri deb hisoblangan yoki yetarli dalillarga ega bo‘lmagan narsalarni aytmaslik;

Aloqa maksimali (muvofiqlik)

- Tegishli bo‘lishlik;
- Barqaror va izchil bo‘lish;

Maksimal uslub (aniqlik)

- Muxtasar bo‘lish
- Aniq ifoda etish.

H.Grays matnda hosil bo‘ladigan ko‘chirma yashirin ma’noni implikatura hodisasiga qaram deb hisoblaydi. Shuningdek, u muloqot davomida ushbu maksimalardan birortasiga amal qilinmaganda muloqot implikaturasi namoyon bo‘ladi, deb hisoblaydi.

MUHOKAMA

Xatlarni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida qator muammolar keltirib chiqaradigan, shuningdek, tilning madaniy tomonlarini aks ettiradigan implikaturaning namoyon bo‘lishi va uning tarjima tilida o‘zining yashirin ifodasini topganligini ko‘rib chiqamiz.

Asliyat matni: *“ikki yil bo‘ldi Marg‘ilon kelib yurishlaringizni men o‘zimcha yeshdim, lekin topib yeshdim: sizning barcha mashaqqatlaringiz — dushmanlaringizdan o‘ch olish uchun bo‘lg‘anini ongladim.”*

I.Tuxtasinov, O. Mo‘minov, A.Hamidov tarjimasi: *“For these two years, so I guessed it: you came, you were worried and busy just to take revenge on your enemies, otherwise you would have seen me.”*

⁷¹Grice P. Studies in the Way of Words. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. - P.26-27.

Mark Riz tarjimasida: “...Finally, after two years, I *found out* the reason you secretly traveled to Margilan...”

Ushbu jumla “hamkorlik prinsipi”dagi miqdor maksimasiga asosan amalga oshirilgan. Kumushning Otabekni u bilan ko‘rishmay ketganini “*yeshdim, lekin topib yeshdim*” tarzida anglashi gapda miqdor maksimasining “Keragidan ortiq ma’lumot bermaslik” tamoyiligi zid kelgan.

“*Yeshdim*” ifodasining takror qo‘llanilishi nutqning emotsional ta’sirchanligiga, uni oshirishga xizmat qiluvchi vosita – taftologiya hodisasini keltirib chiqargan. I.Tuxtasinov, O.Mo‘minov, A.Hamidov tarjimasida *yeshdim* so‘zi *guessed* tarzida bir marta qo‘llangan va miqdor maksimasiga rioya qilingan. Mark Riz tarjimasida ham *found out* birikmasi ishtirokida miqdor maksimasiga amal qilingan va muloqot implikaturasi tarjimada saqlanmagan.

Graysning fikriga ko‘ra, taftologiya ishtorok etgan jumlar suhbatning ifodaviyligini (implikatsiyasini) so‘roq ostiga qo‘yadi, chunki ular nutqiy muloqotda zarur bo‘lgan darajada axborotni yetkazish majburiyatini, ya’ni Graysning miqdor maksimasiga zid keladi.⁷² Shu nuqtai nazardan, taftologik so‘zlarni izohlashda uch xil yondashuv yuzaga kelgan, xususan:

- 1) radikal pragmatik yondashuv;
- 2) radikal semantik yondashuv ;
- 3) radikal bo‘lmagan yondashuv.⁷³

Radikal pragmatik yondashuvda taftologik ibora talqinini muloqotning universal tamoyillari boshqaradi va bu iboralar “to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumot bermaydi, ammo kontekstda mazmunli bo‘ladi”⁷⁴. Bundan farqli o‘laroq, radikal semantik yondashuvda tavgologik iboralarni talqin qilish qisman so‘zlashuv va tilga xosdir. Uchinchi, ya’ni radikal bo‘lmagan yondashuv tavgologik iboralarni sharhlashda semantika va pragmatikani birlashtiradi. Ba’zan tavgologik iboralar faqat vaziyat kontekstidan kelib chiqadigan oniy implikatsiyalarga va semantik tasvirlardan kelib chiqadigan asosiy implikatsiyalarga ega bo‘ladi. Ushbu fikrga qo‘shilgan holda, Okamoto ta’kidlaydiki, “asosiy ma’nolarini hisobga olgan holda, tavgologiyalar pragmatik jihatdan tushunib bo‘lmaydigan qo‘shimcha ma’nolarni berishi mumkin”⁷⁵.

⁷² Shehab, E. <http://scholar.najah.edu/sites/default/files/journalarticle/translatibility-utterances-containing-implicatures%20%80%8E-arabic-english.pdf>

⁷³ Gazdar G. Pragmatics: Implicature, presupposition, and logical form. - New York: Academic, 1979. – P.127.

⁷⁴ Okamoto Sh. Nominal repetitive constructions in Japanese: The “tautology” controversy revisited, Journal of Pragmatics, vol. 20, 1993. - P.433-466.

⁷⁵ Okamoto Sh. Nominal repetitive constructions in Japanese: The “tautology” controversy revisited, Journal of Pragmatics, vol. 20, 1993. - P. 433-466.

XULOSA

Tarjimon badiiy matni tarjima qilayotgan paytda yuz kelishi mumkin bo'lgan shunday muammo borki, u ham bo'lsa tarjimon qachon matndagi implisit ma'noga qo'shimcha axborot yuklashni bilishi kerak. Har qanday yozuvchi o'z tajribasi va o'zi ulg'aygan madaniyatidan kelib chiqib asarda implisit mazmunni yaratadi. Tarjimon implisit ifodani eksplisit tarzda aniq va tushunarli qilib o'girishga harakat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Shehab,E.
[http://scholar.najah.edu/sites/default/files/journalarticle/translatability-utterances-containing-implicatures %E2%80%8E-arabic-english.pdf](http://scholar.najah.edu/sites/default/files/journalarticle/translatability-utterances-containing-implicatures%E2%80%8E-arabic-english.pdf)
2. Grice H. P. Logic and conversation. - Cole, P., and J.L. Morgan: Academic Press, 1975. - P.41-58.
3. Grice P. Studies in the Way of Words. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. - P.26-27.
4. Ogden C. K. and Richards, I. A. The meaning of meaning, 8thedition. - New York, Harcourt, Brace & World, Inc, 1983.

INGLIZ TILI DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Ashurov Jahongir Abdisattorovich

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, Xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi.

Nosirova Dilfuza Nabiyevna

Andijon viloyati Yuridik texnikumi yuristlar uchun xorijiy til o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ingliz tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari yoritilgan. Globallashuv jarayonida hayotimizni axborot texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ingliz tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi.

***Kalit so'zlar:** ingliz tili, axborot texnologiyalari, usullar, metodlar, samaradorlik.*

ABSTRACT

This article highlights the advantages of using information technologies in English language classes in the Republic of Uzbekistan. In the process of globalization, it is difficult to imagine our life without information technology. It is considered to be one of the most effective ways to use it effectively in the process of learning and teaching English.

***Key words:** English language, information technologies, methods, methods, efficiency.*

KIRISH

Ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish axborot jamiyati rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biridir. Bunday sharoitda ta'lim o'quvchilarda yangi ko'nikmalarni - bu zamonaviy ta'limga moslashish va o'zini topish qobiliyatini, mustaqil ravishda ma'lumot to'plash, tahlil qilish, umumlashtirish va boshqa odamlarga etkazish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishi kerak [1]. O'quvchilarning mustaqil ishlariga, o'qitishning jamoaviy shakllariga, zarur ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining yangi modelini hayotga tatbiq etish davr talablariga adekvat javobdir. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan faol foydalanish ushbu transformatsiyada katta rol o'ynashi kerak, chunki:


✓ Axborot texnologiyalaridan ni o'rganish va o'quv jarayonida qo'llash talabalarga zamonaviy jamiyatda hayot va mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni olish imkonini beradi;

- ✓ axborot texnologiyalaridan ta'lim sifatini oshiradigan o'qitishning yangi shakl va usullarini ishlab chiqishda samarali vosita hisoblanadi;
- ✓ axborot texnologiyalaridan keng foydalanish ta'limning ochiqqligini oshirish, uzluksiz ta'limdan - ta'limga (Life Long Learning - LLL-paradigma) o'tish, axborot jamiyati va bilimga asoslangan iqtisodiyot rivojlanish sharoitlariga doimiy moslashishni ta'minlash uchun sharoit yaratadi [3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR


O'z-o'zidan o'rganishga qiziqishni oshirishga yordam beradigan axborot texnologiyalari bilan ishlashning yangiligi emas, balki o'quv topshiriqlarini taqdim etishni qiyinchilik darajasiga ko'ra tartibga solish, to'g'ri qaror qabul qilishni rag'batlantirish ham motivatsiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanadigan o'qitish tizimining an'anaviy tizimidan tubdan farqi uning texnologik bazasida, kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalarining yuqori salohiyatini ro'yobga chiqarishdadir. Bu bizga ta'limning ba'zi asosiy muammolarini hal qilish imkonini beradi:



Zamonaviy ta'limda xorijiy tillarini o'qitish sohasidagi yangilanish jarayonlari o'qituvchilarga darslik va boshqa o'quv qo'llanmalarini mustaqil tanlash huquqi va imkoniyatini beradigan vaziyatni yaratilmoqda. Zamonaviy o'qituvchi ingliz tilini o'qitishdagi mavjud vaziyatni tahlil qilish, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalardan samarali foydalanish foydasiga muayyan uslubiy tizim doirasidagi faoliyatni qat'iy tartibga soluvchi tayyor uslubiy "retseptlar" dan voz kechadi. O'qituvchining vazifasi har bir talaba uchun amaliy tilni o'zlashtirish uchun sharoit yaratish, har bir o'quvchiga o'z faolligi va ijodkorligini namoyon etish imkonini beradigan o'qitish usullarini tanlashdir. O'qituvchining vazifasi xorijiy tillarini

o'qitish jarayonida talabaning kognitiv faoliyatini faollashtirishdir. Hamkorlikda o'qitish, loyiha asosidagi yangi usullar, axborot texnologiyalaridan foydalanish, internet resurslari kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'limga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi, bolalarning qobiliyatlari, ularning darajasini inobatga olgan holda ta'limni individuallashtirish va differentsiallashtirishni ta'minlaydi. Zamonaviy texnologiyalar, shubhasiz, axborot texnologiyalari bo'lib, ular an'anaviy usullarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Kompyuterda o'qitish juda katta motivatsion salohiyatga ega. Kompyuter - bu o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonida qo'llaniladigan vosita bo'lib, u xorijiy tillarini o'qitish jarayonida turli funktsiyalarni bajarishi mumkin:



Shunday qilib, axborot texnologiyalari ingliz tilini o'qitish jarayonini imkon qadar real sharoitlarga yaqinlashtiradi. Kompyuterlar yangi axborotni idrok etishi, ma'lum bir usulda qayta ishlashi va qarorlar qabul qilishi, kerakli ma'lumotlarni eslab qolishi, harakatlanuvchi tasvirlarni takrorlashi, nutq sintezatorlari, videomagnitofonlar, magnitafonlar kabi texnik o'qitish vositalarining ishlashini

boshqarishi mumkin [2]. Axborot texnologiyalari o'qituvchilarning o'rganishni individuallashtirish va ingliz tilini o'qitishda talabalarning kognitiv faolligini oshirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi va ularga o'quv jarayonini o'quvchilarning individual xususiyatlariga maksimal darajada moslashtirishga imkon beradi. Har bir talaba o'z ritmida ishlash imkoniyatini oladi, ya'ni o'zingiz uchun materialni assimilyatsiya qilishning optimal hajmi va tezligini tanlash. Ingliz tili darslarida kompyuterlardan foydalanish o'quv jarayonining intensivligini sezilarli darajada oshiradi. Axborot texnologiyalarda o'qitish bilan an'anaviy o'qitish sharoitida bir vaqtning o'zida bajarilganidan ko'ra ko'proq miqdordagi material so'riladi. Bundan tashqari, kompyuterdan foydalanganda material yanada qattiqroq so'riladi. Uslubiy jihatdan, ingliz tili darslarida axborot texnologiyalari bilan ishlash shakllari har xil bo'lishi mumkin: yangi materialni o'zlashtirish yoki uni o'quv dasturlari yordamida mustahkamlash, insholar, taqdimotlar, diktantlar yozish, murakkab matnlar bilan ishlashda tarjimon dasturlaridan foydalanish, ingliz tilida savodxonlik va imloni tekshirish, so'z boyligini to'ldirish va grammatik materialni o'zlashtirishni tekshirish uchun o'quv dasturlari [3].

Axborot texnologiyalari, shuningdek, o'quv jarayonini har tomonlama (joriy, bosqichli, yakuniy) nazorat qilishni ta'minlaydi. Nazorat, ma'lumki, ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, talaba va o'qituvchi o'rtasidagi fikr-mulohaza sifatida xizmat qiladi. Talabalarning bilim sifatini nazorat qilish uchun kompyuterdan foydalanganda baholashda katta yutuqlarga erishiladi. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari o'qish vaqtini sezilarli darajada tejashga yordam beradi, chunki barcha talabalarning bilimlari bir vaqtning o'zida tekshiriladi. Bu esa o'qituvchiga o'quvchilar bilan ishlashning ijodiy jihatlariga ko'proq e'tibor qaratish imkonini beradi. Axborot texnologiyalarining yana bir afzalligi – ta'lim jarayonida statistik ma'lumotlarni to'plash qobiliyatidir. Statistik ma'lumotlarni (xatolar soni, to'g'ri/noto'g'ri javoblar, yordam so'rovlari, individual topshiriqlarga sarflangan vaqt) tahlil qilib, o'qituvchi o'quvchilar bilimni rivojlantirish darajasi va sifatini baholaydi [2]. Axborot texnologiyalar ingliz tili darslarida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun ham qulay imkoniyatlar yaratadi. Talabalar kompyuterdan individual mavzularni o'rganish va o'z bilimlarini o'z-o'zini tekshirish uchun foydalanishlari mumkin. Bundan tashqari, kompyuter eng sabrli o'qituvchi bo'lib, u har qanday topshiriqni kerak bo'lganda takrorlashi, to'g'ri javobga erishishi va pirovardida mashq qilinayotgan mahoratni avtomatlashtirishi mumkin.

Axborot texnologiyalarga asoslangan o'quv dasturlari an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan juda ko'p afzalliklarga ega. Ular sizga nutq faoliyatining har xil turlarini o'rgatish va ularni turli kombinatsiyalarda birlashtirishga imkon beradi, til

hodisalarini tushunishga yordam beradi, lingvistik qobiliyatlarni shakllantirish, kommunikativ vaziyatlarni yaratish, til va nutq harakatlarini avtomatlashtirish, shuningdek, talabalarning individual yondashuvini va intensivligini ta'minlaydi [2].

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAM BERADI:

o'quv jarayonini o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishiga yordam beradigan yangi, ilgari mavjud bo'lmagan materiallar bilan ta'minlash;

passiv tinglovchilarni jalb qilish;

amaliy mashg'ulotlarni ko'proq ko'rgazmali qilish;

o'quvchilarni material bilan mustaqil ishlashga o'rgatish;

tezkor fikr bildirish; javobdan qo'rqish kabi salbiy psixologik omilni olib tashlash;

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, axborot texnologiyalaridan foydalanishning shubhasiz afzalligi o'qituvchi va talabaning izlanish va ijodiy faoliyati usullariga o'tishdir. Bu tilning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiladi o'quvchilarning malakalarini, tinglash, gapirish, o'qish malakalarini shakllantirish, yozishni takomillashtirish, ijodiy, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash. Axborot texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchini kundalik ishning muhim qismidan, masalan, individual topshiriqni bajarishni tekshirishdan ozod qilish imkoniyatini beradi: mashqlar, frontal so'rov, katta hajmdagi lingvistik materialni taqdim etish. Shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanish darsni jozibador va chinakam zamonaviy qiladi, o'qitish individuallashtiriladi, nazorat va xulosalar ob'ektiv va o'z vaqtida amalga oshiriladi. Zamonaviy sharoitda xorijiy tillarini o'qitish jarayoniga tobora yuqori talablar qo'yilmoqda. Axborot hajmi tezlik bilan o'sib bormoqda va ularni saqlash, uzatish va qayta ishlashning zamonaviy usullari endi samarali emas. Kompyuter texnologiyalari esa ta'lim samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Akhmedova, M. (2023). Peculiarities of teaching Russian as a foreign language in the online system in Uzbekistan. Solution of social problems in management and economy, 2(10), 12-17.

2. Ikramova X. M. (2021). Chet tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1 (4), 885-890.
3. Расулова А.В. Интернет учит новый язык // Компьютерра. – 2023. – № 27–28. – С. 36–39.
4. Sharifa, U. (2023). THE NEED TO USE DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION. *Open Access Repository*, 10(1), 148-150.
5. Gulamovna, U. S. Improving speech competence of students in uzbek language lessons. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 278-284.
6. Усмонова, Ш. Г. (2022). АДАБИЁТ ДАРСЛАРИДА МИЛЛИЙЛИК ВА ИНСОНПАРВАРЛИК ҲОЯЛАРИНИНГ КУЙЛАНИШИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 19-24.
7. Gulamovna, U. S. (2023). О ‘ЗБЕК ТИЛИНИНГ СОҲАДА ҚО’ЛЛАНИШИ ДАРСЛАРИДА СТИЛИСТИКАНИНГ О’РНИ. *ВАРҚАРОРЛИК ВА ЙЕТАКЧИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 3(4), 280-284.
8. Усманова, Ш. Г. (2023). РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ДУХОВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(4).
9. Nabiyevna, N. D. (2023). Quality Education is the Foundation of Our Future. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 229-233.
10. Nabiyevna, Nosirova Dilfuza. "Validity of Problems of Intercultural Communication in the Modern Conditions." *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture* 4.3 (2023): 34-39.
11. Nabiyevna, N. D. (2023). Validity of Problems of Intercultural Communication in the Modern Conditions. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(3), 34-39.
12. Nabiyevna, N. D., & Sobirovna, K. N. (2022). IMPORTANCE OF MODERN METHODS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES. *Conferencea*, 46-48.
13. Nosirova, D. N. (2022). FAN, IQTISODIYOT VA TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR, SUN’IY INTELLEKT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 923-927.
14. Nosirova, D. N. (2023). YOSHLAR O’RTASIDA JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH. *Scientific progress*, 4(2), 141-144.

15. Nabiyevna, N. D. (2023). Human Value and the Future of Our People Depend on Quality Education. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 14-18.

BADIIY ADABIYOTDA KONFLIKT MASALALARI

Dilshodbek Sharipov

Turan International University

Erkin tadqiqotchisi

dilshodbeksharipov93@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola badiiy asarning muhim va personajlarning ichki va tashqi olamini tadqiq qilish uchun eng zarur elementlaridan biri konflikt (ziddiyat)ni tavsiflash maqsad qilib olingan. Muallif o'zbek adabiyotidagi asarlar hamda Xolid Husayniyning "Shamol ortidan yugurib" asarlaridagi konflikt turlari qiyos metodi asosida dalillangan. Xolid Husayniyning "Shamol ortidan yugurib" asaridagi konflikt hamda uning turlarini ko'rsatuvchi o'rinlar talaygina.

Badiiy asardagi to'qnashuvlar ziddiyatlar(konflikt) turlari ilmiy adabiyotdagi turlari bilan birga romanning sujet va kompozitsiyasidan kelib chiqqan holda boshqa bir turlari haqida ham fikrlar olib borilgan. Zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan insonning boshqa bir inson, tabiat, jamiyat, taqdir va boshqa narsalar o'rtasidagi ziddiyatlar haqida qarashlar va misollar mavjud.

***Kalit so'zlar:** konflikt, psixologik, xarakterlararo, ziddiyat, ijtimoiy, ayb va najot, inson va taqdir, dilemma, inson va tabiat, bestseller, inson va muhit.*

АННОТАЦИЯ

Целью данной статьи является описание конфликта, одного из важнейших элементов художественного произведения и одного из самых необходимых элементов для исследования внутреннего и внешнего мира персонажей. На основе метода сравнения обосновываются типы конфликтов в авторских произведениях узбекской литературы и «Бегущем по ветру» Халида Хусайни. В произведении Халида Хусайни «Бегущий за ветром» есть много мест, показывающих конфликт и его виды.

Наряду с типами конфликтов в художественном произведении, наряду с типами конфликтов в научной литературе высказывались мнения и о других типах, исходя из тематики и композиции романа. С точки зрения современного литературоведения существуют взгляды и примеры конфликтов человека с другим человеком, природой, обществом, судьбой и другими вещами.

***Ключевые слова:** конфликт, психологический, межличностный, конфликт, социальный, вина и спасение, человек и судьба, дилемма, человек и природа, бестселлер, человек и окружающая среда.*

ABSTRACT

The purpose of this article is to describe conflict, one of the most important elements of a work of art and one of the most necessary elements for researching the inner and outer world of characters. The types of conflicts in the author's works of Uzbek literature and Khalid Husayni's "Running with the Wind" are proved based on the method of comparison. There are many places showing the conflict and its types in Khaled Husayni's "Running After the Wind".

Along with the types of conflicts in the work of art, along with the types of conflicts in scientific literature, opinions were also made about other types based on the subject and composition of the novel. From the point of view of modern literary studies, there are views and examples of conflicts between a person and another person, nature, society, fate and other things.

Keywords: *conflict, psychological, interpersonal, social, guilt and salvation, man and fate, dilemma, man and nature, bestseller, man and environment.*

KIRISH

Har qanday hayotiy jarayon deysizmi, ijtimoiy hayot deysizmi, badiiy asar deysizmi barining rivojlanishida va xattoki, soʻnshida ham konflikt (ziddiyat) muhim rol oʻynaydi. Nega shunday?

Hayotning ilk bosqichidan boshlab ziddiyatlar inson bilan hamnafas qadam tashlaydi. Yaxshilik va yomonlik, ezgulik va qabohat, oq va qora doimo bir-biri bilan doimo kurashda. Bu kurashlarning inikosi esa badiiy adabiyotda jilolanadi. Badiiy adabiyot ham qadimdan insonlarning azaliy orzulari bilan bir qatorda azaliy muammolarni ham talqin qilib keladi. Ana shu azaliy muammolar badiiy asarda konflikt (qarama-qarshilik) sifatida namoyon boʻladi.

KONFLIKT (lot. conflictus – toʻqnashuv) - personajlarning asar sujetida badiiy ifodasini topadigan oʻzaro toʻqnashuv va kurashlari, qahramon bilan muhit orasida yoki uning ruhiyatida kechuvchi ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar. Konflikt termini anʼanaviy tarzda koʻproq epik va dramatik asarlarga nisbatan qoʻllanadi. (6;24)

Ziddiyatlar badiiy asarda markaziy oʻrinni egallaydi, bu voqealarni rivojlantiradigan keskinlik va dramtizmni taʼminlaydi. Adabiyotda, filmda yoki hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan konfliktlarning bir nechta turlari mavjud. Bu qarama-qarshiliklarni tabiatiga koʻra turli turlarga boʻlish mumkin. Dilmurod Quronovning “Adabiyotshunoslik lugʻati”da konfliktning uch turi farqlangan: 1) xarakterlararo; 2) qahramon va muhit; 3) ichki (psixologik) (6;25).

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Bizning fikrimizcha ziddiyatlarni yana quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Ichki ziddiyat(Psixologik): Bu turdagi ziddiyat qahramonning ongida sodir bo'ladi. Bu qahramonning o'z qo'rquvlari, shubhalari yoki axloqiy dilemmalari (mantiqiy hukm) bilan kurashishini o'z ichiga oladi. Ichki konflikt ko'pincha qiyin qarorlar, hissiy tartibsizliklar yoki o'z-o'zini kashf qilish atrofida aylanadi. Masalan, Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romani bosh qahramoni Yusuf o'zligini anglash borasidagi ruhiy kurashlarini olish mumkin. (7;92)

2. Inson va inson (Xarakterlararo): Bu turdagi konfliktda qahramon boshqa personaj yoki personajlar guruhining qarshiligiga duch keladi. Bu jismoniy qarama-qarshiliklar, og'zaki tortishuvlar yoki ijtimoiy mojarolarni o'z ichiga olishi mumkin. Misol uchun hammaga ma'lum va mashhur bo'lgan "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek va uning dushmanlari Homid, Mutal, Sodiqni keltirish mumkin. (4;80)

3. Odam va tabiat: Bu konfliktda ob-havo, hayvonlar yoki atrof-muhitning boshqa elementlari kabi tabiiy kuchlarga qarshi kurashayotgan qahramon ishtirok etadi. Qahramonlar cho'l bilan kurashayotgan omon qolish hikoyalari inson va tabiat to'qnashuvlarining keng tarqalgan namunasi. Jahon adabiyoti durdonalari hisoblangan "Chol va dengiz" asarida Baliqchi dengiz bilan kurash olib borsa, (5;32) "Hayotga muhabbat" hikoyasida Inson tabiat va hayvonlar bilan kurash olib boradi. (3; 23)

4. Inson va jamiyat: Qahramon jamiyat me'yorlari, qoidalari yoki umidlariga qarshi turadi. Bu mojaro ko'pincha adolatsizlik, kamsitish yoki xarakter zulmkor deb hisoblagan ijtimoiy me'yorlarga qarshi kurash kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

"Ikki eshik orasi" qahramonlaridan biri muallim Samadovni bunga misol qilish mumkin. (2;45)

5. Odam va g'ayritabiiy: Ushbu turdagi to'qnashuvda qahramon tabiiy dunyodan tashqari kuchlarga duch keladi. Bu g'ayritabiiy mavjudotlar, afsonaviy mavjudotlar yoki paranormal elementlar bilan janglarni o'z ichiga olishi mumkin.

Odatda xalq og'zaki ijodida yoki fantastik asarlarda aynan shu ko'rinishdagi konfliktlarga duch kelish mumkin. Oddiy misol "Rustamxon" dostonida Rustamxonning ajdaxo bilan olishuvi. (1;62)

6. Odam va texnologiya/mashinalar: Ziddiyatlar bosh qahramonning mashinalar, texnologiya yoki sun'iy intellektga qarshi kurashidan kelib chiqadi. Konfliktning bu turi zamonaviy adabiyot va ilmiy-fantastik adabiyotlarda keng tarqalgan. Bunga Hojiakbar Shayxovning ko'plab asarlarini misol qilish mumkin

7. Inson va Taqdir: Qahramon voqealarning oldindan belgilab qo'yilgan yo'nalishi yoki o'zgarmas kelajak bilan kurashadi. Ushbu turdagi mojarolar ko'pincha iroda erkinligi, taqdir va muqarrarlikka qarshi kurash mavzularini o'rganadi. Yuqorida keltirgan misolimiz, Yusuf shu turdagi konfliktga ham mos keladi. (7;112)

Ushbu toifalar bir-birini istisno qilmaydi va ko'plab asarlar bir nechta ziddiyatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, konflikt turlari hikoyaning rivojlanishiga qarab rivojlanishi va o'zgarishi mumkin, bu hikoyaga badiiylik va murakkablik qo'shadi. Konfliktlarni o'rganish va hal qilish adabiyotda va asarlarning boshqa shakllarida syujet va xarakter rivojlanishini shakllantirishda hal qiluvchi element hisoblanadi.

Yuqoridagi keltirilgan konflikt turlarini jahon adabiyotidagi "bestseller"lardan biri, "Shamol ortidan yugurib" asari bo'yicha ham tahlil qilish mumkin. Xolid Husayniyning "Shamol ortidan yugurib" asari qahramonlar, xususan, bosh qahramon Amir boshidan kechirgan ichki ziddiyatlarga boy. Romanda o'rganilgan asosiy ichki ziddiyatlardan ba'zilari:

1. Psixologik (ichki) konflikt: Asar boshdan oxirigacha qahramonlarning ichki kurashlari asosida kechadi. Asarning bosh qahramoni Amir bolalikdagi qilgan nohaqliklari uchun yillar davomida ichki bezovtalik bilan umr kechiradi. Mana, yana bir sahna Hasan va Asef to'qnashuvi hamda ularni uzoqdan ko'rib turgan Amirning o'zi bilan o'zi kurashishi:

"Qo'limda qandaydir iliqlikni his etdim. Mushtimni tishlab qonatib yuboribman. Ko'zimdan yosh quyilib borardi. Nimadir qilishim kerak. Hasanni bu hayvonlarning changalidan qutqarishim kerak. Balki qocharman?"

Mana, qochib boryapman. Boshqa ilojim yo'q. Asef meni ham tutib olganida, nima bo'lardi?"

O'shanda do'stimni jirkanch kimsalar qo'lidan qutqarishni emas, faqat o'z jonimni xalos etishni o'ylardim. Tamom.

Otamning mehrini qozonish men uchun qimmatga tushdi". (10;150)

Yoki Amirning turmush o'rtog'i Surayyoning ichki kurashi, o'tmish gunohi va uni hal qilish borasidagi kurashlarini ifoda etishi:

"– Sizga hammasini aytmagandim. O'sha kuni... otam bizni topib keldi. Qo'lida miltiq. O'sha... yigitga «miltig'imda ikkita patron bor, bittasi sening, ikkinchisi mening umringa nuqta qo'ya-di» deb aytdi. O'shanda... og'zimga kelgan gaplar-

ni aytdim, dodladim, baqirib-chaqirdim. Unga...o'z otamga o'lim tiladim. – Surayyo hamon tinim- siz yig'lardi. – O'z otamga! Otam indamay qo'lim-dan tutib, olib chiqib ketdi. Uyda onam meni ko'z yosh bilan qarshi oldi. Meni quchoqlab turib yum-yum yig'ladi. Nimadir demoqchi bo'lar, lekin men uning gaplariga tushunmasdim". (10;155)

2. Qahramon va muhit: Asar qahramonlari va muhit o'rtasidagi konflikt romanning bir necha qismlarida aks etadi. Masalan, Amirning Afg'oniston hududidan chiqib ketish jarayoni, sovet askarlari bilan bo'lgan muloqot, benzovozdagi muhit,

yerto'ladigi sharoit, va nihoyat Amerika muhita va bizga tanish Amir. Bobo (Amirning otasi)ning Amerika muhitidagi dastlabki kunlari, General Tohiriyning Amerika muhitidagi hayoti, va uning o'z vataniga qaytish istagi, boshqa mamlakatda begonaligini his qilib yashashi va hokazolarni misol qilish mumkin.

3. Xarakterlararo konflikt. Asardagi ayrim ziddiyatlar ma'lum epizodlarda davom etib, keyinchalik g'oyib bo'lsa, ayrim ziddiyatlar asarning bosh qismidan boshlanadi, voqealar rivojlangan sari konflikt ham rivojlanib boradi va asar so'ngida yechiladi. Boboning sovet askari bilan tortishuvi, yoki haydovchi Karim bilan tortishuvi, Amerikadagi do'kon sotuvchisi bilan bo'lgan bahslar unchalik uzoqqa cho'zilmasa ham, Asef va Hasan, Asef va Amir konflikti asarning tugun qimidan boshlanib, epilogda o'z nihoyasiga yetadi.

Yuqoridagilardan tashqari yana asarda bir necha ziddiyatlarga guvoh bo'lish mumkin, lekin ularni ham konflikt turi deyishdan yiroqmiz.

1. Ayb va najot: Romandagi markaziy ziddiyatlardan biri Amirning Hasanga hujum paytida aralashmagani uchun chuqur aybdorlik hissi atrofida bo'ladi. Bu aybdorlik uning kattalar hayotida uni ta'qib qilishda davom etadi, uning qarorlari va harakatlarini shakllantiradi. O'tmish gunohlaridan qutilish uchun intilish Amir uchun harakatlantiruvchi kuchga aylanadi va asarning ko'p qismi uning o'tmishdagi xatolarini tuzatishga urinishlariga bag'ishlangan:

“Men majnuntol tagidagi o'rindiqqa cho'karkanman, Rahimxonning telefonda aytgan so'nggi so'zlarini esladim: «o'tmishdagi xatolaringni tuzatishing, nomingni oqlab olishing uchun

qulay fursat tug'ildi»” (10;180)

2. Ota va o'g'il munosabatlari: Amir otasi Boboning umidlari va ularning keskin munosabatlari bilan kurashadi. U doimiy ravishda otasiga o'zini ko'rsatishga ehtiyoj sezadi va uning roziligini izlaydi, lekin Boboning yuqori talablari va umidsizliklari Amirning ichki g'alayonlarini keltirib chiqaradi.

“Bobo mening ham qo'limdan ish kelishini ko'rib qo'ysin. Qachongacha o'z uyimda begonadek yashayman?” (10;58)

3. Madaniy o'ziga xoslik va mansublik: Amir o'zining chet davlatda yashovchi afg'on ekanligi bilan kurashmoqda. U kamsitish va noto'g'ri qarashlarga duch keladi va uning o'z o'rnini o'zgartirish hissi uning ichki ziddiyatiga hissa qo'shadi. Roman Amirning afg'on merosi va Amerikadagi hayoti o'rtasidagi ziddiyatni o'rganadi.

“– Iltimos, politsiyani bezovta qilmasangiz, – o'tindim ulardan. – Biz hozir ketamiz.

Men darhol cho'ntagimdagi bor pulni chiqarib, ularga yetkazilgan zararni to'ladim.

Er-xotinlarning qo'li hamon qaltirab turardi. Rost, Kobulda hamma bir-birini tanir,

bir-biriga ishonardi.

U yerda kredit kartasi o'rnida yassi tayoqchalar olib yurilardi. Ba'zan Hasan bilan non olgani borar, novvoy tayoqchani bir chetini kertib qo'yar, oying oxirida otam tayoqchadagi belgilarga qarab, novvoy bilan hisob-kitob qilar, hech qanday hujjat talab qilinmasdi." (10;80)

4. Xiyonat va do'stlik: Hasan va Amirning xiyonati do'stini qo'llab-quvvatlamasligi ichki ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Amir o'z harakatlarining oqibatlarini va ularning Hasan bilan munosabatlariga ta'siri bilan kurashadi. Roman do'stlik, sadoqat va xiyonatning murakkab jihatlariga chuqur kirib boradi.

"O'sha mash'um kunda, ivirsib yotgan tor ko'chada bir chetda biqinib o'tirganicha, ko'z o'ngimda ro'y bergan nohaqlikka aralashmaganimni Hasan

ham bilgan, balki meni ko'rgan hamdir? Men unga xiyonat qilayotganimni bila turib ham, meni qutqarishga urinayotir". (10;35)

5. Qo'rquv va ishonchsizlik: Amir ichki qo'rquv va ishonchsizlik bilan kurashadi, ayniqsa bolaligida. Bu qo'rquvlar ko'pincha uning Baba bilan bo'lgan munosabati, unga qo'yilgan jamiyatning umidlari va hikoyada sodir bo'lgan travmatik voqealar bilan bog'liq.

Ushbu ichki va tashqi ziddiyatlarni o'rganish qahramonlarga badiiy chuqurlik va murakkablik qo'shib, ularni bir-biriga bog'langan. Amirning ichki kurashlari romanning hissiy o'zagini tashkil qiladi va asarda qahramon bu to'qnashuvlar bilan kurashar ekan, yechim va shaxsiy o'sishni izlaydi.

"Shamol ortidan yugurib" nafaqat tashqi voqealar hikoyasi, balki inson ruhiyatini chuqur o'rganish, qahramonlarni shakllantiradigan ichki kurashlarini va ularning o'z-o'zini kashf qilish va qutqarish yo'lidagi jarayonni tasvirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Fozil Yo'ldosh, Hodi Zaripov Rustamxon [Book]. - Toshkent : Cho'lpon, 2016.
2. Hoshimov O'tkir Ikki eshik orasi [Book]. - Toshkent : Sharq, 2012.
3. London Jek Hayotga Muhabbat [Journal].
4. Qodiriy Abdulla O'tkan kunlar [Book]. - Toshkent : Navro'z, 2019.
5. Хемингуей Эрнест Чол ва денгиз [Book] / ed. ФОФУРОВ Иброҳим. - Тошкент : Ёш гвардия, 1986.
6. Дилмурод КУРОНОВ Адабиётшунослик лугати [Book]. - Тошкент : Akademnashr, 2013.
7. Ҳамдам Улуғбек Мувозанат [Book]. - Тошкент : Шарқ, 1997.

8. Ҳусайний Холид Минг қуёш шуъласи [Book]. - Тошкент : Янги аср авлоди, 2016.
9. Ҳусайний Холид Тоғлар ҳам садо берди [Book]. - Тошкент : Янги аср авлоди, 2016.
10. Ҳусайний Холид Шамол ортидан югуриб [Book]. - Тошкент : Янги аср авлоди, 2016.

MUHAMMAD YUSUFNING TARJIMALARI

Saydaxmedova Nigora Sulaymonovna

Namangan davlat universiteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrası

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: saydaxmedovanigora@gmail.com

Tel:+998974688833

ANNOTATSIYA

Muhammad Yusuf hayoti va ijodini, asarlarini o'rganish, so'z qo'llash mahoratini o'quvchiga etkazish uchun yuksak pedagogik mahorat, bilim zarur. Muhammad Yusuf adabiyotning turli janrlarida (maqola, she'r, hikoya, hajviya, doston) ijod qilib, asardan asarga o'sa borgan. Shoir barmoq vaznida yuksak saviyada ijod qilgan. Uning o'ziga xos iste'dodi, avvalo, shoir sifatida o'zbek she'riyatiga kiritgan yangiliklarida yorqin namoyon bo'ladi. Izlanishlarimiz davomida Muhammad Yusufning she'rlari, hajviyalaridan tashqari tarjima asarlari ham borligiga guvohi bo'ldik. Shoirning tarjima asarlari va tarjimonlik mahorati haqida dissertatsiyalar yoki u haqidagi kitob, maqolalarda fikr-mushohazalarni uchratmadik. Maqolada shoirning dostonlari hamda, yangi iste'dod qirrasini, tarjimasi ijodkorning benazir she'r-u dostonlari bilan birga lug'at boyligi, o'tkir didi, nozik ta'biga bog'liq ijodiy jarayonligi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: tarjimayi hol, maqola, she'r, hikoya, hajviya, doston, barmoq vazni, tarjima asarlar, Diop Mamadu Traope, Jabron Xalil Jabron.

MUHAMMAD YUSUF'S TRANSLATIONS

ABSTRACT

High pedagogical skills and knowledge are necessary to learn the life and work of Muhammad Yusuf, his works, and to convey the skill of using words to the student. Muhammad Yusuf created in various genres of literature (article, poem, story, comedy, epic) and grew from work to work. The poet created at a high level. His unique talent, first of all, as a poet, is clearly manifested in the innovations he introduced into Uzbek poetry. In the course of our research, we witnessed the existence of translated works of Muhammad Yusuf in addition to his poems and comics. We did not find any dissertations about the poet's translated works and translation skills, or opinions about him in books and articles. In the article, the epics of the poet and the new edge of talent, translation of the artist's unique poems and

epics, along with the wealth of vocabulary, sharp taste, and the creative process related to the delicate taste, are discussed in detail.

Key words: *biography, article, poem, story, comic, epic, finger weight, translated works, Diop Mamadou Traope, Jabron Khalil Jabron.*

KIRISH

Muhammad Yusufning sevgi lirikasi milliy tafakkur yo‘sini, ruhiyatining o‘zbekona koloriti, millatimizga xos andisha, tortinchoqlik va tuyqus qilinadigan dangallik ifodasi hamda quyucq mubolag‘a sof o‘zbekona ohanglarda jaranglashi bilan boshqalarnikidan ajralib turadi[7,189-bet]. Tuyg‘ularning betakror yo‘sinidagi she‘riy misralaridan tashqari, shoirning dostonlari, hajviyalari, tarjima asarlari ham mavjud. Muhammad Yusuf “Ey, dil”, “Qora quyosh”, “Ko‘hna quduq”, “Temirlar nidosi”, “Osmonning oxiri” kabi asarlarda dostonnavisligi zuhurlangan.

Dostonlardagi mahzunlik tariximizdagi qora dog‘lardan ko‘ngilga ko‘chgan iztiroblar aksidir. Tariximizda millatni sotganlar, bir-birini oyog‘idan tortganlar ozmuncha bo‘lganmi? Shoir yuragini qiynagan dardlar – o‘z tarixini yaxshi bilmaslik, og‘izbirlik yo‘qligidan iborat. U tarix haqida so‘z ocharkan, har bir so‘z zimmasiga tarixning “qora kun”ini rost ko‘rsatish vazifasini yuklaydi. Umuman, shoir yoki asar tili, kitob haqida so‘z ketganda professor Nizomiddin Mahmudovning quyidagi fikrlarini eslash o‘rinli bo‘lardi: “Kitobdagi so‘z rost va raso bo‘lishi, kitxonni ishontirishi, tuyg‘ulariga ta’sir qilishi yoki, kamida, bu tuyg‘ularni qiynamasligi shart. Aks holda, kitobning sariq chaqalik qiymati qolmaydi. Kitob badiiy bo‘ladimi, ilmiy bo‘ladimi, bundan qat’iy nazar, undagi til tugal, til idroki intizomi uchun ibrat maqomida bo‘lmog‘i lozim”[11]. Bizningcha, xuddi shunday xususiyat Muhammad Yusuf asarlarida yorqin seziladi. Shoir dostonlarida har bir so‘zning o‘z o‘rni bor. Shoirning so‘z qo‘llash mahorati mazmun mohiyatiga mos so‘zlarni kerakli joyda ishlatishida ko‘rinadi. Muallif dostonlarda arxaizmlardan ham, sheva so‘zlaridan ham me’yorda foydalanadi.

Izlanishlarimiz davomida Muhammad Yusufning she‘rlari, hajviyalaridan tashqari tarjima asarlari ham borligiga guvohi bo‘ldik. Shoirning tarjima asarlari va tarjimonlik mahorati haqida dissirtatsiyalar yoki u haqidagi kitob, maqolalarda fikr-mushohadalarni uchratmadik. Quyida shu masalalarga to‘xtalib o‘tganmiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarjima ijodkorning benazir she‘r-u dostonlari bilan birga lug‘at boyligi, o‘tkir didi, nozik ta’biga bog‘liq ijodiy jarayondir. Muhammad Yusuf Diop Mamadu Traopening “So‘zlarim senga” (1983)[5], Xarivontray Bachchanning “Toshkentdagi xabarlar” (1983)[14], Sh. Appazov “Kuz”, “Junjikma” (1984)[2], Neruda Pablo

(Chili) “Sotqin generallar” (1986)[13], Mikola Lukiv “Otam xatlari”, “Obolonida” (1987)[12], Jabron Xalil Jabron “Vardaxonim” (1991)[7, 84-b] hikoyalarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu tarjimalarda badiiy asarning mazmuni, badiiylik, ohangdorligi, muallifning asl niyati, asarning milliy xususiyati, she‘riy san’atlar jozibasi aks etgan. Shu bois bu asarlar ona tilida yaratilgan asardek sevib o‘qiladi. Albatta, bunda tarjimonning mehnatini alohida e‘tirof etish lozim. Tarjimon asarning badiiy konsepsiyasini to‘g‘ri idrok etgan va qayta yaratish jarayonida ko‘proq milliylikka e‘tibor qaratgan. Shoir asliyat ruhuni saqlagan holda, fikrni yanada bo‘rtirib ko‘rsatish uchun o‘zbek xalq maqollari, iboralari, go‘zal o‘xshatishlarni berishi ularning jozibadorligini yanada oshirgan.

Bizning fikrimizcha, tarjimon mehnatini alohida e‘tirof etish lozim. Jabronning “Vardaxonim” hikoyasi tarjimasida *“Bir narsani tagiga yetganday”, “Yolg‘iz farzandidan ayrilgan bechora onadek”, “Qo‘rqoqlikni siltab tashladim”, “Sizga yuragimni yozib, qalbimni ochmoqchiman”, “Meni bir mo‘jizadek ko‘z-ko‘z qilardi”, “biroq g‘aflatdan uyg‘onib”, “peshonamga yaraqlab chiqqan”, “go‘yo u ko‘zlari bilan yuragimga qo‘l solsa”, “dimog‘i ko‘tarilgan”* kabi ibora va o‘xshatishlar, tasirchan tasviriy vositalar badiiy matnda tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta‘minlashda faol qo‘llangan.

Kitobxon asarning yechimi va xulosasigacha oxiri yo‘q savol-javoblarga ko‘milib ketadi va nihoyat bir xulosaga keladi. “Ko‘pincha mag‘rurlik ayollarni kambag‘al erga xiyonat qilib, badavlat erkaklar tuzog‘iga ilintiradi. Chunki ayollardagi anvoiy kiyim-kechaklarga, lazzatli hayotga bo‘lgan havas ko‘zlarini ko‘r qiladida, iflos ishlarga yetaklaydi”[7, 104-b]. Vardaxonim esa bularning aksi, xizmatkorlar to‘la dang‘illama saroyini tashlab, bir dasta kitobidan boshqa hech vaqosi bo‘lmagan bir kambag‘al odamning uyini afzal ko‘radi. Vardaxonim dunyodan voz kechgan, an‘ana, tartib-qoidalarni inkor etgan, o‘zidan 30 yosh katta badavlat erkakning (Rashidbek No‘monga ko‘ngilsiz bo‘lgan) boyliklari ichida yashashni o‘g‘irlik, riyo deb biladi, u o‘zi uchun jasarot bilan erk yo‘lini tanlaydi. Shu o‘rinda bosh qahramonni Cho‘lponning “Kecha va kunduz”[15] asaridagi erksevar, jasur Zebi bilan qiyoslasak o‘rinli bo‘ladi. Har ikki qahramon ham xatarli biroq eng to‘g‘ri yo‘lni tanlaydi. Livan hududida, keyinchalik Amerika Qo‘shma Shtatlarida yashab ijod etgan arab yozuvchisi Jabron Xalil Jabron qalamiga mansub hikoya unda ko‘tarilgan mavzu, sharqiy va g‘arbiy adabiy an‘analarini omuxtaligi bilan ajralib turadi. O‘zbek kitobxonlariga uning asarlari hozirgacha yetib kelmagani, muallifdagi badiiy mushohada, uning falsafiy qarashlari, badiiy ifodadagi orginallik va boshqa-boshqa ijobiy nuqtalar meni qo‘lingizdagi hikoyani tarjima qilishga undadi – deydi tarjimon[7,94]. Aynan tarjimaning mustaqillik yilida amalga oshirilishi, inson

erki mavzusi yetakchi bo'lgani ushbu hikoya shoir didiga mos degan fikrdamiz. Tarjimalrni mahorat jihatdan tekshirish, o'rniga tushmagan, xato qo'llangan, yo qofiya talabi, o'zga tillar qoidalariga muvofiq kelmaydigan, nasriy asar, she'r mazmunini buzadigan, muallif fikrini o'zgartiradigan jihatlar mavjudligi mutaxassislar oldidagi vazifalardan biri.

She'riy tarjimalarda ham mahorat bilan topib qo'llangan badiiy kashfiyot darajasidagi so'zlar mavjud. Tatarchadan:

Bo'm-bo'sh bog'cha aylanar jim,

Ko'ngil zoriga:

"Yoshligimni bermas edim,

Dunyo moliga..." (Sh.Apazov "Kuz", 39- b.)

Tarjimon mahoratini aynan uning so'zga munosabati, u yoki bu so'zni qanchalik topib, o'z o'rnida qo'llay bilgan-bilmaganini boshqa tarjimalarida ham ko'rishimiz mumkin:

Sovuqlik... borsin o'z

Muzlari sari.

Toshsin muz taftidan

Tog' buloqlari.

Sovima shirador

Shinni misol, bas.

Bir mening yonishim bizlarga yetmas!

(Sh.Apazov "Junjikma")

Muhammad Yusuf she'rlarini ham tarjimonlar mahorat, iste'dod va izlanish samarasi o'laroq ustalik bilan kitobxonlarga taqdim etmoqdalar. Jumladan, rus kitobxonlari ham shoir ijodidan bebahra qolishmagan, R.Kazakbayeva "Узбекистан", "Признание", "Кристина", "Послестичи"; "Математика", "Тюльпанчик мой любимый балый мак степной" (Памяти Шавката Рахмона), "Застой", "Райхон" (Подражание Мухаммаду Юсуфу), "Жестокосердие", "Скучаю", "Под джидой", "Желание", "Тюбетейка", из поэмы "Чёрное солнце"[8], G. Reznikov "Если верой в Завтра окрылен ты", "Человек" "Я люблю тебя", "Марухский перевал"[6]; she'rlarini rus tiliga; B. Seytayev "Биз бахытлы боламыз"[3]; Erkin "Anamnan xat"[1] she'rlarini qoraqalpoq tiliga tarjima qilishgan. Ayniqsa, "Muhammed Yusuf secmeler"[16] nomli turkcha tarjima saylanmasi nashri, shoir tavalludining 2022-yil aprel oyida Amerika Qo'shma shtatlari, Turkiya mamlakatlarida keng nishonlanishi ham shoirga bo'lgan ehtiromning yuksak ko'rinishidir[16].

Hozirgi sharoitda adabiyot o'qituvchisidan aloqa o'rnatuvchi (kommunikatorlik) sifatiga ega bo'lish ham talab etiladi. Bunda sinfdagi barcha o'quvchilar bilan birdek ta'limiy aloqa o'rnatish, o'quvchilarni tinglay olish, muammoni yechish uchun mantiqiy izchillikka ega savollarni berish hamda o'quvchilarning savollariga qisqa, aniq, lo'nda va yo'naltiruvchi javob bera bilish, munozarani tashkillashtirish, o'quv xonasi (yoki auditoriya)da ijodiy muhitni hosil qilish kabilar alohida o'rin tutadi [15]. Ta'kidlash kerakki, tadqiqotlar, ba'zi metodik maqolalar yaratilganiga qaramay, darslikdagiga qo'shimcha tarzda sinfdan tashqari o'qish uchun shoir she'rlarini tanlashda quyidagilarni e'tiborga olish lozim:

- o'quvchilarning yosh xususiyatlarini;
- ularning umumiy adabiy tayyorgarligi, bilim va malaka hamda ko'nikmalarini;
- qishiqish, xohish va istaklarini;
- asarnimng ta'limiy va tarbiyaviy mazmun qamroviga egaligini;
- she'rlarning janr xususiyati;
- mashhurligini, ya'ni qo'shiqqa aylanganligini va boshqalarni va o'rganish metodikasini ishlab chiqish zarur.

Aytib o'tilganlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi zamon bilan hamnafas bo'lishi va shoir ijodini o'tishda nafaqat innovatsion metod va usullarni qo'llashi, balki axborot texnologiyalari sohasidagi yutuqlardan, internet materiallaridan ham foydalanish kerak. Qisqasi, shoir she'rlarini saralab olishda axloqiy-ta'limiy jihatning ustuvorligi pedagogik printsiptiga asoslanish lozim. Biz sinfdan tashqari o'qish uchun Muhammad Yusufning buyuk siymolar, Vatan mavzusiga "Bobur nidosi", "Usmon Nosir", "Samarqand", "Amir Temur", "Navoiy"; ijtimoiy-siyosiy mavzudagi "Do'ppi", "Talabalar madhiyasi", "Belbog'", "To'n haqida she'r"; tabiat mavzusidagi "Oq tulpor", "Erka kiyik", "Kapalaklar", "Jayron", "Ko'klamoyim", "Tilla qo'ng'iz" kabi she'rlarini tavsiya etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Анамнан хат: қосық // Еркин Қарақалпақстан, 2011, 15 январь.
2. Аппазов Ш. Куз; Жунжикма: шеърлар / Муҳаммад Юсуф тарж. // Ёшлик, 1983. – № 8. – Б.39.
3. Б. Сейтаев. Биз бахытлы боламыз: қосықлар / аўдарған Б. Сейтаев. – Нокис : Қарақалпақстан. – 47 б.
4. Диоп Мамаду Траоре.. Сўзларим сенга. Тошкент: шеър / Муҳаммад Юсуф тарж. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1983, 26 сентябрь.

5. Диоп Мамаду Траоре.. Сўзларим сенга. Тошкент: шеър / Муҳаммад Юсуф тарж. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1983, 26 сентябрь.
6. Если верой в Завтра окрылен ты: Человек; Я люблю тебя; Марухский перевал: стихи / перевод Г.Резниковского // Звезда Востока, 2010. – № 3, № 4. – С. 41–43.
7. Жаброн Халил Жаброн. Вардахоним: ҳикоя / Муҳаммад Юсуф тарж. // Шарқ юлдузи, 1991. – № 11. – Б. 104.
8. Йўлдошев Қ. Сўз ёлқини. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи 2018. – Б 189.
9. Кристина; Признание; Послестишие: стихи / перевод Р. Казакбаева // Наманганская правда, 2013, 27 апрель.
10. Қодиров Н. Муҳаммад Юсуф наманганликлар нигоҳида. Монография. – Наманган, 2016. – Б.180-190.
11. Қодиров Н. Муҳаммад Юсуф наманганликлар нигоҳида. Монография. – Наманган, 2016. – Б.122-127.
12. Маҳмудов Н. Сўзимиз рост ва расо бўлсин // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2014, 10 январь.
13. Никола Лукив. Отам хатлари; Оболонида: шеърлар / Муҳаммад Юсуф тарж. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1987, 10 июль.
14. Неруда Пабло (Чили). Сотқин генераллар; Ватан: шеърлар / Муҳаммад Юсуф тарж. // Тошкент оқшоми, 1986. 15 сентябрь.
15. Харивонтрай Баччан.Тошкентдаги хабарлар: шеърлар / Муҳаммад Юсуф тарж. // Ўқитувчилар газетаси, 1983, 21 сентябрь.
16. Sariboyeva M. Umum ta`lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o`rgatish: Ped. fan. nom... diss. – Toshkent, 2011.

Internet saytlar

https://azertag.az/xeber/Ankarada_boyuk_ozbek_sair_Muhammed_Yusufin_xatiresi_ehtiramla_yad_edilib-2080691

<https://vatandoshlarfondi.uz/news/shoir-muhammad-yusuf-tavallud-topgan-kun-amerika-qoshma-shtatlarida-keng-nishonlandi>

**MUHAMMAD YUSUF IJODIDA QO‘LLANILGAN
POETONIMLARNING LINGVOPOETIK, JIHATDAN TAHLIL QILISH
TAMOYILLARI**

Tojimatov Rasuljon G‘anijonovich

Turan xalqaro universiteti O‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada lingvistik tushuncha hamda poetonimlar lingvopoetik, sifatida muhokama qilinadi asosiy element til madaniyatni tushunish. Buni aniqladi bu hodisani har tamomlana tahlil qilish yordam beradi til muhitining tabiati va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash tadqiqotsiz tahlil qilib bo‘lmaydi.

Kalit so‘zlar: *metafora, onomastik, birliklar, poetonimlar, lingvopoetik, zoopoetonim, fitonim.*

ABSTRACT

The article discusses the linguistic concept and poetonyms lingvopoetic, as the main element of understanding language and culture. It is clear that a comprehensive analysis of this phenomenon will help to determine the nature and specific features of the language environment, which cannot be analyzed without research.

Key words: *metaphor, onomastic, units, poetonyms, linguopoetics, zoopoetonym, phytonym.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida badiiy matndagi onomastik birliklar (poetonimlar)ga oid tadqiqotlarda masalalarga yondashuvning ustuvorligi integrativ xarakterga ega ekanligidadir. Ularda allyuziv nomlar, onomastik metafora, badiiy matnning onomastik ko‘lami, nomlarning intertekstuallik bilan aloqador jihatlari kabi muammolarni o‘rganish, shuningdek, onomastik birliklarning lingvopoetik, lingvokulturologik omillarini ochib berish dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda ham milliy o‘zligimizni anglash, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, o‘zbek milliy va adabiy tili qo‘llanish doirasini kengaytirishga alohida e’tibor berilmoqdaki, natijada tilning xalq tarixi, madaniyati va ma’naviyatining o‘ziga xos ifodachisi, yuksak estetik qimmat hamda hadsiz ifoda imkoniyatlariga ega xazina ekanligi haqidagi oydin haqiqat barqarorlashmoqda.

Keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida ayrim olingan ijodkor badiiy mahsullarida lingvopoetik yondashuvning takomillashuvi badiiy matni tashkil qiluvchi til birliklarini har tomonlama tadqiq qilish masalasini muhim ahamiyatga ega vazifalarbiriga aylanmoqda. Chunki har qanday til birligi badiiy matnda

muallifning badiiy niyatiga xizmat qiluvchi bebaho vositaga aylanishi hamda o'ziga xos poetik qonuniyatlarni namoyon qilishi mumkin. Jumladan, onomastik birliklar ham bundan mustasno emas. O'zbek nomshunosligida onomastik birliklar (poetonim)ning umumnazariy masalalari bo'yicha bir qator tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, ularning badiiy matndagi estetik vazifalari, lingvopoetik xususiyatlari maxsus tadqiq qilinmagan. Xususan, tilimizdagi kishi nomlari, turli geografik ob'ektlarga qo'yilgan nomlar badiiy matnda muayyan ob'ekt nomigina bo'lib qolmasdan, balki ijodkorning xilma-xil badiiy niyatlarini ta'kidlash uchun ham xizmat qiladi. Bu esa onomastik birliklarga nihoyatda boy tilimizning mazkur birliklar vositasida yuzaga keluvchi ifoda imkoniyatlarini aniqlash, o'zbek badiiy matnlaridagi nomlarni xalqimizning tarixi, ma'naviy-madaniy qadriyatlarini bilan birgalikda o'rganish muhimligini ko'rsatadi. Dunyo tilshunosligining yangi ilmiy konhephiyalari asosida onomastik birliklarning badiiy matnni shakllantirishdagi o'rni va vazifalari, nomlarning nominativ vazifasidan tashqari ramziy ma'nolarni anglatishi, ularning lingvopoetik xususiyatlari, o'zbek lingvomadaniyatida tutgan o'rni kabi masalalarni tadqiq etish oldimizga qo'ygan vazifamizdan hisoblanadi.

O'zbek adabiyotshunos olimi Dilmurod Quronov o'zining "Badiiyat sirlari" maqolasida: taniqli adabiyotshunos M.Baxtin eng oddiy jumladan to yirik adabiy asarlargacha – barchasini "nutqiy janrlar" tushunchasi doirasida sharhlar ekan, ularni jarayondagi bir zanjir deb hisoblaydi. Darhaqiqat, nutq jarayonida aytilgan gan mazmuniga so'zlovchi bunga qadar aytgan gaplar (kengroq qaralsa, so'zlovchining bu gap ay tilgunga qadar shakllangan shaxsiyati) ham, boshqa muloqot ishtirokchilari aytgan gaplar ham ta'sir kiladi. SHunga qaramay, muayyan gapda so'zlovchining o'sha onda ongiyu qalbidan kechgan uy-hislari, modeligina mujassamlashadi. Demak, muayyan gapni butunning (nutk jarayonining) qismi sifatida ham, alohida yaxlit sifatida ham tushunishimiz mumkin⁷⁶, deya ta'kidlagan. Mazkur fikrlar, tabiiyki, badiiy asarga ham to'liq tegishlidir. Konkret asarni ham muallifning butun ijodi va davr adabiyoti kontekstida, ham alohida olingan holda tushunish mumkin. Xuddi gapga o'xshash, konkret asarda ham ijodiy jarayon – san'atkorning ijod onlaridagi uy-hislari, unga o'sha lahzalarda ayon bo'lgan olamu odam mohiyatining modeli akslanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishiga ko'ra, badiiy adabiyotda badiiy obrazni, xoh u jonli, xoh u jonsiz ramzlarni jonlantirishda otlarlar, atamalar yoki atoqli otlardan samarali foydalaniladi. Badiiy matnlarda qahramon ismi, adabiy personajlar nomi,

⁷⁶ Куронов Д. *Бадийят сирлари // Тафаккур. - 1998. – № 1. – Б. 78-83.*

joy nomlari, davr, asarlar, predmet ma'lum davr nomlari atoqli otlar bilan nomlanadi. Xususan rus tilshunos olimi A.Nikonov "Personaj ismi – badiiy obrazni yaratuvchi vositalardan biri bo'lib, u personajning ijtimoiy mansubligini, milliy va mahalliy koloriti: o'ziga xos belgisini xarakterlaydi, agar voqealar o'tmishda sodir bo'lgan bo'lsa tarixiy haqiqatni yaratishi mumkin", deb ta'kidlaydi⁷⁷. Ushbu fikrda, asosan badiiy asardagi atoqli otlar va ijtimoiy sharoitlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka e'tibor qaratilgan, badiiy matn tuzilishidagi xususiyat esa mustaqil birlik sifatida ifodalangan poetonimlarga qaratilgandir. Poetonim bu – (yunoncha) "she'riy san'at" va "ism" – adabiy asarda qo'llaniladigan har qanday atoqli ot⁷⁸.

Darhaqiqat, poetonimning ma'no maydoni faqatgina kontekstlarda namoyon bo'ladi, poetonim esa badiiy matnning yopiq dunyosidir. Uzoq yillar davomida badiiy matnda atoqli otlarni belgilashda adabiy antroponim asosiy termin bo'lib hisoblangan. Antropoetonim yunoncha "odam" va poetonim) – badiiy asarda tilga olingan lirik qahramon, personaj, badiiy ifodaning sub'ektidir.

Badiiy asar tilini o'rgangan tilshunoslar tadqiqotlar avvalida adabiy antroponim deganda faqatgina muallif tomonidan yaratilgan atoqli otlarnigina nazarda tutishgan. Badiiy asarlarda personajlarning nomlari sifatida ishlatilgan aniq tarixiy shaxslarning atoqli otlari bundan mustasno bo'lgan. Keyinchalik badiiy obrazlarni jonlantirishda ishtirok etadigan barcha atoqli otlarni adabiy antroponimlar nomi bilan o'rganildi.

Badiiy asardagi atoqli otlarning barcha bo'limlariga mos keluvchi universal termin sifatida tanlash zarurati paydo bo'lganligi sababli poetik onomastika uchun poetonim termini tanlab olingan.

Poetonim terminining mazmun mohiyatini kengaytirish talab etilgan. "Onomastik terminologiya lug'ati" da uning quyidagi ma'nolari beriladi: poetik nom (poetonim) – stilistik va ideologik vazifasini xarakterlovchi xususiyatga ega badiiy adabiyotdagi unsurdir. O'ylab topilgan ismlar toifasiga kiradi, ammo odatda yozuvchilar tomonidan aniq mavjud bo'lgan nom – ismlar qo'llaniladi⁷⁹.

Ta'kidlanishicha, badiiy matn ijodkorning dunyoni, voqelikni obrazli-estetik idrok qilishi mahsuli sifatida paydo bo'ladi. Badiiy matnning yaratilishi ham, uning uzi ham, badiiy butunlik sifatida o'quvchi (tinglovchi) tomonidan tushunilishi, idrok etilishi xam murakkab estetik faoliyatdir⁸⁰.

O'zbek tilshunosligida maydonga kelgan ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan badiiy asar tilini umumiy tamoyillar asosida lingvopoetik taxlil olib borilganda, O'zbekiston

⁷⁷ Никонов В. А. Имя и общество. – Москва, 1974. – С. 234.

⁷⁸ Силаева Г.А. О содержании понятия "литературный антропоним" // Русская ономастика. Рязань, 1977. – С. 152.

⁷⁹ <http://imja.name/pohtonimy/termin-pohtonim.shtml>

⁸⁰ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.148.

xalq shoiri Muhammad Yusufning estetik butunlik sifatidagi badiiy asarlarining mohiyati va mahoratini xolis baholash mumkin bo‘ladi.

Keyingi yillarda dunyo filologlarining diqqat markazida bo‘lgan masalalardan biri onomastik birliklarning badiiy matndagi o‘rni masalasidir. Bu borada onomastik birliklarga badiiy matnning ko‘pqatlamliligini ta‘minlovchi poetik vosita sifatida yondashilgan bir qator tadqiqotlar yaratildi. O‘zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari, muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati kabi masalalar maxsus o‘rganilgan. Jumladan, I.Mirzaev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.YAqubbekova hamda M.Yo‘ldoshevlarning tadqiqotlari ilmiy-nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega⁸¹.

Tilshunoslikda poetik onomastika masalasi, onomastik birliklarning badiiy matndagi vazifalari, prehedent nom, onomastik metafora, “so‘zlovchi” nomlar, allyuziv nomlar mohiyati hamda badiiy matnning onomastik ko‘lami tadqiq qilingan ilmiy tadqiqotlarda onomastik birliklarga badiiy matnning ko‘pqatlamliligini ta‘minlovchi poetik vosita sifatida yondashilgan⁸². Ularda nomlarning badiiy asardagi vazifalari xususida fikrlar bildirilgan. Jumladan, ayrim tilshunoslar nomlar badiiy matnda nominativ vazifa bilan bir qatorda tavsifiy, g‘oyaviy, estetik va ramziy vazifalarni bajaradi, deb hisoblasa, ayrim ishlarda nomlarning o‘xshatish vazifasida kelishiga asosiy e‘tibor qaratilgan, ba‘zilarida metaforik ma‘no kasb etishi alohida vazifa sifatida ko‘rsatilgan.

Ma‘lumki, qadimiy poetika fanining tilshunoslikka tatbiqi natijasida bu boradagi tadqiqotlar samarasi ham, qamrovi ham benihoya kengayib ketdi. Hatto ishlar shu darajada takomillashdiki, XX asr avvalida o‘rtaga tashlangan fikrlar etilib, o‘tgan asr oxirida poetikaning maxsus turi – lingvopoetika paydo bo‘ldi. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi fanlararo hamkorlik tamoyiliga asoslangan bo‘lib, bunda badiiy matn, poetika va tilshunoslikning xususiy muammosi hisoblangan onomastika sohasi muayyan maqsad asosida o‘zaro birlashadi. Soha terminologik

⁸¹ Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992; Нурмонов А. Тилшуносликнинг адабиёт билан муносабати // Танланган асарлар. 3 жилдли. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 3-жилд. – Б. 163; Махмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51; Шу муаллиф. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б. 34-36; Шу муаллиф. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б. 12-17; Якуббекова М.М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Шу муаллиф. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009; Каримов Қ. «Кутадғу билиг» асариди учрайдиған шахс номлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1967. – № 2. – Б.42;

⁸² Магазаник Э.Б. Поэтика имен собственных в русской классической литературе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1967; Шу муаллиф. Ономапоэтика или «говорящие имена» в литературе. – Ташкент: Фан, 1978; Гаррапова Г.Х. Поэтическая ономастика прозы Мухаммета Магдеева: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2000

tizimidagi asosiy terminlardan biri “poetonim”dir. “Poetonim” termini ilk bor 1956 yilda V.M.Mixaylov tomonidan qo‘llangan bo‘lib, mazkur termin mohiyatan “badiiy asarda qo‘llangan har qanday ism”ni ifodalash uchun ishlatilgan⁸³. Keyinchalik S.I.Zinin ushbu terminga alohida diqqat qaratgan va bir qator tadqiqotlar olib borgan. Mazkur tadqiqotlar ayni soha terminologiyasini tartibga solgani, “poetonim” sifatida har qanday onomastik birlik emas, balki badiiy yuki, poetik qimmatini bor nomlarga tushunilgani bilan ham muhim. S.I.Zinin poetik yuki bor shaxs nomlarini “poetik antroponim”, poetik yuki bor joy nomlarini “poetik toponim” hamda ayni xususiyatli hayvon va qush nomlarini esa “poetik zoonim” deb atagan⁸⁴. Bizningcha ham, badiiy matndagi har qanday nom emas, balki ijodkor badiiy niyatini yoritishga xizmat qilgan nomlar poetonim termini ostida o‘rganilishi maqsadga muvofiq. Chunki ayni termin onomastik birliklardan yasaladigan poetonimlarning ichki turlarini nomlashda ham qulaydir. Biz tilshunos olimi Dilrabo Andaniyazova fikrlariga qo‘shilgan holda, poetik yukli shaxs nomlariga nisbatan “antroponim” emas, balki “antropoetonim”, hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar uchun “zoopoetonim”, joy nomlariga nisbatan “topopoetonim” tarzidagi sof sohaviy terminlarni qo‘llash sohaga oid terminlarni bir qadar tartibga solishga yordam beradi, degan fikrlari⁸⁵ tarafdorimiz. Olima ta’kidicha, onomastik birliklar badiiy matnda onomastik metafora, allyuziv nom, “so‘zlovchi” nom kabi lingvopoetik vazifalarda keladi. Shuningdek, bu birliklar ijodkorning sub’ektiv munosabatini ifodalab keluvchi, matni shakllantiruvchi vosita hamdir. Nomlarning yuqoridagi vazifalari badiiy matnda boshqa lingvopoetik vositalar qatorida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon adabiyotining buyuk namoyandalari adabiy merosida, har bir millatning taniqli shoir yoki yozuvchisining har bir she’riy, nasriy, dramatik asarlardagi poetonimlar ijodkorning o‘ziga xos badiiy tafakkuri va iste’dodi qirralarini namoyon etadi.

“Koinot qachonlardir bir nuqtaning, bir zarraning portlashidan paydo bo‘lgan, deyiladi. Agar shu fikr to‘g‘ri bo‘lsa, poetik so‘z, ya’ni she’riyatning mohiyatida lohududga sochilib ketgan koinotni to‘plab, sidirib, yana o‘sha nuqtaning ichiga sig‘dirish istagi yotadi”, – deydi Ramiz Ravshan. Va, shoirning zimmasidagi qutlug‘ vazifa haqida gapirib: “har bir asl shoir Tangrini o‘z ona tilida tasvirleydi va haqiqiy shoir Tangri diydorini tilab, qushday, qanot qoqa-qoqa, o‘z tilining osmonini kengaytiradi”, -deydi. Qushning qanot qoqishidan ohang yaraladi, kuyga aylanadi,

⁸³ Калинин В.М. Поэтика собственных имен в произведениях романтического направления: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Донецк, 1987. – С. 4.

⁸⁴ Зинин С.И. Имена персонажей в художественной литературе и фольклоре / С.И. Зинин, А.Г. Степанов // Антропонимика. – М., 1970. – С. 330–355

⁸⁵ Анданиязова Д.Р. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – Б.12.

soʻzga aylanadi. Shu bepoyon osmon qushlarga va shoirlarga armugʻon qilindi, deya bejiz aytilmaydi⁸⁶.

Oʻzbek shoiri Muhammad Yusuf badiiy soʻz olamidan maydonga kelgan har bir sheʼridagi poetonimlarda shoir hayoti davomidagi kuzatishlari, quvonchu iztiroblari, hayajoni, ruhiy tushkunliklari, baxt va baxtsizliklari, yorugʻ olam va insoniyat taqdiri borasidagi oʻy-mulohazalari, qomusiy bilimi, cheksiz-chegarasiz zakovati oʻz ifodasini topgan.

SHoir ijodining badiiy olamida poetonimlar katta oʻrin tutadi. Masalan, *rayhon* fitonimi “jannat hidi”, “olamdagi tengsiz ifor” maʼnosida qoʻllash oʻzbek badiiy nutqida anʼanaga aylangan boʻlib, buni quyidagi misolda koʻrish mumkin:

Rayhon hidlaringni

Yoʻllaringa sep...

YOki

Boʻyi rayhon yurtimning

Qadrin bilib yurdimmi.

Kulganda shod...

Oʻzbek tilida *rayhon* (fitonim) poetonimi oʻzida “oʻta shirin hidli”, “jannat ifori”, “tengsiz iforli” kabi maʼno yukini oʻz zimmasiga olgan holda, M.YUusuf qalamida falsafaning tildagi umumiylik va xususiylik kategoriyasining voqelanishiga guvoh boʻlamiz. SHoir sheʼr bagʻishlagan shaxsning oʻzigagina xos barcha individual ijobiy hususiyatlari shu birgina soʻzga mujassam eta olgan. “Sen xushboʻy ayolsan”, “suluvlikda tengsizsan”, “goʻzalligingni tengi yoʻq” kabi anʼnaviy taʼrif va sifatlashlardan qochib, ular zimmasidagi poetik mazmun yukini birgina “rayhon” poetonimi zimmasiga yuklagan va oʻzbek tili badiiy uslubi uchun oʻziga xos yangi, yaʼni “rayhon hid” birikmasini yaratib bera olgan.

Sheʼrdagi “rayhon” poetonimining yana bir vazifasi sifatida ularning allyuziv nom sifatida qoʻllanib, matnlarda katta hajmli axborotni ixcham shaklda ifodalash imkoniyatini yuzaga keltira olgan.

ADABIYOTLAR ROʻYHATI (REFERENCES)

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Xalq soʻzi, 2017 yil 23 dekabr. 258-son.
2. Quronov D. [Badiiyat sirlari // Tafakkur. - 1998. – № 1. – B. 78-83](#)
3. Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – B.148.
4. <http://imja.name/pohtonimy/termin-poehtonim.shtml>

⁸⁶ Юлдашев М. Муҳаммад Юсуфни англаш //ЎзДСМИ хабарлари. – Тошкент,2020. №3(15). – Б.28-30.

5. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.148.
6. Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1992; Нурмонов А. Тилшуносликнинг адабиёт билан муносабати // Танланган асарлар. 3 жилдли. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 3-жилд. – Б. 163; Махмудов Н. Ойбек шеърятдаги ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1985. – № 6. – Б. 48-51; Шу муаллиф. Абдулла Қаҳҳор хикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1987. – № 4. – Б. 34-36; Шу муаллиф. Шайхзода сўзининг лингвопоэтикасига чизгилар / Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент, 2009. – Б. 12-17; Якуббекова М.М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2005;
7. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Шу муаллиф. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2009;
8. Каримов Қ. «Қутадғу билиг» асарида учрайдиган шахс номлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1967. – № 2. – Б.42;
9. Магазаник Э.Б. Поэтика имен собственных в русской классической литературе: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарканд, 1967; Шу муаллиф. Ономапоэтика или «говорящие имена» в литературе. – Ташкент: Фан, 1978;
10. Гаррапова Г.Х. Поэтическая ономастика прозы Мухаммета Магдеева: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2000
11. Калинин В.М. Поэтика собственных имен в произведениях романтического направления: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Донецк, 1987. – С. 4.
12. Зинин С.И. Имена персонажей в художественной литературе и фольклоре / С.И. Зинин, А.Г. Степанов // Антропонимика. – М., 1970. – С. 330–355.
13. Анданиязова Д.Р. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – Б.12.
14. Юлдашев М. Муҳаммад Юсуфни англаш //ЎзДСМИ хабарлари. – Тошкент,2020. №3(15). – Б.28-30.

REALISTIK RANGTASVIRNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Muxamadkodir Tadjimadovich Yunusaliyev

Fargʻona davlat universiteti katta oʻqituvchisi,

godirjon060858@gmail.com

+998 93 642 24 43

ANNOTATSIYA

Davlat taʼlim standarti boʻyicha, talabalar naturadan realistik yoʻnalishda rasm chizish qoidalarini oʻrganar ekanlar, ular realistik yoʻnalishni maʼzmuni hamda uni tasviriy sanʼatning tarixiy jarayonida paydo boʻlishidagi omillar va sabablarini shuningdek realistik sanʼatning maqsad va vazifalari haqida maʼlum bir oʻziga hos konkret tushunchaga ega boʻlishlari shart. Chunki realistik yoʻnalishdagi rangtasvirning oʻziga hos ishlash qonun qoidalari mavjud boʻlib, undagi qoidalarni talabalar aniq tushungan holda puxta oʻzlashtirishlari kerak boʻladi. Aks holda talabalar klassitsizm bilan romantizm, akademizm bilan naturalizm yoʻnalishlari tamoyilidagi asosiy jihatlarini bir-biriga nisbatan farqlamasdan turib realistik rangtasvirni mohiyatiga tushunib yetolmaydilar. Shunday ekan yuqorida keltirilgan ushbu yoʻnalish oqimlarida ishlangan tasviriy sanʼat asarlarining bir-biridan farqlash talabalar uchun dolzarb masaladir. Quyidagi ushbu maqolada tasviriy sanʼatning tarixiy jarayonida, klassitsizm, akademizm, naturalizm, romantizm va impressionizm yoʻnalishlari tamoyillaridagi tafovutlari va ularga nisbatan realistik yoʻnalishning asosiy farq qiluvchi jihati boʻlgan qoidalari asosiga qaratilgan maqsad va vazifasining maʼzmuni hamda oʻziga hos xususiyatlari yuzasidan muammoli vaziyat yechimlari tahlili berilgan.

Kalit soʻzlar: *Klassitsizm, naturalizm, akademizm, romantizm, impressio-nizm, realizm, yoʻnalish, janr, oqim, estetik, badiiy pozitsiya, antik davr, yangi burilish, ilgʻor jamoatchilik kayfiyati, milliy madaniyat, milliy adabiyot, Barbizon maktabi, fazoviy perspektiva, plastik anatomiya.*

АННОТАЦИЯ

Согласно государственному образовательному стандарту, изучая правила рисования с натуры в реалистическом направлении, учащиеся будут понимать содержание реалистического направления, а также факторы и причины его возникновения в историческом процессе изобразительного искусства, а также будучи реалистичными, они должны иметь конкретное понимание целей и задач искусства. Существуют определенные правила реалистической живописи, и учащиеся должны усвоить их с четким пониманием. В противном случае учащиеся не смогут понять сущность реалистической живописи, не

выделив основные стороны классицизма и романтизма, академизма и натурализма. Поэтому перед студентами остро стоит вопрос разграничения произведений изобразительного искусства, созданных в потоках вышеуказанных направлений. В данной статье дается анализ различных сторон классицизма, натурализма, академизма, романтизма и импрессионизма в историческом процессе изобразительного искусства и основная цель и задача реализма по отношению к ним, а также варианты решения проблемной ситуации.

Ключевые слова: Классицизм, натурализм, академизм, романтизм, импрессионизм, реализм, направление, эстетика, художественная позиция, античность, жанр, течение, новый поворот, передовые общественные настроения, национальная культура, национальная литература, барбизонская школа, пространственная перспектива, пластическая анатомия.

ABSTRACT

According to the state educational standard, by studying the rules of drawing from life in a realistic direction, students will understand the content of the realistic direction, as well as the factors and reasons for its emergence in the historical process of fine art, and also being realistic, they must have a specific understanding of the goals and objectives of art. There are certain rules of realistic painting and students must learn them with a clear understanding. Otherwise, students will not be able to understand the essence of realistic painting without highlighting the main aspects of classicism and romanticism, academicism and naturalism. Therefore, students are faced with the acute issue of distinguishing between works of fine art created in the streams of the above directions. This article provides an analysis of the various aspects of classicism, naturalism, academicism, romanticism and impressionism in the historical process of fine art and the main goal and task of realism in relation to them, as well as options for solving the problem situation.

Key words: *Classicism, naturalism, academicism, romanticism, impressionism, realism, direction, aesthetics, artistic position, genre, flow, antiquity, new turn, advanced social sentiments, national culture, national literature, Barbizon school, spatial perspective, plastic anatomy.*

KIRISH

Realistik rangtasvir obyektiv voqelikni tabiiy va tipiklik belgilarini haqqoniy aks ettirishni o‘zining asosiy maqsadi qilib qo‘ygan yo‘nalishdir.

Realizm – bu estetik va badiiy pozitsiya bo‘lib, unga ko‘ra san‘atning vazifasi haqiqatni iloji boricha aniq va ob‘ektiv tasvirlashdir. Biroq shu bilan birga, voqelik va



***N. Pussen "Vaqt musiqasiga raqs"
1636.(klassitsizm)***

voqelikning falsafiy tushunchalarini haqqoniy va shunga mos ravishda san‘atdagi realizm va naturalizm tushunchalarini farqlash zarur. Tasviriy san‘at rivojida, asosan rang-tasvirda realizm ijodiy yo‘nalish sifatida klassitsizm, romantizm va akademizmning yetakchi rolini buzib, rad etdi.

Klassitsizm so‘zi lotinchadan olingan bo‘lib XVII-XVIII asrlar Yevropa san‘atida «namunali» badiiy yo‘nalish bo‘lib, qadimiy antik davr klassiklarning

ideallariga qaratilgan. Bunga Nikola Pussenning 1636-yillarda ishlagan «Vaqt musiqasiga raqs» nomli asarini misol keltirishimiz mumkin. Akademizm XVI-XIX asrlarda san‘at akademiyalarida rivojlangan Yevropa san‘atidagi yo‘nalish bo‘lib, u mumtoz san‘atning tashqi ko‘rinishlariga dogmatik



**Frensis Kots. «Ayol» portreti 1768y.
(akadevizm)**



**E.Preyer. «Natyurvort» 1873
y.(naturalizm)**

amal qilishga asoslanadi. Akade-miklik badiiy ta'limni tizimlash-tirishga hamda klassik an'analarni mustahkamlashga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi, u "abadiy" qonunlar va qoidalar tizimi deb hisobladi. Akademizm yo'nalishi-ning e'tiborga loyiq bo'lgan jihatlarini Frensis Kotsning 1768-yillarda ishlagan «Ayol portreti» nomli asarida ko'rishimiz mumkin.

Naturalizm keng ma'noda: voqelikni ko'rinishidagi barcha tafsilotlarni to'liq va mutlaqo aniq aks ettirish tendensiyasidir. Tasviriy san'atda bu tendentsiya doimiy ravishda namoyon bo'lib, vaqti-vaqti bilan muay-yan tarixiy yo'nalishlar, oqim-lar, maktablar, alohida ustalar-ning ijodiy uslublari va usullarida shakllandi.

Naturalizm yo'nalishining xarakterli jihatini nemis naturalist rassomi E.Preyer tomonidan 1873-yilda yozilgan natyurmortda ko'rishimiz mumkin. Natyurmortdagi narsalarni tabiiy ko'rinishini yuqori aniqlikda ko'chi-rilgan, hatto qo'nib turgan pashsha ham nazardan chetda qolmagan.

Romantizm va realizm haqida so'z yuritishdan avval quyidagi to'rtinchi va beshinchi rasmlarda tasvirlangan «Eman daraxtlari» nomli bitta manzarani ikki

buyuk rus rassomlari tomonidan turli vaqtlarda ikki hil yo‘nalishda tasvirlangan. Biri haqiqiy romantizm yo‘nalishi vakili Arxip Kuindji [1-44], ikkinchisi realizm



**A.Kuindji «Eman daraxtlari» 1905 y.
(romantizm)**



**I.Shishkin. «Eman daraxtlari» 1886
yil.(realizm)**



**«Etretadagi qoyalar» 1869 y.G.Kurbet
(realizm)**

yo‘nalishi-ning yirik namoyon-dasi buyuk o‘rmonlar kuychisi Ivan Shishkin tomonidan tasvir-langan bo‘lib, u uchun borliqni haqiqiy ko‘rinishini real tarzda tasvirlash muhim bo‘lgan va unga erishgan [2-45]. Bu ikki asarni bir-biriga taqqoslaganda romantizm bilan realizm yonalishlari qoidalarini yaqqol sezish mumkin.

Romantizm XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmida Evropa va Amerika madaniyatidagi g‘oyaviy-badiiy yo‘nalish bo‘lib, shaxsning ma’naviy va ijodiy hayotining ichki his tuyg‘ularini tasdiqlovchi, kuchli ehtirolarga boy xarakterlarni ruhiy holatini hamda tabiat manzaralarini shifobaxsh ekanligiga ishora beruvchi ertaknamo ekzotik tarzda tasvirlash. U inson faoliyatining turli sohalariga tarqaldi. XVIII asrda haqiqatda emas, balki kitoblarda mavjud bo‘lgan g‘alati, chiroyli va mavjud bo‘lgan hamma narsa romantik deb atalgan. XIX asrning boshlarida

romantizm klassitsizm va akademizmga qarama-qarshi bo‘lgan yangi yo‘nalishning belgisiga aylandi.

Realizm XIX asr boshlarida romantizm tubida shakllana boshladi. Bu yangi burilish ilg'or jamoatchilik kayfiyati va millatlar, milliy madaniyatlar



*K. Mone. 1886 y. Avtoportret.
(impressionizm)*

shakllanishining kuchayishi, etnik tarix va madaniyatga, birinchi navbatda, milliy adabiyotga qiziqish bilan bog'liq edi. Rangtasvirda "realism" atamasining paydo bo'lishi odatda fransuz rassomi Gustav Kurbetning (1819-1877) ishi bilan bog'liq bo'lib, u 1855-yilda Parijda maxsus yaratilgan "Realizm pavilyonida" shaxsiy ko'rgazmasini ochgan, garchi undan oldin bo'lsa ham. Barbizon maktabining rassomlari realistik tarzda ishladilar (Teodor Russo, Jan-Fransua Millet, Jyul Breton). 18-asrning 70-yillarida realizm ikki asosiy yo'nalishga bo'lingan - akademik san'atdagi naturalizm va impressionizm, ularning vakillari dastlab o'zlarini naturalistlar deb atashgan.

MUHOKAMA

Realizm – bu tomoshabinni hayratda qoldirish darajasida batafsil, fotografik aniqlikda bajarilgan san'at asaridir.

Impressionizm – (*fransuzcha impression so'zidan olingan bo'lib – taassurot demakdir*) – bu oqimdagi rassomlarining vazifasi havo muhitidagi tabiat ko'rinishini, o'zlarining hissiyotlari orqali tomoshabinga etkazishdir. Bu oqim 1860-yillarda boshlanib, 1874-yilda birinchi marta Parijda «impressionistlar» ko'rgazmasini tashkil qildilar [3-12]. Bu ko'rgazmada Klod Mone, Pyer Ogyust Renuar, Edgar Dega, Eduard Mane, Alfred Sisley, Kamil Pissarro kabi Fransuz impressionist rassomlarining ijodiy asarlari joy olgan edi. 1870 yillardan realistik oqim Rossiya o'lkalariga yoyila boshladi va u yerda realistic rangtasvir misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. A.K.Savrasov, I.K.Ayvazovskiy I.E.Repin, V.I. Surikov, V.A.Serov, I.I.Levitan, I.I.Shishkin, K.P. Bryullov va hoko-zo shu kabi bir qator rus rassomlari o'zlarining ijodlari bilan realizm san'atini yanada boyitdilar. Pavel Benkov, Nikolayev Aleksandr (taxallusi usta Mo'min) kabi bir qator rus realistic oqimi rassomlarining 1930-yillardan O'zbekistonga kelib ijod qilishi U.Tansikboyev, Ch.Ahmarov, R.Ahmedov, N.Abdullayev, S.Abdullayev, N.Qo'ziboyev kabi o'zbek

rassomlari kabi keksa avlod vakillarining shakllanishiga turtki bo'ldi. Ular o'zbek realistik san'atini rivojlanishiga muhim poydevor vazifasini o'tadilar.

NATIJARLAR

Davr talabi darajasidagi pedagog rassomlarni tayyorlashda realistik san'atning asosiy vazifasi shundan iboratki borliqni haqqoniy tasvirlashda realizmning asosi bo'lgan perspektiva va plastik anatomiya fanlari qonuniyatlari asosiga tayanadilar. Busiz zamonaviy davr talabidagi kadrlarni tayyorlashning iloji yo'q. Chunki kelajak avlodni tafakkurida estetik ong va ijodiy salohiyatni shakllantirishda realizmning asoslari muhim ro'l o'ynaydi.

XULOSA

Shuning uchun ham davlat ta'lim standarti talablarida berilgan amaliy dars mashg'ulotlarini realizmning asoslariga tayangan holda, bosqichma-bosqich qoidalar asosida bajarish nazarda tutilgan.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Виталий Манин. «ИВАН ШИШКИН». Издательство «Белый город». г. Москва. 2004 г. 44 – 48.
2. TolipovN., AbdirasilovS., OripovaN. «RANGTASVIR» (2-qism). O'quv qo'llanma, Toshkent., 2003. TDPU –B. 5–19.
3. В. А. Кулаков. «КЛЮД МОНЕ». Издательство «Изобразительное искусство». г. Москва. 1989 г. 5 –12.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Юнусалиев, М., Мадаминов, Н., & Мамуров, А. (2022). МЕТОДИКА РАБОТЫ НАД РИСОВАНИЕМ НАТЮРМОТА. *Research Focus*, 1(2), 326-332.
2. Soliyev, O. R. (2022). TASVIRNING ASARGA AYLANISHIDAGI MUHIM OMILLAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 61-64.
3. Yunusaliyev, M. T., & Sulaymonova, S. B. (2022). AKVAREL TEXNIKASIDA YORUG'LIK VA RANG MUNOSABATLARIDA RANGLAR GAMMASINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 850-857.
4. Sohibov, R. (2023). RANGLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA ULARNING AMALIY SAN'ATDA QO'LLANILISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(7), 74-80.
5. Yunusaliyev, M. T., & Sulaymonova, S. B. (2022). QALAMTASVIRDA PERSPEKTIVANING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1039-1044.

6. Yunusaliev, M. (2023). THE VALUE OF WATERCOLOR AND GOUACHE MATERIAL IN THE TECHNIQUE OF WATER-BASED PAINT. *Science and innovation*, 2(C9), 5-10.
7. Madaminov, N. M., Yunusaliyev, M. T., & Mamurov, A. A. (2022). TASVIRIY SAN'ATDA RANGLAR GARMONIYASI (ЦВЕТОТЕРАПИЯ) ORQALI INSONLARNI DAVOLASHNING O'ZIGA XOSLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1265-1272.
8. Курбанова, Б. М., Юнусалиев, М., & Арзиева, Н. (2022). ОСОБЕННОСТИ ТЕХНИКИ: АКВАРЕЛЬ, МАСЛО И ГУАШЬ. *Research Focus*, 1(2), 319-325.
9. Курбанова, Б. М. (2022). ТВОРЧЕСКИЕ СПОСОБНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ЗАНЯТИЯХ ПО СОЗДАНИЮ ПОРТРЕТА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1051-1057.
10. Yuldashev, I. T., & Axmedova, N. E. (2022). DEKORATIV KOMPOZITSIYALARNI BAJARISHDA RANG MUNOSABATLARIDAGI O'ZARO UYG'UNLIK. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 989-995.
11. Arziyeva, N., & Dodoboyev, A. (2022). TASVIRIY SAN'AT VOSITASIDA O'QUVCHILARINING BADIY VA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 996-1002.
12. A'Zamjonov, A., & Hamdamov, K. H. (2022). TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARI MAZMUNI-INING DAVLAT TA'LIM STANDARTLARI BILAN BOG'LIQLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 71-77.
13. Sulaymanova, S. (2023). ЗНАЧЕНИЕ ПЕРСПЕКТИВЫ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ И ОСОБЕННОСТИ ЕЕ ПРИМЕНЕНИЯ. *Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 75-79.
14. Sulaymanova, S. (2022). TALABALAR RANGTASVIR VA QALAMTASVIR FALARIDAN TOPSHIRIQLARNI MUSTAQIL BAJARISHDA PERSPEKTIVAGA RIOYA QILISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TALABLAR. *Science and innovation*, 1(B8), 1559-1564.
15. Sulaymanova, S. (2023). TASVIRIY SAN'AT FANLARIDA PERSPEKTIVANING MUHIM AHAMIYATI VA UNING QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 16-16.

16. Ozodbek, S., Muhammadjon, O. R., & Sevaraxon, S. (2022). MARKAZIY OSIYO XALQLARI TASVIRIY SAN'AT TARIXINING FANDAGI O'RNII. *Research Focus*, 1(2), 259-263.
17. Yunusaliyev, M. T., & Sulaymonova, S. B. (2022). AKVAREL TEXNIKASIDA YORUG'LIK VA RANG MUNOSABATLARIDA RANGLAR GAMMASINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 850-857.
18. Sadikovna, S. G., Kurbonova, B., Akhmedova, N., & Sulaymanova, S. (2020). FUNDAMENTALS OF PROFESSIONALISM DEVELOPMENT ON THE EXAMPLE OF PRACTICAL EXERCISES ON FORMING THE SKILLS AND.
19. Sulaymanova, S. B. Q. (2022). BADIY YO'NALISHDAGI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TASVIRIY SAN'ATDA PERSPEKTIVAGA RIOYA QILISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK NAZARIYA VA TA'LIM AMALIYOTIDAGI TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 16-23.
20. Sulaymonova, S. B. Q. (2021). TASVIRIY SAN'AT ORQALI DUNYO SIVILIZATSIYASINI O'RGANISH OMILLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 730-735.

ENHANCING ENGLISH LANGUAGE TEACHING FOR ISLAMIC STUDIES STUDENTS: A FOCUS ON CURRICULUM DESIGN

Khasanova Dilbar

Senior teacher of the department Foreign Languages, PhD

International Islamic academy of Uzbekistan

khasanovadilbar88@gmail.com

ABSTRACT

This article explores the implementation of English language teaching specifically tailored for Islamic Studies students. The curriculum design is centered around religious materials to create an engaging learning experience. By organizing lessons under Islamic themes, a learner-friendly atmosphere is fostered, promoting practical and enriching lessons for students of all proficiency levels. This approach incorporates references to Qur'anic dictionaries and books on Tafseer for advanced students, aligning teaching and learning with specific targets. Additionally, the article addresses challenges faced by teachers, such as lack of motivation, inadequate resources, and large class sizes, emphasizing the need for creative solutions within the educational system.

Key words: *method, style, Technology, Higher Education, Islamic education.*

АННОТАЦИЯ

В этой статье исследуется реализация преподавания английского языка, специально разработанного для студентов-исламоведов. В основе учебной программы лежат религиозные материалы, что обеспечивает увлекательный учебный процесс. Организуя уроки по исламским темам, создается дружелюбная атмосфера, способствующая практическим и обогащающим урокам для учащихся всех уровней подготовки. Этот подход включает ссылки на словари Корана и книги по Тафсиру для продвинутых студентов, согласовывая преподавание и обучение с конкретными целями. Кроме того, в статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются учителя, такие как отсутствие мотивации, нехватка ресурсов и большие размеры классов, подчеркивая необходимость творческих решений в рамках образовательной системы.

Ключевые слова: *метод, стиль, технология, высшее образование, исламское образование.*

INTRODUCTION

In the context of globalization and the increasing competition among nations, Uzbekistan faces challenges at both regional and international levels. The article

discusses the impact of the ASEAN Free Trade Area (AFTA) and global free trade on the strategic plan for English, Technology, and Higher Education for 2030. The focus is on producing smart and competitive generations through effective English language teaching.

In teaching English as a foreign language, teachers face several problems: lack of motivation among students, inadequate time allotment, inadequate instructional resources and materials, and oversized classes of students. To overcome these problems is actually the responsibility of the educational system. However, the teachers also have to use their creativity to be aware of the limitations and constraints, and collectively make an effort to address and find ways to deal with these problems. To overcome these problems is actually the responsibility of the educational system. However, the teachers should also find the easiest and practical ways of giving lessons, no matter the lessons are based on Business, Medicine or religion. The main point here is to have a perfect content that is based on their proficiency.

The possible problems associated with the teaching of English in non-professional education are:

- very minimum teaching-learning sessions with the exception of language department classes,
- low frequency of language drill and real usage,
- oversized classes of students,
- teachers with mediocre language mastery and inadequate teaching competence

Methods:

The article identifies key problems faced by teachers in English language education, including student motivation, time constraints, inadequate resources, and large class sizes. It emphasizes that overcoming these issues is a shared responsibility of the educational system and teachers. The lexical approach to second language teaching, concentrating on developing learners' proficiency with words and word combinations, is introduced as an alternative to grammar-based approaches.

Results:

The article discusses the significance of integrating Islamic epistemology into English language teaching. It highlights the three main points related to Islamic epistemology, emphasizing the role of knowledge in making individuals aware of Allah and their relationship with Allah. The article also explores the need for integrating religion into language pedagogy, aligning English language teaching with Islamic principles. Recommendations include adopting a tawhīd principle in the English language curriculum design and fostering an academic atmosphere that implicitly integrates Islamic epistemology.

Discussion:

The discussion delves into the responsibilities of both English language teachers and students in an Islamic educational setting. It emphasizes the importance of modeling virtuous behavior and integrating Islamic conduct into teaching practices. The article suggests that teachers should be aware of Islamic duties and students should show respect and politeness toward their teachers. Additionally, it underscores the opportunity for effective English teaching in Islamic schools and the relevance of incorporating Islamic values into English language research policies.

The lexical approach to second language teaching, according to Lewis (Moudraia 2001), has received interest in recent years as an alternative to grammar-based approaches. The lexical approach concentrates on developing learners' proficiency with lexis, or words and word combinations. It is based on the idea that an important part of language acquisition is the ability to comprehend and produce lexical phrases as unanalyzed wholes, or "chunks" and that these chunks become the raw data by which learners perceived patterns of language traditionally thought of as grammar.

However, not always teaching grammar and topic related Vocabulary can help to conduct a fruitful lesson. A number of researchers and studies on Islamic epistemology have been conducted by many scholars. As Halstead (2004) notes three main points related to Islamic epistemology. *First*, knowledge may be based on revelation and the activity of human intellect. All branches of knowledge are aimed to make people aware of Allah and of their relationship with Allah. *Second*, the pursuit of knowledge should enhance students' spiritual consciousness that nurtures their faith (*īmān*), virtuous action (*'amal sāliḥ*), and certainty (*yaqīn*). *Third*, teachers should possess academic expertise and character and moral integrity for parts of their teaching objectives are to expand the students' spiritual and moral awareness. Adebayo (2010) emphasizes that the Islamic education promotes the acquisition of foreign languages like English through the framework of Islamization of science. Thus, religion should be integrated into linguistics or language pedagogy. In other words, ELT should be delivered in the way it fits Islamic religious principles. Sa'adi (2011) analyzed the epistemological perspectives proposed by Iqbal, Fazlur Rahman, Al-Faruqi, Nasution, Madjid, Abdullah, and others within the context of Indonesian Islamic higher education. It is concluded that Abdullah's notion of interconnection and integration between religious knowledge and certain study area is fairly comprehensive. It implies that the curriculum of the Indonesian Islamic higher education should consist of religious knowledge, natural and technical sciences, and social and humanities sciences. Islamic pedagogy and epistemology are strongly

attached to Quranic revelation, prophetic tradition (*Sunna and Hadith*), and the opinion of the righteous predecessors. By comparison, western pedagogy and epistemology are based on secular and rationalist philosophies and ideologies which exclude religious subjects from public education. Shah, Muhamad, & Ismail (2012) report that the design of English language curriculum should be grounded in *tawhīd* principle in that the ultimate goal of the curriculum is to make the students aware of the existence of Allah. It includes the Islamization of appropriate Western curriculum model. The adapted curriculum model should be prudently supported by Islamic ELT materials.

With regard to the academic atmosphere, the learners have to realize that not all English language lecturers have formally learned Islamic epistemology at Islamic higher education nor did they all experienced studying at Islamic schools. Yet, they still could integrate the Islamic epistemology implicitly through modeling virtuous action and digesting Islamic conduct for lecturer and students. Accordingly, an English teacher should: be polite, patient, caring, not arrogant, not to joke excessively, humble in lectures and conferences, opened to argumentation and criticism, and knowledgeable of religious duty. The teacher should always remind the students about the intention of learning that is to seek Allah's blessing. On the other hand, a Moslem student should be respectful towards and polite to the teachers. That is by greeting the teacher first; standing when the teacher stands; listening attentively to the teacher; not speaking to the teacher much when s/he is tired; not to asking him/her a question when s/he is on his/her way home; asking the teacher's permission before addressing a question; and arguing politely with the teacher. A real description of Islamic schools and figure out the opportunity for an effective English teaching in the schools will hopefully aid teaching language. The second variable help student researchers to strengthening what the theorists termed English as an International Language (EIL). English teachers are nowadays challenged to accommodate local or particular needs into their teaching practices because, in the globalized world, a student is supposed to talk about his/her own local culture and international culture (Brown, 2012). Thus, a research on English language skills, teaching strategies, teaching models and teaching materials that are linked with Islamic values ought to be a part of the research policy.

CONCLUSION

The article concludes with two key recommendations. First, English language teaching practitioners should explore the philosophy of language education within the Indonesian and Islamic educational contexts, with al-Qur'an as the basis for knowledge. Second, a workshop is proposed to help English language teachers

integrate Islamic epistemology into instructional activities, considering current issues in English language teaching. This approach aims to produce educational products that align with the specific needs of Islamic educational institutions.

Two recommendations are proposed. First, ELT practitioners are to explore the philosophy of language education within Indonesia context in general and in Islamic educational institutions in particular. For this purpose, the notion of al-Qur'an as the basis of all branches of knowledge including linguistics and language pedagogy could be a stimulating point of departure. Second, a relevant workshop must help the lecturers of English Education Department at PTKI integrate Islamic epistemology into the instructional activities. The workshop ought to be linked with the current issues in ELT field such as post method pedagogy and EIL. With the understanding of the issues, ELT practitioners will observe, conduct researches, and generate educational products that accommodate the particularity of Islamic educational institution.

REFERENCES:

1. Adebayo, R. I. (2010). Islam and the Promotion of Multilingualism : Lessons For The Nigerian Muslim. *Allawh: Journal of Arabic & Islamic Studies*, 2(6), 1–4.
2. Akmalovna, T. N., Muminova, D., Khasanova, D., & Kadyrova, M. (2022). TEACHING GRAMMAR FOR RELIGIOUS STUDIES STUDENTS BASED ON NEEDS ANALYSIS. *Journal of Positive School Psychology*, 6003-6011.
3. Al-Ghazali, I. (2013). *Menggapai Cahaya Hidayah/Bidayatul Hidayah. (Translated by Abiza el Rinaldi & Uswatun Hasanah)*. Klaten: Pustaka Wasilah.
4. Al-Hadar, H. J. (2011). *Islam "Mazhab" Fadlullah*. Bandung: Mizania.
5. Alwasilah, A. C. (2010). *Filsafat Bahasa dan Pendidikan*. Bandung: PT Remaja Rosdakarya.
6. Dilbar, K. (2019). DEVELOPMENT AND ASSESSMENT OF FUNCTIONAL LITERACY OF SCHOOL CHILDREN BASED ON INTERNATIONAL PIRLS RESEARCH. *Сўз санъати халқаро журналі*, 1(5)
7. Khasanova, D. (2019). Does the way of assessing affect the result of testing? “. In *Trends in Teaching Foreign Language: achievements and Solutions” International Conference* (pp. 84-85).
8. Rustamovna, F. K. (2022). Lexico-Semantic Features of Religious Terms. *Eurasian Research Bulletin*, 13, 110-113.
9. Shamsematova, B. R. (2022). Specific Features Of Language Units Expressing National Value In The Works Of Uzbek Writers. *Eurasian Research Bulletin*, 13, 114-116.

10. Хасанова, D. (2020). THE ROLE OF TEST MAKING IN LEARNING PROCESS. *The Light of Islam*, 2020(3), 166-174.
11. Арипова, К. Ю. (2019). ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ ОБОСНОВАНИЕ ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ РЕЧЕВОМУ ЭТИКЕТУ. *Вопросы педагогики*, (5-1), 21-24.

YOSHLARNING MUSIQIY-ESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA “FORTEPIANO” CHOLG’USINING AHAMIYATI

Shamsudinova Mohlaroyim Muzaffarjon qizi

Farg’ona ixtisoslashtirilgan san’at maktabi o’qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada madaniyat va san’at sohasidagi islohotlar va bu islohotlar jamiyatimizdagi tutgan o’rni, bo’lajak fortepiano cholg’usi ijrochilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishda musiqa oid kitoblar va qo’llanmalar, tarixiy-badiiy asarlar, fortepiano cholg’usini ijro etishga doir ensiklopediyalar, amaliy va nazariy metodlar orqali ko’nikma va malakani o’stirish, dunyoqarashni shakllantirish, musiqa fanini o’qitish muammolariga oid ilmiy-metodik manbalar tahlil qilingan.

***Kalit so’z va iboralar:** san’at, mdaniyat, ko’rik-tanlovlar, fortepiano ijrochiligi mutaxassisligi fanini o’qitish, bo’lajak fortepiano ijrochilarining informatsion-analitik kompetentligi, musiqiy ta’lim, musiqiy ensiklopediyalar, tarixiy-badiiy asarlar, ilmiy-metodik yondoshuv, ko’rgazmali ta’lim, jo’rnavozlik amaliyoti, ansambl ijrochiligi, nazariy va amaliy bilimlar.*

ЗНАЧЕНИЕ ИНСТРУМЕНТА “ФОРТЕПИАНО” В РАЗВИТИИ МУЗЫКАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЁЖИ.

Шамсудинова Мохларойим Музаффаржон кизи

Учитель Ферганской специализированной школы искусств

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются реформы в сфере культуры и искусства, роль этих реформ в нашем обществе, развитие информационно-аналитический компетентность будущих пианистов, развитию навыков и компетентности, используются книги и пособия по музыке, историко-художественные произведения, энциклопедии по игре на фортепиано, практические и теоретические методы. Проанализированы источники, связанные с проблемами формирования мировоззрения и музыкального образования.

***Ключевые слова и фразы:** культура, искусство, конкурсы, обучение науке игры на фортепиано, информационно-аналитическая компетентность будущих пианистов, музыкальное образование, музыкальные энциклопедии, историко-художественные труды, научно-методический подход, наглядное*

воспитание, аккомпанементская практика, ансамблевое исполнительство, теоретические и практические знания.

THE IMPORTANCE OF THE “PIANO” IN THE DEVELOPMENT OF THE MUSIC-AESTHETIC WORLDVIEW OF YOUNG PEOPLE

Shamsudinova Mokhlaroyim Muzaffarjon kizi

Teacher of the Fergana Soecialized school of Arts

ABSTRACT

This article discusses reforms in the field of culture and art, the role of reforms in our society, the development of information and analytical competence of future pianists, development of skills and competence, books and manuals on music, historical and artistic works, encyclopedias on piano playing are used, practical and theoretical methods. The next related to the problems of worldview information and music education are analyzed.

***Key words and phrases:** culture, art, competitions, teaching the science of piano playing, information and analytical competence of future pianists, music education, music encyclopedias, historical artistic works, scientific and methodological approach, visual education, accompaniment practice, ensemble performance, theoretical and practical knowledge.*

KIRISH (Введение/Introduction).

San’at mojizadir. Yurak va miyaning shunday bir joylari borki, u yerga faqat san’at vositasidagina kirish mumkin. Mustaqillik yillaridan boshlab san’at va madaniyatga alohida etibor berilgan, yangi O’zbekistonning tarixini yatarish, moddiy va nomoddiy madaniy me’ros durdonalarini saqlash va targ’ib etish. Aholi, xususan yoshlar madaniy saviyasini yuksaltirish, ulardagi bor bilimlarni yanada rivojlantirish hozirgi kundagi dolzarb mavzulardan biridir. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Bundan tashqari, ingliz san’atshunos olimi F.R.Martini “Temuriylar singari san’at va madaniyatni qadrlaydigan hukmdor Markaziy Osiyoda hech vaqt bol’magan”- deb yozadi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 26-maydagi “ Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori ushbu soxa vakillarining keng ko’lamdagi san’atshunos yoshlarning uzoq kutilgan orzulari, istaklarini ro’yobga chiqarishga katta imkoniyat, sharoit yaratdi.

XXI-asr axborot texnologiyalar asri. Axborot texnologiyalarining san'at sohasida tutgan o'rni beqiyos. Chunki har bir musiqa yaratilishidan to tinglovchiga yetib borungacha qadar turli bosqichlardan o'tadi. Masalan, bir san'atkor o'z ijodini rivojlantirish yo'lida akbatta axborot texnologiyalardan foydalanadi, ular, radio, ommaviy axborotlar, qo'shiq yozish studiyalari va h.q. Oliy ta'limlarda ham musiqa ta'limi yoki mutaxassislik fanlariga ham chuqur e'tibor qaratilmoqda. Har bir darslar malakali, darsga innovatsion yondoshgan, darslarni ham amaliy ham nazariy va ko'rgazmali tarzda o'tadigan pedagoglar tomonidan tashkillanmoqda. Yoshlarning madaniyatini, dunyo qarashini, chet el talabalari bilan hamnafas bo'lishi uchun yurtboshimiz tomonidan barcha shart sharoitlar yaratib berilmoqda

Fortepiano cholg'usi ijrochiligiga kelsak, bu asbobning tarixi juda qadim zamonlarda, ya'ni, qadimgi Yunonistonda borib taqaladi. Pefagor yashagan davrda "monoxord" deb nomlanuvchi cholg'u asbobi bo'lgan. Yollar davomida bu cholg'u takomillashib XII-asrda "Klavikord" cholg'u asbobi paydo bo'lgan. Bora bora rivojlanishlar natijasida "Fortepiano" cholg'u asbobi vujudga keldi. Fortepiano-bu keng diapazonli, kuchli ovozga ega bo'lgan cholg'u bo'lib, boshqa hech qaysi musiqa cholg'usi bunday yorqin imkoniyatlarga ega emas.

Bog'chadan boshlangan qiziqish yetti yillik musiqa va san'at maktabida davom etadi. Bu yerda bola musiqaning boshlang'ich bilimlarni egallaydi. Nafaqat fortepiano ijrochiligini, nazariya, solfedjio, xor va qoshimcha cholg'u fanlarini o'zlashtiradi. Yetti yil davomida o'quvchi o'zbek va chet el kompozitorlar asarlarini o'rganib ijro etishadi. Musiqa maktabida o'qish jarayonida "Kamalar yulduzlari", "Istiqlol g'unchalari", Xalqaro ko'rik tanlovlarda qatnashib o'z bilim darajasini yanada oshirib, keyingi bosqichda Ixtisoslashtirilgan san'at maktabiga intixon orqali qabul qilinadi. Bu yerda o'quvchi ikki yil davomida malakali pedagoglar tomonidan bilim oladilar. Fortepiano ijrochiligini o'rgatish jarayoni yaxlit sistema sifatida qarab, hozirgi bosqichdagi yoshlarning musiqiy-estetik tarbiyasini yanada rivojlantirishga qaratilgan. Pedagogning vazifasi, nafaqat fortepiano chalishni o'rgatish bilan cheklanmaydi. Pedagog o'quvchilarda musiqaga qiziqish, ularning musiqaga bo'lgan e'tiborini yanada kuchaytirish, musiqiy-ijodiy va ijrochilik qoniliyatlarini rivojlantirish, musiqa asarlarini chuqur idrok etishlari va mustaqil baholay olishlariga erishishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (Литература и методология/Literature and methotology)

Fortepiano sinfidagi ta'limning hozirgi musiqiy-estetik tarbiyaning maqsadlari va vazifalariga mos mazmunini belgilashda yanayam samaraliroq yondoshish M.N.Skatkin ishlab chiqqan sistemasiga tayanishdan iborat bo'lib, bu sistema

musiqiy faoliyatning shartlariga moslashgan. Fortepiano cholg'usida ijro texnikasini oshirish juda ham muhim hisoblanadi. Bunda mashqlar, gammalar, etyudlar yordamida amalga oshirish mumkin. Biz albatta ushbu jarayonni ham innovatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirishimiz mumkin. Masalan, mashqlarni yoki gammalarni elektro pianinoda turli ritmlar ostida ijto etish yordamida ham ijro texnikasi ham oquvchining informatsion-analitik kompetentligi osadi. Ammo klassik asarlar ijrosi albatta fortepianoda bo'lishi lozim, bunda o'quvchi asarning xarakterini, dinamik belgilarini, asarning mohiyatini va o'zining asar ijrosi davomidagi ichki kechinmalarini ifoda qila oladi. Fortepiano chalishni o'rgatish mazmunini belgilashda mazkur masala bo'yicha M.Lamentning ta'lim mazmuni haqidagi, V.Asafyevning musiqani yaratish, ijro qilish, idok etishda ko'rinadigan musiqa san'atining uch birligi xaqidagi S.Rappoportning bilish va aloqa faoliyatining ajralmas birligi bo'lmish musiqiy-ijrochilik faoliyat haqidagi, N.Vetluginaning musiqa san'atiga bolaning estetik munosabati, modeli haqida yetakchi psixologik-pedagogik va musiqashunoslik konsepsiyalarini jamlashga asoslanadi. Bu modelga uchta komponent, musiqani idrok va ijro etish hamda juz'iy musiqa yaratish bo'yicha ijodiy faoliyat tajribasini, musiqaga va musiqiy faoliyatga estetik munosabat tajribasi. Markaziy Osiyo kompozitorlari orasida birinchilar qatorida o'zbek fortepiano san'atining zabardast ustozlari Georgiy Mushel ijodini aytib o'tish joizdir. U o'zining "24 prelyudiya va fugalar" turkumida Baxning kompozitorlik ijodiga xos polifonik uslubi asnosida o'zbekona ohanglardan to'g'ri va o'rinli foydalangan holda, o'ziga xos uyg'unlikni ifoda etib, mukammal ijodiy maxoratini yana bir bor namoyon etgan.

NATIJALAR (Результаты/Results)

Fortepiano sinfida mutaxassislik fanidan tashqari ansambl ijrochiligi darsi ham bo'ladi. "Ansambl" (fransuzcha "ensemble"- birlik, uyg'unlik, ohangdoshlik)- degan ma'nolarni bildiradi. Ushbu fanda ma'lum musiqa asarlarining bir nechta ijrochilar tomonidan birga bir birlarini eshitib, xis qilib, to'g'ri sanoq ostida diqqat bilan ijro etilishidir. Ushbu fanning yutuqlari shundaki, ijrochi nafaqat o'zini balkim sherigini ham tinglashni o'rganadi. Ijrochilar soniga qarab ansambllar duet (2 kishi) trio yoki terset (3 kishi) kvartet (4 kishi) kvintet (5 kishi) va h.q. Hozirgi kunda ansamb ijrochiligida ham innovatsion texnologiyalardan keng foydalanilmoqda.

Jo'rnavoqlik. Musiqa ijrochiligida yakkaxon honanda, sozanda, raqqosa yoki ijrichilar guruhiga bir yoki bir nechta musiqa cholg'ular (ansambl, orkestor)ning jo'r bo'lishi. Jo'rnavozning vazifalari quyidagilardan iborat;

- Yakkaxon ijrochini tinglash.
- Yakkaxon ijrochi partiyasini kuzatib borish.
neftining katta qismi Eron bilan bog‘liq bo‘lgan kondan keladi. Eron va Qatar dunyodagi eng yirik tabiiy gaz konini birgalikda nazorat qiladi. Qatar dunyodagi jami tasdiqlangan gaz zahiralarining 13 foiziga egalik qiladi. Qatar konning o‘z qismidan kuniga 650 million kubometr gaz qazib oladi, Eron esa xuddi shu kondan kuniga 430 million kubometr gaz qazib oladi. Bu kon Qatar Shimoliy Pars, Eronda Janubiy Pars deb nomalanadi. Eron va Qatar neft va tabiiy gaz sohasidagi aloqalardan tashqari, yuk tashish sohasida ham hamkorlik qiladi.

Eron-Iroq urishida Qatar davlati Iroqni qo‘llab-quvvatladi. Natija 1989-yil may oyida Eron Qatardan Shimoliy/Janubiy Pars supergigant neft va gaz konining 1/3 qismini talab qildi, tomonlar kondan birgalikda foydalanish bo‘yicha kelishuvga erishdilar. Shuningdek, “Sovuq urush”dan keyin Qatar Eronni Fors ko‘rfazidagi mintaqaviy xavfsizlik tizimiga jalb etishga intildi va 1991-yil ikki tomonlama shatnoma imzolandi. Ushbu kelishuv arab monarxialari tomonidan jiddiy qarshilik bois amalga oshmadi. 1992-yilda Karun daryosidan Erondan Qatarga suv yetkazib rejalashtirildi va bu oxiriga yetmadi.

Qatar Eron birgalikda gaz qazib olish borasida birgalikda faoliyat yuritsha intiladi. 2009-yil 11-yanvarda uch davlat (Qatar, Eron va Rossiya) vakillari Tehronda uchrashib, o‘zlarining gaz zaxiralarini ishlab chiqarish bo‘yicha kelishib oldilar. Garchi tomonlar o‘z geosiyosiy maqsadlarini ilgari surishsada, umumiy kelishuv jahon gaz bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishga qaratilgan. COVID-19 pandemiya davrida Qatar ikki marta 2020 mart va 2021-yil sentyabrda Eronga yordam yubordi.

2022-yilning 12-aprelida Eron Qatarda bo‘lib o‘tadigan futbol bo‘yicha jahon chempionati muxlislarini qabul qilish maqsadida Qatar bilan bir qator kelishuvlarga erishdi. Qatar axborot agentligining xabar berishicha, ikki davlat Doha Flight Information Region (FIR)ni Tehron FIR bilan bog‘lash bo‘yicha operatsiyalar bo‘yicha kelishuv imzolagan. Shuningdek, ular o‘rtasidagi reyslar sonini kengaytirishga kelishib oldilar va transport hamkorligini yaxshilash yo‘llari va port sektorida xususiy sarmoyaviy istiqbollar haqida muzokaralar olib borildi¹²³.

Qatardagi Eron jamiyati anchagina katta, ammo bu jamiyatga integratsiyalashgan va hukmron rejimga tahdid solmaydi. Boisi Qatar xavfsizligi bevosita AQSh va Saudiya Arabistoni bilan bog‘liqdir.

Bugungi kunda Qatar va Eron o‘rtasida taranglik holatlari ham mavjud. Hatto Qatar 2016-yilda Eron bilan diplomati aloqalarni uzdi. Sababi:

Birinchidan, Saudiya Arabistoni bosimi kuchliligi va asosiy hamkorlari bo‘lgan Fors Ko‘rfazi monarxialari manfaatlarini hisobga olish. Mazkur davlatlar Qatarning

¹²³ Iran hoping to host World Cup fans after agreement with Qatar // <https://www.aljazeera.com/news/2022/4/12/iran-preparing-to-host-world-cup-fans-after-agreement-with-qatar> - 12.04.2022

Eron siyosatini muntazam jiddiy tanqid qilishadi. 2017-yil Qatar inqirozi va uning doirasida Eron bilan aloqalarni uzish talabi qo‘-yilishidan ham buni kuzatish mumkin.;

Ichchinchidan, Suriyadagi Eron-Qatar raqobati. Ikki tomon ham qarama-qarshi pozitsiyada turishi. Shu sabali ham 2021-yilda Suriya muammosini hal qilish bo‘yicha Ostona formati: Rossiya-Turkiya-Eron o‘rniga yangi Rossiya-Turkiya-Qatar formati shakllantirildi¹²⁴.

Biroq 2017-yilda qayta tikladi. 2018-yil avgust oyida Eron prezidenti Hasan Ruhoniy Qatar amiri Tamim bin Hamad Ol Tani bilan muzokaralar o‘tkazdi va Saudiya Arabistoni va uning ittifoqchilari bilan hozirgi qarama-qarshilikda Qatarni so‘zsiz qo‘llab-quvvatlashini tasdiqladi. Lekin tovar aylanmasi bugungi kunda ancha kam- 2017-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra 250 million dollarni tashkil etadi.

Dohaning Tehron bilan normal munosabatlarni saqlab qolish istagi sabablari ham iqtisodiy, ham siyosiydir. Ma‘lumki, Qatarining iqtisodiy farovonligi suyultirilgan gaz (SNG) eksportiga asoslanadi. Shu bilan birga, eronliklar va qatarlar Fors ko‘rfazining shelfidagi bir xil gaz konini (eroncha variantda – Janubiy Pars, Qatar variantida – Shimoliy gumbaz) o‘zlashtirmoqda. Eron bilan munosabatlarning har qanday keskinlashishi Qatar iqtisodiyotiga salbiy ta‘sir qiladi. Qolaversa, “Saudiya gegemonligi”dan cho‘chigan Qatarining hukmron oilasi Eronni kelajakda o‘z xavfsizligi kafolatlaridan biri sifatida ko‘radi¹²⁵.

Isroil bilan aloqalar. Qatar 1990-yillarning o‘rtalaridan beri Isroil bilan yuqori darajadagi aloqalarga ega. U 1996-yilda Isroilning o‘sha paytdagi Bosh vaziri Shimon Peresning tashrifiga mezbonlik qilgan va Isroilga 2000-yildan 2009-yilgi Isroil-Hamas mojarosi boshlanmaguncha Dohada rasmiy savdo ofisini ochishga ruxsat bergan. Xabar qilinishicha, kichik miqyosdagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri Isroil-Qatar savdosi, shuningdek, Isroil xavfsizlik amaldorlari, sportchilar, shifokorlar va boshqa isroilliklarning Dohaga tashriflari o‘sha to‘qnashuvdan keyin ham davom etgan. Shu bilan birga, Amir Tamim muntazam ravishda Isroilni falastinliklarni suiiste‘mol qilishda ayblaydi va Falastinning Birlashgan Millatlar Tashkilotiga to‘liq a‘zo bo‘lish va tan olinishi yo‘lidagi sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Qatar rasmiylari Isroil-Falastin mojarosini hal qilishda sezilarli muvaffaqiyatga erishmaguncha, Isroil bilan munosabatlarni normallashtirishda BAA va Bahraynga qo‘shilishdan voz kechishlarini aytishdi.

¹²⁴ Россия, Турция и Катар создали новый формат по урегулированию в Сирии // <https://iz.ru/1135809/2021-03-11/rossiia-turciia-i-katar-sozdali-novyi-format-po-uregulirovaniu-v-sirii> - 11 марта 2021

¹²⁵ Кузнецов А.А. Разногласия между государствами Совета сотрудничестве-ства арабских государств Персидского Залива как фактор изменения политической ситуации в регионе Ближнего Востока. // Международная аналитика. – 2017. – №.2. –С.72.

Qatar 2007-yildan beri G‘azo sektorini amalda nazorat qilib kelayotgan “Musulmon Birodarlar”ning sho‘basi bo‘lgan va AQSh tomonidan belgilangan terrorchilik guruhi bo‘lgan Xamas guruhi bilan aloqada. Xamasning yuqori rahbarlarining ba'zilari Dohada joylashgan va uning siyosiy byurosining amaldagi rahbari Ismoil Haniya 2020-yilda u erga ko‘chib o‘tgan. Qatar 2021-yilning may oyida Isroil va XAMAS o‘rtasidagi o‘n bir kunlik to‘qnashuvlarga barham berishda asosiy vositachi bo‘lgan va bu qisman G‘azoga qo‘shimcha yordam va‘dalari bilan yordam bergan¹²⁶.

XULOSA

Xulosa qilib ayganda, rivojlanayotgan Qatar-Turkiya ittifoqi ancha katta salohiyatga ega edi. Darhaqiqat, o‘zining ulkan iqtisodiy, demografik va harbiy salohiyatiga (Eron, Saudiya Arabistoni yoki Misr bilan solishtirish mumkin) qaramay, Turkiya (arab bo‘lmagan davlat sifatida) asosan arablar yashaydigan mintaqada mintaqaviy yetakchilikka erishish uchun hech qanday real imkoniyatga ega emas edi. Boshqa tomondan, Qatar o‘zining ulkan moliyaviy resurslari va inkor etib bo‘lmaydigan arab o‘ziga xosligiga qaramay, mintaqada yetakchilik mavqeini egallashga jiddiy urinishlar qilish uchun juda kichikdir. Qolaversa, “arab bahori” voqealaridan bir necha-yil avval biz “Musulmon birodarlar”ning mo‘tadil islomchiligiga asoslangan Qatar-Turkiya ittifoqining aniq konturlari shakllanganini ko‘ramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Al-Haj S. Turkey and Qatar look to be building a new alliance // Middle East Monitor. 15 March 2015 - <https://www.middleeastmonitor.com/20150315-turkey-and-qatar-look-to-be-building-a-new-alliance/>
2. Mukhammadsidiqov, M., & Turaev, A. (2020). Influence of us neoconservatism on formation of national security paradigm. *The Light of Islam*, 2020(3), 7-14.
3. Habibullo, A., & Durdon, M. (2021). Xalqaro xavfsizlik o'quv qo'llanma.
4. Хайруллин Т. Формирование Катарско-Турецкого Альянса // Азия и Африка сегодня. — 2019. — №4. — С.30
5. Ravshanov, F. R., & Azimov, H. Y. (2021). Danger and Security: History and Present. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(4), 280-285.

¹²⁶ Katzman K. Qatar: Governance, Security, and U.S. Policy // Congressional Research Service, R44533-
<https://crsreports.congress.gov> - April 11, 2022

6. Azimov, H. Y. (2022). Main Directions of Modern International Security Approaches. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(2), 151-157.
7. Yaghi M.A Comparative Analysis of the role of Saudi Arabia, Qatar and United Arab Emirates in the Syrian Crisis / Paper presented at 2018 Gulf Research Meeting. 31 July - 3 August 2018. – University of Cambridge,2018. – P.22.
8. Azimov, H. Y. (2023). ERON VA SAUDIYA ARABISTONI PODSHOHLIGI MUNOSABATLARINING TARIXI VA ZAMONAVIY HOLATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 857-863.
9. Madaminova, D. I., & Zilong, W. (2022). The Problem of Migration and Approaches to Its Study. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(1), 176-183.
10. Yakubovich, A. H. (2019). The emergence of the Syrian crisis and the impact of the external forces on it. *Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research*, (4 (6)), 92-97.
11. Al-Harmi J. Qatar and Turkey ... Relations that transcend traditional diplomatic frames // *YeniSafak*. 10 September - <https://www.yenisafak.com/en/news/qatar-and-turkey-relations-that-transcend-traditionaldiplomatic-frames-2297729> -15.12.2018
12. Katzman K. Qatar: Governance, Security, and U.S. Policy // Congressional Research Service, R44533- <https://crsreports.congress.gov> - April 11, 2022
13. S.Bo'ronov, H.Azimov. (2023). Sharq mamlakatlarida xavfsizlik muammolari va mojarolari.
14. Кузнецов А.А. Разногласия между государствами Совета сотрудниче-ства арабских государств Персидского Залива как фактор изменения политической ситуации в регионе Ближнего Востока. // *Международная аналитика*. – 2017. – №.2. –С.72.

ЁШ АВЛОДНИ ДИНИЙ ВА МИЛЛИЙ БАҒРИКЕНГ ЭТИБ ТАРБИЯЛАШ - БУЮК ДАВЛАТЧИЛИГИМИЗ ПОЙДЕВОРИ БЎЛИБ ХИЗМАТ ҚИЛАДИ

Мухаммадолим МУҲАММАДСИДДИҚОВ,

Сиёсий фанлар доктори, профессор

XXI аср бизнинг ҳаётимизга фан ва технология, ривожланган инсоният эришган ютуқлар билан бирга ўзига хос бўлган мураккаб жараёнлар билан ҳам кириб келди. Бугун бунга бир қанча аянчли ҳолатларни мисол қилиб келтириш мумкин. Хусусан, ҳозирги даврда жаҳон миқёсида авж олган миллий интеграциялашув, сиёсийлашган халқаро миссионерлик, экстремизм нафақат бир давлат ва миллат учун, балки бутун инсоният учун мураккаб вазиятларни юзага келтирмоқда. “Глобаллашув жараёнининг тобора шиддатли тус олиши нафақат инсоният имкониятларини кенгайтирмоқда, балки зиддиятларнинг кескинлашуви, ривожланган ва қолоқ давлатлар ўртасидаги тафовутнинг ўсишига олиб келмоқда. Бунинг оқибатида тинчлик ва барқарорликка раҳна солаётган, моҳияти ва кўламига кўра трансмиллий хусусиятга эга турли хатти-ҳаракатлар содир этилмоқда”¹²⁷. Бундай вазиятда келажак авлодни турли ёт ғояларга тарғиб этиш кўринишидаги таҳдидлар авваломбор, асрлар давомида шаклланган миллий-маънавий қиёфамиз, диний бағрикенглик муҳитига раҳна солади. Уларнинг маънавий асосларини емиради, миллий кадриятларнинг авлодлараро ворисийлигини узади ва истиқболда улкан хатарларни келтириб чиқаради. Миссионерлик ва прозелитизм каби бузғунчи ғоялар моҳият эътибори билан «...аввало, аниқ бир шахсга, яъни иймон-эътиқоди мустаҳкам шаклланмаган, ўз ҳаётини тўғри йўлга қўя олмаган, шахсий муаммолар гирдобидида қолиб, тушкунлик кайфиятига тушган кишиларга ёки ҳаётий тажрибага эга бўлмаган ёшларни ўз домига илинтиришга қаратилмоқда. Одатда бундай кишиларнинг муқим иш жойига эга эмаслиги ва ёшларнинг қизиқувчанлиги уларга жуда қўл келади»¹²⁸. Шу жиҳатдан, ҳозирда ижтимоий жараён сифатида намоён бўлаётган диний ва миллий идентификация миссионерлик каби ғайриинсоний таҳдидларга қарши курашда муҳим аҳамият касб этади. «Бугун инсоният ўзи орзу қилган ва ўзининг муносиб яшаш андозасига эриша олмай, қалби, шуури нотинч бир даврни бошидан кечиряпти»¹²⁹, - дея таъкидлайди проф. Т.Жўраев. Бу даврда огоҳлик,

¹²⁷ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 Т. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 33.

¹²⁸ Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – Б. 202.

¹²⁹ Жўраев Т. Миллий давлатчилик: ҳавфсизлик ва барқарорлик. – Тошкент: Akademya, 2007. – Б. 4.

атрофимизда, айниқса, жаҳонда содир бўлаётган ижтимоий бўҳронларга нисбатан ҳушёрлик ва зийраклик ўта муҳимдир.

Ислом дини бизни эзгулик ва тинчликка, ҳаётда асл инсоний фазилатларни қарор топтиришга даъват этади. Шу муносабат билан, фақат барча мусулмон мамлакатлари билан биргаликда энг муҳим вазифани яъни, улуғ аждодларимиз диний-маънавий меросининг ажралмас қисми бўлган мусулмон ахлоқ-одоб қоидаларини, жумладан, мўътадиллик, муроса қилиш, тинчлик-хотиржамлик ва бир-бирини ўзаро тушуниб яшашга интилиш каби олижаноб фазилатларни асраб-авайлаш ва бугунги реал вазиятни ҳисобга олган ҳолда бутунжаҳон ҳамжамиятига етказишдек ғоят муҳим вазифани ҳал қилишимиз мумкин, деб таъкидлаш ўринлидир¹³⁰.

Замонавий ўзбек жамиятида диний тикланиш контекстида диний ўзига хосликни шакллантиришнинг маънавий асослари ва руҳияти давлатимиз раҳбари томонидан «мўътадиллик, муроса қилиш, тинчлик-хотиржамлик ва бир-бирини ўзаро тушуниб яшашга интилиш» тушунчалари билан кўрсатиб ўтилди. Ҳақиқатан ҳам улкан мусулмон оламида бундай диний ўзига хослик деярли учрамайди ва бу минтақамизга хос хусусиятлардан биридир. Шунингдек, бугун диний ўзига хосликка таъсир кўрсатадиган асосий ташқи ва ички омиллар мавжудки, улар ижтимоий ҳаётни модернизация қилиш, глобаллашув, диний ташкилотларнинг миссионерлик фаолияти, ижтимоий маконни виртуализация қилиш ва кибермаконнинг пайдо бўлиши, таълим муассасаларида дин асосларини ўрганиш, дин қадриятларига мурожаат қилиш ва бошқалардир.

Диний ўзига хослик диний онг томонидан қурилган ва диний ҳулқ-атворда акс эттирилган. Масалан, айрим диний қоидаларнинг рад этилиши диндорнинг онги ва хатти-ҳаракатларидаги зиддиятга олиб келади, бу эса ўзига хос инқирозни келтириб чиқаради ва шахснинг янги диний жамоада топиши ушбу гуруҳ вакиллари билан ўз-ўзини таниб олишга ёрдам беради. Бу эса ушбу гуруҳнинг қадриятларини қабул қилишига, тегишли ҳулқ-атворга ва ниҳоят янги динни қуришга олиб келади. Шундай қилиб, диний онг ва диний ўзига хосликнинг ўзаро таъсири жараёни ҳақида гапириш мумкин. Ҳақиқий ижтимоий ҳаётда номинал ва ҳақиқий диний ўзига хослик бир-бирига мос келмаслиги мумкин, аммо ҳар икки ҳолда ҳам шахс диний онгнинг ташувчиси бўлади.

Таъкидлаш мумкинки, миссионерлик каби таҳдидларнинг замонавий

¹³⁰ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2 Т. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б. 453.

жамият, диний ўзига хосликка таъсирининг конструктив оқибатларини таъкидлаш жоиз. Миссионерлик таъсиридаги ғоялар авваламбор, ўзбекларнинг нафақат диний, балки этник ва фуқаролик ўзига хослигини қўллаб-қувватлайдиган анъанавий диний маданиятга салбий таъсир кўрсатади. Шунингдек, сохта ва ноанъанавий диний қадриятлар ва меъёрларнинг тарқалиши натижасида жамиятнинг маънавий ривожланишида юзага келадиган салбий ўзгаришларга олиб келади. Миссионерликнинг биргина учқуни биринчи навбатда, диний фазилатлар ва ахлоқий покликни тарғиб қилишга қаратилса ҳам, агарда мусулмонлар учун муҳим бўлган қадриятларга дахл қилинса анъанавий мусулмон жамиятида катта зиддиятларни келтириб чиқаришга қодир.

Жамият маънавий ҳаётида миссионерлик ва прозелитизм каби ғоявий таъсирларнинг ҳалокатли оқибатлари орасида қуйидагиларни таъкидлаш лозим: 1) гипноз ва турли психотехника ёрдамида издошларнинг онгини ўзгартириш; 2) бошқа анъанавий конфессиялар вакилларига душман муносабати; 3) миссионерлик тарафдорлари томонидан ўз издошларига нисбатан бирон бир қоидалар билан чекланмаган кучдан фойдаланиш; 4) миссионерлик вакиллари томонидан издошларнинг соғлиғига зарар етказадиган сохта тиббий амалиётлардан фойдаланиш; 5) миссионерлик тарафдорлари томонидан сиёсий мақсадларга эришиш; 6) тижорат фойда олиш учун миссионерликдан фойдаланиш; 7) миссионерлик фаолиятининг мамлакатимиз қонунларига мос келмаслиги.

Мамлакатимизда виждон ва эътиқод эркинлиги, турли миллат вакилларининг ҳуқуқлари кенг кафолатланиб, диний бағрикенглик муҳити мустаҳкамланмоқда. Ҳозирги вақтда диёримизда 130 дан зиёд миллат ва элат вакиллари ўзаро ҳамжиҳат яшамоқда, 16 та конфессияга мансуб диний ташкилотлар эркин фаолият юритмоқда¹³¹. Динлараро ўзаро муносабатлар муайян диний ғояларга ва бир қатор психологик хусусиятларга эга бўлган шахслар томонидан амалга оширилади. Диндорларга хос бўлган диний онгнинг бағрикенглик табиати нафақат уларнинг когнитив жараёнларига таъсир қилади, балки ижтимоий муносабатлар контекстида коммуникатив мулоқотга ҳам ёрдам беради. Шундай қилиб, диний жамоаларнинг фаолияти диндорлар йиғиндиси сифатида тавсифланади.

Глобаллашув шароитида жамоалар ўртасидаги муносабатларнинг янги шакллари, уларнинг хилма-хиллиги ва оммавий характери пайдо бўлди. Бунинг

¹³¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1 Т. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 138-139.

сабаби, бугунги кунда ахборот алмашиш тезлиги ошди, жаҳон иқтисодий ва сиёсий тенденциялари деярли барча инсониятга таъсир кўрсатмоқда. Натижада, ижтимоий муносабатлар контекстида цивилизациялараро ёки маданиятлараро, давлатлараро ва динлараро ўзаро муносабатларнинг вариантлари мавжуд бўлган кўп ўлчовли мулоқот бўлиб ўтади. Турли шакллардаги алоқа инсонга ўзига хос бўлмаган ва асосий маънога эга бўлган ҳаракат сифатида намоён бўлади.

Глобаллашув берган имкониятлардан фойдаланган мафкуравий ва маънавий тажовузларнинг кучаяётганлиги ҳар бир давлатга ўзининг таъсирини ўтказмай қолмайди. Шу боис бу масалага ўн чандон масъулият билан қараш ва амалий ҳаракат қилиш талаб этилади. Бугунги кун ҳар биримиздан сиёсий хушёрликни, бугунги кун талабларига жавоб бера оладиган юксак интеллектуал салоҳиятни талаб қилади. Чунки дунёдаги ёвуз ниятли сиёсий ҳаракат ва кучлар ўз таъсир доирасини миллатчилик, ахлоқсизлик, диний экстремизм, шовинизм, неофашизм, ирқчилик, сепаратизм, демократияни экспорт қилиш, ғарбона оммавий маданият, миссионерлик, прозелитизм каби ниқобланган ғоялар ва мафкуралар орқали кенгайтиришга ҳаракат қилиб, янгидан-янги усул ва воситаларни кашф қилмоқда. Шу туфайли эртанги кунини ўйлаган ҳар бир давлат ҳам ўз фаолиятида масъулиятни ҳис этган ҳолда сиёсий жиҳатдан хушёр бўлиши, воқеликни тўғри баҳолаши ва бу борадаги масаланинг ечимини бера олиши керак.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев 2017 йил 19 сентябрда БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқида: «Бугунги дунё ёшлари – сон жиҳатидан бутун инсоният тарихидаги энг йирик авлоддир, чунки улар 2 миллиард кишини ташкил этмоқда. Сайёрамизнинг эртанги куни, фаровонлиги фарзандларимиз қандай инсон бўлиб камолга етиши билан боғлиқ. Бизнинг асосий вазифамиз – ёшларнинг ўз салоҳиятини намоён қилиши учун зарур шароитлар яратиш, зўравонлик ғояси «вируси» тарқалишининг олдини олишдир»¹³². Бу билан фақатгина ўз юрти ёшларининг эмас, балки дунё аҳолисининг катта қисмини ташкил этадиган, инсониятнинг эртанги тақдирига тўғридан-тўғри таъсир этувчи ёшларнинг онгу тафаккурини маърифат асосида тарбиялаш лозимлигига, ёш авлод муаммоларига бефарқлик ўта хатарли эканига инсоният эътиборини қаратди.

¹³² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. «Халқ сўзи», 2017 йил 20 сентябрь.

Президентимиз мана шу муаммони глобал миқёсда ҳал этиш заруратидан келиб чиқиб, муҳим ҳуқуқий ҳужжат – БМТнинг Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенциясини ишлаб чиқишни тақлиф этди.

Айни шу жиҳат, маънавият ва маърифат жамият тараққиётини белгиловчи муҳим омил эканлигини асослайди. Жамият маънавиятини ривожлантириш, уни юксакликка кўтариш миллий ўзликни англашни, энг муҳими эса глобаллашув шароитида халқимиз, айниқса, ёшларимиз онгида ҳар қандай маънавий, мафкуравий таҳдидларга қарши тура олиш иммунитетини шакллантиради.

Ёшлар маънавий дунёсини миссионерликдан ҳимоя қилишда ҳам “Жаҳолатга қарши маърифат” концептуал ғояси ҳозирги маънавий-мафкуравий фаолиятнинг асосини ташкил қилмоқда. Зеро, бугунги кунда ахборот алмашувининг жадаллашуви, мафкуравий жараёнларнинг глобаллашуви инсонлар, айниқса, ўниб-ўсиб келаётган ёш авлод маънавиятига ўзининг турфа таъсирини ўтказмоқда. Ана шундай вазиятда ёшларга қандай тарбия берилса, маънавияти нима билан суғорилса, келажакда давлатнинг маънавий-маърифий ҳаётида у ўз ифодасини шундайлигича топади. Шунингдек, аҳоли осойишталигини таъминлаш, оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш, нурунийлар ижтимоий фаоллигини ошириш, маҳаллани жинойтчиликдан холи ҳудудга айлантиришда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг роли ва мавқеини янада мустаҳкамлаш, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида белгиланган вазифаларни амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги «Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ–5938-сон Фармони мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги ташкил қилинди¹³³. Ушбу вазирлик фаолиятидаги устувор йўналишлардан бири ҳам ёш авлодни миллий менталитетимизга ёт бўлган миссионерлик каби маънавий-мафкуравий таҳдидлардан ҳимоя қилиш борасида кенг қўламли ишлар олиб боришга қаратилган.

Шунингдек, давлатимиз етакчисининг ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги ишларни янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича илгари сурган 5

¹³³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги «Жамиятда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ–5938-сон Фармони / lex.uz

та муҳим ташаббуси ҳам ёшларни миссионерлик таҳдидларидан ҳимоялашда муҳим восита бўлиб хизмат қилади: Биринчи ташаббус ёшларнинг мусиқа, рассомлик, адабиёт, театр ва санъатнинг бошқа турларига қизиқишларини оширишга, истеъдодини юзага чиқаришга хизмат қилади ва бу ёшларда бадиий маданиятини шакллантиради, эстетик дидини оширади. Иккинчи ташаббус ёшларни жисмоний чиниқтириш, уларнинг спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлари учун зарур шароитлар яратишга йўналтирилган бўлиб, бу ташаббус ёшларда жисмоний маданиятни шакллантиради ҳамда жисмоний маданият маънавий маданиятга асос бўлади. Учинчи ташаббус аҳоли ва ёшлар ўртасида компьютер технологиялари ва интернетдан самарали фойдаланишни ташкил этишга қаратилган. Тўртинчи ташаббус ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган. Бешинчи ташаббус хотин-қизларни иш билан таъминлаш масалаларини назарда тутди. Бу борада хотин-қизларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, айниқса, уларнинг маърифий даражасини янада ошириш, иш билан таъминлашни кўзда тутди.

Айни муҳим ҳужжатлар асосида мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар ёшларда соғлом дунёқараш, жумладан, китобхонлик кўникмасини шакллантириш, Интернет, ахборот-коммуникация технологияларидан оқилона фойдаланиш маданиятини ошириш, уларда ғоявий ва ахборот хуружларига қарши мафкуравий иммунитетни кучайтириш, дунёда юз бераётган мураккаб геосиёсий ва ғоявий-мафкуравий жараёнларнинг мазмун-моҳиятини ҳар томонлама чуқур ёритиб бориш, терроризм, диний экстремизм, ақидапарастлик, сепаратизм, одам савдоси, «оммавий маданият», миссионерлик, нарқобизнес ва бошқа таҳдидларга қарши самарали ғоявий кураш олиб бориш, жамиятимизнинг барқарор ривожланишига тўсқинлик қилаётган ички таҳдидлар – эл-юрт тақдирига лоқайдлик, маҳаллийчилик, уруғ-аймоқчилик, оилавий кадриятлар ва ёшлар тарбиясига эътиборсизлик каби ҳолатларга барҳам беришга қаратилган.

Маълумки, мамлакатимиз аҳолисининг 30 фоизини 14 ёшдан 30 ёшгача бўлган йигит-қизлар ташкил этади. Ёшларнинг таълим олиши, касб-ҳунар эгаллаши учун кенг шароит яратиш билан бирга, уларнинг бўш вақтларини мазмунли ўтказишни ташкил этиш ҳам долзарб масаладир. Қолаверса, 18-25 ёшлардаги одамнинг ҳаётга муносабати ва дунёқараши ҳали тўла шаклланиб улгурмаган давр бўлгани боис улар келажакдаги шахсий режаларини амалга оширишда қандайдир «мўъжизакор» маънавий раҳнамога муҳтож бўлади.

Анъанавий муҳитда тарбия олган инсон ҳаётида аксар ҳолатларда шу маънавий раҳнамо вазифасини диний эътиқод ўтайди.

«Ҳаётий меъёрларимиз тўғрилигига ишонч қилмасдан яшашимиз мумкинми? Йўқ, инсон ишончсиз сўқир ва ҳимоясиздир. Инсонни эътиқодсиз даҳшат ва таҳликали кўрқув қамраб олади... Лекин ҳар доим ҳам эътиқоднинг предмети бўлиб Худо ёки бошқа диний таълимотлар роль ўйнайдими? Ҳақиқатан ҳам эътиқод ва дин ўртасида чамбарчас боғлиқлик мавжудми?»¹³⁴. Америкалик психолог ва социолог Э.Фроммнинг фикрича, илоҳиёт билан бирга, ақл-заковатга, инсониятга, буюк шахсларга нисбатан ҳам эътиқод бўлиши, инсон шу эътиқод билан ҳам мақсади сари одимламоғи мумкин. Этник ва миллий хусусиятлар кучли шаклланган жамиятда эса, диний эътиқод яққол эътиқод шакли сифатида намоён бўлади. Лекин бу эътиқод ҳар доим ҳам изчил назарий диний билимга асосланади, дегани эмас. Негаки, диний эътиқоди бўла туриб, аммо унинг асослари бўйича етарли назарий билимга эга бўлмаган кишилар, хусусан, ёшлар баъзан тушуниб, кўпинча эса тушунмаган ҳолда дин номидан иш кўраётган турли хил гуруҳларга нисбатан ўзларида мойиллик сезадилар. «Ёшларнинг онгида қандай кайфият устунлигини айтсанг, мен сенга кейинги авлоднинг табиати қандай бўлишини айтиб бераман», – деган эди инглиз сиёсий арбоби Эдмунд Берк. Шу жиҳатдан ҳам миссионерларнинг жамиятнинг эртанги кунини белгилаб берадиган авлод онгини эгаллаш, назорат қилишни кўзлаб иш юритаётганини такрор таъкидлаш жоиз.

Миссионерликнинг таниқли назарийчиси П.Джонстоун ўзининг «Дунё операцияси» китобида талаба ёшларни миссионерлик фаолиятининг асосий объекти эканлигини таъкидлаб, жумладан, шундай ёзади: «Бутун дунёда университет ва коллежларда 37 миллион талаба таҳсил олади. Уларнинг кўплари 20 йилдан сўнг йирик мансабларни эгаллашади». Бу каби мулоҳазалар нега ёшлар миссионерлик фаолиятининг асосий объектига айланганини муайян даражада тушуниш имконини беради, албатта.

Шундай экан, хулоса сифатида шунини айтиш мумкинки, бугунги ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялашда, уларда ватанпарварлик, инсонпарварлик каби хусусиятлар билан бирга диний ва миллий бағрикенглик, юксак маънавият эгаси бўлишлик ҳамда бошқа миллат ва дин вакилларига нисбатан ҳурмат билан қараб, инсоний қадр-қимматни эъзозлайдиган қилиб тарбиялаш биз кураётган буюк давлатчилигимиз пойдевори бўлиб хизмат қилади.

¹³⁴ Фром Э. Бегство от свободы. Человек для себя. – Минск: ООО «Попурри». 1998. – С. 541.

JAHON TILSHUNOSLIGIDA DINIY BARQAROR BIRIKMALAR

Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna

Termiz davlat universiteti Fakultetlararo chet tillari kafedrası

katta o'qituvchisi, f.f.f.d.

ANNOTATSIYA

Barqaror birikmalar turli tillarda turlicha talqin etiladi. O'zbek tilshunosligida ular maqol, aforizmlar, iboralar, idiomalar, ekzotizmlar va boshqa bir qator birliklarni qamrab oluvchi leksik birliklar sifatida tushunilsa, ingliz tilshunosligida esa ularga juda keng sathga ega bo'lgan so'zlar birikmasi sifatida qaraladi.

***Kalit so'zlar:** barqaror birikmalar, din, frazeologizm, idioma, kollokatsiya, binomiallar, trinomiallar, polinomiallar.*

АННОТАЦИЯ

Стабильные соединения на разных языках интерпретируются по-разному. В узбекском языкознании под ними понимаются лексические единицы, включающие в себя пословицы, афоризмы, словосочетания, идиомы, экзотики и ряд других единиц, тогда как в английском языкознании они рассматриваются как сочетания слов очень широкого уровня.

***Ключевые слова:** устойчивые сочетания, религия, фразеология, фразеологизм, словосочетание, биномы, триномы, многочлены.*

ABSTRACT

Stable compounds are interpreted differently in different languages. In Uzbek linguistics, they are understood as lexical units, including proverbs, aphorisms, phrases, idioms, exotics and a number of other units, while in English linguistics they are considered as combinations of words of a very broad level.

***Key words:** stable combinations, religion, phraseology, phraseological unit, phrase, binomials, trinomials, polynomials.*

KIRISH

Barqaror birikma-sintaktik qurilma ko'rinishidagi ko'chma ma'noli lisoniy birlik.¹³⁵ Barqaror birikma tushunchasi ustida juda ko'p baxs-munozaralar mavjud bo'lib, dunyo lingvistlari bu borada qator mulohazalarni taqdim etadilar. Barqaror birikmalarga biz quyidagi leksik birliklarni misol keltirishimiz mumkin:

Binomiallar-har bir tilda uchrovchi bir semantik xususiyatga ega ikki leksik birliklarning birikmasidir (heaven and earth).¹³⁶ Binomiallar idiomatiklik (odds and

¹³⁵ Б.Менглиев. Хозирги ўзбек тили. Тошкент.-2020 й. 25-октябрь.-192 б.

¹³⁶ Y.Malkiel. 1959

ends) va madaniy o`ziga xosligi (Horut va Morut) tufayli tarjimada muammo tug`diruvchi birliklardir.¹³⁷ Binomiallar asosan semit tillarining diniy manbalarida uchraydi. Diniy binomiallar boshqa kollokatsiyalardan farqi ular idiomatik, alliterativ, madaniy turlarga bo`linadi. Diniy binomiallar tadqiqoti hali chuqur o`rganilmagan va bu borada Ibroniylar tilida arab binomiallarining qiyosiy tadqiqotiga asoslangan yagona tadqiqot mavjud.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Binomiallarni o`rganayotgan olimlar bunday konstruksiyalar uchun turli xil atamalardan foydalanganlar (Mollin, 2014). Tilshunoslar bir qator olimlar tomonidan qo`llanilgan binomial termini o`rnida boshqa terminlarni ishlastirishni ma`qul deb topadilar. Indiana universiteti lingvistlari Uilyam Kuper hamda Jon Robert Ross *freezes-qotishmalar* terminini, arab tilshunosi *conjoined lexical pairs*-yaxlit leksik juftliklar, T.Gorgis va Y. al-Tamimi *contrastive lexical couples*-chog`ishtirma leksik juftliklar, Piter Tiersma *qo`shma frazalar*, ayrim manbalarda *word pairs-juft so`zlar*, *doublets- ikkiliklar*, *Siamese twins-Siam egizaklari (keyinchalik conjoined twins-birlashgan egizaklar)* nomlari bilan ham atalgan.¹³⁸ Ammo, bu atamalarning hech biri Malkielning binomiallar borasidagi qarashlariga mos kelmaydi.

Yana boshqa bir olimlar barqaror birliklar sifatida quyidagi lingvistik hodisalarni ko`rsatib o`tadi. Ular: *idioms-idiomalar*, *gambits-*, *proverbs-maqollar*, *proverbial phrases-*, *catchphrases-*, *quotations-iqtiboslar* va *hokozo*.¹³⁹

Barqaror birlik sifatida Monomial deganda biz birikmasi bo`lgan terminologik ifodani nazarda tutamiz.

o`zgaruvchan va doimiy terminologik birliklar hosil qiluvchi bir yoki bir nechta kombinatsiyalar / klasterlar, ajralmas birikma sifatida va bog`lovchilar bilan birlashib, atama hosil qilishi mumkin bo`lgan ifodalar.

Muayyan bilim sohasi talablariga muvofiq birikma sifatida *trinomial* termini ham qo`llaniladi. Trinomial idiomaning yana bir turi bo`lib, unda uchta so`z birgalikda bitta manoni anglatadi. Misol: *I've looked here, there and everywhere for my glasses but cannot find them. Men ko'zoynagimni bu yerdan, u yerdan va hamma joydan izladim, lekin uni hech qayerdan topa olmadim. "Vegasdagi bakalavrlar"* nomli kinoda *faint of heart* birligini trinomiallar sifatida keltirgan.¹⁴⁰

Collocation-kollokatsiya termini etimologik jihatdan lotin tiliga tegishli bo`lib, *collocate-us*, *col (con)*-yonma-yon, birgalikda *locare*-joylashtirish ma`nosini

¹³⁷ A.Carvalho. 2008. Mollin, 2014

¹³⁸ Ghuzayyil Mohammed al Otaibi. Religious binomials in Hebrew and Arabic. Article. International Journal of Linguistics Literature & Translation . April 2021

¹³⁹ Richard J.Alexander. Fixed expressions in English: Reference book and the teacher.

¹⁴⁰ Hangover Movie.

bildiradi. Amerikalik tilshunos Zellig Xarris collocation-kollakatsiya terminini colligation termini bilan bog`laydi. *Colligation-kolligatsiya* bu- so`z birikmasi, grammatik so`zlarning jumalalarda yonma-yon joylashuvidir. (Bartsch 2004: 65).

Kollokatsiyalarning birinchi nazariyasiga nisbatan har biri alohida ma`no anglatadigan turli so`z turkumlariga mansub ikki so`zning kombinatsiyasi deya ta`rif beriladi. Ikkinchi nazariyaga ko`ra kollokatsiyalarga grammatik vositalar yordamida birikkkan ikki leksik birlik sifatida ham yondashish mavjud. Masalan: *under consideration, finish+ing*. Uchinchi nazariya-kollokatsiyalar tarkibidagi har bir so`z o`zicha ma`no kasb etadi. Va ular kollokatsiyalar tarkibida cheklangan ma`noga ega bo`ladi. Masalan white-oq so`zi. *White paint*-oq kraska, *white coffee*-sutli qahva birikmalarida biz white so`zining eng birinchi ma`nosi qo`llanilayotganligini ko`ramiz. Ammo, *white horse*-pishqirgan to`lqinlar, *white coal*-energiya beruvchi ichimlik birliklarida har ikki so`z ham ko`chma ma`no anglatmoqda. Bu yerda ular idioma emas, metafora bo`lib kelayapdi.¹⁴¹ Kollokatsiyalar va idiomalarni bir-biridan ajratib turuvchi jihat kollokatsiyalardagi har bir so`zning alohida ma`no kasb etishi hisoblansa, idiomalar tarkibidagi so`zlar birikmasi orqali ma`no anglashilishining imkonsizligidadir. Masalan: *river-rise* birligi kollokatsiyalarga misol bo`lsa *fly off the handle*-idiomatik birlikdir.

Ingliz tilidagi *It is raining cats and dogs* idiomasini olaylik. Ushbu idioma tarkibidagi rain-mustaqil ma`no anglatayapdi, ammo cats and dogs esa idiomatik ma`no kasb etmoqda. Shu jihatdan bu tuidagi idiomalar *partial or unilateral idioms* (qisman yoki bir tomonlama idiomalar) deb ataladi. Idiomalar barqaror birlik yoki erkin birlik sifatida shakllanadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni qayd etishimiz lozimki, o`zbek lingvistikasidan farqli holda ingliz lingvistikasida diniy barqaror birikmalar keng doirada tadqiq etilgan, bu esa ikki til o`rtasidagi umumiylik va xususiylikni aniqlashda, o`zbek lingvistikasiga shu sohaga oid ayrim o`zlashmalarni qabul qilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Б.Менглиев. Хозирги ўзбек тили. Тошкент.-2020 й. 25-октябрь.-192 б.
2. A.Carvalho. 2008. Mollin, 2014
3. Ghuzayyil Mohammed al Otaibi. Religious binomials in Hebrew and Arabic. Article. International Journal of Linguistics Literature & Translation . April 2021
4. Richard J.Alexander. Fixed expressions in English: Reference book and the teacher.

¹⁴¹ Gramley and Pätzold 1992

ISTIROHAT BOG'LARIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH IJTIMOIY EHTIYOJ SIFATIDA

Abdullayev Sarvarjon Shuxrat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Magistratura tinglovchisi, Mayor

ANNOTATSIYA

Parklar har qanday jamoaning ajralmas qismi bo'lib, dam olish va dam olish uchun boshpana bo'lib xizmat qiladi. Biroq, ushbu jamoat joylaridan to'liq bahramand bo'lish uchun jamoat xavfsizligini ta'minlash juda zarur. Parkka boruvchilarning xavfsizligi ustuvor vazifa bo'lishi kerak, chunki bu odamlarning umumiy farovonligi va qoniqishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu maqsadda hamma uchun xavfsiz muhitni kafolatlash uchun turli chora-tadbirlar amalga oshirilishi mumkin.

***Kalit so'zlar:** jamoat xavfsizligi, foydali tomonlari, faol jamiyat, salomatlik, havoni tozalash.*

ABSTRACT

Parks are an integral part of any community and serve as a haven for recreation and relaxation. However, in order to fully enjoy these public spaces, it is essential to ensure public safety. The safety of park goers should be a priority as it directly affects the overall well-being and satisfaction of the people. To this end, various measures can be taken to guarantee a safe environment for all.

***Key words:** public safety, benefits, active society, health, air purification.*

KIRISH

Parklar jamiyat uchun foydalidir, chunki ular jamiyat a'zolari uchun xavfsiz yig'ilish va tabiatdan zavqlanish uchun joy yaratadi, bolalar ota-onalarining nazorati ostida o'ynashlari mumkin va jamiyat a'zolari o'zlarining sog'lig'ini u bilan yaxshilashlari mumkin.

Sizning jamiyatingiz bog'lar va dam olish maskanlaridan to'liq foyda olishlari uchun bu joylar jozibali dizaynlarga, qulayliklarga va hamma uchun o'yin maydonlariga ega bo'lishi kerak. Bog'lar va o'yin maydonchalarining ahamiyati va ular sizning jamoangizga qanday foydali qo'shimchalar bo'lishi mumkinligi haqida bilib oling.

Jamoat bog'lari shaharlarda yoki shaharchalarda joylashgan bo'lib, ularning maqsadi atrofdagi jamoaga asoslangan keng ko'lamli dam olish ehtiyojlarini qondirishdir. Ushbu istirohat bog'larida barcha yoshdagi mehmonlarni bir kun

davomida faol va jo'shqin ushlab turish uchun ko'plab tadbirlar va qulayliklar mavjud.

Jamoat bog'larida odatda sayr joylari hamda pavilyonlar va hammom, avtoturargoh, yopiq dam olish maskani, tadbir maydoni va saytdagi park xizmatchilari kabi boshqa qo'shimcha imkoniyatlar mavjud.

Bog'larning afzalliklari ularni atrofdagi aholi uchun juda foydali bo'lmasdan qolmaydi. Shaharlarda jamoat bog'lari aholining tabiatdan zavqlanishi va faol bo'lishining yagona variantlaridan biri bo'lishi mumkin. Turli xil qulayliklardan tashqari, jamoat maydonchalari va bog'lar boshqa ko'p jihatdan foydalidir:

- Jamiyat identifikatsiyasiga hissa qo'shadi;
- Faol va passiv dam olish imkoniyatlarini taqdim etish;
- Barcha yoshdagilarga murojaat qilish;
- Jamiyat salomatligi va farovonligiga hissa qo'shish;
- Qimmatbaho yashil maydon yaratish.

Parklar ko'p sabablarga ko'ra odamlar uchun foydalidir va ular mahalliy o'simliklar va hayvonlar uchun ham foydalidir. Ayniqsa, shaharlar kabi shaharlarda bog'lar mahalliy flora va faunaning o'sishini rag'batlantirish uchun samarali maydon hisoblanadi. Bu hududni yovvoyi tabiat uchun yanada jozibali va xavfsiz qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Parklar va o'yin maydonchalari jamoalarning qalbiga aylanishi mumkin, ya'ni jamoani rejalashtiruvchilar ushbu dam olish joylarini yuqori ustuvorliklarga aylantirishlari kerak. Parklar jamiyatni obod qiladigan yashil maydonlardan ko'proq. Aholi, bolalar va mahalliy hukumatlar mahalliy park yoki o'yin maydonini yaratishdan foyda ko'rishadi.

Jamoat bog'lari odamlarni jismoniy sog'lig'ining o'ziga xos jihatlarini nazorat qilishga yoki kuchli va sog'lom jamoalar uchun umumiy sog'liq uchun foyda ko'rishga undashi mumkin. Parklar va dam olish maskanlari ruhiy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi, bu esa sog'lomlashtirish imtiyozlarini jismoniy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi.

Parklarga tez-tez tashrif buyurish depressiya va xavotirni kamaytirishga yordam beradi va parklarda mashq qilish stressni kamaytiradi va kortizol darajasini 15% ga kamaytiradi. Tabiatdan ilhomlangan manzaralarni shunchaki ko'rish kamroq qo'rquv va g'azab, ko'proq e'tibor va tinchlik haqidagi xabarlarga olib keladi.

Odamlar yaqin atrofda parkga ega bo'lganda, ular sog'lom va faol hayot tarzi uchun ochiq joylarga osongina kirishlari mumkin. Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari (CDC) xabar berishicha, amerikaliklarning 50% dan kamrog'i parkdan yarim mil uzoqlikda yashaydi, hatto kamroq odamlar xavfsiz yurish yoki

jamoat joylariga kirishlari mumkin bo'lgan hududda yashaydilar. Jamoat bog'lariga sarmoya kiritish ko'pchilik amerikaliklarga erkin mashq qilishlari va kundalik hayotlaridan dekompressiya qilishlari mumkin bo'lgan jamoat ochiq joylariga kirish imkoniyatini berishi mumkin.

Jamiyatlar o'z aholisining farovonligini oshirishi kerak. Dam olish maskanlarini yaratish ham ong, ham tana ehtiyojlarini qondirishning bir usuli hisoblanadi. Jamiyat a'zolari parkdan itlarini sayr qilish, basketbol o'ynash, velosipedda yurish yoki do'stlari bilan sayr qilish uchun foydalanishlari mumkin. Bo'sh joydan qanday foydalanishni tanlashlaridan qat'iy nazar, ular parkning jamoaga taqdim etadigan jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatlik imkoniyatidan o'ziga xos tarzda foyda olishlari mumkin.

Shaharlarda avtomobillar va sanoat korxonalaridan havoning ifloslanishi aholi uchun xavfli darajaga yetishi mumkin. Dam olish joylarida daraxt ekish bu muammo bilan kurashishi mumkin. Bir tadqiqot shuni ko'rsatadiki, hatto bir gektar daraxt ham atmosferadan 40,7 tonnagacha karbonat angidridni olib tashlashi mumkin. Assortiment daraxt turiga va uning yoshiga bog'liq bo'lsa-da, daraxtlarni o'z ichiga olgan bog'lar kabi jamoat joylari shahar va mahallalarga ekologik toza yechimlarni olib kirishga yordam beradi.

Ushbu yashil maydonlardan eng katta foyda olish uchun shaharlar havoning ifloslanishiga qo'shimcha hissa qo'shadigan texnik uskunalardan foydalanishni kamaytirishi kerak. Yashillikning havo ifloslanishini kamaytirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda qo'shgan hissasi shaharlardagi bog'lar va o'yin maydonchalarining ahamiyati sabablaridan biridir.

Odamlar parklarni izlaydilar, chunki ular tabiiy muhit va ijtimoiy muhit bilan aloqa o'rnatadilar, bu do'stlar bilan uchrashish, boshqalarni tomosha qilish va ko'rish imkoniyatini beradi, bularning barchasi qulaylik va xavfsizlik tuyg'usini o'rnatishga yordam beradi. Yaxshi ishlab chiqilgan va yaxshi foydalanilgan bog'lar va dam olish maskanlari mahalliy jamoalar uchun katta boylikdir. Ammo parklar xavfli bo'lib qolganda va natijada jamiyat uchun o'z qiymati va foydasini yo'qotganda, bu aktiv tezda javobgarlikka aylanishi mumkin.

Park va dam olish maskanlarini xavfsiz saqlash jamiyat salomatligining kalitidir va ulardan foydalanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Fuqarolar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar vazifa kuchi Markaziy bog'dan foydalanish va xavfsizligi bo'yicha parkdan foydalanish darajasi va xavfsizlikni idrok etish o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik borligini aniqladi: ijobiy faoliyatga jalb qilingan mehmonlar soni qancha ko'p bo'lsa, foydalanish darajasi ham shuncha ko'p bo'ladi.

Bu anti-ijtimoiy xatti-harakatlarni to'xtatadi. "Taskforce" dam olish dasturlarini yaxshilangan xavfsizlik bilan bog'lab, kengaytirilgan dam olish tashabbuslariga e'tibor ko'proq foydalanishni rag'batlantiradi va oxir-oqibat xavfsizroq park muhitini yaratadi. Parklarda va ochiq joylarda xavfsizlik masalasini hal qilish murakkab vazifadir. Muammoni faqat dizayn yoki bitta harakat bilan hal qilib bo'lmaydi.

Xavfsiz park maydonlarini yaratish va saqlash uchun zarur bo'lgan narsa dizayn, dasturlash, texnik xizmat ko'rsatish va fuqarolarning ishtirokini o'z ichiga olgan integral strategiyadir. Park xavfsizligi tadqiqotidagi asosiy topilma park va rekreatsiya o'rtasida bog'liqlik borligini ko'rsatadi.

Foydalanish va xavfsizlik: odamlar parklardan ijobiy va ko'p miqdorda foydalansa, hamma odamlar o'zlarini xavfsizroq his qilishadi. Ushbu topilmalarni tushuntiruvchi omillar ko'kalamzorlashtirishning jamiyat va shaxsiy farovonlikni yaxshilashdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Tabiiy muhitda o'tkaziladigan vaqt aqliy charchoqni ketkazadi, bu esa o'z navbatida psixologlar tomonidan zo'ravonlikning kashshoflari sifatida tan olingan e'tiborsizlik, asabiylashish va impulsivlikni yengillashtiradi.

Yashil maydonlar ham qo'shnilar o'rtasida tez-tez va tasodifiy aloqani qo'llab-quvvatlaydi. Park qanday qilib xavfsiz deb baholanadi? Ko'p jinoyat statistikasiga qarash orqali, lekin bu foydasiz bo'lishi mumkin.

Ko'pgina jinoyatlar, xususan jinsiy tajovuz, odatda xabar qilinmaydi va past jinoyatchilik statistikasiga aslida odamlar yuqori xavfli deb hisoblagan joylardan ketishlari ta'sir qilishi mumkin. Shunday qilib, bo'shliq xavfsiz yoki yo'qligini baholashda hislar muhimroq bo'lishi mumkin.

Xavfsizlik auditi usuli birinchi marta Kanadada METRAC (ayollarga qarshi jamoat zo'ravonligi) bo'yicha Metro harakat qo'mitasi va Shimoliy Amerika bo'ylab shahar muhitida sezilgan xavfni baholash uchun muvaffaqiyatli ishlatilgan. Xavfsizlik auditi jarayoni ma'lum bir makon foydalanuvchilarining ishtiroki va fikr-mulohazalariga asoslanadi. Bu jismoniy muhitni baholashga imkon beradi

Foydalanuvchilar xavfsizlik muammolarini aniqlashda ishtirok etganda, ular yechimning ajralmas qismiga aylanadi. Jamiyatga asoslangan xavfsizlik tekshiruvlari natijalari shaxsiy xavfsizlikni oshirish strategiyasini yaratish va amalga oshirish uchun muhim boshlang'ich nuqtadir. Auditlar, shuningdek, parklarni xavfsizroq qilish uchun dizayn, operatsion va dasturiy yechimlarni inventarizatsiya qilishni ta'minlaydi.

XULOSA

Jamoat joylari sifatida bog'lar dam olish va dam olishni istagan shaxslar uchun xavfsiz boshpana berish uchun mo'ljallangan. Jamoat xavfsizligini ta'minlash parkga

tashrif buyuruvchilar qo'rquv va tashvishsiz ushbu joylardan to'liq bahramand bo'lishlarini kafolatlashning asosiy maqsadi bo'lishi kerak.

Samarali yoritish, tez-tez patrullik qilish, kuzatuv tizimlari, aniq belgilar, jamoat xavfsizligi ustaxonalari va huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik kabi turli xil strategiyalarni amalga oshirish orqali jamoalar hamma uchun behavotir va xavfsiz muhit yaratishi mumkin. Faqatgina jamoaviy sa'y-harakatlar orqali biz parklarda jamoat xavfsizligiga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirishimiz, jamiyat farovonligini oshirishimiz va barcha shaxslar uchun hayot sifatini oshirishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Bryant Park Case Study, jamoat joylari uchun loyiha, 2005-yil;
2. Shaharlar xavfsizroq mahallalarni yaratish uchun bog'lardan qanday foydalanadilar, shahar bog'lari forumi bo'yicha brifing hujjatlari, Amerika rejalashtirish assotsiatsiyasi, 2012-yil;
3. Jim Xilborn, shahar bog'larida jinoyatchilik va tartibsizlik bilan shug'ullanish, AQSh adliya vazirligi, jamiyatga yo'naltirilgan politsiya xizmatlari idorasi. 2009-yil;
4. Mark Frensis, FASLA, landshaft arxitekturasi uchun amaliy ish usuli, Bryant Park Case Study, landshaft arxitekturasi fondi, Washington, Kolumbiya, 1999-yil.

BIOMETRIK MA'LUMOTLARNI TO'PLASH VA ULARDAN FOYDALANISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNLAR

Jo'rayeva Sevinchoy Zavqiddinovna

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 2-bosqich talabasi
sevinch2105@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy dasturlar, saytlar hamda mobil-illovalar yordamida barmoq izlari, yuzni aniqlash, iris(ko'znining rangdor pardasi)ni aniqlash, retina(ko'z orqa yupqa pardasi)ni aniqlash, kaft izlari, qo'l gometriyasi, DNK, ovoz tovushidan aniqlash kabi biometrik ma'lumotlarni to'plash, foydalanishni tartibga solishni belgilash, ilmiy-nazariy va huquqiy jihatdan tahlil qilingan bo'lib, bu borada biometrik ma'lumotlardan foydalanishning huquqiy maqomini muqobillashtirish yuzasidan milliy qonunchiligimiz o'rganiladi. Shuningdek, tashkilotlar hamda korxonalar tomonidan jismoniy shaxslarning biometrik ma'lumotlarini to'plash va foydalanish huquqning obyekti bo'la oladimi yoki ushbu huquqiy munosabat xalqaro qonunlar yordamida tartibga solinadimi degan savollarga javob beriladi. Ijtimoiy hayot tendensiyalari mutassil yangilanishlar, zamonaviy axborot komunikatsiya va texnologiyalarini jadal rivojlanishi, biometrik ma'lumotlarni to'plash va foydalanish doirasini uzoq yillar davomida yaratilib, takomillashtirilib kelinayotgan milliy qonunchiligimiz qamrab ola olishi yoki bo'lmasa yangi huquq normalari, tarmoqlari va insitutlariga bo'lgan talab bor yo'qligini ochib beriladi.

Kalit so'zlar: barmoq izlari, GDPR, an'anaviy identifikatsiya, CCPA, BIPA, sun'iy intellekt, Yevropa Ittifoqi.

ABSTRACT

In this article, using modern programs, websites and mobile applications, fingerprints, face detection, iris detection, retina detection, palm prints, hand geometry, DNA, collection of biometric data such as voice recognition, determination of regulation of use, analyzed from a scientific-theoretical and legal point of view, and in this regard, our national legislation on alternative legal status of the use of biometric data is studied. Also, questions will be answered as to whether the collection and use of biometric data of individuals by organizations and enterprises can be the object of law or whether this legal relationship is regulated by international laws. The trends of social life are continuous updates, the rapid development of modern information communication and technologies, the scope of

collection and use of biometric data can be covered by our national legislation, which has been created and improved for many years, or not, it depends on new legal norms, networks and institutes. it will be revealed whether there is a demand.

Key words: fingerprints, GDPR, traditional identification, CCPA, BIPA, artificial intelligence, European Union.

АННОТАЦИЯ

В этой статье используются современные программы, веб-сайты и мобильные приложения, отпечатки пальцев, распознавание лиц, распознавание радужной оболочки глаза, распознавание сетчатки, отпечатки ладоней, геометрия руки, ДНК, сбор биометрических данных, таких как распознавание голоса, определение регулирования использования, анализируются с помощью с научно-теоретической и правовой точки зрения, и в этой связи изучено наше национальное законодательство об альтернативном правовом статусе использования биометрических данных. Также будут даны ответы на вопросы о том, может ли сбор и использование биометрических данных физических лиц организациями и предприятиями быть объектом права или регулируются ли эти правоотношения международным правом. Тенденции общественной жизни – постоянное обновление, стремительное развитие современных информационных коммуникаций и технологий, сфера сбора и использования биометрических данных может быть охвачена нашим национальным законодательством, которое совершенствуется на протяжении многих лет или же может быть выясняется спрос новым нормам, сетям и институтами права.

Ключевые слова: отпечатки пальцев, GDPR, традиционная идентификация, CCPA, BIPA, искусственный интеллект, Европейский Союз.


KIRISH

Ma'lumki, so'nggi yillarda kiberjinoatlar va kompyuter tizimlari xavfsizligi bilan bog'liq muammolar ko'paydi. Tashkilotlarga kiberhujumlar xavfi ortib bormoqda, bu esa yuridik va jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlariga, kredit kartalarining ma'lumotlariga va eng xavfli biometrik ma'lumotlariga xavf solmoqda. Biroq, butun jahon bo'ylab kiberxavflarni oldini oluvchi va tartibga soluvchi qonunlarda sezilarli bo'shliqlar mavjudligi yaqqol nomoyon bo'lmoqda. Ushbu tadqiqot biometrik ma'lumotlarni to'plashni tartibga solish, sohadagi qoidalarining kamchiliklarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berishga qaratilgan.

Biometrik ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi qonunlarni tahlil qilishdan oldin, biometrik ma'lumotlar tushunchasiga to'xtalib

o‘tsak. Biometrik ma’lumotlar deganda, jismoniy shaxsning jismoniy, fiziologik yoki xulq-atvor xususiyatlariga tegishli texnik qayta ishlash natijasida olingan, ya’ni jismoniy shaxsning yuz tasvirlari yoki barmoq izlari ma’lumotlari kabi noyob identifikatsiya qilish imkonini beruvchi yoki tasdiqlovchi shaxsiy ma’lumotlardir.[1]

Biometrik ma’lumotlarning tarixi haqida gap boradigan bo‘lsa, tarix qadimgi davrlarga borib taqaladi. Barmoq izlaridan muhr yoki imzo o‘rnida qadimgi Bobil va Xitoyda ishlatilgan. XX asr boshlariga kelib huquqni muhofaza qilish organlari barmoq izlaridan keng ko‘lamda foydalana boshlashdi. Quyidagi diagrammada misollar keltirib o‘tiladi:



Ovozni aniqlash, yuzni aniqlash kabi boshqa biometrik ma’lumotlardan foydalanish uchun texnologiyalar XX asrning ikkinchi yarmida yaratildi. Ushbu texnologiyalar 2010-yildan boshlab turli xil tijorat maqsadlarida foydalanish ommalashdi va hozirgi kunga kelib ilovalarda keng qo‘llanilmoqda. Biometrik ma’lumotlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, butun jahonda ma’lumotlarni himoya qilish uchun yagona bir qonunning, ya’ni xalqaro shartnomaning mavjud emasligi eng katta muammolardan biri bo‘lib kelmoqda.

Usullar

Biometrik ma’lumotlarni to‘plash va foydalanishdan so‘z borar ekan, avvalo, bu holatni tartibga soluvchi qanday qonun hujjatlari mavjudligi haqida o‘rganish lozim. Jahon davlatlaridagi holatga ko‘z tashlansa, xalqaro toifadagi yagona bir hujjatning yo‘qligi, davlatlarning milliy qonunchiligida bu munosabatlar tartibga solingan bo‘lsagina qonunning mavjudligi yohud mazkur hujjatlarning umuman yo‘qligi sezilarli darajada katta bo‘shliqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ammo Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar shaxsiy va biometrik ma’lumotlarni himoya qilish uchun bitta, yagona hujjatga amal qilishadi.

GDPR – ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha umumiy reglament hisoblanib, Yevropa Ittifoqi va Yevropa iqtisodiy hududidagi ma’lumotlarni himoya qilish va maxfiylik to‘g‘risidagi Yevropa Ittifoqi qonunchiligidagi nizomdir. GDPR ning asosiy vazifalari bu Yevropa Ittifoqidagi ham davlat, ham xususiy tashkilotlar

tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni Yevropa Ittifoqidan tashqariga o'tkazishni tartibga soladi.

GDPR ishlash mexanizmi o'rganilar ekan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida biometrik ma'lumotlarni to'plash va foydalanish tartibga solingani aniqlandi. Qonunning asosiy vazifalaridan biri Yevropa Ittifoqi va Yevropa iqtisodiy zonalari aholilarining ma'lumotlarini himoya qilish hisoblanadi. Rivojlangan asrda ko'plab tashkilot, hamda korxonalar jismoniy shaxslarning biometrik ma'lumotlarini ularning xohishlariga ko'ra, yoki ulardan so'ramasdan ham to'plamoqda. Misol uchun, banklarning ilovalariga kirish uchun barmoq izi yoki yuzni skanerlashni talab etadi. Albatta, ilova ilk marotaba ochilganda biometrik ma'lumotlardan foydalanishi mumkin yoki mumkin emasligini so'rashi yoki so'ramasdan ham ishlatishi mumkin. Aynan shu kabi ilovalarga kiber hujumlar uyushtirilsa, biometrik ma'lumotlar o'g'irlanishi yoki zarar yetishi mumkin.

Biometrik ma'lumotlar hozirgi kunga kelib xavfsizlik va qulaylikni yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan kuchli vositalardan biri hisoblanadi. Bunday turdagi ma'lumotlardan foydalanuvchi bir-biridan farq qilovchi ilovalar va sohalar kundan kunga ko'payib bormoqda, jumladan:

- Xavfsizlik va kirish nazorati: Ko'plab ilovalarda ommalashgan shaxsning shaxsini tasdiqlash orqali ularga xavfsiz tizimga kirish huquqini berish jarayonida ham biometrik ma'lumotlardan foydalaniladi. Misol qilib, barmoq izlarini skanerlash orqali smartfon va noutbuklarni qulfdan chiqarishni aytish mumkin.

- Huquqni muhofaza qilish organlari: Biometrik ma'lumotlarning ahamiyati katta bo'lgan yana bir soha bu huquqni muhofaza qilish organlaridir. Organ xodimlari jinoyatchilarni aniqlash uchun barmoq izlari bazasidan foydalanishadi.

- Imigratsiya va chegara nazorati: Ma'lumki, turli davlatlarga tashrif buyuruvchilarni mamlakatga kirayotganda yuz skaynerlanadi yoki barmoq izlari talab etilib, tekshiruvdan o'tkaziladi. Bu holat sayohatchilarning shaxsini tekshirish va noqonuniy immigratsiyaning oldini olish uchun ishlatilishi mumkin.

- Moliyaviy xizmatlar: Raqamlashyotgan davrda ko'plab banklarda yoki ularning ilovalarda biometrik ma'lumotlar shaxsni tasdiqlash uchun talab etiladi. Bu firibgarlikning oldini olishga yordam beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan sohalar va ilovalarning deyarli barchasi biometrik ma'lumotlarni to'playdi va foydalanadi. Huquqni muhofaza qilish organlari va chegara nazoratining biometrik ma'lumotlardan foydalanishi butun dunyo bo'ylab kuzatilib asosiy maqsad tinchlikni, qonun ustivorligini ta'minlash, jinoyatchilikning oldini olish hisoblanadi.

Hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelayotgan raqamlashgan texnologiya o'zi bilan bir qancha qulayliklar olib kelmoqda. Misol tariqasida, an'anaviy identifikatsiya shakllaridan biri bo'lgan pin-kodlarni osonlikcha buzib kirib, insonlarning shaxsiy hayotlariga xavf solinmoqda. Aynan shu hollarda an'anaviy identifikatsiya shakllaridan qochib biometrik ma'lumotlardan foydalanish bir qator afzalliklar yaratadi. Biometrik ma'lumotlarni soxtalashtirish yoki o'g'irlash mushkul jarayon hisoblanadi. Ammo, biometrik ma'lumotlardan foydalanish bilan bog'liq muammolar ham yo'q emas. Masalan, biometrik ma'lumotlar buzilgan bo'lsa, u shaxsni taqlid qilish, himoyalangan hududlarga bema'lol kirish uchun vaziyat yaratadi.

XXI asr sun'iy intellektlarning rivojlanishi va yangi pog'onaga ko'tarilishi bo'ldi. Ijtimoiy tarmoqlarda uzatilayotgan ijtimoiy roliklarda sun'iy intellektning rivojlanishi orqali kelajakda biometrik ma'lumotlarni soxtalashtirishning iloji borligi namoyon bo'lmoqda, bunday hollarda barcha shaxsiy ma'lumotlarni xavfsizligini ta'minlash har bir foydalanuvchining zimmasidagi vazifa bo'lib qoladi. Ya'ni, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarni, kredit karta raqamlarni va foto suratlarni ulashish vaqtida xavfsizlik choralari ko'rish kerak.

Natijalar

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlil qilinsa, butun jahon uchun biometrik ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi qonun kerak degan fikrga boriladi. Misol uchun, Qo'shma Shtatlarda yagona keng qamrovli federal qonun yo'q. Ammo, bir qancha shtatlarda, jumladan Illinoys, Texas va Vashington shtatlarida 2017-yilda biometrik maxfiylik qonunini qabul qildi. Kaliforniyada biometrik ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qoidalar 2018-yil oxiriga kelib kuchaytirildi.

Kaliforniya iste'molchilarining maxfiyligi to'g'risidagi qonun (CCPA) shtat aholisi uchun maxfiylik huquqlari va iste'molchilarning himoyasini kuchaytirishga qaratilgan shtat qonuni hisoblanadi va qonun 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirdi. CCPA Kaliforniya Bosh prokuraturasi tomonidan amalga oshiriladi. CCPAni buzgan korxonalar har bir qoidabuzarlik uchun 7500 dollargacha jarimaga tortilishi mumkin.[2]

Jarimalar haqida so'z borar ekan, GDPR ni buzgan holatda qanday jarimaga tortilishini ham aytib o'tish lozim. Quyida amaliyotdan misol keltirib o'tiladi. GDPR 2020-yil 30-oktabrda I.C.O Marriottga 2014-yildan boshlab 339 million mehmonning shaxsiy ma'lumotlari o'g'irlangani sababli 18.4 million funt sterling miqdorida jarima soldi. [3] Jarima solinmasa ham bo'lar edi degan fikrlar bo'lishi mumkin, chunki kompaniya Amerika Qo'shma Shtatlarida joylangan edi. Ammo mijozlarining

30 millionga yaqini Yevropa iqtisodiy hududlarining aholilarini tashkil etar va ularning shaxsiy ma'lumotlari, passport raqamlari va kredit to'lovlari bilan bog'liq masalalar oshkor bo'lgan edi. Bu vaziyatda GDPR o'z foydalanuvchilarini, albatta, himoya qilishi kerak edi va u shunday ham qildi.

Ta'kidlanganidek, 339 million mehmonning ma'lumotlari o'g'irlangan bo'lib, undan faqatgina 30 million insonning huquqlari himoya qilindi. Bu holat esa, o'z o'zidan har bir davlat uchun shaxsiy va biometrik ma'lumotlarni himoya qiluvchi qonun kerakligiga ishora beradi.

Biometrik ma'lumotlar tez sur'atlar bilan ommalashib borayotganligi sababli, AQSh va Buyuk Britaniya kabi davlatlar o'z fuqarolarini ommaviy kuzatish uchun biometrik vositalardan foydalanishni boshladilar. Bu ma'lumotlar subyekti sifatida barcha uchun maxfiylik va ma'lumotlarni himoya qilishda yangi muammolarni yaratishi mumkin. Biroz tassavvur qilib ko'ring, yuz xususiyatlaringiz va barmoq izlaringizdan noto'g'ri foydalanish mobil telefon raqamingizdan noto'g'ri foydalanishdan ko'ra daxshatliroq bo'lishi ham mumkin. Ya'ni, telefon raqamingiz bilan biron bir tarmoqda yanglishlik bilan ro'yxatdan o'tdingiz, endi sizning raqamingiz ularni bazasida bor. Ammo siz biron tarmoqqa kirshingiz uchun yuzni skanerlash yoki barmoq izini olish kerakligini so'rasa va siz buni bajarsangiz, keyinchalik bu tarmoq soxtaligi haqida xabar topsangiz, natijada sizning biometrik ma'lumotlaringiz ularda mavjud bo'ladi.

Illinoys biometrik ma'lumotlarning maxfiyligi to'g'risidagi qonun - BIPA Qo'shma Shtatlardagi eng keng qamrovli biometrik ma'lumotlar qonunidir. Bu xususiy tashkilotlardan biometrik ma'lumotlarini yig'ishdan oldin jismoniy shaxslardan rozilik olishi, ularning ma'lumotlaridan qanday foydalanilishi va saqlanishi to'g'risida jismoniy shaxslarni xabardor qilishi hamda biometrik ma'lumotlarni ruxsatsiz kirish, foydalanish yoki oshkor etilishidan himoya qilishini talab qiladi. BIPA, shuningdek, qonun buzilishi natijasida zarar ko'rgan shaxslar uchun shaxsiy da'vo huquqini beradi.

Shtat qonunlari oddiy ko'rinishi mumkin, ammo bu qonunlar biometrik ma'lumotlarni himoya qilish uchun yaratilayotgan qonunlar uchun yaxshi andoza bo'la oladi. Sababi, qonunda eng muhim jihatardan biri rozilik va xabardor qilish muhofazalanadi. Biometrik ma'lumotlarni to'plash bilan shug'ullanish tartibga solinar ekan, har bir shaxsdan uning ma'lumotlari olinishidan avval roziligini olish zarur.

Tadqiqotlar o'rganilar ekan, biometrik ma'lumotlarni to'plashni tartibga solish shaxsiy daxlsizlikni ta'minlovchi asosiy manbalardan biri ekanligi aniq bo'ldi. Shaxsiy daxlsizlik tushunchasi sharhlansa, bu shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini

to‘plash, foydalanish va oshkor qilishni nazorat qilish huquqi degan ma’noni yaratish mumkin. Bu xalqaro huquqda va ko‘plab mamlakatlar qonunlarida tan olingan asosiy inson huquqlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida ham bu huquq mustahkamlab qo‘yilgan: “Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega”. Bosh qomusimizda bu huquqni e’tirof etilishi har bir aholimizning shaxsiy daxlsizgini ta’minlashga qaratilgan harakatlardan so‘zlaydi.

Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunning 26-moddasida biometrik va genetik ma’lumotlarga ishlov berish mustahkamlab qo‘yilgan. Moddada subyektning shaxsini aniqlash uchun foydalandigan biometrik va genetik ma’lumotlardan faqatgina subyektning roziligi bilan ishlov berilishi aytilgan. Faqat xalqaro shartnomalarni ro‘yobga chiqarish, odil sudlovni amalga oshirish va ijro ishini yuritish mustasno qiluvchi holatlar hisoblanadi. Yuqoridagi qonunlardagi moddalarni umumlashtirib, milliy qonunchilikda biometrik ma’lumotlarni to‘plash va foydalanish tartibga solinishi aniqlandi. Ammo bu sohada bir qancha bo‘shliqlar borligi ham ayon bo‘ldi.

XULOSA

Biometrik ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunlar muhim ahamiyatga ega, chunki ular biometrik ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini himoya qilishga yordam beradi. Shuningdek, ular biometrik ma’lumotlardan adolatli va axloqiy tarzda foydalanilishini ta’minlashga zamin yaratadi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirilsa, biometrik ma’lumotlar har bir insonning shaxsiy huquqi hisoblanadi. Ularni to‘plash yoki foydalanishda, albatta, shaxsning roziligi talab etiladi. Biometrik ma’lumotlarga zarar yetkazilsa, qonunlar yordamida himoya qilanadi va zarar qoplanish uchun tovon puli undiriladi.

Tadqiqot davomida ko‘plab mamlakatlarda biometrik ma’lumotlarni muhofaza qiluvchi qonunlar mavjudligi o‘rganildi. Milliy qonunchiligimizda biometrik ma’lumolar haqida bir qancha moddalar topish mumkin, ammo aniq va to‘liq tartibga soluvchi qonunning yo‘qligi haqiqat. Shu sababli qonunchiligimizga taklif qilib quyidagilar bildiriladi:

Biometrik ma’lumotlarni muhofaza qilish to‘g‘risida alohida qonun loyihasi ishlab chiqilishi lozim. Bu qonun yordamida jismoniy shaxslar o‘z huquqlarini qanchalik himoya qilinayotganini, qanday asoslarda ularning haq-huquqlari buzilishini bilib olishadi.

Biometrik ma’lumotlardan foydalanish odat tusiga kirmoqda, albatta bu ko‘plab qulayliklarni olib kelayotgani sir emas. Vaqtni tejash, qog‘ozbozlikni oldini olish kabi ko‘plab foydali tomonlari mavjud. Ammo tanganing ikkinchi tomonida o‘ziga yarasha kamchiliklar ham yo‘q emas. Ikkinchi taklif esa amaliyot uchun beriladi:

Avvalo universitet hududiga kirishida oʻrnatilgan turniketlarni tahlil qilinsa. Talabalarni vaqtin tejash, yaʼni biron bir maʼsul shaxsga talabalik guvhnomasini koʻrsatib kirish eshik oldida tirbandlikni vujudga keltiradi va buning oqibatida navbat uzayib, talabalar darslarga kechikadi. Qolaversa, talabalik guvohnomasini unutilib qoldirish hech gap emas. Biroq turniket shaxsni tasdiqlagandan soʻng ekranda shaxsning pasportdagi rasmi va ism, familyasini paydo boʻladi. Kuzatuvlar natijasida shuni aytish mumkin, bu holat barcha talabalar uchun ham qulay emas, aksincha noqulayliklar tugʻdiradi. Pasportdagi rasm va qolgan maʼlumotlarning barchasi shaxsiy maʼlumot hisoblanib, biometrik maʼlumotlarning shaxsni tasdiqlashi natijasida paydo boʻlmoqda. Bu holat barchani oldida koʻrsatilishi maxfiylik prinsipiga zid holatdir. Taklif oʻrnida quyidagi bildiriladi aytib, turniketda faqat yozuv chiqarilishi maqsadga muvofiq. Misol uchun ‘shaxsingiz tasdiqlandi’, ‘oʻtishingiz mumkin’ kabilar.

REFERENCES

1. Maryann C. Stallone (2019). The Proliferation of Biometric Data and Legislation to Regulate its Use. *Cyber & Privacy Alert*
2. Mualliflar jamoasi (2021). Biometric data and privacy laws (GDPR, CCPA/CPRA).
3. Marcus Smith, Seumas Miller (2021). Biometric Identification, Law and Ethics. Kitob 57-76.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi “Oʻzbekiston” Toshkent, 2023. B. 118
5. Shaxsga doir maʼlumotlar toʻgʻrisida qonun

ЎЗБЕКИСТОНДА ЧЕТ ЭЛ ЮРИДИК ШАХСЛАРИНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШНИ КОЛЛИЗИОН-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Эргашев Азамат Эргашевич

ТДЮУ Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси доценти в.б.,

Email: Azamat_8668@mail.ru

АННОТОЦИЯ

Ушбу мақолада халқаро хусусий ҳуқуқда юридик шахсларни қайта ташкил этиш ва тугатишни ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштиришга қаратилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, ҳуқуқни қўллаш амалиёти, айрим хорижий мамлакатлар қонунчилиги ва амалиёти ҳамда юридик фанда мавжуд бўлган концептуал ёндашувлар, илмий-назарий қарашлар ва ҳуқуқий категориялардан иборат эканлиги таҳлил қилинган.

***Калим сўзлар.** Юридик шахс, қайта ташкил этиш, коллизия, чет эл юридик шахслари, қўшиб юбориш, қўшиб олиш, жамиятни қўшиб юбориш, ташкилий-ҳуқуқий шакли.*

ABSTRACT

In this article, it is analyzed that it consists of normative legal documents aimed at improving the legal regulation of the reorganization and liquidation of legal entities in international private law, the practice of applying the law, the legislation and practice of some foreign countries, as well as the conceptual approaches, scientific-theoretical views and legal categories that exist in legal science. done

***Keywords.** Legal entity, reorganization, collision, foreign legal entities, merger, acquisition, merger of society, organizational-legal form.*

КИРИШ

Замонавий шароитларда иқтисодий-ижтимоий алоқаларнинг кенгайиши, чет элементи билан мураккаблашган турли юридик шахслар иштирокидаги муносабатларни самарали тартибга солиш долзарблигини белгилаб беради.

Миллий қонунчилик чет эл юридик шахсларининг Ўзбекистон Республикасида фаолият юритиши учун кенг имкониятлар яратиб беради. Статистик маълумотлар шуни кўрсатадики, “2019 йилда Ўзбекистон Республикасида янги ташкил этилган корхона ва ташкилотларнинг (деҳқон хўжаликлари ва фермер хўжаликларсиз) 339 мингта рўйхатга олинган. Шундан 323 мингтаси фаол, 15,5 мингтаси нофаол. Янги ташкил этилганлари 55

мингтани ташкил этган бўлса, 16,7 мингта ташкилот фаолияти тугатилган. Бу кўрсаткичларнинг асосий қисми Тошкент шаҳрига тўғри келади”¹⁴².

Иқтисодий фаолият турлари бўйича кичик корхоналар (деҳқон хўжаликлари ва фермерларсиз) янги ташкил этилганларининг кўрсаткичлари «2017 йилда 31,3 минг, 2018 йил 38,2 минг, 2019 йил ҳолатида эса, 48,9 мингтани ташкил этган бўлса, тугатилганлари сони 2017 йилда 25,2 минг, 2018 йил 21,9 минг, 2019 йил ҳолатида эса, 15,6 мингтани ташкил этди»¹⁴³.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Юқоридаги кўрсаткичлари юридик шахсларни фаол ёки нофаол ҳолатда бўлиши, унинг муайян вақт оралиғида албатта қайта ташкил этилиши ёки тугатилишини кўрсатади. Юридик шахсни қайта ташкил этиш унинг ташкилий-ҳуқуқий шакли, миллий ҳуқуқ тизими ҳамда коллизия нормалар билан боғлиқлиги нуқтаи назардан қандай ўзига хосликларга эга? деган савол туғилиши табиий. Қайд этиш лозимки, юридик шахсни қайта ташкил этиш бўйича миллий ҳуқуқшунос олимлар томонидан муайян тадқиқот ишлари олиб борилган бўлсада, айнан ушбу саволлар қўйилмаган.

Фуқаролик ҳуқуқида юридик шахсларни коллизия ҳуқуқий тартибга солиш Фуқаролик кодексининг 1177-моддаси назарда тутилган бўлиб, “унда агар Ўзбекистон Республикасининг қонунида чет эл юридик шахслари учун бошқача тартиб белгиланган бўлмаса, чет эл юридик шахслари Ўзбекистон Республикасида фуқаролик қонун ҳужжатлари билан тартибга солинадиган тадбиркорлик фаолиятини ва бошқа фаолиятни амалга ошириш назарда тутилган”¹⁴⁴.

Бу ўринда Ўзбекистонда чет эл юридик шахсларини қайта ташкил этишни коллизия-ҳуқуқий тартибга солиш зарурати нимада? деган ўринли савол туғилади. Юридик адабиётларда мазкур масалада турлича фикрлар мавжуд. Хусусан, М.М.Богуславскийнинг фикрича, “коллизия норма ҳаволаки хусусиятга эга, у фақат тегишли масалани ҳал қилувчи моддий ҳуқуққа ҳавола қилади. Халқаро хусусий ҳуқуқ дастлаб айнан коллизия ҳуқуқ тарзида вужудга келган ва ҳозирга қадар бир қатор давлатларда шундай қабул қилинади”¹⁴⁵.

¹⁴² http://web.stat.uz/open_data/uz/18.1%20Number%20of%20enterprises%20and%20organizations%20by%20area_uzb.pdf

¹⁴³ http://web.stat.uz/open_data/uz/18.4%20Number%20of%20small%20businesses%20by%20types%20of%20economic%20activity%20in%20terms%20of%20territory_uzb.pdf

¹⁴⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 11-12-сон, 1-модда

¹⁴⁵ Богуславский М.М. Международное частное право. Издание пятое, переработанное и дополненное. – Москва.: Юристъ, 2005. 60-61-б. (-510-с.)

С.Джолдасованинг таъкидлашича, “халқаро мерос ҳуқуқида коллизияни шундай ҳуқуқий ҳолат сифатида аниқлаш лозимки, бунда меросга оид муносабатлар чет эл элементи орқали ўзаро таъсир йўли билан тартибга солиш имконини берувчи икки ёки ундан ортиқ миллий ҳуқуқий тизим билан боғланади”¹⁴⁶.

Муаллифнинг бу борадаги фикрларида айнан коллизион ҳуқуқий нормалар етарли даражада барқарорликка эга бўлишни тақазо этади. Бу эса, юридик шахсларга нисбатан қўллаш ва ҳуқуқий тартибга солишга имкон беради. Коллизион нормаларда ифодаланган юридик терминлар бевосита халқаро хусусий ҳуқуқда қўлланиладиган терминларга мос келишини англатади. Асосийси, юридик терминлар чет элда мавжуд юридик институтларни тезкорлик билан, оқилона ва тўлиқ таснифлашга имкон бериши ва бу билан тегишли муносабатга нисбатан қўлланиши мумкин бўлган нормани рўёбга чиқаришни таъминлайди.

Бу ўринда коллизион норма фақат мерос муносабатларига эмас, балки халқаро хусусий ҳуқуқ предметиға кирувчи бошқа масалаларни ҳам қамраб олади. Ҳар қандай ҳолатда ҳам коллизион норма албатта бир неча миллий ҳуқуқ тизими билан алоқада бўлади. Коллизион норма ҳавола қилсада ундан у ҳавола қилган муайян моддий-ҳуқуқий норма асосида фойдаланиш мумкин. Унинг воситасида юзага келган муаммо қонун ҳужжати асосида ҳал қилинади. Бирок, бу билан коллизион норманинг аҳамиятини шунчаки кўрсаткич берувчи, маълумот тақдим қилувчи норма сифатида қабул қилмаслик лозим. Чунки, коллизион норма моддий ҳуқуқий норма билан биргаликда фуқаролик муомаласи иштирокчилари учун муайян қоидаларни назарда тутади.

Юридик шахсларни қайта ташкил этиш ва тугатишга доир чет эл элементи билан мураккаблашган муносабатларда коллизион нормаларни қўллаш муайян мураккабликларни ҳам келтириб чиқаради. Жумладан, коллизион нормани қўллашда у чет эл давлати ҳуқуқиға ҳавола қилар экан суд ёки бошқа давлат органи фаолиятини мураккаблаштиради. Чунки, ушбу орган ўзининг миллий қонунчилиги, икки томонлама тузилган шартномаларға асосланган ҳолда коллизион нормани қўллаш орқали чет эл ҳуқуқини қўллаши лозим. Чет эл ҳуқуқи мазмунини аниқлаш, унинг моҳиятини тушуниш эса, яна бошқа масалаларни келтириб чиқариши мумкин.

Л.Х.Мингазовнинг фикрича, “оптимал ҳуқуқий нормани яратишға ҳаракат қилиш зарур. Бунда оптимал нормани тавсифловчи хусусият бўлиб норма

¹⁴⁶ Джолдасова С.Д. Регулирование отношений наследования в международном частном праве на основе коллизионных норм. Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Т.: ТГЮИ, 2010. 12-б.

мазмунининг ва таркибий элементларининг такомиллашганлиги, ифодаланишнинг аниқлиги ва бошқа техник-юридик кўрсаткичлар ҳисобланади. Ҳуқуқий норманинг самарадорлиги ҳуқуқий таъсир кўрсатишнинг муваффақияти ва самарадорлигини таъминлайди”¹⁴⁷.

Л.Х.Мингазовнинг фикрини А.Я.Аухатов қўллаб-қувватлайди ва “ҳуқуқий норманинг амал қилиши ва самарадорлиги унинг ички такомили, ижтимоий қиймати, оптималлиги ва бошқа хусусиятлари билан боғлиқ деб ҳисоблайди”¹⁴⁸. Қонун чиқарувчи коллизион нормаларни шакллантиришда муаммони “ҳалқаро микёсдаги қонун чиқарувчи” сифатида кўриши зарур. Бунда “у бошқа ҳуқуқий тартиботларга эга давлатларнинг моддий ҳуқуқида мавжуд фарқлар, шу жумладан компанияларнинг ташкилий-ҳуқуқий шакллари маълум бўлади”¹⁴⁹.

А.Б.Левитин фикрича “коллизион нормалар чет эл элементлари билан мураккаблашган фуқаролик ҳуқуқий муносабатларни тартибга солмайди, уларнинг вазифаси асосан қўлланиши зарур бўлган бирон бир давлатнинг ички моддий ҳуқуқи нормасини кўрсатишдан, яъни унга ҳавола қилишдан иборат. Коллизион норма воситасида вужудга келган муносабатларни келажакда тартибга солиниши маълум ҳуқуқий соҳанинг моддий-ҳуқуқий нормаси воситасида амалга оширилади”¹⁵⁰.

Х.Рахмонқуловнинг фикрича, “фуқаролик-ҳуқуқий ва халқаро хусусий ҳуқуқ нормаларини бир-биридан ажратиб, ёки уларни бир-бирига қарама-қарши қўйиб бўлмайди, фуқаролик-ҳуқуқ нормаларисиз халқаро хусусий ҳуқуқ нормаларини қўллашнинг иложи бўлмаганидек, коллизион, яъни халқаро хусусий ҳуқуқ нормаларисиз моддий ҳуқуқ нормаларини халқаро мулк, мулк билан боғлиқ шахсий, оилавий, меҳнат муносабатлари ва процессуал ҳаракатларга нисбатан қўллаб бўлмайди, улар биргаликда вазифани бажаришга қаратилади”¹⁵¹.

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, коллизион нормалар воситасида тартибга солинадиган муносабатлар табиати турли ҳуқуқ нормаларининг мажмуаси сифатида намоён бўлади. Бунда муносабатларнинг ҳар бир хусусияти ўзига хосликка эга бўлади.

Фикримизча, юридик шахсни қайта ташкил этиш ҳар доим ҳам юридик шахсни тугатишни англатмайди. Масалан, қўшиб юбориш, қўшиб олиш, бўлиш

¹⁴⁷ Мингазов Л. Х. Эффективность норм международного права: теоретические проблемы. – 1999. – С. 86.

¹⁴⁸ Аухатов А.Я. Российское законодательство в области коллизионно-правового регулирования юридических лиц. Журнал российского права. 2009. №7 (151), 104-б. (100-110-с.).

¹⁴⁹ Аухатов А.Я. Российское законодательство в области коллизионно-правового регулирования юридических лиц. Журнал российского права. 2009. №7 (151), 105-б. (100-110-с.).

¹⁵⁰ Левитин А. Б. Спорные вопросы международного частного права //Учен. зап. ВИЮН. – 1957. – №. 2/6. – С. 70-76.

¹⁵¹ Муаллифлар жамоаси. Халқаро хусусий ҳуқуқ. Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси. 2002. 17-б. (448-б.).

ўзига хос тарзда амалга оширилади ва бунда юридик шахс фаолиятини тугатади. Ажратиб чиқариш шаклидаги қайта ташкил этишда эса, қайта ташкил этилаётган юридик шахс ўз фаолиятини тугатмайди («Акциядорлик жамиятлари ва акциядорларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида»ги қонуннинг 96-моддаси).

И.Б.Зокировнинг фикрича, «юридик шахсни бекор қилишнинг иккинчи шакли – уни ҳуқуқ субъекти сифатида тугатиш ҳисобланади. Корхонани тугатиш унинг ҳуқуқ ва бурчларини ҳуқуқий ворислик тартибида бошқа шахсга ўтмасдан бекор бўлишига олиб келади. Зеро, ташкилотларни тугатиш уларни қайта ташкил этишдан ҳам муҳимроқ аҳамиятга эга. Бунинг асосий сабаби юридик шахс қайта ташкил этилганда кредиторларнинг талаби ворислик асосида янгидан ташкил этилган корхонага ворислик бўйича ўтади. Тугатилганда эса юридик шахс ўз-ўзидан ҳуқуқ субъекти сифатида барҳам топади ва шу билан биргаликда унинг ҳуқуқ ва бурчлари ҳам тугайди. Шунинг учун ҳам корхонани тугатишда кредиторларнинг ҳуқуқ ва бурчларини таъминлашга алоҳида эътибор қаратиш талаб этилади»¹⁵².

Юридик шахсларни «қўшиб юбориш» атамаси айни пайтда юридик шахсларни «бирлаштириш» атамаси билан бир маънода ишлатилиш ҳолатларига ҳам тўхталиб ўтиш лозим. «1963 йилдаги Гражданлик кодексига юридик шахснинг тугатилиши билан унинг қайта тузилиши тартибига фақат битта 38–модда бағишланган бўлиб, ундабундай тартиб, “агар СССР Иттифоқи қонунлари билан бошқача ҳол белгиланмаган бўлса, Ўзбекистон ССР қонунлари билан белгиланади” ўрнатилган эди, холос. Ҳақиқатда эса, бундай масалалар ушбу Кодекснинг 3–моддасига биноан собиқ СССР қонунлари билан тартибга солинарди»¹⁵³.

С.С.Гуломовнинг фикрига кўра, “жамиятни қўшиб юбориш деганда, икки ёки бир неча юридик шахсни ўз фаолиятларини тугатиб, ўзларининг ҳуқуқ ва мажбуриятларини ўтказиш йўли билан янги юридик шахсни вужудга келтиришлари тушинилади ва шу орқали қўшиб юборишда янги вужудга келган жамият бирлашган жамиятларнинг универсал ҳуқуқий вориси ҳисобланади»¹⁵⁴.

Ф.Кутлымуратовнинг фикрича, «юридик шахсни қайта ташкил этиш ихтиёрий асосда амалга оширилади. Айрим ҳолларда юридик шахс ажратиб

¹⁵² Фуқаролик ҳуқуқи: Дарслик. I қисм. И.Б.Зокиров; Масъул муҳаррир: Ҳ.Раҳмонкулов: Қайта ишланган ва тўлдирилган бешинчи нашр. –Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009. 187 б. (-611 бет).

¹⁵³ Раҳмонкулов Ҳ.Р. Фуқаролик ҳуқуқининг субъектлари. –Тошкент: О’zbekiston. 2008. –92 б.

¹⁵⁴ Раҳманкулов Х.Р., Гулямов С.С. Корпоративное право.-Тошкент: ТГЮИ, 2004.-394 с.

чиқариш ёки бир ёки бир неча юридик шахсга бўлиш ваколатли давлат органи ёки суднинг қарорига кўра амалга оширилиши мумкин”¹⁵⁵.

Фикримизча, юридик шахсларни ташкилий–ҳуқуқий шакллари уни ташкил этишга ўзини таъсирини кўрсатади. Масалан, тижоратчи ва нотижорат ташкилотларини қайта ташкил этиш ўзига хос режимга эга. Юридик шахсни қайта ташкил этишни тўғри талқин қилиш зарур. Бунда юридик шахсни тугатиш унинг ҳуқуқ ва бурчлари ҳуқуқий ворислик тартибида бошқа шахсга ўтмасдан бекор қилинишига олиб келади (ФКнинг 53–моддаси). Юридик шахсни қайта ташкил этиш эса, анъанавий равишда бешта усулда, яъни кўшиб юбориш, кўшиб олиш, бўлиш, ажратиб чиқариш, ўзгартириш шаклида амалга оширилади (ФКнинг 49–моддаси). Юридик шахсни қайта ташкил этишда юридик шахс тугатилиши, ҳуқуқ субъекти бекор бўлишини ҳам эътибордан четда қолдирмаслик лозим.

Н.Имомовнинг фикрича, “Фуқаролик кодексига тижоратчи бўлган ташкилотларнинг мутлақ рўйхатини киритиш амалий жиҳатдан зарур бўлган, чунки бу бозор иқтисодиётига ўтиш даврида муҳим шарт бўлиб ҳисобланар эди. Тижоратчи бўлган ташкилотларнинг ташкилий–ҳуқуқий шакллари белгилаш қонун чиқарувчи учун уларни оммавий–ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солиш зарурати билан изоҳланади”¹⁵⁶.

Д.М.Караходжаеванинг фикрича, “мулкий муносабатларни тартибга солиш концепцияси давлат назорати ва ўзини ўзи тартибга солиш институтлари томонидан ўзаро тенг равишда уйғун ҳолатда қўллашни тақозо қилади ва бу давлат ҳамда мулкдор манфаатларини таъминлайди. Бунда нафақат суд ва маъмурий органлар балки, нодавлат ўзини ўзи тартибга солувчи ҳамда жамоат ташкилотлари ҳам фаол қатнашиши зарур”¹⁵⁷.

Фикримизча, тижоратчи бўлган ташкилотларнинг ташкилий–ҳуқуқий шакллари белгилаш анъанавий шаклланган ва бутун дунёда амал қилувчи тизим қоидаларидан келиб чиқиши зарур.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 июндаги ПФ–5739–сон Фармонида кўра, янги тартиб амал қилмоқда. Унга кўра, “тадбиркорлик субъектлари – юридик шахсларни ихтиёрий тугатишда бир ёки бир неча даврий босма нашрларда корхонанинг тугатилиши тўғрисида эълонлар бериш талаб

¹⁵⁵ Кутлымуратов Ф.К. Проблемы гражданско-правового регулирования принудительной реорганизации юридических лиц: Дисс...канд.юрид.наук. – Т.,2009. -С.104 -106.

¹⁵⁶ Имомов Н. Юридик шахсларни турларга бўлишнинг танқидий таҳлили. //Yuridik fanlar axborotnomasi-Вестник юридических наук-Review of Law Sciences. 1 (2017) 68-74.

¹⁵⁷ Караходжаева Д.М. Проблемы развития и совершенствования законодательства о праве собственности юридических лиц в Республике Узбекистан. Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук. Т.: ТГЮИ, 2008.

этилмайди, бунда тегишли маълумотлар рўйхатдан ўтказувчи органнинг расмий сайтига жойлаштирилади. Давлат рўйхатидан ўтказилган вақтдан бошлаб молия–хўжалик фаолиятини амалга оширмаган ҳамда солиқ қарзи мавжуд бўлмаган корхоналарнинг молия–хўжалик фаолияти текширилмайди. Давлат солиқ хизмати органлари томонидан ўтказиладиган, тугатиладиган корхонанинг молия–хўжалик фаолиятини текширишнинг энг узоқ даврийлиги уч йилни ташкил этади.

Молия–хўжалик фаолиятини текшириш учун ваколатли давлат органларидан корхона тўғрисидаги мавжуд маълумотларни олиш Тадбиркорлик субъектларини давлат рўйхатидан ўтказиш ва ҳисобга қўйишнинг автоматлаштирилган тизими орқали амалга оширилади. Корхонани ихтиёрий тугатишнинг умумий муддати рўйхатдан ўтказувчи орган ихтиёрий тугатиш тўғрисида хабардор қилинган кундан бошлаб олти ойдан ошмаслиги керак”¹⁵⁸.

Мазкур Фармон “юридик шахсни тугатишда муҳим норматив–ҳуқуқий ҳужжат вазифасини бажармоқда. Чунки, илгари мавжуд бўлган тартиб турли овозагарчиликлар, сансалорликлар ҳамда бюрократик тўсиқларни беихтиёр қўйилишига олиб келар эди. Бир тарафдан солиқ қарзини ундиришдан иборат эзгу мақсадлар қўйилган ҳолда, бошқа тарафдан коррупцияга йўл очиш ёки юридик шахсни тугатишнинг “тубсиз чуқурликдан” иборат жараён бошланар эди”¹⁵⁹.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 21 августдаги «Тадбиркорлик субъектларини ихтиёрий тугатиш ва уларнинг фаолиятини тўхтатиш тартиби ҳамда Молия–хўжалик фаолиятини амалга оширмаётган тадбиркорлик субъектларини давлат реестридан чиқариш тартиби тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш ҳақида»ги 704–сон қарорида «молия–хўжалик фаолиятини амалга оширмаётган тижорат ташкилотлари фаолиятини ҳаракатсиз ҳолатга ўтказиш учун тўққиз ой мобайнида молия–хўжалик фаолияти бўйича банк ҳисобварақларига пул маблағлари тушмаганлиги ҳамда тўққиз ой мобайнида солиқ ҳисоботлари тақдим этилмаганлиги асос бўлади»¹⁶⁰.

Ш.Нуриддинованинг фикрича, “юридик шахслар бекор бўлишини тартибга солувчи фуқаролик қонун ҳужжатларининг умумий тавсифи шуни кўрсатадики,

¹⁵⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 июндаги ПФ–5739–сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.06.2019 й., 06/19/5739/3249–сон.

¹⁵⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 июндаги ПФ–5739–сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.06.2019 й., 06/19/5739/3249–сон.

¹⁶⁰ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 21 августдаги «Тадбиркорлик субъектларини ихтиёрий тугатиш ва уларнинг фаолиятини тўхтатиш тартиби ҳамда Молия–хўжалик фаолиятини амалга оширмаётган тадбиркорлик субъектларини давлат реестридан чиқариш тартиби тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш ҳақида»ги 704–сон қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.08.2019 й., 09/19/704/3608–сон.

юримдик шахсларни бекор бўлиши билан боғлиқ муносабатларни тартибга солувчи қонун ҳужжатлари муайян бир тизимга солинмаган ва уларни амалиётда тўлиқ татбиқ этишнинг изчил механизми ҳам мавжуд эмас. “Юримдик шахсларни қайта ташкил этиш тартиби тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Низомини қабул қилиш мақсадга мувофиқ”¹⁶¹. Ушбу фикрга яқин фикрни А.Шукруллаев ҳам илгари суради ва “Ўзбекистон Республикасининг “Юримдик шахсларни давлат рўйхатидан ўтказиш, қайта ташкил этиш ва тугатиш тўғрисида” ги қабул қабул қилиш зарурияти борлигини таъкидлайди”¹⁶².

Фикримизча, юримдик шахсларнинг тури, ташкилий–ҳуқуқий шакли, давлат иштирокига доир нормалар мавжуд экан, уларни қайта ташкил этишга доир қонун ҳужжатлари ҳам бўлиши табиий. Бунда барча ташкилий–ҳуқуқий шаклдаги юримдик шахсларни битта низом билан тартибга солиш қонунчилик техникаси нуқтаи назаридан пухта таҳлил қилиниши талаб қилинади.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 21 августдаги «Тадбиркорлик субъектларини ихтиёрий тугатиш ва уларнинг фаолиятини тўхтатиш тартиби ҳамда Молия-ҳўжалик фаолиятини амалга оширмаётган тадбиркорлик субъектларини давлат реестридан чиқариш тартиби тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш ҳақида» ги 704-сон қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.08.2019 й., 09/19/704/3608-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 июндаги ПФ–5739-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.06.2019 й., 06/19/5739/3249-сон.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 7 июндаги ПФ–5739-сон Фармони // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 08.06.2019 й., 06/19/5739/3249-сон.
4. Нуриддинова Ш.Т. Юримдик шахсларнинг бекор бўлиш усуллари ва уларни қўллашнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари. Юримдик фанлар номзоди диссертацияси. ТДЮИ, -Т., 2008. -41-б.
5. Шукруллаев А.Х. Қишлоқ хўжалик корхоналарини қайта ташкил этиш ва тугатишнинг фуқаролик ҳуқуқий тартибга солиниши. Юримдик фанлар номзоди

¹⁶¹ Нуриддинова Ш.Т. Юримдик шахсларнинг бекор бўлиш усуллари ва уларни қўллашнинг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари. Юримдик фанлар номзоди диссертацияси. ТДЮИ, -Т., 2008. -41-б.

¹⁶² Шукруллаев А.Х. Қишлоқ хўжалик корхоналарини қайта ташкил этиш ва тугатишнинг фуқаролик ҳуқуқий тартибга солиниши. Юримдик фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун диссертация. Т.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. 2001. 12-б.

илмий даражасини олиш учун диссертация. Т.: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. 2001. 12-б.

6. Имомов Н.Ф. Юридик шахс моҳиятини фўқаролик-ҳуқуқий талқини (назарий масалалар). Монография. Тошкент: ТДЮУ, 2017. 125-б. (-156 б.)

7. Мингазов Л. Х. Эффективность норм международного права: теоретические проблемы. – 1999. – С. 86.

8. Аухатов А.Я. Российское законодательство в области коллизионно-правового регулирования юридических лиц. Журнал российского права. 2009. №7 (151), 104-б. (100-110-с.).

9. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 11-12-сон, 1-модда

10. Богуславский М.М. Международное частное право. Издание пятое, переработанное и дополненное. –Москва.: Юристь, 2005. 60-61-б. (-510-с.)

MEHNAT FAOLIYATIDA OPERATORNING FUNKSIONAL HOLATINI O'RGANISH

Norimbetov T.B.

I.A.Karimov nomidagi TDTUning Olmaliq filiali “Ijtimoiy –gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasida dotsenti, ps.f.n.

Norimbetova N.T.

Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Operatorning funksional holati bu shaxs holatining u amalga oshiradigan faoliyatining samaradorligi va uni amalga oshirishda ishtirok etadigan tana tizimlarining, faoliyatning ichki qiymati mezonlari bo'yicha integral xarakteristikasi tushuniladi. Operator mehnat faoliyatiga jalb qilinganda, operativ dam olish holati tegishli safarbarlik holati bilan almashtiriladi. Bu adekvat safarbarlik holati deb ataladi. Adekvat safarbarlik holati insonning funksional imkoniyatlarining keskinlik darajasining aniq shartlar bilan qo'yiladigan talablarga to'liq mos kelishi bilan tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: funksional holat, dam olish holati va operativ dam olish holatlari, faollashtirish nazariyasi, adekvat safarbarlik holati, funksional qulaylik, fiziologik, psixologik va biokimyoviy parametrlar, operator faoliyatining yuqori samaradorligi.

АННОТАЦИЯ

Функциональные состояния оператора, это состояния, которые возникают в процессе трудовой деятельности и обусловлены воздействием процесса труда и условий, в которых он протекает в трудовой деятельности. Функциональным состоянием оператора понимается интегративная характеристика состояния человека с точки зрения эффективности выполняемой им деятельности. В трудовую деятельность оператора состояние оперативного покоя сменяется состоянием адекватной мобилизации. Состояние адекватной мобилизации характеризуется полным соответствием степени напряжения функциональных возможностей человека требованиям, предъявляемым конкретными условиями.

Ключевые слова: функциональное состояние, состояние покоя и состояния оперативного покоя, теория активации, состояние адекватной мобилизации, функциональный комфорт, физиологические, психологические и биохимические показатели, высокая эффективность деятельности оператора.

KIRISH

Muhandislik psixologiyasida operatorning funksional holatini o'rganish psixologiya fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Inson faoliyatini turli fanlar tomonidan o'rganiladi, Mexnat faoliyatida insonni yaxlit holatiga psixologik, fiziologik, tibbiy nuqtayi nazardan qarashlar mavjud. Tibbiyot inson salomatligi haqida, fiziologlar inson organizmlarining tuzilishi, xatti –harakatlari haqida, psixologlar insonning ruhiy holati haqida bilimlarni tahlil qiladi. Muhandislik psixologiyasi operatorning funksional holatlarini ya'ni ish jarayonida yuzaga keladigan va mehnat ta'siridan kelib chiqadigan holatlarni o'rganadi. Aniqroq qilib aytganda, operatorning funksional holati bu shaxs holatining u amalga oshiradigan faoliyatining samaradorligi va uni amalga oshirishda ishtirok etadigan tana tizimlarining ishonchlilik va faoliyatning ichki qiymati mezonlari bo'yicha integral xarakteristikasi tushuniladi. Boshqa fanlardan farqli ravishda muhandislik psixologiyasida operatorning funksional holatini alohida yo'nalishi sifatida tahlil qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Funksional holatlarni tahlil qilishda muhandislik psixologiyasi operator faoliyatining dam olish holati va operativ dam olish holatlariga ajratib o'rganadi. Operativ dam olish ma'lum bir muammoni hal qilishga qaratilgan bo'lib, tana tizimlarini faollashtirish darajasini optimal qiymatlarini tanlashda namoyon bo'ladi. Faollashtirish nazariyasi funksional holatlarni o'rganish uchun psixofiziologik asosdir. Unga ko'ra, faollashuvning ortishi uyg'onish shkalasi bo'yicha yuqori darajaga o'tishga olib keladi. Biroq, Yerkes-Dodson qonuni sifatida ma'lum bo'lgan bu munosabatlar faqat ma'lum bir chegaragacha oshadi va keyin kamayishi mumkin. Bu turli vazifalarni bajarish uchun optimal faollashtirish darajasi zonalari mavjudligini ko'rsatadi. Operator mehnat faoliyatiga jalb qilinganda, operativ dam olish holati tegishli safarbarlik holati bilan almashtiriladi. Bu adekvat safarbarlik holati deb ataladi. Adekvat safarbarlik holati insonning funksional imkoniyatlarining keskinlik darajasining aniq shartlar bilan qo'yiladigan talablarga to'liq mos kelishi bilan tavsiflanadi. Ushbu talablar empirik yoki hisoblash yo'li bilan tananing ishlash mexanizmlari va ish jarayonining tuzilishi haqidagi mavjud bilimlarga asoslangan holda aniqlanadi.

Adekvat safarbarlik holatining bir turi bu mehnat jarayonida ishtirok etuvchi shaxsning funksional holatidir. Bunda vositalar va mehnat sharoitlari insonning funksional imkoniyatlariga mos kelishi va uning mehnatga ijobiy munosabatini yuzaga keltirishi kerak. Bu psixofiziologik jarayonlarning etarli darajada mobilizatsiyasini ta'minlaydi, charchoqning rivojlanishini kechiktiradi va sog'lig'iga

zarar etkazmasdan uzoq muddatli ishlashga yordam beradi. Funktsional qulaylikning psixofiziologik asosi bu insonning uzoq muddatli ishlashi tananing minimal energiya va yuqori ko'rsatkichlar bilan ta'minlanganda samaralidir. Hissiy jihatdan, - funktsional qulaylik muammosida etakchi rol ni ishdan qoniqish egallaydi, uning tarkibiy qismlari maqsad, mazmun, jarayon va faoliyat shartlariga munosabatdir. Funktsional qulaylik bu insonning asabiy va aqliy funktsiyalarini safarbar qilish bilan tavsiflangan faol holat bo'lib, bu ularning uzoq muddatli saqlanishi va rivojlanishiga yordam beradi. Bu holat har doim faoliyat maqsadini amalga oshirishga qaratilgan. Funktsional qulaylik ko'rsatkichlari ma'lum bir zonada guruhlangan va shaxsning qobiliyatlari va faoliyat turiga qarab o'zgaradi. Funktsional qulaylik darajasini baholash ushbu holatni ta'minlaydigan optimal vosita va hissiy holatni aniqlash uchun psixofiziologik tadqiqotlar yordamida amalga oshiriladi.

Faollashuv darajasi uning fiziologik imkoniyatlaridan oshib ketgan hollarda, adekvat mobilizatsiya holati dinamik mos kelmaslik holatiga aylanadi. Bu tananing reaksiyasi yukiga mos kelmasligi yoki kerakli psixofiziologik xarakterlar insonning haqiqiy imkoniyatlaridan oshib ketishi bilan tavsiflanadi. Adekvat safarbarlik holati inson faoliyati uchun maqbuldir, dinamik nomuvofiqlik holati noqulay va samaradorlik darajasining pasayishiga olib keladi. Agar u tez-tez takrorlansa, dinamik nomuvofiqlik patologik holatlarning paydo bo'lishi yizaga keltiradi.

Ko'rib chiqilgan ikki turdagi holatlar doirasida operatorning deyarli barcha ma'lum funktsional holatlari turlarini tavsiflash mumkin. Ularning soni juda ko'p va ularning barchasini ushbu ilmyi maqolada tavsiflash mumkin emas. Shuning uchun biz faqat eng keraklil bo'lgan shart-sharoitlarni ko'rib chiqamiz. Bu shart-sharoitlar ikki turga bo'linadi. Birinchi holda, tananing paydo bo'ladigan mehnat sharoitlariga munosabati adekvat safarbarlik xususiyatiga ega, ya'ni operatorning holatidagi o'zgarishlar ushbu omillar ta'siriga tabiiy reaksiya bo'lib, uning ishining normal samaradorligini belgilaydi. Ikkinchi holda, operator holatidagi o'zgarishlar belgilangan me'yordan tashqariga chiqadi. Tananing bu reaksiyasi inson faoliyatida sezilarli buzilishlar bilan birga keladi.

Operatorning asosiy funktsional holatlarini amaldagi metodlarga qarab, vaziyatni fiziologik, psixologik va biokimyoviy parametrlardagi o'zgarishlar bilan kuzatish mumkin. Fiziologik ko'rsatkichlar, organizmning kuchlanish darajasini tavsiflaydi va har doim ham operatorning ish faoliyatini aniqlashga va uning o'zgarishini taxmin qilishga imkon bermaydi. Psixologik o'lchovlar fiziologik ko'rsatkichlarga qaraganda ko'proq ishlash bilan bog'liq. Bu ularning faoliyatidagi tartibga solish funktsiyasi bilan bog'liq. Operator tomonidan axborotni qayta ishlash jarayoni murakkab ierarxik tuzilma sifatida ifodalanishi mumkin, uning har bir darajasi muayyan psixik jarayonlarga mos keladi. Operatorlar faoliyatini psixologik tahlil

qilish bizga eng umumiy holatda uning funksional holatini baholash uchun operatorning operativ xotirasini, diqqatini va tezligini sinab ko'rish zarurligini ta'kidlash imkonini beradi. Nisbatan yuqori qiymatga ega bo'lgan psixologik ko'rsatkichlar ham muhim kamchiliklarga ega, chunki ularni o'lchash operatorga sinov ta'sirini talab qiladi va uni asosiy faoliyatdan chalg'itadi.

Biokimyoviy ko'rsatkichlar operatorning kuchlanish darajasi, stress holatlarining paydo bo'lishi va boshqalar haqida yaxshi ma'lumot berishi mumkin, ammo amalda ular kamdan-kam qo'llaniladi.

XULOSA

Shunday qilib, operatorning holatini kuzatish uning faoliyatining yuqori samaradorligini ta'minlashning muhim vositasidir. Shu bilan birga, uning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash muammosini hal qilishga qaratilgan. Demak muhandislik psixologiyasida operatorning funksional holatini o'rganish va ilmiy tadqiqotlar olib borish mehnat faoliyati samaradorligining rivojlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Норимбетов, Т. Б. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ СТРЕСС КАК ФАКТОР ВЛИЯЮЩЕЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 744-747.
2. Norimbetov T. B. Norimbetova N. T. Основные причины отклоняющего поведения в младшем школьном возрасте. *NamDU ilmiy axborotnomasi - Научный вестник NamGU 2020 yil 5-son*. 460-466 bet.
3. Norimbetov T. B. O'smirlarda kasbiy tasavvurlar shakillanishining psixologik asoslari. (uslb qo'llanma) 4.42. b.t. Toshkent "Zamin nashr" 2021y.
4. Norimbetov T. B. Ijtimoiy psihologik trening. (O'quv-uslb qo'llanma) Toshkent. "Innovatsiya Ziyo" nashriyoti 2022y. 112 bet.
5. Фугелова, Т. А. Инженерная психология: учеб. пособие для вузов М.: Издательство Юрайт, 2019. - 316 с.
6. Mamanovich, R. K. (2021). Components of political culture in political processes. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 953-959.
7. Rasulov, H. M. (2021). ELECTION PHENOMENON I THE PROBLEM OF IMPROVING THE ELECTRIC CULTURE OF THE POPULATION. *ВОСТОЧНО ЕВРОПЕЙСКИЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ*, 75(part 6), 28.
8. Расулов, Х. (2021). Ҳукукий маданият: муаммонинг ижтимоий-сиёсий омиллари. *Общество и инновации*, 2(10/S), 335-342.

ATTENTION TO THE EDUCATION OF STUDENTS IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Rakhimova Mashkhura

Senior teacher of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
named after Alisher Navoi

Phone: +99 890 9429868

ABSTRACT

In this article, the importance of education in our country and the role of scientific activity in the organization of methods of organizing students' scientific activity. It is emphasized that as a way of directing young people to scientific activity, it helps them to present themselves to the scientific community, to gain experience in scientific discussions and roundtable discussions.

Keywords. *Creative activity, education, youth, pedagogical skill, scientific activity, scientific approach, methodological method.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение образования в нашей стране и роль научной деятельности в организации методов организации научной деятельности студентов. Подчеркивается, что как способ направления молодежи к научной деятельности она помогает им презентовать себя научному сообществу, приобрести опыт научных дискуссий и круглых столов.

Ключевые слова: *Творческая деятельность, образование, молодежь, педагогическое мастерство, научная деятельность, научный подход, методический метод.*

INTRODUCTION

In accordance with the tasks defined in the New Uzbekistan Development Strategy for 2022-2026 and the Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the "Oliy Majlis" and the People of Uzbekistan, further raising the standard of living of the population, aligning the quality of education with advanced international standards, stable economic to take our growth and poverty reduction reforms to a new level and The President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, in his address to the Oliy Majlis and the people of Uzbekistan, emphasized that improving the quality of education is the only right way to develop the new Uzbekistan. we see that attention is paid separately.

Therefore, we should continue the reforms we have started in this field, go to educational centers, communicate more with teachers and trainers, and jointly solve the issues raised by them to improve the quality of educational work. By 2023 He

said that he would propose naming it as "Year of attention to people and quality education" in our country. In his address to the parliament, the president emphasized the issue of education. It is not an exaggeration to say that this has opened a wide path for the interest in science among young people.

Improving the quality of education is the only correct way to the development of New Uzbekistan! It is not for nothing that they emphasized that we should continue the reforms we have started in this field, go to educational institutions, communicate more with teachers and trainers, and jointly solve the issues raised by them in terms of quality improvement. We believe that it can be a clear example of how we can build the future of Uzbekistan through education. We are trying to create all the necessary conditions for every person living in this country to live a peaceful and happy life, to be in good health, to get a good education, and to raise a family. We won't stop. We aim to build New Uzbekistan based on the principle of "social state". We must strengthen this in the Constitution.

DISCUSSION AND RESULTS

Taqlid so‘zlarning stilistik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlar. Taqlidlarni o‘rganishdan tashqari, Geng Erling (耿二岭) ularning stilistik xususiyatlarini ochib bergan 《拟声词的修辞职能》 (1988) nomli maqolasini e‘lon qildi. O‘sha davrda Fudan universitetining haftaning nashrlarida ham taqlid so‘zlarning stilistikasi borasidagi maqolalar chop etib turildi. Tadqiqotlarda taqlidlar stilistik vosita sifatida baholanadi va mualliflar taqlid so‘zning metafora, mubolag‘a va so‘z o‘yini kabi stilistik funksiyalarini batafsil tasvirlab beradilar.

Xitoy davlatida taqlid so‘zlar boshqa so‘z turkumlari yoki grammatik birliklarga nisbatan biroz kechroq tadqiq qilinishni boshlagan bo‘lsa ham 1 asrlik tadrijiy jarayonni bosib o‘tdi. Olimlar taqlidlarning xususiyatini ochib berishar ekan, endi ular oldidagi eng birinchi muammo – bu xitoy tilida uning xususiyatlarini ochib

¹⁹⁷ 赵金铭 元人杂剧中的象声词 – 北京: 中国语文, 1981. – 34页

¹⁹⁸ 邵敬敏 拟声词初探 – 北京: 语言教学与研究, 1981. – 57页

¹⁹⁹ 储泰松 普通话拟声词的语音规律及其例外 – 安徽: 安徽师范大学学报, 2012. – 107页

beruvchi atama topish bo‘lib qoldi. Turli tilshunos olimlar taqlidlarni ifodalovchi so‘zlarga turlicha nom berganlar. Xususan, Ma Djen (马真) o‘zining grammatikaga oid asarida turli ovozlarga taqlid qilgan so‘zlarni “拟声词” yoki “象声词” deb atalishini ta’kidlasa-da²⁰⁰, o‘zi “象声词” nomini ma’qul bilib, keyingi o‘rinlarda taqlidlarni shunday ataydi. Yana bir xitoy olimi Ding Shengshu (丁声树) taqlid so‘zlarga alohida to‘xtalib, ularning ta’rifini bermagan. Biroq, taqlid so‘zlarni xitoy tili morfologiyasidagi eng so‘nggi, 10-so‘z turkumi sifatida “象声词” nomi bilan e’tirof etgan²⁰¹. Xitoy tili nazariy grammatikasini umumiy tarzda yoritgan zabardast olimlardan biri Dju Desi (朱德熙) ham zamondoshi singari taqlidlarga alohida ta’rif bermagan bo‘lsa ham, ularni “拟声词” sifatida alohida so‘z turkumlari doirasida sanab o‘tadi²⁰².

Boshqa bir olim Sing Fuyi “Xitoy tili grammatikasi” (邢福义, 1996) asarida so‘z turkumlari tasnifi va terminlarida biroz o‘zgacha yondoshuvni kuzatish mumkin. Muallif oldingi grammatikalardan farqli ravishda so‘zlarni mustaqil so‘zlar (实词) va yordamchi so‘zlar (虚词) ga emas, balki bo‘lak so‘zlar (成分词) va bo‘lak bo‘lmagan so‘zlar (非成分词) ga ajratadi, ya’ni gapda mustaqil gap bo‘lagi bo‘lib kelishi mumkin bo‘lgan va bunday vazifada kelolmaydigan so‘zlar. Bunday ta’rif va guruhlanishdan anglash mumkinki, tilshunos so‘zlarning sintaktik xususiyatlarini turkumlashda eng asosiy mezon sifatida olgan.

Birinchi turga:

Ot (名词)

Fe‘l (动词)

Sifat (形容词)

Ravish (副词) ni kiritadi

Ikkinchi turga esa:

Old ko‘makchi (介词)

Bog‘lovchi (连词)

Ko‘makchi so‘zlar (助词) kabi so‘zlarni kiritadi.

Olim gapda ma’lum vazifaga xoslangan so‘zlarni turkumlaydi, lekin bunday vazifaga xoslanmagan, biroq yakka holda ham ma’no kasb etuvchi so‘zlarni har ikki guruhga ham kiritmaydi. U uchinchi, ya’ni maxsus bo‘lak (特殊成分) so‘zlar turkumini hosil qilib, unga

²⁰⁰ 马真 简明实用汉语语法教程 – 2版 – 北京: 北京大学出版社, 2015. – 28页

²⁰¹ 丁声树 现代汉语语法讲话 – 北京: 商务印书馆, 1999. – 6页

²⁰² 朱德熙 朱德熙文集 – 北京: 商务印书馆, 1999. – 50页

Olmosh (代词)

Son (数词)

O'lchov so'zlari (量词)

Undov so'zlar (叹词)

Taqlid so'zlar (象声词)ni kiritadi.

Bunday turkumlashda ham taqlidlar alohida maxsus guruh tarkibida qolyapti. Buning eng asosiy sababi taqlid so'zlar yakka holda ma'no kasb etishi bilan mustaqil so'zlarga, gapda so'roqqa javob bo'lmay, gap bo'lagi vazifasida kelolmasligi va gapdan doimo vergul bilan ajratilishi bilan yordamchi so'zlarga xos.

XULOSA

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, xitoy tilida taqlidlar morfologyaning o'rganish obyekti bo'lib, alohida so'z sifatida e'tirof etiladi. Turkumga mansublik borasida taqlidlarni mustaqil so'zlarga ham, yordamchi so'zlarga ham kiritib bo'lmaydi, agar ikki guruhdan biriga mansub deb hisoblasak, ularning shu guruh xususiyatlarini inkor etuvchi ta'riflari turkumlanishni o'z-o'zidan bekor qiladi. Shuning uchun ham taqlid so'zlarni alohida so'z turkumi doirasida qoldirgan ma'qul deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Karimov A. Xitoy tilidagi hisob so'zlar (leksik-semantik, structural va funksional tahlil). Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2003. – bet 120.
2. Mustafayeva S. Xitoy tili tilshunoslik terminlari tizimining shakllanishi va taraqqiyoti. – Toshkent: Sharq, 2016. – bet 196.
3. 马建忠. 马氏文通. – 北京：商务印书馆，1987. –231 页.
4. 朱德熙. 朱德熙文集. – 北京：商务印书馆，1999. – 397 页.
5. 王力. 中国现代语法. – 北京：商务印书馆，2011. – 427 页.
6. 丁声树，吕叔湘，李荣，孙德宣，管燮初，傅婧，黄盛璋，陈治文. 现代汉语语法讲. – 北京：商务印书馆文库，1999. – 243 页.
7. 赵金铭. 元人杂剧中的象声词. 中国语文，1981. – 210 页.
8. 马真. 简明实用汉语语法教程 – 2 版. – 北京：北京大学出版社，2015. – 345 页.

К ВОПРОСАМ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ЛЕКСЕМ В СОВРЕМЕННОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ЯЗЫКЕ ХИНДИ

Нурматов Сирожиддин Султанмуратович

Кандидат филологических наук, доцент кафедры «Языков Южной и Юго-Восточной Азии» Ташкентского государственного университета востоковедения, Узбекистан.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается лингвистический анализ числительных в современном литературном языке хинди. Углубленно изучены их лингвистические особенности и выражения. Также изучены их морфологические особенности и синтаксические функции.

Ключевые слова: *имя числительные, лексема, морфема, единицы, десятки, простые числительные, сложные числительные.*

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада ҳозирги адабий ҳиндий тилидаги сонларга ҳос лексемаларнинг лингвистик таҳлили амалга оширилган. Сонларнинг лисоний хусусиятлари ва ифодаланиш жиҳатлари ўрганилган. Шунингдек, уларнинг морфологик хусусиятлари ва синтактик вазифалари ҳам ўрганилган.

Калим сўзлар: *сон сўз туркуми, лексема, морфема, бирликлар, ўнликлар, содда сонлар, мураккаб сонлар.*

ABSTRACT

This article discusses the linguistic analysis of numerals in the modern literary Hindi. Their linguistic features and expressions have been studied in depth. Their morphological features and syntactic functions have also been studied.

Keywords: *numeral vocabulary, lexeme, morpheme, units, tens, simple numerals, complex numerals.*

ВВЕДЕНИЕ

Числительные вот уже полтора столетия привлекают внимание лингвистов и этнографов. Числительные, как и другие лексикки языка, могут дать интересный материал для генетического, ареального исследования языков [8: 585]. Научное изучение числительных как особой части речи давно находится в центре внимания языковедов. Однако степень ее разработки в плане различных языков мира не отличается единообразием и целенаправленностью. “Если в лексическом плане ряд числительных может рассматриваться как универсалия,

хотя выделение видов числительного и специфика значения стержневого ряда различны по языкам, то в отношении грамматических свойств числительные в различных языках не одинаковы”. [4: 583].

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДЫ:

При написании данной статьи широко использовались многие научные труды таких лингвистов, как Д.Варма, Б.Тивари, К.Гуру, В.П.Липеровский, З.М.Дымщиц, Т.Е.Катенина. Подробно изучены лингвистические особенности числительных лексем. Исходя из специфики собранных примеров, они были проанализированы на основе историко-описательного метода.

Обсуждение результатов: Как известно, что числительное класс полнзначных слов, обозначающих число, количество, меру и связанные с числом мыслительные категории порядка при счете, кратности, совокупности. В соответствии с этими значениями выделяются различные виды числительное: количественные, порядковые, собирательные, разделительные, а также неопределенно-количественные, дробные [2: 7].

В наиболее чистом виде понятие числа находит отражение в количественных числительных, образующих стержень, вокруг которого группируются другие виды числительное, и обозначающих количество, число, то есть отвлеченный результат счета, так как в понятии числа свойство совокупности состоять из того или иного числа единиц абстрагируется от тех конкретных предметов, которые подвергаются счету. Исторически множество считаемых предметов или явлений соотносилось с некоторым фиксированным множеством-эталонном, например с камешками, пальцами, словами [7: 264].

Количественные числительные обозначаются и графически, цифрами. В языке хинди они делятся на простые, сложные и составные. Простые числительные состоят из одного корня. Это числительные одного до девяти включительно, например, एक ek «один», दो do «два», तीन tiin «три», названия круглых десятков, например, दस das «десять», बीस biis «двадцать», तीस tiis «тридцать», चालीस chaaliis «сорок» и другие.

Сложные числительные включают два корня. К ним относятся все числительные внутри каждого десятка, начиная с одиннадцати, за исключением непосредственно предшествующих названию круглых десятков (ग्यारह gyaarah «одиннадцать», बारह baarah «двенадцать», तेईस teiis «двадцать три», सत्ताईस sattaaiis «двадцать семь» и другие). Составные числительные состоят из двух или нескольких отдельных (простых или сложных) числительных. В языке хинди это числительные свыше ста и названия чисел, обозначающих

количество сотен, тысяч, десятки миллионов и другие (एक सौ एक ek sau ek «сто один», दो सौ do sau «двести», तीन सौ सात tiin sau saat «триста семь»).

Количественные числительные в языке хинди употребляются как самостоятельно, так и в сочетании с именами существительными, например: उन में से दो घर चले गये। Un mai se do ghar chale gaye. – «Двои из них ушли домой», सभा में मज़दूरों और कर्मचारियों के बीस प्रतिनिधि भाग लेंगे। Sabhaa mai mazduuron aur karmcharyon ke biis pratinidhi bhaag lenge. – «В собрании примут участие двадцать представителей рабочих и служащих».

В языке хинди имена существительные, сочетаясь с количественными числительными, начиная с двух, ставятся в форме прямого падежа множественного числа, например: तीन लड़के tiin larke «три мальчика», चार लड़कियाँ chaar larkiyaan «четыре девочки». Естественно, существительные с числительным एक ek «один» стоят в форме прямого падежа единственного числа, например: एक औरत ek aurat «одна женщина», एक बेटा ek betaa «один сын».

В языке хинди количественные числительные не изменяются по родам, числам и падежам. Они всегда выступает в неизменной форме. Например: पाँच लड़के paanch larke «пять мальчиков» - पाँच लड़कों को paanch larkon ko «пяти мальчикам»; सात लड़कियाँ saat larkiyaan «семь девочек» सात लड़कियों को saat larkiyoon ko «семи девочкам».

Числительное एक ek «один» часто употребляется для выражения неопределенности и единичности в значении неопределенного местоимения «какой-то», «некий». Например: यहाँ एक आदमी आया था। yahaan ek aadmii aaya tha. «Сюда приходил какой-то человек».

Количественные числительные при повторах имеют разделительное значение: एक-एक «по одному, каждый», दो-दो do-do «по двое», तीन-तीन tiin-tiin «по трое». Например: एक-एक पुरुष-स्त्री ek-ek purush-strii «каждый мужчина и каждая женщина», एक-एक छात्र-छात्रा ek-ek chhatra-chhatra «каждый ученик и каждая ученица».

Количественные числительные могут употребляться в следующих синтаксических функциях: 1) определения (पैकट में बच्चे के सिले-सिलाए और बुने हुए बारह ऊनी सूट थे। Paiket mai bachche ke sile-silaae aur bune hue baarah uunii suut the. «В пакете было двенадцать детских шитых и вязаных шерстных костюмов»); 2) подлежащего (ये छः मुझे पसन्द हैं। Ye chhe mujhe pasand hain. «Эти шестеро (шесть) мне нравятся»); 3) именной части сказуемого (इस में कुल पाँच बर्थ हैं और

हम लोग छः हैं। Is mai kul paanch barth hain aur ham log chhe hain. «В нем (в купе) всего пять полок, а нас шестеро»); 4) дополнения (यह छः नहीं, बारहों लेने होंगे। Yah chhe nahiin, baarahoon lene honge. «Надо будет взять не эти шесть, а все двенадцать»).

Количественные числительные हज़ार hazaar «тысяча», लाख laakh «сто тысяч», करोड़ karor «десять миллионов», अरब arab «миллиард» нередко употребляются как счетные слова, и тогда они, как и счетные слова दसी dasii «десяток», दर्जन darjan «дюжина», बीसी biisii «два десятка», सैंकड़ा sainkraa «сотня» и другие, принимают суффикс -ओं , образующий счетные слова неопределенной множественности: हज़ारों hazaaron «тысяч», लाखों laakhon «сотни тысяч», करोड़ों karoron «десятки миллионов», सैंकड़ों sainkron «сотни» и другие.

Выводы: На основании вышеизложенного можно сделать следующий вывод:

-количественные числительные обозначают количество однородных предметов или отвлеченное от конкретных предметов счетное понятие. С точки зрения структуры количественные числительные в языке хинди делятся на простые, сложные и составные.

-количественные числительные в языке хинди употребляются в синтаксических функциях, так как определение, подлежащие, именной части сказуемое и дополнение.

-констатируя употребление числительного एक ek «один» в функции неопределенного артикля в языке хинди, важно подчеркнуть препозиционный характер его использования относительно определяемого слова.

- в научном обиходе глубоко изучены лингвистические особенности данной части речи. Кроме того, на базе теоретических данных по трудам индийских языковедов детально изучены морфологические черты числительных.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (REFERENCES):

1. Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т I. -М.: Наука, 1986.
2. Катенина Т.Е. Язык хинди. -М.: Изд. Вост. лит., 1960.
3. Липеровский В.П. Именные части речи языка хинди. -М.: Наука, 1978.
4. Супрун А.Е. Числительное // Лингвистический энциклопедический словарь. -М.: Научное издательство Большая Российская энциклопедия, 1992.

5. Лингвистический энциклопедический словарь. -М.: Научное издательство «Большая Российская энциклопедия», 2002.
6. कामताप्रसाद गुरू – हिन्दी व्याकरण। -दिल्ली, 2012.
7. धीरेंद्र वर्मा -हिन्दी भाषा का विकास। -दिल्ली, 1962.
8. भोलानाथ तिवारी - हिन्दी भाषा। -इलाहाबाद, 1972.

UNUTILISHGA BO‘LGAN HUQUQNING AYRIM MASALALARI

Vapayev Karimboy Muzaffar o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakultetining 2-kurs talabasi

E-mail: vapayevkarimboy@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada har kim o‘z shaxsiga doir ma‘lumotlarni himoya qilish huquqiga ega ekanligi, shuningdek, noto‘g‘ri ma‘lumotlarni tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asosga ega bo‘lmay qolgan ma‘lumotlarni yo‘q qilinishini talab qilish huquqi tahlil qilinadi. Bu huquq ko‘plab davlatlarda “unutilish huquqi” nomi bilan ataladi. Ushbu maqolaning dolzarbligi butun dunyoda axborot texnologiyasining rivojlanishi va globallasuvi jarayonida insonlar o‘zining shaxsiga doir ma‘lumotlarini himoya qilish va shaxsiy daxlsizligini ta‘minlashda unutilish huquqidan foydalanish asoslaridir. Maqolada unutilish huquqi bilan bog‘liq normalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Yevropa Ittifoqining umumiy ma‘lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi reglamenti

(GDPR), Yevropa Ittifoqining “Inson huquqlari bo‘yicha nizomi” ning tegishli moddalari asosida, shuningdek, Hindiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi asosiy qonunlarining tegishli normalari orqali tahlil qilinadi. Shuningdek, Ispaniya,

Italiya, Argentina davlatlarida unutilish huquqi bilan bog‘liq qonun hujjatlarining qabul qilinishi va unutilish huquqi bilan bog‘liq keyslar orqali tahlil qilinadi. Mavzu doirasida xorijiy olimlarning fikrlaridan, ilmiy ishlaridan, qilgan tadqiqot natijalaridan, jurnallardan, xorijiy davlatlarning qonun hujjatlaridan havolalar berildi.

Kalit so‘zlar: *Unutilish huquqi, shaxsiga doir ma‘lumotlar, huquqiy asosga ega bo‘lmagan ma‘lumotlar, ma‘lumotlarni yo‘q qilinishi, raqamli huquq, shaxsiy huquq, shaxsiy erkinlik, shaxsiy daxlsizlik, so‘z erkinligi.*

SOME ISSUES OF THE RIGHT TO BE FORGOTTEN

Vapayev Karimboy Muzaffar ugli

2nd year student of of the Faculty of Criminal Justice of Tashkent State

University of Law

E-mail: vapayevkarimboy@gmail.com

ABSTRACT

This article states that everyone has the right to the protection of personal data, as well as the correction of inaccurate data, collected about him unlawfully or on a legal basis. the right to request the deletion of the data that is no longer available will be analyzed. This right is called "right to be forgotten" in many countries. The relevance of this article is the basis of using the right to be forgotten in the process of development and globalization of information technology throughout the world to protect personal information and ensure privacy. In the article, the norms related to the right to be forgotten are based on the legislation of the Republic of Uzbekistan, the European Union's General Data Protection Regulation (GDPR), the relevant articles of the European Union's "Regulation on Human Rights", as well as India It is analyzed through the relevant norms of the basic laws of the Republic and the Russian Federation. Also, the adoption of legislation related to the right to be forgotten in Spain, Italy, and Argentina and cases related to the right to be forgotten are analyzed. Within the topic, references were given from the opinions of foreign scientists, scientific works, research results, journals, and legal documents of foreign countries.

Key words: *Right to be forgotten, personal data, data without legal basis, data destruction, digital right, personal right, personal freedom, privacy, freedom of speech.*

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВА НА ЗАБВЕНИЕ

Вапаев Каримбой Музаффар угли

Студент 2 курса факультета уголовного правосудия Ташкентского
государственного юридического университета

E-mail: yapayevkarimboy@gmail.com

АННОТАЦИЯ

В этой статье указано, что каждый имеет право на защиту персональных данных, а также на исправление недостоверных данных, собранных о нем незаконно или на законных основаниях. Право требовать удаления данных, которые больше не доступны, будет проанализировано. Во многих странах это право называют «правом на забвение». Актуальность данной статьи заключается в обосновании использования права на забвение в процессе развития и глобализации информационных технологий во всем мире для защиты личной информации и обеспечения конфиденциальности. В статье нормы, связанные с правом на забвение, основаны на законодательстве Республики Узбекистан, Общем регламенте Европейского Союза по защите данных (GDPR), соответствующих статьях «Положения о

*правах человека» Европейского Союза, а также а также Индии
Анализируется посредством соответствующих норм основных законов
Республики и Российской Федерации. Также анализируются принятие
законодательства, связанного с правом на забвение, в Испании, Италии,
Аргентине и дела, связанные с правом на забвение. В рамках темы даны
ссылки на мнения зарубежных ученых, научные работы, результаты
исследований, журналы и нормативноправовые документы зарубежных
стран.*

***Ключевые слова:** право на забвение, персональные данные, данные без
юридического основания, уничтожение данных, цифровое право, личное право,
личная свобода, неприкосновенность частной жизни, свобода слова.*

KIRISH

Huquqiy davlatchilik yo‘lida O‘zbekiston Respublikasi o‘zining milliy qonunchiligida inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilab oldi. Inson huquqlari – bu insonning tug‘ilishidan to vafot etguniga qadar butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklaridir. Huquqlarning lozim darajada ta‘minlanishi insonlarga munosib yashash imkoniyatini yaratib beradi. Jumladan, unutilish huquqi (inglizcha “right to be forgotten”) ham bu insonlarning asosiy huquqlaridan biri hisoblanib, u fuqarolarga ma‘lum sharoitlarda o‘zining shaxsiy ma‘lumotlarini qidiruv tizimlari orqali ommaviy tizimdan olib tashlashni talab qilish imkonini beradi [1]. Chunki ushbu ma‘lumotlar odamlarga keyinchalik zarar keltirishi mumkin. Eskirgan, ahamiyatsiz, to‘liq bo‘lmagan, noto‘g‘ri yoki ortiqcha ma‘lumotlar yoki saqlash uchun qonuniy asoslar vaqt o‘tishi bilan yo‘qolgan ma‘lumotlarga tegishlidir [2]. Lyuksemburglik siyosatchi, Yevropa parlamenti a‘zosi Kamissar Reding “unutilish huquqi” ning asosiy qoidasini bayon qildi: “Agar shaxs o‘z shaxsiy ma‘lumotlarini ma‘lumotlar boshqaruvchisi tomonidan qayta ishlanishi yoki saqlanishini istamasa yoki agar uning saqlanishi uchun qonuniy sabablar bo‘lmasa, ma‘lumotlar tizimidan olib tashlanishi kerak [3].

Shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq turlicha yondashuvlar XIX asrning oxirida paydo bo‘lgan. Internet huquqi bo‘yicha tadqiqotchi Viktor Mayer Schoenbergning fikricha, yevropaliklarning shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilishga bo‘lgan qiziqishi XX asrga borib taqaladi [4]. Shvetsiyalik Rolf Veberning so‘zlariga ko‘ra, unutilish huquqi “individualning har qanday ma‘lumotni uchinchi shaxslarga” kirishi mumkin bolmagan holda o‘chirishni talab qilishda aks etadi [5]. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, ushbu huquq shaxslarga o‘zlari haqidagi videolar, fotosuratlar yoki boshqa ma‘lumotlarni o‘chirishga imkon beradi. Unutilish huquqi

shaxsiy daxlsizlik huquqidan alohida bo‘lib, u allaqachon ommaviy bo‘lgan va uchinchi shaxslar tomonidan qayta kirilmaslik uchun ma‘lumotlarni olib tashlashdan iborat [6]. Shuningdek, Lyuksemburglik siyosatchi, Yevropa Ittifoqining Adliya, asosiy huquqlar va fuqarolik bo‘yicha komissari Vivan Redingning fikrlariga ko‘ra, unutilish huquqi “odamlarga o‘z ma‘lumotlarini nazorat qilish, ayniqsa shaxslar tomonidan media va boshqa joyda taqdim qilingan ma‘lumotlarni himoya qilish” usuliga aylandi [7].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ishda mantiqiy, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni aniq tadqiq qilish, qonun hujjatlarini sharhlash, qonunni qo‘llash amaliyotini o‘rganish kabi usullardan foydalanilgan. Shu bilan birga, unutilish huquqiga oid Yevropa Ittifoqi, Hindiston, Rossiya Federatsiyasi, Ispaniya, Italiya, Argentina davlatlarining ijobiy tajribasi va qonun hujjatlari o‘rganiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

2023-yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumini natijasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilindi. Ekspertlar tomonidan 130 ga yaqin chet davlatlarning konstitutsiyasi o‘rganilib chiqildi va ulardan asosiylari konstitutsiyamizda mustahkamlandi. Shuningdek qomusimizda inson huquq va erkinliklariga oid normalar 3 baravarga ko‘paydi. Shulardan eng ahamiyatlilaridan biri sifatida konstitutsiyamizning 31-moddasida [8] belgilangan har kim o‘z shaxsiga doir ma‘lumotlarning himoya qilinishi huquqiy, noto‘g‘ri ma‘lumotlarning tuzatilishini, o‘zi tog‘risida qonunga xilof ravishda to‘plangan yoki huquqiy asosga ega bo‘lmay qolgan ma‘lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga egaligini ko‘rsatib o‘tish lozim. Bu norma konstitutsiyamizga qoshilgan yangi norma hisoblanib, ko‘plab davlatlarning konstitutsiyasi va qonunlarida insonlarning “unutilish huquqi” nomi bilan belgilanib o‘tilgan. Unutilish huquqining asosiy jihatlari haqida Politico texnologiya muxbiri John Hendel “odamlarga ular ahamiyatsiz va nomaqbul deb hisoblagan ommaviy yozuvlar, jurnalistika va ijtimoiy tarmoqlardagi har qanday raqamli ma‘lumotlarni o‘chirib tashlash qobiliyatini berish mumkin” [9] deb yozadi. Handel o‘zining qoidalarini asosiy deb hisoblaydi. Shuningdek, ta‘mirlash - internet foydalanuvchilari ommaviy axborot vositalari yoki boshqa joydagi havolalarni emas, balki internetga joylashtirilgan ma‘lumotlarni nazorat qilishlarini ta‘kidlaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida” gi qonuni [10] fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish bo‘yicha muhim

huquqiy asos sifatida qaraladi. Shaxsga doir ma'lumotlar – muayyan jismoniy shaxsga taaluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborot hisoblanadi. Xitoylik M.Park va C.Chai kabi olimlarning yozishicha shaxsga doir ma'lumotlarga ismlar, manzillar, turmush tarzi kabi ma'lum bir shaxsning shaxsini tushuntirish mumkin bo'lgan ma'lumotlar kiradi [11]. R.Beskivith va C.Mainvaringlarning ta'kidlashicha, ism, manzil, telefon raqami, onasining qizlik ismi, jinsi, kasallik tarixi, sug'urta ma'lumotlari kabilar shaxsga doir ma'lumotlar hisoblanadi [12]. Shaxsga doir ma'lumotlarga har kuni har javhada yuz kelimiz va ma'lum bir holatlarda ularni yig'uvchi yoki tashuvchiga aylanib qolamiz. Shaxsga doir ma'lumotlar har xil maqsadlarda yig'iladi. Masalan, ishga kirish jarayoni, kredit olish jarayoni, turli shartnomalar tuzish vaqtida, nikohni qayd etish davrida va boshqa kundalik holatlarda biz duch keladigan vaqtlarda shaxsga doir ma'lumotlar yig'iladi yoki ulardan foydalaniladi. Asosan, bu ma'lumotlardan shaxsni tasdiqlash va boshqa ma'lumotlarni aniqlash maqsadida foydalaniladi. Shuning uchun shaxsga doir ma'lumotlarning yig'ilish maqsadlari juda keng hisoblanadi. “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida” gi qonunning 10- moddasida shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish tartibi va prinsplari mulkdor va operator tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash, shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish chog'ida ilgari bildirilgan maqsadlar talab etadigan darajada subyektni identifikatsiya qilish imkonini beradigan shaklda amalga oshirilishi va shaxsga doir ma'lumotlarni saqlash muddati belgilangan. Shuningdek, ushbu qonunning 11-moddasida shaxsga doir ma'lumotlarni o'zgartirish va to'ldirish subyektning murojaati asosida, ushbu murojaat berilgan paytdan e'tiboran uch kunlik muddatdan kechiktirmay mulkdor va operator tomonidan amalga oshiriladi. Haqiqatga to'g'ri kelmaydigan shaxsga doir ma'lumotlarni o'zgartirish va to'ldirish bunday nomuvofiqlik aniqlangan paytdan e'tiboran darhol amalga oshirilishi belgilangan. Buni ahamiyatini bir qancha olimlarning fikrlari asosida tahlil qilsak, xitoylik olim X.Zou shaxsga doir ma'lumotlarning buzilishi fuqarolarning normal hayoti va manfaatlariga, ularning shaxsiy yoki mulkiy xavfsizligi uchun zarar yetkazishini ta'kidlagan [13]. Shuningdek, xorijiy davlatlarning axborot tizimini himoya qilishdagi tajribasini o'rgangan olimlar M.A.Efremova va P.V.Agapov qator davlatlarning shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligiga oid qonunchilik tizimini o'rgangan [14]. “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida” gi Qonunning 17-moddasida shaxsga doir ma'lumotlar mulkdor va operator, shuningdek uchinchi shaxs tomonidan quyidagi hollarda yo'q qilinishi lozim:

- Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish maqsadiga erishilganida;

- Subyektning shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish uchun berilgan roziligi chaqirib olinganda;
- Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishning subyekt bergan rozilik bilan belgilangan muddati o'tganda;
- Sudning qarori qonuniy kuchga kirganda.

Shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlarning daxlsizligi O'zbekiston

Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'RQ-547-sonli Qonunining 28-moddasida "Subyektning rozilgisiz yoki boshqa qonuniy asos mavjud bo'lmagani holda shaxsga doir ma'lumotlarni oshkor etish va tarqatishga yo'l qo'yilmasligi to'g'risida mulkdor va (yoki) operator yoki shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat olgan boshqa shaxs tomonidan rioya etilishi majburiy bo'lgan talab shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligidir. Mulkdor va (yoki) operator hamda shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat olgan boshqa shaxslar subyektning rozilgisiz shaxsga doir ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi va tarqatmasligi shart. Shaxsga doir ma'lumotlarning daxlsizligini buzganlik uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 46.2-moddasiga [15] binoan javobgarlikka tortiladi. Agar ma'muriy jazo tayinlanganidan keyin yana sodir etilgan hollarda, Jinoyat kodeksining 141.1-moddasiga [16] asosan javobgarlikka tortiladi.

Unutilish huquqi haqida ko'pchilik olimlar o'zlarining qarashlarini bayon qilgan. Ulardan biri google kompaniyasining maxfiylik bo'yicha bosh maslahatchisi

Piter Fleischer ta'kidlaganidek, unutilish huquqi ko'pincha uchta asosiy toifani qamrab oladi, ularning har biri so'z erkinligiga toboro kuchayib borayotgan xavflarni taklif qiladi deydi. Birinchi toifa eng kam munozarali: "Agar men internetga biror narsa joylashtirsam, uni yana o'chirishga haqqim bormi?". Bu facebookda surat joylashtirganim va keyinchalik chuqur o'ylagan holda uni olib tashlamoqchi bo'lgan holatimni o'z ichiga oladi. Facebook va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda bunga allaqachon ruhsat berilgani sababli, bu yerda qonuniy kuchga ega bo'lgan huquqni yaratish e'tirozsiz. Ammo ma'lumotlarni o'chirish huquqi Fleischerning ikkinchi toifasi bilan bog'liq bo'lsa, yanada bahsli bo'ladi. "Agar men ijtimoiy tarmoqda biror narsa joylashtirsam va kimdir uni nusxalab o'z saytida joylashtirsa, men uni o'chirishga haqqim bormi?". Tasavvur qiling-a, o'smir bir shisha piva bilan tushgan rasmini o'z saytida joylashtirganidan afsusda va uni o'chirib tashlaganidan so'ng, keyinchalik uni bir nechta do'stlari rasimni nusxalab o'z saytlarida joylashtirgani ma'lum bo'lib qoldi. Agar u ulardan suratlarni olib tashlashni so'rasa-yu, uning do'stlari rad qilishsa yoki topilmasa, facebook faqat o'smirning e'tiroziga ko'ra egasining rozilgisiz suratni do'stlarining albomlaridan

o‘chirib tashlashga haqli. Evropaning unutilish huquqiga ko‘ra, kimdir shaxsiy ma‘lumotlarni o‘chirishni talab qilganda, internet-provovder “so‘z erkinligi” huquqini amalga oshirilishi uchun ma‘lumotlarning saqlanishi “zarur” bo‘lmasa, kechiktirmasdan o‘chirishni amalga oshiradi. Fleischerning o‘chirish so‘rovlarining uchinchi toifasi bor: “Agar kimdir men haqimda biror narsa yozsa, uni o‘chirishga haqqim bormi?”. Bu albatta, erkin fikr bildirish borasida eng jiddiy havotirlarni keltirib chiqaradi [17]. AQSH Oliy sudi, agar ma‘lumotlar qonuniy ravishda olingan bo‘lsa, tarqatishni cheklovchi qonunlarni qabul qila olmaydi, deb ta’kidladi. Boshqa bir huquqshunos olim De Tervagne o‘zining unutilish huquqi bo‘yicha qarashlarini quyidagicha bayon qiladi: “savol shundaki, odamlar o‘zlarining o‘tmishdagi harakatlari uchun javobgar bo‘lishlari kerakmi yoki ular o‘zlarining o‘tmishlarini qayta yozish huquqiga ega bo‘lishlari kerakmi” [18]. Ushbu fikrlarni tahlil qilgan holda o‘z qarashlarimizni bayon qiladigan bo‘lsak, unutilish huquqi bu so‘z erkinligini cheklashga qo‘shilmaymiz. Chunki so‘z erkinligi bu so‘zlarni erkin bayon qilish va unutilish huquqini amalga oshirish bilan so‘z erkinligi cheklanmaydi. Unutilish huquqidan foydalanib har bir inson o‘zi haqidagi noto‘g‘ri va asossiz ma‘lumotlarni uchinchi shaxslardan (noto‘g‘ri ma‘lumotlarni tarqatgan shaxslardan) talab qilish bu ularning so‘z erkinligini cheklash deb xulosa qilinmasligi kerak. Masalan, ayrim odamlarda noto‘g‘ri qarashlar mavjud ya’ni siz ulardan o‘zingiz haqingizdagi tarqatilgan asossiz ma‘lumotlarni yo‘q qilinishini talab qilsangiz sizga beriladigan birinchi javob bu “yo‘q, sen meni so‘z erkinligim, istalgan ma‘lumotlarni tarqatish huquqimni cheklayapsan” degan javob olasiz. Ushbu holatda siz hech kimni so‘z erkinligini cheklamaysiz, balki, o‘zingiz haqingizdagi asossiz ma‘lumotlarni yo‘q qilinishini talab qilish huquqingizdan foydalanasiz. Odamlar o‘tmishda qilgan harakatlari uchun kelajakda javob bermasliklari kerak va har bir inson unutilish huquqidan foydalangan holda o‘tmishni qayta yozish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Yevropa ittifoqining “Umumiy ma‘lumotlarni himoya qilish haqida” gi 2018-yil 25-maydagi *reglamenti* (GDPR) shaxsiy ma‘lumotlarning qonuniy, adolatli va shaffof tarzda to‘planishi va ishlatilishini, shaxslarning shaxsiy ma‘lumotlari ustidan nazoratni ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, ushbu reglamentda shaxslarga tashkilotlardan shaxsiy ma‘lumotlarni o‘chirishni so‘rash huquqini beradi. Shuningdek GDPR shaxsiy ma‘lumotlarni qanday yig‘ish, qayta ishlash va o‘chirish kerakligini tartibga soladi. Yevropa Ittifoqi Adliya sudining 2014-yildagi qaroridan so‘ng, ko‘plab e’tirof etilgan “unutilish huquqi” GDPR da mavjud bo‘lgan yo‘q qilish huquqi uchun pretsedent bo‘ldi. Unutilish huquqi GDPR ning 65-va 66-bandlarida ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, “Ma‘lumotlar subyekti nazoratchidan

o‘ziga tegishli shaxsiy ma’lumotlarning o‘chirilishini ortiqcha kechiktirmasdan olish huquqiga ega va nazoratchi shaxsiy ma’lumotlarni ortiqcha kechiktirmasdan o‘chirishga majburdir”. Ortiqcha kechikish, taxminan, 1 oy deb qaraladi. GDPR ning 17-moddasida unutilish huquqi qo‘llaniladigan asosiy holatlar belgilangan. Jismoniy shaxs o‘z shaxsiy ma’lumotlarini o‘chirishga haqli, agar:

- Shaxsiy ma’lumotlar dastlab to‘plangan va qayta ishlangan maqsadlar uchun kerak bo‘lmasa ;

- Tashkilot ma’lumotlarni qayta ishlash uchun qonuniy asos sifatida shaxsning roziligiga tayanadi va bu shaxs o‘z roziligini bildirmasa ;

- Tashkilotning ma’lumotlarni qayta ishlash uchun hech qanday qonuniy manfaat bo‘lmasa ;

- Tashkilot to‘g‘ridan – to‘g‘ri marketing uchun shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlasa;

- Tashkilot shaxsning shaxsiy ma’lumotlarini qonunga xilof ravishda qayta ishlasa;

- Axborot jamiyati xizmatlarini taklif qilish uchun tashkilot shaxsning ma’lumotlarini qayta ishlasa;

Biroq, tashkilotning kimningdir ma’lumotlarini qayta ishlash huquqi ularning unutilish huquqini bekor qilishi mumkin. GDPR da ko‘rsatilgan o‘chirish huquqini buzadigan holatlar:

- Ma’lumotlar so‘z va axborot erkinligi huquqidan foydalanish uchun ishlatilsa;

- Ma’lumotlar qonuniy qaror yoki majburiyatni bajarish uchun foydalanilsa;

- Ma’lumotlar jamoat manfaatlarida yoki tashkilotning rasmiy vakolatlarini bajarishda amalga oshiriladigan vazifani bajarish uchun ishlatilsa;

- Qayta ishlangan ma’lumotlar sog‘liqni saqlash uchun xizmat qilsa va jamoat manfaatlarini amalga oshirsa;

- Qayta ishlangan ma’lumotlar profilaktika yoki kasbiy tibbiyotni amalga oshirish uchun zarurdir. Bu faqat ma’lumotlar professional sirni saqlash bo‘yicha qonuniy majburiyatga ega bo‘lgan sog‘liqni saqlash mutaxassisi tomonidan qayta ishlanayotganda qo‘llanilsa;

- Ma’lumotlar jamoat manfaatlariga, ilmiy tadqiqotlarga, tarixiy tadqiqotlarga yoki statistik maqsadlarga xizmat qiluvchi muhim ma’lumotlarni ifodalaydi va ma’lumotlarni o‘chirish – qayta ishlash maqsadi bo‘lgan muvaffaqiyatga erishishga putur yetkazishi yoki to‘xtatishi mumkin bo‘lsa;

- Ma’lumotlar huquqiy himoyani o‘rnatish yoki boshqa huquqiy da’volarni amalga oshirish uchun foydalanilsa;

Bundan tashqari, tashkilot so‘rovning asossiz yoki haddan tashqari ko‘p ekanligini asoslashi mumkin bo‘lsa, tashkilot “oqilona to‘lov” so‘rashi yoki shaxsiy ma‘lumotlarni o‘chirish so‘rovini rad etishi mumkin [19][20].

Yevropa Ittifoqining asosiy qonun hujjatlaridan biri – Yevropa Ittifoqining Inson Huquqlari bo‘yicha Nizomining 8-moddasi shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish haqida bir qancha norma belgilangan bo‘lib bular quyidagilardan iborat: Har bir shaxs shaxsiy ma‘lumotlarini himoya qilish huquqiga ega. Shuningdek, bunday ma‘lumotlardan belgilangan maqsadlarda va uning roziligi yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar asosida maqsadga muvofiq foydalanishi kerak. Har bir inson o‘zi to‘g‘risidagi to‘plangan ma‘lumotlarga kirish va undagi xatolarni tuzatish huquqiga egaligi belgilab qo‘yilgan [21]. 1995-yilda “Shaxsiy ma‘lumotlarni qayta ishlash va bunday ma‘lumotlarning erkin harakatlanishi bo‘yicha shaxslarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi direktivasi (95/46EC direktivasi) qabul qilindi, bu bugungi kunda Yevropa Ittifoqining asosiy hujjati hisoblanadi. Unda shaxsiy ma‘lumotlarni to‘plash, qayta ishlash, saqlash va shaxsiy ma‘lumotlar bilan bog‘liq boshqa harakatlar nazarda tutilgan. Ushbu hujjatning 12-bandi jismoniy shaxslarga shaxsiy ma‘lumotlarning maxfiyligini va uni internetdagi uchinchi shaxslardan himoya qilinishini kafolatlaydi [22].

Hindiston Respublikasida shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq qonun loyihasi 2019-yil 11-dekabrda Elektronika va axborot texnologiyalari vazirligi tomonidan taqdim etilgan. Ushbu qonunning asosiy maqsadi shaxsning shaxsiy hayotini himoya qilishdir. Qonunning 5-bobida ma‘lumotlar direktori huquqi haqida so‘z boradi. Ushbu bobning 20-bandida unutilish huquqi haqida so‘z boradi. Ushbu bandda ma‘lumotlar direktori (ma‘lumotlar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs) o‘z shaxsiy ma‘lumotlarining doimiy ravishda cheklash yoki oldini olish huquqiga ega. Shunday qilib, unutilish huquqidan foydalangan holda o‘z shaxsiy ma‘lumotlarni o‘chirishi yoki tuzatishi mumkin [23,24]. Hindiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21-moddasida hech kim qonunda belgilangan tartibda hayoti yoki shaxsiy erkinligidan mahrum etilishi mumkin emas [25,26]. Ushbu norma ham unutilish huquqini ta‘minlovchi asosiy qonunlardan hisoblanadi. Chunki unutilish huquqi shaxslarning asosiy va daxlsiz huquqi hisoblanadi va har bir shaxs o‘zining shaxsiy ma‘lumotlarini himoya qilishi, shuningdek, ahamiyatsiz va noto‘g‘ri ma‘lumotlarni internet saytlaridan olib tashlanishini talab qilish huquqiga ega.

Rossiya Federatsiyasida 2014-yil 4-iyunda yangi tahrirda qabul qilingan

“Shaxsiy ma‘lumotlar to‘g‘risida” gi Federal qonuniga binoan shaxsiy ma‘lumotlarni qayta ishlashda shaxsiy ma‘lumotlarning to‘g‘riligi, ularning yetarliligi va shaxsiy ma‘lumotlarni qayta ishlash maqsadlari bilan bog‘liqligi

ta'minlanishi kerak. Operator to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlarni o'chirish yoki aniqlashtirish choralari ko'rishi kerak. Shuningdek, federal qonunlarda boshqacha holat nazarda tutilmasa, qayta ishlangan ma'lumotlar qayta ishlash maqsadiga erishilgandan so'ng yo'q qilinishi va shaxsiylashtirilmaligi kerak [27]. 2014-yil iyun oyida Yevropa sudining qarori va "global tarmoqlarda o'zi haqida yoqimsiz yoki eskirgan ma'lumotlarga kirishni cheklash" huquqi Rossiya Federatsiyasi Jamoalar palatasi tomonidan qo'llab quvvatlangan [28]. 2014-yil noyabr oyida Roskomnadzor agentlik "unutilish huquqini" Rossiya qonunchiligida mustahkamlab qo'yishni qo'llab quvvatlashini bildirgan va bu paytda mamlakatda shunga o'xshash pretsedentlar bo'lmagan. 2015-yil may oyida "unutilish huquqi" to'g'risidagi qonun loyihasi Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasiga turli fraksiyalarning to'rt nafar deputati tomonidan taqdim etilgan [29]. Qonunga ko'ra, Rossiya fuqarolari qidiruv natijalaridan o'zlari haqidagi eskirgan ma'lumotlarga havolalarni olib tashlashlari mumkin. Biroq materiallarning o'zlari joyida qoladi. Masalan, yandex va google yolg'on ma'lumotlarga havolani qabul qiladi va ularni mustaqil ravishda qidiruv natijalaridan olib tashlaydi. Ariza beruvchi faqat o'z shaxsini tasdiqlashi va to'g'riligini isbotlashi kerak. Aytaylik, X web-saytida shunday yozilgan: "Ivanov poraxo'r". Ivanov o'zining aybsizligi haqidagi dalillar bilan unutilish huquqini so'rab qidiruv tizimlariga murojaat qiladi. Bundan keyin Ivanovni qidirayotgan foydalanuvchilar negativ havola ko'rmaydilar. 2015-yil iyuldagi "Axborot, axborot texnologiyalari va axborotlarni himoya qilish to'g'risida" gi qonuni va 2015-yil 13-iyulda FZ-264 sonli federal qonuni Fuqarolik Protsessual kodeksining 29 va 402-moddalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qabul qilingan. Tegishli federal qonun Rossiya Federatsiyasi Prezidenti tomonidan imzolandi. Ushbu qonun 2016-yil 1-yanvardan kuchga kirgan [30] [31]. "Axborot, axborot texnologiyalari va axborotlarni himoya qilish to'g'risida" Federal qonuni 1 modda bilan to'ldirildi. 10.3...unga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi hududida joylashgan iste'molchilarning e'tiborini jalb qilishga qaratilgan internetda reklama tarqatuvchi qidiruv tizimi operatori fuqaroning (jismoniy shaxsning) holda tarqatilgan, ishonchsiz, shuningdek, ahamiyatsiz bo'lgan, keyingi voqealar tufayli arizachi uchun ahamiyatini yo'qotgan arizachi to'g'risidagi ma'lumotlarga kirish imkonini beruvchi Internetdagi sayt sahifasi indeksi haqida ma'lumot berishi kerak. Federal qonun talabnoma beruvchining ma'lumot berishni to'xtatish to'g'risidagi iltimosiga javob berishi kerak bo'lgan mezonlarni, ushbu so'rovni qidiruv tizimi operatoriga yuborish tartibini va ularning keyingi o'zaro ta'sirini belgilaydi. Ariza beruvchining so'rovida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

• Familiyasi, ismi, otasining ismi, passport ma'lumotlari, aloqa ma'lumotlari (telefon yoki faks raqamlari, elektron pochta manzili,

• pochta manzili;)

• Havolalar berilishi, tugatilishi kerak bo'lgan ariza beruvchi to'g'risidagi ma'lumotlar;

• Ma'lumotlar joylashtirilgan internetdagi web-sayt sahifasining indeksi;

• Qidiruv tizimini havolalar chiqarishni to'xtatish uchun asos;

• Ariza beruvchining shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga roziligi;

Agar talabda noaniqliklar yoki xatolar aniqlansa, qidiruv tizimining operatori ariza beruvchiga u taqdim etgan ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun bildirishnoma yuborishga haqli. Ariza beruvchi 10 ish kuni ichida noaniqliklarni bartaraf qilishi va yangilangan ma'lumotlarni operatorga yuborishi shart. Qidiruv tizimining operatoriga so'rovda ko'rsatilgan ma'lumotlarga havolalarni qidiruv so'rovi natijalaridan chiqarib tashlash uchun 10 ish kuni beriladi, keyin bu haqda ariza beruvchining so'rovi qanoatlantirilganligi to'g'risida bildirishnoma yuborish yoki asoslantirilgan rad javobi orqali arizachiga xabar qilinadi. "Unutilish huquqi" ning Yevropa versiyasidan farqli o'laroq, Rossiya qonunchiligi arizachining so'rovi faktining maxfiyligiga e'tibor qaratadi va qidiruv tizimi operatorining manfaatdor shaxsdan so'rovni qabul qilish to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini belgilaydi. Ariza berish faktining maxfiyligi ariza beruvchining shaxsiy daxlsizlik huquqini kafolatlaydi. Shuningdek, federal qonun qidiruv tizimi operatorining rad etishini asossiz deb hisoblagan arizachiga sudga murojaat qilish huquqini beradi.

Ispaniyada shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun mavjud (Ley Orga'nica 15/1999, LOPD). Ushbu qonunning shaxsiy ma'lumotlarni sifati to'g'risidagi 4-moddasida aytilishicha, ular to'planishi va keyinchalik qayta ishlanishi faqat shartlarga muvofiq mumkin. Tarixiy, statistik, yoki ilmiy maqsadlarda bo'lmasa ushbu ma'lumotlardan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Shaxsiy ma'lumotlar, agar ular to'plangan yoki saqlangan maqsadlar uchun zarur bo'lmasa yoki ahamiyatli bo'lmasa, o'chirilishi kerak [32]. Ispaniya fuqarolarini shaxsiy ma'lumotlarini to'plash, qayta ishlash va boshqa harakatlarni himoya qilish va nazorat qilish uchun 1993-yilda Adliya vazirligi nazorati ostidagi tashkilot bo'lgan Milliy ma'lumotlarni himoya qilish agentligi tashkil etilgan [33].

Italiyada ham 2003-yil noyabr oyida qabul qilingan Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kodeksi (Codice in material di protezione dei dati personali) (51) va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha davlat tashkiloti (Garante per la

prateizone dei dati personali) [34] mavjud. Italiyada unutilish huquqi, birinchi navbatda, har bir fuqaroning uning sha'ni yoki obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan ayrim biagrafik faktlarni yangiliklar tarixidan olib tashlash huquqi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi [35]. Agar bu faktlar endi ahamiyatli bo'lmasa yoki o'zining sud o'tmishi haqidagi ma'lumotlarni aniq sabablarsiz tarqatmaslik nazarda tutilgan. Misol sifatida Oronto shahri sudi (Primodanoi) internet nashrini o'z arxivida sud ishida ishtirok etgan ikki nafar tadbirkorga oid materiallarni olib tashlashdan bosh tortgani uchun 17 ming yevro miqdorida jarimaga tortilgan. Sud qaroriga ko'ra ma'lumot e'lon qilingan kundan boshlab jamoatchilik manfaati yo'qligi uchun yetarli vaqt o'tgan. Oxir oqibat maqola nashr arxividan olib tashlangan [36,37].

Argentina qonunchiligida unutilish huquqi bilan bog'liq normalarga to'xtalsak, 1996-yilda Argentina Oliy sudi tomonidan 10 yildan ko'proq vaqt oldin to'plangan shaxsiy ma'lumotlar eskirgan deb hisoblangan va subyekt ushbu ma'lumotlarni o'chirish huquqiga ega deb qaror qabul qilingan. Chunki eski ma'lumotlarni saqlanishi "unutilish huquqini" ni buzadi. Keyinchalik 2000-yil 25.326-sonli "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida" gi Qonunning 26-bandi shaxsiy ma'lumotlarni besh yillik saqlash muddatini belgilaydi [38]. 2012-yil deputatlar Julian Obiglio va Alberto Peres internetda unutilish huquqi to'g'risidagi yangi qonunni taklif qilishdi, uchinchi shaxslar tomonidan nashr etilgan kontent uchun qidiruv tizimlari va ijtimoiy tarmoqlar uchun huquqiy javobgarlikni belgilovchi va jismoniy shaxslarga qidiruv tizimlari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni talab qilish imkonini beruvchi mexanizmni taklif qilishdi [39].

XULOSA

Yuqorida ta'kidlanganidek, unutilish huquqi insonlarning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Chunki shaxslar o'zlari haqidagi ma'lumotlarni nazorat qilish va noto'g'ri ma'lumotlarni o'zgartirish, to'ldirish va yo'q qilish huquqiga ega. Amaliyotimizga bog'lab tahlil qiladigan bo'lsak: yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hisoblangan my.gov.uz saytida fuqarolar ma'lumotlarining xato va kamchiliklar bilan kiritilgan holatlari mavjud. Ushbu ma'lumotlar to'g'irlanishi va kamchiliklar to'ldirilishi lozim. Chunki har kim shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilinishi, noto'g'ri va huquqiy asosga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarni yo'q qilinishini talab qilish huquqi konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan. Shaxsiy ma'lumotlar inson hayotida juda muhim o'rinni egallaydi. Masalan, biror shaxs to'g'risida noto'g'ri ma'lumotlar internet va boshqa ommaviy saytlarda tarqatilsa ertaga o'sha insonning ishi, kariyerasi uchun ko'pgina salbiy oqibatlariga olib keladi. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda hamma narsa internet axborot tizimi bilan

bog‘liq. Bu shuni anglatadiki, ertaga biror joyga ishga kirish istagini bildirsangiz ish beruvchi siz haqingizda ma‘lumot to‘plashi mumkin va bu holatda siz to‘g‘ringizda tarqatilgan asossiz va noto‘g‘ri ma‘lumotlar yaxshi ishlarni boy berilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Yana bitta hayotiy misol sifatida shuni ko‘rsatish mumkinki, yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida fuqarolarning shaxsiy ma‘lumotlari bilan bog‘liq xato va kamchiliklar mavjud. Har bir fuqaro o‘zi haqidagi shaxsiy ma‘lumotlarini to‘g‘riligini nazorat qilib, agar noto‘g‘ri ma‘lumotlar aniqlansa davlat organlaridan to‘g‘irlashni talab qilishi kerak. Shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunimizda har bir shaxs o‘zi haqida huquqiy asosga ega bo‘lmagan ma‘lumot tarqatilsa buni o‘zgartish yoki yo‘q qilishni talab qilinganda darhol amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu holatda qonunda aniq muddat belgilanishi lozim chunki bu holat amaliyotda ishlaganda ma‘lum muddat kechikishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida shaxslar o‘zlari haqida noto‘g‘ri va asossiz ma‘lumotlarni yo‘q qilinishini talab qilinganda qidiruv so‘rovi operatori tomonidan 10 ish kuni ichida amalga oshirish belgilangan. Shuningdek, unutilish huquqidan foydalanib qidiruv tizimidan asossiz ma‘lumotlarni yo‘q qilinishini talab qilgan har qanday insonni shaxsi sir tutilishi kerak va bu shaxsiy daxlsizlik bilan bog‘liq. Ispaniya, Italiya davlatlari tajribasida bu holatni ko‘rishimiz mumkin chunki bu davlatlarda shaxsiy ma‘lumotlarni to‘planishi, saqlanishi va qayta ishlanishini nazorat qilish maqsadida bir qancha agentlik va tashkilotlar o‘z faoliyatini olib boradi. Unutilish huquqining ayrim jihatlari shu jumladan ishi sud ishida ishtirok etgan shaxslar haqidagi ma‘lumotlar ham ma‘lum muddatdan keyin internet nashirlaridan olib tashlanishi mumkin. Buni Italiyada bo‘lib o‘tgan tadbirkorlarning suddagi ishtiroki bilan bog‘liq ish misolida ko‘rish mumkin. Yana bitta ijobiy tajriba shuki, biror inson haqida internet va boshqa saytlarda uchinchi shaxslar tomonidan tarqatilgan kontent uchun ijtimoiy tarmoqlar va qidiruv tizimlari uchun huquqiy javobgarlik belgilanishi lozim. Bu yo‘l orqali ma‘lumotlarga ishlov berish va ulardan noto‘g‘ri maqsadlarda foydalanishini oldini olish mumkin. Unutilish huquqi ya‘ni har bir shaxslar o‘zlari haqidagi ma‘lumotlarni nazorat qilishi va huquqiy asosga ega bo‘lmagan ma‘lumotlarni yo‘q qilish huquqi har bir davlatning qonunchiligida asosiy huquqlardan biri sifatida belgilanish lozim.

Yuqoridagi tahliliy fikrlar va xorijiy davlatlarning tajribasini o‘rgangan holda quyidagicha takliflarni berishimiz mumkin:

birinchidan, shaxsiy hayot daxlsizligini buzgan va shaxslar to‘g‘risida har qanday asossiz va noto‘g‘ri ma‘lumotlarni tarqatgan axborot tarqatuvchisini bloklash tizimini joriy etish kerak. Ushbu amaliyot Yevropa Ittifoqining Ma‘lumotlarni

himoya qilish bo'yicha reglamentining shaxsiy hayot daxlsizligiga oid ma'lumotlaridan qonuniy foydalanish bo'yicha prinsplarida belgilab o'tilgan.

ikkinchidan, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi O'RQ-547-sonli Qonuniga tegishli o'zgartirishlar kiritib, shaxslar o'zlari haqida huquqiy asosga ega bo'lmagan va noto'g'ri ma'lumotlarni yo'q qilish arizasi bilan murojaat qilganda ushbu ma'lumotlarni qancha muddat ichida yo'q qilishni aniq muddatini belgilash taklif etiladi. Ushbu ijobiy tajriba Rossiya Federatsiyasi qonunchilida belgilab o'tilgan.

uchinchidan, shaxsiy hayot daxlsizligiga oid ma'lumotlar bilan ishlovchi shaxslarga, ekspert va mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish taklif etiladi.

REFERENCES

1. Vaas, Lisa (25 September 2019). "Google wins landmark case: Right to be forgotten only applies in EU". Naked Security. Retrived 9 may 2021.
2. "El derecho al olvido en Internet se debera aplicar tambien en la Capital Federal" New York Times.
3. <http://europa.eu/rapid/pressReleasesAction.do>
4. <http://www.newyorker.com/magazine/2014/09/29/solace-oblivion>
5. Weber H. Rolf The Right To Be Forgotten: More than a Pandora box? Архивная копия от 29 ноября на Wayback machine
6. Wall street Journal Forgot any "Right to be Forgotten"
7. <https://www.theatlantic.com/technology/archive/2012/01/why-journalists-shouldnt-fear-europes-right-to-be-forgotten/251955/2/>
8. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan)
9. John Hendel, Why Journalists Shouldn't Fear Europe's 'Right to Be Forgotten, <http://www.theatlantic.com/technology/archive/2012/01/why-journalists-shouldnt-fear-europes-right-to-be-forgotten/251955/>.
10. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi O'RQ-547-son Qonuni
11. M.Park, S. Chai, The Value of Personal Information : An Exploratory Study for Types of Personal Information and Its Value, Asia Pacific Journal of Information Systems Vol. 28 No. 3 – 2018. – B. 155.
Tezlikni oshirish yo‘l-transport jarohatlari uchun asosiy xavf omili bo‘lib, halokat xavfi va halokat oqibatlariga hissa qo‘shadi (3, 4, 15-18). O‘rtacha harakat tezligi oshgani sayin, avariya ehtimoli ham oshadi (15). Masalan, transport vositasining o‘rtacha tezligini 1 km/ soatga oshirish jarohatlarga olib keladigan avariya holatlarining 3% ga va o‘limga olib keladigan halokatlarning 4-5% ga oshishiga olib keladi (3). Yechimlar O‘rtacha tezlikni 5% ga kamaytirish halokatli yo‘l transport hodisalari sonini 30% kamaytirishga olib kelishi mumkin. Tezlik qanchalik yuqori bo‘lsa, to‘xtash masofasi shunchalik katta bo‘ladi va shuning uchun yo‘l-transport hodisasi xavfi ortadi.

1.1-rasmda ko‘rsatilganidek, quruq yo‘lda 80 km/soat tezlikda biror hodisaga reaksiyaga kirishish uchun taxminan 22 m (taxminan 1 sekund reaksiya vaqti davomida bosib o‘tilgan masofa) va jami 57 metr kerak bo‘ladi, yani butunlay to‘xtab qolish uchun.



1.1- rasm. Avtomobil turli tezlikda harakatlenganda to'xtash masofasi.

Erkak va yosh haydovchilar tezlikni oshirish ehtimoli ko'proq, tezlikka ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa omillarga spirtli ichimliklar, yo'lida harakatlanish tartibi, transport zichligi va ob-havo sharoitlari xam kiradi.

Janubiy Koreyada so'nggi 5 yil mobaynida bosqichma-bosqich "50/30" konsepsiyasi amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu konsepsiyaning asosiy maqsadi piyodalar bilan bog'liq og'ir oqibatli yo'l-transport hodisalarning oldini olish.

Eng qizig'i "**5 yil mobaynida bosqichma-bosqich**" degan jumлага alohida e'tiborni qaratishimiz kerak. Chunki konsepsiyaga o'tish uchun ular 5 yil mobaynida quyidagi tizimli ishlarni amalga oshirishgan:

1. Turli soha vakillaridan iborat ishchi guruh tuzilgan (transport vazirligi, politsiya, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, "Samsung" kabi yirik korporatsiyalar, ommaviy axborot vositalari va boshqalar);


2. Bir nechta yo'nalishda ilmiy-tadqiqotlar o'tkazishgan: turli tezliklarda maxsus krash-testlar, tezlik kamaytirilishi natijasida o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisalar soni qanchaga kamayishi, taksilarda tezlik 60 km/sdan 50 km/sgacha kamaytirilganda o'rtacha 10 km masofaga qancha vaqt yo'qotilishi (bor yo'g'i 3-4 daqiqa) va h.k.

Tadqiqotlar transport vositasining 30, 50 va 60 km/soat tezliklarda piyodalarni urib ketganda yetkaziladigan zararlarning darajasi bo'yicha o'tkazilgan. Tajriba yakunlarida 30 km/soat tezlikda piyoda nisbatan kam miqdorda zarar olgan bo'lsa 50 km/soat tezlikda piyodaning o'rta darajadagi miya chayqalishi yoki suyaklarining

sinishi kuzatilgan va 60 km/soatda esa piyoda boshidan va tanadan og‘ir jarohatlar olgan. Tajriba natijalaridan ko‘rinib turibdiki transport vositasining piyodalarni urib ketishi mumkin bo‘lgan joylarda harakat tezligi 50 km/soatdan oshmasligi kerak.

3. Ommaviy axborot vositalari orqali (televideniya, internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) kuchli targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishgan, asosiy maqsad aholini bu o‘zgarishlarga tayyorlash, tegishli tushuntirish ishlarni amalga oshirib, norozichiliklarning oldini olish .

4. Konsepsiyani joriy etilishini boshlang‘ich bosqichlarda Seul shahrining ayrim tumanlarida, keyinchalik to‘liq Seul shahri va butun Janubiy Koreya bo‘yicha amalga oshirishgan.



1.2-rasm. Janubiy Koreyada so‘nggi 5 yil mobaynida bosqichma-bosqich “50/30” konsepsiyasida olib borilgan ishlar natijasida quyidagi natijalarga erishildi yani to‘qnashuv tezligining piyodaning sog‘lig‘iga tasiri o‘rganildi.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak bugungi kunda bizning mamlakatimizda xam tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan tartibga solinmagan piyodalar o‘tish joylari svetaforlar o‘rnatilib tartibga solinyapti. Hududlar kesimida piyodalar xavfsiz harakatlanish bo‘yicha yo‘riqnomalar berilmoqda. Shu o‘rinda takidlab o‘tishimiz kerakki O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni

amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–27-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, shuningdek, yo‘l harakatini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish, avtomobil yo‘llari infratuzilmasini rivojlantirish va yo‘l harakati ishtirokchilari uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida: yo‘l infratuzilmasini takomillashtirish va xavfsiz harakatlanish sharoitlarini yaratish orqali yo‘llarda avariya va o‘lim holatlarini keskin qisqartirish, shu jumladan, harakatni boshqarish tizimini to‘liq raqamlashtirish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta‘minlash maqsadida quyidagilarni nazarda tutuvchi 2022-2026 yillar davomida respublika hududida amalga oshirilishi mo‘ljallangan “Xavfsiz va ravon yo‘l” umummilliy dasturi ishlab chiqildi va ushbu dastur bo‘yiicha xam ishlar olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. E. Abdusamatov, S. Abruyev, N. Tursunov (2022). Evaluate the Economic Efficiency of Fuel Consumption of Vehicles at an Intersection. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science 1(3), 49-45
2. Abruyev SH.I, Ikromov A.G‘., O‘taganov S.Q., Yo‘l transport hodisalari va ularning kelib chiqish sabablari tahlili (Toshkent Shahri Misolida)
3. <https://uzreport.news/society/2022-yilda-toshkent-shahrida-1200-ta-yo-l-transport-hodisasi-sodir-bo-lgan-unda-136-nafar->
4. Abruyev SH.I., Ikromov A.G‘., O‘taganov S.Q., Yo‘l transport hodisalari va ularning kelib chiqish sabablari tahlili (Toshkent Shahri Misolida)
5. <https://lex.uz/ru/docs/-6106551>

TALABALARNI KASBIY PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA MA'NAVIIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

Aliqulov Lazizjon Samariddin o'g'li

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

Chaqiriqqacha xarbiy ta'lim fakulteti magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda dolzarb mavzu bo'lgan talabalarni kasbiy – pedagogik ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan.

***Kalit so'zlar:** ta'lim jarayoni, oliy ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, konsepsiya, pedagogik texnologiyalar.*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются научно-теоретические основы подготовки студентов к организации духовно-просветительской работы в процессе профессионально-педагогического образования, что является актуальным вопросом на сегодняшний день.

***Ключевые слова:** образовательный процесс, высшее образование, организация духовно-просветительской работы, концепция, педагогические технологии.*

ABSTRACT

The article analyzes the scientific and theoretical basis of preparing students for the organization of spiritual and educational work in the process of professional-pedagogical education, which is a topical issue today.

***Key words:** educational process, higher education, organization of spiritual and educational work, concept, pedagogical technologies.*

KIRISH

Jahon oliy ta'lim tizimida talabalarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, yoshlarning intellektual salohiyati, tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalq manfaatlari uchun xizmat qilish tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlod sifatida tarbiyalashga

qaratilgan talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy ongini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish borasida Respublikamiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miramonovich hozirgi O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida:

O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmonini tasdiqladi va ushbu farmon ayni vaqtda qabul qilingan farmonlardan ekanligiga yana bir bora min bo'ldik.

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimida talabalarning Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari borasida dunyoning yetakchi, rivojlangan mamlakatlari Rossiya, Germaniya, Fransiya, Япония, Xitoy, Koreya kabi davlatlarida talabalarning tafakkurini o'stirish, qobiliyatlarini erta namoyon etish, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda muammoli o'qitish, modulli o'qitish, blended learning (aralash o'qitish), mahorat darslari, vebinarlar, evristik metodlar, virtual ta'lim texnologiyalarini qo'llash muhim o'rin tutdi.

Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida talabalarning Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini o'rganish, uni o'z mintalitimizga mos ravishda rivojlantirish bizning oliy maqsadimiz sifatida qarashimiz zarur.

Yangi O'zbekiston sharoitida mafkuramizning tub ma'no-mazmunini belgilab beradigan ana shu maqsad bizning hayotimiz, ong-u tafakkurimizga singib, dunyoqarashimiz, amaliy harakatlarimizning asosiga aylandi va zamongamos tarzda o'zgarib bormoqda. Shu yo'lda yoshlarda mafkuraning mazmun mohiyatini to'liq shakllantirib, tarixiy ildizlarini asoslab, dunyoqarashni rivojlantirish ta'lim-tarbiyada eng muhim vazifaga aylanmog'i kerak. Ta'lim jarayonining ajralmas bir qismi bu ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tadbirlar, qadriyatlar sanaladi. Bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish borasida prezidentimiz 2021 yil 26 mart kuni «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarorni imzoladi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagi vazifalar belgilandi:

- «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

- oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;

- targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

- madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

- geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

Mazkur vazifalarni amaliyotga joriy etishda pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va shu asosida oily ta'lim muassasalarida mash'gulotlarni tashkil etish lozim. Shunga muvofiq xalq xo'jaligini bu sohalari uchun kadrlar tayyorlab beradigan mutasaddi tashkilotlar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim o'quv-tarbiya jarayonini yangicha tashkil qilish muammosini hal qilishga bog'liqdir. Buning yagona yo'li zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga keng qo'llash orqali echiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ham dolzarb muammo hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, dars, darsdan tashqari mashg'ulotlarni yangicha ijodiy asosda tashkil qilish zarur. Eng muhimi har bir pedagog, rahbar ta'limni yangi metodologik asosda tashkil qilishning tub mohiyatini tushunmog'i lozim. Yangicha ta'lim eski andozalar asosida olib borilishi mumkin emas. Bundan tashqari ta'limni yangicha tashkil qilishning ilmiy-metodik asoslarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zaruriy shart-sharoitlarini bilish ham muhim. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror asosida islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar xalqaro miqyosda e'tirof etilib, o'zining natijasini bermoqda. Oqibatida

O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi ancha tezlashdi. Lekin uning kelgusi taraqqiyoti omillarini inobatga olish jahon ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan yangi va ilg'or fan yutuqlaridan keng foydalanishni taqozo etadi. Chunki zamonaviy texnologiyalar ta'lim oluvchilarning intellektual, ijodiy va axloqiy kamolotining zaruriy sharti hisoblanadi. Faqat shu asosda rivojlanish uzluksiz ta'lim tizimining hamma bo'g'inlarida pedagogik jarayonning chuqur mohiyatini tashkil qiluvchi asosi y tushunchaga aylandiki, uning harakatlantiruvchi kuchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardir..

Ta'lim islohotimizda jahon ta'limi rivojlanishining ijobiy xususiyatlarini ta'limni amaliy - inson hayoti, shaxsga yo'nalganlik tajribasini va uni rivojlantirishning muhim vositasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar ekanligi asosida uni rivojlanishi asosiy yo'nalishlarini belgilash muhim hisoblanadi. Islohot oqibatida ta'lim tizimimiz rivojini jahonga yo'naltirish - yana juda bir muhim vazifa - ta'lim rivojini bozor munosabatlariga moslashtirishning tajribasidan unumli foydalanishdir.

TADQIQOT VA NATIJALAR

Talabalarni kasbiy pedagogik talim jarayonida manaviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda tayyorlash texnologiyasi nomli maqolani tayyorlash borasida olib borilgan tadqiqot va natijalar.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda quyidagi texnologiyalarni joriy etish muhimdir. Jumladan:

1. Katta axborot zaxirasi bilan shug'ullanishga, bilimlarning aniq tizimini shakllantirish va bilimlarga tayanishga yo'naltirilgan axborot-rivojlantiruvchi texnologiya.

2. Mustaqil fikrlash, faollikni oshirishga yo'naltirilgan muammoli ta'lim texnologiyasi.

3. Kasbiy yoki o'quv faoliyati vositalarini egallashga yo'naltirilgan faoliyat texnologiyasi.

4. Shaxsning kamoloti yoki ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsning faolligini shakllantirishga qaratilgan texnologiya.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoniga keng qo'llashda axborot texnologiya, xususan kompyutertexnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan yangi axborot texnologiyalar o'qitish metodlari hamda pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiyaviy yoki ularning pedagogik, didaktik hamda potensial imkoniyatlarini to'liq ochish va ulardan o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun foydalanishda qulaylik yaratadi. Axborot texnologiyalari

pedagogik texnologiyalarning ta'sir kuchini oshirib, ularni qo'llashdan kutilgan natijaga erishish uchun sharoit vujudga keltiradi.

Pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv-tarbiya jarayoniga qo'llash asta-sekin avtoritar o'qitish metodlaridan insonparvarlik pedagogikasiga yoki shaxs manfaati va kamolotiga yo'naltirilgan o'qitish tizimiga o'tish imkoniyatini beradi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish mazmunini shunday tanlash lozimki, unda faqatgina mafkuraviy immunitetgina emas, balki shaxsni qobiliyati, intellektual rivoji, uni shakllanishi va o'zini namoyon qila olishiga zamin hozirlashi lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ma'naviy marifiy ishlar jarayonida talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalardan bo'lajak o'qituvchi o'z imkoniyati, ta'lim mazmuni, o'quvchilar bilim saviyasi va tajribasini hisobga olib tanlashi kerak. Shundagina har qanday texnologiya yuqorida keltirilgan fikrlarni amalga oshirish vositasi bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent sh.
2. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son [Farmoni](#)1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni -T.: "O'zbekiston", 2020 yil 23 sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 son Farmoni
4. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nuqti (<https://www.gazeta.uz>)
5. Ortiqov, O. R. (2021). GLOBALLASHUV JARAYONIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI. *Scientific progress*, 1(5), 160-165.

QASHQADARYO VILOYATIDA SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

**Eshev Sobir Samatovich,
Xazratov Alisher Normurodovich,
G‘ayimnazarov Israil Xoliqovich,
Jumayev Abror Ravshan o‘g‘li**
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatidagi atmosfera yog‘inlarining taqsimlanishi, kichik daryolar oqimining va ulardagi oqiziqqlarning yillar bo‘yicha o‘zgarishi tendensiyalari hamda suv tanqisligini kamaytirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek mualliflar tomonidan suv tanqisligini yumshatish uchun hududning o‘ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holgan yomg‘ir suvlarini yig‘ish bilan birga aholi tomorqa maydonlarida tejamkor sug‘orish texnologiyalarini joriy etish taklif qilinadi hamda buni amalga oshirish uchun bajarilishi zarur bo‘lgan vazifalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *uzan, suv sathi, suv tanqisligi, oqiziq, suv resurslari.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о распределении атмосферных осадков в Кашкадарьинской области, тенденциях стока малых рек и их расходов по годам, а также проводимых реформах по снижению дефицита воды. Кроме того, авторы предлагают внедрение на приусадебных участках технологии экономичного орошения наряду со сбором дождевой воды с учетом конкретных условий региона для смягчения дефицита воды и дано задач, которые необходимо решить для ее реализации.

Ключевые слова: *площадь, уровень воды, маловодье, сток, водные ресурсы.*

ABSTRACT

This article provides information on the distribution of atmospheric precipitation in the Kashkadarya region, the trends in the flow of small rivers and their discharges over the years, and the reforms being carried out to reduce water shortages. In addition, the authors suggest the implementation of economical irrigation technologies in residential plots along with the collection of rainwater, taking into account the specific conditions of the region, in order to alleviate the water shortage, and the tasks that must be performed for its implementation are given.

Key words: *area, water level, water shortage, flow, water resources.*

KIRISH

O‘zbekiston qurg‘oqchil mintaqada joylashganligi sababli, tabiiy muhitni saqlab qolgan holda, xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarini, ayniqsa, suv tanqisligi sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini kafolatlangan suv bilan ta‘minlash muhimligini hisobga olgan holda iqtisodiyotni jadal rivojlantirish zarur.

Ma‘lumki, respublikamiz mustaqillikka erishganidan so‘ng 1980-yillarga nisbatan suvni ko‘p iste‘mol qiladigan paxta va sholi maydonlarining keskin kamaytirilishi, global iqlim o‘zgarishi va transchegaraviy suv munosabatlari muammolari tufayli suv resurslarining iste‘moli mamlakatimizda 1980-yillarga nisbatan 20 foizga kamaygan [1].

O‘zbekiston Respublikasining kichik daryolari hududlari Qashqadaryo viloyatidagi Qashqadaryo, Tanxozdaryo, G‘uzordaryo, Surxondaryo viloyatidagi Surxondaryo va Sherobodaryo, Jizzax viloyatidagi Sanzor, Farg‘ona vodiysidagi Shoximardon, So‘x va boshqa daryolar respublikaning jadal rivojlanayotgan hududlari bo‘lib, ularning rivojlanishi uchun kichik daryolarning suv resurslari strategik ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyati misolida aytadigan bo‘lsak, suv resurslari taqchilligi jiddiy muammo bo‘lib, Chimqo‘rg‘on, Pachkamar va Hisorak suv omborlari hajmining sezilarli darajada qisqarishi suv tanqisligining keskinlashuviga olib kelmoqda.

Respublikamizning janubiy viloyatlaridan biri Qashqadaryo viloyatining iqlimi kontinental subtropik iqlimga xos bo‘lib, yozi issiq va quruq, qishi esa nisbatan sovuq hisoblanadi. Viloyatda yog‘in miqdori g‘arbdan sharqqa qarab balandlik oshishi bilan joy rel`efiga qarab oshib boradi [2].

1-jadval.

Viloyatdagi atmosfera yog‘inlarining o‘rtacha ko‘p yillik qiymatlari


№	Meteorologik stansiyalar	Mutloq balandligi, m	Atmosfera yog‘inlari, mm
			1980 - 2022 y.
1	Muborak	288	193
2	Qarshi	378	253
3	Chimqo‘rg‘on	465	364
4	G‘uzor	524	359
5	Shaxrisabz	633	551

Suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga erishish uchun suv resurslarini samarali saqlash va ulardan foydalanish, suvning ifloslanishining oldini olish va suvdan foydalanishning barcha sohalarida suvni tejash zarur. Daryo havzalari uchun bunday maqsadlarga erishishning asosiy usuli daryo havzasini samarali

boshqarish tizimini yaratishdir. Havzaning tabiiy gidrologik/geografik xususiyatlari va suvdan foydalanishning boshqaruv siyosati suvni kompleks va samarali boshqarishning ikkita asosiy elementi hisoblanadi. Global iqlim o'zgarishi Markaziy Osiyoda suv tanqisligiga sabab bo'lmoqda. Global iqlim o'zgarishi sababli shkki yoki uch yil ketma-ket mintaqada kam suvli davrlar tez-tez kuzatilmoqda. 1970-yillarga qadar suv tanqisligi yillari har 10-12 yilda paydo bo'lgan bo'lsa, oxirgi 40 yil davomida ular har 4-6 yilda kuzatilmoqda [3].

MUHOKAMA


Global haroratning oshishi sababli doimiy muzliklarning erishi oqibatida Markaziy Osiyoda yirik daryolar oqimining qisqa muddatli ko'payishiga, Surxondaryo va Qashqadaryo kabi kichik daryolar havzalarida esa daryodagi suv oqimining sezilarli darajada kamayishiga sabab bo'lmoqda.



1-Rasm. Qashqadaryo daryosidan Chimqo'rg'on suv omboriga quyilgan yillik suv hajmlarining yillar bo'yicha o'zgarishi

Hisorak va Chimqo'rg'on suv omborlariga quyiladigan suv hajmlarining yillar bo'yicha o'zgarishini tahlil qilinganda to'yinish xususiyati bo'yicha qor va muzliklardan to'yinadigan Oqsuv daryodan keladigan suv miqdori muzliklarning

iqlim o‘zgarishi tufayli yillar bo‘yicha ko‘payishi kuzatilgan bo‘lsa, asosan yomg‘ir suvlaridan to‘yinadigan Qashqadaryodan Chimqo‘rg‘on suv omboriga keluvchi suv miqdorlari yildan yilga kamayib bormoqda.



2-Rasm. Oqsuv daryosidan Hisorak suv omboriga quyilgan yillik suv hajmlarining yillar bo‘yicha o‘zgarishi

Qashqadaryo daryosidagi oqim global iqlim o‘zgarishi sababli oqim qor bilan to‘yinishdan asosan yomg‘ir bilan to‘yinishishga o‘tish bilan almashishi jarayoni oqibatida qor suvi o‘rniga bahor paytlaridagi qisqa muddatli intensiv yog‘in-sochin ulushining oshishi esa daryo havzasidagi tuproq eroziyasining oshishiga va suv omborlarining tezroq loyqa bilan to‘lishiga olib kelmoqda. Qashqadaryo daryosi Chiroqchi gidrologiya kuzatilgan ma’lumotlarga ko‘ra oqimdagi loyqa oqiziqalar konsentratsiyasining yillar bo‘yicha oshib borishi kuzatilmoqda [2].


2-jadval.

Qashqadaryo daryosi Chiroqchi gidrologiya postida kuzatilgan loyqa oqiziqalar konsentratsiyasi

№	Yil	O‘rtacha yillik suv sarfi (Q, m ³ /sek)	Loyqa konsentratsiyasi (P, g/m ³)
1	2012	14.6	300
2	2013	13.3	640

3	2014	9.64	720
4	2015	21.2	870
5	2016	16.6	860
6	2017	18.3	860
7	2018	8.54	470
8	2019	27.2	470
9	2020	26.0	1300
10	2021	8.82	410

Shu bilan birga, sug'oriladigan maydonlarning sho'rlanishiga qarshi kurashish, biologik xilma-xillikni saqlash ham ushbu mintaqa uchun dolzarb muammolardan hisoblanadi.



3-rasm. Qashqadaryo daryosida kuzatilgan o'rtacha yillik sarflar va loyqa oqiziq konsentratsiyalarining yillar bo'yicha o'zgarishi

Amudaryodan yiliga 10 kilometr kub miqdorida suv olish maqsadida Afg'oniston tomonidan qurilayotgan Qo'shtepa kanali kabi transchegaraviy suv taqsimoti bo'yicha muammolar o'zi shundoq ham suv tanqisligidan aziyat chekayotgan respublikamizning suv xo'jaligi va unga bog'liq boshqa xalq xo'jaligi tarmoqlarining faoliyati va rivoji uchun jiddiy xavf hisoblanadi. Suv xo'jaligi vazirligining tahlillariga ko'ra 2030 yilga borib O'zbekistonga har yili 7.0 milliard kub metr suv yetishmaydi. Hozirgi paytda oxirgi 2-3 yilda kuzatilgan suv tanqisligi

sababli fermer va dehqon ho‘jaliklari tomonidan yer osti suvlaridan intensiv foydalanilishi yer osti suvlarining sathi keskin tushib ketishiga olib keldi. Ba’zi hududlarda esa sug‘orish uchun ishlatilayotgan yer osti suvlari sho‘r ekanligi esa sho‘rlangan yer maydonlarining keskin oshishi xavfini yuzaga keltiradi [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 3 fevraldagi “2023 - 2025 yillarda Qashqadaryo viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-44-son qaroriga asosan Qashqadaryo viloyati tumanlarida 2023 - 2025 yillarda jami 30004 gektar yer maydoni foydalanishga kiritish rejasi qabul qilingan bo‘lib, ushbu maydonlarda ekiladigan daraxt va ekinlar turi hamda ular joylashgan tumanlarning tuproq-iqlimiy xususiyatlaridan kelib chiqib, kichik daryolar suv resurslarini samarali boshqarish tizimi muhim ijtimoiy-iqtisodiy natijalarni beradi, aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 maydagi “Aholining ichimlik suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-257-son va 2022 yil 7 dekabrda “Yer osti suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-439-son qarorlari ijrosini ta’minlash rejalarini amalga oshirilishi uchun kichik daryolar suv resurslarini samarali boshqarish vazifasi o‘ta muhim vazifa hisoblanadi.

Hozirda respublikamizda “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 - 2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi” qabul qilingan bo‘lib, hukumat Suv xo‘jaligi vazirligiga Konsepsiyada belgilangan ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish orqali 2030 yilga qadar quyidagi ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlash yuklatilgan:

- sug‘orish tizimlarining foydali ish koeffitsiyentini 0,63 dan 0,73 gacha oshirish;
- suv ta’minoti past darajada bo‘lgan sug‘oriladigan yer maydonlarini 560 ming gektardan 190 ming gektargacha kamaytirish;
- sho‘rlangan sug‘oriladigan yer maydonlarini 226 ming gektarga kamaytirish;
- Suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste’molini 25 foizga kamaytirish;
- barcha irrigatsiya tizimi obektlariga «Smart Water» («Aqlli suv») suv o‘lchash va nazorat qilish qurilmalari o‘rnatilib, suv hisobini yuritishda raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- 100 ta yirik suv xo‘jaligi obektlarida suvni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;

- qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish;

- suv xo‘jaligida davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida 50 ta loyihani amalga oshirish.

Ayni paytda ushbu Konsepsiya vazifalarini bajarish hamda Prezidentimiz tashabbuslari bilan ayni paytda irrigatsiya tarmoqlarini yirik suv isroflarini kamaytirish bo‘yicha yurtimizning barcha tumanlarila keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mavjud yer o‘zanli kanallardan filtratsiyaga suv isrofni kamaytirish maqsadida kanallarga beton qoplamalar yotqizilmoqda.



4-rasm. Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanida amalga oshirilayotgan qurilish ishlari

Mamlakatimizda kuzatilayotgan suv tanqisligining keltiradigan zararlarini yumshatish uchun sug‘oriladigan maydonlarda ayniqsa suv tanqisligi sababli yaxshi foydalanilmay kelinayotgan tomorqa maydonlarida yomg‘ir suvlarini yig‘ish (Rainwater harvesting) usuli bilan suvtejamkor sug‘orish texnologiyalarini birgalikda qo‘llash orqali tomorqa maydonlariga suvni kam iste‘mol qiluvchi daraxt turlarini yetishtirish ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltirish imkoniga ega. Ushbu imkoniyatdan foydalanish suv tanqis qishloq joylarda aholi tomorqalarini

yashillashtirish bilan havo tozaligining oshishiga va aholi daromadlarining oshishiga xizmat qiladi.

Suv tanqisligini yumshatish uchun mamlakatimizning janubiy viloyatlarida (xususan Qashqadaryo viloyati misolida) hududning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holgan yomg'ir suvlarini yig'ish orqali aholi tomorqa maydonlari uchun eng qulay ekin/daraxt turlarini tanlagan holda tejamkor sug'orish usulini joriy etishning keng aholi qatlami uchun hamyonbop texnologiyasini loyihalash va qurish asoslarini ishlab chiqish muhim masala hisoblanadi.

XULOSA

Respublikamizda xususan mamlakatimiz janubida kuzatilayotgan suv tanqisligi tendensiyalari va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarga qo'shimcha ravishda Qashqadaryo viloyatida yomg'ir suvlarini yig'ish (Rainwater harvesting) usulini joriy etish uchun uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak bo'ladi:

- 4 va 6 sotix maydonli individual tomorqa uchun Rainwater harvesting texnologiyasini tejamkor sug'orish usullari bilan kombinatsiyalashgan holda joriy qilishning namunaviy loyihasini ishlab chiqish;

- Respublika janubiy hududlarida (xususan Qashqadaryo viloyatida) taklif etilayotgan usulni joriy etish qulay bo'lgan aholi tomorqa maydonlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini GAT texnologiyasi orqali shakllantirish;

- Har bir tuman va hududning tuproq, iqlim sharoitlaridan kelib chiqib Rainwater harvesting usulini joriy etishning o'ziga xosliklarini aniqlash; hududga mos ekin va daraxtning ildiz qatlami rivojlanishidan kelib chiqib texnologiyaga kiritiladigan o'zgartirishlarni, tejamkor sug'orish usulining turlarini aniqlash;

- Rainwater harvesting usulini joriy etish usulini joriy etishni texnik-iqtisodiy asoslash; mazkur usulni keng joriy etishning iqtisodiy mexanizmlarini yaratish bo'yicha mahalliy hokimiyat organlari uchun va tizimni ekpluatatsiya qilish qoidalari bo'yicha aholi uchun tavsiyanomalar ishlab chiqish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

[1] “ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СУВ ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРЛИГИ.” Accessed: Dec. 23, 2023. [Online]. Available: <https://suvchi.gov.uz/uz>

[2] “Главная | UZHYDROMET.” Accessed: Dec. 23, 2023. [Online]. Available: <https://hydromet.uz/>

[3] A. T. Salokhiddinov, P. A. Khakimova, R. V. Toryanniova, O. A. Ashirova, and A. G. Gofurov, “Impact of regional climate changes on changes in river water content in Uzbekistan,” *Irrig. Melior.*, vol. 2021, no. 2, pp. 7–12, 2021.

[4] Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma’lumotlari.

[5] A. N. Xazratov, “MAMLAKATIMIZ SUV XO‘JALIGI TARIXI VA BUGUNI,” *Orient. Renaiss. Innov. Educ. Nat. Soc. Sci.*, vol. 3, no. 5, Art. no. 5, 2023.

ПРОФЕССИОНАЛ СПОРТДА МАРКЕТИНГ МУАММОЛАРИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Исамитдинов Зоҳиджон Зайниддинович

Тошкент давлат юридик университети магистранти

zohid_isa@mail.ru

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада бугунги кунда мамлакатимизда спорт соҳасида амалга оширилаётган ишлар, унинг бугунги кундаги ривожига ҳамда профессионал спортда маркетинг муаммоларини тартибга солишнинг назарий асосларига оид масалалар ёритилган. Шунингдек, спортда рекламанинг ўрни, унинг турлари, маркетингни тартибга солишда баъзи компанияларининг тажрибаси, баъзи спортчиларнинг спорт контракти бўйича реклама фаолиятида иштироки, спорт маркетингида спортчининг реклама фаолиятида шартноманинг аҳамиятига тўхтанилган.

Калим сўзлар: спорт маркетинги, спорт контракти, спортчи, реклама, муаммо, ечимлар, такомиллаштириш, мақсад.

АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются вопросы, связанные с работой, проводимой в сфере спорта в нашей стране сегодня, его развитием сегодня, а также теоретическими основами регулирования маркетинговых проблем в профессиональном спорте. Также были рассмотрены роль рекламы в спорте, ее виды, опыт некоторых компаний по регулированию маркетинга, участие некоторых спортсменов в рекламной деятельности по спортивному контракту, значение контракта в рекламной деятельности спортсмена в спортивном маркетинге. обсуждалось.

Ключевые слова: спортивный маркетинг, спортивный контракт, спортсмен, реклама, проблема, решение, улучшение, цель.

КИРИШ

Сўнги йилларда барча соҳалар каби спорт соҳасини ривожлантириш, аҳоли ўртасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни кенг тарғиб қилиш борасида улкан ислохотлар амалга оширилди.

Янги Ўзбекистонда спорт сиёсат даражасига чиқди. Ўтган 6 йилда жисмоний тарбия ва спортга доир Президентимизнинг ўндан ортиқ фармон ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг 100 га яқин меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлари қабул қилинди. Улар асосида Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спорт соҳаси тубдан янгиланди.

Коронавирус пандемияси шароитида соғлом турмуш тарзи нақадар муҳим экани янада яққол намоён бўлди. Барчамиз бундан жиддий хулоса қилган ҳолда зарарли одатлардан воз кечиб, оммавий спорт билан доимий шуғулланиш, тўғри овқатланиш тамойилларига риоя қилиш, хусусан таркибида туз, қанд ва ёғ миқдори кўп бўлган ҳамда хамирли таом ва ширинликларни, нон маҳсулотларини меъеридан ортиқ истеъмол қилмасликни, бир сўз билан айтганда, соғлом турмуш тарзини кундалик ҳаётимизга айлантиришимиз зарур эканлигини бугунги даврнинг ўзи тақозо этмоқда.

Жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан мунтазам шуғулланиш ҳамда соғлом турмуш тарзи бўйича ҳаётий кўникмаларни шакллантириш орқали ҳар бир фуқарода касалликка қарши кучли иммун тизими пайдо бўлишини таъминлаш, зарарли одатлардан воз кечиш, тўғри овқатланиш тамойилларига амал қилиш, тиклаш ва реабилитация ишлари ҳамда оммавий жисмоний фаоллик тадбирларини тизимли ва самарали ташкил қилиш, бу борада тегишли инфратузилма ва бошқа зарур шарт-шароитларни яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрда “Соғлом турмуш тарзини кенг татбиқ этиш ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони қабул қилинди. Фармон ана шу синовли кунларда ҳаётий қудрати билан муҳим аҳамият касб этиб, соғлом турмуш тарзи жисмоний тарбия ва спорт билан уйғунлашади.

Фармон асосида мактаблардаги спорт залларида аҳолининг спорт билан шуғулланиши учун имкониятлар яратилди. Бу ҳам жуда керак эди. Чунки ҳаммада ҳам, ҳар доим залга бориб, пул тўлаб спорт билан шуғулланиш имкони бўлавермайди. Маблағ ва алоҳида шароит талаб қилмайдиган спорт билан шуғулланиш йўлга қўйилди.

Энди, спорт соҳасида маркетинг ва унинг назарий асосларига тўхталсак. Бугунги кунда спорт индустрияси жадал суръатлар билан ривожланиб, айти пайтда нафақат спортчилар ҳамда спорт клублари, балки тадбиркорларнинг ҳам эҳтиёжларини қондирадиган маконга айланиб бормоқда. Шундай қилиб, замонавий спорт индустрияси тадбиркорлар ва тижорат ташкилотларининг асосий мақсади миждозларнинг кенг доирадаги эҳтиёжларини қондиришдан иборат бизнес майдони, шу билан бирга, истеъмолчиларни сақлаб қолиш мақсади ҳам шулардан бири бўлиб қолмоқда.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Айнан замонавий маркетинг воситаларидан малакали фойдаланиш орқали истеъмолчиларни маҳсулот сотиб олишга ёки исталган хизматдан фойдаланишга жалб қилиш ва рағбатлантириш мумкин бўлади.

Маркетинг воситаси, яъни истеъмолчилар эътиборини жалб қилиш учун реклама қўидагилар шаклида бўлиши мумкин:

1. Телевизор ёки радиода реклама. Бирор нарсани айтиш ёхуд кўрсатишнинг энг кенг тарқалган усулларида биридир.

2. Кино рекламаси. Фильмда бирор нарса эслатиб ўтилган ёки кўрсатилган, бу тўғридан-тўғри ёки яширин тарзда амалга оширилиши мумкин.

3. Интернет рекламаси. Агар илгари интернет шунчаки мулоқот қилиш ёки бизнес муаммоларини ҳал қилиш усули бўлган бўлса, ҳозир у жуда катта ахборот майдонига айланди, бугунги кунда ҳамма айниқса, ёшлар интернетга кириши натижасида у ердаги рекламани телевизордагидан ҳам кўпроқ аудиторияга тақдим этиш мумкин.

4. Босма ОАВ (газета, журнал ва ҳоказолар)да реклама. Албатта, биз рекламанинг босма шаклларида ишлаш олмаймиз, булар газета ёки журналлар бўлиши мумкин ва бугунги кунда бу адабиётларнинг хилма-хиллиги жуда катта. Шунингдек, у турли хил буклетлар, варақалар, турли хил таклифномалар кўринишида бўлиши мумкин. Шу ўринда фотостенд ва фотовитриналар ташкил этиш, фотомонтажлар ишлаб чиқариш ва ҳоказоларни ҳам айтиб ўтиш керак.

5. Реклама спорт иншоотларида ҳам жойлаштирилади, масалан: муз арена, футбол стадиони, бокс ринги ва бошқалар. Булар қандайдир баннерлар, белгилар, плакатлар, граффитилар, ленталар, мусобақа иштирокчиларининг кийимлари, байроқлар. Агар хоккей ҳақида гапирадиган бўлсак, унда рекламани муз остида жойлаштириш мумкин. Демак, қачон футбол ёки хоккей ўйини каби оммавий спорт тадбирларида ҳомийлар ва реклама берувчилар ўз рекламалари учун ўз жойларини ажратадилар ва ўз материалларини спорт саройи гумбази остида ёки унинг периметри бўйлаб жойлаштирадилар.

6. Спорт иншоотидаги мусобақалар вақтида аудио ва визуал реклама (мусобақа давомидаги кенг радио ахбороти, дикторнинг эълонлари ва хабарлари), шу жумладан мусобақадаги танаффуслар, старт олдида ва танлов якунида ушбу танлов сайтидаги ахборот тахтасидаги матнлар ва видеолар, слайдлар ва бошқа визуал ва эшитувли рекламаларни бериш.

7. Шахсий жиҳозлар ва спортчиларнинг либосларидаги реклама. Масалан, футболкалардаги ёзувлар ва стикерлар, ўйинчиларнинг дубулгалари, қўлқоплари ва болдирлари ҳамда ўйинчиларнинг жиҳозлари ва либосларидаги бошқа рекламалар.

8. Имаж реклама - спорт ташкилотининг фаолияти ва яхши ҳолатини реклама қилиш (масалан, мавсум бошидаги клуб тақдимотлари, ўйиндан олдин

ва кейин матбуот анжуманлари, мухлислар билан учрашувлар, хайрия тадбирлари ва ва бошқалар).

Эътиборни жалб қилишнинг энг муваффақиятли усулларида бири бу нафақага чиққан ёки ўсиб бораётган спорт юлдузларини таклиф қилишдир, чунки таниқли юзлар мухлислар эътиборини жуда кучли жалб қилади ва бу реклама кампанияси аниқ муваффақиятдир.

Асосан, улар “жонли реклама” эффеқтини берадиган ўзига хос жозига эга бўлган жуда харизматик, ёркин ва таниқли шахсларни танлайдилар.

Бу ҳолатда таниқли спортчилар реклама қилинган маҳсулот ҳақида ўз фикрларини билдиришлари мумкин, масалан, у ушбу марказдаги шампунни ишлатади ёки унга қайсидири автомобил маркаси ёқади.

Замонавий спорт маркетингининг асосчиси Патрик Нейли бўлиб, у 1970 йилларда турли спорт тадбирларига ҳомийлар излаш билан шуғулланган. Дастлаб, спорт маркетинги концепцияси жиддий қабул қилинмади, чунки у спорт деб ҳисобланиб, нотижорат соҳаси ва бозор қонунлари унга тааллуқли эмас. Вақт ўтиши билан бу ўз аксини кўрсатди. Ҳозирда спорт маркетинги тадбиркорларининг асосий даромад манбаига айланган соҳалардан бири ва уни бугунги кунда қанчалик оммабоп ва талабга эга эканлигини кўриш мумкин.

“Спорт маркетинги – бу спорт концепциясига хос бўлган ўзгарувчан ва олдиндан айтиб бўлмайдиган шароитда спорт истеъмолчилари, спорт соҳасида фаолият юритувчи компаниялар ва спорт билан боғлиқ бошқа шахслар ва ташкилотларнинг бевосита ва билвосита муаммоларини комплекс ҳал қилиш имкониятларини доимий излаш”²²³.

Шундай қилиб, “Нейли анд Вест” номли кичик компаниясига эга бўлган Нейли теннис учун спорт майдончаларига эга бўлганларга бепул ташриф буюришни таклиф қилди ва шу билан ўша пайтларда ушбу спорт тури билан шуғуллана олмаган аҳоли қатламини жалб қилди. Компания ишлаган ва теннис ўйнаш эҳтиёжи ва имконияти билан бир қаторда жиҳозлар ва ракеткаларга ҳам эҳтиёж бор эди, яъни бу товарлар сотиладиган дўкон эгалари талабнинг қандай ўсиб бораётганини ва шунга мос равишда даромадлар ортганини пайқашди.

Худди шу нарсани бугунги кунда дунёга машҳур Соса-Сола компанияси ҳақида ҳам айтиш мумкин. Унинг бу даражада машҳурликка эришишига кўп жиҳатдан унинг спорт рекламаси билан шуғулланганлигининг катта хиссаси бор. Компанияга маҳаллий ёки халқаро ташкилотларнинг бюджетидан маблағ киритиш имконияти йўқ эди, бу эса халқаро майдонга чиқишнинг иложи йўқлигини англатар эди. Шу боис компания маъмурияти томонидан футбол ва

²²³ Морган Г. Имиджи организации. Восемь моделей организационного развития. Вершина, 2006 г.

бошқа оммавий спортга сармоя киритишга қарор қилинди. Жадваллар ва плакатлардан фойдаланган ҳолда турли хил ўқув материаллари ишлаб чиқилди, улар охир-оқибат 36 дан ортиқ тилларда пайдо бўлди. Шу тариқа, Соса-Сола компанияси жаҳон миқёсида ёшлар ва оилалар билан боғланишнинг оддий, аммо самарали усулини топди.

Демак, спорт маркетингининг аҳамиятини яна бир бор таъкидлаб ўтишимиз мумкин ва унинг таърифи спорт мусобақасини мухлислар-истеъмолчилар, оммавий ахборот воситалари, ҳомийлар ва бошқа иштирокчиларга маркетинг имкониятларидан фойдаланган ҳолда тарғиб қилиш ва сотишдир.

Профессионал спорт маркетингининг асосий мақсади кўпроқ томошабинлар оқимини талаб қиладиган ажойиб спорт тадбирларини ўтказиш ва каттароқ даромад топишдир.

Спортчилар спорт тадбири доирасида томоша яратадилар ва шу билан мухлислар эътиборини тортадилар, улар ўз навбатида ҳомийнинг маҳсулотлари учун мақсадли гуруҳ ҳисобланади. Иккинчиси ўз мижозларига тўғридан-тўғри таъсир қилиш ёки улардан фойдаланишга таъсир қилиш йўллариини излаш имкониятига эга. Шундай қилиб, ҳомий спортчининг мухлислари базасига киришдан, шунингдек, унинг эътиборини ва содиқлигини ўтказиш имкониятидан манфаатдор.

Шундай қилиб, маълум бир спортчининг маҳсулотини тарқатишда унинг машҳурлиги ва ҳар бир аниқ жойда талабни алоҳида ҳисобга олиш керак. Мисол учун, Криштиану Роналдунинг маҳсулотларига келсак, уни Аргентинада тарқатмаслик керак, чунки унинг машҳурлигига қарамай, у Лионел Мессининг асосий рақобатчиси сифатида ушбу мамлакатда унинг иштирокидаги реклама қилинган маҳсулотларнинг харидорлигини оширмайди.

Спортчининг маҳсулотини тарғиб қилишнинг энг кучли воситаси мухлислардир. Спортчининг шахсий спорт натижалари ва машҳурлиги туфайли унинг бренди мухлислари орасида талабга эга бўлади.

ХУЛОСА

Хулоса ўрнида шуни таъкидламоқчимизки, илмий ва услубий адабиётларни таҳлил қилиб, 80 йил олдин бўлгани каби, маркетингнинг асосий қондаси ўзгаришсиз қолмоқда. Маҳсулот ўзини сотиши учун бозорни малакали таҳлил қилиш керак, асосий йўл - малакали бизнес стратегиясини яратишдир. Илгари ҳеч ким спорт орқали пул ишлашингиз мумкинлигини ўйламаган бўларди. XX асрнинг охирига келиб, миллионлаб даромад олиш мумкин бўлган бутун саноат пайдо бўлди. Шундай қилиб, биз спорт саноатида асосий бўлган

иккита элемент ҳақида гапиришимиз мумкин: ҳомийлар ва мухлислар. Агар биз спортга бизнес сифатида қарасак, бу элементларнинг ҳар бири ўз вазифасига эга. Мухлисларга эътибор қаратиб, спорт брендини шакллантириш ва тўғри жойлаштириш муҳимдир. Ҳомийларга эътибор қаратиш - керакли обрўни яратиш. Тасвир ва обрў ҳар қандай бизнесда муваффақиятга эришиш учун мутлақо муҳим элементлардир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати (REFERENCES)

1. Морган Г. Имиджи организации. Восемь моделей организационного развития. Вершина, 2006 г.
2. Жолобова Ю.В. Спонсорство зрелищных мероприятий как наиболее эффективный способ позиционирования бренда / Ю.В. Жолобова, Т.О. Ревина// Маркетинговые коммуникации. - 2012. - N 1. - С. 2-9.
3. Мухин В.Г. “Социально-экономическая и педагогическая направленность рекламной деятельности в сфере физической культуры и спорта”, Воронеж, 2015 г. -150 с.

ELEMENTAL ANALYSIS OF BIS-CARBAMATE MEE-1

Eldor Mashaev

Senior lecturer of the Tashkent Institute of Chemical Technology

Abduhamid Makhsumov

Professor of the Tashkent Institute of Chemical Technology

Feruz Shapatov

Senior lecturer of the Alfraganus University

ABSTRACT

This article is devoted to the elemental analysis of bis-carbamate MEE-1 using scanning electron microscopy. As a result, it was revealed that the results of the Sam analysis correspond to the data of practical and theoretical calculations.

Key words: *Bis-carbamate, element, scan, microscopy, calculation, detect, analysis, morphologic, structure, organic.*

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена элементному анализу бис-карбамата МЕЭ-1 методом сканирующей электронной микроскопии. В результате выяснилось, что результаты анализа Сэма соответствуют данным практических и теоретических расчетов.

Ключевые слова: *Бис-карбамат, элемент, сканирование, микроскопия, расчет, обнаружение, анализ, морфологический, строение, органический.*

INTRODUCTION

Particular interest in polyfunctional aromatic and heterocyclic N-substituted carbamates is due to a wide range of practically useful properties. The availability of carbamates, their versatile biological action, along with the wide synthetic capabilities of both the carbamate function and the aromatic and heterocyclic nucleus, creates a real prerequisite for their use in various directions. Many examples of the use of these compounds and their derivatives for agricultural needs make it possible to identify carbamate preparations as valuable intermediate products for the synthesis of herbicides, rodenticides, fungicides, natural and synthetic biologically active substances [1,2].

In industry, carbamates and their derivatives are used as additives for lubricating oils, intermediates in the synthesis of carbamate oligomers, adhesives in rubber-cord mixtures, and model compounds in studying the structure, processes of formation and photodestruction of polyurethanes. Attention to carbamates from the standpoint of theoretical and experimental organic chemistry is determined by the analogy in

chemical behavior with phenol ethers and amides, as well as the wide possibilities of using these compounds in the synthesis of natural heterocyclic biologically active substances. The presence of several reaction centers, along with the carbamate function, which itself is an ambident nucleophile, makes them valuable intermediates in the synthesis of various complex aromatic and heterocyclic systems [3].

Therefore, the development of this branch of organic chemistry is the most urgent task, requiring new developments in synthesis, technology and scientifically based approaches. In this regard, we synthesized N,N'-hexamethylene-bis[(ortho-cresolyl)-carbamate], i.e. MEE-1 and its derivatives [4-7,]. Their chemical properties were studied by reaction centers [8-14]. MEE-1 was studied in chemical databases, spectra and biological activities [15-20]. Used in various industries [21-24]. The purpose of this work is to continue the study of this molecule by conducting elemental analysis.

Materials and Methods. To determine the elemental composition of N,N'-hexamethylene bis(ortho-cresolyl)-carbamate i.e. MEE-1 a scanning electron microscope of the EVO MA 10 brand was used under vacuum conditions.

Results and Discussions. Sample analysis using an electron microscope was carried out at the Center of Advanced Technologies. Figure 1 shows a drawing of the morphological structure of the synthesized organic substance of the MEE-1 brand, taken in a scanning electron microscope SEM. In Figure 2, the spectra of the MEE-1 substance show and prove the presence of elements C, O, N, but, unfortunately, element H is not detected in an electron microscope.




Figure 1. SEM image of synthesized organic substance of MEE-1 grade




Figure 2. SEM image of synthesized organic substance of MEE-1 grade

After receiving the results of the SEM analysis, we compared the values of theoretical and practical calculations with the results of the SEM analysis (Table 1).

Table 1

Theoretical and practical elemental analysis of MEE-1 bis-carbamate

Element analysis,%					
Calculated		Found		SEM analysis	
C	68,75	C	68,63	C	74,15
H	7,29	H	7,17	O	17,98
N	7,29	N	7,19	N	7,87

CONCLUSION.

SEM images clearly show the morphological structure of the synthesized organic matter. It also proves the elemental composition of bis-carbamate MEE-1. In Table 1 you can see how close the calculations and analysis results are.

REFERENCES

1. Гордеев Д.А., дис. Бесфосгенный синтез алифатических карбаматов и изоцианатов на основе этиленкарбоната, канд. хим. наук. РХТУ имени Д.И.Менделеева, Москва, 2017, 7-8 с.
2. Chowdhury M.A.Z., Jahan I., Karim N., Alam M.K., Rahman M.A., Moniruzzaman M., Gan S.H., Fakhruddin A.N.M. Determination of Carbamate and Organophosphorus Pesticides in Vegetable Samples and the Efficiency of Gamma-Radiation in Their Removal. BioMed Res. Int. 2014.
3. Нуркулов Элдор Нурмуминович. "Результаты СЭМ и элементного анализа вспучивающегося покрытия на основе антипирена и эпоксидной смолы,

содержащих азот фосфор" *Universum: технические науки*, no. 4-5 (109), 2023, pp. 44-47.

4. Махсумов Абдухамид Гафурович, Абдукаримова Саида Абдужалиловна, Машаев Элдор Эргашвой Угли, and Азаматов Уткирбек Рашидович. "Синтез и свойства производного - N,N' quote -гексаметилен бис- [(орто-крезолило) - карбамата] и его применение" *Universum: химия и биология*, no. 10-2 (76), 2020, pp. 33-40.

5. Махсумов А.Г., Жагфаров Ф.Г., Арипджанов О.Ю., Машаев Э.Э., Азаматов У.Р. "Синтез и свойства производных мета-крезолило-карбаматов, их биологическая активность" *НефтеГазоХимия*, №3, 2022, 52-59 с. doi:10.24412/2310-8266-2022-3-52-59

6. Махсумов Абдухамид Гафурович, Машаев Элдор Эргашвой Угли, Холбоев Юсубжон Хакимович, Уразов Фируз Бахтиярович, and Зоҳиджонов Сирожиддин Аскаржон Угли. "N,N'–гексаметилен бис [(м-крезолило) - карбамат] и его физико-химические свойства" *Life Sciences and Agriculture*, no. 1 (9), 2022, pp. 7-11.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, modernizatsiyaning ijtimoiy kontseptsiyasi shunchaki hozirgi yoki "zamonaviy" bo'lishni nazarda tutmaydi, balki milliy taraqqiyot jarayonida ijtimoiy o'zgarishlarning alohida mazmuni va jarayonlarini belgilaydi. Shuningdek, rivojlanishning modernizatsiya nazariyalari "zamonaviylik" va "postmodernlik" haqidagi so'nggi falsafiy tushunchalar bilan uzviy aloqada bo'lishi shart emas. Falsafiy va gnoseologik munozaralardagi zamonaviylik haqiqiy dunyoni aks ettiruvchi bitta haqiqiy tavsiflovchi va tushuntirish modeli mavjudligini anglatadi. Postmodernlik - bu reallikning yagona haqiqiy tavsifi va tushuntirishi mavjud emas, balki bilim, mafkura va fanning o'zi butunlay aloqador tabiatdagi sub'ektiv tushunchalarga asoslanadi. Ularning falsafiy asoslari rivojlanishning ko'pgina modernizatsiya nazariyalarini "postmodern" kontekstga emas, balki "zamonaviy" ga joylashtirgan bo'lsa-da, zamonaviylik atamasining bu alohida qo'llanilishini chalkashtirib yubormaslik kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1960-yillardan boshlab modernizatsiya nazariyasining ko'plab tanqidlari va raqobatdosh rivojlanish nazariyalarining paydo bo'lishi modernizatsiya nazariyasini qo'llab-quvvatlashni yo'qotdi. Bulardan eng muhimi qaramlik, jahon tizimlari va neomarksistik nazariyalar bo'lib, ularning barchasi modernizatsiya kontseptsiyasining etnosentrikligini va hukmron kapitalistik manfaatlar tarafdoriligini tanqid qiladi. Bu nazariyalarning diqqat markazida uchinchi dunyo mamlakatlari yoki mintaqalari mustaqillikka erishganidan beri rivojlanayotgan mamlakatlarning mustamlakachilik, imperialistik aralashuv va neokoloniy ekspluatatsiya qilish nuqtai nazaridan hozirgi rivojlanmaganligini tushuntirishga qaratilgan. Ushbu qarama-qarshiliklarda rivojlanish ham, kam rivojlanganlik ham xuddi shunday jarayonning bir qismi sifatida qaraladi, bu jarayon orqali ma'lum "markaz" mamlakatlar yoki mintaqalar boshqa "chekka" hududlar hisobiga iqtisodiy jihatdan rivojlangan va kuchli bo'ladi. Rivojlanish va kam rivojlanganlikni ma'lum ichki institutlar yoki shaxslarning mavjudligi yoki yo'qligi bilan izohlash o'rniga, bu muqobil nazariyalar ikkalasi ham teng bo'lmagan almashinuv munosabatlari va jamiyatlarning global iqtisodiyotdagi tarkibiy mavqei bilan bog'liq bo'lgan manfaatlar koalitsiyasidan kelib chiqadi. Rivojlanmagan jamiyatlarni an'anaviy yoki arxaik deb talqin qilish o'rniga, kam rivojlangan va rivojlangan jamiyatlar kapitalistik ekspansiyaning zamonaviy, ammo assimetrik tarzda bog'langan qismlaridir. Ikkalasi ham nisbatan "zamonaviy" hodisalardir. Ijtimoiy fanlarda modernizatsiya nazariyasiga e'tibor ayniqsa 1970-yillarda ko'tarilgan nazariy va empirik zaifliklar natijasida pasaydi. Shunga qaramay,

uchinchi dunyo rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan hukumat amaldorlari va xalqaro agentliklar o'rtasida hamon ustuvor istiqbol bo'lib qolmoqda. Modernizatsiya nazariyasi shuni ko'rsatadiki, ilg'or sanoat texnologiyasi rivojlanayotgan jamiyatlarda nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki boshqa tarkibiy va madaniy o'zgarishlarni ham keltirib chiqaradi. Jamiyatlar zamonaviylashgan sari rivojlanish tendentsiyasiga ega bo'lgan umumiy xususiyatlar modernizatsiya nazariyasining bir versiyasidan boshqasiga farq qilishi mumkin, ammo, umuman olganda, barcha institutsional tuzilmalar va individual faoliyatlar yanada yuqori darajada ixtisoslashgan, tabaqalashtirilgan va ijtimoiy, siyosiy, va ijtimoiy sohalarga integratsiyalashgan deb taxmin qiladi. Masalan, ijtimoiy sohada zamonaviy jamiyatlar yuqori darajadagi urbanizatsiya, savodxonlik tadqiqot, sog'liqni saqlash, sekulyarizatsiya, byurokratiya, ommaviy axborot vositalari va transport vositalari bilan ajralib turadi.

Islomiy modernistik oqim vakillari musulmon dunyosining deyarli barcha mintaqalarida paydo bo'ldi. Uning dastlabki markazlari 1860—1870-yillarda Hindiston, Usmonlilar imperiyasi va Misrda tashkil etilgan. Keyingi o'n yilliklarda modernistik g'oyalar boshqa arab mamlakatlariga, Rossiyaning musulmon hududlariga, Afg'onistonga, Indoneziyaga va boshqa joylarga tarqaldi.

Modernizatsiya nazariyasining asoschisi sifatida tanilgan inson - amerikalik sotsiolog va siyosatshunos Seymur Martin Lipset . U 20-asrning ikkinchi yarmidagi AQShning yetakchi sotsiologlaridan biri hisoblanadi. U ijtimoiy harakatlar, siyosiy radikalizm, kasaba uyushmalari demokratiyasi va ijtimoiy mobillik haqidagi tadqiqotlari bilan mashhurdir. Seymur Martin Lipset demokratlashtirishni deyarli tabiiy deb hisoblagan o'zgarishlar jarayonining bir qismi deb biladi va iqtisodiy taraqqiyot o'zi bilan ijtimoiy va siyosiy rivojlanishni olib keladi deb da'vo qilgan modernizatsiya nazariyotchisidir. Modernizatsiya usuli bu G'arb sotsialistlari tomonidan barcha rivojlanayotgan jamiyatlar G'arb jamiyatlarga o'xshash bosqichlarini bosib o'tishini tushunish asosida yaratgan konsepsiyasi hisoblanib bu modernizatsiya deyiladi va eng sodda ta'rif bu modernizatsiya uchun zamonaviylik sari jarayonni tasvirlash deya ta'kidlanadi Modernizatsiya jarayoni bu ko'p qirrali jarayon hisoblanib u mehnat hayotida sanoatlashtirish, qishloqdan shaharcha va shaharga o'tish jamoadan jamiyatga o'tish individualizm va tenglik fikrining yuksalishi ratsionalizatsiya va ijtimoiy tartibga solish kabi ko'plab g'oyalarni o'z ichiga oladi .Madaniy modernizatsiya esa an'anaviy turmush tarzi va boshqaruv usullari o'rniga sekulyarizatsiya va millatchilik mafkuralariga sodiqlikning kuchayishi nazarda tutadi.Turkiya modernizatsiyasi harakatlari Tanzimat davrida boshlandi bu davrda Usmonli imperiyasi huquq tizimida birinchi navbatda harbiy sohada hukmdor va hukmdor o'rtasidagi munosabatlar, kiyinish uslubi va boshqa ko'plab sohalarda

islohotlarni amalga oshira boshlagan edi. Usmonlilar imperiyasi modernizatsiya jarayoniga 1839 yilda Tanzimot islohoti (usman. تنظيمات — tartibga solish) — Usmonli turk sultonligida oʻtkazilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar va shu islohotlar oʻtkazilgan davr (1839—1870)²³⁸ orqali qadam tashladi. Tanzimot islohoti 2-davrga boʻlinadi. Uning 1-davri "Gulxona xatti sharifi" deb atalib bu islohot 1839—1850 yillarni oʻz ichiga oladi. 1839-yil 3 noyabrda Turkiya tashqi ishlar vaziri Rashid Posho Gulxona bogʻida Usmonli turk sultoni Abdulmajid (hukmronlik davri: 1839—1861) dan barcha davlat zodagonlari ishtirokida islohotga ruxsat ("xatti sharif") oldi. Unda hamma fuqarolarning hayoti, vijdon erki va mulk daxlsizligi, qonunsizliklarga barham berilishi, soliqlarning kamaytirilishi va boshqa masalalar eʼlon qilingan, va bu islohot 10-yil davomida huquq va maʼmuriy, moliya, harbiy ish va maorif sohalariga oid bir nechta qonunlar qabul qilindi. Islohotlar natijasida Turkiya hayotida bir muncha yangiliklar yuz berdi.

Tanzimotning 2-davri Qrim urushida Turkiya qozongan gʻalabadan keyin boshlandi. 1856-yil 18 fevralda sulton Abdulmajid yangi Tanzimot toʻgʻrisida "Xatti Humoyun"ni eʼlon qilib, Turkiya sanoati va qishloq xoʻjaligini Gʻarbiy Yevropa mamlakatlari uchun ochiqligini bildirdi. Musulmon boʻlmagan xorijiy sarmoyadorlarga maʼlum huquqlar berildi. Bu qonunlar, sultonlikda davlat boshqaruvi, sud va maʼmuriy ishlarni tartibga keltirdi. Turkiyada yangi adabiyot, sanʼat, ilm-fan, maorif taraqqiy topa boshladi, milliy ziyolilar paydo boʻldi. Ular orasidan keyinchalik yangi usmonlilar deb ataluvchi konstitutsion monarxiya tarafdorlari va yosh turklar oʻsib chiqdi.

Tanzimat davrida ayollar taʼlimi boʻyicha ham qadamlar qoʻyildi va bu keyingi oʻzgarishlarning asosi boʻldi. Yevropada oʻqishdan uyga qaytgan ziyolilar Gʻarb taʼlim tizimini Usmonli imperiyasining taʼlim tizimiga yoyishga harakat qildilar, Gʻarbning taʼlim haqidagi tushunchalarini qurilish inshootlaridan tortib, taʼlim vositalariga qadar barcha sohalarida tarqatishga harakat qildilar. Tanzimatgacha boʻlgan davrda Usmonli davlatida taʼlim sifatining pasayishi Ittifoq va taraqqiyot jamiyati ziyolilarining eʼtiborini tortdi va ular ushbu sohada yangiliklar qilish uchun faoliyatga oʻtishni boshladilar. Qilingan yangiliklar keyingi davrlarda konstitutsiyaviy davr va respublika davri islohotlariga zamin yaratdi. Turkiya usmoniylar imperiyasi modernizatsiyasi bu hukmron kadrlar tomonidan oʻz jamiyatlarini gʻarb jamiyatlari yoʻnalishda oʻzgartirish niyatida amalga oshirilayotgan siyosatlarining nomi boʻlib ularni turli jihatlaridan yanada rivojlantirish deya tushuniladi

Turk madonezimining oʻziga xosligi shundaki Turkiya koʻpincha faqat tarixiy gʻarbiga qaratilgan siyosiy yoʻnalishi uchun emas, balki yagona musulmon

²³⁸ Петросян И. Е., Петросян Ю. А. Османская империя: реформы и реформаторы (конец XVIII – начало XX в.)

demokratiyasi sifatida ta'riflangan va g'arblashuv majburiyatlari, shuningdek, demokratiyani qabul qilish yo'lidagi islomiy to'siqni yengib o'tish qobiliyati uchun ham o'ziga xos modenizmga ega bo'ldi.

Bugungi Turkiyada keng qamrovli qayta qurish jarayoni amalga oshirildi va bu jarayonda siyosiy tizimni tashkil etuvchi tuzilmalar va dinamikalar, turli ijtimoiy tuzilmalar va institutlar, hukmron ijtimoiy tizimning qonuniylik manbalari va ijtimoiy hayotning bir qator turli darajalari o'zgardi. Bu jarayonni bir jihati bilan moliya sohasida boshlangan va 1980-yillardan buyon globallashayotgan kapitalizmga integratsiyalashgan Turkiyaning butun davlat sohasini qamrab olgan va vaqt o'tishi bilan yangisini tanlash bilan kengaytirilgan qayta qurish jarayonining davomi sifatida baholash mumkin. to'plash rejimi. Yana bir jihati bilan, bu yangi konservativ siyosatlar keng yoyilishi natijasida turk modernizatsiyasining asosiy asoslarida fundamental uzilish nuqtasi kuzatilgan jarayondir. Ta'lim sohasi keng qamrovli va tub o'zgarishlar amalga oshirilgan sohalardan biridir. Turkiyada diniy oqimlarning ta'lim sohasida bevosita va bilvosita ta'siri kuchaygan. Masalan, keyingi yillarda rasmiy maktabgacha va boshlang'ich maktab ta'limiga muqobil bo'lgan norasmiy boshlang'ich-boshlang'ich maktab tizimi faoliyat ko'rsatmoqda, aralash jinsli ta'lim tobora ko'proq maqsadli yo'naltirilmoqda, o'quv dasturining ilmiy mohiyati yemirilmoqda, o'quv dasturlari bir tomondan vositalashtirilsa, ikkinchi tomondan ular diniy va an'anaviy ma'lumotlarga ko'ra qayta tashkil etilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, evolyutsiya nazariyasini o'quv dasturidan chiqarib tashlash odatiy hol deyish mumkin. Bular ro'y berayotgan bir paytda, Usmonli-Turkiya modernizatsiyasi bilan bog'liq bir qator muhim savollar tug'iladi. Birinchidan, Usmonli lolalari davri islohotlarining (1718-1730) boshidan kuzatilishi mumkin bo'lgan va Konstitutsiya davri va Respublika davri bilan tubdan rivojlangan Usmonli-Turkiya modernizatsiya jarayoniga nima bo'ldi? Boshqacha qilib aytganda, an'anaviy ijtimoiy tuzilmaning tayanch doirasini o'zgartirishga qaratilgan turkiy modernizatsiya jarayoni qanday kelib chiqadi; din va an'analardan ko'ra oqilona G'arb qadriyatlarini qabul qilish; pozitiv fanlar rahbarligida yangi ijtimoiy madaniyatni barpo etish; bu orqali davlat va jamiyatni dunyoviylashtirish; millatchi siyosiylashuv jarayonini shakllantirish, bir hil madaniy va ijtimoiy elementlarning birgalikda yashashiga asoslangan milliy davlat qurish neokonservativ siyosatning ijtimoiy va siyosiy ta'sirining kuchayishi bilan tavsiflangan shunday tarixiy burilish davriga kirdi?Umuman olganda, savol tug'iladi. "Turkiya modernizatsiyasiga nima bo'ldi" degan savolga yana bir savol bilan baho berish kerak: Kant ta'biri bilan aytganda, ma'rifatdan oldingi davrning yetuk odamlarini huquq huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga aylantiruvchi apparat sifatida belgilagan ta'lim tizimiga nima bo'ldi? o'z

taqdirini o'zi belgilash va zamonaviy davlat tuzilmalari oldidagi huquq va majburiyatlarni kim amalga oshirishi mumkinligi; Din va urf-odatlarining jamiyatlarga ta'sirini yo'q qilish uchun ijtimoiy safarbarlikning haqiqiy asosini nima beradi?

Respublika²³⁹ davridagi tub islohotlar natijasida dunyoviy va millatchilik nuqtai nazaridan shakllangan respublika, avvalo olis Sharq yurtlaridan o'zi uchun yangi meros yaratish tashvishi bilan harakatlanar ekan, "zamonaviy sivilizatsiyalar"ni o'ziga havola qilib oldi. Anadoluning uzoq tarixidan o'tmishning an'anaviy merosini inkor etib, qanday qilib bu Respublikaning ta'lim tizimi ijtimoiy o'zini o'zi anglashni maqsad qilgan, o'tmishning an'anaviy merosi bilan aloqalar o'rnatilgan va vaqt o'tishi bilan o'zgarishlarga duch kelgan. qaysi uning zamonaviy kengaytmasi bo'ldi. Bu savollarning barchasiga javoblarni g'arb markazlashgan kapitalistik tizimga aylanib, modernizatsiya qilingan (va/yoki modernizatsiya natijasida kapitalistik bo'lgan) Usmonli imperiyasining g'arbiylashuvi jarayonida, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ta'lim sohalarida izlash mumkin. Respublika davri siyosati. Bu izlanishda Usmonli-Turkiyani modernizatsiya qilish jarayonining xususiyatlarini, uning tarixiy yo'nalishini, uzilish va uzluksizlik elementlarini kamchiliklari bilan birga muhokama qilish ham foydali bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Петросян И. Е., Петросян Ю. А. Османская империя: реформы и реформаторы (конец XVIII – начало XX в.). М.: Наука, 1993. 186 с.
2. Прямые иностранные инвестиции Турции. Турция - от кризиса к прогрессу, TRT. NET. URL: <http://www.trt.net.tr/russian/proghrammy/2015/05/25/priamyie> (Дата обращения: 06.06.2016).

²³⁹ Прямые иностранные инвестиции Турции. Турция - от кризиса к прогрессу, TRT. NET. URL: <http://www.trt.net.tr/russian/proghrammy/2015/05/25/priamyie>

МАХАТМА ГАНДИ ҚАРАШЛАРИДА АХЛОҚИЙ КАТЕГОРИЯЛАР

Пўлатов Шердор Нематжонович

Шарқ фалсафаси ва маданияти кафедраси в.б. доценти

Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори PhD

Тошкент давлат шарқшунослик университети

АННОТАЦИЯ

Махатма Ганди дунёқарашидаги ахлоқий масалалар нафақат қадимги ҳинд фалсафий таълимотлари, балки миллий зиёли, мулкдор ва аҳоли юқори қатлам вакиллари ижтимоий фикрининг ривожланиши, дунёқараши ва фаолиятининг ижтимоий-сиёсий йўналиши билан ҳам изоҳланади. Шунингдек, Ганди ахлоқни, миллий озодлик ҳаракати тамойилларини мафкуравий ва ахлоқий асослаш билан бир қаторда, гуманистик гояларини одамлар маънавий табиатининг бирлиги, инсоннинг қадр-қимматини кўтариши, мустамлакачилик ва ижтимоий тенгсизликка барҳам бериши, инсонга жисмоний ва маънавий зарар келтириши, йўқ қилиши воситаси сифатида қўллаган. Ганди дунёқарашида ахлоқнинг энг муҳим мақсади, бир томондан, муайян жамоат мақсадларига, биринчи навбатда, Сваражга (Ватан озодлиги) эришиши учун курашда оммани бирлаштириши воситаси бўлиб хизмат қилиши, иккинчи томондан, бу курашда шахсий манфаатлар эмас, балки халқ манфаатини ҳимоя қилишдир. Дарҳақиқат, гандичилик ахлоқи ҳар қандай ижтимоий шарт-шароитларга ҳам асосланади.

***Калит сўзлар:** Ҳиндистон, Махатма Ганди, ҳинд фалсафаси, инсон, инсонпарварлик, ахлоқ, севги, ҳақиқат, жасорат, аҳимса, куч ишлатмаслик, свараж.*

MORAL CATEGORIES IN THE VIEWS OF MAHATMA GANDHI

Pulatov Sherdor Nematjonovich

Department of Eastern Philosophy and Culture,

associate professor Ph.D

Tashkent State University of Oriental Studies

ABSTRACT

The ethical problems of Mahatma Gandhi's worldview are explained not only by ancient Indian philosophical teachings, but also by the development of social thought, worldview and socio-political orientation of the activities of the national intelligentsia, property owners and representatives of the upper class of the population. Also, along with the ideological and moral justification of ethics and the

principles of the national liberation movement, Gandhi used humanistic ideas as a means of unifying the spiritual nature of people, increasing human dignity, ending colonialism and social inequality. infliction and destruction of physical and spiritual harm to a person. In Gandhi's worldview, the most important purpose of morality is, on the one hand, to serve as a means of uniting the masses in the struggle to achieve certain social goals, primarily swaraj (freedom of the Motherland), and on the other hand, to protect the interests of the people in this struggle, and not personal interests. Indeed, Gandhian morality is based on any social conditions.

Key words: *India, Mahatma Gandhi, Indian philosophy, man, humanism, morality, love, truth, bravery, ahimsa, non-violence, swaraj.*

КИРИШ

Маҳатма Ганди фалсафасининг муҳим жиҳатларидан бири аҳоқий тушунчаларнинг онтологик ва эпистемологик назариялар билан чамбарчас боғлиқлиги билан аҳамиятлидир. Буни ҳинд фалсафасининг кўплаб тадқиқотчилари ҳам таъкидлаганлар. С. Радҳакришнан баъзи Ғарб олимлари даъволарининг номувофиқлигини, “ҳинд фалсафий тафаккурида ахлоқий фалсафа деярли йўқ”, деган даъволарига жавобан ҳинд фалсафасида ахлоқ категорияси воқелик категориясидан кейин энг муҳим ўринни эгаллайди, “ахлоқий камолот илоҳий билимга биринчи қадамдир”²⁴⁰, деб ҳисоблайди. Т.М.П Маҳадеван “Евроцентрик қарашларни рад этиб, ҳинд фалсафаси фақат борлиқ масаласига эътибор қаратадиган ва ахлоқий масалага эътибор бермайдиган дунёқараш”²⁴¹, деган фикрларни инкор этади.

Маҳадеваннинг фикрига кўра, биринчидан, ҳинд ахлоқшунослиги миллий фалсафанинг энг муҳим ва ажралмас қисмидир; иккинчидан, ахлоқий тамойиллар воқеликни англаш, маънавий такомиллаштириш жараёни билан узвий боғлиқлигини англашимиз мумкин. “Интизомсиз одам метафизик тадқиқот мақсадига эриша олмаслигини”²⁴² таъкидлайди у.

Маҳадеваннинг фикрича, дунёқарашда ахлоқнинг роли ва аҳамияти йўқолмайди: ҳинд руҳий анъаналарига кўра, у сиёсий ғояларни шакллантиришда ҳал қилувчи тамойил бўлиб хизмат қилади. У бунинг энг ёрқин намунасини гандичилик ижтимоий-сиёсий таълимотларининг ахлоқий ва фалсафий асосларида кўради. Севги ва куч ишлатмаслик, ҳақиқат ва

²⁴⁰ С. Радҳакришнан, Индийская философия, т. I, М.: Издательство иностранной литературы, 1955. – С. 38.

²⁴¹ Т, М. Р. Mahadevan, Indian Traditional Values; their Universal Appeal, Bulletin of the Ramakrishna mission Institute of Culture, vol. XIII, Calcutta, May 1962. – P. 166.

²⁴² Т, М. Р. Mahadevan, Indian Traditional Values; their Universal Appeal, Bulletin of the Ramakrishna mission Institute of Culture, vol. XIII, Calcutta, May 1962. – P. 166.

жасоратнинг диний-фалсафий ва ахлоқий тамойилларини, Гандининг инсоният маънавий хазинасига қўшган энг катта ҳиссаси, деб ҳисоблайди²⁴³.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Маҳатма Ганди Веданта, ҳиндувийлик, буддавийлик, жайнизм каби диний-фалсафий тизимлардаги фалсафий қарашларни, қадимий ҳинд фалсафаси таълимотларини чуқур ўрганганлиги, миллий урф-одатларга амал қилганлиги унинг “ахлоқ” тушунчаси учун дастлабки асос бўлиб, ғоявий асоснинг муҳим элементларидан бири ҳисобланади.

Ганди ахлоқий назарияси, диний анъаналар ва фалсафий ғояларга асосланган таълимоти ижтимоий-сиёсий ғояларини омма онгига етказиш воситаси бўлиб хизмат қилди. Ушбу ҳолат бошқа омиллар қатори Ҳиндистонда гандичилик ғоялари кенг тарқалишини таъминлади. Неру шундай ёзади: “Диний тушунчалардан фойдаланган ҳолда, Ганди сиёсат ва кундалик ҳаёт муаммоларига ахлоқий ёндашиш кераклигини таъкидлайди. Ганди қарашларининг диний томони унга мойил бўлганларга, ахлоқий таълимоти эса кенг халқ оммасига таъсир қилган”²⁴⁴.

Инсон қалбини қозониш – ахлоқий ўзини такомиллаштириш, ахлоқнинг ўзгариши. Хатти-ҳаракатларнинг муайян стандартини ишлаб чиқишда, маълум ахлоқий идеални амалга оширишда Ганди шахснинг ҳам ахлоқий характерини, ҳам ижтимоий муносабатларнинг бутун мажмуасини ўзгартиришнинг ягона ҳақиқий усулини кўрди. Ҳирен Мукҳержининг таъкидлашича: “У қалбларни ўзгартиришда ахлоққа буткул ишонган. Лекин ахлоқий эътиқод ҳақиқий ижтимоий ўзгаришларни амалга ошириш учун етарлича кучли восита эмаслигини билмас эди.”²⁴⁵

Гандичиликнинг ижтимоий доктриналари – “сарводая” (умумий фаровонлик жамиятини қуриш ғояси) доктринаси, “камбағалларга ғамхўрлик” тушунчаси ва бошқалар ахлоқни ижтимоий муносабатларни қайта қуриш учун асос сифатида тан олишга қаратилган. Шу билан бирга, у мутлақ ҳақиқатни “кўриш”, илоҳий моҳиятни англашнинг ҳал қилувчи шарти сифатида эълон қилинган ахлоқий ҳаётга эришиш йўлларини очиб берадиган ва гандичиликнинг фалсафий тушунчалари билан узвий боғлиқдир. Шунинг учун ахлоқ Ганди дунёқарашида муҳим ўрин эгаллайди.

Маҳатма Гандининг диний-фалсафий, ахлоқий-маънавий, ижтимоий-сиёсий доктриналари бир-бири билан чамбарчас боғланган бўлиб, ғоявий ва назарий дунёқарашининг асосий қисмини ташкил этади. Гандининг барча мақолалари, нутқ ва суҳбатларида Худо ҳақида, ҳақиқат, севги, куч

²⁴³ Т, М. Р. Mahadevan, Indian Traditional Values; their Universal Appeal, Bulletin of the Ramakrishna mission Institute of Culture, vol. XIII, Calcutta, May 1962. – P.167.

²⁴⁴ Неру Дж. Открытие Индии. – М.: Изд.ИЛ, 1955. – С. 486.

²⁴⁵ Камаров Э.Н., Литман А.Д. Мироззрение Мохандас Карамчанд Ганди. – М.: Наука, 1969. – С. 129.

ишлатмаслик, миллий озодлик, кўркмаслик, миллий бошқарув, хотиржамлик ва ҳоказолар ҳақида сўз боради. Ҳиндистонда унинг таъсири ва ғоялари кенг тарқалиши ҳам шу билан боғланиб кетган. Диний-фалсафий ва ахлоқий тушунчалар Ганди дунёқарашининг бош ва ажралмас қисмини ташкил қилади. Бундан ташқари, унга бағишланган кўплаб асарларда унинг таълимоти “гандичилик (гандизм) фалсафаси”, деб номланди.

Гандининг фалсафий-ахлоқий концепциясининг энг муҳим категорияси сифатида севги олиниб, бу категория “аҳимса”нинг ниҳоятда аҳамиятли хусусияти ва унинг амалда ҳал қиладиган илҳомлантирувчи усулига айланади. “Севги” ва “рахмдиллик”, Ганди фикрича, барча инсоний муносабатларнинг пойдевори бўлиши керак, “нафрат” ҳаётдан буткул олиб ташланиши лозим. “Севиш” тамойилига таянган ҳолда Ҳиндистонда ҳинду ва мусулмонлар орасидаги алоқа барқарор бўлиши керак, деб таъкидлайди Ганди. “Мен “Маҳатма” номини шу маънода англай бошладимки, унда мен инсонларга муҳаббат ва меҳр-оқибатни кўраман. Бу эса, ўз навбатида, менинг аҳимсага бўлган ишончимни ифодалайди”²⁴⁶.

Фалсафий-ахлоқий концепциясининг иккинчи ажралмас элементи “азоб чекиш” қонуниятидир. Бу ҳақда Ганди айтган сўзларга биноан, “аҳимса” ва “сатяграҳа”га фаол амал қилиш жараёнида истар-истамас изтироб пайдо бўлиши муқаррар, “аҳимса” мухлиси буларга онгли равишда тайёр бўлиши керак. Борди-ю одам ўз душманига зарар етказмайдиган ва унга куч ишлатмасдан, “севиш” ва “муроса”дан келиб чиқадиган бўлса, шунда у душман томонидан қутиладиган азобларга барҳам бериб, “севиш” куч-қудрати билан бутунлай енгилмагунча ўз ўрнида маҳкам туриши керак.

1920 йил 16 июнда эълон қилган “Изтироб чекиш қонуниятини” мақоласи бошида “Биронта мамлакат изтиробнинг покловчи ўтидан” ўтмасдан ўз йўлини топа олмаган, деб баён қилади. Қанчалик изтироб чеккан бўлса, ундан қутилиш ҳам шунчалик кучли бўлади. “Бундай изтиробсиз эркинликка эришиш мумкин бўлмайди”²⁴⁷.

Ганди ўзининг ижтимоий-фалсафий таълимотларини асослаш ва татбиқ этиш мақсадида Ҳиндистоннинг ахлоқий-маънавий ҳаётида асрлар оша чуқур илдиз отиб ривожланган диний-фалсафий урф-одат ва анъаналарга таянди, шу боис унинг илгари сурган ғоялари халқ оммасига ҳам кенг ёйилиб борди. Бу ҳақда Ж. Неру шундай дейди: “Тапася ўз нафсини тийиш хусусидаги фикр барча ҳиндлар тафаккурига хос, улар саводли мутафаккир бўладими ёки саводсиз оддий фуқаро бўладими. Бу фикр худди минг йил илгаригидек ханузгача ҳам тирик, шунинг учун Ҳиндистонни ларзага солувчи Ганди

²⁴⁶Ганди М.К. Менинг ҳаётим. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – Б. 182.

²⁴⁷Gandhi M.K. *Satyagraha in South Africa*. – Ahmedabad.: Navajivan Publishing House, 1968. – P. 115.

бошчилигидаги оммавий ҳаракатлар замирида ётувчи руҳиятни тушуниш учун унга тўғри баҳо бериб, қадрига етиш керак”²⁴⁸.

Тараққиётнинг умумий мақсадларидан бири, Ганди таъбирича, маънавий-маърифий камолотдир. Ушбу хусусиятга илоҳий тус бериб у айни пайтда, унга инсоннинг интилиши ҳам мумкин эканлигини, ҳатто, амалда бу эришувнинг ҳам аҳтимоллигини инкор этмайди.

Бу йўлда у биринчи ўринда меъёр ва тамойил сифатида брахмачария деб аталувчи жайнизмнинг диний ва фалсафий тамойилини ўзлаштириб олган ҳолда илгари суради. Унинг моҳияти ожиз-заиф хатти-ҳаракатларга йўл қўйишдан ўзини тийиш ҳамда инсонда ўз фикру хаёллари, сўз ва ҳаракатларини қатъиян идора этишидан иборат бўлади. Ганди бу жараёнда яна бошқа нарсаларни ҳам кўрдик, ўз ҳаётини, бутун фаолияти, жисмоний ва маънавий ҳолатини Ҳиндистон мустақиллиги ва ҳинд халқи учун сарфлади. Шу омиллар унинг бу тушунчани кенг қамровли ва Ганди учун аҳамиятли эканини кўрсатади. Яна бир воситалардан унинг фалсафий-ахлоқий концепциясига кўра, жасорат, довюраклик муҳим ҳисобланади. Мутафаккир ўғит-насихатига кўра, ахлоқий камолотга етишиш ва ҳақиқатга эришиш учун инсондан кўркмасликни талаб этиш керак.

Шунингдек, брахмачарияда ўз-ўзини назорат қилиш ахлоқий тамойилига катта эътибор қаратилади. Кўп ёмонликлар унинг етишмаслигидан келиб чиқади, дейилади. Машҳур Маҳобҳаратанинг бир қисми бўлган Санти Парва шундай дейди: “Ҳеч қачон бошқаларга ёмонлик қилиш ҳақида ўйламаслик керак. Инсон ўз кучига эга бўлмаган нарсага ҳавас қилмаслиги керак”²⁴⁹.

Ўзини тута олмаслик табиатан ўзига тегишли бўлмаган нарсаларни орзу қилади, бу зўравонликка олиб келади. Ўз-ўзини бошқаришга бўлган шунга ўхшаш иштиёқ қадимги таълимот Дхаммападада ифодаланган: буддавийлик ахлоқи инсонни жисмоний, оғзаки ва руҳий ғазабдан эҳтиёт бўлиш, ўзини тутиш ва яхшилик қилиш кераклигини таъкидлайди. Маҳатма Гандининг бутун фалсафий-ахлоқий таълимоти тизимидаги энг асосий тамойил “куч ишлатмаслик” тамойили бўлиб, ижтимоий-сиёсий, тарихий-маданий фаолияти учун олий тамойил вазифасини ўтаб келди.

Куч ишлатмаслик таълимоти ижтимоий-фалсафий, сиёсий-иқтисодий тамойиллар мажмуаси бўлиб, кенг қамровли ва универсал характер касб этади. Жумладан, Ганди буни гоҳо “аҳимса”, гоҳо “севиш категорияси” билан тенглаштиради, ҳақиқат йўлини куч ишлатмаслик йўли, деб таърифлайди. Умуман олганда, ушбу тамойил гандичилик кўламида шахс ва жамият фаолиятида мустақил, барчага тегишли ва универсал тамойил бўлиб

²⁴⁸Неру Дж. Открытие Индии. – М.: Издательство иностранной литературы, 1955. – С. 95.

²⁴⁹ Tahtinen Unto. Non-Violence as an ethical principle with a special Reference to the views of Mahatma Gandhi. Diss. ...PhD Philosophy science. Banaras, 1957. – P. 38.

гавдаланади. Гандининг таъкидлашича, бу тамойил одамзодга алла қаердан туширилмаган, аксинча, унинг табиатига хос имманент (ички) ҳодисадир. Яъни, бу тушунча одамзоднинг яшаш қонунияти бўлса, зўравонлик, ҳайвон зотининг мавжудлик қонуниятидир. Куч ишлатмаслик шундай қонуният бўлгани туфайли айрим жараён ва ҳодисалардан қўлланмасдан бутун борлиқни қамраб олиши керак²⁵⁰. Ганди бу ҳодисанинг фаол характериға алоҳида урғу бериб, уни сусткашлик ва бекорчиликка қарши қўяди. У эълон қилади: “Куч ишлатмаслик одамзод хизматидаги буюк кучдирки, одамзод даҳолари томонидан ихтиро этилган энг қудратли емирувчи қурол-яроқдан ҳам кучлироқдир”²⁵¹.

Умуман олганда, фалсафий-ахлоқий тамойил сифатида бу тушунча Ганди қарашида, даставвал, сиёсий фаолият соҳасига татбиқ этилади ҳамда сатыграҳанинг белгиловчи хусусияти, деб кўрсатилади. Айни пайтда, бу концепция мазкур восита (сатыграҳа)нинг ғоявий-назарий асоси қилиб олиниб, Ганди томонидан Ҳиндистон мустақиллиги учун кураш жараёнидаги барча бошқа усулларга нисбатан муқобил усул сифатида илгари сурилган эди.

Маҳатма Ганди ўз ахлоқий концепциясини ишлаб чиқишда “етти ижтимоий гуноҳ” назариясини тақлиф қилган. Бу етти тамойилни тартибга солинган жамиятдагина ахлоқий юксалиш бўлиши мумкинлигини таъкидлайди. Маҳатма Ганди томонидан илгари сурилган “етти ижтимоий гуноҳ” назариясини инсоният учун энг муҳим тамойиллар сифатида таърифлаш мумкин. Гандининг “етти ижтимоий гуноҳ” назарияси ахлоқий меъёрга зид бўлган, жамиятни заифлаштирадиган хатти-ҳаракатлар бирлиги бўлиб, (1) тамойилларсиз сиёсат; (2) меҳнатсиз бойлик; (3) ахлоқсиз савдо; (4) характерсиз билим; (5) виждонсиз завқ; (6) инсониятсиз илм; (7) қурбонликсиз ибодат қилиш каби тамойиллар барча халқлар учун катта аҳамият касб этиши таъкидланади.

Умуман, Гандининг маънавий қарашлари, бир томондан, ўткир ижтимоий сезгирлик, реаллик, иккинчи томондан, ғоявий консерватизм элементлари билан суғорилган эди. Бундай қарашлар унинг баъзи сафдошларига тўғри келмагач, улар мустақилликка Ҳиндистон эришганидан сўнг гандичиликдан воз кеча бошладилар. Боз устига, улар мамлакатда “ғоявий бўшлиқ” пайдо бўлмоқда, деган гаплар тарқатиб, Ҳинд Миллий Конгресси партиясининг ғоявий хазинасини янгилашга даъват қила бошладилар.

Шунга қарамасдан, Ганди тарғиб этган таълимот, унинг фалсафий-ахлоқий қарашлари ҳозирги даврда ҳам Ҳиндистонда ўз аҳамиятини йўқотмади. Ж.Неру ва ундан кейинги сиёсатчиларнинг сиёсий ёндашуви шундан далолат берадики, Ганди таълимоти катта таъсир ўтказган. Бу таъсир ҳозиргача нафақат ҳинд, балки дунё файласуф олимлари ва сиёсатчи, жамоат фаолларининг

²⁵⁰Gandhi M.K. All men are Brothers. – Ahmedabad. Navajivan Publishing House, 1960. – P. 58.

²⁵¹ Ibid.– P. 85.

қарашларида ҳам ўз аксини топмоқда. Масалан, С. Радҳаркришнан ўзининг “Универсал (Мангу) дини” тизимида Ганди ишлаб чиққан “севиш” ва “куч ишлатмаслик” категорияларига салмоқли ўрин ажратган.

Шу аснода ушбу тарздаги фалсафий-ахлоқий ва диний ғоялар туфайли Ганди фаолиятининг излари “сарводая” номли ижтимоий ҳаракат шаклланишида ўз аксини топади. Унинг замирида “умумий фаровонлик жамияти” деб номланган Ганди тузган концепция ётади, назарий жиҳатдан унинг асосини ишлаб чиқиш ҳамда қўл билан бажариладиган меҳнат, касиб-хунармандчилик, жамоавий ишлаб чиқариш ва тақсимотларни жорий этишдан ташкил топган эди. Миллий озодлик ҳаракати Гандининг фалсафий-ахлоқий талқинидан келиб чиққан “ҳақиқат, севги ва куч ишлатмаслик”дан иборат уч тушунча ва бошқа ғоялар шиори остида шаклланган маънавий-маърифий кадрлар асосида янгича “турмуш тарзи” бунёд этилади.

REFERENCES

1. Po‘Latov, S. N. M. (2020). Hindistonda pedagogic ta’limining rivojlanish bosqichlari. *Scienceand Education*, 1(Special Issue 1), 21-26.
2. Polatov, S. N. (2020). XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA HINDISTONDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIIY VAZIIYAT. *Academic Research In Educational Sciences*, (4), 468-474.
3. Po‘Latov, S. N. M. (2021). MAHATMA GANDI FALSAFIY QARASHLARIDA “MUTLOQ G ‘OYA” TUSHUNCHASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(5), 1134-1143.
4. Po‘Latov, S. N. M. (2020). Rabindranat tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo’shgan hissasi. *Scienceand Education*, 1(Special Issue 1), 136-143.
5. Пулатов, Ш. Н. (2022). МАХАТМА ГАНДИ ФАЛСАФИЙ КОНЦЕПЦИЯСИДА “САТЯГРАҲА” ТУШУНЧАСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 890-896.
6. Pulatov, S. N. M. (2022). AHIMSA TUSHUNCHASINING FALSAFIY MOHIYATI. *Academic research in educational sciences*, 3(TSTU Conference 1), 162-166.
7. Po‘Latov, S. N. M. (2022). MAHATMA GANDINING INSON TABIATI HAQIDAGI QARASHLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(3), 10-19.
8. Pulatov Sh.N. The Concept of “Truth” in the Philosophical Views of Mahatma Gandhi// *Akshara Multidisciplinary Research Journal Peer-Reviewed & Refereed International Research Journal, India // E-ISSN: 2582-5429 Vol.02 Issue V, 2021. –P. 12-18.*

9. Пулатов, Ш. (2019). Философская концепция Махатмы Ганди. Востокведения, 3(3), 214–224. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/oriental-studies/article/view/15683>
10. Po'latovSh.N. Jaynizm diniy-falsafiy ta'limoti. 16-son Sharqshunsolar anjumani. Toshkent davlat sharqshunsolik universiteti, 2020 307-312.
11. Po'latovSh.N. Mahatma Gandi diniy qarashlarining tahlili. НамДУ илмий ахборотномаси. 2021 у. 8-son. 205-212 б.
12. Пулатов, Ш. Н. (2023). ҲИНД ФАЛСАФАСИДАГИ ИНСОН МАСАЛАСИНИНГ МАҲАТМА ГАНДИ ҚАРАШЛАРИГА ТАСИРИ. International scientific journal of Biruni, 2(3), 96-103.

RAQAMLI BOZOR TUSHUNCHASI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Eshonqulov Asadulla Akram o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti

E-mail:alimuhhammadmuso@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maskur maqola raqamli bozor va u bilan bog‘liq tushunchalar, ular to‘g‘risida olimlarning fikrlari, shuningdek raqamli bozorlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlilini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: raqamli bozor, raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, tovar bozori, elektron savdo maydonchalari, raqamli platformalar, axborot tizimi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье содержится анализ цифрового рынка и связанных с ним понятий, мнения ученых о них, а также специфические характеристики цифровых рынков.

Ключевые слова: цифровой рынок, цифровая экономика, электронная коммерция, товарный рынок, электронные торговые площадки, цифровые платформы, информационная система.

ABSTRACT

This article contains the analysis of the digital market and the concepts related to it, the opinions of scientists about them, as well as the specific characteristics of digital markets.

Keywords: digital market, digital economy, electronic commerce, commodity market, electronic trading platforms, digital platforms, information system.

KIRISH

Bugungi davrga kelib, dunyo iqtisodiy munosabatlari bozorning an‘anaviy shaklidan Raqamli shakliga o‘tib bormoqda. Raqamli bozorning paydo bo‘lishiga va yirik platformalarning rivojlana boshlaganiga ancha vaqt bo‘lgan bo‘lsa-da, COVID-19 pandemiyasi raqamli bozor va unda elektron tijoratning o‘rishiga yirik turtki berdi. Endilikda, barcha davlatlar, shu bilan birgalikda O‘zbekistonda ham raqamli bozor, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni buni tasdiqlaydi.

Shuning uchun ham raqamli bozor va u bilan bog'liq tushunchalarni, ularning xususiyatlarini o'rganish hamda ularni huquqiy amaliyotda qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Raqamli bozor tushunchasini kengroq tushinib olishimiz uchun u bilan bog'liq bo'lgan raqamli iqtisodiyot, an'anaviy bozor, tovar bozori, elektron tijorat, raqamli platformlar, elektron tijorat bozori, tushunchalarini tahlil qilishimiz zarur.

“Raqamli iqtisodiyot — raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.”²⁵² Demak, raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalardan foydalangan holda biznes va tijorat yuritiladigan iqtisodiy faoliyat hisoblanadi. Shunda uning an'anaviy iqtisodiyotdan farqi raqamli texnologiyalar bu iqtisodiyotning yuritish shakli ekanligi ayon bo'ladi. Rossiyalik olim Meshcheryakov ham raqamli iqtisodiyotni raqamli texnologiyalardan foydalaniladigan iqtisodiy ishlab chiqarish deb hisoblaydi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, raqamli iqtisodda raqamli texnologiyalardan foydalaniladi, shuningdek raqamli bozor ham raqamli iqtisodiyotda mavjud bo'ladi.

Bozor tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, “Bozor - muayyan tovar yoki xizmatlar sotuvchilari ushbu tovarlar va xizmatlarni sotib oluvchilar bilan uchrashadigan har qanday joy.”²⁵³ K.Makkonell va S.Bryu esa “Bozor sotuvchi va xaridorning birgalikdagi tovarlar va xizmatlar narxini belgilash vositasi bo'lgan mexanizm”²⁵⁴ deb ta'rif berishadi

Hozirgi kunda bozor an'anaviy va raqamli bozor shakllariga ajratilmoqda. O'z navbatida an'anaviy bozor muayyan tovar yoki xizmatlar sotuvchilari ushbu tovarlar va xizmatlarni raqamli texnologiyalardan foydalanmasdan, an'anaviy shaklda sotib oluvchilarga taklif qiladigan joy deb aytish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi “Raqobat to'g'risida”gi qonun tovar bozori tushunchasiga ham ta'rif berib o'tilgan: “Tovar bozori — tovarning, shu jumladan bir-birining o'rnini bosadigan tovarning (o'zining belgilangan maqsadi, qo'llanilishi, sifati va texnik xususiyatlari, narxi hamda boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha taqqoslanishi mumkin bo'lgan, iste'molchi almashtirishga tayyor bo'lgan tovarning)

²⁵² https://uz.wikipedia.org/wiki/Raqamli_Iqtisodiyot

²⁵³ <https://uz.eferrit.com/bozor-nima/>

²⁵⁴ Татарина С. С. Определение понятия «Товарный рынок» для целей антимонопольного законодательства // Вестник Самарского государственного университета. – 2014. – №. 6 (117). – С. 88-95.

O‘zbekiston Respublikasi hududidagi yoki uning bir qismidagi muomalasi doirasi bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasining ma‘muriy-hududiy tuzilishiga mos kelmasligi mumkin va mazkur muomala doirasi chegaralarida tovarni olish yoki realizatsiya qilish imkoniyati mavjud bo‘ladi”²⁵⁵. Qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, Tovar bozori shu tovarning olish yoki sotish, u bilan muomala qilish mumkin bo‘lgan chegara, joy makondir.

Bugungi kunda raqamli istiqodiyot rivojlana borgan sari raqamli iqtisod tushunchasi bilan birgalikda raqamli bozor, raqamli platformalar, elektron savdo bozorlari kabi tushunchalar muomalaga kirib kelmoqda. Chunki savdo sotiq, xizmatlar ko‘rsatish bitimlarining katta qismi raqamli texnologiyalaridan foydalanilgan holda tuzilyapdi va amalga oshirilyapti. Bular raqamli bozorlarni kengayishiga olib kelyapti. Buni iqtisodchi olim Sh.Shodmonovning fikrlari ham tasdiqlaydi: “Hozirgi kunda keng rivojlanib borayotgan zamonaviy bozorlardan biri bu elektron savdo bozorlari bo‘lib hisoblanadi. Xususan, elektron tijoratda savdoni tashkil etish korxonalarining raqobatini kuchaytiradi, monopoliyadan chiqaradi va mahsulotlarning sifatini oshirish imkoniyatini beradi”¹. Bu ta‘ridam ko‘rinib turibdiki, bozorlarning yangi shakli raqobatni kuchaytirib, mahsulot sifatini oshirishga yordam beradi. Chunki ularda elektron axborot vositalaridan, raqamli texnologiyalardan foydalaniladi. Ushbu holatdan tushunishimiz munkinki, bozorning yangi shakli deb aytilayotgan elektron savdo bozorlari biz o‘rganayotgan raqamli bozor tushunchasi bilan bir xil ma‘noni anglatadi.

Bevosita raqamli bozor tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu tushuncha bo‘yicha turli olimlarning fikrlarini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, M.A.Yegorova, O.V.Kojevina va A.Y.Kinev quyidagicha ta‘rif berishadi: “Raqamli bozor-o‘z mazmunida elektron iqtisodiyot, elektron tijorat, marketpleys (raqamli savdo maydonchasi), yagona to‘lov maydoni, videoteks (videotex), internet-trading, aqlli shaharlar (smart city), elektron tranzaksiyalar, internet-banking, ekvayring, raqamli marketing va boshqalarni birlashtiradi.”²

Ushbu tushunchga ta‘rif O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni loyihasida ham bor edi. Lekin yangi qonun qabul qilinganda negadir ushbu tushuncha ta‘rifi Qonunda o‘z ifodasini topmadi. Unga ko‘ra “raqamli (ko‘p tomonli) bozor - xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan Internet tarmog‘i, shu jumladan, har xil lekin o‘zaro bog‘liq bo‘lgan sotuvchi, xaridorlarning

²⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.07.2023-y, O‘RQ-319-son, 49 modda. <https://lex.uz/uz/docs/-6518381>

¹ Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik) //T.:«Barkamol fayz media» nashriyoti. – 2020. 182-183 b.

² Егорова М. А., Кожевина О. В., Кинев А. Ю. Правовая защита конкуренции в условиях формирующихся цифровых рынков //Lex russica. – 2021. – №. 2 (171).

va boshqa foydalanuvchilarning ikkita va undan ortiq guruhlarini o‘zaro munosabatlarni amalga oshira olishini ta’minlash uchun Internet tarmog‘ida joylashtirilgan va tomonlarning kamida biri uchun foyda keltirish maqsadida foydalaniladigan raqamli platforma orqali sotilayotgan tovarning muomala sohasidir”.²⁵⁶³

Yuqoridagi ta’riflardan ko’rinib turibdiki, raqamli bozor raqamli texnologiyalardan , xususan, internet tarmog‘idan foydalangan holda sotuvchi va xaridorlarning guruhlarini o‘rtasida savdo - sotiq munosabatlari olib boriladigan makon deyish mumkin.

Shu o‘rinda aytish mumkinki, ko‘p hollarda raqamli platforma va raqamli bozor bir xil tushuncha sifatida qaraladi. Lekin, raqamli bozor raqamli platformadan kengroq tushuncha hisoblanadi. “Raqamli platforma - raqamli mahsulotlardan Internet jahon axborot tarmog‘i orqali haq evaziga yoki bepul foydalanilishini ta’minlovchi axborot tizimi”.²⁵⁷

Raqamli bozorlar o‘z xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlari ko‘ra an’anaviy bozorlardan farq qiladi. Bular quyidagilar:

1.Bitimlar elektron savdo maydonchalarida tuzilishi. “Elektron savdo maydonchasi - tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotish uchun axborot tizimi orqali sotuvchi va xaridorning (buyurtmachining) o‘zaro hamkorligini ta’minlaydigan internet-do‘kon.”²⁵⁸ Bunday maydonchalar har xil saytlar, ko‘rsatuvlar, mobil ilovalar bo‘lishi mumkin.

2. Raqamli texnologiyalar, Axborot kommunikatsiya tizimi mavjud bo‘lishi kerak.

Axborot kommunikatsiya tizimi elektron tijorat ishtirokchilarining o‘zaro aloqalarini ta’minlash uchun zarur.

3.Global qamrov. An’anaviy tijorat bilan solishtirganda elektron tijorat ham xarajatlarda, ham mehnat samaradorligi bilan butun dunyo bilan tez va oson bog‘lanishda yordam beradigan ustunlikka ega. Buning natijasida elektron tijorat bozorining qamrov hajmi oshadi.

Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning hisobotlarida raqamli bozorlarning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari keltirib o‘tilgan:

“1.Ularning hajmi – masalan, dunyodagi 10 ta yirik kompaniyadan 7 tasi raqamli mahsulotlarni taqdim etadi. Masalan: Amazon.

³ <https://regulation.gov.uz/oz/d/7903>

²⁵⁷ O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.07.2023-y, O‘RQ-319-son, 49 modda.

<https://lex.uz/uz/docs/-6518381>

²⁵⁸ Ro‘zinazarov.SH, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish. O‘quv qo‘llanma .. Toshkent sh,TDYU.,20-bet.

2. Bunda bozorlar aksariyat hollarda ko‘p tomonlama (ular platforma orqali iste‘molchilarning turli guruhlarini birlashtiradi) yoki o‘zaro bog‘langan bo‘ladi (masalan, apparat va dasturiy ta‘minot mahsulotlarni to‘ldiruvchi hisoblanadi);

3. Ko‘pincha mahsulotlar iste‘molchilarga nol yoki subsidiyalangan narxlarda taqdim etiladi, bunda asosan daromad bozorning boshqa tomonlaridan foydalangan holda olinadi (masalan, reklama yoki ma‘lumotlarni sotishdan olingan foyda) yoki mahsulotlar pullik “premium” takliflar bilan birga taqdim etiladi;

4. Tarmoq effektlari, “ko‘proq iste‘molchilar ushbu mahsulotdan foydalanganda mahsulot sotuvchilari oladigan foyda” sifatida belgilanadi.”²⁵⁹

Yuqoridagi tahlillarimizdan xulosa qiladigan bo‘lsak, raqamli bozor – internet tarmog‘i, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda savdo sotiq, xizmatlar ko‘rsatish olib boriladigan, sotuvchi va xaridorlar o‘rtasida talab-taklif asosida iqtisodiy munosabatlar amalga oshiriladigan makondir.

Raqamli bozorning o‘ziga xos xususiyatlariga esa bitimlar elektron savdo maydonchalarida tuzilishi, munosabatlarda axborot tizimlaridan, raqamli texnologiyalardan foydalanilishi, global qamrab ola olishi, transchegaraviy ahamiyatlarni kiritishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni, 23.07.2023-y, O‘RQ-319-son, 49 modda.
2. Ro‘zinazarov.SH, Askarov.J, Tursunov.A Elektron tijoratni huquqiy tartibga solish. O‘quv qo‘llanma .. Toshkent sh,TDYU.
3. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik) //T.:«Barkamol fayz media» nashriyoti. – 2020. 182-183 b.
4. Татаринова С. С. Определение понятия «Товарный рынок» для целей антимонопольного законодательства //Вестник Самарского государственного университета. – 2014. – №. 6 (117).
5. Егорова М. А., Кожевина О. В., Кинев А. Ю. Правовая защита конкуренции в условиях формирующихся цифровых рынков //Lex russica. – 2021. – №. 2 (171).
6. Mancini J. Abuse of Dominance in Digital Markets: OECD Background Paper //Available at SSRN 3862453. – 2020.
7. <https://lex.uz>
8. <https://regulation.gov.uz>

²⁵⁹ Mancini J. Abuse of Dominance in Digital Markets: OECD Background Paper //Available at SSRN 3862453. – 2020.

**XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENTDA
VETERINARIYA VA HAYVONLAR ORASIDA KASALLIKLARNI OLDINI
OLISHGA QARATILGAN SIYOSAT**

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna

Perfect Universiteti o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Toshkent shahrining veterinariya ishlari yoritib berilgan. Umuman olganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vabo, kuydirgi, emkar, umumiy zotiljam kabi chorva mollari kasalliklari yildan yilga ko'payib borgan va bu holat o'lkada chorvachilikni rivojlantirishga halaqit bergan. Toshkent shahar veterinariya tashkilotiga o'tadigan bo'lsak, u endigina paydo bo'layotganini va davlat veterinariya tibbiyoti vakillarining doimiy aralashuvi tufayli mustaqil rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lmaganini ta'kidlamaslikning iloji yo'q. Son jihatdan Toshkent shahrida veterinarya shifokorlari etarli darajada emas edi (2 shifokor va 4 feldsher). Chorva mollarining kasallanishi Toshkent shahri tadbirkorlari, qushxonalar va Tramvay deposi uchun katta zararlar keltirgan.

***Kalit so'zlar:** Toshkent shahri, veterinariya siyosati, veterinar shifokorlar, chorva mollari kasalliklari, qushxonalar, tadbirkorlar, mahalliy xalq.*

**ПОЛИТИКА, НАПРАВЛЕННАЯ НА ПРОФИЛАКТИКУ БОЛЕЗНЕЙ
ЖИВОТНЫХ И ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ В ТАШКЕНТЕ В
КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ.**

АННОТАЦИЯ

В данной статье описывается ветеринарная деятельность города Ташкента в конце XIX - начале XX веков. В целом, в конце XIX - начале XX века в Туркестане из года в год увеличивались такие заболевания скота, как холера, сибирская язва, эмкар, генерал и зотиям, и такое положение препятствовало развитию животноводства в стране. . Что касается ветеринарной организации города Ташкента, то нельзя не подчеркнуть, что она только зарождается и не имела возможности развиваться самостоятельно из-за постоянного вмешательства представителей государственной ветеринарной медицины. В Ташкенте не хватало ветеринаров (2 врача и 4 фельдшера). Болезнь скота нанесла большие убытки предпринимателям города Ташкента, вольерам и трамвайному депо.

Ключевые слова: город Ташкент, ветеринарная политика, ветеринарные врачи, болезни скота, вольеры, предприниматели, местное население.

**POLICIES AIMED AT THE PREVENTION OF ANIMAL DISEASES
AND VETERINARY MEDICINE IN TASHKENT IN THE LATE XIX TH
AND EARLY XX TH CENTURIES.**

ABSTRACT

This article describes the veterinary activities of the city of Tashkent in the late XIX th and early XX th centuries. In general, in the late 19th and early 20th centuries in Turkestan, livestock diseases such as cholera, anthrax, emkar, general and zotilam increased from year to year, and this situation hampered the development of livestock farming in the country. As for the veterinary organization of the city of Tashkent, it cannot be emphasized enough that it is just in its infancy and has not had the opportunity to develop independently due to the constant intervention of representatives of state veterinary medicine. There were not enough veterinarians in Tashkent (2 doctors and 4 paramedics). The livestock disease caused great losses to entrepreneurs in the city of Tashkent, enclosures and the tram depot.

Key words: Tashkent city, veterinary policy, veterinarians, livestock diseases, open-air cages, entrepreneurs, local population.

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekistonda veterinariya xizmati O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga qarashli Veterinariya va chorvachilik qo'mitasi tomonidan ish olib boradi. Qo'mita hayvonlardagi kasalliklarning oldini olish, u bilan kurash tadbirlari sohasida, tashkilotlar bajarishi shart bo'lgan qo'llanmalar va ko'rsatmalarni tayyorlaydi. Har bir hudud o'zining veterinariya uchastkasi qaramog'iga kiritilgan. Bitta veterinariya uchastkasiga o'rtacha 3-4 mingta qoramol kirs, 3-4 mingta qoramolga o'rtacha miqdorda 2-3 ta veterinar mutaxassisi doimiy ravishda faoliyat olib boradi.²⁶⁰ Biz ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Toshkent shahrining veterinariya ishlariga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Umuman olganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vabo, kuydirgi, emkar, umumiy zotiljam kabi chorva mollari kasalliklari yildan yilga ko'payib borgan va bu holat o'lkada chorvachilikni rivojlantirishga xalaqit bergan. Bu maqolada Toshkent shahridagi veterinariya-sanitariya ishlari bilan boshqa shaharlarni ham solishtirib o'tmoqchimiz.

²⁶⁰ <https://kun.uz/uz/news/2023/01/25/ozgarishlardan-keyingi-hukumat-69-ta-vazirlik-va-idora-royxati>

Rossiya imperiyasi veterinariya tibbiyoti zemstvosini bilan Toshkent shahar davlat veterinariya tibbiyotini taqqoslaganda ancha achinarli ahvolda edi. Rossiyada veterinariya bo`limi Ichki ishlar vazirligiga qarashli bo`lgan. Veterinariya bo`limi quyidagi qismlardan tashkil topgan edi: veterinariya qo`mitasi, viloyat yoki mintaqaviy veterinarlari, veterinariya laboratoriyasi, chorva yo`llari, temir yo`l stansiyalari bo`lib ²⁶¹, ularning har biri uchun vazifalar yuklatilgan. Yuqimli kasalliklar tarqalishining oldini olish, hayvonlarni ko`chirishda kasal hayvonlarni nazorat qilish, temir yo`l vokzallarida veterinariya-sanitariya nazoratini olib borish kabilar edi.

Ichki ishlar vazirligi veterinariya bo`limining 1898 yil hisobotiga ko`ra, 921 ta davlat veterinar shifokori, 580 ta zemstvo va atigi 167 ta shahar veterinar shifokori bo`lgan. O`sha yili 127 ta zemstvo veterinariya shifoxonasi va 109 ta ambulatoriya mavjud bo`lgan, Toshkent shahrining o`zida atigi 3 ta shahar veterinariya shifoxonasi va 7 ta ambulatoriya mavjud edi. Garchi so`nggi paytlarda shahar veterinariya tashkiloti ishlari ancha yaxshilangan bo`lsa-da, viloyat aholisi shahar veterinariya xizmatidan foydalana olmaganlar. Uy hayvonlari ko`p bo`lgan Toshkent shahri aholisi qoramollari orasida har yili vabo va ayniqsa pirop plazmoz bilan kasallangan va juda ko`p chorva mollari qurbon bo`lgan. Itlar orasida quturish holatlari tez-tez uchraydi, ularning soni haqiqatan ham juda ko`p bo`lgan. Veterinariya sohasining rivojlanishidan, qimmatbaho otlar va itlar boqadigan badavlat insonlardan tortib bitta sigiri va qo`ylari bo`lgan odamlargacha juda zarur edi.²⁶²

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Toshkent shahri veterinariya tashkilotlarining faoliyatiga to`xtalishdan oldin, boshqa shaharlarda veterinariya ishlari haqida to`xtalib o`tishimiz joiz. Moskva shahar veterinariya nazorati hayvonlarni nazorat qilish va qushxonalarda ularni so`yilishini nazorat qilishni o`z ichiga oladi. Shahar veterinariya bo`limida 9-10 ta veterinar shifokorlardan iborat bo`lib, 1 tasi katta menejer sifatida, 6 tasi mikroskopist 7 tasi registrator bo`lib faoliyat yuritgan. Ularning vazifasi ro`yhatga olish va bosh shifokorning buyrig`i bilan, hayvonlarning go`shti va organlarini tekshirish paytida aniqlangan o`zgarish va kasalliklar xulosalarini kartalarga qayd qilib borish bo`lgan. Navbatchi veterinar shifokorlar kun moboynda bir necha soat ishlashgan. Qushxonalarda chorva mollarini so`yish bosh veterinar shifokor

²⁶¹ Никитин И.Н. Исторические этапы формирования, развития и совершенствования государственной ветеринарной службы России. С. 5.

²⁶² И.К. О необходимости реорганизации городской ветеринарии в городе Ташкенте. // Туркестанский вестник, 1907, № 67

nazoratida bo`lib, uning ruhsati bilan so`yilgan. Qushxonalar yakshanba kundan boshqa har kuni ishlagan.²⁶³

Moskva shahar veterinariya-sanitariya nazorat bo`limi 6 ta veterinar shifokolari va bir nechta feldsherlardan iborat bo`lgan. Yuqoridagi veterinar shifokorlaridan 4 nafari (uchastka) yuqumli kasalliklarga qarshi kurash olib boradi (davlat polisiya veterinar vrachlari zimmasiga itlardagi qutirish kasalligini oldini olish vazifasi yuklangan), shuningdek, ular tumanlardagi 4 ta veterinariya ambulatoriyasiga tashrif buyurishgan: Serpuxovskiy, Basmanniy, Rogozhskiy va Sushchevskiy; 1 veterinar shifokori ot va sigir maydoniga, Gulyaev shahar axlatxonasi, kanalizasiya hovlilari va shahar sug'orish maydonlarini nazorat qiladi. 4 ta mahalliy veterinar shifokori ambulatoriyalarda ishlash bilan bir qatorda, ot maydonida otlarni tekshirish, o'z hududidagi ishlab chiqarish - otchilik va sut xo'jaligi korxonalarini nazorat qilish, Rogoj tumani veterinariya yuqorida aytilganlarga qo'shimcha ravishda, Spasskiy shahar hovlisi otlarini davolash va ularni nazorat qilish yuklatilgan. Veterinar shifokori Serpuxov Spasskiy va Kaluga shahar qabristoni boshqarish va Kaluga shahar hovlilarida otlarni davolash uchun javobgar bo`lgan. 1894 yildan boshlab Moskva shahar dumasi quyidagi yuqumli kasalliklar: kuydirgi, quturish, bezgak, qoramollarning epidemik pnevmoniyasi, oyoq va og'iz kasalligi, qo'tir kasalliklari bo'yicha majburiy qoidalar chiqardi.

Moskva shahrining veterinariya sohasida qushxonalarning nazorati uchun har yili taxminan 30 000 rubl sarflanadi va qushxonalaridan olingan yalpi daromad yiliga 670 000 rublni tashkil qilgan.

Nijniy Novgorodda shahar veterinariya nazorati 5 ta veterinar shifokorlari va bir nechta feldsherlardan iborat bo`lgan. 1-sonli qushxona uchastkasiga mas'ul veterinar shifokorlari bosh shifokor hisoblangan va shahar hokimiyatida veterinariya masalalari bo'yicha bo`ladigan tadbirlarda ma'ruzachi sifatida qatnashgan. Veterinariya bo'limidagi barcha ishlar shifokorlar o'rtasida quyidagicha taqsimlangan, 3 ta shifokor, bir nechta feldsherlar bilan 2 ta qushxona joyida veterinariya nazoratini amalga oshirganlar (yarmarkalarda, 1-son va Kunavin shahri chekkasidagi 2-sonli qushxonalar), xuddi shu shifokorlar import qilingan go'shtni tekshirishga ham mas'ul bo`lganlar. Qolgan 2 ta shahar veterinar shifokori: 2 ta mikroskopik stansiyada go'sht mahsulotlarini tekshirish; shahar podalarini nazorat qilish va epizootiyaga qarshi choralar ko'rish; hayvonlarni otopsiya qilish; quturganlikda gumon qilingan itlarni tekshirish; Sennaya maydonida otlar va sog'in sigirlar savdosini nazorat qilish; kanalizatsiya va o't o'chirish mashinalarida otlarga veterinariya yordamini ko'rsatish;

²⁶³ И.К. О необходимости реорганизации городской ветеринарии в городе Ташкенте. // Туркестанский ведомости, 1907, № 67

har yili 36500 boshgacha qoramol keltiriladigan 2 ta hovlida chorva mollarini tekshirish bilan shug`ullangan.

Rossiya imperiyasi va Evropada chorva mollari va otlarning yuqimli kasalliklarning keng tarqanligi sababli ularning oldini olish va davolash bo'yicha turli xil chora-tadbirlar, shuningdek karantin choralari ishlab chiqilgan. Bu Rossiyada epizootiyani sekinlashtirishga va keyinchalik yo`q qilishga yordam berdi.²⁶⁴

Boku shahrida shahar veterinariya nazorati Tiflis va Kavkazning boshqa viloyat shaharlariga nisbatan namunali tarzda yuritilgan. Boku shahrida 5 veterinar shifokori va 7 veterinar feldsherlaridan iborat. Veterinariya tashkiloti quyidagicha taqsimlangan: 2 ta shifokor qushxonada ishlagan va ular bilan birga 3 ta feldsher, shulardan 1 nafari katta va 1 nafari mikroskopist bo`lib, 1 veterinar shifokori va 2 veterinar feldsheri shahar chorvachilik hovlisiga va uning binolarini nazorat qilishgan. 1 shifokor yuqimli kasalliklarga chalingan qoramollar va shubhali otlar joylashtiriladigan izolyasiya hududiga ma`sul bo`lgan. Izolyatsiya hududidagi shifokorga 1 nafar feldsher berilgan.²⁶⁵

Shaharda barcha veterinar-sanitariya ishlarini olib borish uchun maxsus veterinar shifokori va 1 feldsherdan iborat. Xuddi shahar hovlilarida bo`lgani kabi, bu yerda ham eng so`nggi rusumdagi asbob-uskunalar bilan jihozlangan mikroskopik xonalar tashkil etilgan. Shahar hokimiyati, qushxonalar boshlig'i, veterinar O.Ryxlovskiy boshchiligida, shahar veterinar shifokorlarining oylik hisobotlarini nashr etadigan "Boku veterinariya-sanitariya yangiliklari" ni nashr etganlar.²⁶⁶

Toshkent shahar veterinariya tashkilotiga o`tadigan bo`lsak, u endigina paydo bo`layotganini va davlat veterinariya tibbiyoti vakillarining doimiy aralashuvi tufayli mustaqil rivojlanish imkoniyatiga ega bo`lmaganini ta`kidlamaslikning iloji yo`q. Son jihatdan tashkilot etarli darajada emas edi (2 shifokor va 4 feldsher). Shu bilan birga, veterinariya-sanitariya nuqtai nazaridan quyidagi veterinariya masalalarini tezda hal qilish juda muhim va zarur bo`lgan:

1. Chorva bozorida bozor kunlarida, ya'ni chorshanba va shanba kunlari shahar veterinariya nazoratini yo`lga qo'yish (hozirda bozorda davlat stansiyasi veterinariya va feldsherlari navbatchilik qilmoqda).
- 2) Bozor kunlarida ot maydonini nazorat qilish.
- 3) Tramvay deposida har hafta otlarni tekshirish.
- 4) Chorvachilik qabristonini tartibga solish va murdalarni maqsadga muvofiq tashish.
- 5) Itlarda quturish kasalligiga qarshi kurash bo'yicha yangi majburiy nizomning chiqarilishi va o'tgan

²⁶⁴ История ветеринарии России в XVIII веке. С. 10.

²⁶⁵ И.К. О необходимости реорганизации городской ветеринарии в городе Ташкенте. // Туркестанский вестник, 1907, № 67

²⁶⁶ И.К. О необходимости реорганизации городской ветеринарии в городе Ташкенте. // Туркестанский вестник, 1907, № 67

yili boshlangan itlarni ro'yxatga olishni tugatish. 6) otlarda bezgak, kuydirgi va pirop plazmoz (qoramollarda) bilan kurashish bo'yicha majburiy normativ hujjatlarni nashr etish. 7) na`munali shahar veterinariya ambulatoriyasini ochish. 8) Chorva bozori yaqinida chetdan keltiriladigan go'sht mahsulotlarini tekshirish va tadqiq qilish uchun mikroskopik xonaga ega vaqtinchalik kuzatuv punkti tashkil etish. 9) shaharning veterinariya-sanitariya qismiga mas'ul bo'lgan shahar veterinariya shifokorlarini hayvonlarning jasadlarini otopsiya qilish uchun zarur bo'lgan to'plamlar, diagnostik tadqiqotlar uchun asboblari va mikroskop bilan ta'minlash. 10) Kartochka tizimini yuritish orqali veterinariya hisobotini soddalashtirish. 11) shahar veterinariya nazorati mansabdor shaxslar tomonidan davriy ravishda yozib qo'yilishi shart bo'lgan chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlanadigan go'sht do'konlari, kolbasa, sut fermalari, teri zavodlari va korxonalariga (moy fermalari, chorva so'yish joylari va boshqalar) o'rnatish (sanitariya daftarlari) ko'rsatilgan muassasalarga tashrif buyurish va 12) davolash yoki izolyatsiyani talab qiladigan kasal otlarning umuman ishlashiga yo'l qo'ymaslik maqsadida engil va og'ir otlarga amaliy, davriy veterinariya nazoratini o'rnatish (agar bezgak kasalligiga shubha qilingan bo'lsa) kabi talablar edi.²⁶⁷

XIX-asr oxiri XX-asr boshlarida Toshkent shahri tadbirkorlari uchun ham veterinariya-sanitariya xizmatini yaxshilash manfaatli edi. Masalan, Orif Xojinov bilan tuzilgan shartnomaning 30-moddasidagi yangi qushxona ochilishi amalga oshsa, hozir mavjud bo'lgan shahar veterinariya xodimlari (1 shifokor va 1 feldsher) mutlaqo etarli emas bo'lib qoladi. Ularning sonini ko'paytirish biznes uchun zarur va foydalidir.

Har kuni qushxonalarda 110-120 bosh qoramol, 400 bosh qo'y, 7 bosh buzoq va 5-8 bosh otlar so'yilgan, bosh veterinar shifokor karantin hovlisidagi chorva mollarini tekshirishi lozim, shu bilan birga mikroskopik stansiyaga ma'sul bo'lishadi. Qushxonalarning rivojlanishi uchun veterinar xodimlarini ko'paytirish maqsadga muvofiqligini gapirmasdan iloji yo'q, ayniqsa hayvonlarni so'yishdan oldin ularni tekshirish, so'yilgandan keyin go'shti va ichgi organlarini ko'rib chiqish uchun zarur bo'lgan.²⁶⁸

Toshkent shahar hokimligining veterinariya ishiga xayrixohligi quyidagi faktlar bilan isbotlanadi: 1) 1905 yilda 2 ta shahar veterinar shifokori lavozimi tashkil etilgan. 2) 1906-yilda Toshkent shahar veterinariya-sanitariya boshqarmasiga mas'ul shahar veterinar shifokoriga yordam berish uchun 1 nafar feldsher maxsus taklif qilingan; 3)

²⁶⁷ И.К. О необходимости реорганизации городской ветеринарии в городе Ташкенте. // Туркестанский вестник, 1907, № 67

²⁶⁸ И.К. О необходимости реорганизации городской ветеринарии в городе Ташкенте. // Туркестанский вестник, 1907, № 67

Joriy yilda itlarni to'g'ri ro'yxatga olish yo'lga qo'yildi va to'g'ri ro'yxatlar tuzildi; 4) Joriy yilning aprel oyida shahar hokimi raisligidagi veterinariya komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan: shahar veterinar shifokorlari uchun to'liq mos keladigan ko'rsatmalar va yangi qushxona joylarida chorva mollarini so'yish qoidalari va 5) katta moddiy qurbonliklarga qaramay, na'munali qushxonalar tashkil etilgan va tez orada chorva mollarini to'liq tartibli so'yish va shu paytgacha o'rganilmagan cho'chqa go'shti bilan bir qatorda to'liq ilmiy ekspertizadan o'tkazilgan.²⁶⁹

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, veterinariya mutahassislari favqulodda vaziyatlarda jasorat ko'rsatmagandek bo'lgandur, ammo, ular har kuni aholi tomonidan sezilmaydigan kichik jasoratlarni amalga oshirganlar, ular epizootiya, odamlar va hayvonlarga xos bo'lgan kasalliklar bilan bog'liq ushbu favqulodda vaziyatlarning oldini olish uchun qo'llaridan kelganini qilganlar.

Shaharda veterinar shifokorlari va feldsherini ko'paytirish lozim edi, ularning soni kamida uch kishi bo'lishi kerak bo'lib, shundan 1 tasi bozor kunlarida chorva bozorini, 1 tasi ot maydonida navbatchilik qilishi va yana biri o'lik chorva mollari bilan shug'ullanishi lozim edi. Toshkent shahrining moliyaviy ahvoli og'ir bo'lganligi sababli veterinar tibbiyot xodimlarini ko'paytirishga umid qilib qolishgan xolos.

²⁶⁹ И.К. О необходимости реорганизации городской ветеринарии в городе Ташкенте. // Туркестанский ведомости, 1907, № 67

XX ASRNING IKKINCHI YARMI – XXI ASRNING BOSHIDA ATROF MUHIT MUAMMOLARINING NAZARIY – FALSAFIY MASALARI

Boboeva Mohim Shukurovna

Toshkent davlat taransport universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi katta o'qituvchisi
boboevamohim@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jahon miqyosida XX asr ikkinchi yarmida atrof – muhitni asrash va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning integratsiyasi tahlil qilingan. Ekologik muammolarni global miqyosda anglashning boshlanishidan “Barqaror rivojlanish yo’liga” o’tish jarayonlari orqali nomoyon bo’ladi. Sayyoramizda atrof – muhit muammosi nazariyasi bilan bog’liq holda uning ijtimoiy – falsafiy muammolari ham rivojlanib bordi. Insoniyatning bugungi kundagi ushbu global muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan olib borgan metodiklari va ularning istiqbollari yoritilgan.

Kalit so’zlar: *biotexnologiya, tabiat, o’rmonlar qurishi, tuproq nurashi, ekologik inqiroz, Global barqaror taraqqiyot, Rim klubi, Ekologik barqarorlik.*

ABSTRACT

This article analyzes the integration of environmental protection and social economic development in the second half of the 20th century on a global scale. From the beginning of understanding of environmental problems on a global scale, it becomes invisible through the processes of transition to the "Path of Sustainable Development". In connection with the theory of environmental problems on our planet, its socio-philosophical problems were also developing. Humanity's methods of identifying and solving these global problems today and their perspectives are highlighted.

Key words: *biotechnology, nature, deforestation, soil degradation, ecological crisis, Global sustainable development, Club of Rome, Ecological sustainability.*

KIRISH

Bugungi kunda BMT tomonidan ilgari surilayotgan Global barqaror rivojlanish dasturlari jahon hamjamiyati tomonidan eng yuqori o’rinlarda qaralayotgan rivojlanish dasturlari sirasiga kiradi. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik vaziyatni har tomonlama yaxshilash orqali butun insoniyatning hayot tarzini yaxshilash va turmush farovonligini oshirishga, adolatli va barqaror jamiyat qurishga qaratilgan global faoliyatdir.

Insoniyat o'z evolyutsiyasida tabiat bilan munosabatlarda mutanosiblikni o'z ichidan chiqargan davr XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Sayyoramizdagi fan va texnika taraqqiyoti insoniyatni tabiatga boshqacha ko'z bilan qarashga olib keldi. Insonning tabiat imkoniyatlaridan va uning rivojlanish qonuniyatlarini inobatga olmay, jadal yuritgan xo'jalik faoliyati, Rim klubining "XXI asr yo'li" mavzusidagi tadqiqotlarida ko'rsatilganidek, Yer yuzida tuproq nurashi, o'rmonlardan mahrum bo'lish, baliqlarning haddan tashqari ko'p ovlanishi, tuzli yomg'irlar, atmosfera ifloslanishi, ozon qatlami yemirilishi va hokazolarning ro'y berishiga olib keldi. Shuni ta'kidlash joiz, ijtimoiy taraqqiyotning istiqbolli konsepsiya va nazariyalarini belgilashda aynan, texnika va texnologiyalar o'z ta'sirini o'tkazuvchi asosiy omilga aylandi. Bu jarayonda biotexnologiya alohida o'rin tutgani holda, tabiatni inson qo'li ostidagi vositaga aylantirdi. Agar XVII asrda tabiatga "oqil yaratuvchi tomonidan barpo etilgan organik shakllar katalogi" deb qaralgan bo'lsa, XIX asrda u "tirik mavjudodlarning yashash uchun kurash maydoni" sifatida talqin etildi. Oqibatda tabiatda katta ko'lamdagi ekologik o'zgarishlar yuz bera boshladi va XX asrning boshlarigacha yer yuzidagi ekotizimlarning 20 foizi buzildi. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, qisman va to'la buzilgan ekotizimlar hissasi 63 foizdan oshdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mutaxasislarning baholashlaricha, bugun o'rmonlar egallab turgan maydon quruqlikning 1/6 qismigagina to'g'ri keladi, ammo 1950 yilda ular butun yer yuzi quruqlik yuzasining 1/4 qismini tashkil qilgan. Jahon okean suvlarining esa ifloslanish darajasi record natijani tashkil qilib, ular qayta mahsuldorlik sifati esa pasaymoqda. Tez rivojlanayotga urbanizatsiya jarayoni esa shaharlar aglomeratsiyasini eng yirik ifloslanish manbasiga aylantirib ulgurdi. Aynan shu kabi va shunga o'xshash muammolar sababli bugungi kunda jahon ekotizmlarini muhofaza qilish va asrash umumsayyoraviy tadbirlarni va ahamiyatni kasb etmoqda.

Ma'lumki, ekologik inqiroz tushunchasi atrof – muhitga inson ta'sirining ortishi natijasida "tabiat – inson - jamiyat" o'zaro munosabatlarining o'zaro keskinlashuv holatlarini ko'rsatibgina qolmay, insoniyatning ham kelajakda kelishi mumkin bo'lgan insoniylik inqirozini ham ifodalaydi. Jumladan buyuk fizik olim Albert Eynshteny insoniyatning keyingi taraqqiyoti texnikaviy taraqqiyot emas, balki uning axloqiy qadriyatni taraqqiy ettirishga bog'liq ekanligini ta'kidlagani bejizga emas.

1960 yillar oxirida rivojlangan G'arb mamlakatlarida atrof – muhitning ifloslanishiga qarshi kuchli jamoatchilik harakati vujudga keldi, dastlabki ekologik qonunlar qabul qilinib, 1 mingga yaqin ekologiya va rivojlanish masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar tuzildi. 1968 yili 10 ta davlatdan 30 kishidan iborat fan, madaniyat, maorif, biznes sohasi vakillari "Rim klubi" deb nomlangan nodavlat

tashkiloti tuzishdi. Rim klubi o'z faoliyatini turli yig'ilishlar simfozium va seminarlar, taniqli olimlar va siyosiy arboblarni bilan uchrashuvlarni tashkil etish shaklida olib borib, quyidagi masalalarga o'z e'tiborini qaratdi :

1. Jamiyatga muayyan metodikani taqdim etish orqali, insoniyat oldidagi "qiyinchiliklar"ni tahlil qilish imkoniyatini yaratish va uni amalga oshirish.
2. Turli sohalar va yo'nalishlar kesimida inqirozli holatlarning tahlilini insoniyatga yetkazish (ogohlantirish).
3. Jamiyatga global muvozanatga erishish yo'lida "to'g'ri" yo'l yo'riqlarni ko'rsatish.

Birinchi masala yuzasidan bugungi kunda suvni tejovchi, havoni ifloslanish darajasini aniqlovchi va tozalovchi smart texnologiyalar, o'rmonlarni va tuproq nurashiga qarshi global birlik harakatlari tashkil qilingan. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish yo'lida Rim klubi a'zolari 30 dan ortiq ilmiy ma'ruzalarni e'lon qilishdi. Klub a'zolari hozirgi zamon global muammolarini shartli ravishda quyidagi muammolarga ajratishdi. :

1. "Jamiyat - tabiat" tizimidagi jamiyat va atrof muhit o'rtasidagi ziddiyatlar bilan bog'liq muammolar.
2. Jamiyatdagi ichki ziddiyatlar bilan bo'g'liq muammolar (inson – jamiyat tizimi).

Bugungi kunda atrof – muhitni muhoafaza qilish bo'yicha ekologik barqarorlik ta'minlangan dunyoning yetakchi davlatlari bo'lib ular o'zining bir qator metodikalari bilan dunyoda ekologik barqarorlik bo'yicha yetakchilik qilib kelishmoqda. Masalan Kosta – Rika - atrof-muhit va biologik xilma-xillikni muhofaza qilishga katta e'tibor qaratadigan etakchi ekologik barqaror mamlakatdir. Kosta - Rika davlati asosiy eksport tovari yog'och hisoblangan, ularda o'rmonlarni qisqarishi global tus ola boshlagan, keyinchalik Kosta – Rika davlati va hukumati yog'ochlarni kesishdan ko'ra ularni asrash va ekoturizmni rivojlantirishga etibor berdi. Natijada bugungi kunda Kosta – Rika – dunyoning yetakchi ekologik barqaror davlatiga aylandi. Shvetsiya issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish bo'yicha faol chora-tadbirlar ko'rayotgan davlatdir. Norvegiya dunyodagi eng ekologik toza mamlakatlardan biri bo'lib, energiyani tejash va barqaror transport tizimlariga muntazam sarmoya kiritadi. Finlyandiya energiyaning katta qismi qayta tiklanadigan manbalardan ishlab chiqariladigan va atrof-muhitni saqlash uchun ko'plab innovatsion texnologiyalar yaratilgan mamlakatdir.

1972 yil mart oyida "Rim klubi" uchun tayyorlangan "O'sish chegaralari" ma'ruzasi e'lon qilindi. Ma'ruzada sayyoramiz kelgusi ekologik holatini bashorat

qilish bo'yicha global model tahlil qilindi. Modelda sayyorada o'sishni va uning chegarasini belgilaydigan besh asosiy omil : aholi soni, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, tabiiy resuslar, sanoat ishlab chiqarishi va atrof muhit ifloslanishi asos qilib olindi. Ma'ruzada aholi sonining ortish sur'atlari va istemol modeli o'zgarib, keyingi 100 yil ichida chuqur ekologik inqirozlar bashorat qilindi "Rim klubi"ning elon qilingan keyingi global modellarida yangi sharoitlar hisobga olinib, o'sish istiqbollari ekologik halokat xavfiga qarashlar o'zgardi. Jumladan, 1991 yilda Rim klubi rahbariyati tomonidan klubning birinchi hisoboti – "Birinchi global inqilob" ma'ruzasi tayyorlandi. Ma'ruza ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qism – dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar, global muammolar va ularning salbiy oqibatlari tahliliga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi qism – insoniyatning eng xavfli "qiyinchiliklari"ni bartaraf etish bo'yicha aniq tavsiyalardan iborat. Jumladan, ma'ruzada "...ko'pchilik mamlakatlarning bozor iqtisodiyotiga o'tishi iqtisodiy sohadagi muhim o'zgarishlardan biri sifatida baholansada, jamiyatdagi munosabatlarning faqat bozor imkoniyatlari asosida amalga oshirilishiga asoslangan mexanizmining yakka o'zi energetika muammolari, atrof – muhit muhofazasi, ijtimoiy adolat va boshqa ko'plab masalarning yechimini topishga qodir emas. Bu jarayonda davlatning roli muhim", - deya ta'kidlanadi.

Rim klubi faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, klubning dastlabki yillardagi o'rta tashlangan fikrlari oradan o'tgan qisqa vaqt ichida o'z tasdig'ini topdi. Jumladan , 1992 yilda klub a'zolarining 20 yillik izlanishlari natijasi elon qilinib, unda nafaqat dastlabki xulosalar tasdiqlanganligi, balki insoniyat bu davrga kelib, o'sish chegarasi doirasidan chiqib bo'lganligini bayon qilindi. 2004 yilda esa insoniyatning "o'sish chegaralari" masalasiga bag'ishlangan kitobning uchinchi nashri chop etildi. Unda 30 yil oldin o'rta tashlangan gipotezalar, ijtimoiy hayotning turli jihatlarini aniqlab beruvchi omillarga aylanganligi bayon etilgan.

1972 yil 5 iyunda Stokgolmda BMTning Atrof – muhit bo'yicha birinchi Umumjahon Konferensiyasi o'tkazildi. Unda 113 ta davlat vakillari qatnashdilar. Konferensiyada ekologik yo'naltirilgan ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish g'oyasi ilgari surilgan bo'lib, unga ko'ra aholi turmush darajasining ortishi yashash muhitining yomonlashishi va tabiiy sistemalarning buzulishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Konferensiyada 5 ta muhim qaror va hujjatlar qabul qilindi. Bular : Stokgolm deklaratsiyasi; Tadbirlar rejasi, UNEPni tashkil etish to'g'risidagi tavsiyanoma; Butunjahon atrof – muhit bo'yicha jamg'armasi tashkil etilishi va 5 iyunni "Butunjahon atrof - muhit kuni" deb elon qilinishi.

Dunyoda XX asr ikkinchi yarmida atrof – muhitni asrash va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning integratsiyasi ekologik muammolarni global miqyosda anglashning

boshlanishidan “Barqaror rivojlanish yo’liga” o’tish jarayonlari orqali nomoyon bo’ladi. Sayyoramizda atrof – muhit muammosi nazariyasi bilan bog’liq holda uning ijtimoiy – falsafiy muammolari ham rivojlanib bordi.

Ishlab chiqarishda tabiiy resurslardan toboro ko’proq foydalanilishi va ularning kamayib ketish xavfi ko’rina boshlagan sayin tabiatni muhofaza qilish tushunchasi va tabiatni muhofaza qilish vazifasi kengayib bordi va XX asrning o’rtalariga kelib tabiatni muhofaza qilish kishilik jamiyatining muhim vazifalaridan biriga aylandi. Ekologik muammolar global tus olgan bir sharoitda, Markaziy Osiyo davlatlari misolida Sovet Ittifoqida bu muammoga “sinfiylik” nuqtai nazaridan yondashuv mustahkam o’rin olgan bo’lib, ekologik inqiroz faqat kapitalistik dunyoga xos xususiyat bu muammolar sotsiolistik davlatlarda paydo bo’lmaydi degan qarash bilan yashalgan. Ko’pgina tarixiy tadqiqotlarda ekologik jihatlar nomoyon bo’lsada, ular ikkinchi darajali hisoblanib, tabiatga falsafiy tadqiqotlar obyektidan tashqaridagi voqelik sifatida qaralgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Global barqarorlik bo’yicha say harakatlar o’tgan asrning yarmidan boshlanib bugungi kunda olib borilgan to’g’ri ishlar natijasida o’zining samarasini bermoqda. Ekologik inqiroz va tahdidlar o’zining ko’lami va insoniyatga keltiradigan ta’sirlariga ko’ra mintaqaviy va global ko’rinishni hosil qilib, bu esa insoniyatni birgalikda harakat qilishga chaqiryapti. “Rim klubi” tomonidan ishlab chiqilgan gipozelarning bugungi kundagi o’z tasdig’ini topishi ham aynan insoniyatning “jamiyat – tabiat – inson” uchligining birgalikdagi mutanosibligini ta’minlashdagi umumjahon xarakterni kasb etishini ko’rsatyapti. O’zbekiston sharoitida ekologik global barqaror rivovlanishni ta’minlashda quyidagi tendensiyalarni ilgari surish va istiqbolini ta’minlash zarur :

- issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va barqaror texnologiyalarni rivojlantirish bo’yicha milliy darajada choralar ko’rish.

- tabiiy resurslarning ulkan zahiralarisi asrash, bioxilma-xillikni saqlash va atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish, aholi ekologik savodxonligini oshirish va ekologik madaniyatni kuchaytirish.

- qayta tiklanadigan manbalardan energiya ishlab chiqarishni kuchaytirish, ular suvni tozalash va chiqindilarni yo’q qilish bo’yicha zamonaviy metodikalarni ishlab chiqish va qo’llash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Karimov I. O’zbekiston XXI asr bo’saga’sida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- Toshkent;O’zbekiston, 1997. - B .11

2. Лосев А.В., Провадкин Г.Г. Социальная Экология. – М.: Гуманит.изд.центр.Владост, 1998. – С.66
3. Tursunov X.T, Raximov T.U. Ekologiya. Toshkent. Chinor ENK, 2006. – B.129.
4. Einstein A. The World As I See It. New York: Quality Paperback Books, 1990. – P.44
5. Римский клуб/Club of Rome/. (www.ecoteco.ru)
6. Davletov S.R. XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshida O'zbekistondagi ekologik vaziyat va uning ijtimoiy muammolari.Dissertatsiya. Urgench, 2018. – B.21
7. Гвашиани Д.М. Пределы роста – первый доклад римскому клубу (www.alt-future.narod.ru)
8. Meadows D. et.al.The Limits to Growth.A.Report for the Club of Rome's Project on Predicament of Mankind. – N.Y.,1975. – P.29.
9. Кинг А. Шнайдер Б. Первая глобальная революция. Доклад Римского клуба.-М.:Политике,1991.- С.39
10. Медоуз Д. и др. Пределы роста 30 лет спустя. Пер.с англ.М.:ИКЦ Академкнига, 2007. – С.7.
11. Nig'mal'tov A. O'zbekiston Respublikasi ekologiya huquqi.- Toshkent:TDYI,2004.-B.248.
12. Alixanov B. Samoylev S. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirish va tubdan yaxshilashni ta'minlash. 09.06.2015// www.eco.uz

БУРҲОНИДДИН МУҲАҚҚИҚ ТЕРМИЗИЙ ВА МАВЛОНО ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ: ИРФОН ФАЛСАФАСИ ОСТОНАСИДА

Холмўминов Жаъфар Муҳаммадиевич,

Тошкент давлат шарқшунослик университети
“Манбашунослик ва тасаввуф герменевтикаси”

кафедраси профессори в. б.,
фалсафа фанлари доктори (DSc)

jafarmuhammad@mail.ru

Турсунов Шерали Юнусович,

Термиз агротехнологиялар ва инновацион ривожланиш институти

“Математика, табиий ва гуманитар фанлар”

кафедраси ассистенти

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақола улуғ мутасаввиф олим Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий (561-638/1165-1240) ҳаёти, илмий мероси ва айниқса, унинг буюк мутафаккир ва шоир, Мавлавия тариқатининг асосчиси, тасаввуф таълимоти ва Ирфон фалсафасининг назариётчиларидан бири Мавлоно Жалолиддин Румий (Балхий) ўртасидаги устозлик ва шогирдлик муносабатлари таҳлили ва тадқиқига бағишланган.

Калит сўзлар: Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий, Мавлоно Жалолиддин Румий (Балхий), Баҳоуддин Валад, “Маъориф”, Афлокий, “Маноқиб ул-орифин”, тасаввуф, ирфон фалсафаси, устоз, шогирд, мурид, мурид.

BURKHANIDDIN MUHAKKIK TERMIZI AND MAVLANA JALALIDDIN RUMI: ON THE THRESHOLD OF IRFAN'S PHILOSOPHY

Kholmuminov Jafar Muhammadiyevich,

Doctor of Philosophical sciences (DSc),

Tashkent State University of Oriental Studies,

professor of chair "Source studies and Hermeneutics of Sufism"

jafarmuhammad@mail.ru

Tursunov Sherali Yunusovich,

Assistant at the Department of Mathematics, Natural Sciences and Humanities

Termez Institute of Agricultural Technology and Innovative Development

ABSTRACT

This article explores the life and scientific heritage of the great Sufi scholar Sayyid Burkhanuddin Muhaqqiq Termizi (561-638/1165-1240) and especially his relationship with Mawlana Jalaluddin Rumi (Balkhi), a great thinker and poet, one of the theorists of Sufism and philosophy of Irfan, the founder Orden of Mavlawiya.

Key words: *Sayyid Burhaniddin Muhaqqiq Termizi, Mawlana Jalaliddin Rumi (Balkhi), Bahauddin Walad, “Maarif”, Aflaki, “Manakib ul-arifin”, Sufism, Irfan philosophy, teacher, student, murshid, murid.*

БУРХАНИДДИН МУХАККИК ТЕРМИЗИ И МАВЛЯНА ДЖАЛАЛИДДИН РУМИ: НА ПОРОГЕ ФИЛОСОФИИ ИРФАНА

Холмунинов Джафар Мухаммадиевич,

доктор философских наук (DSc),

и.о. профессора кафедры «Источникововедения и герменевтики суфизма»

Ташкентского государственного университета востоковедения,

jafarmuhammad@mail.ru

Турсунов Шерали Юнусович,

ассистент кафедры «Математика, естественные и гуманитарные науки»

Термезский институт агротехнологии и инновационного развития

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется жизнь и научная наследия великого суфийского учёного Сайида Бурхануддина Мухаккика Термизи (561-638/1165-1240) и особенно его отношение с Мавляной Джалалуддином Руми (Балхи), великим мыслителем и поэтом, одного из теоретиков суфизма и философии ирфана, основателем ордена Мавлавия.

Ключевые слова: *Сайид Бурханиддин Мухаккик Термизи, Мавляна Джалалиддин Руми (Балхи), Бахауддин Валад, «Маариф», Афлаки, «Манакиб уль-арифин», суфизм, философия ирфана, учитель, ученик, муришид, мюрид.*

КИРИШ

Узоқ даврлар мобайнида Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий номи ва маънавий мероси Марказий Осиё илмий тадқиқот марказлари эътиборидан четда қолиб кетган эди. Албатта, бунинг асосий сабаби шўролар ҳокимияти даврида ислом маърифати билан боғлиқ бўлган буюк сиймолар илмий меросини ўрганилишининг таъқиқ этилиши эди. Ўзбекистонда Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий ҳаёти ва илмий мероси ҳақида эълон қилинган илк маълумотлар 2000 йилдан бошлаб илмий нашрлар ва даврий

матбуот саҳифаларида кўрина бошлади. [3;4;6;10] Аммо, Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий ҳаёти ва илмий мероси ҳақида шу пайтгача эълон қилинган маълумотлар кўпинча қисқача ахборот характериға эға бўлиб келган ва мутафаккирга оид асл манбаларға бевосита мурожаат қилинмаган. Жумладан:

“Саййид Бурҳонуддин Муҳаққиқ Термизий – Жалолиддин Румий (Муҳаммад ибн Муҳаммад ибн Хусайн ибн Аҳмад Балхий Румий, 604-672/1207-1273), унинг ўғли Султон Валад (623-712/1226-1312), Заркўб номи билан машҳур Салоҳиддин ибн Фаридун Кўнявийнинг устози, Румийнинг отаси – Баҳоуддин Валаднинг (Муҳаммад ибн Хусайн ибн Аҳмад Хатиб Бакрий, 543-630/1148-1232) яқин шогирди.

Исломшунос ва термизийшунос олим Ж.Чўтматовнинг термизий алломалар ҳақидаги қимматли монографиясида ҳам шу ҳолат кузатилади: “Кўня сафаридан сўнг Бурҳониддин Термизий Қайсарияға ўтди ва кичик бир ҳужрада истиқомат қилди. Салжуқийлар волийси Шамсиддин Исфаҳоний у зотға мурид бўлди. У зотнинг доимий жазба, важд ва истиғроқ ҳолатида яшаганлари айтилади. Вафоти борасида икки хил сана келтирилади. Бири 638/1240, бошқаси 674/1275. Қабр тошларининг устиға 561-638/1165-1240 саналари битилган”. [10; 313]

“Термизийлар тазкираси”да ушбу Термизийға оид маълумотлар олиш мумкин бўлган манбалар келтирилади, шунингдек, у зотнинг Жалолиддин Румийнинг “Фийҳи мо фийҳи” (Зотдаги нарса зотдадир) асарида келган сўзлари ҳам берилади. [4; 56-64] Муҳаққиқ Термизий борасида Б.Муртазоев берган маълумотлар ҳам аҳамиятға молик.[6; 88-91]

Асосий қисм

“Саййиди сирдон” лақаби билан XIII асрнинг улуғ амалиётчи сўфийларидан бири сифатида машҳур бўлган Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизийнинг ҳаёт йўли ушбу даврнинг Султон ул-уламоси, улуғ фақиҳ ва мутасаввиф олим, Имом Муҳаммад Ғаззолий силсиласининг давомчиси Баҳоуддин Валад ва унинг фарзанди – улуғ мутасаввиф ва мутафаккир шоир – Мавлоно Жалолиддин Румийнинг ҳаёт йўллари билан чамбарчас боғланиб кетган. Негаки, Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий Баҳоуддин Валаднинг энг пешқадам шогирди ҳамда Мавлоно Румийнинг тасаввуф илми бўйича илк устози эди. Шу нуқтаи назардан, Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизийнинг ҳаёти, илмий мероси ва фалсафий-ирфоний қарашларини Баҳоуддин Валад ва Мавлоно Румий ҳаёти ва ижодини ўрганмасдан туриб тадқиқ этиш амри маҳол. Негаки, ҳам Баҳоуддин Валад, ҳам Мавлоно Румий

асарларида Бурхониддин Муҳаққиқ Термизий номи қайта-қайта зикр этилиши билан бирга Мавлоно Румий ҳаёти, маънавий мероси ва қарашларига бағишланган тарихий адабий манбалар – маноқиблар, мақомотлар ва тазкираларда ҳам Бурхониддин Муҳаққиқ Термизий хусусида тўхталиб ўтилади.

Мавлоно Жалолоиддин Румий 1204 йилда Хуросоннинг Балх шаҳрида дунёга келди. Шу муносабат билан уни “Жалолоиддин Балхий” деб ҳам аташади. Унинг “Румий” ва “Мавлоно Румий” номи билан шуҳрат қозонишининг сабаби Туркиянинг Қуния шаҳрида узок муддат истиқомат қилганлиги ва ўша ерда вафот этганлигидир. Румий ўзини доим хуросонлик деб ҳисоблаган, ўз шаҳри ва ҳамшаҳарларини яхши кўрган, уларни ҳеч қачон унутмаган.[9; 5] Унинг “Девони кабир”даги ғазалларида ҳам, “Маснавийи маънавий” асарида ҳам Самарқанд, Бухоро, Термиз, Фарғона ва Балх каби Мовароуннаҳру Хуросондаги шаҳарлар, ҳатто қишлоқлар тилга олинади. Мавлавий ўзининг хуросонлик эканлигини қатъий таъкидлаган. Бу ҳақда “Девони кабир”даги ғазалларида ҳам ёзади:

*Аз Хуросонам кашидий то бари юнониён,
То баромўзам бад-ишон, то кунам хушмазҳабий.*

Мавлоно Жалолоиддиннинг отаси Муҳаммад бин Хусайн Хатибий бўлиб, ўз даврида Баҳоуддин Валад – Баҳовалад номи билан танилган ва “Султон ул-уламо” унвонига эга бўлган. У 1230 йилда, яъни, саксон беш ёшида вафот этди. Баҳоуддин Валад тасаввуф тариқатининг улуғларидан бўлиб, Шамсиддин Аҳмад Афлокийнинг ёзишича, унинг сўфийлик “жун чакмони” (хирқаси), яъни, силсиласи Аҳмад Ғаззолийга бориб боғланади. У амри маъруф аҳли бўлиб, бемаза ва бемаъни одатлардан узок юрар, доимо кўпчилик ҳамроҳлигида бўларди. “Оташкада” тазкираси муаллифининг ёзишича, усиз майит ташқарига чиқарилмаган ва усиз ҳеч қандай йиғин ўтказилмаган. У доимо фалсафа ҳақимлари ва бошқаларни инкор этиб, шариат қоидаларига бўйсунган ва дини Аҳмадийни тарғиб қилган. Хос ва авом уни қўллаб қувватлаган.[2; 193]

Саййид Муҳаққиқ Термизий ҳақида Алишер Навоий куйидаги маълумотни келтиради: “Хусайний саййиддур ва Тирмиздин эрди ва Шайх Баҳоуддин Валад қ. с. нинг асҳоби ва муридларидиндур. У хавотирға ишрофи (яъни, ички ўй-хаёлларнинг баъзисини фаросат билан сезиши) жиҳатидин Саййиди сирдон номи билан машҳурдур. Ул кунки (Жалолоиддин Румийнинг отаси) Шайх Баҳоуддин Валад оламдин ўтти, Саййид Тирмизда ўлтуруб эрди. Дедики, шайхим ва устодим ҳазратлари дунёдин рихлат қилдилар. Ва неча кундин

сўнгра Мавлоно Жалолуддин тарбияти учун Кўняға мутаважжих бўлди. Ва Мавлоно Жалолуддин ҳазратлари тўққиз йилгача алар хидматларида бўлуб, иршодлар кўруб тарбият топдилар. Дебдурларки, чун Шайх Шихобуддин Сухравардий Румға келди. Саййид ҳазратларини кўргали борди. Саййид кул устига ўлтуруб эрди, ўрнидин тебранмади. Шайх йироқдин таъзим қилди ва ўлтурди, ҳеч воқеъ бўлмади. Муридлар сукут мужибин (сабабин) сўрдилар. Шайх дедики, ҳол аҳли била сўзлашурға ҳол тили керак, йўқки (кифоя қилмаски) қол тили! Муридлар сўрдиларки, Саййидни нечук топтингиз? Шайх деди: дарёе топтук, маввожи маоний дурларидин ва Муҳаммад ҳақоикидин бағоят ошкор ва асру яшурун. Шайх Салоҳуддин (ушбу) Саййиднинг муридларидиндур. Саййид дерлар эрмишки, ҳолимни Шайх Салоҳуддинға бағишладим ва қолимни Мавлоноға. Ва Саййиднинг мутабаррик мазори Қайсариядадур. (Унга ва барча солих бандаларга Аллоҳнинг саломи ва раҳмати бўлсин)".[1; 318,326,328]

Баҳоуддин Валаднинг ёзган асарлари зиёлилар орасида ўзига хос бир меҳр-муҳаббат ва ихлос билан ўқилгани туфайли катта обрў-эътиборга эга эди. Айниқса, унинг “Маъорифи Баҳовалад” номли китоби сон-саноксиз мухлислар орттирган эди. Ушбу китоб, яъни, “Китоби маъориф” Баҳовалад(Жалоллиддин отаси)нинг маъруза ва ваъзларидан ташкил топган мажмуа бўлиб, Мавлоно ва унга эргашган орифлар дунёқарашига ўзига хос равишда катта таъсир кўрсатди. Шунинг учун бўлса керак, “Маснавийи маънавий”да акс эттирилган кўпгина масалаларнинг изи ва илдизини Баҳоуддин Валаднинг “Китоби маъориф”идан топиш мумкин.

Султон Баҳовалад ҳижрий 628 йил (1232) рабиъулаввал ойининг ўн саккизинчи куни Қунияда вафот этди. Мавлоно отаси Баҳовалад вафот этган пайтда йигирма тўрт ёшли йигит эди. Баҳоваладнинг вафотидан унинг ўрнини боса оладиган одам устида сўз юритилар экан, “барчанинг кўзи Мавлонога қадалди. Баҳоваладнинг ўзи ҳам “Мендан кейин бу мақом Худовандгор Жалолиддин Муҳаммадга лойиқдир” дерди. Бу гап муридларга ҳам мақбул эди. Бунинг устига Алоуддин Кайқубод ҳам шуни хоҳларди. Озми-кўпми тажриба кўрган, билимдон Мавлоно йигирма тўрт ёшида муфтий ва фақиҳ бўлди, мударрислик курсисига ўтирди. У отасининг мактабида илоҳий ва мажозий муҳаббат дарсини олган бўлса-да, бир мударрис эди ва маъно аҳлининг асрорини ошиқ орифлар тилида баён қилишни хоҳламасди. Аммо бу фақиҳона сиймо замирида туғёну тўфонлардан ҳам кучлироқ бир шахс яширинган, бу “тўзал паричехра” зарурат юзасидан парда ортини ихтиёр этган эди. Бу ҳолат Бурҳониддин Муҳаққиқ келиб, уни янги олам билан ошно этгунча

давом этди. Унгача Мавлоно дарсу суҳбатларининг асосий мавзуи, шаръий илмлар билан бирга “Маъорифи Баҳовалад”, ўзининг таъбири билан айтганда “Фавоиди волид” мавзусида шариат ва тариқат орасида қолган, фақиҳлик. Воизлик ва орифлик хислатларини ўзида мужассамлаштирган шахс ҳақидаги вазълар ва суҳбатлардан иборат эди”. [7; 15] Отаси ўғлининг ўз ўрнига ўтиришини, мажлисларда ваъз ўқиб, фатво бериш усулларини ўрганишини истарди. Тўғриси, бу борада ўғлига васият ҳам қилган эди. Шундай ҳам бўлди. Мавлоно бу машғулотларни бир йил, яъни, Саййид Бурҳониддин Муҳаққиқ Термизий маслағи билан танишгунча давом эттирди.

Иккинчи насл даври “Акрам-Ҳамид-Сазой мактаби” сифатида келтирилиб, биринчи Машрутият эълон қилинган, яъни 1876 йилдан бошланган деб ҳисобланади ва Сарвати фунун адабиёти даврига қадар (1896) давом этади. Иккинчи даврнинг шиори “Санъат - санъат учун” тарзида янграйди. Бу даврда назмда сезиларли ўзгаришлар кузатилади, тилни соддалаштириш ғояси ўзини оқламай, насрда яна аввалги мураккаб тилга, назмда эса аруз вазнига қайтилади. Асарлар тематикаси умумийдан хусусийга қараб ҳаракат қилади - аввалги давр адабиётида жамият муаммолари кўпроқ ёритилган бўлса, бу даврга келиб шахсий муаммолар асосий планга чиқади. Чиройли бўлган ҳар қандай нарса санъатнинг мавзуси бўлишга ҳақли деб топилади. Шундан келиб чиқиб, шеърининг мавзулар кўлами ҳам кенгайди. Ёзувчилар романтизм йўналишида ёзишда давом этади, шу билан бирга реализм ва натурализмга асосланган асарлар ҳам пайдо бўла бошлайди. Роман ва ҳикоя жанрлари аввалги даврга нисбатан янада ривожланади, театр асарлари эса фақатгина ижро этиш учун эмас, ўқиш учун ҳам ёзилади (пьесалар). Иккинчи Танзимотнинг йирик вакиллари сифатида Ражоизода Маҳмуд Акрам, Абдулҳа қ Ҳомид Тархон, Сами Пошозода Сазой, Набизода Нозим, Муаллим Ножий, Аҳмад Жавдат Пошо ва Директор Али Бейларни санаш мумкин.

МУҲОКАМА

Танзимот даврига келиб ёзувчиларнинг ижодий мактаблари шаклланганлиги айнан уларнинг ижодий услубдаги изланишлари турк миллий романининг жанр табиатини қарор топишида, унинг жаҳон адабиёти саҳнасида ўз ўрнини топишида катта аҳамият касб этади.

Танзимот даври араб ва форс адабиёти таъсиридан чекиниб, Ғарб, айниқса француз адабиёти таъсирининг кучайиши билан характерланади. Бу давр намоёндалари Девон адабиётида умуман учрамаган театр, мақола, роман, хотира, танқид каби адабий жанрларни турк адабиётига олиб кириб, аввалдан

мавжуд бўлган шеър, мактуб сингари адабий жанрларни Ғарб адабий тушунчаларига мослаб, қайтадан тартибга солди. Танзимот адабиётининг дастлабки йилларида ижод қилган адибларнинг аксарияти француз инқилобчи ёзувчиларининг (Монтескье, Руссо, Вольтер) асарларидан таъсирланиб, мақола ва шеърларида зулм, адолатсизлик каби мавзуларни ёритдилар. Ватан, миллат, ҳуррият, ҳуқуқ, адолат, қонун тушунчаларина кенг ёйишга ҳаракат қилдилар ва “санъат - жамият учун” ғоясини илгари сурдилар. Даврнинг кейинги йиллари ижодкорлари эса (Раҷоизода Маҳмуд Акрам, Абдулҳақ Ҳомид Тархон, Сами Пошозода Сазой) кўпроқ шахсга доир мавзуларни кўтариб чиқди ва “санъат - санъат учун” шиори остида ижод қилди. Танзимот адабиёти девон адабиётига зид равишда танланган кишилар учун эмас, *халққа хизмат қилувчи адабиёт*нинг бошланиши ўлароқ вужудга келди. Мазкур ғояни қўллаб-қувватлаган Шиносий, Зиё Пошо, Номик Камол, Аҳмад Митҳат, Директор Али Бейлар айниқса мақола, театр, хотира; қисман роман турларида асарлар маҳсул қилди. Кейинги йиллар ижодкорлари эса бу мавқсаддан бирмунча узоклашиб, тилнинг соддалашуви, сўзлашув тилини ёзув тилига айлантириш фикрини илгари сурди.

Туркияда маърифатчиликнинг тараққий этиши ўз навбатида насрий адабиёт тилининг шаклланиши каби долзарб муаммонинг ечилишига ҳам туртки бўлди. Бадиий тил бисоти – лексикаси “ёзма нотиклик”, яъни илмий ва сиёсий нутқларда қўлланиладиган сўзлар ҳисобига бойий бошлади. Насрий тил ва сўзлашув - лаҳжалар ҳамда мумтоз адабий тил ўртасидаги муносабатлар муаммосини ҳал этиш борасида умуммиллий тилнинг барча имкониятларидан фойдаланишга ҳаракат қилинди. Турк адабиёти *маърифатчилик* адабиётига хос хусусиятларни намоён эта бошлади. Адабиёт тобора халққа, реал ҳаётга яқинлаша борди, жамият фикрининг ифодачиси сифатида майдонга чиқди. Ёзувчилар ижодида мавжуд тузумнинг қоқлиги, барча камчиликларини рўйи рост танқид қилиш тамойили кучайди. Публицистика нафақат инқилобий ғоялар тарғиботчиси, балки адабий танқид майдони, адабиёт кўзгуси сифатида майдонга чиқди. Натижада, миллатнинг фикрлаш тарзи ўзгарди, асрлар давомида турғун бўлиб келган адабий меъёрлар чегараси бузилди, мавжуд жанрлар сафи кенгайди, оламни эстетик идрок этиш ва тавсирлаш услубларида тубдан ўзгаришлар содир бўлди. Бу эса ўз навбатида бу ўзгаришларни ўзида тажассум эта оладиган катта насрий шакл – роман жанрига эҳтиёжни келтириб чиқарди. Чунки, айнан роман жанрининг имкониятлари ҳаётни “ижтимоий жиҳатдан кўп қатламли, бутун мураккаблиги ва зиддиятлари, ўзига хос

драматизми билан инъикос эттириш”²⁹¹га қодир эди. Туркияда ҳам романнинг туғилиши тарихий зарурат эди.

Туркияда XIX асрнинг 60-70 йиллари классик жанрлар анъаналари замирида янги мазмундаги насрий асарлар яратишга интилиш кучайганлиги билан характерланади. Шундай интилишлар самараси ўлароқ сафарнома, ижтимоий-сиёсий рисола, эпистоляр (хат) асарлар, мунозара, дoston, пьеса, публицистик роман жанрлари тараққий этди²⁹². Санаб ўтилган жанрлар турк насрида нафақат тилнинг соддалашуви, тасвирда ҳаётийликнинг ортиши, балки мавжуд ижтимоий тузумга танқидий қарашларнинг кучайишига ҳам олиб келди.

Маърифатчилик руҳида ёзилган асарлардан бири, таржима романлардан кейинги дастлабки маҳаллий роман намунаси Шамсиддин Сомийнинг 1872 йилда ёзилиб, 1875 йилда китоб ҳолида нашр этилган “Таашшуқи Талъат ва Фитнат” (Таашшук-и Talat ve Fitnat - “Талъат ва Фитнатнинг муҳаббат қиссаси”) асари бўлди. Мазкур асар бугунги кунга қадар давом этиб келаётган роман маданиятининг турк адабиётидаги дастлабки қадами ўлароқ муҳим аҳамият касб этади. Шу сабаб мазкур романга алоҳида тўхталишни лозим деб топдик.

“Таашшуқ-и Талъат ва Фитнат” ўзида романтизмнинг қатор унсурларини ташийди: романнинг асосини тасодифлар ташкил этади. Балки муаллифнинг биринчи қалам тажрибаси бўлгани учундир, у романда ҳақиқатдан кўра хаёлга кўпроқ ён босади. Шунга қарамай, тили, воқеалар ривожини, қаҳрамонлар тасвири романи ўша даврдаги бошқа романлардан устунроқ эканини кўрсатади²⁹³. Шу томонлама роман билан муштарак жиҳатларга эга бўлган асар тасодифларнинг кўплиги, кўп қўлланилган мотивлари билан халқ эртақларини эслатади. Уч жилддан ташкил топган романнинг лисоний хусусиятлари ўша давр тилига нисбатан содда бўлиб, муаллиф асар давомида жимжимадор ифодалардан қочади. Бундан ташқари, романда сўзлашув тилини ҳам учратишимиз мумкин (масалан, араб энага гапларининг шевада ёзилиши). Романда бўлажак турмуш ўртоғини тўйдан аввал кўрмасдан турмуш қуриш анъанаси катта ижтимоий муаммо сифатида кўтариб чиқилган. Шу орқали ёзувчи китобхон халққа ижтимоий сабоқ беришга уринади.

Муаллиф бугунги кундан қарийб бир ярим аср илгари қаламга олган бу муаммо замонавийлашув ва тараққиётга қарамай, ҳалигача қисман давом этиб

²⁹¹ Адабий турлар ва жанрлар. (Тарихи ва назариясига оид). Уч жилдлик. 1-Жилд. Эпос. – Т.: Фан, 1991. – Б.384.

²⁹² Бу жанрларнинг хусусиятлари ҳақида батафсил маълумот учун қаранг: Дорри Д. Персидская литература XX века. – М.: Муравей, 2005. – Б. 192.

²⁹³ İsmail H. Edebi Yeniliğimiz. – İ.: Devlet Matbaası, 1936. – S. 322.

келмоқда. Бу масаланинг тўла-тўқис ҳал қилинмаганининг ҳам ўзига яраша сабаблари бор албатта: туркий халқларда урф-одатларнинг қон-қонга сингиб кетгани, оила бошлиғи саналувчи отанинг ҳал қилувчи қарорни қабул қилиши, жамият саводхонлик даражасининг пастлиги ва ҳк. Мана шундай омиллар туфайли совчилик орқали турмуш қуриш, турмуш ўртокни асосий одамлар қолиб учинчи даражали кишилар танлаши ҳолатларини ҳалигача кўришимиз мумкин.

Романда эътиборни тортадиган яна бир жиҳат, китоб ёзилган даврдан бугунги кунгача жамиятда аёлларга бўлган муносабатнинг қандай ўзгарганлигидир. Асарда акс этган консерватив жамиятда аёллар иккинчи даражали фуқаролар сифатида кўрилар эди. Уларнинг таълим ва меҳнат каби энг асосий ҳуқуқлари тортиб олинганди. У даврда қизларнинг ўн бир ёшдан кейин мактабга бориши номақбул деб ҳисобланган. Солиҳа хоним отаси уни мактабдан олиб кетишганини шундай изоҳлайди:

“Bu görenektir. Kız on bir yaşına geldikten sonra yaşmaksız, feracesiz sokağa çıkamaz. Biz bu adeta uymak zorundayız. Sonra herkes bizimle ayal eder... Ne yapalım? Hala kızlara has okullarımız, kadın hocalarımız yok. Erkek okuluna on beş yaşında bir kız nasıl gidebilir?”²⁹⁴

“...Одат шундай: Қиз бола ўн-ўн бир ёшга етганидан кейин узун кўйлаг-у рўмолсиз кўчага чиқмайди. Ахир қандай қилиб одатимизга хилоф иш тутамиз? Ҳамма устимиздан куладуку... Нимаям қилардик? Ҳалигача қизлар учун махсус мактабларимиз, аёл ўқитувчиларимиз йўқ... Ўн беш ёшли қиз қандай қилиб ўғил болалар мактабига бориши мумкин ахир?”²⁹⁵

Мана шу ифодадан ҳам тушуниш мумкинки, ўша даврда жамиятда аёлларга нисбатан жуда кучли босим бўлган. Оилалар фарзандларига таълим бермоқчи бўлсалар ҳам, жамият босимидан қўрқиб, таслим бўлишган. Қизлар етарли таълим ололмаганлиги сабаб, таълим даражаси бўйича эркаклар ва аёллар ўртасида чуқур тафовут мавжуд бўлган. Фақат бадавлат оилаларнинг қизлари уйларида шахсий ўқитувчилардан таълим олишлари мумкин эди. Бундан ташқари, отанинг оиладаги ўрнига ҳеч қандай гап-сўз бўлиши мумкин эмасди. Бундай патриархал тузилмада аёлларнинг оилада ва жамиятда ўз сўзига эга бўлишлари имконсиз эди. Роман замонанинг шу ва шу каби жиҳатларини очиб бергани нуқтаи назаридан ҳам алоҳида аҳамиятга эга.

²⁹⁴ Sami Ş. Taaşşuk-i Talat ve Fitnat. – İ. Can Yayınları, 2018. – S. 27.

²⁹⁵ Мазкур таржима мақола муаллифига тегишли.

ХУЛОСА

“Таашшук-и Талъат ва Фитнат” романида империяга ғарб маданиятининг таъсири натижаларини кўришимиз мумкин. Европача фикрлаш тарзи ҳаётнинг ҳар бир жабҳасига кириб келган бир пайтдаги ижтимоий қарама-қаршиликлар моҳирлик билан қаламга олиниб, ўқигувчини чуқур мулоҳазага чорлайди. Ҳожибобо образи халқнинг европача қарашларга бўлган муносабатини акс эттириши жиҳатидан муҳим саналади. Асарнинг бош ғояси консерватизм ва тараққиёт, зиёлилар ва авом халқ тўқнашуви мисолида атрофлича ёритиб берилган.

Шубҳасиз, “Таашшук-и Талъат ва Фитнат” асари XIX аср Туркияда роман жанрининг ва умуман насрнинг ривожланишига улкан ҳисса қўшган маърифатчилик йўналишидаги *публицистик романнинг* йирик намунаси ҳисобланади. Асарда илк бор турк жамиятининг турли жабҳалари (сиёсат, иқтисод, маданият, таълим), усмонли кишиси турмуш тарзининг кўп қирралари қамраб олинган. Воқеалар жонли, баҳс-мунозараларга бой тарзда тасвирланган бўлиб, унда ёзувчининг фикр-мушоҳадалари, ўринли хулосалари баён этилган, буларнинг барчаси романга ҳаётийлик бағишлаган, замонадан анча орқада қолаётган Туркия турмуш-тарзи рўй-рост кўрсатилган.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (REFERENCES)

1. Hüseyin Rahmi'den Fakir Baykurt'a kadar Türk Romanı / Tatarlı İ., Mollof R. – Sofya: Vatan Cephesi Milli Saveti Yayınevi, 1968. – S. 216.
2. Seçme Romanlar (yazarları, özetleri, eleştiriler, kaynaklar) Taner R., Bezirci A. – İ.: Hür Yayınevi, 1973. – S. 248.
3. Aktaş Ş. Roman Sanatı ve Roman İncelemesine Giriş. – A.: Akçağ Yayınları, 1991. – S. 166.
4. Yılmaz D. Roman Kavramı ve Türk Romanının Doğuşu. – A.: Kültür Bakanlığı, 1990. – S. 160.
5. Akyüz K. Modern Türk Edebiyatının Ana Çizgileri. – A.: İnkılap, 1979. – S. 270.
6. Banarlı N.S. Resimli Türk Edebiyatı Tarihi. 2. cilt. – İ.: MEB Yayınları, 1971. – S. 550.
7. Гордлевский В.А. Избранные сочинения. В 3-х т. – М.: Издательство восточной литературы, 1962. Т.2. – С. 560.
8. Еремеев Д., Мейер М. История Турции в средние века и новое время. – М.: МГУ, 1992. – С. 246.

9. Евдокимова А. История стран Востока в новое время. – Уфа: БГПУ, 2009. – С. 238.
10. Дулина Н. Танзимат и Мустафа Решид-паша. – М.: Наука, 1984. – Б. 191.
11. Айзенштейн Н. А. Из истории турецкого реализма. – М.: Наука, 1968. – С. 284.
12. Гарбузова В. С. Поэты средневековой Турции. – Л.: ЛГУ, 1963. – С. 201.
13. Фиш Р. Г. Писатели Турции - книги и судьбы. – М.: Наука, 1963. – С. 242.
14. Кямилев Х. У истоков современной турецкой литературы. – М.: Наука, 1967. – С. 132.
15. Sami Ş. Taaşuk-i Talat ve Fitnat. – İ. Can Yayınları, 2018.

FORS TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10457404>

Husainova Gulnoza

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

“Sharq tillari” kafedrasida o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada fors tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning uslub va metodlari yoritilgan. O‘zbekiston va Eron o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar kun sayin rivojlanib bormoqda. Fors tili o‘qituvchisi o‘z til guruhining dars dasturi, til o‘rganishdan maqsadi, ruhiy va aqliy qobiliyatlari va o‘qish muddatidan kelib chiqib, shunga mos o‘quv materiallarini tanlashi va munosib o‘qitish usullarini ishlab chiqishi kerak.

Kalit so‘zlar: *metod, texnologiya, key study, zamonaviy o‘qitish, fors tili.*

ABSTRACT

This article describes the methods and methods of using modern technologies in teaching the Persian language. Political, economic and cultural relations between Uzbekistan and Iran are developing day by day. Based on the curriculum of the language group, the purpose of language learning, mental and intellectual abilities, and the period of study, the Persian language teacher should choose appropriate teaching materials and develop appropriate teaching methods.

Key words: *method, technology, key study, modern teaching, Persian language.*

KIRISH

Masalan, fors tilini savdo sotiq ishlari maqsadida o‘rganayotgan tadbirkor bilan fors tilini ilmiy maqsadlarda o‘rganayotgan talaba orasida osmon bilan yercha farq bo‘ladi.

Savdo-sotiq uchun soha bilan bog‘liq bir qator atama va iboralarni o‘rganishning o‘zi kifoya bo‘lsa, fors tilidagi qadimiy qo‘lyozmalarni o‘qish, tahlil va tarjima qilish uchun fors tili tarixini, lug‘at boyligini, fonetik tizimi, grammatikasi va xatolik usullarini asosli ravishda o‘rganish taqozo etiladi. Tabiiyki, buni o‘qitadigan o‘qituvchilarning va til o‘rganuvchilarning bilim saviyasi, hayotiy tajribasi, dars materiallari va o‘qitish usullari tubdan farq qiladi.

Fors tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish uchun har bir til guruhining maqsadi va bilim saviyasiga mos alohida dastur, dars materiallari va o‘qitish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O'qituvchi eng yaxshi o'qitish metodini izlash maqsadida ta'lim metodlaridan xabardor bo'lishi kerak emas, balki til o'rganuvchining maqsadi talab-ehtiyojlaridan xabardor bo'lish orqali qanday mavzularni o'qitishi kerakligini bilib olishi zarur.

Talaba o'qituvchining gapirgan gaplarini tushuna olishi, o'zining strategiyasiga tegishli qo'llanmalar va darsliklarni o'qiy olishi, imtihon topshirishi, dars paytida savol bera olishi, o'rgangan narsalarini gapirib bera olishi kerak.

O'qituvchi shu maqsadda qaysi so'zlarga, grammatik materialga va til ko'nikmalariga ehtiyoji borligini aniqlaydi.

Talab-ehtiyojlarini o'rgangandan keyin, til o'rganuvchining jismoniy xususiyatlari, til bilish qobiliyati, his-tuyg'ulari, ta'lim muassasaning imkoniyatlarini hisobga olib, til materiallarini o'qitish uchun qaysi o'qitish metodi hamda dars jarayonida qanday faoliyatlar ma'qul ekanligini belgilaydi.

Shuning uchun o'qituvchi barcha ta'lim metodlari va dars jarayonlarining xususiyatlaridan xabardor bo'lishi kerak, toki kerak bo'lgan ularning orasidan bir yoki bir necha ta'lim metodlari, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Fors tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda yangi pedagogik ta'lim asosida zamon talabiga javob beradigan darajada o'zgartirish kiritishni zamon taqozo etmoqda. O'quv qo'llanma va darsliklarni tuzishda yangi pedagogik texnologiyaga suyangan holda, talabalarning mustaqil ishlashdagi faoliyatini oshirish maqsadida turli xarakterdagi mashqlarni berib, ularni bajarishda talabalardan ancha bilim va fikr yuritish talab qilinadi.

Talabalarning ma'naviy va ma'rifiy bilimlarini takomillashtirish maqsadida, fors tilida Eronning mashxur klassik shoir va allomalari, Eron xalqining bayramlari, urf-odatlar, geografiyasi, iqtisodi va turmush tarzi haqida ma'lumotlar berildi. Bu mavzularni qamrab olgan matnlar til o'rganish materialiga bo'lishi bilan birga talabalarning Eron haqidagi bilim doiralarini kengaytirib borishga yordam beradi.

Masalan so'roq gaplar va fe'l mavzulari misolida pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Fors tilida ot kesimli sodda gaplarga savol tuzish uchun turli usullardan foydalaniladi.

1. Intonatsiya orqali;
2. **۴** va **۴** so'roq olmoshlari orqali;
3. So'roq yuklamalari orqali;
4. So'roq olmoshlari va so'roq so'zlari orqali.

So'roq gaplarning yasalishi mavzusini o'zbek va fors tilini solishtirish orqali "Venn diagrammasi" metodi orqali ko'rsatib berishni maqsad qildik.



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida ham fors tilida ham so'roq gaplarning yasalishida so'roq yuklamalari, so'roq olmoshlari, so'roq ohangi, so'roq so'zlari ishtirok etadi.

BBB metodini fors tilida so'roq gaplarning ifodalanishi mazzusiga tadbiiq qildik va natija quyidagicha:

Jadvalning bilaman qismiga so'roq gap haqida umumiy bilganimiz yozildi. Biz o'zbek tilida so'roq gaplarning yasalishidan xabardor bo'lganimiz uchun jadvalning bilishni xohlayman qismiga fors tilida so'roq gaplarning yasalishi haqida savol berdik. Eng oxirgi Bilib oldim qismiga esa fors tilida so'roq gaplarning 4 xil yo'l bilan yasalishini to'liq yoritib berdik. Bundan ko'rinib turibdiki BBB jadvalidan muvafaqiyatli foydalandik.

BBB jadvali

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
---------	--------------------	-------------

So'roq gaplar so'roq olmoshlari bilan yasaladi.	Fors tilida so'roq gaplar qanday yo'l bilan yasaladi?	Fors tilida so'roq gaplar 4 xil yo'l bilan yasaladi: 1. Intonatsiya 2. كه va چه so'roq olmoshlari 3. مگر يا با yuklamalari 4. So'roq so'zlari چطور chetour, چه رنگ che rang, چکاره chekäre, کجا ko'jo, کدام ko'dom, چگونه chegune
---	---	---

BBB metodini fors tilida so'roq gaplarning ifodalanishi mavzusiga tadbiiq qildik. Bunda talabalar ushbu metod orqali o'zbek va fors tilidagi so'roq gaplarning o'zaro tuzilishi va tarkibiy qismlari haqida muhim ma'lumotlarga ega bo'lishiga erishdik.

Barcha tillarda bo'lgani kabi fors tilida ham fe'l tilda gap yasalishida faol ishtirok etadigan eng muhim leksik unsurlardan biri hisoblanadi. Fe'l predmet yoki shaxsning ish-harakatini ko'rsatadi. Bu ish-harakat ma'lum zamonda ma'lum shaxs tomonidan bajariladi. Fe'lda zamon, shaxs-son ma'nosi o'z aksini topadi.

Fors tilida fe'l boshqa gap bo'laklari orasida muhim o'rin tutadi, u nafaqat ma'nolar boyligi va xilma-xilligi, balki qo'llanilish shakllarining ham ko'pligi jihatidan ajralib turadi.

Biroq fors tilida fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari to'g'risida turli qarashlar mavjud. Bizga ma'lumki, Y.A. Rubinchik fors tilidagi fe'llarni tuzilishiga ko'ra quyidagi uch turga bo'ladi: 1) sodda fe'llar; 2) prefiksli fe'llar; 3) qo'shma fe'llar; Ammo bundan ancha oldin Eron tilshunos olimi P. N. Xonlariy o'z tadqiqotlarida fors tilida fe'llarning tuzilishiga ko'ra besh turi mavjudligini aytib, fe'llarning yuqorida keltirib o'tilgan uch turdan tashqari yana ikki tur: fe'l ishtirokida yasalgan iboralar (عبارت های فعلی) va o'timsiz fe'llarni (فعل های ناگذر) ham fe'l turlari sifatida eslatib o'tsa, boshqa eronlik tilshunoslar H. Anvari va H.A. Giviy fors tilidagi fe'llarni tuzilishiga ko'ra quyidagi olti turga bo'lib ko'rsatishadi: 1) sodda fe'llar (فعل های ساده); 2) prefiksli fe'llar (فعل های پیشوندی); 3) qo'shma fe'llar (فعل های مرکب); 4) prefiksli qo'shma fe'llar (فعل های پیشوندی مرکب); 5) fe'l ishtirokida yasalgan iboralar (عبارت های فعلی); 6) bir shaxsli o'timsiz fe'llar (فعل های لازم یک شخصه).

Fe'lning prefiksli qo'shma fe'llar, fe'l ishtirokida yasalgan iboralar va bir shaxsli o'timsiz fe'llar kabi turlari rus va o'zbek eronshunosligida qo'shma fe'llar jumlasidan hisoblanadi.

Fors tilidagi fe'llarning soni boshqa tillarda mavjud bo'lgan fe'llar soniga nisbatan kamroq bo'lib, "Farhang-e forsi-ye emruz" ("Hozirgi fors tili lug'ati") muallifi G'ulomhusayn Sadriafshorning aytishicha: o'tmish davrlardan hozirgacha

bo‘lgan fors tilida 600-700 atrofida fe‘l mavjud bo‘lib ularning ham katta qismini qo‘shma fe‘llar tashkil etadi. Y.A. Rubinchikning aytishicha, fors tilining fe‘l tizimida so‘z yasash usullari anchagina cheklangan bo‘lib, sodda va prefiksli fe‘llarning ushbu tildagi boshqa so‘z turkumlaridan farqli ravishda asosan fors tilida soni uncha ham ko‘p bo‘lmagan so‘z yasovchi affikslar yordamida, ya‘ni affiksatsiya usuli bilan yasalganligini ko‘rish mumkin. Biroq ushbu eronshunosning aytishicha, hatto ana shu affiksatsiya usuli bilan yangi fe‘llarning yasalishi ham ilgari zamonlarda yuz bergan bo‘lib, hozirgi fors tilida yangi sodda va prefiksli fe‘llarning yasalishi deyarli yuz bermayapti. Bularning barchasi hozirgi fors tilida sodda va prefiksli fe‘llarning qo‘shma fe‘llarga nisbatan anchagina kam bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Jumladan, fors tilida sodda fe‘llarning soni unchalik ko‘p bo‘lmay bir sodda fe‘lning ma‘lum leksik va grammatik o‘zgarishlarga uchragan turlarini ham alohida fe‘l sifatida ko‘rsatish orqali ularning soni ikki mingtadan oshishi to‘g‘risida da‘vo qilgan o‘tmish tilshunoslari va leksikograflarini tanqid qilgan P. N. Xonlariy fors tilidagi sodda fe‘llarning soni uch yuztaga ham yetmasligini eslatib o‘tsa, boshqa bir tadqiqotchi S. Karimiy aynan hozirgi fors tilida real qo‘llanuvda bo‘lgan sodda fe‘llarni nazarda tutgan holda ularning soni ko‘pi bilan 130 taga yetishi mumkinligi to‘g‘risida gapiradi. Yana bir eronlik tilshunos A. Sodiqiyning fikricha esa hozirgi fors tilidagi yozma va og‘zaki nutqda ko‘pi bilan 115 ta sodda fe‘l ishlatiladi.

Biroq bularning barchasiga qaramasdan sodda va prefiksli fe‘llarning fors tilidagi ish-harakatni ifodalash hamda gap tuzilishida tutgan o‘rnini e‘tiborga olmaslik ham mumkin emas. Bundan tashqari, shuni ham unutmazlik lozimki, sodda fe‘llar fors tilidagi prefiksli va qo‘shma fe‘llarning yasalishida katta rol o‘ynaydi.

Fe‘lning turlari.



Fe‘llarning tuzilishiga ko‘ra turlarini “Baliq skeleti” metodi orqali ko‘rsatib berish maqsadga muvofiq xisoblanadi.

Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda talabalar o'rtaga tashlangan muammoni xar tomonlama ochib berishga xarakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib uning tepa qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni xal etilish yo'llari yozib boriladi.

Bu usul orqali o'quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rganadilar.

Fors tilida fe'llar tuzilishiga ko'ra uch turga bo'linadi:

1. Sodda fe'llar.
2. Prefiksli fe'llar.
3. Murakkab fe'llar yoki qo'shma fe'llar.

Xulosa qilib aytganda, fors tilini talabalarga ikkinchi til sifatida o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalar, taqdimotlar, audio - video materiallar orqali ta'lim berish yuksak natijalarga olib kelishi isbotlangan.

APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES: EXPLORING METHODS AND TECHNIQUES

Akbarova Shakhnoza Khikmatullaeva,
(PhD) acting assistant professor of the department
"Foreign languages" of the Islamic academy of Uzbekistan

ABSTRACT

This article serves as a comprehensive resource for language teachers, offering insights into different language teaching methods and their applications. It highlights the importance of adapting instructional approaches to meet the diverse needs of students and provides a valuable reference for educators seeking effective language teaching techniques.

Key words: *differentiated approach, the outdated education system, new methods, teaching English, non-traditional content, effective teaching methods, increasing interest in the subject.*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola til o'qituvchilari uchun keng qamrovli manba bo'lib xizmat qiladi va turli tillarni o'rgatish usullari va ularning qo'llanilishi haqida tushuncha beradi. U o'qituvchilarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun ta'lim usullarini moslashtirish muhimligini ta'kidlaydi va samarali til o'rgatish usullarini izlayotgan o'qituvchilar uchun qimmatli ma'lumotnoma beradi.

Kalit so'zlar: *tabaqalashtirilgan yondashuv, eskirgan ta'lim tizimi, yangi metodlar, ingliz tilini o'qitish, noan'anaviy mazmun, samarali o'qitish usullari, fanga qiziqishni oshirish.*

АННОТАЦИЯ

Эта статья служит комплексным ресурсом для учителей языка и дает представление о различных методах преподавания языка и их применении. В нем подчеркивается важность адаптации методов обучения для удовлетворения разнообразных потребностей учащихся и предоставляется ценный справочник для учителей, которые ищут эффективные методы преподавания языка.

Ключевые слова: *дифференцированный подход, устаревшая система образования, новые методы, преподавание английского языка, нетрадиционное содержание, эффективные методы обучения, повышение интереса к предмету.*

INTRODUCTION

All contemporary approaches to teaching foreign languages can be broadly categorized into two main groups: those based on intuitive assimilation during communication (referred to as "communicative" methods), and those emphasizing conscious assimilation of language rules, vocabulary, and grammar (known as traditional methods). The challenge of effectively teaching foreign languages is more pressing today than ever before. L.V. Shcherba, a renowned Russian linguist and academician, believed that there is no one-size-fits-all or universal method. Each method possesses valuable elements that should be utilized, but in history, it is rare to find instances where new methods completely solve existing problems. The effectiveness of a method is influenced by the significant differences among individual students, including their natural attributes, cognitive and linguistic abilities, personal traits, contextual factors, interests, and social status. Additionally, the qualities, strengths, and weaknesses of the teacher also impact the implementation of a method. Considering these factors is crucial for fostering effective interaction in the learning process.

Method and approach are similar concepts, but there are notable distinctions. An approach refers to the overall manner of dealing with something, while a method involves the specific processes or steps taken to address a task or issue. Throughout history, there have been approximately 30 popular approaches to language learning, with around 10 widely recognized ones such as task-based learning, the communicative approach, grammar-translation, and the audio-lingual approach. Currently, the communicative approach is particularly popular.

Determining the best method for teaching English language is challenging as it depends on factors such as the age and proficiency level of the students, as well as the content being taught. Many teachers find that a combination of the communicative approach, audio-lingual approach, and task-based teaching yields positive results in most cases. Being familiar with various language learning techniques, including ESL teaching methods, allows instructors to adapt their instructional approaches flexibly to suit different situations.

DISCUSSION AND RESULTS

Task-Based Language Teaching (TBL) involves students completing real-world tasks using the target language. This method promotes fluency by enhancing learners' confidence through task completion and minimizing direct error correction. Tasks fall into three categories: information gap, reasoning gap, and opinion gap activities. Examples of classroom tasks practiced in task-based learning include presentations

on assigned topics, conducting interviews, creating posters, and delivering short presentations on current events.

Communicative Language Teaching (CLT) is currently one of the most popular approaches to language teaching. It emphasizes interaction and communication to effectively teach a second language. Students engage in everyday situations they are likely to encounter in the target language, such as introductory conversations, making suggestions, giving invitations, expressing complaints, or discussing time and location. CLT instructors act as facilitators, aiming to develop students' ability to communicate in the target language rather than focusing solely on grammar mastery. Role-play, interviews, group work, opinion sharing, and communicative games are commonly incorporated activities.

Audio-Lingual Approach encourages students to develop language learning habits through pattern drills and dialogues. This approach prioritizes listening and speaking skills before reading and writing, utilizing the target language exclusively in the classroom. The dialogues in this method involve repetition, inflection, replacement, and restatement, helping students practice and memorize language structures. Some online language learning programs follow the audio-lingual approach, making it a viable option for remote and independent language learning.

When teaching speaking skills, the Audio-Lingual Method can be employed to address common challenges, such as students' lack of engagement and motivation. It focuses on pronunciation, vocabulary, grammar, fluency, and comprehension through dialogues. Unlike the Direct Method, the Audio-Lingual Method places a stronger emphasis on grammatical sentence patterns and is grounded in linguistics and physiology.

REFERENCES

1. Kabardov M.K. On the diagnosis of linguistic abilities. P. 176.
2. Miroljubov A.A. Natural method.//Foreign languages abroad. No. 6, 2002, p. 15.
3. Leont'ev A.A. Fundamentals of the theory of speech activity. Moscow: Nauka, 1974.
4. Whitmen Zh.L., Moskovkin L.V.: Modern methods of teaching and learning foreign languages. // Foreign languages at school. No. 3, 1998.
5. Bim I.L.: Methods of teaching foreign languages as a science and a problem of a school textbook. Moscow, 1977.

MADANIYATLARARO ALOQALARNING MARKETING DISKURSIGA TA'SIRI

Hafizov A.A.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida

ingliz tili o'qituvchisi

abrorbek.hafizov92@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada madaniy farqlarning marketing xabarlarini idrok etish va samaradorligiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Muallif marketingda madaniyatlararo muloqot hodisalarini o'rganishning nazariy yondashuvlarini, shuningdek, madaniy omilning reklamani idrok etish va uning ta'siridagi empirik tadqiqotlar natijalarini tahlil qiladi. Samarali xalqaro marketing kommunikatsiyalarini ishlab chiqishda maqsadli auditoriyaning madaniy xususiyatlarini hisobga olish zarurligi to'g'risida xulosa chiqariladi.

***Kalit so'zlar:** Marketing, madaniyatlararo muloqot, madaniy farqlar, reklama samaradorligi.*

ABSTRACT

The article examines the influence of cultural differences on the perception and effectiveness of marketing messages. The author analyzes theoretical approaches to the study of intercultural communication phenomena in marketing, as well as the results of empirical research on the perception of advertising and its influence on the cultural factor. A conclusion is made about the need to take into account the cultural characteristics of the target audience in the development of effective international marketing communications.

***Key words:** Marketing, intercultural communication, cultural differences, advertising effectiveness.*

KIRISH

Globalashuv va xalqaro biznesning faol rivojlanishi sharoitida marketing strategiyalarini ishlab chiqishda madaniy xususiyatlarni hisobga olish muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda [1,2]. Ko'pgina kompaniyalar o'z mahsulotlari, narxleri va aloqalarini muayyan mamlakatlar sharoitlariga moslashtirish zarurati bilan duch kelgan holda tashqi bozorlarga chiqadi. Madaniy omilga e'tibor bermaslik iste'molchilar tomonidan tushunmovchilik va samarasiz marketing harakatlariga olib kelishi mumkin.

Madaniyat odamlarning qadriyatlari, xulq-atvor me'yorlari va fikrlash uslubiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, marketing xabarlarini idrok etish va talqin qilishga ta'sir qiladi [3,4]. Misol uchun, turli madaniyatlar reklama va'dalarini, vizual tasvirlarni va ma'lumotni taqdim etish uslubini boshqacha qabul qilishi mumkin.

So'nggi o'n yilliklarda madaniy farqlarning xalqaro reklama va PR samaradorligiga ta'sirini o'rganish uchun ko'plab tadqiqotlar paydo bo'ldi. Biroq, bu soha hali ham etarlicha o'rganilmagan, chunki madaniyat murakkab va ko'p qirrali hodisadir. Bundan tashqari, madaniyatlar doimo rivojlanib boradi va ularning xususiyatlari vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin.

Ushbu maqolaning maqsadi marketing kommunikatsiyalariga madaniy omillarning ta'sirini o'rganishning nazariy yondashuvlarini tahlil qilish va mavjud empirik tadqiqotlar natijalarini umumlashtirishdir. Bu bizga madaniyat va marketing o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini yaxshiroq tushunish va tovar va xizmatlarni xalqaro miqyosda ilgari surishning yanada samarali strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Madaniyatning aloqaga ta'sirini o'rganishda kashshoflardan biri 1959 yilda Edvard Xoll edi [5]. U og'zaki bo'lmagan muloqotning asosiy o'lchamlarini, vaqt va makonga munosabatini aniqladi. Bu tushunchalar madaniyatlararo tadqiqotlarni yanada rivojlantirish uchun asos yaratdi.

Geert Xofstede 1980-yillarda milliy madaniyatlarni o'lchash bo'yicha o'zining nufuzli modelini taqdim etdi [6]. U individualizm, noaniqlikdan qochish, erkaklik / ayollik kabi parametrlarni aniqladi. Ushbu model madaniyatlararo o'zaro ta'sir nazariyasi va amaliyotida keng qo'llaniladi.

F. Trompenaars 1990-yillardagi asarida [7] universalizm, kommunitarizm va vaqtga munosabat o'lchovlari bilan muqobil yondashuvni taklif qildi. Ushbu dastlabki tushunchalar keyingi empirik tadqiqotlar uchun asosiy asosni tashkil etdi.

2000-yillarda reklamani idrok etishdagi madaniy farqlar bo'yicha bir qator asarlar paydo bo'ldi. Masalan, Singh va boshqalar [8] va Xarvud va Chjan [9] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mos ravishda Hindiston/AQSh va Xitoy/AQShdagi reklamani solishtirgan.

So'nggi o'n yillikda e'tibor raqamli texnologiyalarning ta'siriga qaratildi. Shunday qilib, Chen va boshqalar [10] Xitoy va AQShda ijtimoiy tarmoqlar bilan o'zaro aloqaning madaniy xususiyatlarini ko'rib chiqdilar. Jie va boshqalar [11]

mobil reklamadagi mahalliyashtirilgan kontent xitoyliklar uchun samaraliroq ekanligini ko'rsatdi.

Bir qator ishlar vizual aloqa bilan bog'liq. Xususan, Truhan va Fass [12], shuningdek, Xarvud va Zang [9] turli madaniyatlar uchun reklamada tasvirlarni idrok etish haqida yozganlar.

Bundan tashqari, madaniy ramzlardan foydalanish samaradorligi [14], ekologik marketingga qarashlardagi farqlar [15] bo'yicha tadqiqotlar mavjud.

Shunday qilib, madaniyatning marketingga ta'siri mavzusi o'nlab yillar davomida dolzarb bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, asosiy e'tibor raqamli texnologiyalar va kommunikatsiyalarning vizual jihatlariga qaratildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tajribani o'tkazish uchun turistik paketlar uchun 30 soniyalik video reklamani ikkita varianti tayyorlandi: original va O'zbekistonning madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda mahalliyashtirilgan.

O'zbekcha variantda mamlakatning tarixiy va madaniy diqqatga sazovor joylari, an'anaviy hunarmandchilik va turmush tarziga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbek madaniyati timsollaridan foydalanilgan.

O'zbekistondan 300 nafar respondent ikkala videoni ham baholadi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, mahalliyashtirilgan o'zbekcha variant ko'proq ijobiy baho olgan. U milliy qadriyatlar va an'analarni yaxshiroq etkazdi.

Qarama-qarshi effekt ham tahlil qilindi - moslashtirilmagan versiyani ko'rish. Bu esa o'zbek auditoriyasining xabarni kamroq tushunishiga olib keldi.

Bundan tashqari, shuni aytish mumkinki, o'tkazilgan tadqiqotlar marketing strategiyasini ishlab chiqishda O'zbekistonning madaniy xususiyatlarini hisobga olish muhimligini tasdiqladi. Reklamani mahalliyashtirish mazmuni, tasvirlari, tili va ramziy ma'lumotlarini o'zbek auditoriyasining qadriyatlari, afzalliklari va umidlariga moslashtirishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston boy madaniyatga ega mamlakat bo'lib, mahalliy iste'molchilar bilan samarali muloqot qilish uchun din, an'analarni, urf-odatlar, til va milliy ramzlar kabi omillarni hisobga olish zarur. Masalan, reklamada o'zbek tilidan foydalanish auditoriya bilan mustahkam aloqa o'rnatishga yordam beradi, chunki u davlatning rasmiy tili hisoblanadi.

Qolaversa, o'zbek aholisining diniy va madaniy tuyg'ularini ham hisobga olish zarur. Ba'zi reklama xabarlarini yoki rasmlari mahalliy qadriyatlarga mos kelmasligi yoki haqorat bo'lishi mumkin. Shuning uchun tarkibini va uning kontekstini

moslashtirish sizga salbiy reaksiyalardan qochish va brend yoki mahsulotga ishonch va ijobiy munosabatni o'rnatish imkonini beradi.

An'anaviy musiqa, kiyim-kechak yoki milliy bayramlar kabi o'zbek madaniyatining unsurlaridan foydalanish mahalliy auditoriya uchun yanada jozibali va tegishli reklama yaratishi mumkin. Bu iste'molchilar bilan hissiy aloqa o'rnatishga yordam beradi va aloqa samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari marketing kommunikatsiyalarida O'zbekistonning madaniy xususiyatlarini hisobga olish bozorda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omili ekanligini tasdiqlaydi. Reklamani mahalliyashtirish mahalliy auditoriya orasida uning idroki va ta'sirini yaxshilashga yordam beradi, iste'molchilar bilan aloqalarni mustahkamlaydi va O'zbekistonda brend yoki mahsulotni muvaffaqiyatli targ'ib qilishga hissa qo'shadi.

XULOSA

Shunday qilib, tadqiqot madaniy xususiyatlarning marketing kommunikatsiyalarini idrok etish va samaradorligiga sezilarli ta'siri haqidagi farazni tasdiqladi. Maksimal natijalarga erishish uchun xalqaro reklama kampaniyalarini ishlab chiqishda har bir ishtirokchi mamlakatning madaniy kontekstini hisobga olish kerak. Milliy qadriyatlar, imtiyozlar va stereotiplarni hisobga olgan holda xabarlarini mahalliyashtirish maqsadli auditoriya uchun yanada tushunarli, dolzarb va jozibador tasvir va xabarlarini yaratish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, yuqori brend xabardorligi va yanada samarali iste'molchilar jalb olib keladi.

Biroq, bir nechta mamlakatlarni keng qamrovli qamrab olgan qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi. Globallashtirish va raqamlashtirish ta'sirida vaqt o'tishi bilan madaniy qadriyatlarning o'zgarishi dinamikasini ham ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Olingan natijalar turli mamlakatlar va bozorlarning madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda tovarlar va xizmatlarni xalqaro miqyosda ilgari surishning yanada samarali strategiyalarini ishlab chiqish uchun foydali bo'lishi mumkin. Bu kompaniyalarga global miqyosda muvaffaqiyatli raqobatlashishga yordam beradi.

Kelajakda marketing kommunikatsiyalarining narx belgilash, sotishni rag'batlantirish, qadoqlash va mahsulot dizayni kabi jihatlarini idrok etishga madaniy omillarning ta'sirini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bu kompaniyalarga marketing vositalarini optimallashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, ijtimoiy media muhitida turli madaniyatlarning o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Bu raqamli makonda xalqaro auditoriya bilan muloqotni qanday qilib eng yaxshi tarzda qurishni tushunishga yordam beradi. Avlodlar farqining ta'sirini ham hisobga olish foydalidir.

Turli mamlakatlardagi yosh avlodlar global madaniyatning ta'siri tufayli ko'proq o'xshash qarashlarga ega bo'lishi mumkin.

Nihoyat, ushbu masalani qo'shimcha o'rganishda alohida tarmoqlar va mahsulot turlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Misol uchun, oziq-ovqat, mahsulot yoki farmatsevtika sanoatidagi madaniy imtiyozlar bir qator xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Andrews J.C., Shimp T.A., Engle R.W. Effects of theme appropriateness and product type on recall and evaluation of print advertisements. *Journal of Advertising*. 2019.
2. Chen J., Whetstone L., Zhou Y. Cross-cultural comparison of self-disclosure on social media between Chinese and Americans // *China Media Research*. 2019.
3. Craig C.S., Douglas S.P. *International marketing research*. Wiley, 2000.
4. Hafizov A. A. Linguocultural features of marketing discourse, *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2023, pp. 732-736.
5. Hafizov A. A. A need analysis for curriculum design of business English class, *Journal of Advanced scientific research*, 2023, pp. 129-136.
6. Hall E.T. *Beyond culture*. Anchor books, 1977.
7. Hofstede G. *Cultures and organizations*. McGraw-Hill, 1991.
8. Levitt T. The globalization of markets. // *Harvard Business Review*. 1983.
9. McQuail D. *Mass communication theory*. Sage Publications, 2010.
10. Polonsky M.J., Vocino A., Grau S.L. Drivers and barriers to signing up for a standard electricity tariff: A cross-cultural analysis of Polish and Spanish consumers. *Journal of Cleaner Production*. 2016.
11. Singh N., Matsuo H. Measuring cultural adaptation on the Web: a content analytic study of U.S. and Japanese Web sites. // *Journal of Business Research*. 2004.
12. Trompenaars F., Hampden-Turner C. *Riding the waves of culture*. Nicholas Brealey Publishing, 2011.
13. Truhan S., Fasso W. Cultural sensitivity in Facebook advertising of luxury goods in Russia and Spain. *Journal of Global Marketing*. 2017.
14. Zhang Y., Neelankavil J.P., Oh H. Comparison of visual elements in print advertisement: USA vs. China. *Marketing Management Journal*. 2016.
15. Zheng J., Kuo Y., Zhou Y. Cultural factors influencing mobile advertising acceptance: A comparison between Chinese and Americans. *Computers in Human Behavior*. 2018.

**WATER: A UNIVERSAL SYMBOL OF LIFE, RENEWAL, AND
CULTURAL SIGNIFICANCE.
WHY IS WATER CONSIDERED SACRED ACROSS CULTURES?**

Dilrabo Bahronova

doctor of philological sciences,

Professor of Uzbek State University of World Languages, Tashkent

Khurshid Mukhtarov

Researcher at the Uzbek State University of World Languages, Tashkent

ABSTRACT

This particular article explores the essence of water, what water represents in diverse cultures across the globe and what role this vital substance plays in different cultural traditions. In addition, there will be given proverbs in Russian and English languages and what their meanings are.

Key words: *water, cultures, symbol, mythology, proverbs, civilization, vital, tradition, folklore.*

АННОТАЦИЯ

В этой конкретной статье исследуется сущность воды, что представляет собой вода в различных культурах по всему миру и какую роль это жизненно важное вещество играет в различных культурных традициях. Кроме того, будут приведены пословицы на русском и английском языках и их значения.

Ключевые слова: *вода, культуры, символ, мифология, пословицы, цивилизация, витал, традиция, фольклор.*

INTRODUCTION

Since the dawn of time water has been and continues to be a source of sustenance and fundamental element for life on Earth. Water has strong symbolic implications in many different civilizations across the world.

